

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

OTANAZAROVA MOHIRAHON HAMIDBEKOVNA

TARBIYAVIY ISHLAR METODIKASI

(O‘quv qo‘llanma)

*Pedagogika yo‘nalishidagi oliy ta’lim muassasalarining 60110500-
boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalariga mo‘ljallangan*

**“Durdona” nashriyoti
Buxoro – 2025**

UO‘K 37.091.214(072)

74.00ya7

O-86

Otanazarova, M.H.

Tarbiyaviy ishlar metodikasi [Matn] : metodik qo‘llanma / M.H. Otanazarova

.-Buxoro: Sadridin Salim Buxoriy, 2025.- 300 b.

KBK 74.00ya7

Ushbu o‘quv qo‘llanma 60110500–boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi talabalariga mo‘ljallangan bo‘lib, unda tarbiyaviy ishlar metodikasi fanining predmeti, maqsad va vazifalari, prinsiplari, ta‘lim metodlarining tasnifi, mutaxassislik fanini o‘qitish jarayonida zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalardan foydalanishning o‘ziga xos xususiyatlari o‘z ifodasini topgan.

Mas’ul muharrir:

A.R.Hamroyev – pedagogika
fanlari doktori (DSc), professor

Taqrizchilar:

N.B.Adizova – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

M.S.Ashurova - pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

O‘quv qo‘llanma O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 11-noyabrdagi 429-sonli buyrug‘iga asosan nashr etishga ruxsat berilgan.

Ro‘yxatga olish raqami 429-579.

ISBN 978-9910-10-263-9

SO‘ZBOSHI

Tarbiyaviy ishlar metodikasi fani mazmuni umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘qituvchining sinf rahbari sifatida faoliyatini tashkil etish, sinf va sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish metodikasi masalalarini qamrab oladi. Shuningdek, bugungi kunda tarbiyaviy jarayonlarni tashkil etish bilan bog‘liq muammolarini hal etishga, yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashga, ularni mustaqil fikrlashga, axborot oqimlarini tahlil qilishga, ommaviy madaniyat ta’siridan himoyalaniishga tayyorlashga qaratilishi lozim. Ayniqsa, bugungi globallashuv sharoitida yoshlarda mustahkam g‘oyaviy immunitetni shakllantirish, ularni turli tahdid va yot g‘oyalardan asrash tarbiyaviy faoliyatning ustuvor yo‘nalishiga aylanmoqda. Ayniqsa, har bir o‘quvchi bilan individual ishlash, uning psixologik holati va ijtimoiy muhitdagi o‘rni, oilaviy sharoiti, ichki dunyosi va qiziqishlarini hisobga olish orqali sinf jamoasida sog‘lom muhitni ta’minlash mumkin. Bu esa, tarbiyaviy jarayonning samaradorligini yanada oshiradi. Bugungi kunda ta’lim va tarbiya tizimi nafaqat bilim berish, balki har tomonlama yetuk, vatanparvar, ma’naviy pok, zamonaviy tafakkur egasi bo‘lgan barkamol avlodni voyaga yetkazishdek yuksak maqsadni o‘z oldiga qo‘ymoqda. Vatanparvarlik, mehnatsevarlik, fidoyilik, halollik, milliy qadriyatlarga hurmat kabi fazilatlar yoshlarning qalbida shakllanishi uchun ta’lim muassasalarida olib borilayotgan tarbiyaviy ishlar chuqur ilmiy-metodik asosga ega bo‘lishi, zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan boyitilishi zarur.

“Milliy tarbiya konsepsiyasi”da qayd etilganidek, maktab yoshlar ongida jamiyatga munosabat, hayotga qarash, Vatanga sadoqat, ma’naviy qadriyatlar kabi muhim tushunchalarni shakllantirishda hal qiluvchi o‘rin tutadi. Bu yerda o‘quvchilar ilmiy-texnik taraqqiyot talablariga mos zamonaviy bilimlarni egallaydilar, ularning dunyoqarashi kengayadi, g‘oyaviy e’tiqodlari va irodaviy sifatleri rivojlanadi. Natijada ular xalq farovonligi, jamiyat taraqqiyoti yo‘lida sidqidildan mehnat qilishga tayyor bo‘lgan yetuk shaxs sifatida shakllanadilar.

Qo‘llanma O‘zbekiston Respublikasi ta’lim siyosatining ustuvor yo‘nalishlari, jumladan, “Yangi O‘zbekiston” taraqqiyot strategiyasi,

“Ma’naviyatni yuksaltirish va ma’rifat targ‘iboti samaradorligini oshirish” konsepsiyasi asosida yaratilgan bo‘lib, talabalarda kasbiy tayyorgarlik, ijtimoiy faollik, fuqarolik pozitsiyasi va ma’naviy barkamollikni shakllantirishga xizmat qiladi. Yosh avlodni har tomonlama rivojlangan, mustaqil fikrlovchi, Vatanga sadoqatli, yuksak ma’naviyatli shaxs sifatida tarbiyalash – bugungi kunning dolzarb vazifasi sanaladi. Har qanday davlatning taraqqiyoti, avvalo, uning fuqarolari, ayniqsa yoshlarining bilim darajasi, ma’naviy-ma’rifiy saviyasi va fuqarolik pozitsiyasi bilan chambarchas bog‘liq. Shu jihatdan qaraganda, ta’lim muassasalari, xususan, maktablar nafaqat ta’lim beruvchi, balki tarbiya beruvchi markaz sifatida muhim ijtimoiy institut hisoblanadi.

Tarbiyaviy faoliyat — mustaqil pedagogik jarayon bo‘lib, u o‘zining aniq maqsadi, mazmuni, shakl va uslublariga ega. U o‘quv jarayonidan ajralmagan holda, balki unga uyg‘unlashgan tarzda olib borilishi zarur. Tarbiya ta’lim bilan uyg‘un holda amalga oshirilganida, nafaqat bilimga ega bo‘lgan, balki ma’naviy barkamol, madaniyatli, ijtimoiy faol shaxsni shakllantirish imkoniyati ortadi. Shu ma’noda, sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar alohida e’tiborni talab qiladi. Bu faoliyat turlari o‘quvchilarda o‘z qobiliyat va iste’dodlarini ro‘yobga chiqarish, ijtimoiy foydali mehnatga bo‘lgan munosabatni shakllantirish, kasb tanlashga tayyorgarlik ko‘rish, mustaqil fikrlash, axloqiy mezonlar asosida yashash kabi fazilatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shu boisdan, mazkur o‘quv qo‘llanmada tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish, tahlil qilish va samaradorligini oshirish bo‘yicha ilg‘or uslublar, interaktiv metodlar, keyslar va mustaqil o‘quv topshiriqlari keltirilgan. Bu esa, talabalarining nazariy bilimlarini mustahkamlash, amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish va tarbiyaviy jarayonlarni to‘g‘ri tashkil etish bo‘yicha kompetensiyalarini shakllantirishga ko‘maklashadi.

Ushbu o‘quv qo‘llanmadan 60110500-boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalari, shu mutaxassislik magistrleri va boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari foydalanishlari mumkin.

I MODUL. TARBIYAVIY ISHLAR METODIKASI ILMIY ASOSLARI.

1-mavzu. Tarbiyaviy ishlar metodikasi fanining maqsad va vazifalari.

Reja:

- 1.Tarbiya fanining maqsad va vazifalari.
- 2.Tarbiya fanining boshqa ijtimoiy fanlar bilan aloqasi.
- 3.Tarbiya haqida tushuncha.
- 4.Tarbiyaviy ishlarning metodologik asoslari: aqliy tarbiya, iqtisodiy tarbiya, ekologik tarbiya, fuqarolik tarbiya, huquqiy tarbiya, axloqiy tarbiya, mehnat tarbiyasi, jismoniy tarbiya, nafosat tarbiyasi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mavlonova R., Raxmonqulova N., Normurodova B. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. -T.: Tib-kitob, 2010 y.
2. Ishmuhammedov R., Abduqodir A., Pardayev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar. -T.: Fan va texnologiya, 2010 y.
3. И.А.Олесникова, Н.М.Борытко и др. Воспитательная деятельность педагога. Учебное пособия. М.:Академия, 2006-333 с.
4. Подласый И.П. Педагогика 2-я част -М.: ВЛАДОС, 2003 г.
5. Mirziyoyev Shavkat Miromonovich. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga ko‘ramiz. Mazkur kitobdagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2016-yil 1-noyabrdan 24-noyabrga qadar Qoraqolpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent sharxi saylovchilari vakillari bilan o‘tkazilgan saylovoldi uchrashuvlarida so‘zlagan nutqlari o‘rin olgan. / Sh.M.Mirziyoyev.- Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017.- 488 b.
6. Mirziyoyev.Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi-Toshkent,2021.-458 b.
7. www.pedagog.uz
8. <http://www.allmath.ru/>

Tayanch tushunchalar. Tarbiya, jamiyat, inson kamoloti, ehtiyoj, talab, tarbiya vazifasi, tarbiya maqsadi, metodologik asos, tarbiyachi, sharq allomalari fikrlari.

1.Tarbiya fanining maqsad va vazifalari.

Tarbiya — shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma'naviy sifatlarni shakllan-tirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon; insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo'lgan xususiyatlarga ega bo'lishini ta'minlash yo'lida ko'riladigan chora tadbirlar yig'indisi. Tarbiya insonning insonligini ta'minlaydigan eng qadimiy va abadiy qadriyat hisoblanadi. Tarbiyasiz alohida odam ham, kishilik jamiyati ham mavjud bo'la olmaydi. Chunki odam va jamiyatning mavjudligini ta'minlaydigan qadriyatlar tarbiya tufayligina bir avloddan boshqa avlodga o'tadi.

Pedagogik adabiyotlarda "Tarbiya" atamasi keng va tor ma'nolarda ishlatiladi. Keng ma'noda "Tarbiya inson shaxsini shakllantirishga, uning jamiyat ishlab chiqarishi va ijtimoiy, madaniy, ma'rifiy hayotida faol ishtirokini ta'minlashga qaratilgan barcha ta'sirlar, tadbirlar, harakatlar, intilishlar yig'indisini" anglatadi. Bunday tushunishda tarbiya faqat oila, maktab, bolalar va yoshlar tashkilotlarida olib boriladigan tarbiyaviy ishlarni emas, balki butun ijtimoiy tizim uning yetakchi g'oyalari, adabiyot, san'at, kino, radio, televideniye, ijtimoiy tarmoqlar (facebook, telegram, instagram)ni ham o'z ichiga oladi.

Tor ma'noda "Tarbiya shaxsning jismoniy rivoji, dunyoqarashi, ma'naviy-axloqiy qiyofasi, estetik didining o'stirilishiga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatni" anglatadi. Buni amalga oshirish mexanizmi sifatida oila, tarbiyaviy muassasalar hamda jamoat tashkilotlarini ko'rsatish mumkin.

Tarbiya har qanday jamiyat va har qanday mamlakat hayotida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Yosh avlodning, umuman, jamiyat a'zolarining tarbiyasi bilan yetarlicha shug'ullanmagan mamlakat turg'unlik va inqirozga mahkumdur. Negaki, o'sishi va rivojlanishi uchun har qanday jamiyatda ham moddiy va ma'naviy boyliklar ishlab chiqarish to'xtovsiz ravishda yuksalib borishi lozim. Buning uchun yosh avlod moddiy va ma'naviy boyliklar yetishtirishni ajdodlari darajasida, ulardan ham yaxshiroq ishlab chiqara bilishlari kerak. Yosh avlodda ana shunday moddiy va ma'naviy qobiliyatlarni shakllantira

bilish uchun esa jamiyat uzluksiz ravishda samarali faoliyat ko'rsatadigan tarbiyaviy intizomlar tizimiga ega bo'lishi lozim.

Tarbiya jamiyat taraqqiyotining turli davrlarida turlicha izohlab kelingan. Sho'ro zamonida hukmron kommunistik mafkura tarbiyaga sinfiy va partiyaviy hodisa sifatida yondashishni talab etgan. Shuning uchun ham sinfiy jamiyatda tarbiya faqat sinfiy xususiyatga ega bo'ladi va turli sinflarning tarbiyasi bir-biriga qarama-qarshi turadi degan qarash qaror topgan. Holbuki, dunyo ilmi, ayniqsa, Sharq tarbiyashunosligi va o'zbek xalq pedagogikasi tajribasi tarbiyaning sinfiy ko'rinishga ega emasligini isbot etdi. Shuningdek, kommunistik mafkura ta'ziqu tufayli tarbiyada ijtimoiy muassasalarning o'rniga ortiqcha baho berildi, bu jarayonda irsiy va biologik xususiyatlar deyarli xisobga olinmadi.

Sho'rolar davrida tarbiya orqali har qanday odamni istagan ijtimoiy qiyofaga solish mumkin degan qarash hukmron bo'lganligi sababli ham uning shaxsni shakllantirishdagi o'rniga oshiqcha baho berildi. Tarbiyalanuvchi shaxsining tarbiyaga berilish yoki berilmaslik xususiyatlarining hisobga olinmasligi tarbiyaviy tadbirlarga mahliyo bo'lishdek pedagogik xatolikka olib keldi. Buning natijasida tarbiya maqsadsiz bo'lib qoldi, tarbiyalanuvchilarga alohida shaxs sifatida emas, istalgan ijtimoiy yo'nalishga solinishi mumkin bo'lgan qiyofasiz to'da, olomon tarzida qarash qaror topdi, Bu hol tarbiyaning samarasizligiga olib keldi. Chunki tarbiyaning asosiy obyekti bo'lmish shaxs va uning o'ziga xoslik jihatlari unutilgan edi. Sho'ro pedagogik tizimidagi kamchiliklarning ildizi, asosan, mana shu yondashuv tarziga borib taqaladi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, tarbiya va unga bog'liq jarayonlarga yangi hamda sog'lom pedagogik tafakkurga tayangan holda yondashuv qaror topa boshladi. Uni izohlashda g'ayriilmiy sinfiy-partiyaviy yondashuvdan voz kechildi. Tarbiyaning milliyligiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Buning uchun xalq pedagogikasi boyliklari, o'zbek mutafakkirlarining pedagogik qarashlari sinchkovlik bilan o'rganilayapti. Natijada, O'zbekiston pedagogikasi fani va amaliyotida oila tarbiyasining ham, ijtimoiy tarbiyaning ham o'ziga xos o'rnini borligi tan olinib boshlandi. Shuningdek, tarbiyada irsiy va biologik omillar ham hisobga olinadigan bo'ldi. Ayni vaqtda, shaxsning shakllanishida tarbiyaning o'rniga keragidan ortiq baho berish ham

barham topdi. Bu hol tarbiyaga doir hodisa va holatlarni to'g'ri izohlash, tarbiyaviy tadbirlar tizimini to'g'ri tayin etish imkonini berdi.

Tarbiya fanini o'qitishdan maqsad- insoniyatning ming yillik tarixi, ota-bobolarimizning necha-necha yillar mobaynida, ajdodlar tarbiyasiga suyangan holda kelajagimiz bo'lgan yoshlarga ma'naviy-axloqiy meros sifatida o'rgatilib kelinmoqda.

Fanning maqsadi- tarbiya muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama o'stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayonidir.

Yosh avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda xalqning boy milliy ma'naviy-tarixiy an'analarga, urf-odatlariga hamda umumbashariy kadriyatlarga asoslangan samarali tashkiliy, pedagogik vositalarni ishlab chiqib amalga joriy etishdir.

Fanning vazifasi- shaxsni aqliy, axloqiy, erkin fikrlovchi va jismoniy rivojlanishi, uning qobiliyatlarini har tomonlama ochish uchun imkoniyat yaratishdir.

O'quvchilarga tarbiya berish ta'lim berish bilan birgalikda olib boriladi. Ammo tarbiyaning o'z vazifasi, mazmuni, uslubi hamda shakli bor. O'quv tarbiyaviy jarayonning uzviyligi maktab oldiga qo'yilgan eng muhim pedagogic qoidalardan biri hisoblanadi, shuning uchun ham sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar bevosita o'quv jarayoni bilan bog'likligini, darsdan tashqari mashg'ulotlar o'tkazilishida o'quvchilarning qobiliyat va iste'dodlarini ro'yobga chiqarishga imkoniyat yaratish, har bir o'quvchi bilan yakkama-yakka ishlash, uni ijtimoiy- ruhiy jihatdan o'rganish yoshlarning g'oyaviy-siyosiy ongini shakllantirish, ularda atrof-muhitga jamiyatga ongli munosabatda bo'lish, jonajon Vatanni cheksiz sadoqat bilan sevishtirish, xalqimizning milliy qadriyatlarini e'zozlash xissini tarkib toptirish-vatandashlik tarbiyasini shakllantirish bilan o'zaro muomalasini o'rganish, tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etish, uning sifati va samaradorligini oshirishda yangicha ishlashning metodi, vositalari va shakllaridan foydalanishga amaliyotlarda qo'llashni tashkil etish.

Tarbiya ham ota-onalarning burchi va farzandlarning haqqidir. "Tarbiya" so'zi arabcha "robba" fe'lidan olingan bo'lib, o'stirdi, ziyoda qildi, rioyasiga oldi, rahbarlik qildi va isloh qildi ma'nolarini bildiradi. Musulmon ulamolar "tarbiya"ni bir necha xil ta'rif qilganlar. Jumladan, imom Bayzoviy quyidagicha ta'riflaydi: "Tarbiya bir narsani asta-sekin kamolga yetkazishdir". Rog'ib Asfihoniy tarbiyani quyidagicha ta'rif

qiladi: “Tarbiya bir narsani bir holdan ikkinchi holga o‘tkaza borib, batamomlik nuqtasiga etkazishdir. Tarbiyaning ma’nolaridan biri, insonning diniy, fikriy va axloqiy quvvatlarini uyg‘unlik hamda muvozanat ila o‘stirishdir”. Islomda bolalar tarbiyasi ota-onaning eng mas’uliyatli va uzoq davom etadigan burchlaridir. Boshqa burchlar ba’zi ishlarni qilish yoki mulkni sarflash bilan oxiriga etadi. Ammo tarbiya mas’uliyati bardavom bo‘ladi. Odob masalasini insoniyat tarixida to‘laqonli ravishda Islom boshlagan, desak mubolag‘a qilmagan bo‘lamiz. Islomda kishining hayotidagi har bir narsaning o‘z odobi bor. Qadimda Sharq mutafakkirlari tomonidan ilgari surilgan qarashlar hamda g‘oyalar bugungi kunda ham muhim ta’lim-tarbiyaviy manba sifatida yoshlar ongi va qalbiga ma’naviy ozuqa berib kelmoqda.

Forobiy pedagogik qarashlarini, ta’lim-tarbiya haqidagi ta’limotini o‘rganishda inson xislatlari to‘g‘risidagi falsafiy fikrlari nihoyat muhim ahamiyat kasb etadi. Forobiy o‘zining falsafiy qarashlarida odamning tuzilishini, ruhiyatini, madaniy va ma’naviy olamini o‘rganishga ahamiyat beradi. Uning ta’limotida, inson barcha boshqa jismlarda bo‘lmagan qobiliyat va kuchga, ruhiy quvvatga, aql va so‘zlash qobiliyatiga egaligi bu kuch uni tabiatdagi boshqa jismlardan ajratib turishi va uning ustidan hokim bo‘lish imkoniyatini berganligi namoyon bo‘ladi. Forobiy bu dunyoqarashida narsa-hodisalarni bilish, inson aqlini bilim bilan boyitish uni ilmi, ma’rifatli qilish uchun xizmat qiluvchi ruhiy jarayonlarga alohida e’tibor beradi. U o‘zining “Baxt-saodatga erishuv haqida”, “Fanlarning tasnifi”, “Falsafani o‘rganishdan oldin nimani bilish kerakligi to‘grisida”, “Ilmlar va san’atlar fazilati” kabi ko‘plab risolalarida insonning ma’naviy rivojlanishi ilm-ma’rifatga bog‘liqligini ta’kidlaydi.

Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarida aqliy, axloqiy, mehnat, jismoniy va nafosat tarbiyasiga doir fikrlari katta tarbiyaviy ahamiyatga egadir. U insonni ulug‘laydi. Uning fikricha, insonning ulug‘ligi aql-idroki, so‘zlash qobiliyati, bilimi, uquvi, hunarga egaligidadir. Yusuf Xos Hojib ta’lim va tarbiyaning uzviy bog‘liq holda bo‘lishini tavsiya etadi, o‘g‘il bolalarning bir necha san’at turlarini va hunarlarni tugal o‘rganmog‘i lozimligini ta’kidlaydi. Bu, ularning kelajak hayotlari, jamiyat rivoji uchun zarurligini aytadi.

Kaykovusning “Qobusnoma” asari XI asrda yuzaga kelgan yirik tarbiyaviy asardir. XI asrning 82-83 yillarida G‘arbiy Eron podshohining nabirasi Kaykovus ibn Iskandar o‘z o‘g‘li Gilonshohga

bag‘ishlab “Nasihatnoma”sini yaratadi va o‘sha davr an‘anasiga ko‘ra uni bobosi podshoh Shamsul-maoliy Qobus sharafiga “Qobusnoma” deb ataydi. Kaykovusning “Qobusnoma” asari qirq to‘rt bobdan iborat. Bular, Parvardigori olamni tanimoq zikrida, Payg‘ambarlarning xilqati zikrida, Ota-ona xaqini bilmak zikrida, Hunar afzunligi, Baland qadr va oliy ta‘b bo‘lmoq bayoni zikrida, Suxandonlik bilan baland martabali bo‘lmoq zikrida, Qarilik va yigitlik sifati zikrida, Sharob ichmak zikrida, Farzand parvarish qilmoq zikrida, Do‘st tutmoq zikrida, Ilm talabi va qozigarlik zikrida, Tib ilmi rasmi zikrida, Javonmardlik zikrida. Kaykovusning “Qobusnoma” asari o‘z davri uchun ayniqsa, katta ahamiyatga ega bo‘lib, insonparvarlik g‘oyalari bilan sug‘orilgan. Kaykovus bilim va aqlning ahamiyatini ulug‘lar ekan, uni moldunyodan ham yuqori qo‘yadi: “Agar molsizlikdan qashshoq bo‘lsang, aqldan boy bo‘lmoqqa sa’y ko‘rguzgilki, mol bilan boy bo‘lg‘ondan, aql bilan boy bo‘lgon yaxshirokdur, nedinkim, aql bilan mol jam etsa bular ammo mol bilan akl urganib bulmas. Bilgil, akl bir moldurki, uni ugri olmas, u utda yonmas, suvga oqmas” - deb ta‘riflar ekan, inson adabi xam aqlning belgisi (“al –adab-suratil aql”) deya xulosa chiqaradi. Javonmardlikni asosini Kaykovus uch narsada deb biladi:

- 1) aytgan so‘zning ustidan chiqish, ya’ni rostlik;
- 2) rostlikka xilof qilmaslik;
- 3) insonparvarlik, xayr ishini ilgari tutish.

Kitobda juvonmardlar egallashi zarur bo‘lgan quyidagi yunalishlarda ta‘lim-tarbiya berish nazarda tutilgan:

1. Bilim olish haqida.
2. Hunar va turli kasb egalari haqida.
3. Turmush va xulq-odob qoidalari haqida.
4. Jismoniy yetuklik haqida.

Kaykovusning katta xizmati shundaki, u yoshlarni hayotga tayyorlashda ularni har tomonlama kamolga etkazishning nazariy masalalarini amaliy faoliyatga tatbiqi nuqtai nazaridan ifodalashi bilan hamma zamonlarda, har qanday tuzumda ham o‘z qimmatini yo‘qotmadi va amaliy hayot dasturi sifatida o‘z o‘rniga ega bo‘ldi.

Sharq mutafakkirlari va allomalari o‘z asarlarida insonning bilim olishi, hunar egallashi, undagi yuksak ma‘naviy-ahloqiy sifatlarni ulug‘laydilar va shunday fazilatlariga ega bo‘lishga barchani chorlaydilar. Ma‘naviy yuksak, zamonaviy ilm-fanni egallagan, ajdodlarimizning boy ma‘naviy merosga sohib chiqqan avlodni hech

qanday tashqi kuch, g'oya yoki mafkura aslo o'z ta'siriga tushira olmaydi. Bunday avlodni voyaga etkazgan xalqning istiqboli porloq, kelajagi buyuk bo'ladi. Shu boisdan, ham doimo ta'lim tarbiyaga e'tibor kuchli bo'lgan. Buni „Uzliksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi” misolida ham ko'rib o'tishimiz mumkin.

2.Tarbiya fanining boshqa ijtimoiy fanlar bilan aloqasi.

Tarbiyaviy ishlar metodikasi fani quyidagi fanlar bilan aloqador.

- Tarbiyaviy ishlar metodikasi
- Psixologiya
- Pedagogika
- Etika
- Estetika
- Falsafa
- Ma'naviyat asoslari
- Madaniyatshunoslik
- Sotsiologiya
- Antomiya

Falsafa o'quvchi-yoshlar axloqiy-ma'naviy fazilatlarini rivojlanishi jarayonini dialektik xususiyatlari, tarbiyaviy ta'sirlarni bilish va tadqiq qilishning asosi hisoblanib, dunyoqarash va tafakkurni shakllantirish vazifasini bajaradi. Tarbiya nazariyasi, metodikasi va amaliyoti sohasidagi muammolarining metodologik, pedagogik, psixologik asoslarini o'rganish va ilmiy-metodik tavsiyalar, ko'rsatmalar ishlab chiqishda falsafiy ma'lumotlar yordam beradi.

Psixologiya tarbiya fanining shaxs shakllanishidagi ruhiyindividual jihatlarini tadqiq qilishda muhim o'rin tutadi. Psixologik bilimlar tarbiya sohasidagi muammolarni samarali hal etish imkonini beradi. Chunki, insonning bilish jarayonlari, individual-tipologik xususiyatlari, hissiy-irodaviy sifatlari haqidagi bilimlar tarbiya jarayonning muayyan yo'nalishlarini, tarbiyaviy faoliyatning metodlari, usullari, vositalarini aniq yo'lga qo'yishning muhim omili hisoblanadi. «Tarbiya» fani o'z mazmunini takomillashtirishda pedagogika fanining ma'lumotlariga ehtiyoj sezadi. Darhaqiqat, tarbiyaning, tarbiya jarayonining mohiyati, qonunniyatlarini, prinsiplari umumiy pedagogik bilimlarga tayanib, amalga oshirilgan taqdirda o'z maqsadiga erisha oladi. Shu nuqtayi nazardan «Tarbiya» fani «Pedagogika» fani bilan aloqadorlikda, bog'lanishda bo'ladi. «Tarbiya» fani o'quvchi-yoshlarda ma'naviy axloqiy fazilatlarni

shakllantirishning muhim manbai hisoblanganligi sababli, u «Axloqshunoslik» («etika») fani bilan aloqadorlikda bo‘ladi Binobarin, «Etika» fani o‘quvchi-yoshlarning axloqiy madaniyatini, ma’naviyatini rivojlantirish, ularda yuksak insoniy sifatlar axloqiy ong, axloqiy taffakur, axloqiy his-tuyg‘u kabilarni tarkib toptirishda muhim o‘rin tutuvchi nazariy g‘oyalarni tarbiya jarayoniga tatbiq etishda muhim ahamiyat kasb etadi. «Tarbiya» fani o‘quvchi-yoshlarni tabiatdagi, jamiyatdagi, shaxsiy hayotda munosabatlarni go‘zallik qonuniyatlari asosida idrok qilishga yo‘naltiradi. Bunda «Estetika» fani mazmunidagi ma’lumotlar muhim rol o‘ynaydi. Zero, «Estetika» shaxs tomonidan voqelikdagi go‘zallikni his etilishi, go‘zallikni qabul qilishga, uni yaratishga intilishi va shular asosida har bir insonda estetik didni tarbiyalashni nazarda tushadi. Shu o‘rinda aytish joizki, go‘zallikni his qilgan, idrok qilgan, uni yaratishga intilgan inson go‘zal, odob axloqli insondir.

«Siyosatshunoslik» fani jamiyat siyosiy hayotiy qonuniyatlarini o‘rganish orqali vatanparvarlik, axloqiy, estetik tarbiyaning pedagogik xususiyatlarini muhokama qilishga yordam beradi.

«Huquqshunoslik» Yangi O‘zbekiston barpo etish, rivojlantirish, adolatli fuqarolik jamiyatini shallantirish sharoitida yosh avlodning huquqiy ongi, huquqiy bilimdonligi, huquqiy madaniyatini hosil qilish ham o‘stirish, Konstitutsiya va qonun ustuvorligini ta’minlovchi huquqiy tizim to‘g‘risida tasavvurlarini tarkib toptirishni nazarda tutuvchi fan. «Tarbiya» fani o‘z mazmunidagi mavzular yordamida o‘quvchi-yoshlarda huquqiy me’yorlar, insonning haq-huquqlari va boshqa qonunlar to‘g‘risida bilim berib, ularda qonunlar axloqiyhuquqiy me’yorlarga qat’iy va og‘ishmay amal qilish, huquqiy qonunlarni hurmat qilish, e’tirof etish, huquqiy munosabatlar jarayonidagi faol ishtirokni tashkil etishga yo‘naltirilgan faoliyatni tarbiyalashdan iborat bo‘ladi.

Tarbiya va uning tarkibiy qismlariga oid fikirlar-taraqqiyotini tarix va madaniyatshunoslikka oid bilimlarsiz tasavvur qilish mushkul. Tarbiya fani mazmunidagi ma’lumotlarni o‘quvchilarga aniq qilib yetkazishda tarix fanidagi ma’lumotlarga fikrlarga nazar tashlash, ulardagi tarbiyaviy g‘oyalar, ta’limotlar, qarashlar mazmunini o‘rganish hozirgi davr tarbiya nazariyasi va «Tarbiya» fani uchun nihoyatda muhim. Ayni paytda madaniyatshunoslik o‘quvchilarda insoniyat tomonidan yaratilgan ma’naviy madaniyat haqidagi

tasavvurni shakllantirish, ularda zamonaviy madaniyat yutuqlaridan foydalanish ko'nikmalarini hosil qilish uchun xizmat qiladi.

Tarbiya fani "Pedagogik texnologiya", "Pedagogik mahorat" fanlari bilan ham uzviy bog'langan. Bu fanlar "Tarbiya" fanini o'qitishni zamonaviy ta'lim texnologiyalari asosida tashkil etish, "Tarbiya" fani o'qituvchisining tarbiyachi sifatidagi mahoratini oshirishga yordam berish bilan birga, pedagogik texnika, pedagogik muomala, pedagogik nazokat haqidagi ma'lumotlar bilan o'qituvchini tanishtirib, uning kasbiy kompetenligini rivojlantirishga yordam beradi. Qayd etilgan fanlar "Tarbiya" fanining mazmundorligini oshirish bilan birga, uni o'qimishli, jamiyat va inson takomili uchun qimmatli foydali fanga aylanishida muhim ijtimoiy pedagogik ahamiyat kasb etadi.

O'quvchilarni to'g'ri tarbiyalash, ularga talim berish jarayonida ular organizmining rivojlanish bosqichlariga etiborni qaratish tarbiya tizimining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Tarbiya fani - biologik fanlar bilan uzviy bog'liq. Zero, fiziologiya, anatomiya, gigiyena fanlarida ma'lumotlar, ayniqsa, oliy asab faoliyati fiziologiya fanida birinchi va ikkinchi signallar tizimi, qo'zg'alish va tormozlanish jarayonimiya faoliyati, bolalarni ruhan milliy fazilatlarni qabul qilishga tayyorlash uchun ahamiyatlidir Oliy nerv faoliyati qonunlari, sezgi organlari va ularning funksiyalarini bilish, yoshlarning mukammal shaxs sifatida shakllanishi va rivojlanishi uchun katta imkoniyatlar yaratadi.

Chunki o'quvchi organizmining rivojlanishini bilmasdan unga tasir korsatib bolmaydi. Anatomiya, fiziologiya fanlari odam organizmi, uning rivojlanishi, tuzilishini o'rgatuvchi fan hisoblanadi. Shuning uchun ham Tarbiya fani anatomiya, fiziologiya fanlari bilan chambarchas bog'liq ish ko'radi. Har qanday Tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishda o'quvchilarning gigiyenik qoidalariga asosan tashkil etishda yaratilgan shart-sharoitlar muhim ro'l o'ynaydi. Korinib turibdiki, Tarbiyaviy ishlar metodikasi fani gigiyena fani bilan ham bog'langan. Tarbiya jarayonida o'quvchilarning ahloqiy sifatlari tarkib toptirish muhim masalalardan biri hisoblanadi. Axloq normalarini o'quvchilar ongiga singdirish zarur. Axloq normalari va axloqshunoslik bilan etika fani shugullanadi. Shunday ekan, Tarbiya ishlar metodikasi fani etika bilan ham uzviy bog'liqdir.

3. Tarbiya haqida tushuncha.

Tarixdan ko'pgina allomalarimiz tarbiyaga katta ahamiyat berib jamiyatning asosiy vazifalaridan deb bilishgan. "Tarbiya biz uchun yo

hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir” A. Avloniyning ushbu soʻzlaridan ham tarbiya naqadar muhim ijtimoiy jarayon ekanligini bilib olishimiz mumkin.

Tarbiya — shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, maʼnaviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon; insonning jamiyatda yashashi uchun zarur boʻlgan xususiyatlarga ega boʻlishini taʼminlash yoʻlida koʻriladigan chora tadbirlar yigindisi. Tarbiya muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama oʻstirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayonidir. Turli zamon va makonda ijtimoiy tarbiya mohiyatan turlicha ifodalab kelingan boʻlib, uning mazmuni ijtimoiy maqsadlardan kelib chiqib asoslangan.

Tarbiya shaxsni shakllantirish omillaridan biridir. U shundan iboratki, kishilar turli vositalar bilan maʼlum bir maqsadga oʻz tarbiyalanuvchilarida maʼlum holatni hosil qilish va rivojlantirishni hoxlaydi. Tarbiya shaxsni shakllantirishning boshqa omillaridan sifat jihatdan shu bilan farq qiladiki, tarbiyachi oʻz oldiga ongli suratda maʼlum bir maqsad qoʻyadi va shu maqsadiga erishishi uchun intilib, uni amalga oshirish vositalarini topadi. Shunday qilib, tarbiya shaxsning muayyan yoʻnalishida shakllantirish maqsadi bilan turli odamlar bir-biriga taʼsir koʻrsatadigan ijtimoiy munosabatlardir. Tarbiya insonning insonligini taʼminlaydigan eng qadimiy va abadiy qadriyatdir.

Tarbiyaning negizini tashkil etadigan qonuniyatlarni bilish bugungi kunda odamlar bilan (yashaydigan) ishlaydigan har qanday mutaxassisning ishchanlik malakasini bildiradigan belgilaridan boʻlib qolmoqda.

Mashhur pedagog K.D.Ushinskiy “Tarbiya san'ati shunday xususiyatga egaki, deyarli barchaga tanish va tushunarli, baʼzilarga esa juda oson ish boʻlib tuyuladi – odam bu ish bilan nazariy va amaliy jihatdan qanchalik kam tanish boʻlsa, unga bu shunchalik tushunarli va oson boʻlib koʻrinadi. Deyarli hamma tarbiya sabr-toqatni talab etishni eʼtirof qilishadi, ayrimlar buning uchun tugʻma qobiliyat va malaka yaʼni koʻnikma kerak deb uylaydilar: lekin juda kam odam sabr-toqat tugʻma qobiliyat va malakadan tashqari yana maxsus bilimlar kerakligi haqida ishonch hosil qilishadi” – deb juda oʻrinli taʼrif bergan edi. Haqiqatan ham tarbiya jarayoni sabr-toqat, baʼzilar tugʻma qobiliyat, koʻnikma va malakadan tashqari maxsus bilimlar kerakligini koʻpchilik

bilishmaydi. Buning uchun oliygohda ana shu maxsus bilimlarni egalash nihoyatda muhimdir. “Insoni inson qilib yetishtiruvchi narsa tarbiyadir” – degan Demokrit.

Tarbiya hamma narsa tarbiyachining shaxsiga asoslanishi kerak. “Shaxsning rivojlanishi va shakllanishiga faqat shaxs ta'sir ko'rsata oladi, xarakterni faqat xarakter vositasi bilan vujudga keltirish mumkin” – degan edi Ushinskiy. Haqiqatni ham odam odamga qo'ygan maqsad asosida o'quvchilarga, yoshlarga o'z xakteri bilan, xarakterni shakllantiradi.

Shunday qilib, inson haqidagi fanlar tizimida pedagogikaning tutgan o'rnini shu bilan belgilanadiki, u shaxsni rivojlantirish, shakllantirish, tarbiyalash, ma'lumotli qilish va o'qitish qonuniyatlarini tadbiq qiladigan fan deb ta'riflash to'g'ri bo'ladi. Yuqorida asoslangan pedagogika fanining asosiy kategoriyalari o'zaro uzviy bog'liq holda olib borilib barkamol insonni shakllantiriradi. Demak, tarbiya jarayoni umuminsoniy miliy va har bir shaxsnining o'ziga xos qobiliyatlarini rivojlantiruvchi ijtimoiy jarayonlardir deb xulosa chiqarish mumkin.

4. Tarbiyaviy ishlarning metodologik asoslari: aqliy tarbiya, iqtisodiy tarbiya, ekologik tarbiya, fuqarolik tarbiya, huquqiy tarbiya, axloqiy tarbiya, mehnat tarbiyasi, jismoniy tarbiya, nafosat tarbiyasi.

Tarbiya ishlari bajarilish sharoitlariga qarab o'ziga xos ko'rinishlarda asoslanadi. Ular aqliy va jismoniy ko'rinishda bo'ladi:

Aqliy tarbiya. Shaxs dunyoqarashining shakllanishida aqliy tarbiya muhim o'rin tutadi. Aqliy tarbiya shaxsga tabiat va jamiyat taraqqiyoti to'g'risidagi bilimlarni berish, uning aqliy (bilish) qobiliyati, tafakkurini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat bo'lib, uni samarali yo'lga qo'yish asosida dunyoqarash shakllanadi.

Aqliy tarbiya o'quvchilarni ilm- fan, texnika, texnologiya hamda ishlab chiqarish sohalarida qo'lga kiritilayotgan yutuqlar bilan tanishtirish, ularda ijodiy, erkin, mustaqil fikrlash ko'nikmalarini hosil qilishga zamin yaratadi. Aqliy tarbiya jarayonida quyidagi vazifalar hal etiladi:

1. Tarbiyalanuvchilarga ilmiy bilimlarni berish.
2. Ularda ilmiy bilimlarni o'zlashtirishga nisbatan ongli munosabatni qaror toptirish.

3. Mavjud bilimlardan amaliyotda foydalanish ko‘nikma va malakalarini tarkib toptirish.

4. Bilimlarini doimiy ravishda boyitib borishga intilish tuyg‘usini shakllantirish.

5. Bilimlarni o‘zlashtirishga yordam beradigan psixologik qobiliyatlar (nutq, diqqat, xotira, tafakkur, ijodiy xayol) va xususiyatlar (aniq maqsadga intilish, qiziquvchanlik, kuzatuvchanlik, mustaqil fikrlash, ijodiy tafakkur yuritish, o‘z fikrini asoslash, mavjud ma’lumotlarni umumlashtirish, guruhlashtirish, mantiqiy xulosalar chiqarish va hokazolar)ni rivojlantirish.

Manbalarning ko‘rsatishicha, aqliy tafakkurning mavjud darajasini belgilash bir qadar murakkab bo‘lib, quyidagi belgilarga ko‘ra aniqlanishi mumkin:

1. Ilmiy bilimlar tizimining mavjudligi.

2. Mavjud ilmiy bilimlarni o‘zlashtirib olish jarayoni.

3. Fikrlash ko‘nikmasiga egalik.

4. Bilimlarni egallashga bo‘lgan qiziqish hamda ehtiyojning yuzaga kelganligi.

Aqliy tafakkur uzoq muddat hamda tinimsiz izlanish natijasida yuzaga keladi. Aqliy tarbiyani samarali tashkil etish shaxsda ilmiy tafakkurning yuzaga kelishini ta’minlaydi. Ilmiy tafakkur - inson aqliy faoliyatining yuksak shakli sanalib, ijtimoiy voqea-hodisalar, jarayonlarga nisbatan ilmiy yondashuvni anglatadi.

Iqtisodiy tarbiya. O‘zbekiston Respublikasida, bozor munosabatlari shiddat bilan bir vaqtda o‘quvchilarga iqtisodiy bilimlarni berish va ularda iqtisodiy faoliyatni yurita olish ko‘nikma, malakalarni shakllantirish o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiy tarbiya-o‘quvchilarga iqtisodiy bilimlarni berish, ularda iqtisodiy faoliyat (oila budjetini shakllantirish, oila xo‘jaligini yuritish, mavjud moddiy boyliklarni asrash, ko‘paytirish, savdo-sotiq munosabatlarini to‘g‘ri tashkil etish va hokazolar)ni tashkil etish ko‘nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat bo‘lib, ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismi sanaladi. Iqtisodiy tarbiya ta’lim muassasalarida yo‘lga qo‘yilayotgan iqtisodiy ta’lim bilan chambarchas holda olib boriladi. Iqtisodiy tarbiyani tashkil etishda oila, ta’lim muassasasi va jamoatchilik o‘rtasidagi mustahkam hamkorlikka tayanish ijobiy natijalarni kafolatlaydi. Iqtisodiy ta’lim va tarbiyaning asosiy maqsadi o‘quv mashg‘ulotlarini olib borishda o‘quvchi-yoshlar ongida

tejamkorlik, ishbilarmonlik, tadbirkorlik kabi iqtisodiy jihatlarni o'z ichiga oluvchi hislatlarga nisbatan ongli munosabatni shakllantirishdan iborat. Iqtisodiy tarbiyada tejamkorlik, tadbirkorlik, mehnatsevarlik, tashabbuskorlik, ishbilarmonlik, iqtisodiy hisob-kitob, oila budjeti va boylik kabi tushunchalarning muhim ahamiyati bor. Iqtisodiy tarbiyaning dastlabki bosqichlari uzoq tarixga ega. Ular kishilik jamiyati taraqqiyotiga mos ravishda takomillashib kelgan. Iqtisodiy tarbiyaga tegishli ma'lumotlarni ilohiy kitob – Qur'oni Karimda va muqaddas kitob-Hadisi sharif hamda "Avesto" bitiklarida ham topish mumkin. Iqtisodiy tarbiya Sharq mutafakkirlarining asarlarida ham bayon yetib kelingan. Jumladan, Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy asarlarida qozixonada meros va uni taqsimlash bo'yicha alohida xodim faoliyat ko'rsatishi qayd etilgan. Ular shubhasiz qozixonadagi iqtisodiy muammolar yechimlarini hal etish uchun jalb etilgan. Bu borada Forobiyning "Inson o'z mablag'ini sarflashni bilishi kerak. Pul sarflashda qizg'anchilik qilish xasislikka olib keladi. Pullarni rejasiz ishlatish esa insonni beboshlikka yetaklaydi", degan fikri o'rinlidir.

Ekologik tarbiya. Ekologiya tushunchasini ilk bor nemis zoologi E.Gekkel tomonidan 1866-yilda qo'llanilgan. Olim tirik organizmlarning atrof-muhit bilan munosabatlarini belgilash uchun shu atamani taklif etdi. Ekologik tarbiya ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ekologik tarbiya (grekcha "oikos" – uy, turar joy, makon, "logos" – fan) o'quvchilarga dastlabki ekologik bilimlarni berish, mavjud ekologik bilimlarini boyitish, ularda tabiat va atrof-muhit muhofazasini tashkil etish ko'nikma va malakalarini shakllantirishga qaratilgan pedagogik jarayondir. Ekologik tarbiyaga e'tibor yurtimizda oiladan, bog'chadanoq boshlab o'rgatilib borilgan. Hozirgi paytda umumta'lim maktablarida ham ekologik yo'nalishdagi sinflarning tashkil etilishi va shular asosida litsey va maktablarda ta'lim-tarbiya ishlarining olib borilishi – yoshlarga maktab partasidanoq tabiatga muhabbat ruhida tarbiya berishga astoydil kirishilganligidan dalolatdir. O'qituvchining o'quvchiga ekologik ta'lim va tarbiya berishda xalqimizning o'ziga xos milliy tarbiyasidan o'rinli foydalanishi yaxshi samara beradi. Milliy tarbiyamizda to'rt narsa yer, suv, olov, havo muqaddas hisoblangan. Xalqimiz juda qadim zamonlardan suvga e'tiqod qo'yib, yozning eng jazirama kunlarida "Suv sayli" o'tkazgan. Ota-bobolarimiz "Suv-tabiat in'omi, hayot manbayi", deb bejiz aytishmagan. Demak, o'quvchi-yoshlarga

ekologik tarbiya berishda milliy qadriyatlar, urf-odatlar, an'analar, marosimlar, nodir qo'lyozmalar va davlat arboblarning ushbu sohaga oid faoliyatlari mustahkam didaktik asos bo'lib, bular orqali ularni atrof-muhitni toza saqlashga, ozodalikka, pokizalikka va eng asosiysi sog'lom turmush tarzi hamda muhitini tashkil eta olishga o'rgatiladi. Jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan taraqqiyoti darajasi undagi xalq xo'jaligining turli jabhalariga ta'sir etadi. Bu borada o'ziga xos global va mintaqaviy ekologik muammolar ham yuzaga kelaveradi. Bunda global muammolarga Orol fojiasi, Chernobil halokati, Xirosima va Nagasaki shaharlaridagi bomba portlashlar hamda shu kabilar misol bo'la olsa, mintaqaviy muammolarga zavod va fabrikalardan chiqadigan zararli chiqindilar yoki ma'lum hududdagi tuproq eroziyasi, ba'zi kasalliklarning ko'payishi va shu kabilarni misol qilib olish mumkin.

Fuqarolik tarbiyasi. Fuqarolik tarbiyasi fuqarolik tushunchasining mohiyatini anglatish orqali o'quvchilarda yuksak darajadagi fuqarolik madaniyatini shakllantirish, ularni xalq, Vatan, jamiyat manfaatlari yo'lida kurashuvchi fuqarolar yetib tarbiyalashga yo'naltirilgan pedagogik jarayon. Fuqarolik tarbiyasining markaziy ob'ekti fuqaro sanaladi. Fuqaro fuqaroligi huquqiy jihatdan e'tirof etilgan hamda muayyan jamiyat (davlat) a'zosi bo'lgan shaxsdir. Fuqarolik esa huquqiy va axloqiy meyorlarga ongli rioya etish, ma'lum huquqlardan foydalanish hamda burchlarni bajarishga ma'sullik bilan yondashuv, mehnat jarayoni va jamoadagi faollik, ma'naviy yetuklik asosida muayyan davlatga mansublik. Fuqarolik tarbiyasining vazifalari tizimini quyidagilar tashkil etadi:

1. Yosh avlodni doimiy ravishda jamiyatda ustuvor mavqega ega bo'lgan axloqiy va huquqiy meyorlarga rioya etishga o'rgatib borish.

2. O'quvchilarga fuqarolik huquq va burchlari to'g'risida ma'lumotlar berib borish, ularda fuqarolik faoliyatini tashkil etish borasida ko'nikma va malakalar hosil qilish.

3. O'quvchilarda davlat ramzlariga nisbatan hurmat va muhabbatni qaror toptirish, Respublika Prezidenti sha'ni, or-nomusini himoya qilish hissini shakllantirish.

4. O'quvchilarda xalq o'tmishi, milliy qadriyatlarga nisbatan muhabbat tuyg'usini uyg'otish, ulardan g'ururlanish, faxrlanish va iftixor hislarini oshirish.

5. Vatan, xalq va millat ishiga sodiqlik, o'z manfaatlarini yurt manfaatlari bilan uyg'unlashtira olishga erishish, fidoiy fuqaroni tarbiyalab voyaga etkazish.

6. Vatan, yurt ozodligi va mustaqilligini e'zozlovchi, ardoqlovchi, uni himoya qilishga tayyor fuqaroni tarbiyalash ishiga keng jamoatchilik e'tiborini jalb etish. O'quvchilarning fuqarolik tarbiyasini tashkil etishda shaxsga davlat Konstitutsiyasida ko'rsatilgan huquqlardan foydalanish hamda burchlarni bajarish xususida ma'lumotlar berish, ularda ijtimoiy faoliyatni tashkil etishda huquqlardan foydalanish va burchlarni bajarish bo'yicha ko'nikma va malakalarni hosil qilish maqsadga muvofiqdir.

O'quvchilarga huquqlari borasidagi bilimlarni berish bilan birga fuqarolarning burchlari nimalardan iborat ekanligi haqida ma'lumot berish, bu xususida o'quvchilarda amaliy ko'nikmalarni hosil qilish ko'zlangan maqsadga erishishda muvaffaqiyat omili bo'ladi. Fuqarolarning burchlari quyidagilardan iboratdir: fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarda ko'zda tutilgan talablarga rioya etishga, boshqa kishilarning huquqlari, erkinliklari, sha'ni, qadr-qimmatini hurmat qilish; O'zbekiston xalqining tarixiy, ma'naviy-madaniy merosini avaylab asrash; fuqarolar tabiiy atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish; qonunlar bilan belgilangan soliqlar va mahalliy yig'implarni to'lash; O'zbekiston Respublikasini himoya qilish. Yuqorida qayd etilgan burchlarni bajarish O'zbekiston Respublikasining fuqarosi sanaluvchi har bir kishining muqaddas burchidir.

Huquqiy tarbiya. Huquqiy tarbiya o'quvchilar o'rtasida, fuqarolik tarbiyasini tashkil etishda o'ziga xos o'rin tutadi. Huquqiy ta'lim va tarbiya o'zaro bog'liqlik, uzviylik, aloqadorlik hamda dialektik xarakterga ega bo'lib, shaxs huquqiy madaniyatini shakllantirish garovi hisoblanadi. Zero, huquqiy ta'lim o'quvchilarga huquqiy me'yorlar, qonunlar hamda ijtimoiy-huquqiy munosabatlar mohiyati to'g'risida tizimlangan bilimlarni berish, ularda huquqiy bilimlarni egallashga bo'lgan ehtiyojni yuzaga keltirish, huquqiy ongni shakllantirish jarayoni bo'lib, u izchil, uzluksiz, tizimli tarzda tashkil etilishi lozim. Huquqiy tarbiya shaxs tomonidan o'zlashtirilgan nazariy-huquqiy bilimlar negizida huquqiy faoliyatni tashkil etish borasidagi ko'nikma va malakalarni hosil qilish, unda ijobiy mazmundagi huquqiy sifatlarni qaror toptirish va huquqiy madaniyatni

shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon hisoblanadi. Shaxs huquqiy madaniyatini shakllantirish huquqiy ta'lim va tarbiya jarayonining muhim bosqichidir. Huquqiy tarbiyani tashkil etish jarayonida quyidagi vazifalar hal etiladi:

- o'quvchilarga huquqiy me'yorlar, qonunlar va ijtimoiy-huquqiy munosabatlar mohiyati hamda ularning ijtimoiy hayotdagi ahamiyati to'g'risida ma'lumotlar berish; o'quvchilarda huquqiy bilimlarni egallashga bo'lgan ehtiyojni yuzaga keltirish, huquqiy ongni qaror toptirishga erishish;

- o'quvchilarda huquqiy faoliyatni tashkil etish borasidagi ko'nikma va malakalarni hosil qilish;

- ularda ijobiy mazmundagi huquqiy sifatlar (huquqiy tasavvur, huquqiy idrok, huquqiy tafakkur, huquqiy savodxonlik, huquqiy mas'ullik, huquqiy faollik, huquqiy e'tiqod va huquqiy salohiyat)ning qaror topishini ta'minlash;

- o'quvchilar huquqiy madaniyati (huquqiy meyorlar, qonunlarning ijtimoiy hayotdagi ahamiyatini to'g'ri baholash, harakat va harakatsizlikning qonuniy bo'lishiga erishish, davlat Konstitutsiyasi va ramzlarini, shuningdek, fuqarolik huquq va burchlarini hurmat qilish, yuridik xizmatlarga nisbatan ehtiyojni qaror toptirish, har qanday ko'rinishdagi huquqbuzarliklarga qarshi murosasiz kurashni tashkil etish)ni shakllantirish.

Huquqiy madaniyat – shaxs tomonidan huquqiy bilimlarning o'zlashtirilishi hamda huquqiy faoliyatni tashkil etish darajasining sifat ko'rsatkichi. Shaxs huquqiy madaniyatini shakllantirish quyidagi shartlar asosida amalga oshiriladi:

- keng ko'lamli ijtimoiy-huquqiy axborotli muhitning mavjudligi;
- shaxs huquqiy ongini shakllantirish;
- shaxs huquqiy faoliyatini yo'lga qo'yish.

Demak, shaxs huquqiy madaniyati negizida quyidagilar aks etadi:

- 1) huquq va huquqiy tizim borasida yetarli ma'lumotga ega bo'lish, huquqiy bilim asoslarini o'rganish, ularni o'rganishga bo'lgan ehtiyoj va qiziqishning hosil bo'lishi, egallangan nazariy-huquqiy bilimlarni amaliyotga tatbiq etish borasidagi ko'nikmani shakllantirish hamda malakaga ega bo'lish;

- 2) ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy munosabatlarni uyushtirish chog'ida o'z faoliyati timsolida huquqiy madaniyat

unsurlarini namoyon etish, ijtimoiy-siyosiy hamda huquqiy faollikni yuzaga keltira olishda ko‘rinadi.

Shaxs huquqiy madaniyatini quyidagi ikki asosiy qismga ajratish mumkin;

- 1) huquqiy ong;
- 2) huquqiy faoliyat.

Huquqiy faoliyat huquqiy meyorlar, qonunlar talablariga nisbatan ongli yondashish, ularga qat’iy va og‘ishmay amal qilish, qonunlarni hurmat qilish, ularni shaxs erkini himoya qilish kafolati sifatida e’tirof etish, huquqiy munosabatlar jarayonidagi faol ishtirokni tashkil etishga yo‘naltirilgan amaliy xatti-harakatlar majmui. Shaxs huquqiy madaniyatining muhim tarkibiy qismlari sifatida quyidagilar e’tirof etiladi: huquqiy tasavvur, huquqiy idrok, huquqiy savodxonlik, huquqiy tafakkur, huquqiy faollik, huquqiy mas’ullik, huquqiy e’tiqod, huquqiy salohiyat. Axloqiy tarbiya. “Axloq” (lotincha – xulq-atvor ma’nosini bildiradi) ijtimoiy ong shakllaridan biri bo‘lib, ijtimoiy munosabatlar hamda shaxs xatti-harakatini tartibga soladigan qonun-qoidalar majmuidir.

Ma’naviy-axloqiy tarbiyaning mazmuni. Ma’naviy-axloqiy tarbiya va unga qo‘yiladigan talablar bu jamiyatda ma’lum ijtimoiy-axloqiy talablarga mos axloqiy hislatlarni shakllantirish maqsadida o‘quvchilar ongi, hissiyotlari hamda xulqiga muvofiq va tizimli ta’sir etishdir. Ma’naviy-axloqiy tarbiya vazifalari quyidagilardan iborat:

1. O‘quvchilarda ma’naviy-axloqiy ongni shakllantirish.
2. Ularda ma’naviy-axloqiy his-tuyg‘ularni tarbiyalash va rivojlantirish.
3. O‘quvchilarda ma’naviy-axloqiy xulq-atvor ko‘nikma va odatlarini tarkib toptirish.

Jismoniy tarbiya. Jismoniy tarbiya, shu jumladan muntazam ravishdagi jismoniy mashqlar kishi organizmining har qanday muhitga chidamliligini oshirishga, sog‘lig‘ini mustahkamlashga, ongli ravishda uzoq umr ko‘rish imkoniyatlarini kuchaytirishga qaratilgan faoliyatdir. Bugungi kunda hukumatimiz bunday muhim omillarni e’tiborga olib qolmasdan, balki ularni muntazam ravishda amalga oshirib borishni davlat siyosati darajasigacha ko‘tarmoqda. Yoshlarni barkamol shaxs darajasida tarbiyalashga erishamiz va ular yuksak unumli ongli mehnat qilishga tayyor bo‘ladi hamda o‘z ona Vatanini sodiqlik bilan qo‘riqlashdek hislatlarga ega bo‘ladi. Yuqorida qayd etilgan

tadbirlardan asosiy maqsad - yosh avlodni bolalik chog'ldan boshlab jismoniy jihatdan sog'lom va baquvvat hamda irodali qilib tarbiyalashdan iboratdir. Jismoniy madaniyat tushunchasi - bu ancha keng tushuncha bo'lib, u jismoniy tarbiya va jismoniy rivojlanish hamda ma'naviy takomillashuvlarning uyg'unlashgan ko'rinishidir.

Abu Ali ibn Sino sog'liqni saqlashda yetita narsaga e'tibor berishni tavsiya etadi:

- fe'l-atvorni yaxshilash;
- narsalarni tanlab eb-ichish;
- gavdani chiqindidan tozalash;
- badanning to'g'ri tuzilishini saqlash;
- toza havodan nafas olish;
- mos kiyim tanlash;
- jismoniy va ruhiy harakatlarni mo'tadil qilish.

Umuman olganda jismoniy madaniyat umumiy madaniyatning bir qismi bo'lib, ushbu sohadagi jamoatchilik yutuqlarini va bu yutuqlarni qo'lga kiritishning metod hamda vositalarining majmuasi asosida jismoniy rivojlanishga va yo'nalishga tegishli bilimlarni egallashga ta'sir ko'rsatuvchi jihatdir.

Nafosat tarbiyasi. Nafosat tarbiyasi (estetik tarbiya – lotincha “*estezio*” go'zallikni his qilaman) – o'quvchilarni voqelik, tabiat, ijtimoiy va mehnat munosabatlari va turmush go'zalliklarini anglash, idrok etish va to'g'ri tushunishga o'rgatish, ularning badiiy didini o'stirish, ularda go'zallikka muhabbat uyg'otish, ular tomonidan go'zallikni yaratish qobiliyatlarini tarbiyalashga yo'naltirilgan pedagogik jarayon. Nafosat tarbiyasi “badiiy tarbiya” sifatida ham qo'llaniladi. Umuman, nafosat tarbiyasi keng ma'noga ega bo'lib, faqat san'at vositasidagina emas, balki, hayot, mehnat, ijtimoiy munosabatlar, tabiat va boshqalar vositasida go'zallikni his qilishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatni o'z ichiga oladi. Badiiy tarbiya esa san'at (adabiyot, musiqa, qo'shiq, tasviriy san'atning boshqa yo'nalishlari) vositasida shaxsda estetik his-tuyg'ularni shakllantirishni nazarda tutadi. Nafosat tarbiyasi insonda go'zallikni his qilish tuyg'usini shakllanishiga yordam beradi, uni rivojlantiradi. Inson doimo o'z hayotini go'zallik asosida qurishga intiladi. Nafosat tarbiyasi axloqiy, aqliy, huquqiy, ekologik, jismoniy va mehnat tarbiyasi bilan chambarchas bog'liqdir. Tabiat, adabiyot, teatr, musiqa, she'riyat,

tasviriy san'at va boshqalarga bo'lgan muhabbat shaxsning har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiladi.

Nafosat tarbiyasining vositalari o'quvchilarning go'zallikni sevish ruhida tarbiyalash maqsadida tevarak-atrofdan tanlab olingan turmush, tabiat, san'at go'zalligi va bolalarning badiiy faoliyatini tashkil etishga yo'naltirilgan pedagogik jarayonda qo'llaniluvchi omillar sanaladi. Oila go'zallikning birinchi maktabidir. Oila a'zolarining o'zaro munosabatlari, uy jihozlari, ularning yagona birligi, uyg'unligi, tartibli joylashtirilishi, saranjom-sarishtalik, ta'lim muassasasining bezatilishi, undagi yodgorlik va a'lochilar burchagi kabilarning barchasi bevosita o'quvchilarda go'zallikni tarbiyalashda katta ta'sir ko'rsatadi. Nafosat haqidagi tushunchalarni o'zlashtirib olish, ajoyib san'at asarini sayoz, past saviyada yozilgan asardan farqlash, o'z fikr-mulohazalarining to'g'ri ekanligini qattiq turib, himoya qilishga yordam beradi. Yuqori sinf o'quvchilari hayot va san'atda go'zallik, xunuklik, zavq-shavqning xilma-xil turlariga duch keladilar. Ular g'oyaviy yo'nalishi va mazmuni jihatdan turlicha bo'lgan badiiy hamda san'at asarlarni o'qiydilar, tomosha qiladilar va tinglaydilar. Ijtimoiy hayot va san'atga oid hodisalarning mohiyatini to'g'ri tushunishda o'quvchilarga go'zallik va uni sevish mavzusidagi darslar, shuningdek, sinfdan va maktabdan tashqari olib boriladigan xilma xil mashg'ulotlar yordam beradi.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING QARORI

UZLUKSIZ MA'NAVIY TARBIYA KONSEPSIYASINI TASDIQLASH VA UNI AMALGA OSHIRISH CHORA- TADBIRLARI TO'G'RISIDA

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2019-yil 3-maydagi PQ-4307-son qarori ijrosini ta'minlash, shuningdek, yoshlarni mustaqil hayotga dunyoqarashi keng, faol fuqarolar etib tarbiyalash maqsadida Vazirlar Mahkamasi karor qiladi:

- Quyidagilar:

Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi (keyingi o'rinlarda Konsepsiya deb ataladi) [1-ildovaga](#) muvofiq;

Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini amalga oshirish chora-tadbirlari rejasi (keyingi o'rinlarda Chora-tadbirlar rejasi deb ataladi) **2-ildovaga** muvofiq tasdiqlansin.

2. Quyidagilar Konsepsiya va Chora-tadbirlar rejasini amalga oshirishning ustuvor yo'nalishlari etib belgilansin:

2017 — 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha **Harakatlar strategiyasida** nazarda tutilgan aholi, ayniqsa yoshlar tarbiyasi bilan bog'lik vazifalarni samarali amalga oshirish, ularni tinch-osoyishta hayot uchun eng zarur tayanch kompetensiyalar bilan ta'minlash;

a) ma'naviy tarbiyani baholashning ilmiy asoslangan indikatorlarini ishlab chiqish;

b) tarbiya jarayonida uzluksizlik, uzviylik tamoyillariga tayangan holda avvalo, onaning homiladorlik davrini to'g'ri tashkil etish, go'daklar va bolalarni ma'naviy tarbiyalash bo'yicha asosiy yo'nalishlarni belgilash;

c) yoshlarda Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlik, mas'uliyatlik, bag'rikenglik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik kabi muhim fazilatlarni bolalikdan boshlab bosqichma-bosqich shakllantirish;

d) homiladorlik davridan boshlab 30 yoshgacha davom etadigan uzluksiz ma'naviy tarbiyani amalga oshirishda ota-ona, tarbiyachi, o'qituvchi, uzluksiz ta'lim muassasalari va mahalla jamoatchiligining o'zaro samarali hamkorligi mexanizmini ishlab chiqish va hayotga joriy etish;

e) aholining farzand tarbiyasi bo'yicha bilimlarini, pedagogik madaniyatini oshirish, fuqarolarni uzluksiz ma'naviy tarbiyaning jahon tajribasida sinovdan o'tgan samarali pedagogik texnologiyalari, usullari va amalga oshirish shakllari bilan muntazam tanishtirib borish;

f) ommaviy axborot vositalari, shu jumladan, Internet jahon axborot tarmog'i orqali tarqatilayotgan g'arazli axborotlar, odob-axloqni yemiruvchi illatlar, yoshlarni zalolatga boshlovchi buzg'unchi g'oyalarga karshi sog'lom dunyokarashni shakllantirish;

uzluksiz ma'naviy tarbiyani tashkil etishda davlat tashkilotlari, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari va xususiy sektorning hamkorligini samarali yo'lga qo'yish.

3. Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi Chora-tadbirlar rejasini bajarish yuzasidan vazirliklar, idoralar va boshqa

tashkilotlarning faoliyatini muvofiqlashtirish hamda uning o'z vaqtida va sifatli bajarilishi yuzasidan tizimli monitoring olib borilishini ta'minlasin.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Yoshlar siyosati, madaniyat, ma'naviyat, ommaviy axborot vositalari, ijodiy va jamoat tashkilotlari masalalari kotibiyatiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A. ARIPOV

Toshkent sh.,

2019-yil 31-dekabr,

1059-son

Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi 1059-son qaroriga

1-ILOVA

Uzluksiz ma'naviy tarbiya

KONSEPSIYASI

I bob. Umumiy qoidalar

1. O'zbekiston "Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari" tamoyili asosida taraqqiyotning yangi bosqichiga qadam qo'ydi. Yangi davr shiddati ta'lim-tarbiya tizimiga ham o'zining aniq, qat'iy talablarini qo'ymoqda.

Ushbu talablar doirasida ta'lim sohasida pedagoglarning moddiy-ma'naviy sharoiti tubdan yaxshilanib, ta'lim sifatini oshirishning zamonaviy texnologiyalari joriy qilinmoqda.

Tarbiya va ta'limni bir-biridan alohida ajratib bo'lmaydi, bu ikki jarayon o'zaro uyg'un, uzluksiz asosda tashkil etilgandagina odobli, axloqiy fazilatlarga ega, yuksak ma'naviyatli, shu bilan birga bilimdon, zukko, ruhan va jismonan sog'lom, keng dunyoqarash va tafakkurga ega, zamonaviy kasb-hunar egasi bo'lgan vatanparvar yoshlarni yetishtirib beradi.

2. O'zbekistonda yoshlar tarbiyasini zamonaviy asosda ilmiy-texnologik isloh qilish borasida olib borilayotgan ishlar uni bugungi kun ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ilmiy asoslangan tayanch kompetensiyalar, fazilatlar asosida shakllantirishni talab etmoqda.

Tarbiyaga yangicha, tizimli yondashuv, bolada tayanch fazilatlarni kafolatli shakllantirishda oila, maktabgacha ta'lim, umumiy ta'lim, o'rta maxsus kasb-hunar va oliy ta'lim muassasalari, mahallalarning ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarini to'liq yuzaga

chiqarishni va ular orasida ilmiy-metodik uzviylikni yangi darajaga ko'tarishni taqozo etadi.

3. Vatanga sadoqat, burch va mas'uliyat, tashabbuskorlik va boshqa fazilatlar yoshlar ongida nazariy tushunchalar sifatida qolib ketgani holda uning tabiatida amaliy odatlarga aylanmayapti. Buning oqibatida ularning ushbu fazilatlar haqidagi so'zlari bilan amallari orasida tafovut namoyon bo'lmoqda, bu esa har yili mustaqil hayotga kirib kelayotgan yigit-qizlarning hayotda o'z o'rinlarini topishlarida bir qator muammolarni yuzaga keltirmoqda.

4. Ayrim o'quvchi-yoshlarda yuksak maqsadlarning shakllanmaganligi, o'zini o'zi o'qishga safarbar qilish, iroda, matonat, tirishqoqlik, harakat fazilatlarini yetarli rivojlanmaganligi ta'lim sifatiga ham zarar ko'rsatmoqda.

5. Ma'naviy tarbiya sohasida o'qituvchilarning faoliyatini metodik ta'minlovchi o'quv materiallari, shu jumladan, ma'naviy tarbiya sohasiga oid metodik qo'llanmalar, o'quvchilar uchun zarur darsliklar yetarli emas.

Shu munosabat bilan "Uzluksiz ma'naviy tarbiya" konsepsiyasini (keyingi o'rinlarda Konsepsiya deb ataladi) muvaffaqiyatli amalga oshirish orqali ma'naviy tarbiya tizimini yanada rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi.

II bob. Konsepsiyaning maqsad va vazifalari

6. Konsepsiyaning maqsadi — yosh avlodda mustaqil va baxtli hayot uchun zarur ijtimoiy malaka hamda fazilatlarni yoshiga mos, bosqichma-bosqich shakllantirishdan iborat.

7. Ushbu maqsadga erishish, uni amalda ro'yobga chiqarish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish talab etiladi:

- ma'naviy-axloqiy tarbiyani baholashning ilmiy asoslangan indikatorlarini ishlab chiqish;
- tarbiyaning homiladorlik davridan boshlanib voyaga yetgunga qadar davom etadigan, tadrijiylik va uzluksizlik tamoyillariga asoslangan metodikasini ishlab chiqish va hayotga tatbiq etish;
- bola tarbiyasida milliy va zamonaviy pedagogikaning ilg'or yutuqlaridan samarali foydalanish;
- tarbiyalanuvchilar bilan birga tarbiyachilarning ham bilimi va malakasini muntazam oshirib borish;
- ma'naviy tarbiyani shakllantirishda oila, mahalla va ta'lim muassasalari, shuningdek, ommaviy axborot vositalari va boshqa

ijtimoiy tuzilmalar o'rtasida samarali hamkorlik mexanizmini yo'lga qo'yish;

➤ ma'naviy tarbiyaning tadrijiy rivojlanish va uzluksizlik tamoyillariga asoslanishi.

III bob. Konsepsiyada belgilangan vazifalarni oila va uzluksiz ta'lim tizimida amalga oshirish

8. Uzluksiz ma'naviy tarbiya:

➤ davlat ta'lim standartlariga muvofiq ta'lim dasturlarini amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim muassasalari;

➤ ta'lim sohasida ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshiruvchi ilmiy-pedagogik muassasalar;

➤ davlat boshqaruvi organlari, jamoatchilik tashkilotlari, mahalla va oila institutlari orqali joriy etiladi.

9. Uzluksiz ma'naviy tarbiya Konsepsiyasi quyidagi bosqichlarni qamrab oladi:

birinchi bosqich — oilalarda (ikki davr asosida: birinchi davr — homila davri, ikkinchi davr — bola tug'ilganidan 3 yoshgacha bo'lgan davr);

ikkinchi bosqich — maktabgacha ta'lim 3 — 6 (7) yoshgacha bo'lgan davr;

uchinchi bosqich — umumiy o'rta ta'lim tizimida (ikki davr asosida: birinchi davr — 7 (6) — 10 yosh boshlang'ich sinf, ikkinchi davr — 11 — 17 yosh o'rta va yuqori sinflar);

to'rtinchi bosqich — ishlab chiqarishda faoliyat ko'rsatayotgan va band bo'lmagan yoshlar, shuningdek, o'rta maxsus kasb-hunar va oliy ta'lim muassasalari tizimida (ikki davr asosida: birinchi davr — o'rta maxsus kasb-hunar va oliy ta'lim bilan qamrab olinmagan, shuningdek, ishlab chiqarishda faoliyat ko'rsatayotgan va band bo'lmagan yoshlar — 17 — 30 yosh, ikkinchi davr — o'rta maxsus kasb-hunar, oliy ta'lim muassasalarining o'quvchi-talabalari 15 — 22 (24) yosh).

10. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarining I — XI sinflari uchun "Odobnoma", "Vatan tuyg'usi", "Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari", "Dinlar tarixi" fanlarini birlashtirgan holda "Tarbiya" fanini joriy qilish bilan bog'liq tashkiliy, moliyaviy, ilmiy-metodik ishlar kompleksini amalga oshirish.

11. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev huzurida 2019-yil 23-avgust kuni Yoshlarni vatanparvarlik ruhida

tarbiyalash va jamiyatda o'qituvchi mavqeyini oshirish masalalariga bag'ishlab o'tkazilgan videoselektor majlisi bayoni (27.08.2019-y., 19750-hx-son) 5-bandida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi — ma'naviy tarbiyaning g'oyaviy mohiyat va strategiya yo'nalishini belgilashga;

Vazirlar Mahkamasi — strategiyaning ijrosini ta'minlash, amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni nazorat qilib borish va moliyalashtirishga;

mutasaddi vazirliklar, idoralar va hokimliklar — belgilangan vazifalarni samarali amalga oshirishga mas'ul ekanligi alohida ko'rsatib o'tilgan.

IV bob. Oilalarda uzluksiz ma'naviy tarbiyani amalga oshirish

12. Oilalarda uzluksiz ma'naviy tarbiya tizimi o'z ichiga ikki davrni qamrab oladi:

birinchi davrda — hududlardagi oilaviy poliklinikalarda, mahallalardagi homilador ayollar bilan olib boriladigan ijtimoiy-pedagogik, ma'naviy-ma'rifiy, tibbiy, psixologik yordam ishlari tizimli tashkil qilinadi. Yosh ota-onalar bola parvarishi va tarbiyasiga tayyorlanadi;

ikkinchi davrda — bola tug'ilganidan 3 yoshgacha bo'lgan davr orasida amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlar metodikasi ishlab chiqilib, hayotga tatbiq qilinadi.

13. Homilador ayollar o'qishi tavsiya qilinadigan tibbiy-ma'rifiy, tarbiyaviy, badiiy va elektron adabiyotlar turkumlari tayyorlanadi, ro'yxati shakllantiriladi va tarqatiladi.

14. Mahalla, oilalarda ota-onalar va bolalar ma'naviy tarbiyaviy munosabatlarini tahlil etish asosida "Namunaviy oilaviy tarbiya muhiti" mezonlarini belgilash va shu asosida mahalla, tuman, shahar, hududlar va respublika tanlovlarini o'tkazish.

15. Oiladagi ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash maqsadida yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, oiladagi nizoli holatlarni hal etishning huquqiy va pedagogik-psixologik asoslarini o'rgatish, ajralishlarning oldini olishda "Ota-ona farzandini voyaga yetguniga qadar boqish va tarbiyalash uchun javobgar" prinsipi asosida "Ota-onalik — baxt va burch" targ'ibot tadbirlarini tashkil etish.

16. Oilada uzluksiz ma'naviy tarbiya xususiyatlari:

- muloqot, o'yin turlari jarayonida predmetlar, namunaviy xulq, xatti-harakat qoidalarini bilan tanishish, taqlid orqali kattalarning ma'naviy-axloqiy tajribasiga e'tibor qaratish;

- o'zining va boshqalarning xatti-harakatlarini kuzatish, baho berishga o'rgatish;

- ilk ma'naviy-tarbiyaviy motivlarni shakllantirish;

- o'ziga-o'zi xizmat qilish, kundalik turmushda xavfsizlik ko'nikmalarini o'rgatish.

17. 3 yoshgacha bolalarda badiiy-estetik didni shakllantirish va intellektni rivojlantirishga mo'ljallangan alla, ertak, maqollar va topishmoqlarning audio shakli yaratilib, multfilmlar to'plami tayyorlanadi va hududlarga tarqatiladi.

18. Bolalarga taklif etilayotgan o'yinchoqlarni ma'naviy tahlil va tadqiq qilish orqali bolalar ruhiyatiga salbiy ta'sirlarning oldi olinadi.

19. Oilada ota-onalarning farzand tarbiyalash metodlariga oid bilimlarini muntazam oshirib borish maqsadida:

- bola tarbiyasida milliy tarbiya metodlari va zamonaviy pedagoglarning ilg'or yutuqlaridan samarali foydalanish;

- mahallalardagi "Ota-onalar universitetlari"da ota-onalar uchun farzandlarda yoshiga mos ijtimoiy kompetensiyalarni tarbiyalash bo'yicha treninglar o'tkazish;

- "Tarbiya maktabi" rukni ostida ota-onalar, pedagoglar uchun teleko'rsatuvlar, bolalar, yoshlar uchun turli rasmlar bilan bezatilgan yorqin, rang-barang qo'llanmalar, multimedia mahsulotlari kabi didaktik materiallar turkumini yaratish;

- uzluksiz ma'naviy tarbiya amaliyotida to'plangan ijobiy tajribani ommalashtirish maqsadida "Yosh ota-ona kitobi" va boshqa metodik qo'llanmalar asosida multimediali taqdimotlar seriyasini yaratish va ota-onalarga tarqatish mexanizmi yo'lga qo'yiladi.

20. Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi qoshida xalqimizning boy milliy ma'naviy tarbiya merosini keng targ'ib qilishga yo'naltirilgan "Ma'naviy tarbiya" ilmiy-ijodiy studiyasini tashkil etish orqali:

- ota-onalar, bolalar, o'smirlar, yoshlar va kattalarga mo'ljallangan hujjatli, o'quv, tarbiyaviy va badiiy kitoblar, qo'llanmalar, multimedia mahsulotlari yaratiladi;

- oilalarda yoshlarning ma'naviy rivojlanishi uchun zarur bo'lgan innovatsion ijtimoiy-pedagogik sog'lom va barqaror muhit yaratish usullari ishlab chiqiladi.

21. Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, oilaviy qadriyatlarimizga zid bo'lgan turli ma'naviy tahdidlarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirishga qaratilgan profilaktik tadbirlarni tashkil etish, hududlar bo'yicha oilalarda sog'lom tarbiyaviy muhitni yaratish va ota-onalarga tarbiya usullarini o'rgatishga qaratilgan maqsadli va manzilli targ'ibot tadbirlari va treninglar o'tkaziladi.

VI bob. Umumiy o'rta ta'lim tizimida ma'naviy tarbiyani amalga oshirish

37. Umumiy o'rta ta'lim tizimida ma'naviy tarbiya jarayoni o'z ichiga ikki davrni qamrab oladi:

birinchi davr — 7 (6) — 10 yoshli davrda — boshlang'ich sinflarda;

ikkinchi davr — 11 — 17 yoshli davrda — o'rta va yuqori sinflarda.

38. Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti va o'quv dasturlari o'quvchilarda yoshiga mos tayanch ma'naviy-axloqiy fazilat (kompetensiya)lar — Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlik, mas'uliyatlik, tolerantlik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik shakllantiriladi.

39. Boshlang'ich sinflarda inobatga olinishi lozim bo'lgan jihatlar:

“Tarbiya” fani orqali o'quvchilarda ma'naviy tarbiya indikatorlari va kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiluvchi bilim, ko'nikma va malakalarni ta'lim mazmuniga keng singdirish;

- o'quv fanlari doirasidagi ma'naviy tarbiya indikatorlarini amaliyotga joriy etish, ularni amaliyotda qo'llay olish imkonini beruvchi amaliy mashq va topshiriqlar bilan boyitish (ma'naviy-axloqiy kompetensiyalar);

- muvaffaqiyatga erishishga intilish motivining shaxs ustuvor xususiyati sifatida mustahkamlanishi;

- bolaning o'z xulq va faoliyatini ongli nazorat qilishini kuchaytirish;

- o'zining va atrofdagilarning xulqi, xatti-harakatlariga munosabat bildirish, mehnatsevarlikka o'rgatish;
- kattalar va tengdoshlari bilan hamkorlik qilishga ijtimoiy motivlarning paydo bo'lishi;
- bilimlarning kengayishi, chuqurlashuvi, ma'naviy-axloqiy ko'nikma va malakalarning rivojlanishi;
- o'z xalqining va boshqa xalqlarning an'analari, qadriyatlariga qiziqishning namoyon bo'lishi;
- ijtimoiylashuv jarayonida talab etiladigan yoshiga mos shaxsiy fazilatlarni shakllantirish;
- xavfsiz hayot ko'nikmalarini mustahkamlash;
- kasblar to'g'risida tasavvurlarni kengaytirish, kasbga va mehnatga qiziqtirish;
- vijdonan mehnat qilish ko'nikmalarini o'rgatish, mehnatning inson va jamiyat hayotidagi ahamiyatini ko'rsatish;
- muvaffaqiyatga erishish motivlarini kuchaytirish;
- o'zini-o'zi baholashga o'rgatish;
- faoliyatda o'zini ko'rsatishga intilishni rag'batlantirish;
- tengdoshlari bilan ma'naviy-axloqiy munosabatlar tajribasini boyitish;
- milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o'rganish.

40. Umumta'lim maktablarining o'rta va yuqori sinflari o'quvchilarini ma'naviy-axloqiy tamoyillar asosida tarbiyalashda inobatga olinishi lozim bo'lgan jihatlar:

- o'smirlik yoshiga xos ichki pozitsiyaning paydo bo'lishi;
- irodaviy sifatlarning namoyon bo'lishi;
- ijtimoiy faollik, bilishga intilish va o'zini namoyon qilish motivlarining rivojlanishi;
- faoliyat va muloqot mazmunini belgilovchi shaxsiy qadriyatlar tizimining shakllanishi;
- shaxslararo munosabatlarning differensiallashuvi, referent guruhlarining paydo bo'lishi;
- fuqarolik pozitsiyasi, o'zi va atrofdagilarga hamda jamiyatga munosabat asoslarining shakllanishi;
- milliy qadriyatlar, an'analarga hurmatning namoyon bo'lishi;
- o'zini-o'zi tarbiyalash va shaxsiy sifatlarning rivojlanishi;
- o'z muammolarini o'zi mustaqil hal qilishga intilish;

- xavfsiz hayot madaniyati bo'yicha bilim va ko'nikmalarning namoyon bo'lishi;
- axloqiy, siyosiy dunyoqarash va diniy e'tiqodning shakllanishi;
- pozitiv ijtimoiy mo'ljallarning oydinlashuvi va ularga erishish yo'lidagi intilishlar;
- ma'naviy-axloqiy prinsiplarning qat'iylashuvi;
- ichki his-tuyg'ularga e'tiborning oshishi, emotsional munosabatlarning tanlov asosida namoyon bo'lishi;
- mustaqil hayot uchun zarur ijtimoiy kompetensiya va fazilatlarining odatlarga aylanishi.

41. "Uzluksiz ma'naviy tarbiya" ruknida ota-onalar, pedagoglar, bolalar va o'smirlar uchun darsliklar, adabiyotlar, mediamahsulotlar, ilmiy-metodik qo'llanmalar majmuasini yaratish;

davlat ta'lim standartlari, o'quv dasturlari va rejalari asosida o'quvchilarda yoshiga mos tayanch ma'naviy-axloqiy fazilat, kompetensiyalarni shakllantirish.

I — XI sinflar uchun "Odobnoma", "Vatan tuyg'usi", "Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari", "Dinlar tarixi" fanlarini birlashtirgan holda "Tarbiya" fanini joriy qilish.

42. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan to'garaklar faoliyatini "Besh muhim tashabbus" asosida rivojlantirish.

43. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarining "Tarbiya" fani o'qituvchilarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishning tashkiliy-huquqiy asoslarini yaratish hamda amalga oshirish.

44. O'qituvchilar, ota-onalar, mahalla mutaxassislari uchun ma'naviy tarbiya indikatorlari va tarbiyalash usullari bilan boyitilgan "Fazilatli avlod" va boshqa metodik qo'llanmalarni ishlab chiqish.

45. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida buyuk ma'rifatparvar siymolar merosini targ'ib etishga qaratilgan "O'n ikki oy — o'n ikki alloma" kitobxonlik oyliklarini tashkil etish.

46. Aholi, pedagoglar, jamoatchilik, bolalar orasida uzluksiz ma'naviy tarbiya tizimi samaradorligini o'rganish, baholash va takomillashtirish maqsadida bir yilda ikki marta sotsiologik so'rovlar o'tkazish.

47. Maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim tizimida uzluksiz ma'naviy tarbiya samaradorligini o'lchash va baholashning ilmiy-metodik texnologiyasini yaratish hamda bir yilda ikki marta o'lchash

va “Ma’naviy tarbiya” respublika jamoatchilik kengashida muntazam muhokama qilib borish.

48. Ta’lim muassalarida o‘quvchilarni ona Vatanga muhabbat va sadoqat, davlat ramzlariga hurmat ruhida tarbiyalashga qaratilgan tantanali marosimlarning yangi, ta’sirchan shakllarini ishlab chiqish va joriy qilish.

49. O‘g‘il bolalarda ona Vatanga muhabbat, milliy g‘oyaga sadoqat, mardlik, jasorat, fidoyilik, halollik, rostgo‘ylik, hojatbarorlik, vijdonlilik, vazminlik, yigitlik g‘ururi, or-nomus, mehr-oqibatlilik kabi fazilatlar, tadbirkorlik va oilaparvarlik malakalarini shakllantirishga qaratilgan treninglar dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish.

50. Qiz bolalarda ona Vatanga muhabbat, milliy g‘oyaga sadoqat, mehnatsevarlik, jonkuyarlik, oilaparvarlik, ibo, hayo, nafosat, did-farosat, qanoat, vafodorlik, mehribonlik, rahmdillik, kamtarlik, ziyraklik, mehmondo‘stlik, bolajonlik, murosallilik, orastalik, saranjomlik, xushmuomalalik, pazandalik kabi malakalarni shakllantirishga qaratilgan treninglar dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish.

51. Har yili bir marotaba “Milliy tarbiya va zamon” mavzusida pedagogik simpozium o‘tkazib borish.

52. Teleradiokanallarda tarbiya mavzularida tok-shoular, ko‘rsatuv va eshittirishlar, ijtimoiy tarmoqlarda “Tarbiya maktabi”, “So‘rang! Javob beramiz, o‘rgatamiz” ruknida pedagogik chellenjlar tashkil etish.

VII bob. O‘rta maxsus kasb-hunar va oliy ta’lim tizimi, ishlab chiqarishda faoliyat ko‘rsatayotgan va band bo‘lmagan yoshlar o‘rtasida uzluksiz ma’naviy tarbiyani amalga oshirish

53. O‘rta maxsus kasb-hunar va oliy ta’lim tizimi, ishlab chiqarishda faoliyat ko‘rsatayotgan va band bo‘lmagan yoshlar o‘rtasida ma’naviy tarbiya jarayoni o‘z ichiga ikki davrni qamrab oladi:

birinchi davr — o‘rta maxsus kasb-hunar va oliy ta’lim bilan qamrab olinmagan, shuningdek, ishlab chiqarishda faoliyat ko‘rsatayotgan va band bo‘lmagan yoshlar — 17 — 30 yosh;

ikkinchi davr — o‘rta maxsus kasb-hunar, oliy ta’lim muassasalarining o‘quvchi-talabalari 15 — 22 (24) yosh.

54. O‘rta maxsus kasb-hunar va oliy ta’lim bilan qamrab olinmagan, shuningdek, ishlab chiqarishda faoliyat ko‘rsatayotgan va band bo‘lmagan yoshlarda ular yoshiga mos tayanch ma’naviy-axloqiy

fazilat (kompetensiya)lar — Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlik, mas'uliyatlik, tolerantlik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlikni rivojlantirish davlat va jamoat tashkilotlarining ijtimoiy hamkorligi asosida maqsadli ma'naviy-ma'rifiy dasturlar orqali amalga oshiriladi.

55. O'rta maxsus kasb-hunar va oliy ta'lim bilan qamrab olinmagan, shuningdek, ishlab chiqarishda faoliyat ko'rsatayotgan va band bo'lmagan yoshlar bilan ishlashda inobatga olinishi lozim bo'lgan jihatlar:

- kelajakka ishonch, mustaqil fikrlash va qaror qabul qilishni shaxsning ustuvor xususiyati sifatida mustahkamlash;

- mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorlik tuyg'usini kuchaytirish;

- vijdonan mehnat qilish, tadbirkorlik, kasbiy-ma'naviy ko'nikmalarni o'rgatish, halol mehnatning inson va jamiyat hayotidagi ahamiyatini ko'rsatish;

- mustaqil hayotda muvaffaqiyatga erishish uchun innovatsion tafakkur, tashabbuskorlik, fidoyilik fazilatlarini rivojlantirish;

- oilaviy burch, oilada o'zaro ishonch, sadoqat, mehr-muhabbat va hamjihatlikni mustahkamlash malakalarini shakllantirish, ma'naviy barqarorlikni ta'minlash;

- yoshlar, yosh ota-onalarda farzand tarbiyasi uchun mas'ullik, oilani boshqarish, moddiy farovonlikka erishish uchun zarur bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish;

- namunali, ma'naviy uyg'unlikka erishgan, farzand tarbiyasida ibrat bo'la oladigan, ota-onalar roziligiga erishayotgan keng jamoatchilik tomonidan e'tirof etilayotgan yosh ota-onalarni rag'batlantirish;

- yosh oilalarning hayotda munosib o'rin egallashlariga ko'maklashish, ularning mahallada integratsiyalashuvini qo'llab-quvvatlash, jamiyatning to'laqonli a'zosi bo'lishiga erishish.

56. O'rta maxsus kasb-hunar va oliy ta'lim tizimi o'quv dasturlari, ma'naviy-ma'rifiy rejalari asosida o'quvchi-talabalarning yoshiga mos tayanch ma'naviy-axloqiy fazilatlar — Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlik, mas'uliyatlik, tolerantlik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik rivojlantiriladi.

57. O'rta maxsus kasb-hunar va oliy ta'lim muassasalarida o'quvchi-yoshlarni ma'naviy-axloqiy tamoyillar asosida tarbiyalashda inobatga olinishi lozim bo'lgan jihatlar:

- ijtimoiy-gumanitar fanlar, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar orqali o'quvchi-yoshlarda ma'naviy tarbiya indikatorlari va kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiluvchi bilim, ko'nikma va malakalarni ta'lim-tarbiya mazmuniga singdirish va ularni amaliyotda qo'llay olish imkonini beruvchi amaliy mashq, topshiriq va pedagogik vaziyatlar bilan boyitish;

- o'quvchi-yoshlarda zamonaviy bilimlarni egallash, media madaniyatni rivojlantirish, ilg'or pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etish, xorijiy davlatlardagi ilg'or tajribalarni o'rganishni rag'batlantirish;

- kasbiy-ma'naviy ko'nikmalarni mustahkamlash, o'zini-o'zi tarbiyalashga o'rgatish;

- faol fuqarolik pozitsiyasini kuchaytirish;

- ilmiy, ma'naviy-axloqiy, siyosiy dunyoqarash va sog'lom diniy e'tiqodni shakllantirish;

- baxtli oilaviy hayot, farzand tarbiyasi uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish;

- kelajakka ishonch va mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorlik tuyg'usini kuchaytirish.

58. "Fazilatli avlod" ruknida o'quvchi-talabalar, murabbiylar, professor-o'qituvchilar, ota-onalar, vazirliklar va idoralarning ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha mas'ullari uchun o'quv-qo'llanmalar, uslubiy tavsiyalar, ma'rifiy adabiyotlar, media mahsulotlar, ilmiy-metodik qo'llanmalar majmuasi yaratiladi.

59. O'rta maxsus kasb-hunar va oliy ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan to'garaklar faoliyatini "Besh muhim tashabbus" asosida rivojlantirish ishlarini amalga oshirish.

60. O'rta maxsus kasb-hunar va oliy ta'lim muassasalari murabbiylari, professor-o'qituvchilari, yoshlar yetakchilarini "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi"ni amalga oshirish maqsadida malakasini oshirish.

61. O'rta maxsus kasb-hunar va oliy ta'lim muassasalari uchun ma'naviy tarbiya indikatorlari va tarbiyalash usullarini ishlab chiqish, uzluksiz ma'naviy tarbiya tizimi samaradorligini o'rganish, baholash va takomillashtirish maqsadida har yili ikki marta sotsiologik so'rovlar

o‘tkazish va natijalarni pedagogik kengashlarda muhokama qilib borish.

62. Maktabgacha va umumiy o‘rta ta’lim, o‘rta maxsus kasb-hunar va oliy ta’lim tizimi, ishlab chiqarishda faoliyat ko‘rsatayotgan va band bo‘lmagan yoshlarda uzluksiz ma’naviy tarbiya samaradorligini baholashning ilmiy-metodik texnologiyasini yaratish hamda har yili ikki marta o‘lchash va “Ma’naviy tarbiya” respublika jamoatchilik kengashida muhokama qilib borish.

63. Ta’lim muassasalarida o‘quvchi-talabalarni ona Vatanga muhabbat va sadoqat, davlat ramzlariga hurmat ruhida tarbiyalashga qaratilgan tantanali marosimlarning zamonaviy shakllarini ishlab chiqish va joriy qilish.

64. Uzluksiz ma’naviy tarbiya tizimi samaradorligini oshirish va takomillashtirishga qaratilgan dissertatsiyalar, ilmiy tadqiqotlar va izlanishlarni yo‘lga qo‘yish.

65. Teleradiokanallarda tarbiya mavzularida tok-shoular, ko‘rsatuv va eshittirishlar, ijtimoiy tarmoqlarda tarbiyaviy mavzularda virtual muloqot maydonlarini tashkil etish.

VIII bob. Konsepsiyani amalga oshirishdan kutilayotgan natijalar

66. Konsepsiyaning joriy qilinishi uzluksiz ma’naviy tarbiya jarayonining tizimli tashkil etilishiga, tarbiya sohasining ilg‘or innovatsion texnologiyalar asosida takomillashuviga, yoshlarning Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, mas’uliyatlilik, bag‘ri kenglik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik kabi tayanch kompetensiyalar bilan mustaqil hayotga kirib borishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi.

67. Oilalar, ta’lim muassasalari, mahallalar va korxonalarda mustaqil fikrlash va qaror qabul qilish layoqatiga ega bo‘lgan yoshlarning ma’naviy kamol topishi uchun zarur bo‘lgan innovatsion ijtimoiy-pedagogik sog‘lom va barqaror muhit yaratiladi.

68. Jamiyatda jinoyatchilik, ekstremizm, terrorizm, korrupsiya, firibgarlik, ko‘zbo‘yamachilik, yolg‘onchilik, egotsentrizm, axloqiy buzuqlik, oilaviy ajrimlar, mehr-oqibatning kamayishi, “ommaviy madaniyat”ga ko‘r-ko‘rona taqlid, loqaydlik, begonalashuv, o‘zibo‘larchilik, farzand tarbiyasida mas’uliyatsizlik, oilaviy qadriyatlar inqirozi, el-yurt taqdiriga befarqlik kabi illatlar keskin

kamayadi. Band bo'lmagan yoshlarning hayotda o'z o'rnini topishga, kelajakka bo'lgan ishonchi oshadi. Mamlakat dunyoda raqobatbardosh, boy inson kapitaliga ega bo'ladi.

69. Oila, ta'lim muassasalari, davlat tashkilotlari va nodavlat tashkilotlar, ota-onalarda boy milliy tarbiyaviy merosimiz to'g'risida bilimlar shakllanadi, ularni o'rganish, saqlash, targ'ib qilish, o'rgatish orqali milliy fazilatlarining avloddan-avlodga bezavol o'tib borishi ta'minlanadi.

70. Konsepsiyaning amalga oshirilishi jamiyatda ma'naviy-axloqiy muhitning sog'lom va barqaror bo'lishiga salmoqli hissa qo'shadi.

Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda 1059-son qaroriga
2-ILOVA

Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini amalga oshirish

CHORA-TADBIRLARI REJASI

Oldingi tahrirga qarang.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING QARORI

Konsepsiya (lot. conceptio — majmua, tizim) —

1) biror sohaga oid qarashlar, tamoyillar tizimi, fakt va hodisalarni tushunish, anglash va izohlashning muayyan usuli, asosiy nuqtai nazar;

2) adabiyotda — biror asarning asosiy g'oyasi. KONSEPSIYA badiiy asar mohiyatini, ijodkorning "meni"ni ifoda etadi.

Biroq badiiy asar K.si ayrim holatlarda muallifning sub'yektiv qarashlaridan keng qamrovli bulishi mumkin. Ba'zan muallif mo'ljaliga zid holat yuz bersa ham, mohiyat e'tibori bilan asar o'z KONSEPSIYA.siga ko'ra muallifning badiiy-estetik olamiga tegishli bo'ladi. O'quvchining ma'naviy-ruhiy saviyasi, tarixiy shart-sharoitdan kelib chiqqan holda badiiy asar KONSEPSIYAsi alohida ta'kidlanib, ochiq-oydin ifoda etiladi. Inson va borliq mohiyatiga ko'ra, KONSEPSIYA bir butunlikni tashkil etadi. Masalani muayyan ijodkorning o'z KONSEPSIYA.si yoki alohida olingan haqiqiy san'at asarining KONSEPSIYA si tarzida qo'yish ham mumkin. Boshqa jihatdan, badiiy asar KONSEPSIYAsi unda tasvirlangan badiiy-estetik, obrazli dunyo orqali hayotni anglash mexanizmi — usuli bo'lib ham maydonga chiqadi. Umuman, KONSEPSIYAbadiiy asarning san'at, adabiyot va madaniyat tarixidagi o'rnini hamda o'quvchilar ommasiga ta'sir etish darajasini belgilaydi.

8 bob 70 moddadan iborat.

II bob. Konsepsiyaning maqsad va vazifalari

6. *Konsepsiyaning maqsadi* — yosh avlodda mustaqil va baxtli hayot uchun zarur ijtimoiy malaka hamda fazilatlarni yoshiga mos, bosqichma-bosqich shakllantirishdan iborat.

7. *Ushbu maqsadga erishish*, uni amalda ro'yobga chiqarish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish talab etiladi:

- ma'naviy-axloqiy tarbiyani baholashning ilmiy asoslangan indikatorlarini ishlab chiqish;
- tarbiyaning homiladorlik davridan boshlanib voyaga yetgunga qadar davom etadigan, tadrijiylik va uzluksizlik tamoyillariga asoslangan metodikasini ishlab chiqish va hayotga tatbiq etish;
- bola tarbiyasida milliy va zamonaviy pedagogikaning ilg'or yutuqlaridan samarali foydalanish;
- tarbiyalanuvchilar bilan birga tarbiyachilarning ham bilimi va malakasini muntazam oshirib borish;
- ma'naviy tarbiyani shakllantirishda oila, mahalla va ta'lim muassasalari, shuningdek, ommaviy axborot vositalari va boshqa ijtimoiy tuzilmalar o'rtasida samarali hamkorlik mexanizmini yo'lga qo'yish;
- ma'naviy tarbiyaning tadrijiy rivojlanish va uzluksizlik tamoyillariga asoslanishi.

III bob. Konsepsiyada belgilangan vazifalarni oila va uzluksiz ta'lim tizimida amalga oshirish

- 8. Uzluksiz ma'naviy tarbiya:
- davlat ta'lim standartlariga muvofiq ta'lim dasturlarini amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim muassasalari;
- ta'lim sohasida ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshiruvchi ilmiy-pedagogik muassasalar;
- davlat boshqaruvi organlari, jamoatchilik tashkilotlari, mahalla va oila institutlari orqali joriy etiladi.
- 9. Uzluksiz ma'naviy tarbiya Konsepsiyasi quyidagi bosqichlarni qamrab oladi:

birinchi bosqich — oilalarda (ikki davr asosida: birinchi davr — homila davri, ikkinchi davr — bola tug'ilganidan 3 yoshgacha bo'lgan davr)

ikkinchi bosqich — maktabgacha ta'lim 3 — 6 (7) yoshgacha bo'lgan davr;

uchinchi bosqich — umumiy o'rta ta'lim tizimida (ikki davr asosida: birinchi davr — 7 (6) — 10 yosh boshlang'ich sinf, ikkinchi davr — 11 — 17 yosh o'rta va yuqori sinflar);

to'rtinchi bosqich — ishlab chiqarishda faoliyat ko'rsatayotgan va band bo'lmagan yoshlar, shuningdek, o'rta maxsus kasb-hunar va oliy ta'lim muassasalari tizimida (ikki davr asosida: birinchi davr — o'rta maxsus kasb-hunar va oliy ta'lim bilan qamrab olinmagan, shuningdek, ishlab chiqarishda faoliyat ko'rsatayotgan va band bo'lmagan yoshlar — 17 — 30 yosh, ikkinchi davr — o'rta maxsus kasb-hunar, oliy ta'lim muassasalarining o'quvchi-talabalari 15 — 22 (24) yosh).

Savol va topshiriqlar

1. Tarbiya fani maqsadi va vazifasini izohlab bering?
2. Sho'ro davrida tarbiyada qanday kamchiliklarga yo'l qo'yilgan?
3. Al Forobiyning tarbiya haqidagi qarashlari nimalardan iborat?
4. Kaykovusning "Qobusnoma" asarida juvonmardlikni asosini nimalarda namoyon bo'ladi?
5. "Uzliksiz ta'lim konsepsiyasi"ning maqsad va vazifalarini izhohlab bering?
6. "Uzluksiz ta'lim konsepsiyasi"da uzluksiz ma'naviy tarbiya nacha bosqichni qamrab oladi?
7. Tarbiya fani qaysi fanlar bilan aloqador?
8. Tarbiyaviy ishlarning metodologik asosi qaysilar?
9. Fuqarolik tarbiyasining vazifalarini sanab bering?
10. Abu Ali ibn Sino sog'likni saqlashda e'tibor berishi kerak bo'lgan tavsiyalari nimalardan iborat?

Test:

1. **Tarbiyaviy ishlar metodikasining asosiy maqsadi nima?**
 - a) o'quvchilarning bilimini oshirish;
 - b) o'quvchilarning axloqiy jihatdan tarbiyalash;
 - d) o'quvchilarning ijtimoiy bilimlarini oshirish;
 - e) tarbiyaviy ishlarni boshqarish va ilmiy asoslash;
2. **Tarbiyaviy ishlar metodikasining vazifalaridan biri qaysi?**
 - a) o'quvchilarga fanlarni o'rgatish;

- b) tarbiyaviy jarayonni rejalashtirish va tashkil etish;
- d) o'quvchilarga sport mashg'ulotlarini o'rgatish;
- e) tarbiyaviy faoliyatda axborot texnologiyalaridan foydalanish;

3. Tarbiyaviy ishlarning asosiy tamoyillaridan biri nima?

- a) barcha o'quvchilarga bir xil usulni qo'llash;
- b) o'quvchilarning individual xususiyatlarini inobatga olish;
- d) o'quvchilarning faqat bilimini oshirish;
- e) faqat axloqiy tarbiya berish;

4. Tarbiyaviy jarayonni boshqarishda asosiy e'tibor qaysi sohalarga qaratiladi?

- a) o'quvchilarning jismoniy rivojlanishi;
- b) o'quvchilarning ijtimoiylashuvi;
- d) o'quvchilarning faqat bilim olishiga;
- e) o'quvchilarning yuridik masalalarga;

5. Tarbiyaviy ishlar metodikasida qanday usullar ishlatiladi?

- a) faqat amaliy usullar;
- b) nazariy va amaliy usullar;
- d) faqat nazariy usullar;
- e) raqamli texnologiyalarni qo'llash;

6. Tarbiyaviy faoliyatda o'quvchilarning qaysi jihatlarini rivojlantirishga alohida e'tibor beriladi?

- a) faqat intellektual rivojlanishi;
- b) axloqiy, ma'naviy va ijtimoiy rivojlanishi;
- d) jismoniy rivojlanishi;
- e) til va adabiyotga bo'lgan qiziqishi;

7. Tarbiyaviy ishlarni rejalashtirishda qanday faktorlarga e'tibor berish kerak?

- a) faoliyatning uzoq muddatli maqsadlari;
- b) o'quvchilarning yosh xususiyatlari va psixologik holati;
- d) tarixiy ma'lumotlarga;
- e) faqat pedagogik tajriba;

8. Tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil etish uchun qanday usuldan foydalanish mumkin?

- a) faqat diskussiyalar;
- b) ko'rgazmali materiallar va interaktiv metodlar;
- d) faqat mustaqil ishlar;
- e) faoliyatni qattiq nazorat qilish;

9. O‘quvchilarning axloqiy tarbiyasini oshirishda qaysi metod samarali?

- a) faqat kitob o‘qish;
- b) ijtimoiy faoliyatlarga jalb qilish;
- d) raqamli platformalarda o‘rganish;
- e) faqat individual ishlar;

10. Tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda asosiy ahamiyatga ega bo‘lgan omil nima?

- a) faqat matematikadan bilim berish;
- b) o‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olish;
- d) o‘quvchilarning ijtimoiy mavqeini oshirish;
- e) faqat badiiy tarbiya.

F.S.M.U. metodi.

FSMU metodining umumiy sxemasi:

F – fikringizni bayon eting;

S – fikringizni asoslovchi sabab ko‘rsating;

M – ko‘rsatgan sababingizni tasdiqlovchi misol keltiring;

U – fikringizni umumlashtiring.

tarqatma-1

F-_____

S-_____

M-_____

U-_____

2-mavzu. Milliy tarbiyaning mazmuni va mohiyati.

Reja:

1. Shaxs tushunchasi.
2. Milliy tarbiya, qadriyat tushunchasi mohiyati va turlari.
3. Milliy qadriyatlar asosida shaxs dunyoqarashini shakllantirish.
4. Umuminsoniy tarbiya mezonlari.
5. Ta’lim-tarbiyaning samaradorligini oshirishda O‘zbekistonda bo‘layotgan islohatlar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mavlonova R., Raxmonqulova N., Normurodova B. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. -T.: Tib-kitob, 2010 y.
2. Ishmuhammedov R., Abduqodir A., Pardayev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar. -T.: Fan va texnologiya, 2010 y.
3. Олесникова.И.А, Н.М.Борытко и др. Воспитательная деятельность педагога. Учебное пособия. М.:Академия, 2006-333 с.
4. Подласый И.П. Педагогика 2-я часть -М.: ВЛАДОС, 2003 г.
5. Mirziyoyev Shavkat Miromonovich. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga ko‘ramiz. Mazkur kitobdagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2016-yil 1-noyabrdan 24-noyabrga qadar Qoraqolpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent sharhi saylovchilari vakillari bilan o‘tkazilgan saylovoldi uchrashuvlarida so‘zlagan nutqlari o‘rin olgan. / Sh.M.Mirziyoyev.- Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017.- 488 b.
6. [hppt://www.ziynet.uz/](http://www.ziynet.uz/)
7. www.relarn.ru/conf2007

Tayanch tushunchalar: individ, shaxs, tarbiya, milliy tarbiya, qadriyat, dunyoqarash,

1. Shaxs tushunchasi.

Shaxs tushunchasi «yuz», «soxta qiyofa» so‘zlaridan kelib chiqadi. Qadimgi rus tilida «soxta qiyofa» so‘zi «rol», ya’ni, odam boshqalar bilan muloqotda bo‘lganida kiyib oladigan biror-bir ijtimoiy niqob ma’nosini anglatuvchi «rol»ni bildirar edi. Lotincha persone so‘zi ham shu ma’noni anglatadi(Per sonare – niqob ortidan so‘zlashish). Qadimgi yunon, keyinchalik esa qadimgi rim teatrlarida aktyor sahnaga u yoki bu – yovuz, laganbardor, payg‘ambar, qahramon xarakterlari chizilgan niqobda chiqardi. Niqobning bo‘yoqlari ijtimoiy vazifani bajaruvchi, u yoki bu rolni ijro etayotgan insonning ahloqiy belgilariga ishorat edi. Qadimgi Yunonistonda «shaxs» tushunchasiga mos keluvchi atama ishlab chiqilmagan edi. O‘zining betakror taqdiriga ega bo‘lgan shaxs haqida Afrotun bilmas edi, bilishni ham xohlamasdi. Uning o‘rnini ruh egallagan edi. Arastuning «Jon haqida» asari hozirgi zamon psixologiyasiga yo‘l ochib berdi. Qadimgi Rim oldinga qadam

tashladi. Rim huquq ilmida yunoncha boshning yuz qismini, tashqi ko‘rinish, bundan tashqari, tragediyada ishtirok etuvchi ijrochini belgilovchi prosopon o‘rniga, lotincha persona so‘zi qo‘llanildi, bu so‘z avvaliga, yunoncha so‘zga o‘xshab, tragediyadagi aktyorning roli va niqobini anglatar edi. Lekin keyinchalik alohida individning nomi sifatida saqlanib qoldi. Rim fuqarosi huquqiy va diniy zot, avlodlar ismi-sharifi va mulk egasi sifatida ta’riflanadi.

Shaxs ijtimoiy-gumanitar fanlarda o‘z yo‘nalishi, tadqiqot obyekti va maqsadi nuqtai nazaridan turlicha talqin etiladi. U o‘ta murakkab, ziddiyatli, qarama-qarshi, o‘zini o‘zi inkor etadigan mavjudot sifatida, biologik, fiziologik, ijtimoiy, ma’naviy, ruhiy, axloqiy va estetik aqlidrok, tafakkur obyekti sifatida, hatto, falsafiy va mantiqiy, yashash huquqi va hayot mantig‘i jihatidan tadqiqot manbaiga aylanishi mumkin. Shaxsning shakllanish omillari ko‘p va xilma-xildir. Masalan, genetik (nasliy), biologik-tabiiy, madaniy, ijtimoiy hayot tajribasi, o‘z turdoshlari bilan munosabatlar va boshqalar shaxsning genetik jihatining nasliy asosi, ajdodlaridan yetib kelgan fizionomiya, fe‘l-atvor bilan, biofiziologik jihatida esa yashash uchun quvvat olish, ovqatlanish, jinsiy aloqaga kirishish va nasl qoldirish singari individual ehtiyoj bilan belgilanadi.

Shaxsning shakllanish omillari ko‘p va xilma-xiddir. Masalan, genetik (nasliy), biologik-tabiiy, madaniy, ijtimoiy hayot tajribasi, o‘z turdoshlari bilan munosabatlar va boshqalar shaxsning genetik jihatining nasliy asosi, ajdodlaridan yetib kelgan fizionomiya, fe‘l-atvor bilan, biofiziologik jihatida esa yashash uchun quvvat olish, ovqatlanish, jinsiy aloqaga kirishish va nasl qoldirish singari individual ehtiyoj bilan belgilanadi. Shaxs, mohiyatiga ko‘ra, madaniylashgan, ong, aql orqali faoliyatini boshqarish imkoniyatiga ega bo‘lgan, ijtimoiy-tarixiy an‘ana, turmush tarzi va tajribaga asoslangan muayyan avlodlar vakili. Shaxs fenomeni inson olamining butun murakkabliklarini o‘zida mujassam etadi. Uni har tomonlama o‘rganish maqsadida turli davrlarda tadqiqot olib borilgan. Ayniqsa, sharqda u yuksak axloqiyma’naviy me’yorlar orqali tushunilgan va oliy xilqat, bebaho qadriyat deb hisoblangan. Inson shaxs sifatida komillikka intiladi, hayot mazmunini boyitadi, shu asosda kishilik jamiyatining go‘zal va farovon bo‘lishiga ehtiyoj sezadi. Shaxsning hayot tarzi bevosita jamiyat hayotiga daxldor va hayot ne‘matlaridan to‘la foydalanishga haqli. Shaxs tushunchasi inson tushunchasining yuksak ko‘rinishi, oliy

maqomidir. Har qanday odam tabiiy mavjudligi, yashash huquqi va hayot qadriyatiga ega bo'lgan jonzotdir. Biroq u hamma vaqt ham to'laqonli shaxs bo'lib yetilmasligi mumkin. Odamning ijtimoiy mavjudot sifatida shaxsga aylanishi uchun ijtimoiy muhit sharoitlari va tarbiya kerak bo'ladi. Ana shular ta'sirida odam inson sifatida rivojlanib boradi va shaxsga aylanadi.

Shaxs tarbiyasiga ta'sir etuvchi omillar. Fanda odamning shaxs sifatida rivojlanishiga biologik va ijtimoiy omillarning ta'siri o'rtasidagi munosabatni belgilashga oid munozara ko'pdan buyon davom etmoqda. Insonning shaxs sifatida rivojlanishiga ijtimoiy voqealar, tabiiy omillar yoki tarbiya ta'siretadimi? Bu uch omilning o'zaro munosabati qanday? Fanda biologik yo'nalish deb nomlangan nuqtai nazar yetakchi o'rinlardan birini egallab, uning vakillari Aristotel, Platonlar tabiiy-biologik omillarni yuqori qo'yadi. Ular tug'ma imkoniyatlar, taqdir, tole har kimning hayotdagi o'rnini belgilab bergan, deydilar.

Shaxs rivojlanishida irsiyat, muhit, tarbiya bilan bir qatorda inson faoliyati ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu degani inson qanchalik mehnat qilsa, uning rivojlanishi shunchalik yuqori bo'ladi.

Faoliyat o'zi nima? Faoliyat inson tomonidan tabiiy va ijtimoiy hayotni maqsadga muvofiq o'zgartirishga yo'naltirilgan ijtimoiy-tarixiy turmushning o'ziga xos shaklidir. Insonning qobiliyati va yoshi u tomonidan tashkil etilayotgan faoliyat mohiyatiga ko'ra belgilanadi. Faoliyat jarayonida inson shaxsi, har tomonlama va bir butun, yaxlit holda rivojlanadi. Lekin faoliyatni maqsadga muvofiq amalga oshirishi uchun uni to'g'ri tashkil etish lozim. Lekin ko'p holatlarda shaxsning rivojlanishi uchun imkoniyatlar yaratilmaydi, tarbiyalanuvchilarning ijtimoiy mehnat, bilish faoliyatlari cheklangan bo'ladi.

Tirik mavjudotlar orasida inson eng murakkabidir. Odamzod tug'ilganidan so'ng, tashqi olam bilan uzviy bog'liq bo'ladi. Vaqt o'tishi bilan uni tushinishga, o'rganishga harakat qila boshlaydi. Bunda turli xil davrlarni bosib o'tadi. Astasekinlik bilan o'zini ham anglay boshlaydi. Insonning mohiyatini tushunishga harakat qilish jarayonida u nafaqat tashqi, balki ichki-yashirin xususiyatlarga ham ega ekanligini, ular birlashgan holda individ, shaxs, individuallik tushunchalarida aks etuvchi muayyan obrazni shakllantiradi.

Individ - lotincha "individium" degan so'zdan kelib chiqqan bo'lib, "bo'linmaydigan" degan ma'noni anglatuvchi bu atama

mustaqil yashaydigan tirik vujud, har bir shaxsni bildiradi. Individda atrofimizdagi barcha odamlardir. Ya'ni, kasbi, aqliy faoliyati, sog'lomligi yoxud imkoniyati cheklanganligidan qat'iy nazar individ hisoblanadi. Har bir mavjudot o'sib-ulg'aygani sari u o'zgarib boradi. Odam ham mukammallashib, individlik bosqichidan mustaqil shaxs va individuallikka erisha boshlaydi. Bu jarayon ijtimoiy-tarixiy xususiyatga ega bo'lib, ibtidoiy davrga xos bo'lgan individlik evolutsiya natijasida shaxsga aylanadi.

Individuallik - muayyan narsa va hodisa, shaxs va jonivorning o'zigagina xos, betakror, xususiy belgilar. Belgi sifatlarining o'ziga xosligi bilan individuallik umumiylikka (individ esa umumga) qarama-qarshi qo'yiladi. Dastlab, individuallik antik davrda atoqli yunon faylasuflari Levkipp va Demokrit tomonidan muayyan shakl va mazmunga, ya'ni o'ziga xos belgilarga ega bo'lgan narsa va hodisalarga, jumladan, atom yoki individ (ya'ni, bo'linmas) kabilarga xos xususiyatlarni aniqlash jarayonida ma'lum bo'lgan. Qadimgi Rim faylasufi Seneka individuallik tushunchasini yanada takomillashtiradi. Individuallik o'ziga xos xususiyatlarni va mazmunini yo'qotmay turib, boshqa bo'laklarga bo'linmaydigan aniq bir narsa (mavjudot) ekanligini e'tirof etgan.

Insondagi individuallik uning hayoti, faoliyatining barcha sohalarida namoyon bo'ladigan o'ziga xos sifatleri hisoblanadi. Individuallik alohida holda olinganda insonning aniq xatti-harakati, malakasi, layoqati, odat va ko'nikmalarini ifoda etadi. Unda insonning ichki va tashqi betakror xususiyatlari shakllanganligi uchun boshqalardan farqlanadi. Uning tarkibiga xarakter, temperament, iroda, iqtidor, qobiliyat va shu kabilar kirib, ular takrorlanmasdir. Ya'ni bir odamga xos bo'lgan iqtidor, qobiliyat, emotsiya, mimika, xarakterlar boshqa bir odamda aynan uchramaydi. Shu sababdan ham ular individualdir.

1. Milliy tarbiya, qadriyat tushunchasi mohiyati va turlari.

Tarbiya masalasi insoniyat paydo bo'lgandan buyon eng dolzarb masalalardan biri bo'lib kelmoqda. Tadqiqotchilar fikricha, insoniyat hayotining ibtidoiy davrlarida bolalarni tarbiyalashda stixiyali g'oyalar paydo bo'lgan va tarbiya mazmuni turli davrlarda, turli xalq, millat va elatlarda u yoki bu shaklda bo'lishiga qaramasdan ibtidoiy to'da davridan insoniyat ongli yoki ongsiz ravishda ushbu murakkab va uzluksiz jarayonni amalga oshirib kelmoqda.

Inson va jamiyatning mavjudligini ta'minlaydigan qadriyatlar milliy tarbiya tufayli ajdodlardan asta-sekin avlodlarga o'tadi. Milliy tarbiya atamasi keng va tor doirada ishlatiladi. Keng ma'noda, u inson shaxsini shakllantirishga, uning ishlab chiqarish va ijtimoiy, madaniy, ma'rifiy hayotda faol ishtirokini ta'minlashga qaratilgan barcha ma'naviy ta'sirlar, tadbirlar, harakatlar, intilishlar yig'indisini anglatadi. Demak milliy tarbiya nafaqat oila, maktab, bolalar va yoshlar tashkilotlarida olib boriladigan tarbiyaviy ishlar, balki butun ijtimoiy tuzum va uning yetakchi g'oyalari, hatto adabiyot, san'at, kino, radio, TV, OAV va boshqalarni o'z ichiga oladi. Shuningdek, milliy tarbiya tarkibiga bu sohada ta'lim va ma'lumot olish ham kiradi. Tor ma'noda, milliy tarbiya muayyan shaxsning ma'naviy rivoji, dunyoqarashi, axloqiy qiyofasi, estetik didi o'stirilishiga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatni anglatadi. Bizga ma'lumki, har qanday tarbiya ta'lim bilan chambarchas bog'liq holdagina mavjud bo'la oladi.

Milliy-tarbiyaviy qadriyatlarni tiklash va zamonaviylashtirish umuminsoniy ehtiyoj hamdir. Sobiq sho'rolar davrida ijtimoiy ongda «zamonaviylik - milliylik» tushunchalari orasida «sivilizatsiya - ekzotika» shaklidagi sun'iy antiteza hosil qilindi. Natijada milliylikni ajdodlardan avlodlarga boyitib yetkazuvchi jarayon - milliy tarbiyaning tobora zaiflashuvi yuzaga keldi. Mafkuraviy maqsadlar ostida rang-barang milliy qadriyatlarni o'zaro aloqada yuksaltirish emas, balki bir xillashtirish harakati rag'batlantirildi. Antropologlarning shahodat berishlaricha, odamning tashqi ko'rinishi kechki paleolit - kromanonlar davridan buyon o'zgarmasdan kelmoqda. Bu fikrning zamonaviy fanlar tomonidan tasdiqlanganligi odamning biologik evolyuttsiyasi tugallanganligini bildiradi. Odamdagi evolyuttsion rivojlanishning yakunlanishi esa undagi madaniy rivojlanishni boshlab beradi. Odamda oliy taraqqiy etgan turlarga xos bo'lgan emottsional-instinktiv xususiyatlar genetik meros sifatida mavjud bo'lib, bu xususiyatlarni chaqaloq dunyoga kelganida, uning rivojlanishining ilk oylarida kuzatish mumkin. Ijtimoiylashuv (sotsializatsiya) esa odam mohiyatini go'daklikdan boshlab kamolatga erishuv tomonga o'zgartira boradi.

Inson o'zining ijtimoiy-madaniy rivojlanishi jarayonida ajdodlarining milliy qadriyatlarini ijodiy o'zlashtiruvchi, zamoniyashtiruvchi, boyituvchi va o'zgartiruvchidir. Ana shu insoniy burchlarning har bir shaxs tomonidan mukammal bajarilishi ijtimoiy taraqqiyotning boy, rang-barang madaniy oqimlarini hosil qiladi,

saqlab turadi. SHu nuqtai nazardan, har bir inson o'zida tarixiy, ijtimoiy, madaniy-milliy ko'rsatkichlarni mujassamlashtiruvchi tarbiya mahsulidir. Turli xalqlarning bir-birlarini tanishida, bilishida, bilvosita va bevosita millatlararo muloqotlarda insonning milliy jihatlari alohida qiziqish uyg'otgan. Qadim zamonlarda ham tarixchilar, sayyohlar, qomusiy bilimga ega mutafakkirlar (Ibn Batuta, Strabon, Abu Rayhon Beruniy, Mikluxo Maklay, Lui Gonsales de Klavixo, Herman Vamberi va boshqalar) qoldirgan asarlar, ijtimoiy-falsafiy, axloqiy ta'limotlarda ham boshqa xalqlar hayotini qiyosiy o'rganish yo'nalishi mavjud edi.

XIX asrga kelib g'apb ijtimoiy fanlarida boshqa xalqlar milliy-madaniy xususiyatlarini tadqiq, qiluvchi kulturanthropologiya va sotsiologiya yo'nalishlari maxsus fanlarga aylandi. Bu fanlar "boshqa dunyo kishisi" muammosini o'rgana boshladi. Aslida esa bu – boshqacha tarbiya – milliy tarbiyaning tizim, uslublari, maqsadlaridagi xususiyliklarni ilmiy nuqtai nazardan o'rganish davri boshlanganligini anglatar edi. XIX asr uchun "boshqa dunyo kishisi"ni o'rganish taraqqiyparvar yangilik edi. Zero, kulturanthropologiya "Boshqa mamlakat, millat kishisi qanaqa?", "U o'zini o'rab olgan dunyoni, borliqni qanday idrok qiladi?", "U yaxshilik va yomonlikni qanday tushunadi?", "U o'z xatti-harakatlarida qanday mezonlarga asoslanib yo'l tutadi?" kabi savollarga javob izlar edi. Odamlarning dunyo haqidagi bilimlari ortib, yangi yerlar ochilib, savdo-sotiq, munosabatlari kengaya borgani sari ushbu muammoga qiziqish ham orta bordi. Ayniqsa, Yevropada kapitalistik jamiyatning shakllana borishi va shu bilan bog'liq, ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar, ayniqsa, mustamlakachilik davri u yoxud bu xalqlarning milliy xususiyatlarini o'rganishga kuchli turtki berdi. Chunki, mustamlakachi, missioner, plantatorlar o'z mustamlakalari – maxalliy xalqlar haqida hech bo'lmasa ibtidoiy tasavvurga ega bo'lishlari o'zlari uchun foydali edi. Qolaversa, bu masala mustamlakachilikning kelajagi – mahalliy xalqlarni "madaniy-oqartuv" orqali inglizlashtirish, frantsuzlashtirish, ya'ni madaniy-ma'naviy mustamlakalarga aylantirishning samaradorligini ta'minlash uchun ham kerak edi.

Milliy tarbiyaning etnopedagogik qirralarini ilk bor kashf etgan olimlardan biri – kulturanthropolog M.Mid bo'ldi. Uning tadqiqotlari nafaqat geterostereotip (bir xalqning boshqa xalqlar haqidagi bilimlari yig'indisi)ning, balki osiyolik va afrikaliklarda avtostereotip (o'z xalqi haqidagi bilimlar yig'indisi)ning shakllanishiga, boshqacha qilib

aytganda, o'zligini anglashga ham turtki bo'ldi. Biz uchun ushbu tadqiqotning pedagogik jihatida muhimdir. Zero, M. Mid tomonidan 1927-yili nashr ettirilgan "Samoada ulg'ayish" kitobi tarbiyaning milliylikiga asoslangan ilk ilmiy-tadqiqot natijasidir. Shuningdek, Al-Xusriy arab tilining ilmiy atamalarini yaratishga chaqirib, "milliy tarbiya" tushunchasini ilk bor ilmiy-pedagogik muomalaga kiritdi. Shu tariqa milliy tarbiya, bir tomondan, mulkdor boylar orasida mavjud "o'z manfaatlarini millat manfaatidan yuqori qo'yish va ochko'zlikka, ikkinchi tomondan, mutaasib ruhoniylarning "taraqqiyotga eltuvchi ilg'or g'oyalarga dushmanligi"ga qarshi kurashda samarali qurol bo'lib xizmat qildi.

Milliy tarbiyaning manbai – milliylik! «Millat», «milliylik», «milliy g'urur», «milliy odob», «millatlararo muloqot madaniyati» tushunchalarining o'zagini arabcha «mil» so'zi tashkil qiladi. Bu so'z arabchada «o'zak», «tub mohiyat», «negiz» ma'nolarini anglatadi. «Millat» so'zi esa bir necha ma'noni:

- 1) din: mazhab;
- 2) ummat: bir mazhabga mansub aholi;
- 3) xalq ma'nolarini anglatadi.

«Millat», «milliylik» tushunchalarining talqini bilan tanishar ekanmiz, ularning g'arbona va sharqona tarzlari bor ekanligini ko'ramiz. Aniqrog'i, g'arbiy talqin xristian, sharqiy talqin esa islomiy o'zaklarga borib tutashadi. Ya'ni Yevropa xalqlari tillariga «millat» tushunchasi lotincha «natio» - qabila, xalq sifatida xristian dini bilan birga kirib kelgan bo'lsa, Osiyoga esa islom ta'limoti orqali yuqoridagi uch xil ma'noda kirib kelib singdi.

«Tarbiya» so'zi «milliy tarbiya» tushunchasining tarkibiy qismi bo'lganligi tufayli bu tushunchaga ham yangicha yondoshgan holda, xolis ilmiy-pedagogik ta'rif bermoq kerak. Arabcha «tarbiya», «tarbiyat» so'zlari:

- 1) parvarish qilmoq; ta'lim bermoq; o'rgatish; odob o'rgatish;
- 2) navozish, mehribonlik ko'rsatish: ko'z-quloq bo'lish; himoya qilish kabi ko'p qirrali mazmunga ega.

«Tarbiyachi» esa shu ko'p qirrali tarbiyaviy faoliyatni amalga oshiruvchi odam, demakdir. Demak, milliy tarbiyaning lug'aviy ma'nosini «yosh avlodlarni o'z xalqiga xos milliy fazilatlar namunasida shakllantirish, ta'lim bermoq» sifatida aniqlash mumkin. Bu o'rinda tarbiyaviy manba sifatida Zardushtiylilik dinining muqaddas kitobi

bo‘lmish “Avesto” g‘ururi ahamiyatga ega. Unda insonning barkamol bo‘lib yetishishida uning so‘zi, fikri, ishi birligiga g‘ururi e‘tibor berilgan. Bu axloqiy uchlik eng qadimgi davrlardan boshlab, undan keyin yaratilgan barcha ma‘rifiy asarlarga asos bo‘lgan, desak, xato qilmagan bo‘lamiz. Mana shunga asosan, “Avesto”ning eng asosiy manbasi bo‘lgan Zardushtiylik to‘g‘risida so‘z borganda u to‘g‘rilik bilan yashash va axloqiy unsurlarga asoslanganligini ta‘kidlash lozim. Ayniqsa, “Avesto”da inson tarbiyasiga, insonlarning jamiyatda tutgan o‘rniga munosabati to‘liq yoritilgan. Zardusht ta‘limotida tarbiya haqida quyidagicha fikr bildirilgan. “Tarbiya — hayotning eng muhim tirgagi (tayanchi) bo‘lib hisoblanishi lozim. Har bir yoshni shunday tarbiyalash zarurki, u, avvalo, yaxshi o‘qishni va so‘ngra esa yozishni o‘rganishi bilan eng yuksak pog‘onaga ko‘tarilsin va yana yaxshi ovqatlanadigan xalqdan yaxshi nasl—sog‘lom avlod qoladi” – deb ta‘kidlanadi. Tarbiya ijtimoiy hodisa. Tarbiya kishilik jamiyatining paydo bo‘lishi bilan vujudga keldi, taraqqiy etdi, jamiyatning o‘zgarishi bilan tarbiya ham o‘zgarib bordi. Tarbiya xulqni boshqarish va belgilash, bir-birini talab etadigan va belgilaydigan tarkibiy qismlar — axloqiy ong, axloqiy faoliyat va axloqiy munosabatlarning murakkab yig‘indisidir. Tarbiya shaxsni maqsadga muvofiq takomillashtirish uchun uyushtirilgan pedagogik jarayon bo‘lib, tarbiyalanuvchilarning shaxsiga muntazam va tizimli ta‘sir etish imkoniyatini beradi.

Tarbiya — o‘sib kelayotgan avlodda hosil qilingan bilimlar asosida aqliy-axloqiy dunyoqarashni, insoniy e‘tiqod, burch va masuliyatni, jamiyatimiz kishilariga xos bo‘lgan axloqiy fazilatlarni yaratishdagi maqsadni ifodalaydi. Tarbiya deb tarbiyachi o‘zi xohlagan sifatlarni tarbiyalanuvchilar ongiga singdirishi uchun ularning ruhiyatiga ma‘lun maqsadga ko‘ra tizimli ta‘sir ko‘rsatishiga aytiladi. Tarbiya bola tug‘ilganidan umrining oxirigacha davom etadigan jarayondir. Tarbiya — biror maqsadga qaratilgan jarayon, doimo muayyan rejaga ega bo‘ladi va buning uchun maxsus vakolati mavjud bo‘lgan kishilar tomonidan amalga oshiriladi

Jamiyatimizning, xalqimizning ming yillik ma‘naviy-axloqiy yuksalish tajribasini o‘zida jamlagan Islom madaniyatini tiklash o‘z taqdirini o‘zi belgilash, tarixiy xotiraga, madaniy-tarixiy birlikka ega bo‘lish yo‘lidagi g‘oyat muhim qadam bo‘ldi. Ma‘naviy qadriyatlarning yana bir qudratli manbayi an‘anaviy oila va qarindoshlik munosabatlari odobidan iboratdir. Kattalarni hurmat

qilish, o‘zaro yordamlashish, kelajak avlod haqida g‘amxo‘rlik qilish hamisha uning asosiy qoidalari bo‘lib kelgan.

“Qadriyat” tushunchasining ilmiy iste’molga olib kirilganiga ko‘p vaqt bo‘lmagan, ammo uning negizi, insonning ijtimoiy faoliyati ekanligi mudom e’tirof etilgan. Antik davr mutaffakkirlarida “qadriyat”, “qadr”, “qadrlash” tushunchalarini ijtimoiy borliq, inson faoliyatining baxosi, baxolanishi boshqalar tomonidan ma’lum bir normalar asosida qadrlanishi tarzida tushunganlar. Masalan Aristotelning fikriga ko‘ra, qadriyat hodisalarga baxo, munosabat, yaxshilik va yovuzlik tushunchalarida talqin qilinadi. Falsafa qomusiy lug‘atida “Qadriyat – voqelikdagi muayyan hodisalarning umumiesoniy, ijtimoiy – ahloqiy, ma’naviy – madaniy ahamiyatini ko‘rsatish uchun qo‘llanadigan falsafiy tushuncha. Qadriyatlar ichida eng birinchisi va eng umumiy hayotning o‘zidir, chunki hayotdan mahrum bo‘lish qolgan barcha qadriyatlardan foydalanishni yo‘qqa chiqaradi.

Qadriyat deganda inson uchun ahamiyatli bo‘lgan, millat, elat va ijtimoiyguruhlarining manfaatlari va maqsadlariga xizmat qiladigan tabiat va jamiyat hodisalari majmui tushuniladi. “Qadriyat” aslida arabcha so‘z bo‘lib, o‘zbek tilida “qiymat”, “ahamiyat”, “qimmatbahobuyumlar”, “xalq boyligi” degan ma’nolarni anglatadi.

Qadriyatlar — inson uchun ahamiyatli bo‘lgan millat manfaatlari yo‘lida xizmat qiladigan erkinlik, ijtimoiy adolat, tenglik, haqiqat, ma’rifat, go‘zallik, yaxshilik, halollik, burchga sodiqlik singari fazilatlarni o‘zida mujassamlashtiradi. Qadriyatlar o‘zining mazmun-mohiyatiga ko‘ra bir necha turlarga bo‘linadi, ya’ni:

- *tabiiy qadriyatlar* (yashash uchun zarur bo‘lgan tabiiy shart-sharoitlar);
- *iqtisodiy qadriyatlar* (ishlab chiqarish kuchlari va vositalari);
- *ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar* (erkinlik, tenglik, adolat, tinchlik, hamkorlik);
- *ilmiy qadriyatlar* (bilimlar, tajribalar, yutuqlar);
- *falsafiy qadriyatlar* (g‘oyalar, mafkuralar, konsepsiyalar);
- *badiiy qadriyatlar* (san’at, adabiyot, madaniyat);
- *diniy qadriyatlar* (iymon, e’tiqod, vijdon. Savob).

Shu bilan birga, qadriyatlarning milliy va umuminsoniy turlarga ajratilishi an’ana tusiga kirgan. Milliy qadriyatlar ma’lurn bir millat,

xalq va elatlarning o'z tarixiy taraqqiyotida yaratadigan barcha moddiy va madaniy (ma'naviy) boyliklari yig'indisidan iboratdir.

An'ana- (lotincha traditio-uzatish) bu o'ziga xos ijtimoiy hodisa bo'lib, kishilarning ongida, hayotida o'z o'rnini topgan, avloddan-avlodga o'tadigan, takrorlanadigan, hayotning barcha sohalarida (umum yoki ma'lum guruh tomonidan) qabul qilingan tartib va qoidalaridir.

Odat (urf-odat) — kishilarning turmushiga singib ketgan, ma'lum muddatda takrorlanib turuvchi xatti-harakat, ko'pchilik tomonidan qabul qilingan xulq-atvor qoidalari. Masalan:

- kichiklarning kattalarga salom berishi;
- katta turar joy, yashash, uy-hovlini tartibga keltirib qo'yish;
- mehmonlarga alohida hurmatda bo'lish;
- bayram arafasida kasal, ojiz, qiynalganlardan habar olish;
- yordam lozim bo'lganlarnikiga hasharga borish, kabilar o'zbek xalqining yaxshi odatlari hisoblangan.

Marosim — an'ana va urf-odatning tarkibiy qismi bo'lib, inson hayotidagi muhim voqealarni nishonlashga qaratilgan rasmiy va ruhiy ko'tarinkilik, tantanavor vaziyatda o'tadigan o'zining umumiy qabul qilingan ramziy harakatlariga ega bo'lgan hayotiy tadbir. Masalan:

- ism qo'yish marosimi;
- nikohdan o'tish marosimi;
- xotirlash marosimi;
- urug' qadash marosimi;
- o'ringa kirish marosimi va boshqalar.

Qadriyatlarning mazmuni jamiyaning moddiy ne'matlar ishlab chiqarish jarayonlari bilan bogliqdir. U keng ma'noda madaniyat dunyosidir, bu esa inson ma'naviy hayotining hamma faoliyatining qimmatini belgilovchi baxodir.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda, qadriyatlarni o'z mohiyati va amal qilish doirasiga qarab bir necha shakllarga bo'lish mumkin:

1. Moddiy qadriyatlar-mehnat va mehnat qurollari, moddiy ne'matlar.

2. Ma'naviy qadriyatlar-ma'naviyat, madaniyat ilmiy falsafa, axloqiy-estetik qarashlar, diniy, tarixiy, badiiy, dunyoviy qimmatli nomoddiy boyliklar.

3. Tabiiy qadriyatlar-insonni o‘rab turgan va insoniyat yashashi uchun zarur bo‘lgan tabiiy boyliklar, o‘simliklar, hayvonot olami, yer osti va yer usti boyliklari, tuproq, suv, havo kabilar.

4. Iqtisodiy qadriyatlar-texnika va texnologiya, shuningdek, mehnat bozori munosabatlari va hokazo.

5. Ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar-davlatchilik, demokratiya. adolat, tinchlik, mustaqillik.

Qadriyatlar komillikka erishishga qaratilgan, shaxs va uning atrofidagi dunyoningichkirivojlanishi uchun ma’noli jihatlari bilan to‘ldirish orqali ijodiy ta’sir ko‘rsatadiganongvaborliqning ustunlari sifatida tasniflanishi mumkin. Qadriyatlar inson va uni o‘rabturganolamniahamiyatli rishtalar bilan bog‘laydi hamda bu munosabatlarni kerakli tomonga o‘zgartiradi. Qadriyatlar - axloq nuqtai nazaridan ijobiy ma’noga ega bo‘lgan tushunchalar hisoblanadi.Qadriyatlar jamiyatda mavjud ijtimoiy me’yorlar, shu jumladan shaxslararo munosabatlar,insonning o‘zini-o‘zi nazorat qilishi kabi muhokama qilinmaydigan xatti-harakatlar qoidalaribilan chambarchas bog‘langandir. Qadriyatlar tizimi nafaqat insonning xulq-atvor muhitini tartibga soladi, balki shaxsningma’naviy tuzilishini shakllantirishga ham ta’sir qiladi. Qadriyatlar inson taraqqiyoti yo‘linibelgilashda muhim omil bo‘lib hisoblanadi. Qadriyatlarni o‘rganish mobaynida uni quyidagiturarlarga ajratilib ko‘rsatiladi:

➤ ma’naviy qadriyatlar;

➤ estetik qadriyatlar;

➤ diniyqadriyatlar;

➤ Milliy qadriyatlar umuminsoniy qadriyatlardan muayyan millat yoki elatning manfaatlar yig‘indisini tashkil etishi bilan farqlanadi. Bir millat qadriyatlari boshqa millat tomonidan qabul qilinmasligi mumkin SHunga qaramay, har bir millat boshqa millat uchun qimmatli bo‘lgan qadriatlarni hurmat qilmoi ma’naviyatdir. Zero, ma’naviyatning asasiy o‘zagi – milliy, umuminsoniy va shaxsiy qadriyatlardir. Milliy qadriyatlarga to‘xtalganda, alohida shaxslar yaratgan qadriyatlarni e’tirof etish lozim. Alohida shaxslarning qadriyatlari ham milliy, ham umuminsoniy qadriyatlar darajasiga ko‘tarila olishini xalqimiz tarixidan ko‘plab misollar keltirib isbotlash mumkin . Masalan, Faroniyning “Astronomiya negizlari”, Ibn Sinoning “Tib qonunlari”, Xorazmiyning “Algorit”i, Beruniyning “Meneralogiya”si, Forobiyning “Fozil odamlar shahri” asari, Buxoriy,

Termiziy, Naqshbandiy, Kubroviy, Yassaviy kabilarning ma'naviy meroslarini keltirish mumkin.

3, Milliy qadriyatlar asosida shaxs dunyoqarashini shakllantirish

Milliy madaniyat va qadriyatlarning mazmunini bilish, ularga e'tiqod qilish, yosh avlod ongiga insonparvarlik va vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantiradi. Vatan baxt-saodati va milliy istiqbolimiz yo'lida fidokorona mehnat qilishga, komil inson bo'lib voyaga yetishga undaydi.

Milliy qadriyatlar bir millat a'zolari ming yillar davomida yaratgan moddiy va ma'naviy madaniyat boyliklari, milliy til, milliy adabiyot, uning psixik ifodasi, xarakteri, ijtimoiy-siyosiy qarashlari, SHarqona ahloqiy printsiplari, urf-odatlar, an'analari kabilardir.

Umuminsoniy qadriyat- jamiyat va odamzod nasli uchun eng qadrlil va umumijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan narsalar, hodisalar, sifat, faoliyat va boshqalarning ismi yoki nomini emas, balki ularning ijtimoiy qadrini ifodalash uchun ishlatiladigan aksiologik tushunchadir. Yoshlarimiz ongiga singdirilayotgan milliy istiqbol g'oyasi ma'naviy meros asosidagi umuminsoniy qadriyatga tayanadi. Umuminsoniy qadriyatlarqalar alohida xalqlarning, millatlarninggina emas, balki bashariyatning mulkidir. SHu bois, ma'naviy meros, tarixiy tajriba, an'ana va urf-odatlar-barkamol avlod O'zbekistonida qadriyatlar darajasiga yetishishi tarbiya institutlarining o'rni beqiyosdir. Zero, millat o'z qadriyatini boshqa millat qadriyatlaridan ayri holda yarata olmaydi. Milliy o'zlikni anglashda milliy g'oya, mafkura va millatga xos bo'lgan yangilanish jarayonlari jadal ruvojlantirishga i lozim.

Yosh avlodga ta'lim-tarbiya, bilim berish, uni ijtimoiy hayot va faoliyatga tayyorlashning asosiy mezonlaridan biridir. Ta'lim - tarbiya orqali yoshlarning milliy qadriyatlar sirasiga kiruvchi ahloqiy fazilatlarini shakllanadi, jamiyatdagi g'oyaviy, mafkuraviy jarayonlarga nisbatan munosabati o'zgaradi va barkamol shaxs bo'lib yetishishida imkoniyatlar paydo bo'ladi. SHaxsning ijtimoiy mavqeini aniqlashda, jamiyatning ijtimoiy-siyosiy tizimini isloh qilish, ijtimoiy tartib va barqarorlikni qo'llab-quvvatlash, ishtimoiy nazoratni amalga oshirishda ta'lim-tarbiya jarayoni muhim ahamiyat kasb yetadi.

O'zbekistonda umuminsoniy qadriyatlarga xurmat, azaliy milliy yondashuv sanaladi. Xalqimizga xos bo'lgan mehmondo'stlik, birodarlik, do'stlik, sadoqat, halimlik umuminsoniy hamjihatlikning asosini tashkil yetadi. Umuminsoniy manfaatlarga milliy tiklanish g'oyasining uyg'unlashuvi istiqbolga erishgan vatanimiz tashqi va ichki siyosatining

o'zagini tashkil etadi. Milliy o'zlikka egalik, ozodlik, hurriyatni qo'ldan bermaslik, uni oliy qadriyat deb bilish milliy mentalitetimizning negizidir.

Shu bois, yoshlarni ezgulikka yo'g'rilgan qadriyatlar asosida tarbiyalash, ularga vatanparvarlik g'oyalarini singdirish muhimdir. Vatanparvarlik, eng avvalo, davlatimiz ramzlari bayroq, madhiya. gerbimizda o'z ifodasini topgan. Til orqali esa yurtimizni ululaymiz, yoshlarimizni uning qadriga yetishga chaqiramiz. Ramzlarda xalqimizning orzu-umidlari, hayot yo'li, urf-odatlar, tabiatga bo'lgan munosabati, qadriyatlariga sodiqligi, mehr-muhabbati kabilar o'z aksini topgan. Vatan ona allasiga yo'rilgan beshikdan boshlanib, ota-onani tanlab bo'lmaganidek, Vatan ham tanlanmaydi. U Vatanni sevish, ardoqlash, taraqqiy yetishiga hissasini qo'shish imkoniyatiga ega. Shu orqali u hayotda ham o'ziga, ham oilasiga baxt bera oladi. Xalqimizda ota-ona qanchalik ulug'lanib, ardoqlansa, tug'ulib o'sgan Vatan shunchalik qadrlidir. Kattalarga hurmat, kichiklarga izzat o'zbek mentalitetiga xos xususiyatdir. Shuning uchun ham yoshlar ongiga milligimizga xos bo'lgan or-nomus, milliy g'urur, mehribonlik, vijdonlilik, sadoqat, mehmondo'stlik, ahillik, ota-bobolardan faxrlanish, nasl-nasabini ulug'lash kabilar yoshlarni vatanparvar bo'lishga undaydi.

Qadriyatlar uyg'unligi insonning komil inson darajasiga yetish uchun intilishida, erkin yashashida, farovon hayot kechirishida alohida vosita hisoblanadi. Qadriyatlarni asrab-avaylash, rivojlantirish ijtimoiy taraqqiyot uchun muhimdir. Demak, hayot tarzini o'zgartirish uchun tafakkurni o'zgartirish kerak. Yoshlar o'z fikrlash tarziga ega bo'la borgan sari o'zligini, ma'naviy merosimizning ahamiyatini anglay boshlaydilar. Shuning uchun avvalo yoshlarda fikrlash qobiliyatini shakllantirishga alohida e'tibor berish kerak. Donolik insonni shahardagi o'nta hukmdordan qudratliroq qiladi. Inson yaxlit bir menga yetishi kerak. O'zlikni tanish degani ana shu. Nafsni yo'lga solgandan keyin ahloqiy me'yorning qadri oshadi.

“O'zbekiston tanlagan yo'l-umuminsoniy va umume'tirof etilgan demokratik qadriyatlarga erishishga qaratilgan, ko'p asrlik madaniyatimizning eng sara yutuqlari, milliy an'analarimiz” ajdodlarimiz diniga bo'lgan sadoqatimiz bilan uyug'nlashib ketgan yo'l-biz uchun o'zgarmasdir. Yoshlar tarbiyasida barqaror qadriyatlarning ahamiyati katta.

Shunday qilib, istiqlol davrida erishilgan eng katta ijtimoiy taraqqiyotdagi yutiq bu milliy o'zlikni anglash davri bo'ldi. Ajdodlarimizga xos mehnatsevarlik, adolatparvarlik, halollik, insonparvarlik milliy istiqlol g'oyasi yoshlarga yetkazilmoqda va shakllantirilmoqda. Mustaqillikni asrash va uni taraqqiy ettirish e'tiqodli, elim deb, yurtim deb yashash, har bir

insonning yuragidan joy olmoqda. Milliy o'zlikni anglashda yangi qadriyatlarning o'rni muhimdir. Ularni xalqimiz o'zining ehtiyojlariga muvofiq umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirilmoqda. Qaysidir xalq uchun qadriyatli bo'lgan voqea, jarayon, narsa predmet boshqa millat uchun ahamiyatsiz bo'lishi mumkin. Ma'naviy madaniyati yuksak o'zbek xalqining qadriyatlari ham ajdodlari merosi kabi yuksakdir. Qadriyatlarni xalqning ijtimoiy ongidan, ma'naviyati va madaniyatidan, hech qachon siqib chiqarish mumkin emas. O'zbekiston jamiyatining ma'naviy yangilanishi jarayonida xalqimiz ongida yuksalish ro'y berdi. Zero, mustaqillikning ma'naviy asoslarini mustahkamlashda milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi muhim ahamiyatga ega.

4. Umuminsoniy tarbiya mezonlari.

O'zbekistonda umuminsoniy qadriyatlarga hurmat azaliy milliy yondashuv sanaladi. Xalqimizga xos bo'lgan mehmondo'stlik, birodarlik, do'stlik, sadoqat umuminsoniy hamjihatlikning asosini tashkil etadi.

Mamlakatimizdagi ijtimoiy – iqtisodiy, madaniy-siyosiy yuksalish, millatlararo tolerantlik asosida tinchlik va xotirjamlik, barqarorlikni soqlab qolish yo'lidagi matonatli kurash, bag'rikenglik va vijdon erkinligi, ma'naviy merosimizni tiklash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni e'zozla, taraqqiyot sari bosqichma – bosqich harakat hamisha va har qadamda umuminsoniy manfaatlar bilan integrallashuv negizida amalga oshirib kelindi. Mustaqillikning ilk yillaridanoq respublikamiz ravnaqiga eng katta to'siq – bu g'oyaviy bo'shliq ekanligi har qadamda sezilgan. Bugun jamiyatimizda yashayotgan inson O'zbekistoni, yoshlarimizning hayotda o'z o'rinlarini topishlari uchun milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi asosida sog'lom muhit va keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Maktab, va oliy o'quv yurtlarida milliylikka asoslangan diniy qadriyatlar farzandlar ongiga singdirilmoqda. Ammo ma'lum bir sabablarga, ayniqsa “ommaviy madaniyat” ta'siri ostida axloqsizlik, ota-onaga nisbatan loqaydlik, kattalarga nisbatan hurmatsizlik, xudbinlik kabilarning avj olayotganiga diniy bilimsizlik ham sabab bo'layotgani sir emas. Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagi vazifalarni amalga oshirish yoshlarimiz ongida milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligini singdirish muhim ahamiyatga ega:

- yoshlarimiz ongiga nafaqat dunyoviy bilimlarni, balki milliy

va diniy bilimlardagi ezgu qadriyatlarni singdirishni kengroq yo'lga qo'yish;

- milliy qadriyatlar asosidagi urf-odat, an'ana va marosimlarni mustaqillik davrida shakllangan yangi qadriyatlar bilan boyitish;

- milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligini halollik, bag'rikenglik, millatparvarlik, vatanparvarlik, axloqiylik, ilm-fanga va vatanga fidoiylik kabi tushunchalarni targ'ib qiladigan asarlar, videofilmlar, ko'rsatuv, eshittirish va tadbirlar orqali yoshlarimizga singdirish;

- jamiyatning ma'naviy yangilanishida Markaziy Osiyo Uyonish davri mutaffakkirlarining ma'naviy va ilmiy merosidan, jadidchilarimizning sabr – toqat bilan erishgan yutuqlaridan unumli foydalanish;

Oilalar va o'quv yurtlari hamkorligida mahallalarda milliy qadriyatlar ahamiyatini tahlil qilib beradigan tadbirlar o'tkazish;

- yoshlarga hayotning o'zi eng buyuk qadriyat ekanini ta'lim va tarbiya uyg'unligi asosida anglatib, inson jismonan va ma'nan sog'lom bo'lsagina oldida turgan barcha maqsadlarga erisha olishi to'g'risidagi uslub va vositalarni ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

Ma'naviy qadriyatlar va milliy o'zlikni anglash

Ayni paytda o'zbek milliy madaniyati, madaniy merosining necha asrlar davomida umumjahon madaniy merosi darajasida qaror topganligini dunyo e'tirof etmoqda, e'zozlamoqda. Ajdodlarimiz yaratgan ezgu va muqaddas qadriyatlar rivoj topib, insoniyatning kelgusi taraqqiyotiga ijobiy ta'sirini ko'rsatib, xalqlarni ma'naviy va ruhiy jihatdan buyuk o'zgarishlarga tayyorlab keladi. Ma'rifatga intilish xalqimizning azaliy fazilatlaridan bo'lgani sababli mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning maqsadi ham marifatli, ma'naviy barkamol shaxsni tarbiyalashdir.

Jamiyatning ma'naviy yangilanishi sharoitida yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligini shakllantirishning istiqbollari belgilashda quyidagi tamoyillarga amal qilish maqsadga muvofiqdir:

- o'zbekona milliy qadriyatlarning betakrorligi va insonparvarligi;

- milliy qadriyatlarning asrlar sinovidan o'ta olganligi;

- milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligiga e'tiborning kuchayishi;

- diniy qadriyatlarning milliy qadriyatlarga bog‘lanib ketgani;
- ijtimoiy taraqqiyot jarayonida milliy qadriyatlarning sayqallanib borishi;
- ta‘lim va tarbiya uyg‘unligiga qadriyat sifatida qaralayotganligi;
- insonning eng oliy qadriyat ekanligi;
- ma‘naviy merosning qadriyat sifatida e‘zozlanayotganligi va h.k.

1. Ta‘lim-tarbiyaning samaradorligini oshirishda O‘zbekistonda bo‘layotgan islohatlar.

Ta‘lim jarayoni samaradorligini oshirish, ta‘lim oluvchilarning mustahkam nazariy bilim, faoliyat, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish, ularni kasbiy mahoratga aylanishini ta‘minlash maqsadida o‘quv tarbiya jarayonida interfaol metodlardan foydalanish davr taqozosi hamda ijtimoiy zaruriyat sifatida kun tartibiga qo‘yilmoqda. Hozirgi kunda o‘qitishda interfaol metodlardan foydalanish, uning mazmun mohiyatini bilish, uni ta‘lim jarayoniga tadbiq qilish va metodikasini yaratish juda muhimdir. Pedagogik kadrlarni innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorlashda ularning metodik tayyorgarligini shakllantirish jarayoniga innovatsion texnologiyalarni joriy etish mazkur jarayonning samaradorligini orttirishga zamin tayyorlaydi.

Vatanimiz ta‘limi keng qamrovli islohotlarni hamda qayta qurish ishlarini amalga oshirishdek murakkab jarayonni boshidan kechirdi va kechirmoqda. Ulardan ko‘zda tutilgan maqsad maktab faoliyatini demokratlashtirish uning, insonparvarlik tamoyillarini rivojlantirish, shu asosida o‘quv tarbiya ishlari mazmunini, uning shakl va uslubini kompleks yangilash va yanada takomillashtirishdan iboratdir. Yangilangan ta‘lim to‘la ma‘noda yangicha tafakkur, sog‘lom fikr demakdir. Hozirgi davrda ta‘limning qadr-qimmati, obro va nufuziga teng darajada unnig ijrochilarida tashabbuskorlik, fidoyilik va ishbilarmonlik ham bo‘lmog‘i zarur.

Ta‘limdagi muvvafaqiyat, aksariyat dadil harakat qiluvchilar tarafida bo‘ladi. Dadil harakat, shijoat tufaylidadir. Shijoatni esa insonga, o‘zbek milliy pedagogikasining mumtoz namoyondasi Abdulla Avloniy takidlaganlaridek maktab ilm- ma‘rifat baxsh eta oladi.

Qadimdan bizda bilim olish qadrlangan. Bilimdon kishilar esa el- yurt ardog‘ida bo‘lganlar. Shuning uchun ham bilim olish va olingan

bilimni mamlakatimiz xizmati yo'lida xizmat qildirish oliy insoniylik burchimizdir. Bu vazifalarni muvaffaqiyatli hal etishni muhim shartlaridan biri chet el maktabi va pedagogikasi tajribalari o'rganishdir. Xalqaro tajribalarini sinchkovlik va qunt bilan o'rganish orqali ta'lim tarbiyada qotib qolgan, o'z dolzarbligini yo'qotib borayotgan ish shakllari, uslublaridan xalos bo'lish bilan birga, uni munosib tarzda yangilashda qo'shimcha boy manbalarga ega bo'lamiz.

Prezident maktablari, buyuk allomalarimiz nomi bilan ataladigan ixtisoslashtirilgan maktablar, ijod maktablari, Temurbeklar maktablari kabi zamonaviy va innovatsion ta'lim maskanlari tashkil etildi. Ularda xalqaro tajribalar yo'lga qo'yilganligi kelajakda yetuk kadrlar yetishib chiqishidan dalolat beradi. 2019-yil 26-noyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Zamonaviy maktablarni tashkil etish chora tadbirlari to'g'risida"gi qaror qabul qilindi. Qarorga muvofiq 2021-yilgacha maktablarning kamida 3 foizi, 2025-yilgacha 20 foizi 2030-yilga qadar esa 50 foizini, zamonaviy maktab" larga aylantirishning asosiy parametrlari belgilandi.

Prezidentimiz shu yil yanvar oyida Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomada maktab o'quv dasturlarini ilg'or xorijiy tajriba asosida takomillashtirish, o'quv yuklamalari va fanlarni qayta ko'rib chiqish, ularni xalqaro standartlarga moslashtirish, darslik va adabiyotlar sifatini oshirish zarurligini takidlagi. Maktablarda moddiy-texnik ta'minotini yaxshilash, o'quv tarbiya jarayonida xalqaro zamonaviy pedagogik texnologiyalarini qo'llash bo'yicha vazifalarini belgilab berdi. Yurtimizda matematika, kimyo, fizika, va biologiya darslarining 10 foizigina amaliy mashg'ulotga ajratilgan. Rivojlantirilgan davlatlarda bu ko'rsatkich 30-50 foizni tashkil etadi. Shu bois xalq ta'limi vazirligi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligiga o'quv dasturlarida raqamli texnologiyalardan keng foydalanish, aniq fanlarda amaliy mashg'ulotlar ko'lamini oshirish vazifasi qo'yildi. Bugungi kunda har qaysi xalq davlat va jamiyatning taraqqiyot darajasi, avvalambor uning inson kapitaliga, inson rivojida berayotgan e'tibori bu yo'ldagi say harakatlari bilan o'lchanadi.

O'qituvchilarni ishdan olishni maktab direktori amalga oshirmaydi. Yaxshi ishlaydigan o'qituvchilarni direktor tavsiyasiga muvofiq ta'lim inspeksiyasi tomonidan taftish qilinadi. Uning intizomi, o'qituvchilik faoliyati, bolalar, ota-onalar o'rtasidagi obro'si diqqat

bilan o'rganiladi va tegishli chora ko'riladi. Maktab o'qituvchilariga qo'yilgan talab Fransiyada o'ta yuqori. Ayniqsa boshlang'ich maktablarda o'qituvchi o'z kasbining ustasi, ajoyib notiq, san'atkor, musiqachi, sportchi, tashkilotchi, namunali xulq egasi bo'lmog'i lozim. Fransiya ta'lim tizimlarida maktabdan va sinfdan tashqari muassasalari ko'zda tutilmagan. Biroq maktablarda, litseylarda turli to'garaklar mavjud. O'zbekiston Respublikasi vazirlar Mahkamasi huzuridagi ta'lim sifatini nazorat qilish ta'lim inspeksiyasi tashkil qilinganiga endigina 2 yildan oshdi. O'tgan davr mobaynida inspeksiyaga yuklatilgan vazifalar bajarish bo'yicha ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish va ularni yurtimiz ta'lim sifatini baholash ishlarini joriy etish bo'yicha maqsadli ishlar olib borilmoqda. Biz ayni damda chet el pedagogikasidagi ilg'or jihatlarini o'zashtirish, yangi- yangi o'quv predmetlarini ta'lim tarkibiga kiritish bilan jahondagi eng ilg'or pedagogikalarinig biriga aylantirish.

Ta'lim sifatini baholash tizimini yaratish Birinchidan, vazirlik mamlakatimizda ta'lim sifatini baholash tizimini o'rganib chiqdi. O'rganish natijalari shuni ko'rsatdiki, shu paytgacha ta'lim tizimi sifati va yagona yondashuvga asoslangan real holatni baholovchi tizim bo'lmagan. Shu bois ta'lim sifatini aniqlash uchun bir necha tashqi manbalar ma'lumoti o'rganilib, xalqaro tajribalar amaliyotga joriy etilgan holda shaffof hamda ob'ektiv baholash mezonlari yaratilmoqda. Shuningdek, maktab bitiruvchilarining 2019 yilda oliy ta'lim muassasalariga kirish ko'rsatkichlari tahlil qilindi. Tahlil natijalariga ko'ra 2 mingdan ziyod maktabning bironta o'quvchisi oliy o'quv yurtiga kira olmaganligi aniqlandi. Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi tomonidan bu yil ilk bor maktablar reytingi e'lon qilindi. Reyting pedagoglar salohiyati, 9-sinf o'quvchilari bilim darajasi, bitiruvchilarning OTMlarga kirish ko'rsatkichlari va ijtimoiy so'rovnomalarga asoslandi. 2020 yilda AQSHning Xalqaro taraqqiyot agentligi (USAID) bilan birgalikda boshlang'ich sinf (2- va 4-sinf) o'quvchilari o'rtasida o'qish (EGRA) va matematika (EGMA) savodxonligi bo'yicha xalqaro baholash o'tkaziladi. Hozirgi kunda baholashni o'tkazish bo'yicha tayyorgarlik ishlari olib borilmoqda. 2021 yilda o'quvchilar bilimi PISA va PIRLS xalqaro baholash dasturlari asosida aniqlanadi. Mazkur xalqaro baholash dasturlari mamlakatimiz ta'lim tizimini boshqa davlatlar bilan solishtirish va kamchiliklarini aniqlashga ko'mak beradi. Joriy yilning

oktyabr oyida Sirdaryo viloyatida ta'lim sifatini baholash va viloyatni ta'lim sifati bo'yicha namunali hududga aylantirish bo'yicha amaliy ishlar boshlandi. Tajriba doirasida o'qituvchilar va o'quvchilarning bilimlari baholandi. Bitiruvchilari oliy ta'lim muassasalarga kirmagan maktablar (2000 dan ortiq) birinchi navbatda davlat attestatsiyasi va akkreditatsiyasidan o'tkazish rejalashtirildi.

Pedagog va rahbarlarning uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini yaratish 23 avgustdagi videoselektorda o'qituvchi va murabbiylarning o'zi ham bilim va saviyasini oshirish, jamoat ishlarida faol ishtirok etish, halol mehnati va tashabbuskorligi bilan bu kasbning obro'sini oshirishi kerakligiga urg'u berildi. SHu bilan birgalikda, ayrim pedagog xodimlarning bilim va malakasi bugungi zamon talablariga javob bermasligi hamda o'qituvchilarning bilim va saviyasini yuksaltirishda malaka oshirish tizimining o'rni sezilmas yig'ilishda tanqid qilib o'tildi. Shu bois, "Xalq ta'limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimi to'g'risida" Prezident qarori loyihasi tayyorlanib, keng muhokamaga qo'yildi. Unda uzluksiz malaka oshirish tizimini amaliyotga joriy etish bo'yicha quyidagilar belgilandi:

a) xalqaro andozalarga asoslanib xalq ta'limi tizimidagi pedagoglarning kompetensiyalari darajasini belgilovchi yagona kasbiy standart va baholash tizimini ishlab chiqish;

b) umumta'lim maktablarida pedagogik faoliyat yuritish huquqini berish bo'yicha kasbiy litsenziyalash (sertifikatlash) mexanizmlarini ishlab chiqish hamda uni bosqichma-bosqich joriy etish;

d) xalq ta'limi xodimlarining mustaqil ravishda malaka oshirishlarini qo'llabquvvatlash va ularning kasbiy ehtiyojlarini e'tiborga olish imkoniyatini beradigan malaka oshirishning kredit-modul tizimini joriy etish;

e) amaldagi metodist lavozimini tugatgan holda o'qituvchilarning kasbiy faoliyatini doimiy rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash uchun "mentor" lavozimini joriy etish. Mentorlikka tajribali oliy toifali o'qituvchilar va yuqori malakali kadrlarni jalb etish hamda ularning oyligini oliy toifali o'qituvchilarga nisbatan 1,35 baravar ko'proq etib belgilash;

Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida belgilangan o'qituvchilar ish haqining bosqichma-bosqich oshirilishi faqatgina kasbiy litsenziyaga ega bo'lgan pedagog

kadrlarga tatbiq etilib, o'qituvchilarni o'z ustida ishlashga undaydi. Kasbiy litsenziyani joriy etish maqsadi va ahamiyati yuzasidan keng jamoatchilik orasida tushuntirish ishlari davom ettirilmoqda. Yakuniy loyiha jamoatchilik fikrini inobatga olgan holda takomillashtiriladi.

Savollar:

1. Shaxs tushunchasini izohlang?
2. Faoliyat nima?
3. Individullik nima?
4. Milliy tarbiya nima?
5. Milliy tarbiyaning keng va tor ma'nolarini izohlang?
6. Birinchi marta "Milliy tarbiya" atamasini arab tilida ilmiy atamalarini yaratishga chaqirgan olim kim?
7. Zardusht ta'limida tarbiya haqida qanday fikrlar bildirilgan?
8. Qadriyatlar mazmun-mohiyatiga ko'ra necha turga bo'linadi?
9. Umuminsoniy tarbiya mezonlari nimalarda namoyon bo'ladi?
10. Ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirishda vatanimizda bo'layotgan islohatlar nimalardan iborat?

Test:

1. Milliy tarbiyaning asosiy maqsadi nima?

- a) O'quvchilarga ilmiy bilimlarni oshirish;
- b) o'quvchilarni milliy qadriyatlar bilan tanishtirish;
- d) jismoniy tarbiyani yaxshilash;
- e) o'quvchilarni ijtimoiy mas'uliyatga o'rgatish;

2. Milliy tarbiyaning mazmuni nimadan iborat?

- a) faqat axloqiy qadriyatlarni o'rgatish;
- b) milliy madaniyat, urf-odatlar va an'analarga hurmatni shakllantirish;
- d) yangi texnologiyalarni o'rganish;
- e) ilmiy bilimlarni oshirish;

3. Milliy tarbiyaning asosiy vazifasi nima?

- a) o'quvchilarga ilmiy nazariyalarni o'rgatish;
- b) o'quvchilarda milliy ongni rivojlantirish;
- d) o'quvchilarning faqat jismoniy rivojlanishini ta'minlash;
- e) yalpi ijtimoiy masalalarni o'rgatish;

4. Milliy tarbiyada qanday asosiy qadriyatlar muhim hisoblanadi?

- a) faqat xalqaro qadriyatlar;
- b) milliy til, madaniyat, an'analarga hurmat;
- d) faqat ilmiy bilimlar;
- e) faqat axloqiy qadriyatlar;

5. Milliy tarbiyaning mohiyati qanday ifodalanadi?

- a) yangi texnologiyalarni o'rganish;
- b) milliy qadriyatlarni yosh avlodga o'rgatish va ularda milliy ongini shakllantirish;
- d) faqat sportni rivojlantirish
- e) milliy tarbiyani faqat amaliyotda qo'llash

6. Milliy tarbiya qanday omillar orqali amalga oshiriladi?

- a) faqat axloqiy tarbiya;
- b) madaniy, milliy urf-odatlar va til orqali;
- d) faqat ilmiy ishlar orqali;
- e) faqat jismoniy tarbiya orqali;

7. Milliy tarbiya qanday vositalar bilan amalga oshiriladi?

- a) kitoblar va ilmiy adabiyotlar;
- b) milliy musiqalar, san'at, folklor va an'analar;
- d) yalpi bilimlar bilan;
- e) faqat ilmiy tajribalar bilan;

8. Milliy tarbiyaning asosiy tamoyillari qaysilar?

- a) faqat ilmiy bilimlarni oshirish;
- b) milliy qadriyatlarni o'rganish va ularga hurmat;
- d) xalqaro qadriyatlar asosida tarbiya;
- e) axloqiy faollikni oshirish;

9. Milliy tarbiyadagi asosiy tamoyilni kim shakllantiradi?

- a) o'quvchi o'zi;
- b) o'qituvchi;
- d) ijtimoiy tarmoq;
- e) faoliyatning barchasi;


10. Milliy tarbiyaning ijtimoiy roli nimadan iborat?

- a) Faqat axloqiy qoidalar va madaniy normalarni o'rgatish;

- b) Jamiyatning ijtimoiy, ma'naviy va madaniy rivojlanishini ta'minlash;
- d) faqat jismoniy salomatlikni saqlash;
- e) ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish.

“Fishbone” diagrammasi

tarqatma-2



1-rasm. “Fishbone” diagrammasi.

3-mavzu. Tarbiya usullari va shakllari.

Reja:

1. Tarbiya usullari haqida tushuncha.
2. Tarbiyani tashkil etish shakllari.
3. Tarbiya qonuniyatlari va tamoyillari.
4. Ijtimoiy ongni shakllantirish metodlari.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mavlonova R., Raxmonqulova N., Normurodova B. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. -T.: Tib-kitob, 2010 y.
2. Ishmuhammedov R., Abduqodir A., Pardayev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar. -T.: Fan va texnologiya, 2010 y.
3. И.А.Олесникова, Н.М.Борытко и др. Воспитательная деятельность педагога. Учебное пособия. М.:Академия, 2006-333 с.
4. Подласый И.П. Педагогика 2-я часть -М.: ВЛАДОС, 2003 г.

5. Mirziyoyev Shavkat Miromonovich. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga ko‘ramiz. Mazkur kitobdagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2016-yil 1-noyabrdan 24-noyabrga qadar Qoraqolpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent sharxi saylovchilari vakillari bilan o‘tkazilgan saylovoldi uchrashuvlarida so‘zlagan nutqlari o‘rin olgan. / Sh.M.Mirziyoyev.- Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017.- 488 b.
6. <http://window.edu.ru/window/www.astronet.ru>

Tayanch tushunchalar. Tarbiya maqsadi, tarbiya qonuniyati, o‘z-o‘zini anglash, insonparvarlik, izchillik, tizimlilik, ixtiyoriylik, jamoa, metod, ijtimoiy ong,

1.Tarbiya usullari haqida tushuncha.

Har bir yosh avlod o‘qishni, tarbiya olishni istaydi, ulg‘ayib jamiyat hayotida faol ishtirok etishni hohlaydi. O‘qituvchi uni qay usulda, qanday munosabatlar sharoitida, qanday pedagogik jarayonda tarbiyalashi lozimligini bilishi kerak. Shu bilan birga bola o‘zini o‘zgartirishda faol ishtirokchi ekanligini ham unutmaslik lozim. O‘quvchilar yaqin kishilarining (ota-onasi, o‘qituvchilari, tarbiyachilarining) munosabatlarini yaxshi bilsa, bu unga ishda yordam bersa, shundagina bola pedagogik ta‘sir o‘tkazishga ochiq va moyil bo‘ladi. O‘qituvchi - do‘st, murabbiy, yo‘l boshlovchi bo‘lgandagina o‘quvchilar o‘zlarining ichki olamlarini ochib ko‘rsatadilar.

Ma‘lumki, tarbiya – tarbiyachi va tarbiyalanuvchi faoliyatlarini o‘z ichiga olgan ikki yoqlama jarayondir. Tarbiyachilar – bilim va tarbiyaga ega bo‘lgan kishilar, tarbiyalanuvchilar – bilim va tajriba o‘rganuvchi yoshlardir. Ammo tarbiyalanuvchilar muayyan darajada aktiv faoliyat ko‘rsatmasalar, tajriba va bilim o‘rgana olmaydilar.

Demak, tarbiya usullari - o‘qituvchi, tarbiyachining tarbiyalanuvchilarga ta‘sir ko‘rsatish usullari, ularga ijobiy xulq-atvor ko‘nikmalari va malakalarini singdirish maqsadida ularning hayoti va faoliyatini tarbiyaviy jihatdan to‘g‘ri tashkil etish yo‘llaridir. Aniqrog‘i, tarbiya usuli deb tarbiyachining bolalarda axloq-odob fazilatlarini tarkib toptirish maqsadida ularning ongi va irodasiga ta‘sir etish yo‘llariga aytiladi. Tarbiya usullari tarbiyaning maqsadi va

mazmunidan kelib chiqib, komil inson shaxsini tarbiyalashga qaratilgan.

Ajdodlarimiz davr sinovidan o'tgan ajoyib insoniy fazilatlar hamda ularni amalga oshirish usul va vositalarini yaratganlar, shu asosda yoshlarni ijtimoiy hayot talablariga javob beradigan kishilar qilib tarbiyalab kelganlar. O'quvchilarning jamoa va individual faoliyatlarini maqsadga muvofiq tashkil qilish uchun tarbiyashakllaridan foydalaniladi. Masalan: sinf majlisi, yig'ilishlar, klub ishlari va boshqalar.

Tarbiya vositalari biron-bir tarbiyaviy masalani maqsadga muvofiq yo'l bilan hal qilishni tashkil etish uchun ishlatiladi (ko'rsatmali qo'llanmalar, kitoblar, radio, televideniya). Bundan tashqari o'quvchilar jalb qilingan faoliyat turlari – kinofilmlar, san'at asarlari, o'qituvchining jonli so'zi, bolalar o'yini, sport, badiiy havaskorlik to'garaklari va boshqa faoliyat turlari tarbiyaviy vositalari bo'lishi mumkin. Tarbiya vositalari tarbiyaviy maqsadlarni amalga oshirish uchun o'qituvchi-tarbiyachining tarbiya tizimiga kiritilishi lozim. Tarbiya natijasi tarbiyaviy jarayonning usullari, uslubi, vositalari va shakllaridan mohirona foydalanishga bog'liq. Tarbiyachilar ta'sir etishning boshla shaxsiyatiga mos usulini, eng maqbul usulini tanlab olishlari, uning shaxsini o'zgartirish uchun kerakli sharoit yaratishlari darkor.

Yoshlarni tarbiyasida o'zining ijobiy sifatlari, axloqiy fazilatlarini namoyon qilganda, mehnat faoliyatda, berilgan topshiriq va vazifalarni astoydil, yaxshi bajarganda ham, o'quv ishi natijalarini ham rag'batlantirish o'qituvchidan talab etiladi, ya'ni bu ish lozimdir. Shunday qilib, tarbiya jarayonida o'qituvchi yakka o'quvchi yoki sinf jamoasi manfaati yo'lida biron-bir tarbiyaviy masalani hal qilish uchun o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini, tarbiyalanganlik darajalarini, pedagogik vaziyat xarakterini hisobga olgan holda ta'sir etish shakllari majmuasiga tarbiya usuli deyiladi.

Tarbiya usullari, vosita va omillari asrlar davomida shakllanib takomillashadi, o'zini oqlagan urf-odatlar an'anaga aylanadi. Binobarin, tarbiyada har bir xalqning o'z udumi, usuli tarixan shakllangan va tajribada sinalgan dunyoqarashi tarbiya vositalari bo'ladi, shuning uchun tarbiya milliy va tarixiy zamindan uzilmasligi kerak.

Tarbiya texnologiyasi asosida tarbiyaviy jarayon yotadi. O'quvchilar faoliyatini tashkil etuvchilar bshlib, ular tomonidan erishiladigan natijalarni rejalashtirish va unga erishish usullari, bu usullarni modellashtirish ishlab chiilarilgan reja va modellarni rshyobga chiilarish, bu rejalarni amalga oshiruvchi shaxsning faoliyati va axloiiini boshlarish kabilar hisoblanadi.

Tarbiya – tarbiyachi va tarbiyalanuvchi faoliyatlarini o'z ichiga olgan ikki yoqlama jarayon. Tarbiyachilar-bilan va tarbiyaga ega bo'lgan kishilar tarbiyalanuvchilar-bilim va tajriba o'rganuvchi yoshlardir. Ammo tarbiyalanuvchilar muayyon darajada aktiv faoliyat ko'rsatmasalar tajrib va bilim o'rgana olmaydilar.

Tarbiya jarayoni:

- maqsadga yo'nalganlik;
- ko'p omillik;
- jo'shqinlik;
- davomiylik;
- uzluksizlik;
- komplekslilik;
- varitlilik;
- ikki tomonli xarakter;
- natijalarning olisligi;

Tarbiya vazifalari:

1. O'z vatanini fuqorosini tarbiyalash. Tarbiyaning bu vazifalarni amalga oshirish quyidagilarni taqazo etadi; Milliy vatanparvarlik, o'z vataniga, tarixiga, madaniyatiga iftixor tuyg'usi; Millatlar aro madaniy munosabatlar, siyosiy madaniyat.

2. Shaxsning ma'naviyatini shakllantirish. Ma'naviyat kishining ichki dunyosi bo'lib, uning jamiyat va tabiatdagi «Men»i, obrazi, taqdiri va rolini ifoda etadi. Ma'naviyat darajasig'bu, ma'lum ma'noda, insoniylik mezonidir. Ma'naviyatni shakllantirish bu uning shaxsiy harakatlari, intilishlari, refleksiyasi bilan kishining ichki dunyosini vjudga keltirishdir.

3. Mehnatkash inonni iqtisodiy tafakkurini tarbiyalash mehnatga, kasbga hurmat va ijtimoiyg'psixologik jihatdan yoshlarda mustaqillik, ijod, ishchanlik, faollik, yuqori kasbiy tayyorgarlik sifatlarini kuchaytirish zarur.

4. Ruhiy - jismoniy sog'lomlikni tarbiyalash. Bu axloqiy – hayotiy muvozatat va psixologik qulaylik holatini ushlab turish

hamda jismoniy rivojlanish meyoridan uzoqlashib ketishga yo‘l qo‘ymaslik ko‘nikmalarini shakllantirishdir.

5. Kishining tabiat bilan munosabatini uyg‘unlashtirish. Ekologik fojia muammosi davrimizning eng dolzarb muammolaridan biridir. Kishining tabiat bilan munosabatini uyg‘unlashtirish konkret hududiy o‘ziga xoslikni hisobga olgan holda o‘lkashunoslik va tabiatshunoslik bo‘yicha amalitsy faoliyatni kuchaytirish va kengaytirishni talab etadi. Bu esa, o‘z navbatida, tarbiyalanuvchilarga nafaqat ekologik xavfsizlik qoidalarini anglab yetish balki, tabiatni qo‘riqlash ishida shaxsan qatnashish zarurligiga ishonch hosil qilish imkonini ham beradi.

6. Shaxsda induviduallik va jamoaviylikni tarbiyalash.

Sobiq Ittifoq davrida pedagogika shaxsni jamoada va jamoa orqali tarbiyalashga yo‘naltirilgan edi. Hozirgi paytda ayrim pedagogik doiralarda individual tarbiya haddan tashqari maqtalmoqda. Aslida individual va jamoaviy tarbiya bir-biriga zid emas. Indivduallik tabiat tuhfasini bo‘lib, uni rivojlantirish zarur, Modamiki, inson jaimyatda yashar ekan, u jamiyatdagi axloq va huquq me‘zonlarini, ijtimoiy fikrlarni xurmat qilishi lozim. Mexnatning aksariyat ko‘rinishlari uchun jamoa harakati zarur bo‘ladi. Shu tufayli jamoaviylik ruhida tarbiyalash dolzarb masala bo‘lib hisoblanadi. Ayni chog‘da individual tarbiya nihoyatda muhimdir, chunki bunga dastlab yetarlicha e‘tibor berilmagan edi, hozir esa buni zamonaviy ijtimoiyg‘iqtisodiy o‘zgarishlar talab etmoqda.

Tarbiyaviy jarayonning insonparvarlashtirilishi uning demokratlashtirilishi bilan bevosita bog‘langan. Demokratlashtirish, dastavval tarbiyaviy tizimning barcha bosqichlarini uslub va metodlarida ko‘rinadi. Shu ma’noda demokratlash avtoritarizmning aksidir.

Shaxsiy yondoshish. Bunday yondoshish tarbiyalanuvchilarning shaxsiy sifatlariga tayanishni ko‘zlaydi va tarbiyachidan quyidagilarni tadab etadi:

- shaxsning individual xususiyatlarini (xarakteri, mijozi (temperamenti), qarashlari, odatlari va b.
- muntazam o‘rganish va yaxshi bilish;
- mohirona tashxislash va shaxsiy sifatning real shakllanganlik darajasini bilish;

- tarbiyalanuvchini shaxsning rivojlanishini ta'minlovchi murakkablashib boradigan faoliyatga tortish;
- shaxsning aktivligiga tayanish;
- shaxsni tarbiyalashdan o'z-o'zini tarbiyalashga o'tish, maqsadni, mazmuni, metodlarni o'z-o'zini tarbiyalashning shakllarini belgilash maxoratini xosil qilish;
- faoliyatning muvaffaqiyatga olib keluvchi mustaqillik, tashabbus, tarbiyalanuvchilarning tashabbuskorligini, mohirona tashkil etish va yo'naltirishni rivojlantirish.

Tarbiyaviy ta'sirning birligi. Bu prinsip tarbiyaga daxldor bo'lgan barcha shaxslar, tashkilotlar, ijtimoiy institutlar, pedagogik ta'sirni o'zaro to'ldirgan holda, birlashib harakat qilishlari tarbiyalanuvchilarga kelishilgan holda talablar qo'yishlari, bir-birlari yordam berishlari talab etiladi.

Prinsipni amalga oshirishning asosiy qoidalari:

- tarbiyachilar tomonidan tarbiyaviy ta'sir etishning boshqa sohalarini hisobga olib borish;
- o'quvchilarning oilasi bilan aloqada bo'lish, tarbiyaviy vazifalarni hal etishda unga tayanish, tarbiyaviy harakatlarni kelishib olish;
- tarbiyachining o'zi tarbiyalangan bo'lishi kerak (o'z tarbiyalanuvchilariga singdirilishi lozim bo'lgan sifatlarga ega bo'lish);
- tarbiyachining tarbiyaviy jarayondagi boshqa suektlar bilan hamkorligida birlashtiruvchi (ayiruvchi emas) omilga tayanish;
- o'z hamkasblari, jamoasi, ijtimoiy tashkilotlar va boshqalarning ma'qul talablarining tarbiyachi tomonidan qo'llab-quvvatlanishi;
- tarbiyaviy ta'sir etishda an'anaviylik, tarbiyaviy jarayonda muntazamlilik;
- tarbiyaviy jarayonning barcha subektlari orasida aloqalarni o'rnatish.

Tarbiya jarayonining mazmuni Tarbiya jarayonining mazmuni - bu bilimlar, e'tiqodlar, ko'nikmalar, sifatlar, shaxs qiyofasi, axloqning barqaror odatlari sistemasi bo'lib, tarbiyalanuvchilar qo'yilgan maqsad va vazifalarga muvofiq ularni egallab olishlari zarur.

Tarbiyaning asosiy g'oyalari:

1. Tarbiya maqsadlari aniqliligi.
2. Tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning birgalikdagi faoliyati.
3. O'z yo'lini belgilab olish.
4. Tarbiyachining shaxsiy yo'nalganligi.
5. Ixtiyoriylik.
6. Jamoaviylikka yo'nalganlik

Uyushgan tarbiya insonni hayotdagi uchta asosiy rolga fuqorolikka, xodimlikka va oilaparvarlikka tayyorlash lozim.

Fuqorolikni shakllantirish chog'ida aniq mo'ljalga asoslanish:

- fuqorolik majburiyatlariga Vatan, jamiyat, otag'ona oldidagi majburiyat hissi, milliy iftixor va vatanparvarlik tuyg'usi;

- davlat Konstitusiyasi, davlat hokimiyati organlari, mamlakat Prezidenti, davlat ramzlari (gerb, bayroq, madhiya)ga hurmat;

- mamlakat taqdiriga javobgarlik; - jamoat tartibi va yashash madaniyati;

- mamlakatning milliy boyligi, tili, madaniyati, ana'nalarini asrab avaylash;

- ijtimoiy faollik; - demokratik tamoillarga roya etish;

- tabiatni asrabg'avaylash;

- o'zgalarni huquq va erkini hurmat qilish;

- faol hayotiy pozitsiya;

- o'z huquqini anglash va fuqorolik mas'uliyati;

- halollik, rostgo'ylik, sezgirlik, mehrg'shavqat;

- o'z ishi va qilmishlariga javobgarlik;

- xalqaro hamkorlik, boshqa mamlakatlar xalqiga hurmat va boshqalar.

Xodimni farqlovchi belgilar:

- intizomlilik va mas'uliyat;

- ishchanlik va tashkilotchilik;

- umumiy, maxsus va iqtisodiy bilimlar;

- siyosiy bilimlar;

- mehnatga ijodiy yondoshish;

- qat'iyat, topshirilgan vazifani tez va sifatli bajarishga intilish;

- kasbiy g'urur, mahoratga hurmat ko'rsatish;

- onglilik, hushmuomalalik, batartiblik;

- mehnat faoliyati tajribasi;

- mehnatga, hayotga, faoliyatga estetik munosabat;

- jamoaviy, birlashib mehnat qilish layoqati;

- tashabbuskorlik, mustaqillik, Vatan, jamiyat ravnaqi uchun ko‘p va samarali mehnat qilishga tayyorlik;
- ishchanlik va uddaburonlik;
- mehnat kishilariga, ishlab chiqarish ustalarga hurmat va boshqalar. Oilaparvarlikni farqlovchi belgilar:
 - mehnatsevarlik, mas’uliyatlilik;
 - hushmuomalalilik, muloyimlik, aloqa madaniyati;
 - o‘zini jamoada tuta bilish;
 - pokizalik, ozodalik, gigenik ko‘nikmalar;
 - salomatlik, aktiv turmush tarziga ko‘nikish;
 - dam olishni tashkil etish o‘tkazish omilkorligi;
 - har tomonlama bilimdonlik;
 - huquqiy normalar va qonunlarni bilash;
 - bolalarni tarbiyalash layoqati;
 - nikohdan o‘tishga tayyorgarlik va oilaviy vazifalarni bajarish;
 - o‘z ota-onalari, yoshi ulug‘ kishilarga hurmat va boshqalar.

Dunyoqarashni shakllantirish. Dunyoqarash - bu kishi ongining bilimlar, qarashlar, maslak va oliy maqsadlarni qamragan, tabiat va jamiyatning rivojlanishiga uning munosabatini ko‘rsatadigan, Uning ijtimoiyg‘siyosiy va axloqiy- estetik mavqei va xulqini xayotning turli sohalarida belgilaydigan o‘ziga xos soxadir. Bilimlar - dunyoqarashning obektiv komponenti sifati shaxsning tavsifiy, tasdiqlanuvchi mulohazasi shakliga ega bo‘lib ilmiy haqiqat tarzida tasavvur etiladi. Qarashlar - bu hikmatning tabiat va jamiyatda uchrovchi u yoki bu hodisalarni tushuntirish, bu hodisalarga o‘zining munosabatini ko‘rsatish bilan bog‘liq bo‘lgan hukumlar, subektiv xulosalardir.

Ishonch - bu chuqur anglangan va xayajon bilan boshdan kechirgan-oyalarni majmui bo‘lib, ular mafkura, siyosat, axloq va sanatga daxldor bo‘lgan shaxsning hayotiy mavqei hamda faoliyati va axloqi xarakterining barqaror ekanligini bildiradi. Oliy maqsad – anglab yetilgan va ta’sirchan idrok etishing oliy kamolati bo‘lib, shaxsning faoliyat maqsadi va hayotiy maslagidir.

Dunyoqarash vazifalari:

1. axborat – iniqosli;
2. orentirli – boshqaruvchi;
3. baholovchi;

Dunyoqarashning asosiy ko‘rinishlari:

1. ilmiy;
2. diniy;
3. kundalik (hayotiy).

Ilmiy bilimlarni maslakka aylanishiga yordam beruvchi psixolo-pedagogik mexanizmlar va pedagogik shart-sharoitlari:

- bilimlarni chuqur va mustahkam o'zlashtirish;
- dunyoqarash xarakteridagi barcha dalil va asoslarning mantiqan isbot etiluvchi va o'zaro zid emasligini chuqur ilmiy asoslash;
- ta'lim va tarbiyaning fuqorolik yo'nalishi;
- tarixiylik prinsipini amalga oshirish;
- bilish aktivligi va mustaqilligini rivojlantirish;
- o'rganayotganlarning o'rganilayotgan materialga nisbatan hissiy munosabatini uyg'otish;
- o'qituvchi shaxsining ijobiy ta'siri.

Fuqaro bu muayyan davlatda doimo yashaydigan, uning himoyasida foydalanadigan, huquq va burchlar majmuiga ega bo'lgan shaxsdir. Fuqaroni tarbiyalash o'qiyotganlarda vatanparvarlik, xalqaro munosabatlar madaniyati, siyosiy madaniyatni tarbiyalashni ko'zda tutadi. Vatanparvarlik – o'z vataniga, xalqiga sadoqat va mehr muhabbatdir. Kishining tug'ilib o'sgan joyiga bog'liqlik, ona tiliga bo'lgan hurmat, vatan manfaatlarga sodiqlik va g'amxo'rlik, uning erkin va mustaqilligini himoyalash; ijtimoiy va madaniy yutuqlaridan faxrlanish; tarixiy o'tmish va axloqiy an'analarga hurmat munosabati; o'zining mehnati, kuchi va qobiliyatini vatan ravnaqiga bag'ishlash hissi vatanparvarlikda namoyon bo'ladi. Xalqaro munosabatlar madaniyati turli xalqlarning xalqaro iqtisodiy, ma'naviy axloqlari, turli millat vakillarining o'zaro hurmat qilishlari, muayyan axloqiy xushmuomalalikning saqlashni, boshqa xalqlarning tili, odatlari va an'analarni mensimaslikka yo'l qo'ymaslikda ko'rinadi, bu munosabatlarning yuqori darajadagi takomili va rivojlanishini ko'zda tutadi.

Xalqaro munosabatlar madaniyati quyidagilarni aks ettiradi:

- boshqa millat kishilariga, ularning tili, milliy urfg'odatlari va an'analarga hurmat;
- boshqa mamlakatlar va xalqlarning hayoti va madaniyati yutuqlariga qiziqish bilan qarash;

- umuminsoniy qadriyatlarni rivojlantirishga intilish.

Tarbiyalanuvchilar faoliyatining darsdan tashqari tizimini loyhxalash Darsdan tashqari faoliyat tizimi o'qitishning Nazariy va amaliy tizimini to'ldiradi. Uning asosiy vazifasi o'qitishdan tashqari vaqtini o'zining o'zi tarbiyalash va ijtimoiy faoliyatini mehnat bilan shag'illanish uchun oqilona taqsimlashga yordam berishdir

Tarbiya jarayonining mohiyati, qonuniyatlari va o'ziga xos jihatlari xususidagi mavjud nazariy va amaliy g'oyalarga pedagogik bilimlarga tayangan holda tarbiya texnologiyasining tarkibiy qismlarini quyidagicha belgiladi:

1. Tarbiya jarayonini umumiy loihasi;
2. Tarbiyani tashkil etishga bo'lgan ijtimoiy ehtiyoj (rag'bat);
3. Tarbiya maqsadi.
4. Tarbiya mazmuni(shakl, metod, usul va texnik vositalar);
5. O'qituvchi (tarbiyachi) faoliyati;
6. O'quvchi(tarbiyalanuvchi faoliyati);
7. Tarbiya samarasi(natija).

Tarbiya nazariyasi – pedagogikaning bir qismi bo'lib, tarbiyaviy jarayonni mazmuni, usuli va tashkil etilishi masalalarini o'rganadi. Hayotga yangicha siyosi va iqtisodiy nuqtai nazardan yondoshish o'sib kelayotgan yosh avlod tarbiyasi bilan bog'liq jarayonni ham qayta ko'rib chiqishni taqazo etmoqda. Hozirgi zamon pedagogikasida tarbiya tarbiyachining tarbiyalanuvchi shaxsiga oddiy ta'sir ko'rsatishi emas, balki tarbiyachilar va tarbiyalanuvchilarni aniq bir maqsadga qaratilgan, birg'biri bilan hamkorlikda qiladigan munosabatlari va o'zaro ta'sir ko'rsatishi ekanligi alohida ta'kidlanadi. Bugungi kunda shunchaki bilim egasi bo'lgan insonni emas, balki ijodkor, o'z iste'dodi bilan ajralib turuvchi ishbilarmon insonni tarbiyalash zamon taqazosidir.

2. Tarbiyani tashkil etish shakllari.

Tarbiya tizimining milliy xususiyatlari:

-milliy tarix va madaniyatning o'ziga xos jihatlari hisobga olish;

-tarbiyaviy ishlarda milliy udumlar, an'analar, urfg'odatlar, diniy marosimlardan foydalanish;

-milliy madaniyat jahon madaniyatining bir bo'lagi ekanligi tushunchasini shakllantirish.

Tarbiya prinsiplari. Tarbiya prinsiplari – bu umumiy qoida bo‘lib unda tarbiyaviy jarayonini tashkil qilish mazmuni, metodlari shakllariga bo‘lgan asosiy talablar aks etgan. Ta’lim prinsplaridan farqli ravishda ular o‘qituvchilar tomonidan tarbiyaviy vazifalarni hal etishda qo‘llaniladi. Bu prinsplarnig asosiy jihatlari: majburiylik, komplekslilik(uyg‘unlilik), teng ahamiyatlilik bo‘lib hisoblanadi.

Tarbiya prinsiplari – bu tarbiyachilar uchun tayyor va har narsaga yaraydigan qoida emas, chunki uni qo‘llash bilan yuqari natijalarga erishib qolinmaydi. Bu tarbiyachining na tajribasini, na mahoratini almashtira oladi, ularning amalga oshirishi shaxs faoliyati bilan shakllangan. Tarbiya prinsiplari tizimi(sistemasi)

Tarbiyaviy jarayon tayanuvchi prinsplar tizimida quyidagilarni ajratish mumkin:

- tarbiyaning ijtimoiy yo‘nalganligi;
- tarbiyaning hayot va mehnat bilan bog‘liqligi;
- tarbiyada ijobiy jihatlarga tayanish;
- tarbiyani insonparvarlashtirish;
- shaxsiy yondoshish;
- tarbiyaviy ta’sirning umumiyliigi.

Tarbiyaning ijtimoiy yo‘nalganligi. Ilg‘or o‘qituvchilar tarbiyani ijtimoiy inistitut sifatida tushunganlar. Turli davlarda yo ijtimoiy, yo davlat, yoki shaxsiy yo‘nalish kasb etib, uning mazmun prinsplari o‘zgargan. Mazkur prinsp o‘qituvchining barcha faoliyati tarbiyaning davlat strategiyasiga mos holda o‘sib kelayotgan avlodini tarbiya vazifalariga bo‘ysundirishni talab qiladi va tarbiyachilar faoliyatini shaxsni ijtimoiylashtirishga yo‘naltiradi. Bu prinsplarni amalga oshirishning asosiy qoidalari tarbiyaviy (mehnat, ijtimoiy, o‘yin va b.) faoliyat jarayonida o‘quvchilarda faoliyatning ijtimoiy qimmat va muhim sababga molik, ijtimoiylashtirish suratini tezlashtirishni tashkillashtirish zaruriyati bilan bog‘langan.

Tarbiyaning hayot va mehnat bilan bog‘liqligi. Mazkur prinsip o‘qituvchilar faoliyatining ikki asosiy yo‘nalishini ko‘zda tutadi:

a) tarbiyalanuvchilarni kishilarning ijtimoiy va mehnat faoliyati, unda ro‘y berayotgan o‘zgarishlar bilan atroflicha va darxol tanishtirish;

b) tarbiyalanuvchilarni haqiqiy hayotiy munosabatlar, ijtimoiy foydali faoliyatning turli ko‘rinishlariga jalb qilish.

Tarbiyaning hayot bilan bog'liqligi prinsipini amalga oshirish o'qituvchidan quyidagilarni ta'minlash mahoratini talab etadi:

- tarbiyalanuvchilar tomonidan mehnatning jamiyat va aloxida shaxs hayotidagi rolini tushunish;

- fuqorolarning o'sib borayotgan talablarini qondirish uchun iqtisodiy bazaning ahamiyati;

- moddiy va ma'naviy boyliklarni yaratuvchi mehnat kishilariga hurmat; -ijodiy mehnatga bo'lgan qobiliyatini rivojlantirish;

- zamonaviy ishlab chiqarishning umumiy asoslarini tushunish;

- iqtisodiy bilimlarni egallash;

- umumiy madaniyat, mehnatni ilmiy tashkil etish;

- mehnat faoliyatiga shaxsiy va ijtimoiy qarashlarni qo'shib olib borish;

- jamiyat mulki va tabiat boyliklariga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish;

- xo'jasizlik, ma'suliyatsizlik, boqimandalik, tekinxo'rlik ko'rinishlariga murossasiz munosabatda bo'lish.

Tarbiyaning hayot, mehnat bilan aloqasi prinsipi quyidagi shartlarga rioya qilib amalga oshiriladi:

- ijtimoiy, iqtisodiy va mehnat tarbiyasida mavhumlik va aqidaparastlikni bartaraf etish;

- tarbiyalanuvchilarning faoliyatining turli ko'rinishlarida(shu jumladan, ta'til davridagi ishlarni qo'shgan holda) ishtirok etish xohishlarini qo'llab quvvatlash;

- tarbiyaviy ishlarda mahalliy o'lkashunoslik materiallaridan foydalanish;

- qabul qilinayotgan qarorlarga mas'ullik hissini o'rgatish;

- ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda bo'layotgan o'zgarishlarga muvofiq tarbiyaning mazmuni, metodi, vosita va shakllarini yangilash.

Tarbiyaviy jarayonni shunday tashkil etish kerakki, tarbiyalanuvchilar o'z mehnatlarining kishilar jamiyati uchun zarurligini ularga manfaat keltirishni sezsinar.

Foydali ishlarga tayanish. Tarbiyada foydali io'ga tayanish kishidagi ijobiy xislatlarni va shu asosda yetarlicha shakllanmagan yoki salbiy shakllangan sifatlarni zarur daraja va uyg'unlikda aniqlashni ko'zda tutadi.

Prinsipni amalga oshirish quyidagi qoidalarga asoslanadi:

- tarbiyaviy jarayonda adovat, tarbiyalovchining tarbiyalanuvchi kurashi kuch va pozitsiyalarini qaramag‘qarshi qo‘yish mumkin emas;

- ijobiy natijalar tarbiyalanuvchi taqdirida tarbiyalovchining hamkorlik, toqat va manfaat ko‘ruvchi sifatida ishtirok etish imkoniyatini beradi;

- tarbiyalanuvchining axloqida yuzaga kelgan kamchiliklarga diqqatni qaratmaslik, ijobiylarini aniqlash va qo‘llabg‘ quvvatlash zarur;

- o‘quvyurtida ijobiy tarbiyaviy muhit, ruhiy-psixologik iqlim yuzaga keltirish, saramjong‘sarishtalik, tozalikni saqlash zarur;

- tarbiyalanuvchilarni yuqori natijalarga erishish imkoniyati mavjudligiga ishonch hosil qilish.

Tarbiyani insonparvarlashtirish. Bu prinsipga qo‘yiladigan asosiy talablar:

- tarbiyalanuvchi shaxsiga insoniy munosabat;
- uning huquqi va erkinligini hurmat qilish;
- tarbiyalanuvchiga kuchi yetadigan va oqilona shakllantirilgan talablarni qo‘yish;
- tarbiyalanuvchining holatini hatto u taqdim etilgan talablarni bajarishidan bosh tortgan paytda ham tushunish;
- kishining o‘zibilan o‘zi bo‘lish huquqini hurmat qilish;
- tarbiyalanuvchilar ongiga tarbiyaning maqsad va vazifalarini yetkazish;
- talab etilayotgan sifatlarni majburiy shakllantirmaslik;
- shaxsning or-nomus va qadr-qimmatini kamsituvchi jazoga yo‘l qo‘ymaslik;
- ma‘lum sabablar bilan shaxsning haqligiga zid keluvchi sifatlarni shakllanishini uning tomonidan to‘liq rad etilish huquqini tan olish.

3. Tarbiya qonuniyatlari va tamoyillari.

Tarbiya nazariyasi pedagogika fanining bir qismi bo‘lib, tarbiya jarayonining mazmuni, metodlari va tashkil etilishi masalalarini o‘rgatadi. Hayotga yangicha siyosiy va iqtisodiy nuqtai nazardan yondoshish o‘sib kelayotgan yosh avlod tarbiyasi bilan bog‘liq jarayon mazmunini ham qaytadan ko‘rib chiqishni taqozo etmoqda.

Tarbiya nazariyasi Markaziy Osiyo mutafakkirlari va Xalq

pedagogikasining tarbiya borasidagi boy tajribalariga tayanadi. Tarbiya nazariyasi o'z qoidalarini asoslash uchun falsafa, etika, estetika, fiziologiya, psixologiya kabi fanlar ma'lumotlaridan foydalanadi. Tarbiya nazariyasi pedagogikaning boshqa bo'limlari: pedagogikaning umumiy asoslari, ta'lim nazariyasi hamda maktabshunoslik bilan uzviy bog'liq.

Tarbiya jarayoni Shaxsning muayyan maqsad asosida ijtimoiy hayotga tayyorlovchi tarixiy -ijtimoiy tajribaga suyanan holda olib boriluvchi faoliyat jarayonidir. Boshqacharoq talqin etilganda, tarbiya jarayoni yosh avlodni muayyan maqsad yo'lida har tomonlama voyaga yetkazish, unda ijtimoiy ong va xulq-atvorni tarkib toptirshga yo'naltirilgan faoliyat jarayonidir.

Turli zamon va makonda ijtimoiy tarbiya mohiyati turlicha bo'lib, uning mazmuni ijtimoiy maqsadlardan kelib chiqib asoslangan. Turli makon va zamonda tarbiya g'oyasi turlicha ifodalangan bo'lsa-da, ammo yo'naltiruvchanlik xususiyati hamda ob'ektiga ko'ra yakdillikni ifoda etadi.

Tarbiya xususida taniqli o'zbek pedagogi A.Avloniy hunday deydi: "Al-Hosil tarbiya bizlar uchun yo hayot yo mamot, yo najot, yo halokat yo saodat, yo falokat masalasidir"⁴. Ushbu fikrlardan xulosa chiqarsak, Shaxs tarbiyasi xususiyy emas, balki ijtimoiy, milliy ilmdir. Zero, har bir Xalqning taraqqiy etishi, davlatlarning qudratli bo'lishi avlodlar tarbiyasiga ko'p jihatdan bog'liq.

O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy-siyosiy mustaqillikni qo'lga kiritgach, ijtimoiy hayotning barcha sohalarida tub islohotlar olib borildi. Islohotlarning asosiy g'oyasi respublikaning rivojlanish va taraqqiyot yo'li deb e'tirof etilgan demokratik, insonparvar, huquqiy jamiyatni barpo etish uchun xizmat qiladi.

O'z oldiga fuqarolik jamiyatini qurishni vazifa qilib qo'ygan bugungi jamiyatimiz yoshlaridan ongli tafakkur, zamonaviy dunyoqarash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga tayangan tarbiya asosida shakllanib takomillashishlarini talab qiladi.

Tarbiya-shaxsni maqsadga muvofiq takomillashtirish uchun uyushtirilgan pedagogik jarayon bo'lib, tarbiyalanuvchining Shaxsiga muntazam va tizimli ta'sir etish imkonini beradi.

Tarbiya jarayoni o'zaro bog'liq bo'lgan ikki faoliyatni-o'qituvchi va o'quvchi faoliyatini o'z ichiga oladi. Tarbiya jarayonida o'quvchining ongi shakllana boradi. His-tuyg'ulari rivojlanadi,

ijtimoiy hayot uchun zarur bo'lgan va ijtimoiy aloqalarni tashkil etishga xizmat qiladigan xulqiy odatlar hosil bo'ladi. Tarbiya jarayonida bolalarning hayoti va faoliyatini pedagogik jihatdan to'g'ri uyushtirish g'oyat muhimdir. Faoliyat jarayonida bola tashqaridan kelayotgan tarbiyaviy ta'sirlarga nisbatan ma'lum munosabatda bo'ladi. Bu munosabat Shaxsning ichki ehtiyoj va xohishlarini ifodalaydi. Psixolog va pedagoglarning tadqiqotlari shaxsga tashqi omillarning (hoh salbiy, hoh ijobiy) ta'siri bolaning ularga munosabatibog'liqligini ko'rsatadi. Bola faoliyatini uyushtirishgina emas, balki tarbiyalanuvchining bu faoliyatga nisbatan qalbida paydo bo'layotgan munosabatini, turli kechinmalarni qanday anglashni baholashni, his qilishni anglashi e'tiborga molikdir. Ulardan o'zi uchun nimalarni maqsad qilib olayotganligini bilishi zarur. Bularning barchasi turli kishilar bilan aloqa qilish, jamoadagi munosabatlar jarayonida murakkablashib boradi.

Tarbiya jarayoni o'quvchining onginingina emas, balki his-tuyg'ularini ham o'stirib borishi, unda jamiyatning shaxsgaqo'yadigan axloqiy talablariga muvofiq keladigan xulqiy malaka va odatlarni hosil qilishi lozim. Bunga erishish uchun o'quvchining ongiga, hissiyotiga va irodasiga ta'sir etib boriladi. Agar, bularning birortasi e'tibordan chetda qolsa, maqsadga erishish qiyinlashadi. Tarbiya jarayoniga o'qituvchi rahbarlik qiladi, o'quvchilar faoliyatini belgilaydi, ularni ijtimoiy jarayonda ishtirok etishlari uchun shart-sharoit yaratadi.

Ijtimoiy jarayonda faol ishtirok etish orqali o'quvchilarning mustaqilligi, ijodiy tashabbuskorligi ortib boradi. Faoliyat o'quvchilar jamoasi manfaati va istagi asosida uyushtirilsa, bu jarayonda bolaning tengdoshlari va o'z-o'zini anglash jarayoni tezlashadi, bola o'z xulqi, hatti-harakati uchun jamoa oldida javobgarlikni sezishga erishgach ijrochi emas, balki umumiy ishning faol qatnashchisi bo'lib qoladi.

Tarbiyalanganlik-milliy urf-odatlarimiz, qadriyatlarimizga e'tiqodbilan rioya qiladigan, noqonuniy ishlardan o'zini tiya oladigan, o'z hatti-harakatlari bilan o'zgalar nafratini qo'zg'amaydigan xulq-atvordir.

Faoliyat jarayonida hosil bo'lgan malaka va odatlar axloq me'yorlariga rioya qilishni engillashtiradi.

Demak, tarbiyachi bola shaxsining tez rivojlanadigan davri o'quvchilik yillarida uning ongiga turli-tuman faoliyat (o'qish, mehnat, o'yin, sport, badiiy havaskorlik) yordami bilan maxsus ta'sir etish

mumkindir.

Tarbiya yaxlit jarayonda amalga oshiriladi, uning tarkibiy qismlari ham ayni bir vaqtda, faoliyatning biror turi asosida amalga oshiriladi.

Umumiy pedagogik jarayonda tarbiya muhim o‘rin tutadi. shaxsnishakllantirish boshqaruv, nazorat tavsifiga ega bo‘lib, bu borada belgilangan vazifalar tasodifiy harakatlar orqali emas, balki oldindan belgilangan va puxta o‘ylangan rejalar asosida hal etilib boriladi. Tarbiya jarayonida uning maqsadi, shakli, iste’dodlari, shaxsning o‘zini-o‘zi tarbiyalash va qayta tarbiyalash jihatlari muhim o‘rin tutadi. Tarbiya mazmuni ijtimoiy tuzum buyurtmasi asosida belgilanib, uning amalga oshishi uchun ma’lum shart-sharoitlarning mavjudligi talab etiladi. Ushbu g‘oyalar yaxlit tarzda quyidagicha aks etadi.

Tarbiya jarayonining jamiyat taraqqiyotidagi roli nihoyatda beqiyosdir. Insonni tarbiyalash, uni bilim olishga, mehnat qilishga undash va bu hatti-harakatni sekin-asta ko‘nikmaga aylantirib borish lozim. Insonni mushohada qilish qobiliyatini tarbiyalash, aqlni peshlash demakdir. Aql ongni saqlaydi. Ong esa, moddiy va ma’naviy manbaga aylanadi. Shu tariqa inson sekin-asta takomillashib, komillikka erishib boradi. Ammo, buning uchun tarbiyachi vatarbiyalanuvchidan uzoq davom etadigan mas’uliyat, sharaflı mehnat va qunt, irodani talab etadi. Buning uchun bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olish zarur. Ma’naviy, insoniy sifatlarning shakllanishida oiladagi, atrofdagi, jamiyatdagi muhit va bolalarga bo‘lgan munosabat muhim rol o‘ynaydi.

Tarbiya jarayoni qonuniyatlari va tamoyillari.

Tarbiya jarayonini ilmiy asoslangan tarzda olib borish uning qonuniyatlarini chuqur o‘rganishni talab qiladi. Bu qonuniyatlar voqealarning muayyan rivojlanishi uchun sharoit yaratuvchi sabab va oqibat o‘rtasidagi muhim, zarur ichki aloqalarning ifodasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Tarbiya jarayonining asosini ijtimoiy hayotning ob’ektiv talablari insonning ijtimoiy mohiyatini va tabiatini aks ettiruvchi qonuniyatlar tashkil etadi.

Tabiat yoki jamiyatdagi har qanday murakkab hodisada ob’ektiv ravishda mavjud bo‘ladigan barqaror aloqalar kuzatiladi. Bunday aloqalar qonuniyat deb ataladi. Bunday qonuniyat tarbiya jarayonida ham amal qilinadi. Tarbiya qonuniyatlari mohiyati bir

tomondan, ijtimoiy hodisa sifatida tarbiyaning o'ziga xos xususiyatlari, ikkinchi tomondan shaxsning rivojlanishi bilan bog'liqdir.

Tarbiyaning birinchi va eng muhim qonuniyati uning ijtimoiy muhitning obektiv va subektiv omillariga bog'liqligidir.

Ijtimoiy tarbiya mazmuni moddiy ishlab chiqarish usuli, jamiyatning ijtimoiy tuzilishi, siyosiy tuzum hamda milliy mafkura g'oyalari asosida qaror topadi. Ijtimoiy jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy hamda siyosiy-g'oyaviy asoslarini tashkil qiladigan hamda tarbiyaning mazmuni va uning olib borilishiga kuchli tasir ko'rsatadigan ijtimoiy jarayonlar tarbiyaning subektiv omillari sirasiga (tarbiya muassalari, jamoat tashkilotlari o'qituvchilar, tarbiyachilar, oila muhiti, jamotchilik dunyoqarashi, mafkura g'oyalari, shaxsning har tomonlama rivojlantirishga oid faoliyat kabilar) kiradi.

Demokratik tamoyillar hamda qonun ustuvorligi taminlangan sharoitda tarbiyaviy jarayonning ijtimoiy muhit bilan o'rnatiladigan aloqalari Shaxs shakllanishiga ijobiy tasir ko'rsatadi.

Tarbiyaning ikkinchi muhim qonuniyati uning shaxs rivojlanishi bilan birligi, o'zaro aloqadorligi va bog'liqligidir.

Shaxs rivojlanishi tarbiyaning g'oyaviy mazmuni va sifat darajasiga bog'liqdir. Ayni choo'da tarbiyaning mazmuni, shakl va metodlari Shaxsnng rivojlanganlik darajasiga ham bog'liq. Tarbiya jarayoni psixologiya fani asoslarini shaxsning psixologik va fiziologik rivojlanish qonunyatlarini bilishni ham talab qiladi. Tarbiyachi (o'qituvchi) tarbiyalanuvchi (o'quvchi) shaxsini har tomonlama o'rganishi va shu asosida unga to'g'ri psixologik tavsif berishi va ta'sir ko'rsatishi lozim. Tarbiyalanuvchining shaxsiy xususiyatlari va imkoniyatlari hisobga olinmas ekan, ularga har qanday tarbiyaviy ta'sir bir tomonlama yoki tasodifiy bo'lib qoladi. Shuningdek, ular boshqa tarbiyaviy ta'sirlarga mos bo'lmay qoladi.


Tarbiyaning uchinchi qonuniyati faoliyat va munosabat birligini e'tirof etish, shaxsning ijtimoiy ijobiy fazilatlarini shakllantirishning asosiy manbai bo'lib xizmat qiladi.

Tarbiyalanuvchilarning faoliyati jamiyat uchun qanchalik foydali, maqsadga muvofiq tashkil etilsa, shaxs va jamiyat o'rtasidagi munosabat oqilona bo'lsa, tarbiya jarayoni shunchalik samaralibo'ladi.

Sub'ekt (Shaxs)- ob'ekt (ijtimoiy borliq) ijtimoiy munosabatlari to'g'ri tashkil etiladigan aloqa jarayoni shaxs faoliyati mazmuni va yo'nalishini ham belgilashi mumkin. Ijtimoiy munosabatlarni tashkil

etish jarayonida shaxsda borliqni his etish, o'z-o'zini anglash, aloqa, aralashuv va muloqotni tashkil etish ehtiyojini yuzaga keltiradi. Ehtiyojni qondirish yo'lidagi dastlabki urinish ijtimoiy munosabatlar mazmunini o'rganish va o'zlashtirish sanaladi. Ijtimoiy munosabatlar mohiyatini anglash ehtiyojini qondirishga qaratilgan faoliyat jarayonida ijtimoiy bilimlarni o'zlashtirishga nisbatan qiziqish hosil bo'ladi. Qiziqish o'z navbatida shaxsda muayyan hayotiy maqsadning qaror topishiga olib keladi. Maqsad asosida shaxs nafaqat ijtimoiy bilimlarni egallashga intilishi, balki o'zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlash layoqatini ham namoyon eta borishi maqsadga muvofiqdir. Maqsad mazmunini ifoda etuvchi g'oyalar amaliy harakatlarni tashkil etish borasidagi rag'batlarni yuzaga kelishi uchun zamin hozirlaydi. Rag'batlar o'zida quyidagi xususiyatlarni aks ettiradi: fuqarolik vatanparvarlik, insonparvarlik, ilmiy anglash, axloqiylik, iqtisodiy, ekologik, jismoniy, estetik, huquqiy va boshqa sifatlar.

Qayd etilgan rag'batlar amaliy harakatning tashkil etilishi uchun turtki beradi. Ijtimoiy munosabatlar jarayonida Shaxs faoliyati mazmunini tahlil etish, ularda o'z faoliyatlariga nisbatan tanqidiy yondashuvni qaror toptirish, shuningdek, o'z faoliyatini boshqarish talab etiladi. O'quvchi shaxsida shakllanadigan ijtimoiy-insoniy sifatlar quyidagi tizim asosida kechadi (2-rasm).



Yuqorida bayon etilgan fikrlardan anglashildiki, shaxsning shakllanishiga-uning asosiy munosabatlarining yaxlit tizimida tarbiyachi, o'qituvchi, farzandlar va Shaxs bilan bo'ladigan o'zarotasiri jarayonida kelib chiqadigan tarbiyalovchi munosabatlar alohida ahamiyatga ega. Bu munosabatlar doirasida ijtimoiy tarbiyaning maqsadlari amalga oshiriladi.

Tarbiyaning to'rtinchi qonuniyati tarbiyalanuvchilarning o'zaro tarbiyaviy ta'sirga ega ekanliklari, ularning o'zaro munosabatlari hamda faol faoliyatlari o'rtasidagi boo'lanishning mavjudligi sanaladi. Tarbiyachi (o'qituvchi) larning va o'quvchilar

jamoasining tarbiyalanuvchi (o'quvchi) larga pedagogik tasiri ular faoliyati va munosabatlarini tizimi hamda rejali tarzda maqsadga muvofiq tashkil qilishni nazarda tutadi. Tarbiya jarayonida tarbiyachi (o'qituvchi) vatarbiyalanuvchi (o'quvchi) larning ijtimoiy roli bir xil emas. Tarbiyachi uchun tarbiyalanuvchi har vaqt tarbiyaviy obekt hisoblanadi. Biroq, tarbiyalanuvchi tarbiyachi bilan ongli ravishda o'zaro munosabatda bo'lishga erisxilsa, tarbiyaviy munosabatlar faol xarakter kasb etadi.

Rivojlanuvchi (Shaxsni rivojlantirish), tarbiyalovchi (tarbiya maqsadlarini amalga oshirish) va tashkilotchilik (faoliyat va munosabatlarni maqsadga muvofiq tashkil etish) vazifalari tarbiya jarayonida (tarbiyalanuvchilarning) asosiy vazifalari sanaladi.

Tarbiyalovchiga ko'rsatiladigan tasirlar muayyan shaxslarga turlicha tasir ko'rsatadi. Shu bois, tarbiyachi har bir tarbiyalanuvchining o'ziga xos shaxsiy xususiyatlarni hisobga olib, tasir ko'rsatishning alohida yo'llarini qidirib topishi lozim. Tarbiyadagi muvaffaqiyat aksariyat hollari pedagogning o'z o'quvchilarining tarbiyalanganlik darajasini, yani ularning ongliligi, axloqiy sifatlariga egaligi, odilligi, qat'iyatligi va boshqalarni bilishga bog'liq. Demak tarbiya jarayonining qonuniyatlari quyidagilardan iborat.

Tarbiya jarayonining qonuniyatlari bilan birga bola tarbiyasining ham o'ziga xos bir qator muhim qoidalari ham bo'lib ular quyidagilar:

- tarbiyaning aniq bir maqsadga qaratilganligi;
- tarbiyaning hayotiy faoliyat bilan bog'liq hodisa, deb bilish;
- Shaxsni jamoada tarbiyalashga oid o'rni;
- tarbiyalanuvchi shaxsiga nisbatan talabchan bo'lish va uning shaxsini hurmat qilish;
- tarbiyalanuvchi (o'quvchi) ning tarbiya jarayonida yoshi va o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish;
- tarbiyaviy ishlarning izchilligi va muntazam olib borilishiga e'tibor.

Tarbiya jarayonining muvaffaqiyati uni tashkil etishda qanday tamoyillarga ko'ra ish ko'rilayotganligiga ham bog'liq.

Tarbiya tamoyillari. Tarbiya tamoyillari deb, yosh avlodni tarbiyalash maqsadidan kelib chiqadigan va komil insonni

tarbiyalashning mazmuni va yoʻnalishiga qoʻyiladigan eng muhim talablarni belgilab beruvchi asosiy gʻoya va qoidalar yigʻindisiga aytiladi.

Tarbiya tamoyillari oʻqituvchi va tarbiyalanuvchilarga yoʻl-yoʻriq koʻrsatuvchi qoidalar boʻlib, yosh avlodni tarbiyalash, barkamol insonni shakllantirish vazifalariga muvofiq belgilanadi, shuningdek, ular Shaxs tarbiyasi borasidagi ilgʻor talimotlar gʻoyalariga hamda pedagogika fanida erishilgan yutuqlarga asoslanadi.

Tarbiya tamoyillari tarbiya jarayoni qonuniyatlarini aks ettiradi. Tarbiyaviy jarayonda ilgʻor tamoyillarga amal qilinishi tarbiya samarasini taʼminlaydi. Tarbiya tamoyillari quyidagilardan iborat:

- Tarbiyaning maqsadga yoʻnaltirilganligi va gʻoyaviyligi;
- Tarbiyada demokratik va insonparvarlik gʻoyalarining ustunligi;
- Tarbiyada milliy, umumbashariy qadriyatlarning ustunligi;
- Tarbiyada izchillik va tizimlilik;
- Tarbiyani ijtimoiy hayot bilan qoʻshib olib borish;
- Tarbiyani mehnat bilan booʻlash;
- Tarbiyalanuvchi shaxsini hurmat qilish;
- Tarbiyada oʻquvchining yosh va alohida xususiyatlarini hisobga olish;
- Jamoa va jamoa yordamida tarbiyalash;
- Tarbiyada oʻquvchi xulqidagi ijobiy sifatlariga tayanib, salbiy tomonlarni yoʻqotish;

Tarbiyaning maqsadga yoʻnaltirilganligi va gʻoyaviyligi - oʻqituvchi ijtimoiy tarbiya maqsadi va vazifasini aniq tasavvur etishi va puxta anglab olishi zarur.

Yosh avlodni yuksak gʻoyaviylik ruhida tarbiyalash ularning ongiga Xalq, millat, yurt, jamiyat manfaatlaridan yuqoriroq manfaat boʻlishi mumkin emasligini singdirishi, ularni vatanga, Xalqqa muhabbat ruhida va sadoqatli qilib tarbiyalash demakdir.

Bu sohada mustaqil respublikamiz Xalq talimi xodimlarining asosiy vazifasi erkin, ijodkor, mustaqil fikrlash qobiliyatiga ega, yetuk mutaxassis komil Shaxsni tarbiyalashdan iboratdir.

Maktabda va maktabdan tashqarida olib boriladigan tarbiyaviy ishlarning barchasi ijtimoiy tarbiyaning maqsadini roʻyobga

chiqarishga yo'naltirilishi zarur.

O'qituvchi (tarbiyachi) lar jamoasi va har bir o'qituvchi-tarbiyachi tarbiyaning maqsadi har tomonlama kamol topgan mukammal inson shaxsini tarbiyalashdan iborat bo'lishi lozim. Ana shunda mazkur tamoyil o'z vazifasini bajargan bo'ladi.

Tarbiyada demokratik va insonparvarlik g'oyalarining ustunligi- tarbiyada inson shaxsini ijtimoiy qadriyat deb tan olish, har bir bola, o'smir va o'spirinning betakror va o'ziga xosligini hurmatlash, uning ijtimoiy xulqi va erkinligini hisobga olish lozim. Tarbiyani demokratiyalash bu - tarbiyani mamuriy ehtiyoj va qiziqishlardan yuqori qo'yish, tarbiyachi va tarbiyalanuvchi o'rtasidagi o'zaro ishonch, hamkorlik asosida pedagogik munosabatlar mohiyatini o'zgartirish demakdir. Bu tarbiya ishiga jamoatchilikni jalb qilish, uning rivojlanishiga jamoat omilini kiritish demakdir. O'qituvchi o'quvchiga avvalgidek, tarbiya obekti emas, balki o'zi kabi subekt deb qarashi darkor. Ya'ni o'quvchini teng huquqli hamkor, hamfikir deb qarash lozim.

Umuman, ta'lim va tarbiyani insonparvarlashtirishning pedagogikdiqqat hamda e'tibor markazida insonning muhim masalasi va muddaosi, ya'ni bolalarda inson shaxsiga dunyodagi eng yuqori, bebaho boylik sifatidagi munosabatini shakllantirishdek faoliyatytotadi.

Tarbiyada milliy va umuminsoniy qadriyatlar ustunligi- Xalqning ko'p asrlik qadriyatlarini, ulkan va boy merosini chuqur bilmasdan milliy o'zlikni anglash, milliy g'urur tuyg'usini qaror toptirish mumkin emas. Shu bois, Xalq ananalari urf-odatlar, marosimlari, Xalq oo'zaki ijodi, milliy o'yinlar va ularda ifodalangan g'oyalarni o'quvchilar ongiga singdirish, ularda ushbu g'oyaga nisbatan hurmatni qaror toptirish lozim.

Umumbashariyat uchun qadrli, ardoqli bo'lgan, insoniyat o'tmishi, buguni hamda kelajagi uchun dahldor qadr-qimmatga ega bo'lgan ananalar, urf-odatlar haqida ma'lumotlar berish, ularda mehr-muhabbat tuyg'usini uyg'otish, ularni qo'llab-quvvatlash, ezgu g'oyalar uchun kurashish hissini qaror toptirish tarbiya jarayonida amalga oshirilishi lozim.

Tarbiyada izchillik va tizimlilik - tarbiyaga yaxlit tizimli yondoshish pedagogik harakatning pirovard natijasiga yo'naltirilganlik darajasini belgilab beradi.

Bunday pedagogik maqsad va vazifalar, ularning mazmuni

tarbiyaviy jarayonning barcha qatnashuvchilari tomonidan tan olinishi shart.

Tarbiyada izchillik juda muhimdir. O'quvchilarga birdaniga ko'p talab va qoidalarni taqdim qilish mumkin emas. O'qituvchilar o'quvchilarga bo'lgan munosabat jarayonida o'zaro bir-biriga zid harakatda bo'lmasliklari, yagona talab qo'yishlari lozim.

Tarbiyani ijtimoiy hayot bilan qo'shib olib borish. Yosh avlodning o'sib ulg'ayishi va shaxsning shakllanishiga hayot, ijtimoiy jamiyat ta'sir etadi.

Bu bir tomondan bo'lsa, ikkinchidan bolalarni tarbiyalashdan maqsad uni turmush uchun mustaqil hayot uchun tayyorlashdir. Shunday ekan, tarbiya maktab va boshqa o'quv muassasalarida olib boriladigan bo'lishi kerak.

Tarbiyani mehnat bilan bog'lab olib borish. Mehnatning tarbiyaviy ta'siri g'oyat kattadir. Mehnatda ishtirok etish va unumli mehnat qilish bilan Shaxs o'z qobiliyati va iste'dodini namoyon qiladi va kamolga etadi. Mehnat yosh avlodning tarbiyasi uchun juda katta vositadir. O'quv mehnati va ijtimoiy foydali mehnat o'quvchishaxsiga ijobiy ta'sir etadi, bu ikki faoliyat birligi bolani faollashtiradi, xulq birligini ta'minlaydi, tashabbuskor va izlanuvchan qiladi. Mehnat bolalarga siyosiy-ma'naviy tarbiya berish uchun zamin hozirlaydi. Shuning uchun oila va maktablarda bolalarni ilk yoshidan boshlab mehnatsevarlik ruhida, mehnatga muhabbat va mehnat kishilariga hurmat ruhida tarbiyalashga alohida e'tibor beriladi. Maktabda o'qishning o'zi ham mehnatdir. Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarning aksariyati ham mehnat tarbiyasi bilan mustahkam bog'langan.

Tarbiyalanuvchi shaxsini hurmat qilish - o'quvchilarni ijtimoiy tarbiyalashning muhim tamoyillaridan biri ularning shaxsini hurmat qilishdir. Bu tamoyil insonparvarlik munosabatidan kelib chiqadi.

O'quvchi shaxsini hurmat qilish, ularga mehr-muhabbat ko'rsatish va ularga ishonish shart. Tajribalarning ko'rsatishiga, qayerdagi o'quvchilarga hurmat, muhabbat, ishonch bo'lsagina shu yerda tarbiyaning ta'siri samarali bo'ladi. Bolalarga hurmat va muhabbatlar kuchiga kuch qo'shadi o'qituvchiga nisbatan hurmatni uyg'otadi.

Tarbiyada o'quvchining yosh va alohida xususiyatlarini hisobga olish - tarbiyaning mazmuni, shakl va metodlari bolalarning

yoshi va saviyasiga qarab turli sinflarda turlicha bo'ladi. Bolalar maktabda rivojlanishining turli davrlarini bolalik, o'smirlik va o'spirinlik bosqichlarini bosib o'tadilar. Shu davrlar ichida bolaning axloqiy turo'unligi rivojlanadi, xulqi va ongi o'rtasidagi uyo'unlik vujudga keladi. Tarbiya berishda har bir o'quvchining shaxsiy xususiyatlarini ham hisobga olish katta ahamiyatga ega. Bolalarning jismoniy va ma'naviy o'sishida bir qadar umumiylik bor, biroq bolalarning tavsif- hislatlari, qobiliyat va mayllari, qiziqishlari, irodaviy sifatleri har xil bo'ladi. Bu farqlar ularning xulqida, o'qishi va mehnatida aks etadi. Bir o'quvchiga nisbatan foydali metodni boshqa o'quvchiga nisbatan qo'llaganda natijasiz bo'lib, chiqishi mumkin. Shuning uchun har bir o'quvchixususiyatini o'rganish maqsadga muvofiqdir.

Jamoda va jamoa yordamida tarbiyalash - tarbiya jarayoni o'quvchilarning jamoa bo'lib birlashishlari, ularda manfaatdorlik birligi, o'zaro yordam tuyg'usini o'stirish xizmat qilishi lozim. Tuyg'u tashkil etilgan jamoa a'zolarining qobiliyat va iste'dodini rivojlantirish uchun keng yo'l ochadi. Jamoda bola har tomonlama rivojlanishi uchun keng imkoniyatga ega bo'ladi. O'quvchilar axiljamoa bo'lib uyushganlaridagina tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish ancha engil va muvaffaqiyatli bo'ladi. Yaxshi uyushgan jamoda jamoa fikri katta tarbiyaviy kuchga ega bo'ladi, har bir Shaxsga ta'sir etadi.

Tarbiya fanini o'qitishning asosiy tamoyillari:

Tarbiyaning aniq maqsadga qaratilganligi, jumladan, «O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida Milliy g'oyani rivojlantirish konsepsiyasi», «Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi» (ijtimoiy buyurtma) bilan muvofiqligi;

- ilmiylik (har bir tarbiyaviy jarayon elementlarining puxta asoslanganligi, samaradorlikning tajriba asosida baholanishi);

- texnologik shart-sharoitning ta'minlanganligi (ko'zda tutilgan natijani kafolatli loyihalash va amalga oshirish);

- uzviylik, uzluksizlik (o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma, malakalar negizida yangi bilim, ko'nikma, malakalarni shakllantirib borish, ularning navbatdagi bosqich uchun asos bo'lishiga erishish);

- individual yondashuv (har bir tarbiyalanuvchining shaxsi bilan yaqindan tanishish, uning xarakteri, ehtiyojlari, hayotiy tajribasi, shaxsiy sifatlarini o'rganish va ularga tayanib ish ko'rish);

- modernizatsiya (tarbiyaviy tadbirlarni bugungi kun talablari

darajasida tashkil etish, zamon bilan hamnafas bo‘lish);

- intensifikatsiya (tarbiyaviy jarayonning ta’sirchanligi va jadalligi);

- tarbiyaviy jarayonda tarbiyalanuvchilarning ijobiy fazilatlariga tayanish (mavjud ijobiy fazilatlar negizida yangi sifatlarini tarbiyalash, salbiy illatlarni bartaraf etib borish);

- tarbiyaviy jarayonning dinamik xususiyatiga egaligi (shakllantiriladigan fazilat to‘g‘risidagi tasavvurga ega bo‘lish – tushunchani hosil qilish – bilimga ega bo‘lish – ko‘nikmaning shakllanishiga erishish – malakani hosil qilish – odatning shakllanishiga erishish – muayyan ma’naviy-axloqiy fazilatning mavjud darajasi);

Yosh xususiyatlarini hisobga olish tamoyili:

- ta’lim va tarbiya birligi;

- yaxlit yondashuv (tarbiya jarayoniga mas’ul subyektlar tomonidan tarbiyaviy maqsadning bir xil tushunilishi);

- pedagogik hamkorlik (tarbiya jarayoni subyektlari – oila, ta’lim muassasalari, jamoatchilik o‘rtasida hamkorlikni qaror toptirish va uni mustahkamlash). O‘zbekiston Respublikasida ta’lim-tarbiya ishlarini hayot, mehnat ishlari bilan bog‘lash tamoyili; Jamoada, jamoa orqali va jamoa uchun ta’lim va tarbiya tamoyili “Tarbiya tamoyillari” tushunchasi. Istalgan faoliyatni boshqaradigan qoidalar va qonunlar tizimi printsip deb ataladi. "Tarbiya tamoyillari" deganda biz maktab, oila va ijtimoiy muhitda tarbiya jarayonining mazmuni, usullari va shakllarini belgilaydigan ko‘rsatmalar va tartiblarni tushunamiz. . Tarbiyachi (ona, o‘qituvchi) har bir shaxsning talablarini o‘z faoliyatining asosi sifatida oladi. Bu tamoyil maktab xarakterini shakllantirishda ajralmas rol o‘ynaydi va ta’limning yakuniy maqsadini belgilaydi. Printsipning mohiyati shundan iboratki, o‘qituvchi ta’lim - tarbiyaning umumiy maqsadini aniq qiyofaga keltiradi, yaqin vazifalarni ongli ravishda, faol ravishda oydinlashtirishga erishadi. Ularga amal qilish orqali ularni bajarishga harakat qiladi, shuningdek, o‘qituvchining ta’lim-tarbiyaning umumiy maqsadini aniq tasvirga olib keladi. yosh avlod barkamol fuqaro bo‘lib voyaga yetadi. Zamonaviy pedagogik amaliyotda uning samaradorligi va yo‘nalishini belgilab beruvchi o‘qitishning bir qancha asosiy tamoyillari mavjud. Ta’lim va tarbiya shakllari o‘quv jarayonining turli tomonlarini, maqsadlarni belgilashdan ularga erishish usullarini qamrab oladi. Tarbiya

mazmunining muntazamligi o'quvchilarning yoshi, psixologik xususiyatlari bilan bog'liq hisoblanadi.

Jamoadan [va jamoa yordamida tarbiyalash](#) – tarbiya tizimida muhim ahamiyatga ega bo'lgan tamoyillardan biridir. SHaxsni shakllantirishda jamoaning etakchi rol o'ynashi to'g'risidagi fikrlar pedagogika fanining ilk rivojlanish davrlaridayoq bildirilgan. Jamoadan uning a'zolari o'rtasidagi munosabatning alohida shakli yuzaga keladi, bu esa shaxsning jamoa bilan birgalikda rivojlanshini ta'minlaydi. Lekin har qanday guruhni ham jamoa deb hisoblab bo'lmaydi. Jamoa [bir qator belgilarga egadirki](#), mazkur belgilar jamoani kishilarning etarli darajada uyushgan har qanday guruhdan ajratib turadi.

1. Jamoa bir necha a'zo (kishi)lardan tashkil topgan muayyan guruh bo'lib, u ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan umumiy maqsad asosida birlashadi hamda mazkur maqsadni amalga oshirish uchun yo'naltirilgan faoliyatni tashkil etadi.

2. Jamoa o'zida bir necha xususiyat (belgi)larni namoyon etadi.

3. Jamoani shakllantirish muayyan qonuniyatlarga bo'ysunadigan uzoq muddatli, murakkab jarayon bo'lib, u ko'pchilik tadqiqotchilarning e'tirof etishlariga ko'ra to'rt bosqichdan iborat bo'ladi.

4. Jamoani shakllantirish o'ziga xos metodika asosida amalga oshiriladi. Ushbu metodika doirasida jamoaga nisbatan talablarning qo'yilishi, jamoa faoli (aktivi)ni tarbiyalash masalasi alohida ahamiyatga egadir.

5. Jamoaning mustahkam bo'lishi, uning a'zolari o'rtasida o'zaro yordam hamda hamkorlikning qaror topishida jamoa an'analari muhim ahamiyat kasb etadi.

4. Ijtimoiy ongning shakllantirish metodlari.

Ijtimoiy ongning shakllantiruvchi metodlar. O'quvchilarda qarashlar va e'tiqodlar tizimini shakllantirish maqsadida ularning ongi, his-tuyg'ulari va irodasiga har tomonlama ta'sir ko'rsatadi o'z ifodasini topadi. Bu metodning mohiyati shundan iboratki, ularning vositasi bilan yosh avlodga nisbatan qilayotgan talablar bola ongiga yetkaziladi. "Odamning tarbiyalashning eng asosiy yo'li ishontirishdir, odamning e'tiqodiga esa faqat ishontirish bilan ta'sir qilish mumkin". K.D.Ushinskiy Bu guruhga o'quvchilarda ilmiy dunyoqarash,

e'tiqodni, ma'naviy va siyosiy g'oyalarni shakllantirish maqsadida ularni ongi, hislari va irodasiga ta'sir ko'rsatish metodlari kiradi.

Bu guruh metodlarining mohiyati shundaki, ular orqali jamiyat o'quvchilar ongiga qanday talablar qo'yayotgani yetkaziladi. Yoshlarning dunyoqarashlarini shakllantirish, hayot mazmunini tushunib olishlariga ko'maklashish maqsadida ijtimoiy ongni shakllantiruvchi metodlar ishlatiladi. O'quvchilarda siyosiy onglilik va ijtimoiy faollik, ya'ni davlatni ichki va xalqaro siyosatini tushunish va idrok qilishni tarbiyalash lozim.

Tushuntirish bu ijtimoiy ongni shakllantirishda eng ko'p ishlatiladigan metoddir. Tushuntirishning mohiyati o'quvchiga qo'yilgan talabni, voqealarni, harakatlarning ijtimoiy, axloqiy, estetik mazmunini yoritadi va o'quvchilarga duyoviy bilimlarni egallashda, ongli intizomni, yuksak madaniyatni milliy g'ururli qilib tarbiyalashda yordam berishdan iborat.

Tushuntirishda o'quvchilarga mamlakatimiz fuqarosining o'z davlatiga nisbatan huquqlar va burchlar bilan bog'langanligi, u yashash va axloq me'yorlariga ongli rioya qilishi, mehnat va jamoada faollikni, ma'naviy yetuklik haqida axborot beriladi. Bunda davlat bayrog'i, gerbi, madhiyasi, Konstitutsiyasiga sadoqat ruhida tarbiya berishning ahamiyati katta. Shu sababli o'quvchilarga bayroq, madhiya, Konstitutsiya haqida tegishli ma'lumotlar beriladi.

O'quvchilarga xalq, davlat oldidagi fuqarolik burchi, ya'ni o'zining Vatan oldidagi huquq va burchlarini bilish, ularga qat'iy amal qilish, qonunchilik, umumbashariy axloq me'yorlari buzilishiga murosasiz munosabatda bo'lish tushuniladi.

Suhbat va hikoya. O'quvchi shaxsini g'oyaviy va axloqiy shakllantirishda o'qituvchining jonli so'zi eng ta'sirli metod hisoblanadi. Suhbat uchun mavzu tanlashda uning mazkur sinf uchun dolzarbligi, bolalarda axloqiy ishonch uyg'otishning suhbat mazmuniga bo'lgan munosabatlarini va suhbatdan kutilayotgan natijani hisobga olish lozim.

Suhbat jonli, ommaviy, ishonarli bo'lishi katta ahamiyatga ega. Suhbat metodi sifatida o'quvchilarning hayoti, fan va texnika, etika-estetika va boshqa sohalaridagi tasavvur va tushunchalari doirasini kengaytirishga yordam beradi. Suhbat samarasini o'quvchilarning ijobiy yoki salbiy javoblariga qarab bilish mumkin. Suhbat turli mavzularda uyushtirilishi mumkin: etik mavzular

(kishilarning jamiyatdagi axloq mezonlari, o'zini tutish qoidalari), estetik mavzularda (tabiat go'zalligi, shaxslararo munosabatlar, inson go'zalligi), siyosiy mavzularda (davlatning ichki va tashqi siyosati, dunyo voqealari), ta'lim va bilishga oid mavzularda (koinot, hayvonot dunyosi). Suhbat davomida o'quvchilarning dilidagini aytish jasoratini uyg'otish, ularning fikrlarini tinglash, suhbatda faol qatnashishga erishish, ya'ni o'quvchilarni fikrlashga majbur qiluvchi savollar berish, mavzu bo'yicha o'z bilimlarini tahlil qilishga, tortishishga va haqiqatni anglashga erishishlari juda muhimdir.

Suhbat. O'quvchi shaxsini g'oyaviy va ma'naviy-axloqiy jihatdan shakllantirishda o'qituvchining jonli so'zi eng ta'sirchan usul hisoblanadi. Suhbat uchun mavzu tanlashda uning mazkur sinf o'quvchilari uchun dolzarbligi, o'quvchilarda ma'naviy-axloqiy ishonch uyg'otishning suhbat mazmuniga bo'lgan munosabatlari va suhbatdan kutilayotgan natijani hisobga olish zarur. Suhbat quyidagi mavzularda uyushtirilishi mumkin:

a) etik mavzular (ijtimoiy ma'naviy-axloqiy me'yorlar, jamiyatda ustuvor o'rin tutuvchi ijtimoiy munosabatlar, jamoa orasida o'zini tutish qoidalari va boshqalar);

b) estetik mavzular (tabiat go'zalligi, shaxslararo munosabatlar, inson go'zalligi);

v) siyosiy mavzular (davlatning ichki va tashqi siyosati, dunyo voqealari, halqaro munosabatlar va boshqalar); g) ta'lim va bilishga oid mavzular (koinot, hayvonot va o'simliklar dunyosi, elektronika va boshqalar).

Namuna. O'quvchilar o'z atrofidagi kishilarda hamma yaxshi axloqiy sifatlarni ko'rishlari va ibrat olishlari nihoyatda muhim.

O'qituvchining shaxsan o'zi namuna bo'lishi, ayniqsa, yoshlarga katta ta'sir ko'rsatadi. Ular o'qituvchining darsda va hayotda o'zini qanday tutishini, atrofidagi kishilar bilan qanday muomala qilishini, o'z vazifalarini qanday bajarishini kuzatib yuradilar.

O'quvchilar o'zlariga yaqin kishilarning xulq-atvoriga taqlid qiladilar, Xulq-atvorlar bolalarda yaxshi sifatlarning, ba'zan esa yomon sifatlarning ham tarkib topishiga ta'sir ko'rsatadi. SHuning uchun o'qituvchi va ota-onalar har qanday holatda ham o'zlarini tuta bilishlari kerak. Ular qaerda bo'lishmasin, atroflarida bolalar

borligini his etishlari lozim. Kattalarning soʻzi bilan yurish-turishi va xatti-harakatlarida tafovut boʻlmasligi kerak.

Ilgʻor kishilarning hayoti va faoliyatidan olingan maʼlumotlar, adabiy asar, kinofilm va spektakllar qahramonlarining xatti-harakatidagi yaxshi namunalar bolalarning ongiga kuchli taʼsir qiladi.

Maktablarda ishlab chiqarish ilgʻorlari bilan uchrashuvlar oʻtkaziladi. Oʻquvchilar oʻz ota-onalarining ishlab chiqarishdagi muvaffaqiyatlari bilan fahrlanadilar, ularga taqlid qilishga intiladilar.

Namunada halq pedagogikasi gʻoyalaridan ham foydalaniladi. Ota-onalar oʻz farzandlarini hamisha katta hayotiy tajribaga ega, dunyoqarashi va bilim doirasi keng kishilardan ibrat olishga daʼvat qilib kelganlar. Masalan, «Qush uyasida koʻrganini qiladi». Juda oddiy hulosa. SHu oddiy hulosa ostida qancha fikrlar jamlanib yotgavnligini hamisha ham fahmiga boravermaymiz. Bu bilan halq halq «uyingda tartibli boʻl, aks holda bolang koʻchada tartibsiz boʻladi», «bola oldida birovlarining gʻiybatini qilma, bolang gʻiybatchi boʻladi», demoqchi.

Oʻz-oʻzini tarbiyalash metodlari. Oʻquvchida oʻz-oʻzini tarbiyalashga, yaʼni, oʻz ustida ongli, bartartib ishlashga ehtiyoj paydo boʻlgandagina tarbiya jarayonini samarali deb hisoblash mumkin. Tarbiya jarayonida oʻz-oʻzini tarbiyalash metodlaridan foydalanish samarali hisoblanadi. Oʻz-oʻzini tarbiyalash metodlari oʻquvchilarning oʻzini oʻzi idora qilishlari, turli oʻquvchilar organlari faoliyatida faol ishtirok etishlarini taʼminlash, ularning ijtimoiy mavqelarini oshirish maqsadida qoʻllaniluvchi usullardir.

Oʻz-oʻzini tarbiyalash oʻquvchilarning oʻzini oʻzi idora qilish va oʻquvchilarning turli organlari faoliyatida faol ishtirok etishni taʼminlash, ularning ijtimoiy mavqeini oshirishning taʼsirchan vositasidir. Oʻquvchilar oʻqish, tarbiya va dam olishda oʻz-oʻzini tarbiyalash usullaridan foydalanadilar, bu usullar oʻquvchilarni oʻz-oʻzini tarbiyalash tashabbuskorlik va mustaqillikka undaydi.

Oʻz-oʻzini tahlil (nazorat) qilish oʻz shaxsi, mavjud fazilatlarini, xatti-harakati, xulq-atvorini tahlil qilish, mavjud sifatlarni boyitish yoki salbiy odatlarni bartaraf etishga qaratilgan faoliyat usuli.

Oʻz-oʻzini tahlil (nazorat) qilish uchun oʻquvchi oʻzining yurish-turishi, intizomi, ijobiy fazilatlarining ortib borishi va

aksincha, salbiy odatlarining kamayib borishi haqida muntazam ravishda kundaligiga yozib boradi.

O‘z-o‘zini baholash mavjud fazilatlari, xatti-harakati, xulq-atvorini tahlil qilish asosida o‘z shaxsiga baho berishga yo‘naltirilgan faoliyat usuli.

O‘quvchining qobiliyatini o‘z kuchi bilan yuzaga chiqishiga yordamlash zarur. O‘z-o‘zini baholash qiyin, lekin o‘quvchini bunga etarli tayyorlash mumkin. SHu bois o‘quvchi irodali bo‘lishi, o‘z burchini tushunishi, tahsil va tarbiya olish uchun sababli asos bo‘lishi, ya’ni, tarbiyalanishni hohlashi, o‘zini o‘rtoqlari, atrofdagilarning ko‘zi bilan ko‘rish va o‘z-o‘zini takomillashtirishga intilishi lozim.

O‘z-o‘zini baholash o‘quvchi uchun shaxsiy imkoniyatlarini hisob-kitob qilish, o‘ziga chetdan turib holisona baho berish, o‘zidan qoniqish hosil qilishda yordam beradi.

Rag‘batlantirish tarbiyalanuvchining xatti-harakati va faoliyatiga ijobiy baho berish asosida unga ishonch bildirish, ko‘ngilini ko‘tarish va uni qo‘llab-quvvatlash usulidir. O‘qituvchi har bir o‘quvchi shaxsida ro‘y berayotgan ijobiy o‘zgarishlarni anglash olishi zarur. SHundagina o‘quvchi o‘zining kamolga etayotganligini his qiladi, unda o‘z kuchiga nisbatan ishonch paydo bo‘ladi. Uni hurmat qilishadi, unga ishonishadi, uning fikrlari bilan qiziqishadi, unga quloq solishadi, demak, u jamoada o‘z o‘rniga ega. O‘qituvchi ana shunday holatning yuzaga kelishi uchun rag‘batlantiruvchi usullardan foydalanadi.

Har qanday rag‘batlantirish mavjud pedagogik talablarga muvofiq bo‘lishi, ketma-ket bo‘lmasligi zarur, shuningdek, o‘quvchini yoki uning xatti-harakatlarini haddan oshirib maqtash, boshqa o‘quvchilarga taqqoslash, ularni kamsitmaslik, talabchanlikni bo‘shashtirmaslik kabi shartlarga muvofiq qo‘llaniladi.

Jazolash Jazolash tarbiyalanuvchining xatti-harakati va faoliyatiga salbiy baho berishdir.

Jazo ham o‘quvchining individual xatti-harakatlari va umumjamoa faoliyati uchun qo‘llaniladigan eng so‘nggi tarbiya usuli. Jazo choralarini qo‘llashda jismoniy jazo, urish, kaltaklash kabi usullardan foydalanish mumkin emas, o‘quvchini qo‘rqitish, g‘azablantirish ham ijobiy natija bermaydi. Aksincha, o‘quvchi

qo‘rqqanda yolg‘on gapirishni o‘rganadi, ikki yuzlamachi bo‘lib qoladi.

Tanbeh berish – eng muhim jazo chorasi. O‘qituvchi o‘qituvchiga yuzma-yuz turib tanbeh beradi, buni kundaligiga yozib qo‘yish mumkin.

Ogohlantirish – sodir etilishi mumkin bo‘lgan muayyan xatti-harakatlarning oldini olish maqsadida qo‘llaniladi.

Hayfsan berish – o‘quvchining ma‘lum xatti-harakatlarini qat’iy choralar asosida baholash. Agar tanbeh va ogohlantirish kutilgan natijani bermasa, o‘quvchi belgilangan intizomni buzaversa, uning aybi qay darajada bo‘lishi va intizomni qanday sharoitda buzganligini inobatga olib unga hayfsan e‘lon qilish mumkin.

Savol va topshiriqlar

1. Tarbiya usullarini izohlang?
2. Tarbiyaning qanday vazifalari bor?
3. Tarbiyaning asosiy g‘oyalari nimalardan iborat?
4. Bola tarbiyasida qanday qoidalarga e‘tibor berish lozim va ular qaysilar?
5. Tarbiya jarayonining muvaffaqiyatili tashkil etishda qanday tamoyillarga ko‘ra ish ko‘riladi?
6. Jamoada [va jamoa yordamida tarbiyalash](#) tamoyillarini izohlab bering?
7. Tarbiya fanini o‘qitishning qanday tamoyillarini mavjud?
8. K.D.Ushinskiy insonni tarbiyalash haqida qanday fikr bildirgan?
9. Ijtimoiy ongni shakllantiruvchi qanday metodlar bor?
10. Tarbiyada milliy, umumbashariy qadriyatlarning ustunligi?

Test:

1. Tarbiya usullari nima?
 - a) faoliyatlarning o‘zi;
 - b) tarbiya berish usullarining majmui;
 - d) tarbiya jarayonidagi qiyinchiliklar;
 - e) tarbiyani tashkil etish uchun joy va vaqt;
2. Tarbiya usullarining asosiy shakllari qaysilar?
 - a) o‘rganish va kuzatish;
 - b) maslahatlarga asoslanib faoliyatni tashkil qilish;
 - d) maslahat va topshiriq;

- e) nazorat va jazo;
- 3. Tarbiya usullari qanday turlarga bo'linadi?
 - a) amaliy va nazariy;
 - b) hissiy va intellektual;
 - d) ochiq va yopiq;
 - e) barcha javoblar to'g'ri;
- 4. Tarbiya usulini amalga oshirishda eng muhimi nima?
 - a) o'quvchilarni jazolash;
 - b) do'stona munosabat o'rnatish;
 - d) qurilish jarayoniga qarab usulni tanlash;
 - e) umumiy talablar to'g'risida tushuncha berish;
- 5. Tarbiya usulining qaysi turi o'quvchilar bilan bevosita muloqot qilishni talab etadi?
 - a) maslahat berish;
 - b) shaxsiy suhbatlar;
 - d) ta'lim berish;
 - e) o'rganish va kuzatish;
- 6. Tarbiya shakllaridan qaysi biri o'qituvchining faol ishtirokini talab qiladi?
 - a) amaliy mashg'ulotlar;
 - b) barchasi;
 - d) nazorat;
 - e) shaxsiy suhbatlar;
- 7. Tarbiya usullarida qaysi biri ko'proq o'rganishga asoslanadi?
 - a) nazorat va jazo;
 - b) o'rganish va kuzatish;
 - d) do'stona munosabatlar;
 - e) ta'lim berish;
- 8. Tarbiya shaklini o'zgartirishda nima muhim?
 - a) olish o'quvchilarning yoshi;
 - b) o'quvchilarning hissiy holatini inobatga olish;
 - d) o'quvchilarning madaniyatini oshirish;
 - e) o'qituvchining tayyorligi;
- 9. Tarbiya shaklini amalga oshirishda qanday strategiya muhim?
 - a) zudlik bilan jazo berish;
 - b) talabga binoan moslashuv;
 - d) o'quvchilarga cheklovlar qo'yish;
 - e) hamma variantlar to'g'ri;

10. Tarbiya usullarida qanday elementlar muhim hisoblanadi?


- a) mehnat va ijod;
- b) barcha javoblar to'g'ri;
- d) e'tibor va qiziqish;
- e) fikrlash va harakat qilish.

“Saot millari” metodi

Bolalarda tarbiyani shakllantirishni ushbu diagramma orqali izohlang.
topshiriq-3

O'tgan zamon

Hozirgi zamon



4-mavzu. Maktabdagi tarbiyaviy ishlar tizimida boshlang'ich sinf rahbarining faoliyati.

Reja:

1. Sinf rahbari to'g'risidagi nizom.
2. Sinf rahbari o'quvchilarning birinchi tarbiyachisi va murabbiysi.
3. Sinf rahbarining vazifalariva huquqlari.
4. Sinf rahbari ish rejalari va ularni tashkil etish.
5. Maktabdagi tarbiyaviy ishlar tizimida sinf rahbari ishini takomillashtirish.

Foydalangan adabiyotlar

1. Mavlonova R., Raxmonqulova N., Normurodova B.
Tarbiyaviy ishlar metodikasi. -T.: Tib-kitob, 2010 y.

2. Ishmuhammedov R., Abduqodir A., Pardayev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar. -T.: Fan va texnologiya, 2010 y.
3. И.А.Олесникова, Н.М.Борытко и др. Воспитательная деятельность педагога. Учебное пособия. М.:Академия, 2006-333 с.
4. Подласый И.П. Педагогика 2-я часть -М.: ВЛАДОС, 2003 г.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrda "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-son farmoni.
6. www.apkro.ru/content/view
7. <http://www.ziyounet.uz/>

Tayanch tushunchalar. Sinf, sinf rahbari, tarbiyachi, ish reja, tarbiyaviy ish, nizom, huquq.

1. Sinf rahbari to'g'risidagi nizom.

2. Sinf rahbari o'quvchilarning birinchi tarbiyachisi va murabbiysi.

Sinf rahbari maktabdagi o'quv va tarbiyaviy ishlarning bevosita va asosiy tashkilotchisi, sinfda tarbiyaviy ishlarni olib borish uchun uning direktori tomonidan tayinlangan mansabdor shaxs. Sinf rahbari deganda o'quvchilarni bir xil saviyada, bir xil yoshda, bilimi jihatidan ham teng bo'lgan jamoani boshqarib turuvchi pedagog tushuniladi. Maktab hayotida, ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish va boshqarishda sinf rahbari yoki boshlang'ich sinf o'qituvchisining boshqalar bilan almashtirib bo'lmaydigan o'ziga xos o'rni bor. Sinf rahbari (boshlang'ich sinfda sinf ukituvchisi) faoliyatining aksariyat kismi tarbiyaviy jarayon bilan bog'liqdir. Shu jihatdan olganda uni sinfning bosh tarbiyachisi, murabbiysi deyish mumkin. Sinf rahbarlari avvalo, «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun, O'zbekiston Respublikasining umumta'lim maktabi to'g'risida Nizom, O'zbekiston Respublikasining ta'lim muassasalari sinf rahbarlari to'g'risidagi Nizomi va boshqa pedagogik hujjatlarda belgilab berilgan yosh avlodni mustaqillik ruhida tarbiyalashning umumiy vazifalaridan kelib chiqib, o'z tarbiyaviy ish faoliyatini aniqlab oladilar. Sinf rahbari o'z faoliyati davomida maktab direktori, o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari, ma'naviy va

tarbiyaviy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosarlari bilan o'z sinfiga dars beruvchi o'qituvchilar, maktabdagi bolalar tashkilotlari etakchilari bilan va maktab kutubxonachisi bilan hamkorlikda qator ishlarni olib boradi.

Sinf rahbariyati instituti juda uzoq vaqt oldin, amaliy jihatdan ta'lim muassasalarining paydo bo'lishi bilan birga shakllangan. Rossiyada 1917 yilgacha bu o'qituvchilar sinf o'qituvchilari va sinf ayollari deb atalgan. Ular o'zlariga ishonib topshirilgan talabalar jamoalarining barcha hayotiy voqealarini o'rganishlari, ulardagi munosabatlarni kuzatishlari, bolalar o'rtasida xayrixoh munosabatlarni shakllantirishlari shart edi. Domla hamma narsada namuna bo'lishi kerak edi, hatto tashqi ko'rinishi ham namuna edi. Sovet maktabida sinf rahbari lavozimi 1934-yilda joriy etilgan. O'qituvchilardan biri sinf rahbari etib tayinlangan bo'lib, unga ushbu sinfdagi tarbiyaviy ishlar uchun alohida mas'uliyat yuklangan. Sinf rahbarining mas'uliyati asosiy o'quv ishiga qo'shimcha sifatida qaraldi.

Hozirgi vaqtda sinf rahbariyati instituti sezilarli darajada o'zgardi, chunki sinf rahbariyatining bir necha turlari mavjud:

a) bir vaqtning o'zida sinf o'qituvchisi funktsiyalarini bajaradigan fan o'qituvchisi;

b) faqat tarbiyaviy funktsiyalarni bajaradigan ozod qilingan sinf rahbari;

v) har qanday ishni boshqarish ishonib topshirilgan sinf kuratori (ishonchli vakil);

d) tarbiyachi (himoyachi, homiy, homiy), talabalar o'qituvchining bir qator tashkiliy funktsiyalarini o'z zimmalariga olgan sharoitlarda nazoratni amalga oshiradilar.

Sinf rahbari o'z ishlarini maktab ma'muriyati rahbarlari va bolalar tashkilotlari bilan hamkorlikda olib boradi. Shuning uchun uning faoliyatini rejalashtirish umummaktab hamda bolalar va o'smirlar, "Yoshlar ittifoqi", "Yosh mutaxassislarni qo'llab-quvvatlash markazi" ishining rejalashtirilishi bilan uzviy ravishda bog'langandir. Sinf rahbari ishlarini, jumladan tarbiyaviy ishlarni to'g'ri rejalashtirib olish tarbiya samaradorligini ta'minlovchi omillardan biridir. Maktabda o'quvchilarga tarbiya asosan sinf rahbarining ishlari orqali beriladi. Jumladan, tadbirlar, mushoiralar, har xil kechalar, uchrashuvlar, tanlovlar va boshqa o'yinlar orqali o'quvchilarga ta'lim-tarbiya beriladi. Sinf rahbari maktab ma'muriyati bilan birgalikda va mahalla jamoasi,

ota-onalar bilan hamkorlikda tarbiyaviy ishlarni olib boradi. Maktab ma'muriyati sinf rahbari va uning olib borayotgan ishlarini doimo qo'llab-quvvatlashlari lozim. Chunki sinf rahbari o'z o'quvchilarini yaxshi biladi va ularni tarbiyalash uchun nimalar kerakligini hisobga olib ish yuritadi. Sinf rahbari ishini ma'naviyat va ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari boshqarib turadi. Boshlang'ich sinf maktab ta'limining dastlabki bosqichi bolalar o'qituvchi rahbarligida ta'limda birinchi qadam qo'yadilar. O'quv faoliyatida bilim, ko'nikma va malakalarni egallaydilar. O'qituvchi sinf bilan ko'pincha yolg'iz ishlaydi va tarbiyachi sifatida ish yuritadi. O'qituvchilar tomonidan o'quvchilarga qo'yiladigan pedagogik talablar berishga erishadi, ota-onalar, kuni uzaytirilgan guruh tarbiyachilari jamoatchilik bilan doimo aloqa bog'lab turadi. Zarur bo'lgan vaqtda o'qishda o'quvchilarga yordam ko'rsatishni tashkil etadi. Sinf rahbari qiladigan ishlari hujjatlarini olib boradi va uni maktab ma'muriyatiga taqdim etadi. O'quvchilar sog'lig'ini mustahkamlashga doir ishlarni o'tkazadi va jismoniy hamda aqliy mehnat qilishga o'rgatib boradi. Sinf jamoasini tashkil etishda, sinf majlisini tashkil etishda sinf rahbarining roli katta hisoblanadi. Sinf rahbari vazifasini, asosan fan o'qituvchilari bajarishadi. Shuning uchun har bir talaba, har bir bulg'usi o'qituvchi tarbiyaviy ishlarni, sinf rahbari faoliyatini chuqur o'rganib chiqishi zarur bo'ladi. Sinf rahbari sinfdagi barcha tarbiyaviy ishlarning tashkilotchisi sifatida tarbiyaviy ishlarni tashkil etadi, o'tkazadi va uning natijasini tahlil etib boradi. Sinf rahbari o'quvchilarda mustaqil davlatimiz ichki va tashqi hayotida sodir bo'layotgan voqeliklarga qiziqish uyg'otib, uni kasb-korga bog'lab olib borishi lozim.

Sinf rahbari bolalar xulq-atvoridagi salbiy xususiyatlarni bartaraf qilishda mohir pedagog sifatida faoliyat ko'rsatadi. Ularda to'g'rilik, halollik, iroda va qat'iyatlilik hislatlarini tarkib toptirishga ta'sir ko'rsatadi. Sinf rahbarining o'quvchilarga ko'rsatadigan tarbiyaviy ta'sir kuchi ko'p jihatdan uning ma'naviy kamolotiga bog'liqdir. Sinf rahbari o'z o'quvchilariga singdirishi lozim bo'lgan: ilmlilik, odillik, to'g'rilik, poklik, jamoatchilik, g'amxurlik, sezgirlik, ijodkorlik, jo'shqinlik, orastalik kabi yuksak ma'naviy sifatlarni avvalo o'zi egallab olgan bo'lishi lozim. Sinf rahbarining pedagogik mahorati va pedagogik odobi ham tarbiya jarayonida muhim o'rin tutadi. Sinf rahbari har bir o'quvchisini har tomonlama chuqur o'rganib chiqishi, sinf jamoasini tashkil etishi va jipslashtirishi, jamoaga pedagogik

rahbarlik qilishi, oila va jamoatchilik bilan hamkorlikda tarbiyaviy ishlar tashkil qilishi kerak bo'ladi. Sinf rahbari sinfdagi barcha ishlarni, jumladan tarbiyaviy ishlarni ham rejalashtiradi. Reja asosida esa o'quvchilarga aqliy, axloqiy, vatanparvarlik, huquqiy, iqtisodiy, mehnat, nafosat, ekologik, jismoniy tarbiya berish, o'quvchilarni shaxsiy ozodalikka o'rgatish borasida tarbiyaviy ishlar olib boradi. Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarni tashkil qiladi, bunda aqliy, axloqiy, vatanparvarlik, huquqiy va boshqa tarbiyalar bo'yicha belgilangan ishlar va tadbirlar, kasb tanlash ishlari, sinfdan tashqari o'qishni tashkil qilish, o'qilgan asarlar yuzasidan suhbat uyushtirish, sinfda adabiy ko'rgazma tashkil qilish, sinfda ko'rgazmali tashviqot ishlari olib borish (sinf burchagi, devoriy gazetalar, varaqalar chiqarish, sinfni mazmunli bezash, ekologik burchak tashkil qilish va boshkalar) ishlarini amalga oshiradi. Umuman olganda sinf rahbari har tomonlama yetuk, komil inson tarbiyalash ishida o'zining munosib hissasini qo'shadi. Oila ham jamiyatning bir bo'lagi hisoblanadi. Oilada bola tarbiyasini yo'lga qo'yish juda katta ahamiyatga ega. Oila boshqa tarbiyaviy muassasalardan farqli ravishda odamning butun hayoti davomida uning barcha tomonlariga qirralariga ta'sir ko'rsatishga qodirdir va odatda ta'sir ko'rsatadi. Oila tarbiya vazifasining bu ulkan miqyosi uning mafkuraviy va psixologik ta'sir ko'rsatishning chuqur o'ziga xosligi bilan uyg'unlashib ketadi. Ota-onalar bilan ish shakllari odatda sinf rahbari o'z shaxsiy xususiyatlarini tajribasini o'quvchilarning oilalarida vujudga kelgan o'ziga xos xususiyatlarni, ota-onalarni bilim va tajribasini, bolalarni tarbiyalashda yuqorida ko'rsatib o'tilgan xatolar va qiyinchiliklarni, fe'l-atvor xususiyatlarni maktab pedagoglar jamoasidagi muhitni ota-onalar bilan ish olib borishda tarkib topgan an'analarni va hokazalarni hisobdan olib belgilaydi. Shuning uchun bunday ulkan vazifani amalga oshirishda sinf rahbari ham o'zining beqiyos hissasini qo'shadi. Sinf rahbarining asosiy vazifalaridan biri bizning kelajagimiz bo'lmish yosh avlodni to'g'ri, insonparvarlik ruhida tarbiyalashdan iborat. Tarbiya jarayonida o'qituvchi va sinf rahbari bir-birini tushunish kerak va sinf rahbari o'qituvchilarga e'tiborliroq bo'lishini taqozo qiladi. Maktab ma'muriyati sinfda rahbari va u olib borayotgan ishlarni qo'llab quvvatlash lozim. Chunki sinf rahbari o'z o'qituvchilarini yaxshi biladi va ularni tarbiyalashni uchun nimalar qilishi kerakligini hisobga olib ish yuritadi. Sinf rahbari ishini ma'naviyat ishlari bo'yicha direktor

o`rinbosari boshqaradi. Sinf rahbarining ish rejasini maktab direktori va ma'naviyat va ma'rifat ishlari bo'yicha derektor o`rinbosarlari tuzadi va boshqaradi. Boshlang'ich sinflar maktab ta'limining dastlabki bosqichi bolalar o`qituvchi rahbarligida ta'limga birinchi qadamni qo'yadilar. O`quv faoliyatida bilim, ko`nikma va malakani egallaydilar. O`qituvchi sinf bilan yolg'iz ishlaydi va ko`pincha tarbiyachi sifatida ish yuritadi. O`qituvchilarning bolalarga bo`lgan munosabati katta mehribonlik va g'amxo`rlik bilan xarakterlanadi. Bu esa talabchanlik bilan olib boriladi. O`qituvchilar bilan bo`ladigan o`zaro munosabatlarni to`g`ri yo`lga qo'yish hamda o`quvchilarning o`sishi va rivojlanishiga qarab ularni qayta qurish xususiyati ham sinf rahbari uchun muhim ahamiyatga ega. Maktab ustavida sinf rahbarining asosiy vazifalari belgilab berilgan. Sinf rahbari barcha o`qituvchilar bilan birgalikda aloqada bo`lib, o`zining sinfi bilan tarbiyaviy ishlarni olib boradi. O`qituvchilar tamonidan o`quvchilarga qo'yiladigan pedagogik talablar birligiga erishadi. Ota-onalar, kun uzaytirilgan grupp tarbiyachilari, jamoatchilik bilan doimo aloqada bo`lib turadi. Zarur bo`lgan vaqtda yordam ko`rsatilib tashkil qiladi. Sinfda belgilangan xujjatlarni olib boradi va uni maktab ma'muriyatiga taqdim etadi. O`qituvchilar sog`ligini mustaxkamlashga doir ishlarni o`tkazadi va mehnat qilishga o`rgatadi. Sinf rahbari ishining o`ziga xos xususiyatini shundan iboratki, u oddiy bolalar jamoasini emas, balki o`quvchilar jamoasini shakllantiradi. O`quvchilarning asosiy vazifasi o`qishidan iborat. Shuning uchun sinf rahbari dast avval bolalarning o`qishiga qanday munosabatda ekanliklarini, o`zlarini qanday tutishlarini uy vazifalarini sidqidildan bajarishlarini yoki bajarmasliklarini aniqlaydi. Va nihoyat eng muhimi ularning o`qishidagi mo`ljallari nimalardan iborat. Bu mo`ljallar ijtimoiy mohiyatga molik yoki molik emasligi hisoblanadi. Pedagog sinf bilan ishlashning dastlabki bosqichida turli vaziyatlarga duch kelishi mumkin. Sinf rahbari jamoa rivojlanishining aniqlangan darajasiga qarab tarbiya usullarini darajasiga qarab tarbiya usullarini tanlaydi. Bundan o`qituvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olish qo`shimcha shart hisoblanadi. Pedagog shaxsni har tamonlama etuk kamol toptirishda katta rol o`ynaydi. Aqliy tarbiya shaxsni har tomonlama taraqqiy ettirishda muhim rol o`ynaydi. O`qituvchi axloqiy tarbiyasining vazifasi va mazmunini o`qituvchilardan ekologik ong va madaniyatni shakllantiradi. O`qituvchilik kasbiga shu jumladan sinf rahbari kasbiga xos bo`lgan muhim fazilatlardan biri – bolalarni sevishi,

ularning hisiyoti bilan qiziqishi, har bir shaxsni xurmat qilishdan iborat. Bolani sevgan butun kuch va bilimni bolalarning kelajagi buyuk vatanga sodiq fuqaro qilib tarbiyalashgan safarbar qila oladigan odamgina haqiqiy o`qituvchi bo`la oladi. Bolaga befarq, uning kelajagi bilan qiziqmaydigan, o`qituvchilik kasbiga loqayd odam haqiqiy o`qituvchi bo`la olmaydi.

3. Sinf rahbarining vazifalari va huquqlari.

Umumiy o`rta ta`lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan sinf rahbarlari faoliyatini tartibga solish maqsadida Xalq ta`limi vazirligining 2021-yil 22-fevraldagi 41-son buyrug`i bilan "Umumiy o`rta ta`lim muassasasining sinf rahbarlari faoliyatini tashkil etish to`g`risida"gi Nizom tasdiqlandi. Mazkur nizom umumiy o`rta ta`lim muassasalari sinf rahbarlarining asosiy vazifalari, funksiyalari, huquqlari va majburiyatlarini hamda faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi. Sinf rahbarlari o`z faoliyatini O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va Qonunlariga, O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati va Qonunchilik palatasi qarorlariga, O`zbekiston Respublikasi Prezidentining hujjatlariga, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, O`zbekiston Respublikasi Xalq ta`limi vazirining buyruqlariga, mazkur nizomga va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq amalga oshiradi.

Nizomga ko`ra quyidagilar sinf rahbarlarining asosiy vazifalari hisoblanadi:

- ta`lim muassasasining tarbiyaviy tizimidagi tayanch pedagoglardan biri sifatida o`ziga biriktirilgan sinf o`quvchilarining amalda belgilangan ta`lim va tarbiya olishlarini tashkil etish;

- odob-axloq va ichki tartib qoidalariga muvofiq muomala va kiyinish madaniyatiga qat`iyan amal qilish, jamoada namunali bo`lish;

- o`quvchilarning o`sib-ulg`ayishlarini pedagogik kuzatuvlar asosida nazorat qilish, yordamga muhtoj o`quvchilarga yakka holda yondashish asosida ular qalbida milliy g`urur, vatanparvarlik, mehr-muruvvat, mas`uliyat, tashabbuskorlik, ishbilarmonlik kabi xislatlarni uyg`otish;

- sinf o`quvchilarining ma`naviy va ma`rifiy tarbiyasini tashkil etishda o`qituvchilar, psixolog, ota-onalar va ularning o`rnini bosuvchi shaxslar, ta`lim muassasasi rahbariyati orqali voyaga yetmaganlar ishlari bo`yicha komissiyalar, mahalla, huquq-tartibot idoralari, tegishli davlat va nodavlat tashkilotlari bilan hamkorlikda ishlash.

Sinf rahbarlari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vazifalarni ham bajarishi mumkin.

Sinf rahbarlari o'zlariga yuklatilgan asosiy vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

- har tomonlama yetuk, barkamol-ma'naviy, aqliy, jismoniy rivojlangan shaxs tarbiyasini amalga oshirish, sinf o'quvchilarining qobiliyatlarini to'liq namoyon etishlari uchun tegishli shart-sharoitlar yaratish;

- pedagogik va o'quvchilar jamoasi hamkorligida tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda har bir o'quvchining o'ziga xos xususiyatlariga qarab yondashishni yo'lga qo'yish;

- ertalabki saflanishlarda sinf o'quvchilarining belgilangan tartibda to'liq ishtirok etishlarini ta'minlash;

- biriktirilgan sinf xonasidagi mavjud jihozlarning saqlanishini va ulardan samarali foydalanishni ta'minlash.

Sinf rahbarlari o'z faoliyatini o'quvchilarning yosh xususiyatlari, umumiy rivojlanish darajasi va qobiliyatlarini hisobga olgan holda, keng qamrovli tarbiyaviy ishlar va aniq mezonlar asosida tashkil etadi.

Jumladan:

a) Vatanparvarlik ruhida tarbiyalash yo'nalishida:

- o'quvchilarni Vatani va xalqiga sadoqat, fidoyilik, Davlat ramzlariga hurmat ruhida tarbiyalash;

- o'quvchilar ongiga buyuk ajdodlarimiz merosi va xalqimizning bugungi bunyodkorlik ishlariga yuksak ehtirom tuyg'ularini singdirish, yurtimizdagi bunyodkorlik ishlari, inshootlar va ma'rifat maskanlari bilan ularni tanishtirib borish;

- sinfda o'quvchilarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash muhitini yaratish, tarbiya jarayoniga boy madaniy merosimiz, milliy odob-axloq me'yorlarini tatbiq etish, mehnatga ijodiy munosabatni tarbiyalash;

- o'quvchilarni mustaqil hayotga tayyorlash, ularni jamiyatda o'z o'rnini topa oladigan shaxs sifatida shakllanishlari uchun zarur ko'nikmalarni rivojlantirish;

- o'quvchilarni o'zbek va boshqa xalqlarning madaniy, tarixiy, milliy an'analariga hurmat ruhida tarbiyalash;

- o'quvchilarni o'z huquq va majburiyatlarini biladigan va ularga rioya qiladigan inson sifatida tarbiyalash.

b) ota-onalar va mahalla bilan hamkorlik yo'nalishida:

- barkamol avlodni tarbiyalashda “Oila-mahalla-ta’lim muassasasi” hamkorligi Jamoat kengashi faoliyatini keng tatbiq etish, aniq belgilangan reja asosida sinf ota-onalar majlislarini o’tkazib borish;

- o‘quvchilarni ijtimoiy himoya qilish bo‘yicha aniq chora-tadbirlar belgilash, jumladan, kam ta‘minlangan oilalar farzandlari, ijtimoiy himoyaga muhtoj, ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan, ota-ona qarovisiz qolgan, vasiylik va homiylikka berilgan voyaga yetmaganlarning ijtimoiy huquqlarini himoyalash;

- o‘quvchilarning ta’lim muassasasiga belgilangan maktab formasida kelishlarini nazorat qilish;

- o‘quvchilar kundalik daftarlarining yuritilishini nazorat va tahlil qilish, o‘quv qurollarining mavjudligi va to‘g‘ri tartibli saqlashlarini kuzatib borish, natijalarini ota-onalar bilan muhokama qilish;

- o‘quvchilarning turli salbiy diniy oqimlar ta’siriga tushib qolishining oldini olish, ularda bu borada immunitet shakllanishi uchun targ‘ibot ishlarini olib borish;

- ota-onalar bilan hamkorlikda ota-onalar majlislari, davra suhbatlari, muloqotlar uyushtirish, o‘tkazgan tarbiyaviy ishlari yuzasidan pedagogik kengashlarda hisobot berish;

- darslarga surunkali va muntazam kelmaydigan, tarbiyasi og‘ir o‘quvchilar bilan ishlashda ularning ota-onalari va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari bilan hamkorlik qilish, natijalari bo‘yicha direktor huzuridagi yig‘ilishlarga ma’lumot kiritib borish;

- o‘quvchilarni ota-onalar va kattalarga hurmat, kichiklarga izzat ruhida tarbiyalash, ularga kamtarlik, saxiylik va insonlarga yordam berish sifatlarini singdirish,

- mehribonlik, mehnatsevarlik xislatlarini singdirib borish.

s) o‘quvchilarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, maktabdan va sinfdan tashqari faoliyatga jalb etish yo‘nalishida:

- o‘quvchilarning qiziqishi, imkoniyati va qobiliyatlariga qarab fan to‘garaklari, sport seksiyalari, badiiy-estetik, texnik, ekologik, sayyohlik va o‘lkashunoslik yo‘nalishidagi to‘garaklarga, klublarga jalb qilish;

- qobiliyatli va iste’dodli o‘quvchilarni rag‘batlantirish, ularning ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirishga ko‘maklashish;

- milliy madaniyatning asosi bo‘lgan musiqa va qo‘shiq, kino, adabiyot, xalq og‘zaki ijodi, teatr, naqqoshlik va me’morchilik kabi

xalq amaliy san'ati turlari vositasida o'quvchilar dunyoqarashini kengaytirish maqsadida ularni madaniyat maskanlariga ota-onalar bilan hamkorlikda jalb etish;

- o'quvchilarni yozgi sog'lomlashtirish oromgohlarida dam olishini tashkil etish, kuzgi, qishki va bahorgi ta'til kunlarini mazmunli o'tkazishi uchun ota-onalar bilan hamkorlikda sharoit yaratish;

- turli ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda (bayramlar, ko'rik-tanlov, sport musobaqalari, uchrashuvlar, kechalar va boshqalar) sinf o'quvchilarining faol ishtirokini ta'minlash;

d) o'quvchilarning o'zini o'zi boshqarish tizimini takomillashtirish yo'nalishida:

- sinf jamoasi bilan birgalikda sinf faollarini saylash va sinf ishlarini rejalashtirish,

- o'quvchilar davomatini muntazam kuzatib borish va tahlil qilish;

- sinf o'quvchilarining ehtiyoji va qiziqishlarini har tomonlama o'rganish, ularni ahil jamoaga jipslashtirish va tashabbuskor o'quvchilarni qo'llab-quvvatlash;

- har bir o'quvchining o'zi uchun kun tartibi tuzishini tashkil etish va uning bajarilishini ota-onalar hamkorligida nazorat qilish;

- o'quvchilarning huquqiy savodxonligini oshirish, har bir fuqaro, shaxs va muassasalar tomonidan bajarilishi shart bo'lgan qonun hujjatlari, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotda ro'y berayotgan o'zgarishlar haqida tushunchalar berib borish,

- qonunga hurmat hissini shakllantirish;

- o'quvchilarda maktab hududi, binosi, yo'laklari va sinf xonalarini ozoda tutish bilan bog'liq ekologik tarbiya ko'nikmalarini mustahkamlab borish.

e) pedagogik jamoa bilan birgalikda:

- sinf o'quvchilarining ta'lim muassasasi (ustavida belgilangan) ichki tartib qoidalarini bajarishlarini ta'minlash;

- sinf jurnali va faoliyatiga doir boshqa hujjatlarning to'g'ri yuritilishini ta'minlash;

- o'quvchilar o'zlashtirishini yuqori darajaga ko'tarish, tartib-intizomni mustahkamlash maqsadida sinf majlislarini o'tkazib borish;

- o'qishda yutuqlarga erishgan, umumiy foydali mehnatda, maktab hayoti va jamoatchilik ishlarida faol o'quvchilarni taqdirlash, ularning ota-onasiga tashakkurnoma, minnatdorchilik xatlari yuborish bo'yicha taklif berish;

- sogʻlom turmush tarzi, oilaviy hayot gigiyenasi hamda jismoniy tarbiya, zararli odatlardan saqlanish kabi masalalarga eʼtibor berish;

- oʻquvchilarning past oʻzlashtirish sabablarini aniqlash, bartaraf etish boʻyicha tegishli fan oʻqituvchilari, yoshlar yetakchisi va maktab psixologi bilan birgalikda yordam berish;

taʼlim muassasasi tibbiyot xodimlari, oʻqituvchilari, psixolog va ota-onalar bilan hamkorlikda oʻquvchilarning sogʻligʻini muhofaza qilish, maʼnaviy-maʼrifiy, jismoniy va aqliy jihatdan rivojlanishini nazorat qilish;

- oʻquvchilarning taʼlim muassasasida texnika xavfsizligi, ularni muhofaza qilish, sanitariya-gigiyena qoidalari va meʼyorlari talablariga rioya qilishini taʼminlash;

Sinf rahbarlari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa funksiyalarni ham amalga oshirishi mumkin.

Sinf rahbarining huquqlari

- Oʻziga biriktirilgan sinf oʻquvchilarining dars va imtihonlarida ishtirok etadi.

- Boʻsh oʻzlashtiruvchi oʻquvchilar uchun qoʻshimcha darslar tashkil etilishi boʻyicha takliflar beradi.

- Oʻquvchilar tarbiyasiga oid ilgʻor ish tajribalarini amalga oshirish boʻyicha maktab maʼmuriyatiga tashabbus bilan chiqadi.

- Tarbiyaviy soatlarni rejalashtirishda oʻquvchilarning yosh xususiyatlaridan kelib chiqib, maktabning umumiy rejasiga qoʻshimcha yoki oʻzgarishlar boʻyicha taklif kiritishi mumkun.

- Sinf faollari ishini nazorat qiladi. Oʻquvchilarning sinf yigʻilishlarini va sinf faollari(kengashi) bilan birgalikda yigʻilish kun tartibini belgilaydi.

- Oʻquvchilarning oʻqishda erishgan yutuqlari, umumiy foydali mehnatda, maktab hayoti va jamoatchilik ishlarida faol qatnashganliklarini eʼtiborga olib taqdirlashga tavsiya etish haqida takliflar beradi.

- Oʻquvchilarning ota-onalari bilan taʼlim-tarbiya masalalari yuzasidan suhbatlashadi, hamkorlik qiladi, pedagogik maslahatlar beradi.

- Oʻquvchilar xulqini baholaydi.

4. Sinf rahbari ish rejaları va ularni tashkil etish.

Sinf rahbari ish rejasi bu majburiy pedagogik hujjatdir. Ish reja choraklik, yarim va bir yillik tuzilishi mumkin. Hozirgi sharoitda tajribalarning ko'rsatishiga binoan yarim yillik rejasidan foydalanish ancha samara bermoqda.

Sinf rahbari ish rejasi maktabning yig'ilishida muhokamadan o'tkazib tasdiqlash maqsadga muvofiqdir

Rejani ishlab chiqishga tayyorgarlik. Sinf rahbarining ish rejasi umumiy strategik yo'nalishlarga bo'lib, tarbiyaviy ishlarining kelajakdagi yo'nalishlarini aniq belgilab beradi.

Tajribalar shuni ko'rsatadiki, sinf rahbari butun o'quv yili uchun istiqbolli ish rejasiga ega bo'lsa va keyinchalik o'quv tadbirlari uchun batafsil rejalar tuzsa yaxshi bo'ladi. Biroq, bu o'qituvchining tajribasi, shuningdek, maktabning an'analari va ta'limni boshqarish organlari tomonidan mumkin bo'lgan ko'rsatmalar bilan belgilanadi.

Sinf rahbari o'tgan o'quv yili yakunida o'quv yuklamasining taqsimlanishi va yangi o'quv yili uchun sinf rahbarligi ma'lum bo'lgandan keyin, reja ustida ishlashni boshlashi kerak. Agar sinf rahbari yangi sinfni qabul qilsa, u o'quvchilarning, ularning oilalarining shaxsiy ishlari bilan tanishishi, sinfda mavjud bo'lgan ta'lim tizimini, urf-odatlarini, jamoaning rasmiy va norasmiy tuzilishini o'rganishi kerak. Bularning barchasi tarbiyaviy ishlarda uzluksizlikni ta'minlashga yordam beradi.

O'quv yili oxirida maktab psixologining yodamida sinfdagi psixologik muhitni, jamoa hayotinib jipsligini boshqa muhim parametrlarini aniqlash tavsiya etiladi. O'quvchilarning o'zaro munosabatlarini, shuningdek, o'qish, mehnat, tabiat, san'at va atrofdagi voyeylikning boshqa hodisalari va jarayonlarini aniqlash foydali bo'ladi.

Shunday qilib, sinf rahbari tarbiyaviy ish rejasini tuzish uchun tayyorgarlik bosqichi sinf jamoasi va individual o'quvchilar haqida ma'lumot to'plash bilan bog'liq bo'lib, u asosiy ta'lim vazifalarini belgilaydi.

Tarbiya jarayoni va uning natijasi ishning qay darajada tashkil etilganligi va undan keladigan samaraga bog'liq. Sinf rahbari tarbiya ishini sinf miqyosida hal etishda istiqbolni tasavvur eta olsa, kelajakni ko'ra bilish mahoratiga ega bo'lsagina u muvaffaqiyat bilan ishlay oladi.

Hozirgi kunda mehnatni ilmiy asosda tashkil etish davrning muhim talabi bo'lib qoldi. Shu boisdan ham sinf rahbari ishini ilmiy asosda tashkil etishda quyidagi talablarga rioya qilish kerak: o'z ishida tarbiyaning umumiy maqsadini hisobga olgan xolda shu kun uchun muhim bo'lgan aniq maqsadni belgilash; bolalar jamoasining xususiyatidan kelib chiqadigan vazifalarni tushuntirish; tarbiyaning umumiy qonuniyatlari va prinsiplarini, o'quvchilarga ta'sir etishning shakli, metodi, vositalarini yaxshi bilish; bolalar sinfini idora qilish qoidalari va jamoani rivojlantirish qonunlarini bilish kabilar.

Tarbiyada ijod qilmay ishlash mumkin emas. Agar sinf rahbari o'z ishidagi xar bir qadaming pedagogik ma'nosini yaxshi bilsa, u o'quvchilar qalbining muhandisiga aylanadi, aks xolda esa oddiy bir hunarmand bo'lib, qoladi xolos.

So'nggi yillarda o'quvchilarning ehtiyoji va o'quvchilar doirasi beqiyos darajada o'sib, o'zgaradi. Fan-texnika yangiliklari, ilmiy ommabop kitoblar, yoshlarning texnik va badiiy jurnallari, kino va o'quvchilarni boy manbalari bilan tanishtirmoqda. Agar sinf rahbarining sinfdagi ishlari o'quvchilarning ana shu axborotlardan kelib chiqayotgan ehtiyojlari darajasiga loyiq bo'lmas ekan, unda ishlashda ko'chirmachilik, shaklbozlik vujudga keladi va sinf rahbari tashkil etayotgan ish o'quvchilardan o'sishdan orqada qolganligi uchun unga qiziqish susayadi. Shuning uchun sinf rahbari o'z ishini rejalashtirishda, o'quvchilarning rivojlanish darajasini, ehtiyojlarini, jamoa taraqqiyoti bosqichlari, kamolot tashkiloti faolligini va imkoniyatlarini hisobga olishi kerak.

Buning uchun sinf rahbarining rejasi:

Birinchidan, o'z mazmuniga ko'ra g'oyaviy-siyosiy, ijtimoiy foydali yo'nalishga qaratilgan bo'lishi, ya'ni jamiyatning va boshqalarning foydasiga qaratilgan ishlarga alohida e'tibor berish;

Ikkinchidan, tarbiyaning yo'nalishini, o'quvchilarga ta'sir etish vositalarini maqsadga muvofiq tanlash, ya'ni reja mo'ljallanayotgan ishlar nimaga va kimga qaratilganligini aniqlash;

Uchinchidan, rejadagi ishlar aniq - umumiy maqsadga bo'ysundirilgan, bajaruvchilari, vaqti, ish shakli ko'rsatilgan bo'lishi;

To'rtinchidan, rejadagi ishlar o'quvchilar kuchiga va yoshiga mos kelishi;

Beshinchidan, o'quvchilar qiziqishiga asoslanishi va ehtiyojlaridan kelib chiqishi;

Oltinchidan, mo'ljaldagi ishlarni bajarishda butun jamoaning va yakka shaxslarning ishtirokini hisobga olish;

Yettinchidan, bajarilishi lozim bo'lgan barcha ishlar oldindan hammaga ma'lum qilinishi kabi talablarga javob berishi lozim.

Tajribada sinf rahbarining uch xil rejasi o'zini oqladi, bular istiqbolli rejalar (uzoq muddatli mo'ljallab tuziladi va u ayni paytda sinf, undagi xar bir shaxsni tarbiyalashning umumiy dasturi xam bo'lib xizmat qiladi), taqvim reja(odatda bir oy uchun tuzilib, shu oyning xar bir kuni uchun mo'ljallanadigan aniq ishlarni o'zida aks ettiradi), alohida tarbiyaviy tadbir uchun tuziladigan reja - konspekt (ba'zan u tarbiyaviy tadbirning ssenariyasi deb xam yuritiladi).

Reja qanday bo'lishdan qat'iy nazar tarbiyaviy faoliyat mazmunini, sinf o'quvchilari jamoasining rivojlanish istiqbolini aks ettirish kerak.

Eng yaxshi sinf rahbarlarning ilg'or tajribasi asosida o'zida quyidagi bo'limlarni aks ettiruvchi taxminiy reja chizmasini tavsiya qilamiz:

1. Sinf rahbarining sinf bilan olib boradigan ishlarning asosiy yo'nalishlari bo'limi. Bu bo'lim: «Sinfni tashkil etish», «G'oyaviy axloqiy tarbiya», «Mehnat tarbiyasi va kasb tanlashga yo'llash», «Oila va jamoatchilik bilan hamkorlik» kabi mavzularni o'z ichiga oladi.

Endi shu masalalarning xar birining mazmunini ko'rib chiqaylik. Sinfni tashkil etish-bunda o'quvchilarning o'zini-o'zi boshqarish ishiga pedagogik rahbarlikning ta'minlanishi ko'zda tutiladi. Shu maqsadda sinf majlislarining kun tartibi, ularni tayyorlash va o'tkazish ishlari, faollar bilan ishlash ko'zda tutiladi. Shu maqsadda sinf majlislarining kun tartibi, ularni tayyorlash va o'tkazish ishlari, faollar bilan ishlash ko'zda tutiladi.

Mehnat tarbiyasi va kasb tanlashga yo'llashda o'quvchilar uchun o'qish va o'quv ishini oqilona tashkil etish, shuningdek o'ziga-o'zi xizmat, ijtimoiy foydali mehnat, texnik ixtirochilik, kasb tanlash ishlarini tashkil etish bilan bog'liq tadbirlar ko'rsatiladi.

Kechalar, ertaliklar, kitobxonlar anjumani, suhbatlar o'tkazish, ko'rilgan kinofilm va spektaklni muhokama qilish, havaskorlar to'garagi qo'shiq va badiiy o'qish tanlovi, rasmlar ko'rigi, muzey va ko'rgazmalarga borish, «O'quvchilar va yoshlar musiqasi» haftaligi, kino, teatrlarga borish-bularning hammasi estetik tarbiya masalasining mazmunini tashkil etadi.

2. Pedagogik jamoa bilan aloqa bo'limida sinfda dars berayotgan o'qituvchilarni sinf tarbiyaviy ishlariga jalb qilish yo'llari o'quvchilar uchun qo'shimcha mashg'ulotlar, fan va ijodiy to'garaklar, munozaralar, ilmiy anjumanlar, qiziqarli uchrashuvlar, fan haftaliklari bilan bog'liq ishlar yoritiladi.

Oila va jamoatchilik bilan ishlash bo'limida esa oila va o'quv yurtining o'quvchilarga qo'yadigan axloqiy talablarni ishlab chiqishga qaratilgan tadbirlar ko'rsatiladi, ota-onalar va jamoatchilikning sinf hayotini va faoliyatini tashkil etishda qanday yordamlar berishlari belgilab chiqiladi, ota-onalar majlislari va ota-onalar uchun tashkil etiladigan suhbat, ma'ruza, anjumanlarning mavzulari, kimning oilasiga borishi va boshqa bir qator ishlar aniqlashtiriladi. Ayniqsa, bu o'rinda jamoatchilik bilan hamkorlik, chunonchi, ishlab chiqarish korxonalarida, turar joylarning oila va o'quv yurtiga yordam beruvchi komissiyalari bilan aloqalar, ularni sinf hayotiga jalb qilish yo'llari va shaklini belgilashda alohida e'tibor berish lozim.

Rejalashtirishda xar bir bo'limda ko'plab tadbirlarni ko'rsatish shart emas. Chunki xar bir tadbir hamisha bir necha tarbiyaviy vazifani hal qiladi. Ishning muvaffaqiyatini tadbirlarning miqdori emas balki o'quvchilarga tarbiyaviy ta'sir etishning darajasi sifati va tizimini belgilashni hayotiy tajribalar xam ko'rsatmoqda.

Reja bir oylik, choraklik, yarim yillik qilib tuzilishi mumkin.

Sinf rahbari uchun esa qaysi bir qulay bo'lsa, u shunisini qo'llashi foydalidir. Sinf rahbari rejasi bir nusxada qilib direktor tasdig'idan o'tgach uning (sinf rahbarining)o'zida saqlanadi.

Reja harakat dasturi bo'lib, amalga oshirilishini ta'minlash uchun taqvim reja tuziladi. Taqvim bir chorakka, ko'pincha bir oyga mo'ljallanadi. Uning aniq bo'lishi va rejalarining amalga oshirilishini ta'minlanishi uchun sinf rahbari shu muddat ichida o'quv yurti miqyosida o'tishi mumkin bo'lgan an'anaviy ishlarni to'la hisobga olish kerak. Masalan, sentyabrda o'quv yilining boshlanishi bilan bog'liq «Bilimlar kuni, so'nggi qo'ng'iroq kuni», «O'quvchi yoshlar kuni», «O'qituvchilar kuni» an'anaviy ishlardir. Shuningdek, o'quv yurtida xar oyning oxirgi juma kuni «Ma'naviyat va ma'rifat kuni» deb e'lon qilingan va u an'anaga aylangan. Shu kuni sinflar o'rtasida suhbatlar, bellashuvlar, qo'shiq-she'riyat kechalari, uchrashuvlar va boshqalar o'tkaziladi. Bunda alohida hafta yoki o'n kunliklar ma'lum bir sohaga bag'ishlanadi, chunonchi san'at haftasi, texnik ijod va fan

haftaligi, mehnat haftaligi, sport o'n kunligi va xakozolar. Hafta kunlarini xam psixologik imkoniyatga qarab band qilish yaxshi va foydali bo'ladi, masalan, dushanba ancha qiyin o'tadi, shu kunga yorqin, emosional ta'siri kuchli ishlarni(bayram uchrashuvlari, tanlov natijalarini chiqarish va boshqalar), shanba ancha lanj o'tadi, chunki hafta oxirlab qolganligi tufayli toliqish kuchayadi, shu boisdan xam bunga tetiklik, quvnoqlik baxsh etadigan ishlarni yakshanbaga esa hordiq chiqarib, kuch to'plashga ta'sir etadigan ishlarni mo'ljallash foydali bo'ladi. Taqvim rejaga mavsum xam ta'sir etadi: iliq kuz, quyoshli bahor kunlari ochiq havoda o'yin, mehnat bilan bog'liq ishlarni tashkil etish; yomg'irli va ayozli kunlarda og'zaki ish shakllaridan ko'proq foydalanish(ular bino ichida o'tadi) maqsadga muvofiqdir.

To'garak ishlari, yig'in va majlislar, suhbat va ma'ruzalar munozara va siyosiy o'qish –axborot kabi ish shakllaridan haftaning o'rta kunlarida foydalanish ayni muddaodir. Taqvim rejada an'ana bo'lib qolgan ishlarga keng o'rin beriladi. Odatda esa ularning hamisha bir xilda o'taverishi xollariga du kelimiz. Bu tadbirlar shu darajada ommalashib ketganki, ular ko'pincha bolalarda xafsalassizlik kayfiyatini uyg'otadi va qiziqishlarni sovitadi. Masalan, «Mustaqillik kuni» bayram qilinishi, «Bilimlar kuni» o'tkazilishi bularning barchasi tantanali, badiiy va ommaviy qismdan tashkil topadi. Ammo bu ishlarni uyushtirish shakli bir xilligi tufayli xam uning ta'siri kam bo'lib qoladi va ko'zlangan maqsadga erishilmaydi. Shuning uchun sinf rahbari, aytaylik, armiya kuni uchun o'tadigan ishlarni xar yili yangi mazmunda uyushtirsa va yildan, yilga o'zgartirib borsa, u xolda o'quvchilarning faolligi ortadi, ulardan tashabbus ko'rsatish, manfaatdorlik o'sadi. Masalan, aytaylik, birinchi yili «Vatan himoyachilar kuni»ga atab bayram kechasi, ikkinchi yili «Motamsaro ona» haykaliga gulchambar qo'yish, keyingi yili otish, mo'ljalga olish, to'siqni yengish bo'yicha musobaqa uyushtirish rejaga kiritilsa va o'tkazilsa bu mazmuniy jihatidan rang-barang bo'ladi. Bu ishlarga tayyorgarlik davrida armiyamiz tarixiga oid badiiy va ommabop kinofilmlarni tomosha qilish va muhokama etish, mo'yqalam ixlosmandlari tanlovini e'lon qilish kabilar xam rejadan o'rin olish kerak. Agar xar yilni ana shu ishlardan biri tanlanib taqvim rejaga kiritilsa, natija yaxshi bo'ladi. Sinf rahbarining rejasidagi sinfning faoliyatiga oid ishlar bir necha parallel sinf qatnashuvida kuchlarning birlashtirib o'tkazilishi vaqtni va kuchni

tejaydi. Sinf rahbari tanlaydigan sinf faoliyati ma'lum bir aniq maqsadga bo'ysundirilsa, samarali bo'ladi. Masalan, «Kamolot» tashkilotining tashkil topishi sinf rahbarining yangi a'zolarining yetakchilik, tashkilotchilik imkoniyatini ta'minlashga, umumjamoa tashkilotida yoshlarning biror ishni bajarish va boshqalarga erishishni uyushtirishga xamda ularni sinfning an'alarini yaratishga g'amxo'rlik qilish mahoratiga bog'liq. Rejada ana shu maqsadga xizmat etadigan aniq ish shakllari aks ettirilishi zarur.

Reja tuzish texnologiyasi

Sinf rahbari ish rejasini tuzishga tayyorgarligi sinf jamoasi va individual o'quvchilarning xususiyatlarini tuzish bilan yakunlanadi. Bu kelgusi davr uchun sinf hayoti va o'quvchilar bilan ishlash dasturini ishlab chiqish texnologik zanjirini joylashtirishning dastlabki bosqichidir.

Keyingi bosqichda sinf rahbari odatda yangi o'quv yilini boshlashnisha tayyor bo'lgan umumiy o'quv rejasi bilan tanishishni o'z ichiga oladi. Undan barcha maktab tadbirlarini, shuningdek, parallelliklar va sinf ishtirok etishi kerak bo'lgan sinf guruhlar uchun ijtimoiy foydali ishlarni tanlash zarur. Muayyan sanalar bilan bog'liq tadbirlar jamoa hayoti rejasining asosini tashkil etadi. Bu erda sinf rahbari faoliyati va sinf jamoasining rejalarini tuzishda o'xshashliklarga yo'l qo'yilmasligini ta'kidlash kerak.

Ushbu ikki bosqichdan so'ng tajribali pedagoglar sinf bilan o'quv yili davomida olib boriladigan tarbiyaviy ishlarning aniq vazifalarini belgilash, ijtimoiy foydali tadbirlar tizimini tanlashga kirishadi. Ilk bor sinf rahbarlari etib tayinlangan pedagoglar oldingi bosqichlarda olingan ma'lumotlarni sinf o'quvchilarining yoshiga oid umumiy ma'lumotlar bilan solishtirishlari lozimdir.

Asosiy tarbiya vazifalarini belgilashda pedagogik jarayonni tashkil etishga yaxlit yondashuvdan boshlashimiz zarur. Rejaning asosini tarbiya sohasidagi turli xil tadbirlar emas, balki haqiqiy ishlar va faoliyatning turli tomonlarini shakllantiruvchi turli tadbirlar tashkil etishi kerak. Tarbiyaning vazifalari, shuningdek aniq belgilangan vaqt ichida, ijtimoiy, yosh va individual rivojlanish holati aniqlanish kerak. Ijtimoiy vaziyat jamoaviy ishlarning g'oyalarini (jamoani nima qilish kerakligini), yosh - faoliyat shakllarini tanlashni belgilaydi va individual rivojlanish holati bolalar bilan ishlashning mazmunli jihatlarini o'ziga xoslik bilan ta'minlaydi. Shu bilan birga, sinf rahbari

e'tiborining uchta asosiy obyektga qaratadi: jamoa, faoliyat va individuallik.

Har bir o'quvchining shaxsining har tomonlama rivojlantirishni ta'minlash uchun, sinf rahbari rejaga, so'ngra haqiqiy pedagogik jarayonga bilim, mehnat, badiiy-estetik, jismoniy tarbiya va sog'lomlashtirish va boshqa faoliyatlarni kiritishi lozim. Shu bilan birga, ushbu faoliyatlar ichida ularning o'ziga xos turlarining etarlicha xilma-xilligiga erishish muhimdir.

Reja bir butun sifatida shakllangan bo'lsa, uning «qayta ko'rib chiqish» davri keladi. Sinf rahbari uning alohida bo'limlarini sinf, otalari va o'quvchilar bilan ishlaydigan hamkasblar, o'qituvchilar bilan muhokama qiladi, shuningdek, sinfning ish rejalari, bolalar jamoat tashkilotlari bilan birgalikda tartibga soladi. Sinf rahbarining rejasi jamoa hayot rejasidan ko'ra boyroqdir, chunki u umumiy va individual o'quvchilarga tegishli tarbiyaviy tadbirlarini, ularning o'qishlarini, otalari bilan ishlash yo'nalishini o'z ichiga oladi. U majoziy ma'noda, sinfning ish rejasi, uning faollari, o'quvchilarning o'zg'oziga boshqarish organlari va individual o'quvchilar uchun mo'ljallangan muhitni tashkil qiladi. Birgalikda, bir-birini to'ldiruvchi ushbu rejalar maktab o'quvchilarining qimmatli ishbilarmonlik va axloqiy fazilatlarini shakllantirishga qaratilgan ushbu o'quv va ijtimoiy foydali ishlarning zarur mazmunini nazarda tutadi.

O'quv ishlari rejasini tuzishning texnologik zanjirida yakuniy bosqich - bu sinf yig'ilishida muhokama qilish, muayyan tadbirlarni tashkil etish uchun mas'ul shaxslarni belgilash, faollar va individual o'quvchilarga topshiriqlarni taqsimlash.

Reja tuzilishi.

Maktab amaliyotida sinf rahbarlarining ish rejalari o'ziga xos tuzilishga ega. Bu maktablar va individual sinf jamoalarining pedagogik tizimlar sifatida ishlashining turli shart-sharoitlari bilan bog'liq. Rejaning tuzilishi va shakllari tanlash sinf rahbarining pedagogik malakasi darajasiga bog'liq. Agar tajribali o'qituvchi qisqa ish rejasi bilan chegaralanib qolsa, yangi sinf rahbarlari uchun batafsil rejalar tuzish tavsiya etiladi.

Sinf rahbari uchun an'anaviy ish rejasi quyidagi shaklga egadir:

1. Tarbiyaviy ishlarining holatini qisqacha tavsiflash va tahlil qilish.
2. Tarbiya vazifalari.

3. Sinf rahbari faoliyatining asosiy yo‘nalishlari va shakllari.

4. Sinfda ishlaydigan o‘qituvchilarning tarbiyaviy faoliyatini muvofiqlashtirish.

5. Ota-onalar va jamoatchilik bilan ishlash.

Sinf rahbarining barcha rejalari o‘tgan yilgi tarbiya ishlarning holatini va sinfning tavsifini qisqacha tahlil qilish bilan boshlanishi kerak. Tavsifnoma jamoaning umumiy tarbiyalanganlik darajasi, uning o‘zlashtirishi va intizomi, shuningdek, mehnatsevarligi, mas’uliyati, tashkilotchiligi, ijtimoiy faoliyati va boshqalar kabi fazilatlarni shakllantirishni aks ettiradi. Shaxslararo munosabatlarning tuzilishi (rahbarlar, begonalar, mikroguruhlar), sinfdagi yuksak kayfiyat, jamoatchilik fikrini belgilaydigan yo‘nalishlarining mazmuni tahlil qilinadi. Ayrim o‘quvchilarga, xususan, qabul qilingan xatti-harakatlar me‘yorlaridan chetga chiqishgan, o‘qishda orqada qolgan va boshqalar, tavsifnomalar berilishi mumkin.

Ikkinchi bo‘limda yangi o‘quv yilida hal qilinadigan asosiy, asosiy tarbiya vazifalari shakllantiriladi. Ular rasmiy emas, balki samarali bajarilishini ta‘minlash uchun ozgina bo‘lishi kerak. Vazifalarda sinf jamoasining holati, uning rivojlanish darajasi, shuningdek, maktab oldida turgan umumiy vazifalar hisobga olinishi muhimdir. Bir xil o‘quvchilar jamoasi yo‘qligi sababli, parallel sinflarda ham vazifalar bir xil bo‘lmasligi mumkin. Vazifalar qo‘yilishi ko‘p jihatdan sinf rahbarining tajribasi va malakasiga bog‘liqdir.

Uchinchi bo‘lim asosiy tarkibiy mazmunini aniqlaydi, bu faoliyatning asosiy yo‘nalishlarini va tarbiya muammolarini hal qilish yo‘llarini belgilab beradi. Ushbu bo‘lim rejaning tuzilmasining o‘ziga xosligini belgilaydi, chunki u shaxsni rivojlantirish va shakllantirishning muayyan yondashuvlarini aks ettiradi.

Agar o‘quvchining shaxsiyati yaxlit ruhiy tizim sifatida «qisman» shakllanmasa, har qanday faoliyat uning shakllanishida aks etadi, keyin rejaning ushbu qismi quyidagi shaklni oladi.

An‘anaviy rejaning to‘rtinchi qismida sinfda ishlaydigan barcha o‘qituvchilarning tarbiyaviy ta‘sirini muvofiqlashtirish bo‘yicha aniq tadbirlar ishlab chiqiladi. Ular pedagogik kengashlar, maxsus maslahatlar, alohida o‘qituvchilar bilan individual suhbatlar va boshqa ish shakllari bo‘lishi mumkin.

«Ota-onalar bilan ishlash» deb nomlangan yakuniy qismda ota-ona uchrashuvlarida muhokama qilinishi kerak bo‘lgan bir qator

masalalar mavjud bo'lsa-da, yuzaga keladigan holatlarga qarab ma'ruza va suhbatlar mavzusi o'zgartirib borish mumkin; bolalarni oilaviy sharoitini va tarbiya muhitini o'rganish uchun oilalarni ziyorat qilish muddati belgilanadi; ota-onalar bilan individual ish shakllari, ota-ona qo'mitasi bilan aloqa va ota-onalarni sinf va maktab hamkorligi aks ettiriladi.

Hozirgi vaqtda tarbiyaning asosiy yo'nalishlariga (mehnat, axloqiy, estetik va hokazo) muvofiq bo'limlar bo'yicha rejalashtirish yaxlit pedagogik jarayonni qisman «buzadi», pedagogik vazifalarning barcha turlarini qamrab olmaydi.

Ko'pgina pedagoglar asosiy tarbiya ob'ektlari sifatida quyidagilarni taklif qiladi: jamoani tashkil etish, tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish va individuallikni rivojlantirish bo'yicha ishlarni tashkil etish. Sinf o'qituvchisi uchun bunday rejaning shakli quyidagi shaklga ega.

Ikkita yordamchi bo'lim sinf jamoasining xarakteristikasini va o'quvchilarning oila a'zolarining turmush sharoitini aks ettiruvchi o'quvchilarning o'ziga xos xususiyatlarini (ayniqsa, qiyinchiliklar mavjud bo'lsa) o'z ichiga olishi kerak; ularning manfaatlari va moyilliklari va shu munosabat bilan - qaysi doiralar, bo'limlar, qo'shimcha ta'lim muassasalariga tashrif buyurishadi va agar ular ishtirok etmasa, nima uchun; sog'liqni saqlash holati va eng aniq shaxsiy xususiyatlari.

Tarbiya amaliyotida sinf rahbarlarining ishini rejalashtirishning turli shakllari ishlab chiqilgan va mamlakatning turli viloyatlari, shahar va qishloqlar, yangi binolar va eski an'analarga ega maktablar uchun o'ziga xos shart-sharoitlarni hisobga olgan holda, ushbu reja shaklini qat'iy birlashtirishga imkon yo'q. Sinf o'qituvchisi o'zi uchun zarur bo'lgan talablarga va uning pedagogik kontseptsiyasiga e'tibor qaratadigan reja shaklini tanlaydi.

Tarbiya tadbirini rejalashtirish va tayyorlash

Tarbiyaviy ishlarning istiqbolli rejasi asosida sinf rahbari bir hafta davomida ish rejasini tuzadi, bu esa tarbiyaviy tadbirlarni mavzusini aniqlaydi. Ushbu rejani sinf rahbarining kundaligi bilan birlashtirish maqsadga muvofiqdir.

Alohida e'tiborga molik ob'ekt - **ta'lim tadbirini tayyorlash**. Ko'pgina hollarda, tayyorgarlik jarayoni tadbirning o'zi emas, balki tarbiya ta'sirining kuchi bilan juda muhimdir. Tadbir biron - bir sababga

ko'ra sodir bo'lmagan taqdirda ham tarbiya samarasi saqlanib qoladi (masalan, taklif etilgan mehmon kela olmadi va hokazo). Gordin ta'kidlashicha, sinf bilan ta'rbiyaviy ishlarni rejalashtirishning umumiy qoidasi faqat shoshma-shosharliksiz, tayyor va sifatli amalga oshirilishi mumkin bo'lgan ishlar va tadbirlar rejasi bo'lib, ular albatta bajarilishi va sinf jamoasiga ma'naviy qoniqish, muvaffaqiyat quvonchini boshdan kechirish imkonini beradi.

Har bir rejalashtirilgan ish, albatta, o'z vaqtida ishlab chiqilishi kerak, etarli kunlar, ba'zan esa uni to'liq tayyorlash uchun haftalar kerak. Ishning tashkilotchilari va ijrochilari o'quvchilarning o'zlari bo'lsa, barqaror tarbiya samarasini olish mumkinligini hisobga olsak, jamoaviy ijodiy ishlarni tashkil etish tajribasidan foydalanish tavsiya etiladi.

Sinf rahbarlarining dastlabki ishi. Jamoaviy ijodiy ishning roli jamoa hayotida aniqlanadi, aniq tarbiyaviy vazifalar qo'yiladi; o'quvchilarga imkon qadar taklif qilinadigan ish variantlari belgilanadi; mumkin bo'lgan ishning istiqboli aniqlanadi. Ushbu bosqichda qidiruv, o'rganish ishlari olib boriladi. Agar jamoa rivojlanishning birinchi bosqichida bo'lsa, o'qituvchilar bolalarni ijtimoiy ahamiyatga ega ishlarga jalb qilishadi; agar ikkinchi bo'lsa, unda faol qidiruvga jalb qilinadi; agar uchinchi bo'lsa-jamoaning barcha a'zolari belgilangan yo'nalishlar bo'yicha qidirishadi (masalan, «sinf», «mahalla», «tabiat», «matbuot», «bolalar» va boshqalar).

Jamoaviy ijodiy ishni jamoaviy rejalashtirish. Bu jamoaning umumiy yig'ilishida amalga oshiriladi. Keyingi davr uchun jamoa hayotining umumiy rejasi tuziladi. Birinchidan, ish mikroguruhlarda tashkil etiladi, so'ngra savollar-muammolar birgalikda hal qilinadi, masalan: jamoaviy ijodiy ishni kimni tashkil qiladi? Kimga quvonch va foyda keltiradi? Kim ishtirok etadi? Kim bilan birga? Ishning oxirida mikro guruhlardan eng qiziqarli, foydali takliflar birlashtiriladi, ish kengashi saylovlari o'tkaziladi.

Tarbiyaviy ishni jamoaviy tayyorlash. Ish kengashi jamoaviy ijodiy ish tayyorlash va o'tkazish rejasini aniqlaydi, yaxshi ishlarni tayyorlash uchun mikroguruhlarni tashkil qiladi. Ushbu bosqichda ish yuritish, materiallar tayyorlash, adabiyotlarni o'rganish, davriy matbuot, matbuot markazini tashkil etish va h.k. Tajribalar shuni ko'rsatmoqdaki, o'zini oqlagan jamoa ijodiy ishlarini tashkil etish uslubini suiste'mol qilmaslik kerak. Siz an'anaviy suhbatlar,

munozaralar, konferensiyalar va pedagogik jarayonni tashkil etishning boshqa ijobiy tasdiqlangan shakllaridan voz kecha olmaysiz. Bunday holda, sinf rahbari quyidagi rejani yoki rejani tayyorlaydi: ishni tashkil etishning mavzusi va shakli; uni o'tkazishning maqsadi va vazifalari, vaqt (sana, soat); tadbir joyi; uni tayyorlash va o'tkazish (topshiriqlarni taqsimlash); uskunalar va dizayn; bajarilgan ishlar natijalarini hisobga olish shakli. Muayyan tadbirning diqqat bilan tuzilgan rejasi - uning sifatli o'tkazilishi va yuqori tarbiyaviy natijalarga erishishning zarur shartidir.

Sinfga qisqacha tavsifnoma

Sinfda o'quvchi bo'lib, ...tasi qizlar va ... tasi o'g'il bolalar.

Shulardan ... tasi "Kamalak" bolalar tashkiloti a'zosi.

O'quvchilarning bilim darajalarini nazorat qilish. A'lochi va o'zlashtirmovchi o'quvchilar soni.

Sinf o'quvchilari darslarda ongli intizomga erishgan va sinfdan tashqari ishlarning ko'pgina masalalarini mustaqil hal etadi. O'quvchilar faol, mehnatsevar va do'stona jamoadir.

Sinf rahbari o'quvchilar haqidagi quyidagi ma'lumotlarni shu bo'limga keltirishlari mumkin:

1. Bola qayerda yashaydi?
2. Uning ota-onasi qayerda va kim bo'lib ishlaydi?
3. Oila tarkibi, oilaning madaniy darajasi.
4. Oiladagi o'zaro munosabat.
5. Oiladagi bolaga tarbiya berishning o'ziga xosligi.
6. Bolaning uydagi kun tartibi va maishiy ahvoli.
7. Bolaning uy va jamoat ishlariga ishtirok etishi.
8. Fan to'garaklariga qatnashishi (maktab va maktabdan tashqaridagi).
9. Bolaning maktabdan tashqaridagi do'stlari va tanishlari.
10. O'quvchi yozda qayerda?
11. Bola hayotidagi eng muhim voqea-hodisalar.
12. Gazeta va jurnallarga obuna bo'lishi.
13. O'quvchi salomatligining ahvoli xodimlarining ma'lumotiga ko'ra).

Tarbiyaviy vazifalar

1. O'quvchilarni mehnatda va o'zbek xalqining mustaqil davlat qurishdagi bunyodkorlik ishlarida ishtirokini ta'minlash.

2. Yoshlarni baynalmilal va boshqa xalqlarning qardoshlarcha do'stligi ruhida tarbiyalash.

3. O'quvchilarning o'zlashtirmaslik sabablarini aniqlash va bartaraf etish choralarini belgilash.

4. O'quvchilarni umumiy o'rta ta'limdan keyingi bosqichga tayyorlash.

5. Yuksak ma'naviyat, iymon va e'tiqodli bo'lish, istiqlol g'oyalarini singdirish.

6. Sinfdagi barcha o'quvchilarning bilim darajasini oshirishga erishish.

7. O'quvchilarning ongli intizomi uchun o'qishga va mehnatga to'g'ri munosabati uchun kurash olib borish.

8. O'quvchilar faoliyatini tashkil etishda ularning mustaqilligi va tashabbuskorligini oshirib borish.

9. «Bolalar va o'smirlar uyushmasi»ga kirish uchun tayyorlash.

O'quvchilarga tarbiya berishning asosiy turlari va shakllari.

Sinf rahbari tomonidan o'tkaziladigan barcha tarbiyaviy tadbirlar shu bo'linga kiritilib, sinf tarbiyaviy soatlari deb yuritiladi (yil davomida 30-34 soat dars jadvaliga kiritiladi), u soddalashtirilgan, barcha sinflar uchun qulay quyidagi andozaga tushirilishi mumkin. Avvalgi adabiyotlarda berilgan rejalashtirish chizmasiga «Bajarilish turi» qo'shimcha sifatida kiritildi. Maqsad, rejalashtirilgan mavzu masalan, «Ota-onam - suyangan tog'im» yuzasidan suhbat, kecha, konferensiya uchrashuv, ekskursiya va hokazolar o'tkazish mumkin. Albatta, bu tadbirlarning barchasini bir o'quv yilida o'tkazib, sinf rahbarining tarbiyaviy ish rejasida bu mavzu har yili takrorlanib, bajarilish turi o'zgartirib boriladi. Sinf rahbari mehnatining unumli bo'lishida bu usul ancha samara beradi.

Sinf tarbiyaviy soatlarning mavzulari tubandagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi va yuqoridagi andozaga tartib bilan jamlanadi.

- Ma'naviyat va burch tarbiyasi
- Vatanni sevmoq iymondadir.
- Baynalmilal tarbiya
- Estetik (nafosat) tarbiya
- Bilim olishda ongli munosabatni tarbiyalash
- Ekologik tarbiya
- Sog'liqni saqlash. Sog'lom avlodni tarbiyalash tadbirlari

- Jismoniy tarbiya
- Eng yangi yangiliklar va tarixiy sanalarni nishonlash tadbirlari.

5. Maktabdagi tarbiyaviy ishlar tizimida sinf rahbari ishini takomillashtirish.

O`qituvchilik kasbiga shu jumladan sinf rahbari kasbiga xos bo`lgan muhim fazilatlardan biri – bolalarni sevishi, ularning hisiyoti bilan qiziqishi, har bir shaxsni xurmat qilishdan iborat. Bolani sevgan butun kuch va bilimni bolalarning kelajagi buyuk vatanga sodiq fuqaro qilib tarbiyalashgan safarbar qila oladigan odamgina haqiqiy o`qituvchi bo`la oladi. Bolaga befarq, uning kelajagi bilan qiziqmaydigan, o`qituvchilik kasbiga loqayd odam haqiqiy o`qituvchi bo`la olmaydi.

«Boshlang`ich ta`lim konsepsiyasi»da boshlang`ich sinf o`qituvchisi qiyofasi ta`riflanadi: «...eng muhimi balalarda o`qish, o`rganishga chinakkam havas, ishtiyoq uyg`otuvchi, e`tiqod xosil qiluvchi ustoz sifatida alohida o`rin tutadi» va yana shu kontsepsiyadan boshlang`ich sinf o`qituvchisi fazilatlariga qo`shimcha keltiriladi. O`qituvchi:

–bolalarni xalq pedagogikasi durdonalari hamda milliy qadriyatlarimiz asosida tarbiyalay olishi;

– nutqiy ravon, xalq tili boyligi ifoda usuli va tasvir vositalarini adabiy til uslubi va me`yorini to`la egallagan bo`lishi» zarur.

O`qituvchilik kasbiga xos bo`lgan bunday fazilatlarni undagi pedagogik odob sinf rahbarining yuksak kasbiy fazilatidir. U o`qituvchining savotli bo`lishiga, o`z xisssiyotini idora eta olishiga, bolalarga pedagogik ta`sir o`tkazish vosita va me`yorlarni belgilash, aniqlashda yordam beradigan fazilat hisoblanadi. Yuksak pedagogik odobga ega bo`lgan sinf rahbarigina sinfda mo`tadil psixologik iqlim o`rnata oladi, bolalar qalbiga tez yo`l topa oladi. O`z xizmati xususiyatiga ko`ra sinf rahbari tashkilotchilik fazilatiga ham ega bo`lmog`i lozim

Sinf jamoasi bilan birgalikda sinf faollarini saylash pedagog ishlarini rejalashtirish, tarbiyaviy soatlarni belgilash, o`quvchilar davomatini muntazam kuzatib pedagog;

Sinfda o`quvchilarni ahil jamoaga jipslashtirish va tashabbuskor o`quvchilarni qo`llab-quvvatlash, sinf jamoasining ehtiyoj va qiziqishlarini chuqur va har tomonlama o`rganish;

Har bir o`quvchining o`zi uchun kun tartibini tuzishlarini tashkil etish, bu tartibning bajarilishini nazorat qilish;

O`quvchilar huquqiy savodxonligini oshirish, har bir fuqaro, shaxs va maktablar tomonidan bajarilishi shart bo`lgan qonun hujjatlari haqida tushunchalar berib 118edagog, qonunga hurmat hissini shakllantirish;

Bolalar va o`smirlar uchun chop etiladigan gazeta va jurnallarni targ`ib etish, obunani tashkil qilish, sinf devoriy gazetasining chiqarilishiga ko`maklashish. Sinf o`quvchilarining maktab(ustavida belgilangan) ichki tartib-qoidalarini bajarishlarini ta`minlash;

Sinf jurnallari va boshqa zaruriy hujjatlarning to`g`ri yuritilishini ta`minlash; O`quvchilar o`zlashtirishini yuqori darajaga ko`tarish, tartib-intizomni saqlash maqsadida sinf majlislarini o`tkazib 118edagog;

O`quvchilarni, o`qishda erishgan yutuqlari, umumiy foydali mehnatda, maktab hayoti va jamoatchilik ishlarida faol qatnashganliklarini e`tiborga olib, taqdirlash haqida taklif berish;

Sog`lom turmush 118edag, oilaviy hayot gigiyenasi hamda jismoniy tarbiya, zararli odatlardan saqlanish kabi masalalarga e`tibor berish;

O`quvchilarning o`zlashtirmaslik sabablarini aniqlash va uni bartaraf etish uchun fan o`qituvchilari bilan birgalikda yordam berish;

Pedagogik jamoa, psixologlar bilan hamkorlikda bitiruvchi sinf o`quvchilarini ta`limning edago bosqichiga yo`naltirish;

Maktab tibbiyot xodimlari, o`qituvchilari, psixolog, ota-onalar bilan hamkorlikda o`quvchilarning sog`ligini muhofaza qilish, ma`naviy, ma`rifiy, jismoniy va aqliy jihatdan rivojlanish muvofiqligini nazorat qilish;

Maktabda texnika xavfsizligi qoidalariga, sanitariya-gigiyena tartibiga, o`quvchilarni muhofaza qilish qoidalari talablariga rioya qilishni ta`minlash;

Shuningdek, o`z malakasini oshirib turish, o`z sohasi bo`yicha o`tkaziladigan turli miqyosdagi seminarlarda ishtirok etish kabi vazifalardan iborat. O`ziga biriktirilgan sinf o`quvchilarining dars va imtihonlarida ishtirok etadi. Bo`sh o`zlashtiruvchi o`quvchilar uchun qo`shimcha darslar tashkil etilishi bo`yicha takliflar beradi. O`quvchilar tarbiyasiga oid ilg`or ish tajribalarini amalga oshirish bo`yicha maktab ma`muriyatiga tashabbus bilan chiqadi. Tarbiyaviy soatlarni

rejalashtirishda o`quvchilarning yosh xususiyatlaridan kelib chiqib, maktabning umumiy rejasiga qo`shimcha yoki o`zgarishlar bo`yicha taklif kiritishi mumkin. Sinf faollari ishini nazorat qiladi. O`quvchilarning sinf yig`ilishlarini uyushtiradi 119edagog faollari(kengashi) bilan birgalikda yig`ilish kun tartibini belgilaydi. O`quvchilarning o`qishda erishgan yutuqlari, umumiy foydali mehnatda, maktab hayoti va jamoatchilik ishlarida faol qatnashganliklarini e`tiborga olib taqdirlashga tavsiya etish haqida takliflar beradi. O`quvchilarning ota-onalari bilan ta`lim-tarbiya masalalari yuzasidan suhbatlashadi, hamkorlik qiladi, 119edagog maslahatlar beradi. O`quvchilar xulqini baholaydi. Sinf rahbarining ishi reja asosida olib boriladi. Uning ish rejasi maktabning umumiy rejasi asosida direktorning ma`naviy-ma`rifiy tarbiya ishlari bo`yicha o`rinbosari tomonidan tasdiqlanadi. Sinf rahbarining yillik ishlarini rejalashtirish, sinfda tarbiyaviy ishlarni tashkil etish va o`tkazishga yordam berish, ular samaradorligini oshirish, sinf rahbarlari ishlarini muvofiqlashtirish, ish tajribalarini ommalashtirish maqsadida maktabda sinf rahbarlari uslubiy birlashmalari tashkil etiladi. Sinf rahbarlari uslubiy birlashmalariga maktabdagi barcha sinf rahbarlari a`zo bo`ladilar.

Savol va topshiriqlar:

1. "Sinf rahbari to'g'risidagi nizom"ni izohlab bering?
2. Sinf rahbari kim?
3. Hozirgi vaqtda sinf rahbariyatining necha turlari mavjud?
4. Sinf rahbarining vazifalari nimalardan iborat?
5. Sinf rahbarining huquqlarini izohlang?
6. Sinf rahbarining ish rejasi qanday tashkil etiladi?
7. Sinf tarbiyaviy soatlarning mavzulari qanday shakllarda bo'ladi?
8. Sinf rahbari uchun an'anaviy ish rejasi qanday tartibda bo'ladi?
9. Sinf rahbarining ish rejasi qanday tasdiqlanadi?
10. Sovet maktabida sinf rahbari lavozimi qachon joriy etilgan?

Test:

1. Boshlang'ich sinf rahbari kimning faoliyatini boshqaradi?
a) maktab direktorining faoliyatini

b) o'quvchilarni tarbiyalash jarayonini

d) o'qituvchilarning faoliyatini

e) mahalla faoliyatini

2. Boshlang'ich sinf rahbari qaysi vazifani bajaradi?

a) o'quvchilarga nazorat qilish;

b) o'quvchilarning shaxsiy va jamoaviy tarbiyasini amalga oshirish;

d) o'quvchilarga bilim berish;

e) maktab o'quv dasturini ishlab chiqish;

3. Boshlang'ich sinf rahbarining tarbiyaviy ishlaridagi asosiy maqsad nima?

a) o'quvchilarni ilmiy sohada muvaffaqiyatga erishtirish

b) o'quvchilarda ijtimoiy va axloqiy qadriyatlarni shakllantirish

d) o'quvchilarga turli fanlardan bilim berish

e) o'quvchilarning san'atga bo'lgan qiziqishini rivojlantirish

4. Boshlang'ich sinf rahbari o'quvchilarning axloqiy tarbiyasini qanday amalga oshiradi?

a) ularning yuksak akademik darajada bo'lishini ta'minlash;

b) faoliyatlar rejasini ishlab chiqib, sinf yig'ilishlari o'tkazish;

d) o'quvchilarga sport musobaqalarini tashkil qilish;

e) ularning vaqtini baham ko'rish;

5. Boshlang'ich sinf rahbarining o'quvchilarga nisbatan asosiy yondashuvi qanday bo'lishi kerak?

a) rasmiy va jiddiy;

b) faol va do'stona;

d) mulkdor va jazo beruvchi;

e) qattiq va og'ir;

6. Boshlang'ich sinf rahbarining ish rejasida qanday vazifalar mavjud?

a) o'quvchilarning xulq-atvorini nazorat qilish;

b) o'quvchilarni vaqtni boshqarishni o'rgatish;

d) maktabda sport musobaqalari tashkil qilish;

e) o'quvchilarni fanlarga o'rgatish;

7. Boshlang'ich sinf rahbari o'quvchilarga qanday yordam ko'rsatishi kerak?

a) ularning bilim darajasini oshirish uchun qo'llab-quvvatlash;

b) hammasi;

d) o'quvchilarning psixologik holatini kuzatib boorish;

e) ularning mehnatga bo'lgan qiziqishini oshirish;

8. Boshlang'ich sinf rahbari o'quvchilarga qanday motivatsiya usullarini qo'llashi mumkin?

- a) ma'naviy rag'batlantirish;
- b) barcha javoblar to'g'ri;
- d) tashabbusni rag'batlantirish;
- e) yuksak ilmiy ko'rsatkichlar bilan taqdirlash;

9. Boshlang'ich sinf rahbari o'quvchilar bilan qanday ish olib borishi kerak?

- a) ularning jismoniy salomatligini nazorat qilish;
- b) ularning o'quv faoliyatini kuzatib borish va ularni rag'batlantirish;
- c) o'quvchilarning o'zaro munosabatlarini kuchaytirish;
- d) ularning oilaviy holatini o'rganish;

10. Boshlang'ich sinf rahbari o'quvchilarni qanday tarzda muhokama qiladi?

- a) o'quvchilarni doimo rasmiy tarzda muhokama qiladi;
- b) sinf yig'ilishlarida ularni muntazam ravishda tinglab, fikrlarini inobatga oladi;
- d) faqat o'quvchilarning individual muammolarini hal qiladi;
- e) sinf yig'ilishlarini faqat o'qituvchilar bilan o'tkazadi.

BBB metodi

tarqatma-4

Mavzu: Mavzuga doir asosiy tushunchalar	Bilaman	Bilishni xohlayman	Bilib oldim
1.			
2.			
3.			
...			

5-mavzu. Boshlang'ich sinf rahbarining maktab jamoat tashkilotlari bilan olib boriladigan ishlar.

Reja:

1. O'zbekiston yoshlar ittifoqi.
2. Tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda sinf rahbarining o'rni.
3. Sinf rahbarining o'quv faoliyati samaradorligini oshirishga qo'yiladigan talablar.
4. Maktabdagi tarbiyaviy ishlar tizimida sinf rahbari ishini takomillashtirish.

Foydalangan adabiyotlar

9. Mavlonova R., Raxmonqulova N., Normurodova B. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. -T.: Tib-kitob, 2010 y.
10. Ishmuhammedov R., Abduqodir A., Pardayev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar. -T.: Fan va texnologiya, 2010 y.
11. И.А.Олесникова, Н.М.Борытко и др. Воспитательная деятельность педагога. Учебное пособия. М.:Академия, 2006-333 с.
12. Подласый И.П. Педагогика 2-я част -М.: ВЛАДОС, 2003 г.
13. Mirziyoyev Shavkat Miromonovich. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga ko'ramiz. Mazkur kitobdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2016-yil 1-noyabrdan 24-noyabrga qadar Qoraqolpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent sharxi saylovchilari vakillari bilan o'tkazilgan saylovoldi uchrashuvlarida so'zlagan nutqlari o'rin olgan. / Sh.M.Mirziyoyev.- Toshkent: "O'zbekiston", 2017.- 488 b.
14. www.pedagog.uz
15. <http://www.allmath.ru/>

Tayanch tushunchalar.

1.O'zbekiston yoshlar ittifoqi.

30 iyun – O'zbekistonda Yoshlar kuni. Aholisining 60 foizga yaqinini yoshlar tashkil etadigan mamlakatda yoshlar kuni aynan bu sanada belgilangani Yoshlar Ittifoqining tashkil topgan sanasi bilan bog'liq. 2017-yil 30-iyun sanasida Prezident Qaroriga asosan avvalgi "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati "Yoshlar" Ittifoqi etib qayta tashkil etildi. Bunga 2001-yildan beri yoshlarni birlashtiruvchi tashkilot

sifatida faoliyat ko'rsatib kelgan "Kamolot" ning faoliyatidagi kamchiliklar turtki bo'ldi.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda yoshlarni vatanparvarlik, milliy an'ana va qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash, ma'naviy yetuk va jismonan sog'lom barkamol avlodni voyaga yetkazish, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasida muayyan ishlar amalga oshirildi.

Shu bilan birga, sohadagi vaziyat va amalga oshirilgan tadbirlar tahlili yoshlarning keng qatlamlariga daxldor bo'lgan dolzarb masalalar, ayniqsa, uyushmagan yoshlarning hayotda o'z o'rnini topishi uchun munosib sharoit yaratish, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, kasbga yo'naltirish va balandligini ta'minlash, tashabbuslarini rag'batlantirish borasidagi ishlar talab darajasida tashkil etilmaganidan adolat bermoqda

Joylarda, avvalambor chekka hududlarda istiqomat qilayotgan ko'p sonli yoshlarning o'z iqtidor va iste'dodini ro'yobga chiqarishlari, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishlari uchun keng sharoitlar yaratish, ularni turli zararli illat va yot g'oyalar ta'siridan himoya qilish, yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish kabi muhim vazifalarni hal etishda "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati O'zbekiston yoshlarini buyuk maqsadlar sari birlashtiradigan va safarbar etadigan ommaviy harakatga aylana olmaganini hayotning o'zi ko'rsatmoqda.

Shu sababli, mazkur sohadagi faoliyatni tubdan takomillashtirish maqsadida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonuni bugungi davr talablariga mos ravishda har tomonlama barkamol, mustaqil fikrlaydigan, mamlakatimiz istiqboli uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir, tashabbuskor, xalq manfaati yo'lida bor salohiyatini safarbar qiladigan, shijoatli yoshlarni tarbiyalash, ularning intellektual va ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun mustahkam huquqiy poydevor yaratdi.

2017 — 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi demokratik davlat qurish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish borasidagi islohotlarda yoshlar faolligini oshirish bilan bog'liq bir qator yangi va muhim vazifalarni belgilab berganini alohida qayd etish joiz.

Yoshlarga oid davlat siyosatini izchil va samarali amalga oshirish, yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, huquq va qonuniy

manfaatlarini himoya qilish tizimini tubdan isloh etish maqsadida hamda bu borada keng jamoatchilik, avvalo, yoshlar vakillarining taklif va mulohazalarini e'tiborga olgan holda:

1. O'zbekiston "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakatining 2017-yil 30-iyun kuni bo'lib o'tgan IV qurultoyi qaroriga muvofiq, O'zbekiston yoshlar ittifoqi tashkil etilgani ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. O'zbekiston yoshlar ittifoqi tashkil topgan kun — 30-iyun sanasi mamlakatimizda **"Yoshlar kuni"**, deb e'lon qilinsin.

3. O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatining ustuvor yo'nalishlari sifatida quyidagilar belgilansin:

birinchidan, O'zbekiston yoshlar ittifoqini respublikada yoshlarga oid davlat siyosatining amalga oshirilishida davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan samarali hamkorlikni ta'minlovchi, "Yoshlar — kelajak bunyodkori" shiori ostida professional faoliyatni amalga oshiruvchi tuzilmaga aylantirish;

ikkinchidan, yoshlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, ongi va qalbida mustaqillik g'oyalariga sodiqlik, milliy o'zlikni anglash, Vatanga muhabbat va uning taqdiriga daxldorlik, fidoyilik hissini qaror toptirish va rivojlantirish, turli mafkuraviy tahdidlardan asrash;

uchinchidan, demokratik davlat qurish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish borasidagi islohotlarda yoshlar faolligini oshirish, yuksak ma'naviyatli, mustaqil fikrlaydigan, qat'iy hayotiy pozitsiya, keng dunyoqarash va chuqur bilimlarga ega tashabbuskor, shijoatli, el-yurt manfaati yo'lida bor kuch-g'ayrati, bilim va salohiyatini safarbar qiladigan, mamlakat istiqboli uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir yoshlar safini kengaytirish;

to'rtinchidan, yoshlarning zamonaviy kasb-hunarlarini puxta egallashi uchun munosib sharoitlar yaratish, bandligini ta'minlash, ishbilarmonlik qobiliyatini rivojlantirish, ularni kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka keng jalb etish, tashabbuslarini rag'batlantirish, intellektual va ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarishiga ko'maklashish;

beshinchidan, yoshlarning ilmiy va badiiy kitoblar, jumladan, elektron asarlarni o'qishga bo'lgan qiziqishini yanada oshirish, huquqiy, ekologik, tibbiy va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish madaniyatini yuksaltirish orqali ularda turli mafkuraviy tahdidlarga, xususan, diniy ekstremizm, terrorizm,

“ommaviy madaniyat” va boshqa yot g‘oyalarga qarshi mustahkam immunitetni shakllantirish;

oltinchidan, yoshlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzi va oila muqaddasligi g‘oyalarini keng targ‘ib qilish, erta turmush qurish va yosh oilalar ajralishining oldini olishga qaratilgan samarali tadbirlarni amalga oshirish;

yettinchidan, yoshlarni, ayniqsa, ular uyushmagan qismining bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish maqsadida sport va jismoniy tarbiya bilan shug‘ullanishga, ijodiy to‘garaklar va turli, jumladan, xorijiy tillarni o‘rgatish o‘quv kurslariga keng jalb etish;

sakkizinchidan, yosh oilalar, xususan, imkoniyati cheklangan va ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlarni ma‘naviy va moddiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash, ular uchun munosib uy-joy va ijtimoiy-maishiy sharoitlar yaratishga qaratilgan maqsadli ishlarni tashkil etish;

to‘qqizinchidan, yoshlar o‘rtasida huquqbuzarlik va jinoyatchilikning barvaqt oldini olish va profilaktika qilish ishlarida faol ishtirok etish;

o‘ninchidan, mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarda faol ishtirok etadigan, xalq manfaatlariga sadoqat bilan xizmat qiladigan bilimli, tashabbuskor, ishbilarmon, halol va fidoyi yosh rahbar kadrlarni tarbiyalash, zaxirasini yaratish va ularni davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarining mas‘ul lavozimlariga tavsiya etish;

o‘n birinchidan, yoshlar siyosati sohasida xalqaro hamkorlikni yanada rivojlantirish, xorijiy mamlakatlarda tahsil olayotgan va mehnat qilayotgan yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish;

o‘n ikkinchidan, davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlariga yoshlarga oid faoliyatni tashkil etishda g‘oyaviy-uslubiy jihatdan ko‘mak berish.

Yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda ishtirok etuvchi vakolatli irodalarfaoliyati ustidan samarali jamoatchilik nazoratini tashkil etish, natijasi bo‘yicha ta’sirchan choralar ko‘rish. [1]¹

O‘zbekiston yoshlar ittifoqi jismonan sog‘lom, ma‘nan yetuk va intellektual rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan yosh avlodni shakllantirish, yoshlarni tashqi tahdidlar va “ommaviy

¹ PF-5106-son 05.07.2017. Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida.

madaniyat”ning zararli ta’siridan muhofaza qilish, yoshlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga har tomonlama ko‘maklashish va shart-sharoitlarni yaratish maqsadida jismoniy shaxslar tomonidan ittifoq tashkiliy-huquqiy shaklida tuzilgan, O‘zbekiston yoshlarini birlashtiruvchi nodavlat notijorat tashkilotidir.

Ittifoqning asosiy maqsadi yoshlarni mamlakatda amalga oshirilayotgan demokratik, siyosiy va iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, jamiyatda tinchlik va hamjihatlikni mustahkamlash, O‘zbekistonni jahonning rivojlangan mamlakatlari qatoriga kirishi jarayonlariga jalb qilish hamda yosh avlodning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini samarali himoya qilishni ta’minlash, yigit-qizlarning ma’naviy va kasbiy saviyasini yuksaltirish, ularning intellektual va ijodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarishga ko‘maklashishdan iborat.

Ittifoqning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- barkamol, mustaqil fikrlaydigan, o‘zining hayotiy pozitsiyasi va qat’iy e’tiqodiga ega, jamiyat hayotida munosib o‘rin egallash, mamlakatni isloh qilish, yangilash jarayonlarida hal qiluvchi kuch va tayanch bo‘lishga qodir yoshlarni shakllantirish, ularning siyosiy madaniyati, huquqiy savodxonligi va huquqiy ongini yuksaltirish;

- yoshlarni, xususan uyushmagan yoshlarni ma’naviy-axloqiy jihatdan va harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularda tarixiy xotira, milliy g‘urur va o‘zlikni anglash, ro‘y berayotgan voqealarga daxldorlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat tuyg‘ularini shakllantirish;

- yoshlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ularning zamonaviy kasblarni egallashga bo‘lgan intilishini qo‘llab-quvvatlash, tadbirkorlik faoliyatiga jalb qilish;

- iste’dodli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash, ular o‘z ijodiy va intellektual salohiyatini ro‘yobga chiqarishlari uchun shart-sharoitlar yaratish hamda ilmiy faoliyatga jalb qilish;

- yoshlar, xususan uyushmagan yoshlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzi, ekologik madaniyatni shakllantirish, ularni jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug‘ullanishga keng jalb qilish;

- yoshlarni, xususan uyushmagan yoshlarni diniy-ekstremistik va boshqa buzg‘unchi tashkilotlar ta’siridan, chetdan “ommaviy madaniyat” niqobi ostida kirib kelayotgan salbiy ta’sir va tahdidlardan

asrash, yoshlar o'rtasida huquqbuzarlik va jinoyatchilikni profilaktika qilish va oldini olishga ko'maklashish va boshqalar.

Ittifoqqa yuridik va jismoniy shaxslar Ustavda belgilangan tartibga asosan a'zo bo'lish mumkin. Ya'ni, Ittifoqning maqsadini qo'llab-quvvatlash istagini bildirgan, 14 yoshga to'lgan va 30 yoshdan oshmagan O'zbekiston Respublikasining fuqarolari va O'zbekiston Respublikasida muntazam yashab kelayotgan fuqaroligi bo'lmagan jismoniy shaxslar Ittifoqning a'zosi bo'lishi mumkin.

Shu bilan birga yoshlar sohasidagi nodavlat notijorat tashkilotlari va yoshlar sohasiga oid korxona, muassasa va tashkilotlar hamda ta'sis hujjatlari Ittifoqning Ustav maqsadlari, vazifalari va dasturiy hujjatlariga zid bo'lmagan boshqa yuridik shaxslar ham Ittifoqqa a'zo bo'lishi mumkin.

Ittifoqning rahbar organlariga quyidagilar kiradi:

- Qurultoy;
- Markaziy Kengash;
- Markaziy Kengash Ijroiya qo'mitasi;
- Markaziy nazorat-taftish komissiyasi.

Ittifoqning tuzilmasiga quyidagilar kiradi:

- Ittifoqning Markaziy apparati;
- Ittifoqning hududiy tuzilmalari;
- Ittifoqning mahalliy tuzilmalari;
- Ittifoqning boshlang'ich tashkilotlari;
- Ittifoqning to'liq muassisligidagi yoki qoshidagi korxona, tashkilot va muassasalar, shu jumladan ommaviy axborot vositalari.

Shuningdek, Ittifoq va uning alohida bo'linmalari qoshida tegishli ravishda bolalar yo'nalishi bo'yicha faoliyat olib boruvchi "Kamalak" sho'balari tashkil qilinadi. Ular Ittifoq va uning alohida bo'linmalarining sho'basi hisoblanadi.

2. Tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda sinf rahbarining o'rni.

Maktabda tarbiyaviy ishlar tizimida sinf rahbarining faoliyatini tashkil etish metodikasi

Sinf rahbari — barkamol avlod tarbiyasiga mas'ul shaxs sifatida faoliyat ko'rsatadi.

Rahbaming yuksak ma'naviyati haqida mutafakkirlar o'z asarlarida alohida e'tibor berishgan. Abu Nasr Farobiy o'zining "Fozil

shahar aholisining maslagi” asarida rahbarga xos sifatlarni quyidagicha tasvirlagan edi:

- oqil shaxs, farosatli. tabiati nozik, xotirasi mustahkam, zukko; ilmi-ma’rifatli, hayotdan zavq oladigan va haqiqatgo’y, adolatli, oriyat va nomusli, dunyo moliga qiziqmaydigan, tadbirkor, qat’iyatli bo’lishi lozim.

Sinf rahbari dastlab sinf jamoa a’zolari haqida keng ma’lumotga ega bo’lishi uchun tashxis o’tkazishi. kamchiliklarning oldini ola bilishi lozim.

Sinf rahbari ish faoliyati samaradorligini uning oldida qo’yilgan maqsad va vazifalarining aniqligi, tizimliliigi va uzluksizlik tamoyillariga bog’liqligi belgilaydi. Sinf rahbari to’g’ri maqsadni belgilash bilan birqatorda vazifalarni bajarish imkonini yaratadi.

Sinf rahbari ishining maqsadi: ma’lum yuksak g’oyaviy maqsad asosida davlat siyosati darajasidagi barkamol shaxs ta’lim-tarbiyasini tashkil qilishdagi mas’uliyatidir.

Tarbiyaviy ishlar sifat samaradorligini oshirishda sinf rahbarining faoliyatida har bir xatti-harakat bolalarga ibratlanish hissini uyg’otish bilan birga, ularga ijobiy ta’sir ko’rsatmog’i lozim. Buning uchun:

- sinf rahbari faoliyatini diagnostik tahlil qilish;
- ijobiy ishlarni takomillashtirish;
- yutuqlarni rivojlantirish;
- bola shaxsini hurmatlash;
- qiyinchiliklarni bartaraf qilish, xatolarni tuzatish.

Pedagog olim V.A.Suxomlinskiy o’zining “Bolalarga jonim fido” asarida bolani shod-u xurram etishga muyassar bo’lmas ekanmiz, uning ko’zidan chinakam xursandchilikni ko’rmas ekanmiz, u bolalar sho’xlik qilmas ekan, unga qandaydir tarbiyaviy ta’sir haqida gapirishga haqqim yo’q. Har bir bola qalbining o’z tori bor, u o’z maqomida yangraydi. Uni to’g’ri chala bilish tarbiyasiga bog’liq mahoratdir.

Sinf rahbari ish faoliyatida bolalarga ijobiy ta’sir ko’rsatuvchi uslublarni qo’llash kerak. Usul — yunoncha atama bo’lib, aynan nimagadir yo’l, usul orqali maqsadga erishish yo’lini bildiradi.

Sinf rahbari - adolatli bo’lishi kerak. Bu esa bola tarbiyasiga nisbatan ishonch paydo qiladi:

- buning uchun sinf rahbari har bir bolaning ma’naviy dunyosini

bilishi;

- har bir inson bolalikdan mehr va hamdardlikni talab etadi.

Ayniqsa, oilasida mehr va hamdardlikni ko'rmagan bolaga tarbiyachi rahbar buni berishi kerak;

- bolaga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishning asosi — boladagi qayg'u, dard-alamlarni hammadan oldin o'qituvchi rahbar bilib olishi va uning ko'nglini bilishdan iborat;

- sinf rahbari har bir bolaning oilasi bilan mustahkam aloqa o'rnatmay turib, bolaning sog'lig'i va oilaviy sog'lom muhitning mavjudligi haqida g'amxo'riik ko'rsata olmaydi, buning uchun ota-onalar bilan suhbatda bo'lish lozim;

- sinf rahbari tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda sinf jamoasida olib boriladigaii faoliyatini tahlil qila bilishi lozim.

Tarbiyaviy ishlarningtahlili ikki qismdan iborat:

- sinf jamoasining rivojlanishi va tarbiyalanganlik darajasining o'sishi;

- o'quvchilarda yuksak odob-axloq, siyosiy, huquqiy tushunchalar, o'rtoqlik, do'stiik, jamoa uchun qayg'urish sifatlarini amaliyotda qo'llash;

- sinf jamoasining joriy yildagi maqsad, vazifalarga erishilganligi;

- sodir bo'lgan muammo va kamchiliklar sabablarining aniqlanganligi;

- jamoaning mustahkamligi va o'quvchilarda shakllangan axloqiy sifatlar darajasi;

- sinf rahbarining rejalarining umum maktabdagi tarbiyaviy ishlar bilan uyg'unligi va natijalari;

- shu tariqa yangi o'quv yili bo'yicha kamchiliklarni bartaraf etib, yangi chora-tadbirlarni rejalashtirishni sinf rahbari o'z faoliyatining bosh mahsuli deb hisoblashi kerak;

- sinf rahbarida o'zi uchun birkutilgan sinfnig pasporti bo'lishi kerak.

Sinf rahbarlari ota-onalar bilan birgalikda tarbiyaviy ishni tashkil etar ekanlar, eng yangi psixologik-pedagogik tadqiqotlar ma'lumotlarini e'tiborga olishlari ham muhimdir. Ularga muvofiq o'sib kelayotgan kishi shaxsini shakllantirishga oilaning qo'shadigan hissasi turli yosh bosqichlarda turlicha bo'ladi va to'lqinsimon o'zgaradi. Oilaviy tarbiyaning asosi sifatida ta'qiqlashlar sistemasi, ijtimoiy namuna asosida tarbiyalay bilmaslik, bola hayotini u har doim to'g'ri

hatti-harakatini mashq qiladigan tarzda tashkil eta olmasliknatijasidir.

Sinf rahbari bolalarni yaxshi bila olish uchun ularni o'rganish davrida, darsdan tashqari vaqtlarda umuman bolaning hayoti o'tadigan barcha sharoitlarida amalga oshiriladi. Sinf rahbari tarbiyaviy ishning turli bosqichlarida o'quvchi hulq-atvorining ayrim tomonlarini o'rgatishga e'tiborini qaratishi mumkin. O'quvchini har tomonlama o'rgatishga erishmoq uchun dasturni oldindan yaxshi o'ylab tuzish o'quvchilarni o'rgatish rejasini, suhbat savollarini, insholar mavzularini tayyorlash kerak bo'ladi. Sinf rahbarining ota-onalar bilan to'g'ri muomala qila olishi murakkab va nozik ish. Chunki hozirgi ota-onalarning ko'pchiligi o'rta yoki oliy ma'lumotli kishilar, ular vaqtli matbuot, televideniya, radio orqali pedagogik ma'lumotlarni bilib olishadi. Shunday vaziyatlar ham bo'ladiki o'g'il yoki qiz bola maktabda o'zboshimchalik qiladi, lekin oilada hushyor va gapga quloq solidi, yoki aksincha.

3. Sinf rahbarining o'quv faoliyati samaradorligini oshirishga qo'yiladigan talablar.

Sinf rahbarining faoliyati ko'p qirrali va sermazmundir. U o'zi rahbarlik qilayotgan sinf o'quvchilarini tarbiyalash bilan bir qatorda o'quv yili yoki chorak davomida nimalar qilish kerakligi bolalar hayotini nima bilan band qilish va tanlangan ish turini qanday amalga oshirishni bexato aniqlash kabi ancha murakkab muammoni yechadi. Bu borada sinf rahbariga turli xil manbalar yordam beradi. O'quvchilarning ayrim hatti harakatlariga bu hatti-harakatlar nomoyon bo'lishlarining tashkil etishi tajribalarini o'rganish va tahlil qilish asosida o'quvchilarni o'rganishda amal qilishi lozim bo'lgan talablarni shunday ifodalamoq mumkin.

1. Bolalarni o'rganish ularga tarbiya va ta'lim berish sifatini oshirishga bo'ysindirmog'i lozim. O'quvchilarni muntazam tarzda o'rganish asosida boshlang'ich jamoaga hamda alohida o'quvchilarga tarbiyaviy ta'sir etishining yanada samarali usul va metodlarini tanlab olishga ijodiy yondashish mumkin bo'ladi.

2. O'quvchilarning individual xususiyatlari, mayllari hamda qiziqishlarini qayd qilib borish bilangina cheklanib qolish noto'g'ri bo'lur edi. Bu o'rganish asosida o'quvchilarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olib, bular bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishni tashkil etish muhimdir. O'z o'quvchilarini yaxshi o'rganish

demak, tashqi tomoniga emas, balki ular hulq atvor sabablarini o'rganishga e'tibor bermoq darkor.

3. O'quvchilarni tabiiy hayot va ish faoliyati sharoitida o'rganish.

O'quvchi ta'lim jarayonida ijtimoiy foydali maslahatga va jamoat ishiga o'rganishi lozim. O'qituvchilarning o'qituvchi va o'quvchilar jamoasi bilan, ota-onalar va tevarak atrofidagi kishilar bilan kirishadigan munosabatlarini o'rgatish juda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu munosabatlar jarayonida shaxsning yanada to'la ochiladi. O'quvchilarni tibbiy ish va kundalik hatti harakat jarayonida o'rganish o'quvchiga haqiqiy baho berishga yordam beradi.

Sinf rahbari pedagoglar, ota onalar va o'quvchilarni o'zaro bog'lovchi shaxs sifatida barcha tomonlarining nuqtai nazarini hisobga olishi, harakatlarni bir markazga birlashtirish, o'zaro aloqalarning to'g'ri bo'lishiga ta'sir o'tkazish va ayni vaqtda o'zining pozitsiyasini aniq ta'minlay olishi kerak. Sinf rahbari o'quvchilarga puxta bilim berishga, ularni fikrlash qobiliyatini faollashtirishga hamisha g'amxo'rlik qilib boradi. Xatto o'zlashtirish yuqori bo'lgan sinflarda ham bolalarda ilmga bo'lgan qiziqish va muhabbatna o'stirishga, ta'lim sifatini oshirishga harakat qilish zarur.

Ba'zi ayrim maktablarda yuqori o'zlashtirishga erishishga o'quv, didaktik masala sifatida maktabda ta'lim tarbiyani to'g'ri yo'lga qo'yishga bog'liq bo'ladi. O'qish jarayonida bolalarda mehnatsevarlik, diqqatni, matonat kabi sifatlarni tarbiyalash bilimni muvaffaqiyatli o'zlashtirishga yordam beradi. O'quv mehnatiga ongli munosabatda va unga ma'lumot bilan yondashish hissini tarbiyalash bilimning sifatli bo'lishi bolaning o'qishga bo'lgan intilishi, qiziqishiga ularning harakatchangligiga, diqqatiga faoliyatiga tashabbuskorligiga, mustaqilligiga bog'liqdir. Bunday sifatlarni o'quvchilarda shakllantirish, ularga o'quv mehnatining ijodiy ahamiyati tushuntirish va o'quv mashgulotlariga mas'uliyat bilan yondashish o'quvchilardan talab etish sinf rahbarining faoliyatiga muhim o'rin egallaydi. Sinf rahbari ular oldida o'qish bolalarini ochib berishga harakat qiladi. Bunga esa ularning o'qishdagi har bir yutug'ini ijtimoiy foydali mehnat bilan bog'lanish o'qish bilan hayot o'rtasidagi mehnat faoliyati o'rtasidagi aloqali ko'rsatish vatanni himoya qilish hissasini tarbiyalash orqali erishiladi.

1. Har narsani bilishga qiziqish va bilimga muhabbat uyg'otish.

Bola bilimga qiziqmay turib, o'qishga intilmay turib, muvaffaqiyatli o'qiy olmaydi. Birinchi navbatda qiyinchilik bilan o'zlashtirilgan fanlariga nisbatan bolaning qiziqishini uyg'otish kerak. Boladagi o'qish mehnatiga nisbatan, mehnatga nisbatan havas va qiziqish o'qishidagi qiyinchiliklarni yengishga, bilim faoliyatini oshirishga qiziquvchanlik va mustaqilligini kamol topishiga olib keladi.

2. O'quv mehnati madaniyatni oshirish.

O'zlashtirishning past bo'lishi aksariyat, o'quv mehnatini sistemali va rejali olib borish iqtidorli bolalarda shakllanadigan kelib chiqadi. O'zlashtirishning past bo'lishi aksariyat, o'quv mehnatini sistemali va rejali olib borish iqtidorli bolalarda shakllanadigan kelib chiqadi.

Sinf rahbarining va o'qituvchining asosiy vazifasi har bir o'quvchining fikrlashga o'rnatishdan iboratdir. Ayniqsa bolalarda o'qish qiyinchiliklarini yengish, tushunib o'qish va kitob bilan mustaqil ishlash uy vazifalarini bajarishda rioya qilishni olgan bilimlarni, amalda qo'llash kabi bilim olish uchun zarur bo'lgan sifatlarini shakllantirish katta ahamiyatga egadir. O'quvchilarniyag aqliy va jismoniy taraqqiy etishga madaniyatli bo'lib harakat qilish va hamisha bu haqda g'amxo'rlik qilish lozim.

3. O'quvchilarni o'quv mehnatida muayyan rejaga itoat etishga o'rgatish.

O'quv mehnati bilan dam olishni to'g'ri almashtirib borish, tashkiliy ravishda uy vazifalarini bajarish ta'lim samaradorligini oshiradi. o'quvchilar rejimga itoat etishlarini o'qituvchi, sinf rahbari va ota-onalar muntazam ravishda nazorat qilib borishlari kerak. Shu yul bilan ularni muvaffakiyatli o'qishga, o'quv mehnatada saramjonlikka o'rganish mumkin.

4. Sinfda o'qish jarayonida o'rtoqlarga yordam uyushtirish. O'rtoqlarga o'zaro yordam, sinfda ulgurmovchilikni, ikki yillikni va maktabni tashlab ketish hollarining oldini olishga yordam beradi. Shu bilan birga sinfda o'rtoqlik do'stlik va bir jamoa bo'lib shakllanishiga olib keladi.

5. Sinf o'quvchilari bilan alohida bo'lishi va yaxshi hamkorlik.

Sinf rahbari ta'lim-tarbiyaviy ishlarni yakka o'zi emas, balki shu srshflarda dars beruvchi boshqa o'qituvchilar bilan hamkorlikda hal etadi. O'quv ishlarida sinf rahbarining va shu sinfda ishlaydigan boshqa o'qituvchilarning bir yoqadan bosh chiqarib ishlashi, o'quvchilarga

nisbatan yagona talabni amalga oshirish va o'quvchilarning bir-biriga o'zaro yordamlari ta'lim -tarbiya sifatini oshiradi.

4. Maktabdagi tarbiyaviy ishlar tizimida sinf rahbari ishini takomillashtirish.

Tarbiyalash uchun sinf rahbari tarbiya ob'ekti bo'lgan bolani yaxshi bilish, uni yaxlit idrok etishi kerak. Ko'pchilik sinf rahbarlari bolani darsda o'quvchi, musobaqada sportchi sifatida, ya'ni har bir aniq ish sharoitida kelib chiqib idrok etadi va shunga ko'ra muomala qiladi, bola shaxsining boshqa tomonlari esa hozircha hisobga olinmaydi. Ammo har bir bolaning o'z tajribasi, o'z emotsional madaniyat darajasi, qadrlaydigan narsalar, ehtiyoatlari, talablari, umidlari, aloqalar, munosabatlari kabi butun bir dunyosi bor. Tarbiyada ana shular hisobga olinishi kerak. Sinf rahbari o'z o'quvchisining ichki dunyosini, kechinmalarini, xulqida vujudga kelayotgan holatlarining sababini, irodasini yaxshi bilsagina uning qalbiga yo'l topa oladi va bolaga ta'sir etishning to'g'ri yo'lini aniqlaydi.

qalbiga yo'l topa oladi va bolaga ta'sir etishning to'g'ri yo'lini aniqlaydi. Ana shunday sifatarga e'tibor bergan sinf rahbari tarbiyada yetakchi o'rinni egallaydi. Shuni ham unutmaslik kerakki, bolaga tarbiyaviy ta'sir etuvchi omillar hozirgi davrda g'oyat darajada ko'paydi oila, keng jamoatchilik, radio, televidenie kino, teatr, kitob, jurnal, musiqa va boshqalar. Sinf rahbarining bolaga tarbiyaviy ta'sir etishda yetakchilik, birdamlik rolni tarbiyaviy ta'sirini, saqlab qolish g'oyat qiyinlashib boryapti. Ba'zan bolaga tarbiyachidan ko'ra o'rtog'i, qo'shnisi, ko'chadagi do'stlari kuchliroq ta'sir etish hollariga duch kelamiz. Chunki, har bir bolada ma'lum kurtaklar yaxshilik va poklik bilan bir qatorda salbiy, aktivlik va passivlik sifatlari mavjud. U munosabatlarga e'tibori jihatidan ham har xil sifatarga ega. Agar tarbiyachi unga optimistik nuqtai nazardan yondashsa, bola yaxshilikka intilib, uning umidini oqlaydi va aksincha bolaga oldindan noshud, yalqov, tartibsiz deb qaralsa hamda o'jarlik va terslik bolaning sifati hukm chiqarilsa, u holda tarbiyalanuvchi o'zining xuddi shunday qilib ko'rsatadi.

Natijada u bu borada ham tarbiyachining umidini oqlaydi. Sinf rahbari bolalarni yaxshi bilishi uchun ularni o'rganish darsda, darsdan tashqari vaqtlarda umuman bolaning hayoti o'tadigan barcha sharoitlarda amalga oshiriladi. Bolani o'rganish bilan sinf rahbari uning

individual xususiyatlari haqida aniq ma'lumotga ega bo'ladi. Bolaning individual xususiyati uning xulqiga, o'zlashtirishiga munosabatlariga jamoadagi o'rniga ta'sir etadi. Shu boisdan ham jamoadagi individlar tarbiyalanayotiganda alohida o'quvchini unutish yaramaydi. Chunki sinf rahbari ko'pgina tashkiliy ishlarni uyushtirishda kimga suyanish, kimga qanday vazifa yuklash, kimga mustaqillik berish va kimga muntazam yordam berish kerakligini faqat ularning individual xususiyatlarini yaxshi bilish tufayligina bexato aniqlaydi.

Sinf rahbari tarbiyaviy ishning muvaffaqiyati ko'p jihatdan uning bolalar ichki dunyosiga chuqur singib kirishiga, ularning kechinmalari hamda xulqatvorini tushunishiga boliqdir. O'quvchining nima bilan yashayotganligini, uning qiziqishi va mayillari qandayligini, irodasining o'ziga xosligi, hamda xarakteri xususiyatlarini o'rganish deganimiz, uning qabliga mumkin qadar ishonchli yo'l topish, unga tarbiyaviy ta'sir etishning hamda maqbul metodlaridan foydalanish demakdir. Tarbiyachi o'quvchining individual xususiyatlarini yaxshi o'rgangach va tushungan taqdirdagina, bu o'quvchi shaxsini muvaffaqiyatli tarbiyalab yetishtira oladi.

Tadbirlarni tashkil etish va o'tkazishda o'qituvchilar jamoasi yoki o'qituvchi tomonidan ushbu jarayonda o'quvchilar jamoasi bilan birgalikda ish olib borish, ularni an'analarni davom ettirishga o'rgatish masalasiga alohida e'tibor qaratishlari pedagogik jihatdan ijobiy natijalarni beradi. O'quvchilar uyushmasiga pedagogik rahbarlik, yuqorida qayd etilganidek, aksariyat holatlarda sinf rahbari tomonidan amalga oshiriladi. Shu sababli, sinf rahbari guruhning umumiy hamda har bir a'zosining individual xususiyatlarini bilishi, ularni inobatga olgan holda jamoaga yondashishi zarur. Sinf rahbarining norasmiy liderlar va ularning shaxsi haqida to'laqonli ma'lumotlarga ega bo'lishi pedagogik faoliyatni samarali tashkil etishga yordam beradi.

Savol va topshiriqlar:

1. Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarning maqsadi?
2. O'zbekiston yoshlar ittifoqining vazifasi nima?
3. Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarning vazifalari?
4. O'quvchilarni bilimga bo'lgan qiziqishlarini oshirish usullarini ayting?

5. Maktabdagi tarbiyaviy ishlar tizimida sinf rahbari ishini takomillashtirish qanday amalga oshiriladi?

6. Tarbiyasi og'ir o'quvchilar bilan ishlash usullari haqida tushuncha bering?

7. Tarbiyasi og'ir o'quvchilarga xos xususiyatlarni ayting?

8. Tarbiyaviy tasir usullarini ayting?

9. Sinf rahbari ishining asosiy qismlari nimadan iborat?

10. Tarbiyaviy ish faoliyati nimadan iborat?

Test:

1. Boshlang'ich sinf rahbari maktab jamoat tashkilotlari bilan nima maqsadda ishlaydi?

a) o'quvchilarga fanlardan yordam berish;

b) o'quvchilarning tarbiyaviy faoliyatini mustahkamlash;

d) jamoat ishlarini bajarish;

e) faqat o'quvchilarga sport mashg'ulotlarini o'tkazish;

2. Boshlang'ich sinf rahbari maktab jamoat tashkilotlari bilan qanday faoliyatlarni amalga oshiradi?

a) sinf ichidagi ijtimoiy hayotni boshqarish;

b) o'quvchilarning maktab jamoat tashkilotlarida ishtirokini nazorat qilish;

d) o'quvchilarni ilmiy tadqiqotlarga jalb qilish;

e) maktabdagi yirik sport musobaqalarini tashkil qilish;

3. Boshlang'ich sinf rahbari o'quvchilarni maktab jamoat tashkilotlarida ishtirok etishga qanday rag'batlantiradi?

a) faqat o'quvchilarni bilim olishga rag'batlantirish;

b) ularni o'z faoliyatlarini yuksaltirishga undash;

d) jamoaviy ishlar va musobaqalarda g'alaba qozonishga undash;

e) maktabda tinchlikni ta'minlash;

4. Boshlang'ich sinf rahbari maktabning "O'quvchilar ittifoqi" bilan qanday ishlar olib boradi?

a) o'quvchilarni bilim olishda yordam berish;

b) o'quvchilarni yagona maqsadlar sari yo'naltirish;

d) o'quvchilarni tanlovlarda ishtirok etishga chaqirish;

e) sinf faoliyatini yaxshilash uchun do'stona muhit yaratish;

5. Boshlang'ich sinf rahbari maktab jamoat tashkilotlari bilan ishlashda qanday yondashuvni qo'llashi kerak?

a) faoliyatlar faqat nazorat qilishdan iborat bo'lishi kerak;

- b) har bir o'quvchining shaxsiy xususiyatlarini inobatga olish;
 - d) sinf ichidagi tashkiliy masalalarga ko'proq e'tibor qaratish;
 - e) o'quvchilarni faqat o'qishga yo'naltirish;
6. Boshlang'ich sinf rahbari maktab jamoat tashkilotlari bilan ishlashda o'quvchilarni qanday qobiliyatlar asosida tanlaydi?
- a) yoshi kattaroq o'quvchilarni tanlash;
 - b) ijtimoiy faolligi va jamoada ishlash qobiliyatiga ko'ra tanlash;
 - d) faoliyatga qiziqishi bo'lgan o'quvchilarni tanlash;
 - e) faqat yuqori baholariga ko'ra tanlash;
7. Boshlang'ich sinf rahbari maktab jamoat tashkilotlarida o'quvchilarni qanday qilib ijtimoiy faollikka rag'batlantiradi?
- a) faqat individual o'quv faoliyatiga e'tibor qaratish;
 - b) ularni o'zaro yordam va hamkorlikka undash;
 - d) o'quvchilarning bilim darajasini oshirish;
 - e) o'quvchilarga mukofotlar berish orqali;
8. Boshlang'ich sinf rahbari maktab jamoat tashkilotlari bilan ish olib borishda qanday kommunikatsiya usulini tanlaydi?
- a) maktab yig'ilishlariga qatnashish va muhokama qilish;
 - b) sinf yig'ilishlarida o'quvchilarning fikrlarini tinglash;
 - d) o'quvchilarning ijtimoiy faoliyatiga e'tibor qaratish;
 - e) o'quvchilarga doimiy ravishda jazo berish;
9. Boshlang'ich sinf rahbari maktab jamoat tashkilotlarida qanday tadbirlarni o'tkazadi?
- a) faol o'quvchilarni tanlab, ularning jamoatdagi ishtirokini oshirish;
 - b) sinf yig'ilishlari o'tkazib, o'quvchilarni faoliyatga jalb etish;
 - d) o'quvchilarga doimiy ravishda yangi topshiriqlar berish;
 - e) faqat ilmiy konferensiyalar tashkil qilish;
10. Boshlang'ich sinf rahbari maktab jamoat tashkilotlari bilan ishlashda qanday natijalarga erishishni maqsad qiladi?
- a) o'quvchilarning ilmiy yutuqlarini oshirish;
 - b) o'quvchilarning shaxsiy tarbiyasini va ijtimoiy faolligini yaxshilash;
 - d) o'quvchilarning sportdagi yutuqlarini oshirish;
 - e) maktabdagi o'quvchilarning sonini ko'paytirish.

“Insert metodi”

“V” -men bilgan ma'lumotlarga mos;

“-” -men bilgan ma'lumotlarga zid;

“+” -men uchun yangi ma’lumot;
“?” -men uchun tushunarsiz, yoki ma’lumotni aniqlash,
to’ldirish talab etiladi.

5-tarqatma

Mavzu savollari	V	-	+	?
1.				
2.				
3.				
4.				
5.				
6.				
7.				

6-mavzu. Boshlang‘ich sinf rahbarining tarbiyalanuvchilar bilan muomala va muloqot.

Reja:

1. O‘qituvchilarning o‘quvchilar bilan muomalasi.
2. O‘qituvchi-muomala subyekti sifatida.
3. Gapirish, tinglash va hamkorlik qilish mahorati.
4. O‘quvchilar faoliyatida va ularni tarbiyalashda muomalaning ro‘li.
5. O‘quvchilarning muomalasini tashkil etish.

Foydalangan adabiyotlar

16. Mavlonova R., Raxmonqulova N., Normurodova B. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. -T.: Tib-kitob, 2010 y.

17. Ishmuhammedov R., Abduqodir A., Pardayev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar. -T.: Fan va texnologiya, 2010 y.

18. И.А.Олесникова, Н.М.Борытко и др. Воспитательная деятельность педагога. Учебное пособия. М.:Академия, 2006-333 с.

19. Подласый И.П. Педагогика 2-я част -М.: ВЛАДОС, 2003 г.

20. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6108-son farmoni.

21. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrda "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim va ilmfan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-son farmoni

22. www.pedagog.uz

23. <http://window.edu.ru/window/www.astronet.ru>

Tayanch tushunchalar. O'qituvchi, o'quvchi, muomala, suhbat, tinglash, hamkorlik, mahorat, sinf rahbari, tarbiya, muloqot.

1. O'qituvchilarning o'quvchilar bilan muomalasi.

Pedagogik muloqotda o'qituvchining eng yaxshi fazilatlari va xatti-harakatlari o'quvchining ideali sifatida namoyon bo'ladi. Alloma Alisher Navoiy ham til shunchalik sharafi bilan nutqning quroli ekanligini uqtiradi. Nutq kamon bo'lsa, so'z-o'q. O'q hisoblangan so'z nishonga bexato yetib borishi uchun kamon-nutq mustahkam bo'lishi lozim. Demak, til va nutq ajralmas hodisalar bo'lib, ularni o'zaro uyg'unlikdagina tasavvur etish mumkin. Mana shu uyg'unlikdan hosil bo'luvchi madaniy nutqni yuzaga chiqaruvchi kuch-shak-shubhasiz insondir.

O'quvchining o'qituvchi shaxsi haqidagi qarashlari, uning xatgi-harakati, pedagogik mahorati uning ma'naviy madaniyatiga mos kelmasa, yaxlit pedagogik jarayonni mukammal tashkil etish ham ijobiy natijalar hozirgi kunda kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati insonni intellektual va ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash, uning har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida namoyon bo'lishiga erishishni nazarda tutadi. Mazkur ijtimoiy talabning amalga oshirilishida, har bir fuqaroning bilim olishida, ijodiy qobiliyatini shakllantirishda, intellektual jihatdan rivojlantirishda o'qituvchining muloqot madaniyati va muomalasi muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun ta'kidlash joizki, o'qituvchi kasbiga nisbatan talab va javobgarlik ham kuchaydi, ularning jamiyat oldidagi vazifalari yanada oshdi. Buyuk ma'naviyatimizni tiklash va yanada yuksaltirish, milliy ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, uning milliy zaminini mustahkamlash, zamon talablari bilan uyg'unlashtirish, uni jahon andozalari darajasiga chiqarish, o'quvchilarda mustaqil va erkin fikr yuritish ko'nikmalarini hosil qilish kabi buyuk vazifalarga javobgarlik o'qituvchilar zimmasiga yuklatildi. Bu vazifalarning bajarilishiga,

ta'lim-tarbiya sohasidagi islohotlarning asosiy amalga oshiruvchisi bo'lgan o'qituvchining o'quvchilar bilan o'zaro muomalaga kirishish madaniyati orqali erishiladi. O'quvchi ma'naviy muhitining shakllanishi o'qituvchining yuksak axloq namunasi orqali namoyon bo'ladi. Bu o'rinda o'qituvchining shaxsiy va ijtimoiy harakati pedagogik muloqot madaniyati zahirida shakllanib, takomillashadi.

Pedagogik muloqotda o'qituvchining eng yaxshi fazilatlari va xatti-harakatlari o'quvchining ideali sifatida namoyon bo'ladi. O'quvchining o'qituvchi shaxsi haqidagi qarashlari, uning xatgi-harakati, pedagogik mahorati uning ma'naviy madaniyatiga mos kelmasa, yaxlit pedagogik jarayonni mukammal tashkil etish ham ijobiy natijalar bermaydi. O'qituvchida ijtimoiy o'zaro harakatga bo'lgan ehtiyojni muvaffaqiyatli amalga oshirishning sharti bo'lib, unda mavjud bo'lgan pedagogik nazokat maydonga chiqadi. Endi pedagogik qobiliyatlar strukturasi kiradigan yordamchi xislatlar va xususiyatlardan ayrimlarini qarab chiqamiz. Bu avvalo, aql-idrokning muayyan xislatlari: xozirjavoblik, tanqid ko'z bilan qarash, sobitqadamlik va boshqa bir qator xislatlardir. O'qituvchining nutqi: notiqlik qobiliyatining mavjudligi, so'z boyligi va hokazolar ham muhim rol o'ynaydi. Tabiatida bir qadar artistlik xususiyatiga ega bo'lish (hayol, fantaziya ishlata bilish) ham o'quvchilar bilan muomalada muvaffaqiyatga erishishda muayyan rol o'ynaydi. Pedagogik qobiliyatlar - faqat pedagogik faoliyat samarali bo'lishining shartigina emas, balki ko'p jihatdan o'qituvchining muvaffaqiyatli ishlashining natijasi hamdir. Shu munosabat bilan o'qituvchining o'zida pedagogik qobiliyatlarning aniq maqsadini ko'zlab tarkib topishi va rivojlanishi katta rol o'ynaydi.

O'qituvchilarning o'quvchilar bilan muomalasi — ta'lim jarayonining muvaffaqiyatli bo'lishi uchun eng muhim omillardan biridir. O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabatlar, o'quvchilarning psixologik holati, o'quvchilarga bo'lgan hurmat, o'quv jarayoniga bo'lgan motivatsiya va o'rganish natijalariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. O'qituvchilar o'z faoliyatlarida bir necha asosiy omillarni hisobga olishlari kerak:

1. Hurmat va ishonch. O'qituvchi o'quvchilarga hurmat bilan munosabatda bo'lishi kerak. Bu nafaqat o'quvchining shaxsiga bo'lgan hurmatni, balki uning fikrlarini tinglashni va tushunishni ham o'z ichiga oladi. O'quvchilar o'zlarini qadrlangan va e'tirof etilgan his qilishsa, ular o'qishga ko'proq qiziqish va motivatsiya ko'rsatadilar.

2. Ochiqlik va adolat. O'qituvchi o'z fikrlarini aniq va tushunarli qilib ifodalash, o'quvchilarga savollar berishga imkon yaratish, ular bilan doimiy muloqot o'rnatish kerak. Adolatli bo'lish, barcha o'quvchilarga teng munosabatda bo'lish, ular o'rtasidagi farqlarni hurmat qilish va ko'nikmalarini hisobga olish ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi.

3. Emotsional yordamlashish. O'qituvchilar o'quvchilarning psixologik holatini tushunishlari va kerak bo'lganda ularga emotsional yordam ko'rsatishlari lozim. Masalan, o'quvchining o'zini noqulay yoki bezovta his qilgan holatlarda, o'qituvchi qo'llab-quvvatlashi va unga muammo yechimi bo'yicha maslahatlar berishi kerak.

4. Motivatsiya va ilhomlantirish. O'qituvchi o'quvchilarni bilim olishga rag'batlantirishi, ularni o'rganishga bo'lgan qiziqish va ishtiyoqni kuchaytirishi kerak. Bu, o'z navbatida, o'quvchilarning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi va o'qishga bo'lgan motivatsiyani kuchaytiradi.

5. Savol va fikrlar almashinuvi. O'qituvchilar o'quvchilar bilan o'quv jarayonida savol va javob almashinishiga imkon berishlari kerak. Bu, o'quvchilarning tahlil qilish, fikr yuritish va kreativ yondashuvlarni rivojlantirishga yordam beradi.

6. O'qitishning individual yondoshuvi. Har bir o'quvchining o'ziga xos talablari, qobiliyatlari va ehtiyojlari bor. O'qituvchi bu jihatlarni hisobga olib, o'quvchilarni individual tarzda qo'llab-quvvatlash va ularga o'rganish jarayonida yordam berish zarur.

7. O'qituvchining o'zini tahlil qilish va o'zgarishga tayyorlik. O'qituvchi o'z ishini tahlil qilishi va kerak bo'lsa, yangi metodlar va yondoshuvlar sinab ko'rishga tayyor bo'lishi kerak. O'quvchilar bilan o'zaro munosabatlarni yaxshilash uchun o'qituvchi o'z tajribasini doimiy ravishda takomillashtirishi lozim. O'qituvchilarning o'quvchilar bilan to'g'ri muomalasi ta'lim jarayonining muvaffaqiyatini ta'minlash, o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishi va bilim olishga bo'lgan qiziqishlarini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Bu orqali o'quvchilar ta'limni samarali ravishda qabul qiladilar va o'zlarining barcha imkoniyatlarini to'liq ishga soladilar.

2. O'qituvchi-muomala subyekti sifatida.

O'qituvchining bolalar bilan muomalasi muvaffaqiyatli bo'lishi ko'p jihatdan unda pedagogik qobiliyagning mavjudligiga va pedagoglik nazokati (odobi) ni egallaganiga bog'liq bbo'ladi.

Psixologiyada pedagogik qobiliyatlar deganda insonning muayyan psixologik xususiyatlarini tushunish qabul qilingan. Bu xususiyatlar uning o'qituvchi vazifasida bolalarni o'qitish va bolalarga ta'lim berishda yuksak natijalarni qo'lga kiritishning sharti hisoblanadi. Ma'lumki, shaxsning u yoki bu qobiliyatlarini hosil qiluvchi xislatlar va xususiyatlar orasida bir xillari yetakchi rol o'ynasa, boshqalari yordamchi rol o'ynaydi. Pedagogik faoliyatda shaxsning o'zaro fikr almashuv bilan bog'liq xususiyatlari yetakchi rol o'ynaydi. Birinchi navbatda perspektiv, ya'ni idrok qilish sohasiga taalluqli bo'lgan xususiyatlar (ulardan eng muhimrog'i ko'zatuvchanlikdir) yetakchi rol o'ynaydi, o'qituvchiga o'quvchining psixologiyasini, uning psixik holatini o'xshash tarzda idrok etish, muayyan holda umuman sinf kollektivining ahvoliga va xususan mazkur pedagogik vaziyatdagi ahvoliga to'g'ri baho berish imkonini beradi.

O'qituvchida ijtimoiy o'zaro harakatga bo'lgan ehtiyojni muvaffaqiyatli amalga oshirishning sharti bo'lib, unda mavjud bo'lgan pedagogik nazokat maydonga chiqadi. Endi pedagogik qobiliyatlar strukturasiga kiradigan yordamchi xislatlar va xususiyatlardan ayrimlarini qarab chiqamiz. Bu avvalo, aql-idrokning muayyan xislatlari: xozirjavoblik, tanqid ko'z bilan qarash, sobitqadamlik va boshqa bir qator xislatlardir. O'qituvchining nutqi: notiqlik qobiliyatining mavjudligi, so'z boyligi va hokazolar ham muhim rol o'ynaydi. Tabiatida bir qadar artistlik xususiyagiga ega bo'lish (hayol, fantaziya ishlata bilish) ham o'quvchilar bilan muomalada muvaffaqiyatga erishishda muayyan rol o'ynaydi. Pedagogik qobiliyatlar - faqat pedagogik faoliyat samarali bo'lishining shartigina emas, balki ko'p jihatdan o'qituvchining muvaffaqiyatli ishlashining natijasi hamdir. Shu munosabat bilan o'qituvchining o'zida pedagogik qobiliyatlarning aniq maqsadini ko'zlab tarkib topishi va rivojlanishi katta rol o'ynaydi. Tajriba va maxsus tadqiqotlar buning batamom haqiqiy narsa ekanligini ko'rsatmoqda. Masalan, shaxs perseptiv xususiyatlarining eng muhim elementi bo'lgan ko'zatuvchanlik o'qituvchining pedagogik tajriba hosil qilish jarayonida ham, uning maxsus kuch-g'ayrati natijasida ham rivojlanadi, takomillashadi. O'qituvchi o'zining sosial-psixologik ko'zatuvchanligini, ya'ni o'quvchilarda turli harakter xususiyatlari va mayllarni payqab olish qobiliyatinigina emas, shu bilan birga ularning paydo bo'lish sabablarini bilib olish, ularga bu sabablarning paydo bo'lish vaziyatiga

muvofik baho berish mahoratini va hokazolarni rivojlantirishga qodirdir.

Pedagogik vaziyatlar tez-tez o'zgarib turadigan sharoitda o'qituvchining vazifasi ro'y bergan vaziyatda tez mo'ljol olib, unga to'g'ri baho bera bilish, zarur tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan to'g'ri qarorga kelishdan iboratdir. Agar o'qituvchi bolalarning hatti - harakatlarini faqat to'g'ri idrok etib, baho bera bilsa, ularni vujudga keltirgan sabablarni chuqur ko'ra olsagina, shu bilan birga o'zida sabot, o'zini tuta bilish, sabr- toqat, sezgirlik kabi fe'l-atvor xususiyatlarini rivojlantira olsagina, yuqoridagi vazifaga erishish mumkin. Bu pedagogik nazokatga rioya qilishning zarur sshartidir.

Pedagogik muomala ham amaliy faoliyat jarayoni sifatida quyidagi tarkibiy qismlarga ajratiladi:

1. Pedagog tomonidan sinf bilan kuriladigan muomalani modellashtirish (prognoz bosqichi).
2. Dastlabki o'zaro ta'sir daqiqalarida bevosita muomalani tashkil etish (komunikativ hujum bosqichi).
3. Pedagogik jarayon mobaynida muomalani boshqarish.
4. Amalga oshirilgan muomala tizimini tahlil qilish va keyingi faoliyat uchun yana modellashtirish.

Ko'pincha, o'qituvchining o'quvchilar bilan muomalasi bosqichlar va o'qituvchi faoliyatining harakteriga ko'ra ajratilmagan bo'ladi. Har bir bosqichda o'qituvchi nimalarga ahamiyat berishi lozimligi haqida to'htalib o'tamiz.

Modellashtirish bosqichi o'qituvchidan auditoriyanining o'ziga hos hususiyatlarini, ya'ni o'quvchining o'quv-biluv faoliyati hususiyatlarini, yuz berishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklar, ish sur'ati kabilarni bilishni talab etadi. Darsga tayyorlayotgan material bo'lg'usi o'zaro hatti-harakatlar vaziyatida hayolan tasavvur etilishi va faqat o'qituvchi emas, balki o'quvchi nuqtai nazaridan ham o'ylangan bo'lishi kerak.

“Komunikativ hujum” bosqichi nomidan ko'rib turibdiki, sinfni tezgina o'quv ishiga jalb etish texnikasi, o'zini namoyish etish va dinamik ta'sir ko'rsata olish usullarini bilish demakdir.

Muomalani boshqarish bosqichida o'quvchilarning tashabbusini qo'llab-quvvatlash, dialogik muloqotni tashkil etish, aniq yuzaga kelgan sharoitga ko'ra o'z fikrlarini to'g'rilab borish malakalari juda muhimdir.

Va nihoyat, muomalani tahlil qilish maqsad, vosita va nitajaning o‘zaro hamohangligiga yo‘nalgan bo‘ladi.

Tabiiyki, o‘qituvchi muomalani va yahlit o‘quv–tarbiya jarayonini boshqarishda tashabbuskor va etakchi bo‘lishi kerak. Buning uchun o‘qituvchi o‘z muomalasining boshlang‘ich operativligiga e’tibor berishi kerak.

Bularning hammasi muomalaning samaradorligiga halaqit beradigan to‘siqlarni engishga yordam beradi. Bunday to‘siqlar, ayniqsa, pedagogik faoliyatning boshlanishida tez-tez uchradi. Birinchidan, sinfdan qo‘rqish. Bu to‘siqni psixologik jihatdan o‘zini tayyorlash, diqqatni qurilajak muloqotning qiziqarliligiga qaratish, muomalaning ”hissiy o‘zagi”ni topish orqali bartaraf etish mumkin. SHunga o‘hshash to‘siqlarga yana jismoniy to‘siq ham kiradi. YA’ni bunda o‘qituvchi o‘zini o‘quvchilardan ajratadi, stol, stul orqasida yoki burchakda turib, o‘zini yashirishga harakat qiladi. Bundan qutilish yo‘li bitta – o‘ziga ishonch namoyon qilib ochiq pozitsiyada turib ishlash.

Ijtimoiy to‘siq o‘z pozitsiyasini ”yuqoridan” turib, doimiy ravishda ta’kidlab turish (“Sizning oldingizda o‘qituvchi turibdi”) natijasida paydo bo‘ladi. YA’ni o‘qituvchi o‘z nutqini o‘quvchilarning tushunish darajalariga moslashtira olmaydi.

Har qanday to‘siqlarni engishdan avval, o‘qituvchi o‘zida muomalaning to‘g‘ri ko‘rinishlarini shakllantirishi kerak bo‘ladi. Turli ko‘rinishdagi individual muomala shakllari ichida ba’zi umumiy xususiyatga ega bo‘lganlari ham ajratiladi. SHunday muomala shakllari majmuasidan bir necha muomala usullari ajratiladi.

O‘qituvchi va o‘quvchining o‘zaro muomalasi jarayonida muomalaning ikki hissiy qutbi shakllanishi mumkin. O‘qituvchining ijodiy his–tuyg‘ularga asoslangan o‘zaro munosabatini tashkil eta olish qobiliyati haqiqiy tarbiyaviy samara berishi mumkin. Salbiy hissiy holat ham paydo bo‘lishi mumkin, lekin o‘zaro ta’sirning ohirgi maqsadi sifatida emas, balki ijodiy hissiy natijaga erishish uchun mumkin bo‘lgan vaziyatli vosita sifatida paydo bo‘ladi. (Masalan, o‘zgalar oldida hurmatni yo‘qotishdan qo‘rqish).

3. Gapirish, tinglash va hamkorlik qilish mahorati.

Gapirish (O‘z fikrini aniq ifodalash): Gapirish ko‘nikmasi o‘z fikrini, g‘oyalarini yoki ehtiyojlarini aniq va tushunarli tarzda ifodalashni anglatadi. Bu samarali muloqotda juda muhim, chunki odamlar o‘z fikrlarini tushunarli tarzda aytmasa, boshqalar ularni

to'g'ri tushunmasligi mumkin. O'z fikrini ifodalashda noaniqlik yoki chalkashlikdan qochish lozim.

Tinglash (Aktiv tinglash): Tinglash - bu nafaqat boshqalarni eshitish, balki ularning gaplarini to'liq anglashga harakat qilishdir. Aktiv tinglashda siz faqat so'zlarni eshitibgina qolmasdan, balki ularning his-tuyg'ularini, niyatlarini va maqsadlarini tushunishga intilasiz. Tinglashda muhim bo'lgan jihat bu savollar berish va muloqotni davom ettirishdir.

Hamkorlik (Jamoaviy ishlash): Hamkorlik odamlar o'rtasida jamoaviy ishlashni anglatadi. Bu o'zaro yordam, bir-birining fikrlariga hurmat bilan yondashish va umumiy maqsadga erishish uchun birgalikda ishlashni o'z ichiga oladi. Hamkorlikda muhim jihat — har bir jamoa a'zosining o'z hissasini qo'shishi, bir-birining kuchli tomonlarini qo'llab-quvvatlashi va muammolarni birgalikda hal qilishdir.

Gapirish mahorati. Gapirish – bu fikr va g'oyalarni boshqalarga etkazish jarayonidir. Bu, albatta, o'z fikrini aniq va ravon ifodalashni talab qiladi. Yaxshi gapiruvchi odam:

- Anik va tushunarli so'zlarni ishlatadi;
- O'z fikrini mantiqan to'g'ri tuzadi, shunda tinglovchi uni oson tushunadi;
- To'g'ri ovoz balandligi, toni va tembri yordamida xabarni samarali etkazadi.

Gapirish, ya'ni o'z fikrini aniq, tushunarli va ta'sirli tarzda ifodalash, muloqotning asosiy qismidir. Samarali gapirish uchun quyidagi ko'nikmalar kerak:

- Aniqlik va qisqalik: Gapirishda to'liq va aniq bo'lish, maqsadga erishish uchun muhim. Fikrlarni qisqa va lo'nda tarzda ifodalash ham muhimdir.
- Tuzilish: Muloqot qilishda fikrni tartibda taqdim etish zarur. Yaxshi tuzilgan gaplar boshqalarga tushunishni osonlashtiradi.
- Toni va intonatsiya: O'zgaruvchan ton va intonatsiya sizning gapirishingizni yanada jonli va ta'sirli qiladi. Emotsiyalarni aniq ifodalash orqali auditoriya bilan bog'lanish osonlashadi.
- Muvofiqlik va ishonch: O'z fikrini ishonch bilan ifodalash, lekin bir vaqtning o'zida boshqalar fikrini hurmat qilish muhimdir.

Gapirishda muvaffaqiyat uchun ba'zi muhim omillar:

- Xulq-atvor: Tinch va o'ziga ishongan bo'lish, gapirayotganda yuzaga keladigan noqulayliklarni bartaraf etish;

- Tinglashni ham unutmaslik: Gapirish faqat o'z fikringni ifodalash emas, balki tinglovchi fikrini ham hurmat qilishdir.

2. Tinglash. Tinglash – bu faqat boshni qimirlatish yoki "ha, ha" deb o'tirish emas. Bu, gapiruvchining fikrini anglab, uning his-tuyg'ularini tushunishga intilishdir. Yaxshi tinglovchi odam:

- Diqqatini to'liq ravishda tinglayotgan kishiga qarata oladi;
- Savollar berib, aniqlik kiritish uchun gapiruvchining fikrini chuqurroq tushunishga harakat qiladi;
- Tanqidiy fikrlarni vaqtida aytib, konstruktiv yondashuvni saqlaydi.

Tinglashning asosiy tamoyillari:

Aktiv tinglash: Tinglovchi faqat eshitish bilan cheklanmay, eshitganini qayta ifodalash yoki tasdiqlash orqali suhbatni rivojlantiradi.

Emotsional sezgirlik: Tinglovchi nafaqat so'zlarni, balki so'zlar ortidagi his-tuyg'ularni ham tushunishga intiladi.

2. Tinglash. Tinglash faqat eshitishdan iborat emas; bu faol ishtirok va o'zaro aloqani anglatadi. Samarali tinglash uchun quyidagi ko'nikmalar zarur:

- **Faol tinglash:** Bu tinglashda nafaqat so'zlarni eshitish, balki ularning ma'nosini va hissiyotini tushunishga harakat qilishdir. Tinglashda ko'z bilan aloqa qilish, bosh irg'ash va kerakli savollarni berish kabi signallarni berish muhim.

- **Empatiya:** Tinglaganingizda, boshqaning his-tuyg'ularini tushunishga va ular bilan birga his qilishga harakat qilishingiz kerak. Bu nafaqat so'zlar, balki mimika va tana tilini ham tushunishni talab qiladi.

- **To'liq e'tibor berish:** Gapirishning oxiriga qadar tinglash, o'zingizni chalg'itmasdan va oldingi fikrlar bilan band bo'lmasdan to'liq diqqatni jamlash kerak.

- **Savollar berish:** Tinglashdan keyin savollar berish, tushunmagan joylarni aniqlashtirish va muloqotni chuqurlashtirishda yordam beradi.

- **Jismoniy til:** Tana tili va mimikalar tinglashda muhim rol o'ynaydi. Sizning yuz ifodalaringiz, tana holatingiz va qo'llaringiz

boshqalarga sizning suhbatga qiziqishingizni yoki ular bilan bog'lanishni anglatadi.

- **Sabrlilik:** Tinglashda sabr qilish muhim. Boshqalar o'z fikrlarini to'liq ifodalashlari uchun vaqt kerak bo'ladi, shuning uchun ular gapirayotgan paytda sabrli bo'lish zarur.

3. Hamkorlik. Hamkorlik qilish, turli odamlar bilan birgalikda ishlash va umumiy maqsadga erishish uchun zarur bo'lgan ko'nikmadir. Jamoa bilan ishlashda quyidagi ko'nikmalar muhimdir:

- O'zaro hurmat: Jamoa a'zosining fikrini hurmat qilish, har bir kishining qadriga yetish va ular bilan ijobiy munosabatda bo'lish kerak.
- Ochiqlik va shaffoflik: Hamkorlikda aniq va ochiq muloqot qilish zarur. Jamoa ichida fikrlar va maqsadlar haqida to'g'ri axborot almashish muhimdir.
- Moslashuvchanlik: Har bir jamoa a'zosining ehtiyojlari va uslublarini tushunib, moslashish va ularga yondashishda ijobiy natijalarga erishish mumkin.
- Muammolarni hal qilish: Jamoada yuzaga keladigan muammolarni birgalikda hal qilish, xatolarni tushunib, ularni to'g'rilash hamkorlikning muhim qismidir.
- Ish taqsimoti: Har bir a'zo o'zining vazifalarini bilishi va jamoa ichida teng ish taqsimoti o'rnatilishi muhimdir.

Samarali Gapirish, Tinglash va Hamkorlikning Afzalliklari:

1. Kuchli muloqot va samarali jamoalar: Ushbu ko'nikmalar jamoalarda yaxshi aloqa va samarali ishlashni ta'minlaydi.

2. Ishdagi muvaffaqiyat: Boshqalar bilan yaxshi muloqot qilish va jamoada ishlash ko'plab kasblarda muvaffaqiyatni ta'minlaydi.

3. Shaxsiy o'sish: O'z fikrini aniq va samimiy ifodalash, boshqalarning fikrlarini tushunish va hamkorlikda ishlash shaxsiy rivojlanishga olib keladi.

4. Muammolarni hal qilish: Samarali tinglash va hamkorlik qilish, jamoaviy muammolarni tez va samarali hal qilishga yordam beradi.

5. Yaxshi munosabatlar: Odamlar bilan yaxshi muloqot va hamkorlik qilish, ijtimoiy aloqalar va munosabatlarni mustahkamlaydi.

6. Samarali muloqot: Tinglash va hamkorlik qilish ko'nikmalari bir-birini to'ldiradi. Faol tinglash boshqalar bilan yaxshi

aloqani yaratadi, hamkorlik esa birgalikda ishlashda muvaffaqiyatga erishishni ta'minlaydi.

7. Ishdagi muvaffaqiyat: Boshqalar bilan to'g'ri tinglash va samarali hamkorlik qilish ishda muvaffaqiyatni ta'minlaydi. Jamoa a'zolari o'rtasida ishonch va hurmat bo'lganda, umumiy maqsadlarga erishish osonlashadi.

8. Shaxsiy rivojlanish: Tinglash va hamkorlik qilish shaxsiy o'sishga yordam beradi. Bu ko'nikmalar odamlarning o'zini yaxshiroq tushunishlariga va boshqalar bilan yaxshi munosabatlar o'rnatishlariga yordam beradi.

9. Ijtimoiy aloqalar va jamoaviy ish: Samarali hamkorlik va tinglash odamlar o'rtasida mustahkam ijtimoiy aloqalar o'rnatishga yordam beradi. Bu aloqalar nafaqat ishda, balki shaxsiy hayotda ham foydalidir.

10. Muammolarni samarali hal qilish: Tinglash va hamkorlik, muammolarni birgalikda hal qilishda yordam beradi. Muammolarni tushunib, birgalikda yechim topish samarali va tezroq natijalarga olib keladi.

4. O'quvchilar faoliyatida va ularni tarbiyalashda muomalaning ro'li.

Bugungi kunda ta'limning zamonaviy modeli jamiyatda erkin fikrlovchi shaxsni shakllantirishga olib kelmoqda. U real maqsad va irodaga ega insonlarni tarbiyalash imkoniyatini beradi. Uzluksiz ta'lim sharoitida ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida o'zini namoyon qila oladigan malakali mutaxassislarni tayyorlash ustuvor vazifa hisoblanadi.

Muloqot - yunoncha so'z, so'zlashuv, suxbatlashuv, shaxslararo suhbat va fikr almashinuv, og'zaki nutq shakli, ikki yoki undan ortiq shaxslarning so'zlatuvidir.

O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi muloqot bo'lishi uchun o'qituvchi etarli darajada qobiliyatga ega bo'lishi kerak, hamda o'z-o'ziga doimo quyidagi savollarni berishi va unga javob berishga harakat qilishi kerak:

Nimaga o'rgatish?

Kimni o'rgatish?

Qanday o'rgatish?

Nimaga o'rgatish:

- a) ilm-fandagi yangiliklarni anglash, yangi fan terminlarini tushunish, o'quv predmetini to'liq o'zlashtirish;
- b) malaka, ko'nikma va qobiliyatni shakllantirish;
- v) o'quv predmetlari o'rtasidagi bog'liqlikni amalga oshirish;
- g) o'quv mazmunini tushunarli tizim asosida ko'rish.

Kimni o'rgatish:

a) o'quvchilarning ba'zi psixik xususiyatlarini (eslab qolish, nutq, fikrlash) hamda ularni qay darajada o'qimishli, tarbiyali ekanliklarini aniqlash; b) o'quvchilarning bir darajadan ikkinchisiga o'tishidagi qiyinchiliklarni oldindan aniqlash;

d) o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etishda bolalariiiig dalillari, fikrlarini hisobga olish;

e) o'quvchilardagi turli psixik o'zgarishlar va rivojlanishni hisobga olib o'z pedagogik mehnatini tashkil etish; d) iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash, yakka holdagi ishni tashkil etish.

Qanday o'rgatish:

-ish jarayonida ishlatiladigan kuch va ketadigan vaqtni hisobga olgan holda o'qitish va tarbiyalashning turli usullari majmuini ishlatish.

O'qituvchining nutq madaniyati kommunikativ faoliyatining asosi hisoblanadi. Tilning nazariy masalalari qanchalik ishlangan meyoriy jihatdan belgilangan bo'lmasin, ularni o'rganishda, ulardan foydalanish va ko'nikmalar hosil qilishda loqaydlik, beparvolik, hatto ma'suliyatizlikka yo'l qo'yish, bugungi kun o'qituvchisiga xos bo'lmagan fazilatdir.

O'quvchilarni tarbiyalashda muomala — o'qituvchining, otanonaning yoki tarbiyachining o'quvchilarga bo'lgan munosabati, ularga qanday yondashishi, ularni tushunishi va ularga ta'sir qilishi bilan bog'liq. Muomala o'quvchining shaxsiy rivojlanishi, axloqiy va ijtimoiy qadriyatlarni singdirishda muhim rol o'ynaydi.

Quyida o'quvchilar faoliyatida va ularni tarbiyalashda muomilaning ro'li haqida batafsil ma'lumot keltirilgan.

1. Muomalaning ta'limdagi ahamiyati. Muomala o'quvchilarning ta'lim jarayoniga qanday kirishishi va o'qituvchi bilan qanday aloqada bo'lishiga ta'sir qiladi. Samarali muomala orqali o'qituvchilar o'quvchilarga quyidagi jihatlarda ta'sir ko'rsatishlari mumkin:

- **Tushunish va qo'llab-quvvatlash:** O'qituvchi o'quvchiga tushunishga va qo'llab-quvvatlashga harakat qilishi kerak. Yaxshi muomala o'quvchini o'ziga ishonch hosil qilishga undaydi va muvaffaqiyatga erishishda yordam beradi.

- **Motivatsiya:** O'qituvchining muomalasi o'quvchining o'qishga bo'lgan motivatsiyasini oshiradi. Yaxshi muomala orqali o'qituvchi o'quvchining qiziqishini uyg'otishi va o'rganish jarayonini qiziqarli va ijobiy qilishga yordam beradi.

- **Tashvish va qo'rquvni kamaytirish:** Salbiy muomala o'quvchilarni qo'rqitishi yoki o'qishga nisbatan tashvishlarini kuchaytirishi mumkin. Shu bois, ijobiy va qo'llab-quvvatlovchi muomala o'quvchining o'zini erkin his qilishiga, xatolardan qo'rqmasligiga imkon beradi.

- **Fikr almashish:** Muomala orqali o'quvchilar bilan ochiq muloqot qilish o'qituvchiga o'quvchilarning fikrlarini, ehtiyojlarini va qiyinchiliklarini tushunishga yordam beradi. Bu esa ta'lim jarayonini yanada samarali qiladi.

2. Muomalaning tarbiyadagi ro'li. Tarbiya jarayonida muomala nafaqat o'quvchining bilim olishiga yordam beradi, balki uning shaxsiy rivojlanishiga ham katta ta'sir ko'rsatadi. Muomalaning tarbiyadagi roli quyidagi jihatlardan iborat:

- **Shaxsiy rivojlanish:** Muomala o'quvchining axloqiy va ijtimoiy jihatdan rivojlanishiga yordam beradi. O'qituvchi o'quvchining harakatlarini to'g'ri yo'naltirib, uni axloqiy qadriyatlar, me'yorlar va ijtimoiy munosabatlarga o'rgatishi mumkin.

- **O'z-o'zini anglash:** Yaxshi muomala o'quvchining o'zini va boshqalar bilan bo'lgan munosabatlarini yaxshiroq tushunishiga yordam beradi. Bu o'z-o'zini anglash, o'z hissiyotlarini boshqarish va jamoa ichida muvaffaqiyatli ishlashga yordam beradi.

- **Me'yorlar va qadriyatlarni singdirish:** O'qituvchining o'quvchilarga bo'lgan muomalasi, o'quvchiga axloqiy va ijtimoiy me'yorlarni o'rgatishning samarali yo'lidir. O'qituvchi, o'quvchilarga haqiqatni, adolatni, o'zaro hurmatni va javobgarlikni o'rgatishda o'z muomalasidan foydalansa, bu ularning tarbiyasini yaxshilashga yordam beradi.

- **Jamoadagi ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish:** O'qituvchining o'quvchilarga bo'lgan muomalasi, jamoadagi ishlash ko'nikmalarini shakllantirishga ham yordam beradi. O'quvchilarni bir-

birini hurmat qilishga, o'z fikrlarini bildirishga va boshqalarni tinglashga o'rgatish muhimdir.

3. Muomala o'quvchilarni tarbiyalashda psixologik asos.

O'quvchilarga bo'lgan muomala psixologik jihatdan ham ahamiyatlidir. Samarali muomala psixologik barqarorlikni ta'minlashga, ijtimoiy va hissiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlashga yordam beradi. Psixologik nuqtai nazardan muomalaning roli:

- **Xavfsiz muhit yaratish:** O'qituvchining yaxshi muomalasi o'quvchida xavfsiz va qo'llab-quvvatlovchi muhitni yaratadi. O'quvchilar o'zlarini erkin his qilishadi va ular o'z fikrlarini aytishda, xatolarni tuzatishda qo'rquvni his qilmaydilar.

- **Stressni kamaytirish:** O'qituvchining ijobiy muomalasi o'quvchilarning o'qish jarayonidagi stress va bosimni kamaytiradi. Ijobiy muomala o'quvchilarda tashvish, uyat va noqulaylik hissini kamaytiradi.

- **Motivatsiya va ichki kuch:** O'qituvchining o'quvchiga bo'lgan muomalasi uning ichki motivatsiyasini va kuchini oshirishga yordam beradi. O'quvchilarga hurmat ko'rsatish, ularga quvvat berish va ijobiy yondashuv o'quvchining muvaffaqiyatga erishish istagini kuchaytiradi.

4. Muomalada ijtimoiy qadriyatlar va etika.

Muomala ijtimoiy qadriyatlar va axloqiy me'yorlarga asoslanadi. O'qituvchi o'quvchiga adolat, halollik, samimiyat, hurmat kabi qadriyatlarni o'rgatishda muhim rol o'ynaydi. Muomala orqali ijtimoiy va axloqiy qadriyatlarni singdirish quyidagicha amalga oshadi:

- **Axloqiy me'yorlarni o'rgatish:** Muomala o'quvchilarga to'g'ri va noxush xatti-harakatlarni ajratishni o'rgatadi. O'qituvchilar o'quvchilarga halollik, mas'uliyat, adolat, o'zaro yordam kabi qadriyatlarni o'rgatish orqali ularni axloqiy jihatdan shakllantiradi.

- **O'zaro hurmat va tushuncha:** O'quvchilarga o'zaro hurmatni shakllantirish, boshqalarni tinglash va ularning fikrlarini hurmat qilishni o'rgatish orqali muomala ta'lim va tarbiya jarayonining ajralmas qismi bo'lib qoladi.

O'quvchilarning faoliyatida va ularni tarbiyalashda muomala juda katta ahamiyatga ega. Ijobiy muomala o'quvchilarning o'zini erkin his qilishiga, ta'lim jarayonida muvaffaqiyatga erishishiga va axloqiy qadriyatlarni o'rganishiga yordam beradi. O'qituvchi va tarbiyachilarning o'quvchilarga bo'lgan muomalasi ularning psixologik

va ijtimoiy rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi, shuningdek, o'quvchilarni hayotga tayyorlashda muhim omil hisoblanadi.

O'qituvchi o'quvchilar bilan bo'ladigan muloqotida quyidagi malakalarni egallagan bo'lishi lozim: tashqi qiyofani nazorat qilish, nutqni egallash, pedagogik munosabat madaniyatini egallash, tashkilotchilik mahorati, o'quv-tarbiya jarayonini boshqarish uslublarini egallash. Munosabatlarni boshqarish uslublari:

1. Avtoritar uslub.
2. Demokratik uslub.
3. Liberal uslub

1. Avtoritar uslub:

- o'zi yakka holda guruh faoliyatini yo'nalishini belgilaydi; - o'zi ko'rsatma-buyruq beradi;
- javobgarlikni o'z bo'yniga oladi;
- so'zsiz bo'ysunishni da'vo etadi;
- qattiq intizomni talab etadi;
- aytilgan narsani to'liq bajarilishini talab etadi;
- gap qaytarganni, gap o'rgatganni yoqtirmaydi. Aytgan tashakkuri ham buyruqdek chiqadi. So'zlari qattiq va qo'pol. Biron bir masalani tushuntirmaydi, lekin talab etadi; muloqotga kirishishning asosiy shakllari: buyruq, ko'rsatma berish, qo'llanma bilan ishlash, xayfsan e'lon qilish;
- muomalada qo'pol, dag'al, do'q-po'pisali majbur etish, qo'rqitish, cho'chitish orqali kirishadi;
- avtoritar uslubning ijobiy tomoni favqulodda vaziyatlar ishlatilishi (yong'inda, suv toshqinda). Munosabatning bu uslubda boshqarilishi atrofdagilar uchun qiyin yoki og'ir ahvol.

2. Demokratik uslub:

- jamoa fikriga tayanib ish olib boradi;
- jamoa fikrini, tashabbusini ma'qullaydi, rivojlantiradi, boshqalar fikriga hurmat bilan qaraydi;
- boshqalar fikrini o'ziniki qilib oladi; - muloqotga kirishishning asosiy shakllari: iltimos maslahat berish, samimiy muomala.

3. Liberal uslub:

- tashabbussiz, jamoa ishiga aralashmaydi, hamma masalalarni yuzaki qarab chiqadi. O'zining fikri yo'q, javobgarlikdan o'zini chetlatadi. Ish natijasi bilan qiziqmaydi;

- bolalarga e'tiborsiz, beg'am qaraydi;
- o'z ishiga sovuqqon.

Ilmiy-pedagogik adabiyotlarda quyidagi munosabat turlari ko'rsatilgan: - hamkorlikdagi munosabat;

- bivosita munosabat;
- do'stona munosabat,
- nosamimiy munosabat;
- oraliqdagi munosabat;
- bekorchi munosabat;
- qo'rquv orqali munosabat;
- dialog va monolog.

5. O'quvchilarning muomalasini tashkil etish.

O'quvchilarning muomalasini tashkil etish, ularning o'zaro munosabatlarini va maktabdagi ijtimoiy faoliyatini boshqarish jarayoni bo'lib, ta'lim jarayonining muvaffaqiyatli bo'lishi uchun muhim ahamiyatga ega. O'quvchilar o'rtasida sog'lom muomala, yaxshi munosabatlar va hamkorlikni shakllantirish, nafaqat ta'lim sifatini yaxshilash, balki o'quvchilarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishini ham ta'minlaydi. O'quvchilarni muloqotga o'rgatish uchun ularga psixologik, pedagogik adabiyotlarni o'qishga tavsiya qilish, muloqot jarayonida yoshlar faoliyatini kuzatish, fikrlashini aniqlash va shu jarayonda psixologik o'yinlar, mashqlar, treninglardan foydalanish muhimdir. O'quvchilar tafakkurini o'stirmay turib, ularning nutqini o'stirib bo'lmaydi. Og'zaki gapirish, bayon yoki insho yozishda o'quvchilarning reja tuzib olishlariga e'tibor berish kerak. Shuning uchun bolalarga yoshligidanoq ijobiy nutq odatlarini tarbiyalashga ahamiyat berish zarur. Shaxs muloqotini shakllantirishda uning yoshi, jinsi, kasbi, dunyoqarashini hisobga olgan holda ish olib borish lozim. Masalan, biz kichik yoshdagi o'quvchiarga kattalarga nisbatan qo'llaydigan so'zlarni ishlatmaymiz. Har bir yosh davriga kiradigan kishilarga o'ziga xos so'zlar qo'llaniladi. Bunda so'zning ta'sir kuchi hisobga olinadi. Shaxsni temperament xususiyatlariga qarab muloqot usullarini qo'llash katta ahamiyatga ega.

Muloqot qonuniyatlarini bilish hamda uni o'rnatish malakalari va qobiliyatlarini rivojlantirish har bir kishi uchun muhimdir. O'qituvchi o'quvchiga bilimlarni ma'lum qiladi va o'z navbatida teskari aloqa tarzida undan ma'lum qilingan bilimlar qanday o'zlashtirilganligi haqida tasavvur hosil qiladigan axborot oladi. O'zaro

birgalikdagi harakat mohiyatlar darajasida amalga oshiriladi. O'quvchilar muloqotining shakllanishida maqsad to'g'ri qo'yilishi lozim. O'quvchilarda muloqot ta'lim-tarbiya jarayonida, turli vaziyatlarda rivojlanadi.

- Muomala madaniyatining nazariy asoslarini;
- Shaxslararo munosabatlar qonuniyatlarini;
- Pedagogik muloqotning qonuniyatlarini;
- Guruh va jamoalarda muloqotga qo'yiladigan asosiy talablar haqida tasavvurga ega bo'lishi;
- Muomala madaniyatini barcha guruh va jamoalarda shakllantirish;
- Guruhlarda muloqotni shakllantirish metodikalarini o'tkazish;
- Muloqot madaniyatini shakllantirish maqsadida psixologik maslahatlar tashkil teish yuzasidan ko'nikmalar hosil qilish;

Muloqot madaniyati yoshlikdan oilada, ijtimoiy muhit ta'sirida, o'z-o'zini anglash, tarbiyalash oqibatida shakllanishi mumkin. Biz kattalar yoshlarga namuna, ibrat bo'lishimiz bir-birimizga bo'lgan muloqotimizdan kelib chiqadi. "Oltin so'zlar"(azizim, aylanay, o'rgilay, juda ham ajoyibsiz, bugun boshqachasiz, ochilib ketibsiz, kiyimingiz juda yarashibdi kabi) dan kundalik hayotimizda ko'proq foydalanishimiz zarur. Kattalar muloqotiga yoshlar taqlid qilishlari orqali ularda muomala san'ati, madaniyati shakllanib boradi.

Muloqot muvaffaqiyatining negizi o'quvchining ruhiy dunyosi, ehtiyojlari motivatsiyasi, harakter hislati, individual-tipologik xususiyati, qobiliyati, e'tiqodi kabi insonning fazilatlarini, sifatlarini namoyon bo'lishi, rivojlanishi hisoblanadi. Muloqot jarayonida muloqotdoshlarning tasavvurlari, qiziqishlari, his-tuyg'ulari, ko'nikmalari, voqelik natijasini oldindan sezish, payqash, ta'sir o'tkazish uslubi tarkib topishi mumkin

O'quvchilar o'rtasida ijtimoiy muhitni yaratish. Sog'lom muomalani tashkil etishning asosiy jihatlaridan biri – bu o'quvchilar o'rtasida ijtimoiy muhitni yaratishdir. Maktabda ijtimoiy muhitni ijobiy tarzda shakllantirish, o'quvchilarning o'zaro hurmat va mehr-muhabbatga asoslangan munosabatlarini rivojlantiradi. Buning uchun:

- O'quvchilarga bir-birini hurmat qilishni o'rgatish: O'zaro hurmat va adolat tamoyillari, bir-birining fikrlarini tinglash va qadrlash o'quvchilarning muomalasida muhim rol o'ynaydi.

- Tenglikni ta'minlash: O'quvchilarni bir-biriga teng, adolatli va hurmatli munosabatda bo'lishga chaqirish.

Muomala madaniyatini rivojlantirish. O'quvchilar o'rtasidagi muomala madaniyati, ularning maktabda o'zini qanday tutishini belgilaydi. Muomala madaniyati – bu so'zlashish, xulq-atvor, hissiyotlar va fikrlarni ifodalash usullarini o'z ichiga oladi. Muomala madaniyatini rivojlantirish uchun quyidagi usullarni qo'llash mumkin:

- Ijobiy motivatsiya: O'quvchilarni ijobiy xulq-atvor uchun rag'batlantirish va yaxshi muomala ko'rsatganlarni taqdirlash;

- O'quvchilarga namunali xulq-atvorni ko'rsatish: O'qituvchi o'z xulq-atvorini o'quvchilarga namuna sifatida ko'rsatishi, o'quvchilarning to'g'ri muomala madaniyatini rivojlantirishga yordam beradi;

- Xatoliklarni tushunish va tuzatish: O'quvchilar o'rtasida yuzaga kelgan nizolarni hal qilishda xatoliklardan saboq olish va ularni to'g'rilash muhimdir.

O'quvchilarning hissiy holatini boshqarish. Muomala faqat mantiqiy emas, balki hissiy jihatdan ham o'quvchilarni tarbiyalashni talab qiladi. O'quvchilar bir-birini tushunish, bir-birining hissiyotlariga hurmat bilan qarashni o'rganishlari kerak. O'quvchilarning hissiy holatlarini boshqarish uchun:

- Empatiya rivojlantirish: O'quvchilarga boshqalarning hissiyotlarini tushunishni, ularning kayfiyatini sezishni va unga qarab munosabatda bo'lishni o'rgatish;

- Stressni boshqarish: O'quvchilarga stressli vaziyatlarda o'z hissiyotlarini boshqarish va muammoni hal qilish usullarini o'rgatish;

- Jamoaviy faoliyatlar: O'quvchilarni birgalikda ishlashga, yordam berishga va muammolarni birgalikda hal qilishga rag'batlantirish.

Ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish. O'quvchilarning ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirish, ular o'rtasidagi muomalani samarali tashkil etish uchun zarurdir. Ijtimoiy ko'nikmalar – bu boshqa odamlar bilan muvaffaqiyatli munosabatlar o'rnatish, muloqot qilish va guruhda ishlash qobiliyatidir. Ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish uchun:

- Muloqot qilishni o'rgatish: O'quvchilarga samarali muloqot qilish, fikrini aniq ifodalash, boshqalarning fikrini hurmat qilishni o'rgatish;

- Hamkorlik va jamoa ishini o'rgatish: O'quvchilarga guruhda ishlashni, o'zaro yordam berishni, umumiy maqsadga erishish uchun birgalikda ishlashni o'rgatish.

Nizolarni hal qilish. Maktabda o'quvchilar o'rtasida turli xil nizolar yuzaga kelishi tabiiydir. Nizolarni samarali hal qilish, o'quvchilarni o'zaro muomala madaniyatini rivojlantirishga yordam beradi. Buning uchun:

- Konstruktiv munozara: O'quvchilarga o'z fikrlarini tinch va muloyim tarzda ifodalashni, muammo yuzasidan munozara olib borishni o'rgatish;

- Boshqalarning fikrini eshitish: Nizolarni hal qilishda barcha tomonlarning fikrlarini tinglash, ularning pozitsiyasini tushunishga harakat qilish;

- O'rtada o'rtacha qaror topish: O'quvchilarni nizolarni o'zaro kelishuv orqali hal qilishni o'rgatish.

O'quvchilarning muomalasini tashkil etish, nafaqat ta'lim jarayonida, balki ularning ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishida ham katta ahamiyatga ega. Yaxshi muomala madaniyati va sog'lom ijtimoiy munosabatlar o'quvchilarning bir-biriga hurmat bilan qarashini, o'zaro yordam berishni, stressni boshqarishni va muammolarni birgalikda hal qilishni o'rganishlariga yordam beradi. Maktabda o'quvchilarning muomalasini tashkil etish uchun ijobiy motivatsiya, emotsional va ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish zarurdir. Bu o'z navbatida ta'lim sifatini oshirish va o'quvchilarning jamiyatda muvaffaqiyatli bo'lishiga yordam beradi.

Savol va topshiriqlar?

1. Muomala va muloqotning o'zni haqida o'ylab ko'rsangiz, boshlang'ich sinfda tarbiyalanuvchilar bilan to'g'ri muomala qanday ahamiyatga ega?

2. O'quvchilarga o'zaro hurmat va e'tibor ko'rsatishni qanday usullar bilan o'rgatish mumkin?

3. Sizning fikringizcha, o'quvchilar o'rtasidagi yaxshi muomala va muloqot maktabdagi ta'lim sifatiga qanday ta'sir qiladi?

4. Tarbiyalanuvchilar bilan ijtimoiy muloqotda qanday xatoliklar ko'rinadi va ularni qanday tuzatish mumkin?

5. Boshlang'ich sinfda tarbiyalanuvchilarni o'z fikrlarini erkin ifodalashga qanday rag'batlantirish mumkin?

6. Yaxshi muomala madaniyatini shakllantirish uchun o'qituvchi qanday xulq-atvorlarni o'rnak sifatida namoyish etishi kerak?

7. O'quvchilar o'rtasida kelib chiqadigan nizolarni hal qilishda qanday muloqot usullari samarali bo'lishi mumkin?

8. O'quvchilarga muloqot qilishda empatiya ko'rsatishni qanday o'rgatish mumkin?

9. Tarbiyalanuvchilarni jamoada ishlashga va hamkorlikka qanday jalb etish mumkin?

10. Agar o'quvchi o'z fikrini ifodalashda qiynalsa, ularni qanday tarzda qo'llab-quvvatlash mumkin?

Test:

1. O'qituvchi o'quvchilarga qanday munosabatda bo'ladi?

a) doimiy tarzda qat'iy va jazo bilan;

b) ochiq va hurmatli;

d) faqat o'z fikrini bildiradi, o'quvchilarning fikrini e'tiborsiz qoldiradi;

e) o'quvchilarni qoralash va ular bilan savol-javob o'tkazish;

2. O'qituvchi o'quvchilarga qanchalik motivatsiya beradi?

a) hech qanday motivatsiya bermaydi;

b) o'quvchilarga doimiy rag'batlantirish va ilhomlantirish bilan yondashadi;

d) faqat o'zining o'qituvchilik metodlarini majburan amalga oshiradi;

e) faqat darsni tugatish va yakunlash bilan cheklanadi;

3. O'qituvchi o'quvchilarning individual ehtiyojlarini qanday qondiradi?

a) hammasini bir xil tarzda o'qitadi;

b) har bir o'quvchining qobiliyatiga mos keladigan metodlar bilan ishlaydi;

d) o'quvchilarni xatolarga yo'l qo'yishga majbur qiladi;

e) hech qanday individual yondoshuvni ko'rsatmaydi;

4. O'qituvchi o'quvchilarni qanday baholaydi?

a) faqat imtihonlarda olingan ballarga qarab;

b) o'quvchilarning faolligi, mehnati va ishlarining sifatini baholaydi;

d) hech qanday baholash tizimi yo'q;

e) faqat so'nggi natijalarga qarab baholaydi;

5. O'qituvchi o'quvchilarga qanday fikr bildirish usulini tanlaydi?

a) faqat tanqidiy fikrlar;

b) salbiy fikrlarni doimiy ta'kidlab turadi;


- d) o'quvchilarning qobiliyatini va mehnatini qo'llab-quvvatlaydi;
 - e) o'quvchilarga faqat nima qilishlarini buyuradi;
6. O'qituvchi o'quvchilar bilan qanday muloqot qilish kerak?
- a) har doim qat'iy va jazo berish usuli bilan;
 - b) ochiq, samimiy va hurmatli muloqotda bo'lish;
 - d) faqat o'quvchilarning yomon xatti-harakatlarini ta'kidlab turish;
 - e) o'quvchilarni umuman eshitmaslik;
7. O'qituvchining o'quvchilarga motivatsiya berish usuli qanday bo'lishi kerak?
- a) faoliyatini faqat jazo bilan rag'batlantirish;
 - b) o'quvchilarning kichik muvaffaqiyatlarini ham qadrlab, ularga ilhom berish;
 - d) faqat yuqori baholarni ko'rsatib, boshqa taraflarini e'tiborsiz qoldirish;
 - e) o'quvchilarga faqat o'z fikrlarini taqdim etish, ular bilan muloqotda bo'lmaslik;
8. O'qituvchining o'quvchilarga hurmat ko'rsatishi qanday ta'sir ko'rsatadi?
- a) o'quvchilarni ko'proq qo'rqitadi;
 - b) o'quvchilarning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi va faoliyatni yaxshilaydi;
 - d) o'quvchilarda o'rganishga bo'lgan qiziqishni kamaytiradi;
 - e) o'quvchilarni xafa qiladi va darsga qiziqmasliklariga sabab bo'ladi;
9. O'qituvchi o'quvchilarning individual ehtiyojlariga qanday yondoshishi kerak?
- a) har bir o'quvchiga teng darajada yondashib, umumiy metodlarni qo'llash;
 - b) o'quvchilarni faqat o'rganishning yakuniy natijalari asosida baholash;
 - d) o'quvchilarning shaxsiy xususiyatlariga mos ravishda yondoshish, ularning ehtiyojlarini tushunish va qo'llab-quvvatlash;
 - e) faqat kuchli o'quvchilarga e'tibor berish;
10. O'qituvchi o'quvchilarga qanday xulq-atvor ko'rsatishi kerak?
- a) o'quvchilarni jazolash va doimiy ravishda tanqid qilish;
 - b) o'quvchilarning g'alabalarini kutib, ular bilan birgalikda muvaffaqiyatni nishonlash;
 - d) faqat o'zining xatolarini tan olib, o'quvchilarni savollar bilan qo'rqitish;

e) o‘quvchilarni umuman e’tiborsiz qoldirish.

“Loyiha metodi”

Loyiha o‘rganishga xizmat qilishi, nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etishi, ta’lim oluvchilar tomonidan mustaqil rejalashtirilish, tashkillashtirish va amalga oshirish imkoniyatini yarata oladigan bo‘lishi kerak.

Quyidagi chizma orqali loyiha metodining foydalanish bosqichi keltirib o‘tilgan.



II MODUL. BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA TARBIYAVIY ISHLAR TIZIMIDA SINFLAR RAHBARINING FAOLIYATI.

7-mavzu. Boshlang‘ich ta‘limda tarbiya jarayonini amalga oshirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish.

Reja:

1. Tarbiya jarayonini amalga oshirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish.
2. Sinfdan tashqari tarbiyaviy mashg‘ulotga tayyorlanish.
3. “Didaktik tizim” tushunchasi. Didaktik qarashning falsafiy-metodologik jihati
4. Insonparvarlik tarbiyaviy tizim sifatida.
5. Jamoa va shaxs.
6. Tarbiyaviy ishlarda qo‘llaniladigan texnologiyalar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mavlonova R., Raxmonqulova N., Normurodova B. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. -T.: Tib-kitob, 2010 y.
2. Ishmuhammedov R., Abduqodir A., Pardayev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar. -T.: Fan va texnologiya, 2010 y.
3. Олесникова, И.А., Н.М.Борытко и др. Воспитательная деятельность педагога. Учебное пособия. М.: Академия, 2006-333 с.
4. Подласый И.П. Педагогика 2-я часть -М.: ВЛАДОС, 2003 г.
5. Mirziyoyev Shavkat Miromonovich. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga ko‘ramiz. Mazkur kitobdagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2016-yil 1-noyabrdan 24-noyabrga qadar Qoraqolpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent sharhi saylovchilari vakillari bilan o‘tkazilgan saylovoldi uchrashuvlarida so‘zlagan nutqlari o‘rin olgan. / Sh.M.Mirziyoyev.- Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017.- 488 b.
6. [hppt://www.ziynet.uz/](http://www.ziynet.uz/)
7. www.relarn.ru/conf2007

Tayanch tushunchalar. Tarbiya, innovatsiya, texnologiya, sinfdan tashqari ish, didaktika, didaktik tizim, insonparvarlik, jamoa, shaxs.

1. Tarbiya jarayonini amalga oshirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish.

Innovatsion texnologiyalar zamonaviy tarbiyada asosiy o‘rin tutadi, tarbiya jarayonining turli jabhalariga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Bilim olish imkoniyatlarini yaxshilash - internet va onlayn materiallardan foydalanish orqali o‘quvchilar ilgari mavjud bo‘lmagan ko‘plab bilim va ma’lumotlarga ega bo‘lishlari mumkin. Bu tarbiya imkoniyatlarini kengaytirish va o‘qish uchun kengroq bilimlarni taqdim etish imkonini beradi.

Tarbiyani faollashtirish - interfaol darslar, vebinarlar, o‘yin texnologiyalari va boshqa innovatsion o‘qitish usullari orqali talabalar o‘quv jarayonining faol ishtirokchilariga aylanadi. Bu talabalarning faolligini oshiradi va yanada samarali o‘rganishni ta’minlaydi. Talabalarning motivatsiyasini oshirish - zamonaviy texnologiyalardan foydalanish o‘quv jarayonini talabalar uchun yanada qiziqarli qiladi. Turli xil tarbiya usullari, zamonaviy ilovalar va o‘yin elementlaridan foydalanish imkoniyati o‘rganishga qiziqishni rag‘batlantirish va o‘quvchilar motivatsiyasini yaxshilashga yordam beradi. Ijodkorlik va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish - innovatsion texnologiyalar o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi, chunki ular tajriba o‘tkazish, innovatsion yechimlarni izlash va yangi g‘oyalarni ishlab chiqish imkonini beradi. Bundan tashqari, texnologiyadan foydalanish ham tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi, bunda talabalar axborotni tahlil qilish, xulosa chiqarish va muammolarni mustaqil ravishda hal qilishni o‘rganadilar.

Tarbiya faoliyatidagi asosiy innovatsion texnologiyalar bular interfaol doska va onlayn kurslardan foydalanish, virtual va kengaytirilgan reallik, tarbiya uchun mobil ilovalar, bulutli texnologiyalar kiradi.

Interfaol doska va onlayn kurslardan foydalanish: Interfaol doskalar qiziqarli va interfaol tarbiya imkoniyatlarini ta’minlaydi hamda o‘qituvchilarga materialni tushuntirishda turli usullardan foydalanish imkonini beradi. Onlayn kurslar tarbiya olish imkoniyatini kengaytiradi va mos keladigan vaqtda mustaqil ravishda o‘rganish imkoniyatini beradi. Virtual va kengaytirilgan reallik: Bu texnologiyalar o‘quvchilar virtual olamlarga sho‘ng‘ishlari yoki kengaytirilgan real dunyo ob’yektlari bilan o‘zaro aloqada bo‘lishlari mumkin bo‘lgan immersiv o‘quv muhitini yaratishga imkon beradi, bu

esa ularning o'quv materialini tushunishini chuqurlashtiradi. O'rganish uchun mobil ilovalar: Mobil ilovalar o'quvchilarga istalgan joyda va istalgan vaqtda o'qish imkoniyatini beradi, bu esa o'quv jarayonini yanada moslashuvchan va qulayroq qiladi. Ushbu ilovalar turli xil o'quv materiallari, testlar, viktorinalar va boshqa o'rganish imkoniyatlarini ko'rsatadi. Bulutli texnologiyalar: Bulutli yechimlar o'quvchilar va o'qituvchilarga oson ma'lumot almashish, o'quv materiallarini saqlash va hamkorlikda loyihalar ustida ishlash imkonini beradi. Bu tarbiya resurslaridan foydalanishni yaxshilash va tarbiya samaradorligini oshirishga yordam beradi. Interfaol o'qitish usullaridan foydalanish va boy multimedia kontentidan foydalanish o'quvchilarni yanada samaraliroq o'rganishga yordam beradi. Bilimlarni yangilash: Innovatsion texnologiyalar o'quv materialini tez va oson yangilash, tarbiya va fan sohasidagi zamonaviy tendentsiyalar va yangi kashfiyotlarni kuzatish imkonini beradi. Darslarning interfaolligi va faolligi: Interfaol doska, onlayn o'yinlar, vebinarlar va elektron ta'limning boshqa shakllari kabi texnologiyalardan foydalanish o'quvchilar uchun o'rganishni yanada qiziqarli va jozibador qiladi, bu esa faol ishtirok etish va o'rganish motivatsiyasini oshirishga yordam beradi.

Binobarin, pedagog kadrlar tayyorlash zarurati innovatsion texnologiyalarni tarbiya jarayoniga muvaffaqiyatli joriy etish yo'lida jiddiy to'siq bo'lishi mumkin. Hamma o'qituvchilar yangi texnologiyalarni o'rganishga va ulardan foydalanishga tayyor emas, bu esa o'qituvchilar tomonidan yetarli darajada qo'llab-quvvatlanmasligiga olib kelishi mumkin. Texnologiyaga bog'liqlik xavfini ham hisobga olish kerak. Texnologiyaga haddan tashqari ko'p qaramlik tarbiya samaradorligini pasayishiga olib kelishi mumkin, shuningdek, texnik nosozliklar yoki internetda uzilishlar yuz berganda muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Innovatsion texnologiyalarni o'quv jarayonida qo'llashning jiddiy kamchiligi ham kontent sifatining yetarli emasligi bo'lishi mumkin. Past sifatli yoki eskirgan kontent bilimlarni samarali yetkazib bera olmasligi va o'quvchilarni o'rganishga undamasligi mumkin. Umuman olganda, kamchiliklarga qaramay, tarbiya jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish tarbiya sifatini oshirish va o'quvchilar motivatsiyasini oshirishda katta imkoniyatlarga ega. Texnologiyani uning afzalliklari va kamchiliklarini hisobga olgan holda to'g'ri baholash va undan foydalanish,

fikrmulohazalar va tajribalar asosida o'quv jarayonlarini doimiy ravishda takomillashtirish muhim ahamiyatga ega.

Zamonaviy tarbiya sharoitida onlayn tarbiyadan foydalanish o'zining ijobiy va salbiy tomonlariga ham ega. Muayyan tarbiya dasturi yoki tarbiya muassasasi uchun onlayn tarbiyadan foydalanish qanchalik samarali bo'lishi haqida xulosalar tayyorlashning o'ziga xos xususiyatlari va maqsadlaridan kelib chiqqan holda, shuningdek, o'quvchilar va o'qituvchilarning ehtiyojlari va imkoniyatlarini hisobga olgan holda amalga oshirilishi kerak. Tarbiyaning maksimal samaradorligi va sifatini ta'minlash uchun onlayn tarbiya jarayonlarini doimiy ravishda ko'rib chiqish va takomillashtirish ham muhimdir.

2. Sinfdan tashqari tarbiyaviy mashg'ulotga tayyorlanish.

O'rta umumta'lim maktab o'quvchilari ta'lim-tarbiya sifatini yaxshilash uchun o'qituvchi va tarbiyachilar sinfdan va maktabdan tashqari ishlar imkoniyatidan keng ravishda foydalanadilar. Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarga turli anjumanlar, kechalar, o'tkir zehnlilar musobaqasi, ekskursiyalar o'tkazish, kino-teatrlarga borish, zavod va fabrikalarga ekskursiya tashkil etish, devoriy gazetalar chiqarish va boshqalar kiradi.

Sinfdan tashqari ishlar ikki turga bo'linadi: ta'limiy va tarbiyaviy. Sinfdan tashqari ta'lim ishlariga maktabda ma'lum fan yuzasidan tashkil etiladigan ishlar: to'garaklar, olimpiadalar kiradi. Biz ushbu kurs ishimizda mavzuimiz muammosi yuzasidan sinfdan tashqari tashkil etiladigan tarbiyaviy ishlarga ko'proq to'xtalamiz.

Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarning asosiy maqsadi va vazifasi o'quvchilarning axloqiy, mehnat, estetik tarbiyasini yaxshilashdir. Sinfdan tashqari ishlar o'quvchilar qobiliyatini rivojlantiradi, o'qishga bo'lgan havasini oshiradi va ular shaxsini har tomonlama rivojlantirish uchun imkoniyat tug'diradi.

Sinfdan tashqari ishlarning asosiy xususiyati shundan iboratki, ular maktab bilan hayot aloqasini mustahkamlaydi. Sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish san'atkorlar, ishchilar, olimlar, dehqonlar hayoti bilan yaqindan tanishish imkoniyatini beradi. O'quvchilar turli sohalarda ishlayotgan kishilar bilan tanishib, ular kabi Vatanga, xalqqa xizmat qilish istagi paydo bo'ladi.

Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar ixtiyoriy xarakterga ega. Bolalar bunday ishlarga o'z hohishlari bilan ishtirok etishadilar. Bir kishi bir necha tadbirlarda ham qatnashishi mumkin.

Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar majburiy mashg'ulotdan tashqari o'tkaziladigan tadbirlar kiradi. Maktabdan tashqari ishlarni asosan bolalar va o'smirlar tashkilotlari o'tkazadilar.

Sinfdan va maktabdan tashqari ishlar o'quvchilar darsda hamma uchun majburiy bo'lgan o'quv dasturiga muvofiq ravishda o'tkaziladigan ta'lim va tarbiya ishlarining davomi va yanada rivojlantirilishidir. Shu asosda sinfdan va maktabdan tashqari ishlar o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, o'quvchilarning darsdagi ishlari takrorlanmaydi. Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarning asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarning umummilliy va maxsus bilimlarini kengaytirish, turli xil ijodiy qobiliyatlarini, iste'dodlarini aniqlash va rivojlantirishga yordam beradi, ularda tashabbuskorlik va mustaqillik sifatlarini tarbiyalaydi.

O'quvchilar bilan olib boriladigan sinfdan va maktabdan tashqari ishlar tarbiyaning umumiy tamoyillari asosida quriladi. Shu bilan birga turli xil mashg'ulot va tadbirlarni tashkil etishda o'ziga xos tamoyillar mavjud. Bu tamoyillarni ko'rib chiqamiz.

1. O'quvchilar bilan olib boriladigan barcha sinfdan va maktabdan tashqari ishlar milliy istiqlol g'oyasi asosida bo'lishi lozim.

2. O'quvchilarning sinfdan tashqari ishlarining ma'lum bir bo'limini, shakllari va mazmunini qiziqish va qobiliyatlarni hisobga olgan holda ixtiyoriy tanlashi kerak.

3. Sinfdan va maktabdan tashqari ishlar ommaviy xarakterga egadir.

4. To'garaklarni tashkil etishda va sinfdan tashqari tadbirlarni o'tkazishda o'quvchilarning mustaqilligi va tashabbuskorligiga tayanish lozim.

5. Sinfdan va maktabdan tashqari ishlar ijtimoiy foydali yo'nalishda va ijodiy xarakterga ega bo'lishi lozim.

6. Sinfdan va maktabdan tashqari barcha tadbirlar maktab ta'lim-tarbiya ishlarining vazifalariga bo'ysunishi shart.

Ana shu tamoyillarni hisobga olib sinfdan va maktabdan tashqari tashkil etilganda ularning samarasi va natijasi ko'proq bo'ladi.

Yuqorida qarab chiqilgan har bir qismga taalluqli sinfdan va maktabdan tashqari ishlar turli to'garaklarda, klublarda jamiyatlarda,

ommaviy tadbirlarni o'tkazish jarayonida amalga oshiriladi. Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarning barcha shakllarini uch guruhga bo'lish mumkin:

1. O'quvchilarning individual ishlari;
2. To'garaklar, ulardan har biri konkret faoliyat turi bilan qiziquvchi nisbatan oz sonli o'quvchilarni qamrab oladi;
3. Ko'pchilik o'quvchilar uchun tashkil etiladigan ommaviy tadbirlar.

Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarning muvaffaqiyati ko'p jihatdan uning rejalashtirilishiga bog'liq. Barcha tarbiyaviy ishlar o'quv yilining boshida maktab direktorining ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha muovini tomonidan hamma sinf rahbarlari bilan maslahatlashgan holda rejalashtiriladi.

Rejada ushbu masalalar ko'zda tutiladi:

1. To'garaklar ro'yxati va ularning rahbarlari.
2. To'garaklarni jihozlash, asboblari va qo'lyozmalar bilan ta'minlash.
3. To'garaklar faoliyati jadvali.
4. Sinfdan va maktabdan tashqari ommaviy tadbirlar grafigi.
5. Ommaviy madaniy tadbirlarda ishtirok etuvchilar hay'ati va mas'ul kishilar.

Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarni hayotga tatbiq etish jarayonida pedagoglar bolalarning mustaqilligini ta'minlashlari zarur.

O'quvchilarning mustaqilligi turli darajalarda bo'lishi mumkin. Ayrim o'quvchilar topshiriq va vazifalarni faol va mustaqil holda bajaradilar, ya'ni pedagoglarning ushbu ishga aralashishi shart emas. Bolalar pedagog yordamisiz ishlaydilar. Bu yerda o'qituvchining aralashuvi maqbul emas, chunki bunday munosabat bolalarning mehnatsevarligi, tashabbuskorligini shakllantirishda imkoniyatlarni cheklaydilar. O'quvchi mustaqil harakat qilib, lekin o'z ishini tarbiyachining fikriga bog'liq qilib qo'ygan paytda tobe mustaqil holat vujudga keladi. Ish zo'r ishtiyoq bilan bajarilsa ham, mustaqil ishni bajarayotgan bolaning harakatlarida ishonsizlik jihatlari ko'zga ko'rinadi.

O'qituvchilar va sinf rahbarlari sinfdan va maktabdan tashqari ishlarni rejalashtirish va amalga oshirish jarayonida o'quvchilarning mustaqillik darajasini hisobga olishlari va shu asosda o'z shogirdlarini turli tadbirlarga jalb etishlari lozim.

Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar tashkilotchisining vazifalariga quyidagilar kiradi:

Darsdan tashqari tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish va amalga oshirish.

O'quvchilarni maktabdan va sinfdan tashqari ko'p qirrali ishlarni pedagogik jamoa, o'quvchilar, tashkilotlar, sinf faollari yordamida yo'lga ko'yish. Sinfdan va maktabdan tashqari ishlar yo'nalishiga bevosita rahbarlik qilgan holda o'qituvchilar, sinf rahbarlari, ota-onalar o'quvchilar, tashkilotchilar sinf faollariga yordam ko'rsatish. Umummaktab va maktablararo tarbiyaviy tadbirlarga qatnashish. O'quvchilarning bo'sh vaqtlarini tashkil qilishda tarbiya va madaniyat muassasalari hamda jamoatchilik kuchidan keng foydalanish. Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarni maktabning ma'naviy-ma'rifiy ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari o'z ishini reja asosida olib boradi va uning bajarilishini ham nazorat qilib boradi. Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarni maktabning umumiy rejasi, o'qituvchilar, sinf rahbarlari, etakchi ota-onalar qo'mitasi, ish rejaları ishini ham e'tiborga olishi kerak. Ish reja maktab direktorii tomonidan tasdiqlangan. Ish rejasida boalarning yosh xususiyatlariga maktabning joylashgan shart-sharoitiga, ijodiy birlashmalariga ilmiy markazlar bilan o'zaro tarqalgan aloqasi kabi ishlarni inobatga oladi. Direktor o'rinbosarining faoliyati o'z ifodasini topgan xujjatlar ro'yxati xalq ta'limi vazirligi tomonidan doimiy ravishda beri boriladi.

Ijodkor rahbar hamda ilg'or o'qituvchi tarbiyachilar o'z faoliyatlar ijarayonida tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishda quyidagi tamoyillarni asos qilib oladilar:

- tarbiyaviy tadbirlarni o'tkazish;
- ma'naviyatni yosh avlod ongiga singdirish e'tiqodga aylantirishdan iborat ekanligi;
- tarbiya jarayoni milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan bog'lab bola qalbiga va ongiga ta'sir ko'rsatish;
- tarbiyaviy ishlarni o'quvchilar jamoasi jipslashtiruvchi omillar bilan boyitib tarbiyaning ta'lim bilan uzviyligini ta'minlash;
- tarbiyaviy jarayonda bolalarni tarbiyalash darajasini aniqlash va ijobiy tomonlarini o'stirish;
- bola shaxsiga xurmat va talabchanlik;
- bolalarning yosh va ruhiy holatini hisobga olish.

3. “Didaktik tizim” tushunchasi. Didaktik qarashning falsafiy-metodologik jihati.

Didaktik tizim deganda ma’lum mezonlarga ko‘ra tanlangan yaxlit ta’lim tushuniladi. Didaktik tizimlar ekskursiyaning ichki yaxlitligi bilan ajralib turadi, maqsadlar, tashkiliy tamoyillar, mazmuni, o‘qitish shakllari va usullarining birligi bilan shakllanadi. Tuzilmalarning o‘ziga xos xususiyati bugungi tadqiqotchilarga uchta tubdan farq qiladigan didaktik tizimni ajratib olishga imkon beradi:

1. I.F.Gerbartning didaktik tizimi (didaktika);
2. D. Devining didaktik tizimi;
3. Zamonaviy mukammal tizim.

Nemis faylasufi va pedagogi I.F.Gerbart (1776-1841), Ya.A.Komenskiyning an’anaviy sinf-dars tizimini tanqidiy qayta ko‘rib chiqdi.

Komenskiy, axloq va psixologiyaning nazariy yutuqlari asosida “pedagogikaning ilmiy tizimini” yaratdi. Gerbartning fikriga ko‘ra, ta’limning eng yuqori maqsadi yuksak axloqiy fazilatlariga ega shaxsni, axloqiy jihatdan kuchli xarakterli shaxsni shakllantirishdir. Uning fikricha, ta’lim quyidagi axloqiy g‘oyalarga asoslangan bo‘lishi kerak:

- shaxs intilishlarining yo‘nalishini, faoliyat sohasini va salohiyatini belgilaydigan mukammallik;
- xayrixohlik, o‘z irodasini boshqalarning irodasiga muvofiqlashtirish va bo‘ysunishni ta’minlash;
- odamlar o‘rtasidagi ziddiyatlarning kuchayishiga yo‘l qo‘ymaslik va b.

Didaktik tizimni yaratar ekan, zamonaviy psixologiyadan Gerbart ikkita asosiy g‘oyaga tayandi:

- irsiy yoki orttirilgan ruhiy moyillik mavjud emas;
- barcha aqliy hayot g‘oyalar asosida shakllanadi.

Gerbartning psixologiyasi va etikasi metafizik xarakterga ega edi va u taklif qilgan didaktika nemis idealistik falsafasiga asoslangan edi. Gerbart o‘qitish tizimining asosiy xususiyatlari quyidagilar edi. Maktabning asosiy vazifasi – tahsil oluvchilarning intellektual rivojlanishiga g‘amxo‘rlik qilish, tarbiya esa oila masalasidir. Axloqiy jihatdan kuchli xarakterlarni shakllantirish uchun to‘g‘ri pedagogik etakchilik, intizom va shu bilan bog‘liq ta’lim xizmat qiladi.

Amerika faylasufi, psixologi va pedagogi Jon Dyuning didaktik tizimi jamiyat va ta’lim muassasasining izchil rivojlanishi bilan

ziddiyatga kelgan gerbartchilarning avtoritar didaktik tizimiga qarshi turish maqsadida ishlab chiqilgandi.

J.Dyui tomonidan intizomiy choralar asosida tahsil oluvchilarga yuzaki ta'lim berish tanqidga uchradi. Shuningdek, pedagog hayot bilan bog'liq bo'lmagan ta'limning eskirgani; tahsil oluvchilarga "tayyor" bilimlarni berish, yodlashga qaratilgan "passiv" usullardan foydalanish; talabalarning qiziqishlari, ehtiyojlari yetarli darajada hisobga olinmaganligi; ta'lim mazmunini ijtimoiy ehtiyojlardan ajratish; talabalarning qobiliyatlarini rivojlantirishga etarlicha e'tibor bermaslik jiddiy pedagogik xatolarga olib kelishi mumkinligini ta'kidlaydi.

Didaktik tizim ta'lim muassasasining maqsadi, vazifasi, ta'lim muassasasi tomonidan tanlangan model, strategiyalari orqali tavsiflanadi. Ya'ni ijtimoiy tizim turlaridan biri hisoblangan pedagogik tizim–yosh avlodga ta'lim va tarbiya berish, pedagogik jarayonlarni tashkil etish maqsadlariga xizmat qiluvchi turli strukturaviy va funksional bog'liq bo'lgan komponentlar majmuidan iboratdir. Pedagogik tizim belgilangan maqsad yo'nalishida, sub'ektlar faoliyatini muvofiqlashtirish, rahbarlar va pedagog xodimlarning funksional vazifalarini amalga oshirish va boshqarishda tashqi muhit bilan o'zaro ta'sir ko'rsatuvchi, alohida xususiyatlarga ega bo'lgan o'zaro bog'liq qismlarning yaxlit holda vujudga kelishidir. Ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan pedagogik jarayonlar, ya'ni ma'ruza, seminar, amaliy mashg'ulot, to'garak mashg'ulotlari, ekskursiya, davra suhbat, uchrashuvlar, fanlar bo'yicha tashkil etiladigan musobaqa va tanlovlar, san'at festivallari, konferensiya, va boshqa turli yo'nalishlardagi tadbirlar, mustaqil ta'lim, o'zini-o'zi tarbiya, mustaqil ma'lumot, mustaqil ishlar, kurs ishlari, bitiruv malakaviy ishlar, tarbiyaviy munosabatlar jarayoni (inson-inson, inson-texnikainson, inson-kitobinson, inson-tabiati-inson, inson-san'at-inson munosabatlari), hamda pedagogik tajriba-sinov va pedagogik amaliyot jarayonlari majmui hamda ularning o'zaro bog'liqligi va aloqadorligi pedagogik tizimni tashkil etadi.

XXI asrda oliy ta'lim didaktikasida yangi yo'nalishlar qatorida taniqli amerikalik psixolog va pedagog Jerom Brukner tomonidan ishlab chiqilgan "kashfiyotlar orqali" o'rganish kontseptsiyasi alohida e'tiborga loyiqdir. Unga muvofiq talabalar voqelikni o'rganishlari, bilimlarni o'zlarining kashfiyotlari orqali o'zlashtirishlari kerak, bular barcha bilim kuchlarini ishga solishni talab qiladi va samarali fikrlashni

rivojlantirishga nihoyatda samarali ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, talabalar bundan oldin o'zlari uchun noma'lum bo'lgan umumlashtirishlarni mustaqil ravishda shakllantirishlari, shuningdek ularni amaliy qo'llash ko'nikma va malakalariga ega bo'lishlari kerak.

Amaliy pedagogik faoliyat asoslari bo'lib hisoblanmish zamonaviy oliy ta'lim didaktikasi quyidagi xususiyatlari bilan tavsiflanadi:

1. Uning uslubiy asosini bilimlar falsafasi (gnoseologiya), materializmning ob'ektiv qonunlari tashkil etadi, buning natijasida zamonaviy didaktika o'quv jarayonini tahlil qilish va talqin qilishda bir tomonlama yondashuvdan chetlashdi.

2. Zamonaviy oliy ta'lim didaktikasi pragmatizm, ratsionalizm, empirizm, texnokratizm kabi falsafiy tizimlarga ega. Minimal vaqt, kuch va mablag' sarflagan holda sifatli ta'lim olishga etkazishdir.

3. Ta'lim mazmunini aniqlashtirishga intilish yondashuvi o'zgardi, o'quv rejalari va dasturlarini shakllantirish tamoyillari va o'quv kurslari loyihalarini o'zgartirishga yangicha yondashuv paydo bo'ldi. Bugungi kunda tabaqalashtirilgan o'quv rejalari, dasturlari, kurslari butun dunyo ta'lim tizimiga tatbiq qilinmoqda.

Shu bilan birga, o'quv dasturlarini optimallashtirish jarayonlari chuqurlashib, ularni talabalarning eng xilma-xil ehtiyojlari va qiziqishlariga moslashtirilmoqda.

4. Ta'lim mazmunini aniqlashtirishga intilish yondashuvi o'zgardi, o'quv rejalari va dasturlarini shakllantirish tamoyillari va o'quv kurslari loyihalarini o'zgartirishga yangicha yondashuv paydo bo'ldi. Bugungi kunda tabaqalashtirilgan o'quv rejalari, dasturlari, kurslari butun dunyo ta'lim tizimiga tatbiq qilinmoqda.

Shu bilan birga, o'quv dasturlarini optimallashtirish jarayonlari chuqurlashib, ularni talabalarning eng xilma-xil ehtiyojlari va qiziqishlariga moslashtirilmoqda.

Didaktik tizimni yaratar ekan, zamonaviy psixologiyadan Gerbart ikkita asosiy g'oyaga tayandi: irsiy yoki orttirilgan ruhiy moyillik mavjud emas; barcha aqliy hayot g'oyalar asosida shakllanadi.

Didaktik tizim – ta'lim va tarbiya tizimi bo'lib, uning tarkibi murakkab, asosiy elementlari (o'qituvchining) o'qitish, ta'lim va (o'quvchi) ta'lim va tarbiyasidir. Didaktik tizimning tarkibiy elementlari harakatchan bo'lsada, uning tarkibiy qismlari barqarordir. Asosiy komponentlar:

- ta'lim maqsadi;
- bilim mazmuni;
- ta'lim usullari;
- didaktik vositalar;
- o'rganish natijalari va baholash usullari;
- o'qituvchining pedagogik faoliyati;
- o'quvchining o'quv faoliyati;
- ta'limni tashkil etish shakllari;
- didaktik pozitsiyalar;
- ta'limni tashkil etuvchi boshqa didaktik shartlar.

Didaktik qarashning falsafiy metodologik jihat – bu ta'lim va o'qitish jarayoniga oid nazariy va amaliy yondashuvlarni, shuningdek, didaktikaning falsafiy asoslarini o'rganish bilan bog'liq masalalarni o'z ichiga oladi. Didaktika — ta'lim tizimini, uning maqsadlari, usullari, vositalari, tarkibi va strukturasi haqida bilimlar tizimi bo'lib, u o'quvchilarning bilim olish jarayonini samarali tashkil etishning asosiy yo'nalishlarini aniqlaydi.

Falsafiy metodologik jihat esa didaktikaning nazariy asoslarini, uning tamoyillari, prinsiplarini va maqsadlarini o'rgatishda falsafiy va metodologik qarashlarning ahamiyatini o'rganadi. Didaktik qarashlarning falsafiy metodologik jihatlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Didaktikaning falsafiy asoslari:

Ta'limning maqsadi va mazmuni, o'qitishning ijtimoiy ahamiyati, uning taraqqiyotga ta'siri, insonning ruhiy va ma'naviy o'sishi haqida falsafiy qarashlar.

O'qitish jarayonida sub'ekt va ob'ekt o'rtasidagi munosabatlar: o'qituvchi va o'quvchi, o'qish va o'rganish faoliyatining falsafiy tahlili.

2. Ta'limning metodologik asoslari:

Ta'lim metodlarining tanlanishi va qo'llanilishi, pedagogik texnologiyalar va innovatsion yondashuvlar.

O'qitish jarayonining samaradorligini ta'minlash uchun metodologik yondashuvlarning muhimligi, ya'ni o'quv jarayoniga ilmiy tahlil, sinov va tajriba asosida yondashish.

3. Didaktik tamoyillar:

Ta'limning prinsiplari, ya'ni ham o'quvchilarning individual xususiyatlarini, ham o'qituvchining pedagogik tajribasini inobatga

olgan holda o'qitishning tizimli, qamrovli va maqsadga yo'naltirilgan tarzda tashkil etilishi.

Ta'limning sub'ektiv va obyektiv jihatlarini o'rtasidagi uyg'unlik.

4. Insonning taraqqiyoti va didaktika:

Falsafiy metodologik nuqtai nazardan ta'lim jarayoni insonni ma'naviy va axloqiy jihatdan shakllantirishga xizmat qilishi kerak. Bu o'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi samarali va ma'naviy bog'lanish orqali amalga oshiriladi.

Umuman olganda, didaktik qarashning falsafiy metodologik jihatlarini ta'lim jarayonining asosiy tushunchalarini chuqurroq anglashga, uning samaradorligini oshirishga va o'quvchilarga yuqori sifatli ta'lim berishga yordam beradi.

4. Insonparvarlik tarbiyaviy tizim sifatida.

Bugungi kunda barkamol inson tarbiyasi, ularni pedagogik-psixologik bilimlar bilan qurollantirish eng dolzarb masalasi hisoblanadi. Tarbiya jarayonining asosi o'qitish hisoblanadi. Tarbiya jarayoni didaktik vositalar bilan ko'rinish boshlaydi. Tarbiya tizimining tushunchasi didaktika ichiga qo'shib amalga oshiriladi. Tarbiya jarayoni o'ziga hosligini saqlab qolish uchun "tarbiya?, tarbiya... tarbiya!"... Unda tarbiya tizimi didaktikadan iborat bo'lmaydi, balki bir tomondan pedagogik -psixologik, boshqa tomondan esa- ijtimoiy-pedagogik tizimdan iborat bo'ladi. Buda tarbiya tizimi o'quvchilarga faqat didaktik tizim sifatida emas, balki ijtimoiy omil sifatida ham ularni bizni o'rab turgan borliqqa jalb etish orqali ham ta'sir ko'rsatadi. Har bir ta'lim muassasalarida tashkil topadigan ma'lum psixologik muhit tarbiyaga albatta, ota-onalar, o'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasida yuzaga keladigan munosabatlar orqali ta'sir ko'rsatadi.

Tarbiyaning insonparvarlik g'oyasi muhim tushuncha bo'lib unda inson yoki shaxsning taqdiri yotadi. Insonparvarlik g'oyasi har bir xalqning azaliy qadriyati hisoblanadi, umimiy qadriyat hisoblanadi. Masalan ikkinchi jahon urishi yillar[da o'zbek xalqining turli millat xalqiga insonparvarligi, bolajonligi, xalqparvarligi hamda mehr oqibatligi misoldir. Tarbiyaning markazida shaxs turar ekan har bir inson komil inson bo'lishga intilishi kerak, shundagina biz kutgan natijaga erishimiz mumkin. Insonparvarlikka turlicha izoh berilgan. Shulardan:

Insonparvarlik — insonning qadri, erkinligi, baxt-saodati, teng huquqliligi to'g'risida, insoniylikning barcha tamoyillarini yuzaga

chiqarish uchun shart-sharoitlar yaratib berish haqida g'amxo'rlik qilishni ifodalovchi tushuncha. Unga ko'ra, dunyoda eng qimmatli narsa insondir, butun mavjudot, borliq insonga, uning baxt-u saodatiga xizmat qilishi lozim. Inson taqdiri, xalq manfaatlari, mamlakat kishilari haqida g'amxo'rlik qilish.

Insonparvarlik ("inson"- arabcha; "parvar"- fors-tojikcha; "lik"- o'zbekcha-kishiga g'amxo'rlik, gumanizm)- odamzodning qadri, uning erkinligi, qobiliyatlari har tomonlama namoyon bo'lishi uchun kurashish, insonning baxt-saodati, teng huquqliligi, adolatli hayotini ta'min etishga intilish, insoniyikning barcha tamoyillari yuzaga chiqishiga shart-sharoitlar yaratish ma'nosini anglatadi.

Insonparvarlik g'oyalari uzoq o'ziga xos tarixga ega hisoblanadi. Insonparvarlik g'oyalari, baxt-saodat va adolatga erishish orzu-havaslari xalq og'zaki ijodiyotida, adabiyotda, diniy va falsafiy ta'limotlarda uzoq o'tmishdan beri o'z aksini topib kelmoqda. Insonparvarlikning ko'rinishlaridan biri bu insonni ulug'lashdir. Inson tabiatning gulto'ji, u har qancha maqto'vga lo'yiqa deb sanaladi. Bu haqda Qur'on va hadislarida, mutafakkirlar ijodida ibratli fikrlar aytilgan.

Biz bu o'rinda «Sharq Gegeli» degan sharaflı nomga sazovor bo'lgan faylasuf shoir, mutafakkir Mirzo Abdulqodir Bedil so'zlarini keltirib o'tamiz. Bedil insonni irqiy, milliy, diniy e'tiqodlaridan qat'i nazar hurmat va e'tiromga sazovor ulug' zot deb biladi va bu haqda shunday debdi: «Har kimki, hazrati insonni sajdaga sazovor demasa, u mal'undir». Ushbu fikr har qanday davr uchun ham adolatli, ardoqli va olijanobdir. O'zbek jadidlari (Behbudiy, Munavvar qori, Fitrat va boshqalar) va ma'rifatparvar shoirlar (Muqimiy, Furqat, Avaz O'tar o'g'li va boshqalar) ijodida ham insonparvarlik g'oyalari davom ettirilib, yuksak insoniyik, odamiylik fazilatlari kuylangan.

Insonparvarlik yaxlit dunyoqarash tizimi sifatida birinchi bor evryaning Uyg'onish davrida, ya'ni XV—XVII asrlarda shakllangan. Forobiyning fikricha, baxt-saodat, osoyishta hayot, kishilar o'rtasidagi hamkorlik jarayonida insonning ko'p ijobiy fazilatlari va xislatlari asosida insonlar jamoasi yuzaga keladi. Forobiy insonlarning inoq va do'st yashashi mamlakatda xalq uchun katta foyda keltirishini isbotlashga intilgan va tinchlikni qat'iy ravishda quvvatlab, butun faoliyatini inson xizmatiga qaratgan. Insonparvarlik tamoyili – odamlarga mehr-muhabbat bilan qarash, ularning haq-huquqlarini hurmat qilish, baxt-saodati, har tomonlama kamol topishi hamda

ijtimoiy hayotda inson uchun qulay shart-sharoitla yaratib berish haqida g'amxo'rlik qilishni ifodalovchi tuyg'ular, qarashlar majmuidir.

Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy va boshqa allomalarimiz asarlarida insonparvarlik, inson erkinligi, uning qadr-qimmati g'oyalari olg'a surildi.

Navoiy inson taqdiri, xalq manfaa-ti, mamlakat haqida g'amxo'rlikni asosiy masala qilib qo'ygan. Dunyoda eng qimmatli narsa insondir, degan fikrni olg'a surgan. Uning fikricha, butun mavjudot, borliq insonga, uning baxt-saodatiga xizmat qilishi lozim. Jahon dinlari, jumladan islom dinida ham Insonparvarlik g'oyalari o'z ifodasini topgan. Unda faqir, kambag'al, musofir, muhtoj kishilarga yordam berishga, sahovatli va insofli bo'lishga da'vat qilinadi.

O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini qurishda mehr-muruvvat tamoyili, bozor munosabatlari sharoitidagi ijtimoiy himoyada mehr va muruvvatning namoyon bo'lishini Respublikamizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda har bir yilga nom berish orqali qabulqilinayotgan dasturlar mazmunida ham aks etib bormoqda. O'zbekistonda barcha sohalarda olib borilayotgan chuqur islohotlardanko'zlangan asosiy maqsad – "Inson manfaatlari hamma narsadan ustun» deganoddiy vaaniq-ravshan tamoyilni amalga oshirish ustuvor ahamiyata ega bo'lgan demokratik davlat va adolatli jamiyat barpo etishdan iborat"

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 18-moddasida»O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinlikga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeyidan qat'iy nazar, qonun oldida tengdirlar» deyiladi. Qonundagi bu fikrlardan ko'rinib turibdiki, insoniylikni ta'minlash uchun insonga xos bo'lgan barcha xislatlari e'tibordan chetga qolmaganligini ko'rish mumkin. Chunki, insonparvarliknormalari va burchlarining buzilishi o'zaro tenglikka salbiy ta'sir ko'rsatib, shaxs ma'naviy tarbiyasini izdan chiqishiga olib keladi. Bunga tarixning o'zi ham guvoxlik berib, quydagi dalillarni keltirish mumkin. "Inson tarbiyasi, insonni nuqsonlar,gunohlardan qutqarish ulug' ajdodlarimizning qayg'usi bo'lib kelgan. Ular savob va gunoh, soya va nur, rahmon va shayton, xayr-u shar chegarasida yaratilgan inson degan mubham xilqatni anglash, unga rahmoniy va shaytoniy quvvatlarni qachon, qayerdakuchga kirishi, bu kuchlarning sababi nima ekanligini tushunishga jiddiy ahd qilganlar". Insonparvarlik g'oyasi, unga e'tiborning qaratilishi Yevropada XV-

XVI asrlarda keng tus olgan bo'lsa, O'rta Osiyoda esa IX-XII asrlarda to'lashakllangan edi. Ularning insonparvarlikni targ'ibqilgan adabiy-ilmiiy metrosidagi nazariy fikrlari bugungi kunda ham shaxs ma'naviy tarbiyasining asosini tashkil etmoqda.

Tarbiyadan boshqa yondashish insonparvarlik tarbiyaviy tizimini yaratish bilan bog'liq. Bu yondashish birinchi navbatda, individuallashtirish jarayoni bilan mos keladi. Yana bir bor eslatib o'tamiz, individuallashtirish - bizning tushunishimizcha,- bu o'quvchi yoshlarda mavjud yoki o'zining individual tajribasida egallagan yagona, alohida va o'ziga hosligini ta'minlab turish va rivojlantirish bo'yicha kattalarning hamda bolaning o'ziga tegishli bo'lgan faoliyatlari . Shaxsni individuallashtirish uning "o'zligini" rivojlantirish, shunday qilib, keng ma'noda insonparvarlik tarbiyaviy tizimini tashkil etadi. Tarbiyada bunday yondashishning maqsadi, bolalarga, ularning "sub'ektiv mavjudliklarini" tashkil etishda yordam ko'rsatish hisoblanadi. Buning uchun ushbu tarbiyaviy tizimda, insonga o'zini anglash va o'zini amalga oshirishda yordam beruvchi maxsus vositalar ishlab chiqiladi. Insonparvarlik tarbiyaviy tizimining sub'ekti endi faqat pedagog emas, balki bolalarning o'zlari ham hisoblanadi. Bunda o'qituvchilar ham, talabalar ham oliy talim muassasasi oldida turgan maqsadlarini birgalikda aniqlashtiradilar, ularni amaliy vazifalar darajasiga ko'taradilar va birga amalga oshiradilar. Insonparvarlik tarbiyaviy tizimi samaraliligini muhim sharti, talabalar va kattalarni umumiy jamoaga birlashtirish hisoblanadi. Bolalar va kattalarning o'zaro munosabatlari, ma'lum munosabatlarni yuzaga keltiradi, ular birinchi navbatda tizimning tarbiyaviy imkoniyatlarini belgilaydi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida insonparvarlik his-tuyg'ularini maqsadga muvofiq shakllantirishda o'qituvchi o'quvchilarning do'stlashishi, birbirinitushunishi, ijobiy xulq-atvorga kirishishlari uchun zamin xozirlashi kerak. O'quvchilar o'zaro baland ovozda gapirmasliklari, bir-biriga nisbatanijobiy munosabatda bo'lishlari, zarur vaziyatlarda o'zlarini tuta bilishlari va xatti-harakatlarini nazorat qilishni ta'minlashi muhim. O'quvchilarda hayotiy tajribaning yetishmasligi tufayli ular orasida ishchan, do'stona muloqot o'rnatish murakkab kechadi. Bunda o'qituvchi o'quvchilarni hamkorlikdagi faoliyatga jalb etish chora-tadbirlarini ishlab chiqishi va qo'llashi, ularning individual xususiyatlarini chuqur tahlil qilishi va har tomonlama o'rganish kerak. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida

insonparvarlik his-tuyg'ularini shakllantirish orqali ularda insonparvarlikfazilatlarini rivojlantirishda har bir o'quvchida shaxsiy qadr-qimmat tuyg'usini vujudga keltirish, o'z kuchi va qobiliyatiga bo'lgan ishonchni mustakamlash, o'quvchilik ijtimoiy makomiga

5. Jamoa va shaxs.

Shaxs — alohida individ, mohiyatan yaxlit ijtimoiy-axloqiy olam. U o'zida inson mohiyatini, uning mavjudot sifatidagi qadriyatini mujassam etadi. Shaxs ijtimoiy-gumanitar fanlarda o'z yo'nalishi, tadqiqot obyekti va maqsadi nuqtai nazaridan turlicha talqin etiladi. U o'ta murakkab, ziddiyatli, qarama-qarshi, o'zini o'zi inkor etadigan mavjudot sifatida, biologik, fiziologik, ijtimoiy, ma'naviy, ruhiy, axloqiy va estetik aqlidrok, tafakkur obyekti sifatida, hatto, falsafiy va mantiqiy, yashash huquqi va hayot mantig'i jihatidan tadqiqot manbaiga aylanishi mumkin. Shaxsning shakllanish omillari ko'p va xilma-xiddir. Masalan, genetik (nasliy), biologik-tabiiy, madaniy, ijtimoiy hayot tajribasi, o'z turdoshlari bilan munosabatlar va boshqalar shaxsning genetik jihatini uning nasliy asosi, ajdodlaridan yetib kelgan fizionomiya, fe'l-atvor bilan, biofiziologik jihatini esa yashash uchun quvvat olish, ovqatlanish, jinsiy aloqaga kirishish va nasl qoldirish singari individual ehtiyoj bilan belgilanadi.

Odam dunyoga odam bo'lib keladi. Sub'ektning odam zotiga mansubligi individ tushunchasida ifoda qilinadi. Hayvon bolasi esa dunyoga kelgan kunidanoq hayotining oxirigacha jonzot deb yuritiladi. "Individ" tushunchasida kishining nasl–nasabi ham mujassamlashgan. Yangi tug'ilgan chaqaloqni ham, katta yoshdagi odamni ham, mutaffakkirni ham, aqliy zaif ovsarni ham, yovvoyi odamni ham, madaniyatli mamlakat kishisini ham individ deb hisoblash mumkin.

Individ sifatida dunyoga kelgan kishi alohida sotsial fazilat kashf etadi, shaxs bo'lib etishadi. Psixologiyada individ tomonidan amaliy faoliyat va munosabatlar jarayonida hosil qilinadigan hamda ijtimoiy munosabatlarning individga ta'sir o'tkazish darajasi va sifatini belgilaydigan tarzda sotsial fazilatlar majmuasi asosidagi shaxs tushunchasida ifodalanadi.

Shaxsning o'zi nima? Eng avvalo, biz shaxs individning fazilati ekanligini tan oladigan bo'lsak, bu bilan biz individ va shaxsning birligini tasdiqlagan va ayni paytda bu tushunchalarning bir biriga o'xshashligini inkor etgan bo'lamiz. "Shaxs" va "Individ"

tushunchalarining bir biriga o'xshashligini etakchi psixologlar – B.G.Anan'ev, A.N.Leontev va boshqalar inkor etishadi.

Sotsial munosabatlar tizimini o'zida mujassamlashtirgan sub'ekt bo'lish degan ma'noni anglatadi.

“Individ” va “Shaxs” tushunchalarining o'xshashligi emas balki birligi haqidagi fikr quyidagicha o'rta qo'yilishi mumkin bo'lgan savolga javob berilishini takozo qiladi: Shaxs deb hisoblanmaydigan individning mavjud bo'lishi yoki aksincha individning konkret sohibi sifatida undan tashqarida va u siz mavjud bo'lish fakti ko'rsatilishi mumkinmi? Taxminiy tarzda fikr yuritilgan taqdirda unisi ham, bunisi ham bo'lishi mumkin.

“Individ” va “Shaxs” tushunchalarining bir biriga mos kelmasligi va aynan o'xshash emasligi faktidan shu narsa ayonki, shaxs tushunchasi birgalikdagi faoliyatning har bir ishtirokchisi uchun ushbu faoliyatning mazmuni, qadriyatlari va mohiyati orqali namoyon bo'ladigan shaxslararo barqaror bog'lanishlar tizimidagina anglanilishi mumkin. Tashqaridan shunchaki qaraganda bu sub'ekt–sub'ekt munosabatidek ko'rinadi, chuqurroq yondoshadigan bo'lsak bevosita sub'ekt–sub'ekt aloqasi shunchaki o'zicha mavjud bo'lishidan ko'ra ko'proq allaqanday ob'ektlar (moddiy yoki xayoliy) ob'ektlar vositasida namoyon bo'lishi aniqlanadi. Bu individning boshqa individga munosabati faoliyat ob'ekti (sub'ekt–ob'ekt–sub'ekt) orqali namoyon bo'ladi, demakdir.

Shaxs, mohiyatiga ko'ra, madaniylashgan, ong, aql orqali faoliyatini boshqarish imkoniyatiga ega bo'lgan, ijtimoiy-tarixiy an'ana, turmush tarzi va tajribaga asoslangan muayyan avlodlar vakili. Shaxs fenomeni inson olamining butun murakkabliklarini o'zida mujassam etadi. Uni har tomonlama o'rganish maqsadida turli davrlarda tadqiqot olib borilgan. Ayniqsa, sharqda u yuksak axloqiyma'naviy me'yorlar orqali tushunilgan va oliy xilqat, bebaho qadriyat deb hisoblangan. Inson shaxs sifatida komillikka intiladi, hayot mazmunini boyitadi, shu asosda kishilik jamiyatining go'zal va farovon bo'lishiga ehtiyoj sezadi. Shaxsning hayot tarzi bevosita jamiyat hayotiga daxldor va hayot ne'matlaridan to'la foydalanishga haqli.

Shaxs tushunchasi inson tushunchasining yuksak ko'rinishi, oliy maqomidir. Har qanday odam tabiiy mavjudligi, yashash huquqi va hayot qadriyatiga ega bo'lgan jonzotdir. Biroq u hamma vaqt ham to'laqonli shaxs bo'lib yetilmasligi mumkin.

Shaxs tuzilishining uch tarkibiy qismi mavjud:

1. Shaxs tuzilishiga birinchi navbatda uning individualligining tizimli tuzilishi kiradi. Shu tariqa shaxs tuzilishining birinchi tarkibiy qismi—uning individ ichkarisidagi (intraindivid) kichik tizimining alohida namoyon bo'lishidir.

2. Shaxs tuzilishining ikkinchi tarkibiy qismi—shaxsning shaxslararo bo'shlikdagi individlararo munosabatlarda, aloqalarda mavjud bo'lishidir, ya'ni individning organik tarzidagi gavdasidan tashqaridagi “bo'shliqda”, “fazoda” namoyon bo'lishdir.

3. Shaxs tuzilishini tarkib toptiradigan uchinchi bir qismi—metoindivid (individning ustki ko'rinishi) kichik tuzilishini ham alohida ko'rsatish imkoniyatidir. Bunda shaxs individning organik gavdasidan tashqariga chiqarilib qolmasdan, balki uning boshqa individlar bilan “shu erda va endilikda” mavjud bo'lgan aloqalaridan ham tashqarida joylashtiriladi.

Har uchchala kichik tuzilishi birligi shaxs obru—e'tiborida namoyon bo'ladi.

Individning shaxs darajasiga ko'tarilishi ehtiyoji konkret tarixiy shaklda mavjud bo'lib, sinfiy mazmunga egadir. Jamiyatda yashayotgan kishida ta'lim—tarbiya berish ishlari to'g'ri yo'lga qo'yilgan taqdirda ijtimoiy foydali faoliyatda shaxs darajasiga ko'tarilish ehtiyojining shakllanishi va qondirilishi uchun zarur barcha shart—sharoitlar tarkib topadi.

Jamoa (lotincha “kollektivus” so'zining tarjimasi bo'lib, yig'ilma, omma, birgalikdagi majlis, birlashma, guruh) bir necha a'zo (kishi)lardan iborat bo'lib, ijtimoiy ahamiyatga ega umumiy maqsad asosida tashkil topgan guruh demakdir. Turkiyzabon xalqlarda, jumladan o'zbeklarda jamoa azaldan ijtimoiy birlikni anglatib kelgan. Odamlarning jamoa bo'lib yashashi zaruriyatini Suqrot, Platon, Aristotel, Markaziy Osiyo mutafakkirlari Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Ulug'bek, Alisher Navoiy va boshqalar ilmiy asoslab berganlar. Ayniqsa, buyuk faylasuf olim Abu Nasr Forobiy o'zining asarlarida jamoa bo'lib yashashga tabiiy moyillik inson turmush tarzining mazmunini tashkil etishini uqtiradi. Forobiy bu haqda quyidagi fikr—mulohazalarni bayon etgan: “Har bir inson o'z tabiati bilan shunday tuzilganki, u yashash va oliy darajadagi etuklikka erishmoq uchun ko'p narsalarga muhtoj bo'ladi, u bir o'zi shunday narsalarni qo'lga kirita olmaydi, ularga ega bo'lish uchun odamlar jamoasiga ehtiyoj tug'iladi. Shu sababli yashash uchun zarur bo'lgan, kishilarni bir-biriga etkazib

beruvchi va o'zaro yordamlashuvchi ko'p kishilarning birlashuvi orqaligina odam o'z tabiati bo'yicha intilgan etuklikka erishishi mumkin. Bunday jamoa a'zolarining faoliyati bir-butun holda ularning har biriga yashash va etuklikka erishuv uchun zarur bo'lgan narsalarni etkazib beradi. Shuning uchun inson shaxslari ko'paydilar, natijada inson jamoasi vujudga keldi". Jamoa odamlar maqsad-manfaatlarining umumiyligi, o'zaro hamkorlik qilishlari zarurligi, mehnat va maishiy hayotiy faoliyatlari yo'nalganligi zaminida o'zaro birgalikda harakat qilishlarini taqozo etishdan vujudga keladi. Odamlarning faoliyat turlariga mutanosib tarzda mehnat, ta'lim-tarbiya, maishiy hayot, badiiy ijod, harbiy, jismoniy tarbiya, sport, oila kabi doiralarda jamoalar vujudga kelishi va samarali amal qilishi mumkin.

Zamonaviy talqinda «jamo» tushunchasi ikki xil ma'noda ishlatiladi. Birinchidan, jamoa deganda bir necha kishilarning muayyan maqsad yo'lida birlashuvidan iborat tashkiliy guruhi tushuniladi (masalan ishlab chiqarish jamoasi, zavod jamoasi, o'quv yurti jamoasi, xo'jalik jamosi va hokazo). Ikkinchidan, jamoa deganda yuqori darajada uyushtirilgan guruh tushuniladi. Chunonchi, o'quvchilar jamoasi yuqori darajada uyushtirilgan birlashma hisoblanadi.

Jamoada va jamoa yordamida tarbiyalash - tarbiya tizimida muhim ahamiyatga ega bo'lgan tamoyillardan biridir. Shaxsni shakllantirishda jamoaning etakchi rol o'ynashi to'g'risidagi fikrlar pedagogika fanining ilk rivojlanish davrlaridayoq bildirilgan. Jamoada uning a'zolari o'rtasidagi munosabatning alohida shakli yuzaga keladi, bu esa shaxsning jamoa bilan birgalikda rivojlanshini ta'minlaydi. Lekin har qanday guruhni ham jamoa deb hisoblab bo'lmaydi. Jamoa bir qator belgilarga egadirki, mazkur belgilar jamoani kishilarning etarli darajada uyushgan har qanday guruhdan ajratib turadi.

1. Ijtimoiy ahamiyatga ega yagona maqsadning mavjudligi. Jamoaning maqsadi albatta ijtimoiy maqsadlar bilan mos kelishi, jamiyat va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi, Davlat konstitutsisi va qonunlariga, jamiyat mafkurasiga qarama-qarshi bo'lmasligi zarur.

2. Umumiy birgalikdagi faoliyat. Kishilar aniq maqsadga birgalikda tez erishish uchun jamoaga birlashadilar. Buning uchun jamoaning har bir a'zosi birgalikdagi faoliyatda faol ishtirok etishi zarur, faoliyat Umumiy tashkil etilishi kerak. Jamoa a'zolari birgalikdagi faoliyat natijalari uchun yuqori shaxsiy javobgarlikni his qilishlari bilan ajralib turishadi.

3. Majburiy mas'uliyatli munosabatning yo'lga qo'yilishi.

Jamoa a'zolar orasida faqatgina yagona maqsad va faoliyat emas, ularning g'am-qayg'ularining aloqador birligi aks etuvchi maxsus munosabatlar yuzaga keladi.

4. Saylangan umumiy rahbariy organga egalik. Jamoada demokratik munosabatlar o'rnatiladi. Jamoani boshqarish organlari jamoaning obro'li a'zolarini to'g'ridan-to'g'ri, ochiq saylab olish asosida shakllantiriladi.

Mazkur aytilgan belgilaridan tashqari jamoa boshqa muhim o'ziga xosliklari bilan ham farqlanadi. Bu jamoa ichki muhitida aks etuvchi o'ziga xoslik, psixologik iqlim, jamoa a'zolari orasidagi munosabatlarda ko'rinadi.

Maktab jamoasi tarkibida eng barqaror bo'g'in - bu muayyan sinflar negizida shakllangan jamoalar sanaladi. Sinf jamoasi tarkibida o'quvchilar tomonidan amalga oshiriluvchi asosiy faoliyat o'qish faoliyati sanaladi. Aynan sinf jamoasida shaxslararo aloqa va munosabatlar tarkib topadi. Shuningdek, sinflar jamoalari negizida maktab jamoasi shakllanadi.

Yuqoridagi jamoaning o'ziga xos belgilaridan kelib chiqib, shunday xulosa chiqarish mumkin. O'quvchilar jamoasi – bu ijtimoiy ahamiyatga ega yagona maqsadni ko'zda tutuvchi, birgalikdagi faoliyatni tashkil etuvchi, umumiy saylab qo'yilgan organiga ega bo'lgan, mustahkamlik, umumiy javobgarlik bilan ajralib turuvchi, barcha a'zolarining huquq va majburiyatlarda tengligi sharoitida majburiy aloqadorlikka ega bo'lgan o'quvchilar guruhidir.

Jamoani shakllantirish muayyan qonuniyatlarga bo'ysunadigan uzoq muddatli murakkab jarayondir.

Jamoaning vujudga kelish uchun **to'rt bosqich** zarur. Jamoaning shakllanish bosqichlarida dastlab o'qituvchi butun guruhga talab qo'yadi hamda mazkur jarayonda jamoa faollarining shakllanishiga alohida e'tibor qaratadi. Navbatdagi bosqichda muayyan darajada shakllangan jamoa faollari (aktivi) jamoa a'zolari oldiga ma'lum talablarni qo'yadi. Uchinchi bosqichda esa jamoa umumiy holda jamoaning har a'zosidan muayyan tarzdagi faoliyatni olib borishni talab qiladi. So'nggi (to'rtinchi) bosqichda esa jamoaning har bir a'zosi o'z oldiga mustaqil ravishda jamoa manfaatlarini ifoda etuvchi talabni qo'yish layoqatiga ega bo'ladi.

Bugungi kunda pedagog olimlar (L.I.Novikova va boshqalar) bolalar jamoasi rivojlanishi jarayonini tahlil qilar ekan, uni quyidagi ikki bosqichga bo'lad:

- jamoani dastlabki jipslashtirish;
- jamoani shakllantirish, uning har bir a'zosini individual rivojlantirishning ro'lidir.

Jamoa hayotidagi har bir bosqichlarini ajratib ko'rsatish yuqorida bayon etilgan fikrlarga zid emas, balki shaxsning rivojlanishida jamoaning yetakchi ahamiyatini ta'kidlaydi.

Rus pedagogi A.S.Makarenko jamoa munosabatlarining ichki jihatlariga katta ahamiyat bergan edi. U jamoada shakllangan eng muhim quyidagi belgilarni ajratib ko'rsatgan edi:

1. Doimiy tetiklik, tarbiyalanuvchilarning faoliyatga tayyorligi;
2. O'z jamoasi qadriyatlarining mohiyatini tushunish, uning uchun g'ururla-nish asosida o'z qadr-qiyamatini anglash;
3. Uning a'zolari o'rtasidagi do'stona birlik;
4. Jamoaning har bir a'zosidagi do'stona birlik;
5. Tartibli, ishchan harakatga yo'llovchi faollik;
6. O'z hissiyot va so'zlarini boshqara olish ko'nikmasi.

6. Tarbiyaviy ishlarda qo'llaniladigan texnologiyalar.

Bizga yaxshi ma'lumki, tarbiya jarayoni uzoq muddatli, murakkab, uzluksiz bo'lib, u o'ziga xos xususiyatlarga ega. Garchi zamonaviy ta'lim texnologiyasi o'quvchining ta'lim jarayonidagi yetakchilik rolini yoqlayotgan bo'lsada, tarbiya jarayonida tarbiyalanuvchi asosiy mavqeini egallay olmaydi. Chunkiy unda xarakter, dunyoqarash yetarlicha shakllanmagan bo'lib, u bu borada tarbiyachining yordamiga extiyoj sezadi shu bois tarbiya texnologiyasi mantiqiy, ham tarkibiy jixatdan ta'lim texnologiyasidan farq qiladi.

Tarbiya texnologiyasi asosida tarbiyaviy jarayon yotadi. O'quvchilar faoliyatini tashkil etuvchilar bo'lib, ular tomonidan erishiladigan natijalarni rejalashtirish va unga erishish usullari, bu usullarni modellashtirish ishlab chiiarilgan reja va modellarni ro'yobga chiqarish, bu rejalarni amalga oshiruvchi shaxsning faoliyati va axloini boshlarish kabilar hisoblanadi.

Tarbiya – tarbiyachi va tarbiyalanuvchi faoliyatlarini o'z ichiga olgan ikki yoqlama jarayon. Tarbiyachilar bilan va tarbiyaga ega bo'lgan kishilar tarbiyalanuvchilar-bilim va tajriba o'rganuvchi

yoshlardir. Ammo tarbiyalanuvchilar muayyon darajada aktiv faoliyat ko'rsatmasalar tajrib va bilim o'rgana olmaydilar.

Tarbiya metodlari deganda shaxsni har tomonlama shakllantirish maqsadida shaxsning ongi, his-tuyg'usi, irodasi va munosabatlar tizimiga ta'sir ko'rsatish tushuniladi. Tarbiya metodlari turli elat, millat va davlatlarda turli-tumanligi bilan farq qiladi. Yevropada tarbiya metodlarining bir tizimi qabul qilingan bo'lsa, Markaziy Osiyoda boshqa tizim amalda qo'llaniladi. Yevropa mamlakatlari uchun ochiq tarbiya ko'proq qo'l keladi. Ya'ni bola nima xohlasa shuni qilishi, katta-kichik oldida nimani xohlasa shuni gapirishi, xoh o'zidan kattani, xoh ota-onasini xohlagan joyida tanqid qilishi mumkin. Markaziy Osiyo mamlakatlarida, xususan, O'zbekistonda ko'proq paternalistik tarbiya elementlari qo'llaniladi. Bunday tarbiya tizimining o'ziga xosligi umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirish bilan birga o'zidan kattaga alohida hurmat, kattalar gapiga quloq osishlik, rahbariyatning fikrini va topshirig'im topshirig'ini so'zsiz bajarish, nogironlarni ijtimoiy himoyalash kabilar yotadi.

Tarbiya jarayonini muvaffaqiyatli amalga oshirishda o'qituvchilar tomonidan qo'llanadigan metodlar muhim ahamiyatga ega. Tarbiya metodlari – pedagog-o'qituvchilarning o'quvchilarga ta'sir ko'rsatish usullari, vositalari, tarbiyalanuvchilarga barkamol shaxs xislatlarini singdirish maqsadida tarbiya jarayonini pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq tashkil etish yo'llaridir. Tarbiya metodlari bu o'qituvchi (tarbiyachi)lar va jamoa tomonidan g'oyaviy va ma'naviy e'tiqodlarni, ma'naviy his-tuyg'u va odatlarni tarkib toptirish maqsadida qo'llaniladigan shaxsga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish yo'llari demakdir. Tarbiya metodlari o'quvchi (tarbiyalanuvchi)larning o'z shaxsini takomillashtirish borasidagi harakatni ham tashkil etishni nazarda tutadi. Shu bois, hozirgi zamon pedagogikasida tarbiya metodlari pedagog-o'qituvchilar va o'quvchilarning tarbiyaviy vazifalarini hal qilishga qaratilgan o'zaro bog'langan birgalikdagi faoliyati sifatida qarab chiqiladi. Demak, tarbiya ikki tomonlama jarayon bo'lib, pedagog o'qituvchilar (tarbiyachilar) faoliyati bilan o'quvchilarning faoliyatini birlashtiradi. O'quvchilarning tarbiyaviy ta'sirga faol tayyor bo'lishiga erishish uchun buni muayyan sharoitga qo'yish, uning faol faoliyatini tashkil etish lozim. U yoki bu tarbiyaviy vazifalarni hal etishning muvofiq tashkil etilgan metodik yo'llari tarbiya vositalari deb yuritiladi. O'quvchilar bilan tarbiyaviy ishlarda foydalaniladigan televidenie, radio, kitoblar, gazeta-jurnallar va

hokazolar tarbiyalanuvchi shaxslar jalb qilinadigan faoliyat turlari tarbiya vositalari hisoblanadi. Pedagog-o'qituvchilarning jonli nutqi, shaxslarning o'yinlari, jamoatchilik, havaskorlik va texnik to'garaklari tarbiya vositasi vazifasini bajaradi. Ammo tegishli tarbiyaviy jarayonni tashkil etish uchun ularni albatta, murabbiy -pedagog ishining muayyan tizimiga kiritish kerak. Tarbiya natijasining samarali bo'lishi tarbiyaviy jarayonni tashkil etish tarbiya metodlari, vositalari va shakllaridan mohirona foydalanishga va ularni qo'shib olib borishga bog'liqdir.

Tarbiya metodlarini to'g'ri tanlash tarbiya vazifalarini ijobiy hal qilishda o'quvchilarning o'zini-o'zi tarbiyalash faolligini oshirishga yordam beradi. Masalan, o'qituvchi o'quvchilari bilan ishlash jarayonida o'quvchilarni mehnat faoliyatiga, xulq-atvor qoidalariga o'rgatishda ularda kun tartibi aniq bo'lishi tabiya metodlari o'quvchi shaxsini har tomonlama kamol toptirish maqsadi bilan belgilanadi va tarbiya jarayoniga taalluqli ko'pgina tarbiyaviy ta'sirlarni o'z ichiga oladi. Tarbiya metodlari ijtimoiy jamiyat tomonidan ta'lim muassasalari oldiga har tomonlama barkamol, erkin, ijodkor, mustaqil fikr egasi bo'lgan shaxsni tarbiyalash vazifalari bilan belgilanadi muhimligini, ularga o'quvchilarning qat'iy tartibga amal qilishi zarurligini tushuntirish metodidan foydalanadi.

Tarbiya metodlari turlari

- ❖ Uqtirish, o'git-nasihat
- ❖ Tushuntirish, suhbat, hikoya
- ❖ Iltimos qilish, istak bildirish
- ❖ Maslahat berish, nasihat
- ❖ Namuna, ibrat ko'rsatish
- ❖ Ishontirish, ishonch bildirish
- ❖ Undash, ko'ndirish, talab qilish, buyruq berish
- ❖ Mashq qildirish, ma'qullash, ko'ngil ko'tarish
- ❖ O'zini-o'zi idora qilish va tarbiyalash
- ❖ Duo qilish, olqishlash, uzr yoki kechirim so'tash
- ❖ Jazolash, koyish, po'pisa qilish, qizartirish, uyaltirish, tanbeh berish
- ❖ Rag'batlantirish, ma'qullash, maqtash, dalda berish, olqishlash kabi turlaridan keng foydalanish. Biz ularning ma'naviy-axloqiy va estetik tavsifini ochib berishga harakat qilamiz.

Uqtirish. Uqtirish biror axloqiy fazilatni tarbiyalanuvchilar ongiga singdirish va ular tomonidan o'qib olinishini ta'minlashga asoslanadi. Shuning uchun o'qituvchilar va tarbiyachilar o'quvchilarni

tarbiyalaganda va ularga axloqiy fazilatlarni tushuntirganda uning afzalliklarini va zarur ekanini ko'rsatuvchi dalillar keltirishi, isbotlashi, ishontirishi lozim. «O'qigandan uqqan yaxshi» degan xalq maqolida ilgari surilgan fazilatni tarbiyalanuvchilar ongiga yoshlikdan singdirish lozim.

Ishontirish metodlari. O'quvchilarni odob-axloq ruhida tarbiyalashda eng ko'p qo'llaniladigan asosiy metodlardan biri ishontirish metodidir. Ishontirish deb, o'quvchilarda ma'naviy-axloqiy fazilatlarni tarbiyalash va mustahkamlash, xarakter va xulqlaridagi salbiy tomonlarni yo'qotish maqsadida ularning ongi, tuyg'usi va irodasiga ta'sir ko'rsatishga aytiladi. Ishontirish metodi o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy, g'oyaviy-siyosiy jihatdan tarbiyalashda va ularning xarakterini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. O'qituvchi ishontirish metodini birgina o'quvchilargagina emas, balki butun jamoaga ham qo'llashi mumkin.

Maslahat berish. Maslahat biror voqea-hodisa ro'y berganida, ishda, shaxsni hatti-harakatida, xulq-atvorida qanday qilsa yaxshi bo'lishi haqida fikr berish demakdir. Har bir shaxs, ayniqsa, o'quvchilar bir ishni boshlashdan avval bu ish haqida kattalarning, ayniqsa, o'qituvchi-pedagogning fikrini bilishni istaydi. Yoki biror ishda, harakatda qiyinchilik tug'ilib qolsa, shu qiyinchilikni yengish yo'lini topish maqsadida o'qituvchi-pedagoglardan maslahat so'raydi. Bunday maslahat olish o'quvchilar hayotida tez-tez uchrab turadi. Shuning uchun o'quvchi -pedagoglari va tarbiyachilar o'quvchilardagi bu xususiyatdan tarbiya maqsadida mohirlik bilan foydalanishlari kerak.

Buyruq va talab. Buyruq qat'iy amr-farmon shaklida ifodalangan talabdir. Tarbiya jarayonida o'quvchilar oldiga davlatimiz hamda ota-onalar tomonidan qo'yilgan muayyan maqsad va vazifalarning bajarilishiga erishmoq uchun talab etish va buyruq berish kabi vositalardan ham foydalaniladi. O'quvchilardan talab qilinadigan talablar hamda ularga beriladigan amr-farmon va buyruqlar aniq, ravshan, tushunarli, muayyan maqsadga qaratilgan ham qat'iy bo'lishi kerak.

O'git, nasihat. O'sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalashda tajribada sinalgan va xalqimiz tomonidan doim foydalanmoq kerak. O'qituvchipedagoglarning yoshlarga o'z tajribalari, ko'rgan-bilganlari va qo'llanib kelingan o'git-nasihatdan ham o'qiganlarini dalillar, konkret misollar bilan, ishonarli qilib aytib berishlari, yaxshi fe'latvorga, odobga va axloq qonun-qoidalarini bajarishga da'vat etish,

yo‘l-yo‘riqlar ko‘rsatishga o‘git-nasihat deyiladi. Nasihat qilmoq o‘quvchilarni yaxshilik tomon yo‘llamoq, yaxshi fazilatlarni egallashda ularga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatmoq demakdir. O‘git-nasihat o‘quvchilarga yakka holda va guruhguruh qilib berilishi mumkin.

Hikoya – suhbat. O‘qituvchi-pedagoglar va tarbiyachilarning jonli so‘zi asosida o‘quvchilar shaxsini g‘oyaviy va ma‘naviy-axloqiy shakllantirishning ta‘sirchan metodi hisoblanadi. Hikoya qilinadigan mavzu o‘quvchilar uchun dolzarb, shaxsni ma‘naviy ishonch, ijobiy his-tuyg‘ular vujudga keltirishga olib kelishi kerak. Masalan, o‘qituvchi-pedagog boshqa sinf yoki guruh jamoasi barcha fanlardan a‘lo baholarga o‘qiyotganligini va tartib-intizomi yaxshiligini maroq bilan gapirib bersa, buning samaradorligini o‘quvchilarning qanday tinglayotganiga qarab, tekshirish mumkin.

Tarbiyada rag‘batlantirish va jazolash metodlarining tutgan o‘rni.

Rag‘batlantirish metodi biron-bir omilning tarbiyalanuvchiga ta‘sirini kuchaytirish hamda o‘quvchi-talabalarning shaxsini rivojlantirish va ijobiy hatti harakatlarini faollashtirish va baholash maqsadida qo‘llaniladi. Masalan, mustaqil O‘zbekiston Respublikasida milliy mafkuraning g‘oyaviy ma‘nosi sifatida o‘quvchitalabalar shaxsida umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirish maqsad qilib qo‘yilgan. Shuning uchun ham tarbiyadagi rag‘batlantirish va jazolash metodi o‘quvchitalabalardagi ijobiy xislatlarni rivojlantirishda, ularning ijobiy fazilatlarini takomillashtirishda vosita bo‘lmog‘i lozim. Rag‘batlantirish va jazolash metodida o‘quvchi-talabalar shaxsi emas, balki ayni vaqtdagi hatti-harakatlari, qiliqlari, tarbiyalanuvchining individual xususiyati, hodisa yuz berayotgan vaziyat, sabab-oqibatlar nazarda tutiladi. Rag‘batlantirish tarbiyalanuvchilarga quvonch, qoniqish, qanoatlanish kechinmalarini paydo qiladi, tetiklik va g‘ayrat bag‘ishlaydi, o‘z kuchiga ishonchni mustahkamlaydi, o‘z faoliyati va xulqiga mas‘uliyatini oshiradi. Rag‘batlantirish yoshlarning axloqiy tarbiyasida muhim rol o‘ynaydi.

Mukofotlash. Maktab va akademik litseylar, kasb-hunar ta‘lim muassasalari va oliy o‘quv yurtlarida yuksak muvaffaqiyatlari uchun o‘quvchilar mukofotlanadilar. Mukofotning moddiy shakllari: kitob, o‘quv qurollari, teatr va kinoga bilet, dam olish uylariga, sayohatlarga yo‘llanmalar, pul mukofoti, maqtoov yorlig‘i va hokazolar. Mukofotlar o‘quvchilar o‘qituvchi-pedagoglar va ota-onalar ishtirokida tantanali vaziyatda topshiriladi. Jazolash metodlari – bu o‘quvchilarning hatti-

harakatlari va faoliyatiga salbiy baho berishdir. Jazo berish axloq me'yorlariga qarama-qarshi faoliyat va xatti-harakatlarni muhokama etishni ifodalaydi. Jazo berish noma'qul hatti-harakatlarning oldini olish, axloqni tuzatish, jamoa oldida uyalishi, o'zini gunohkor deb bilish hissini uyg'otishi mumkin.

Jazo – bu o'quvchilarning o'z xulqi va harakatidagi nojo'yalik hamda kamchiliklarni anglashiga, tugatishiga, yaramas harakatlardan, sho'xliklardan o'zlarini tiyishiga yordam beradi. O'quvchilarning hatti-harakatidagi yomon tomonlarni o'z vaqtida qoralash va ta'qiqlash, ularni ikkinchi marotaba shu nojo'ya harakatlarni qilmaslikka, o'z xulq-atvorini tuzatishga yo'llaydi. Lekin bo'lar bollmasga jazolayverish ham zararlidir. Uning o'rniga bir marotaba o'rinli jazolash yaxshi natija beradi. Shu bilan birga, o'quvchiga xulqining noma'qul ekanligini asosli ravishda tushuntirish, uning ongiga yetkazish, o'z xatosini to'g'rilashga imkon beradi. O'qituvchi o'quvchilardagi yomon xulq-atvorlarni qoralash bilan birga uning yomon emasligini, unda yaxshi xislatlar ham borligini, agar istasa, o'z xulqidagi kamchiliklarni yo'qota olishi va sinf yoki guruh jamoasining eng yaxshi, namunali o'quvchisi yoki talabasi bo'lishi mumkin ekanini qayd qilib o'tishi kerak. Mana bunday nasihat yoshlarda o'z kamchiliklarini tuzatish va yaxshi fazilatlar paydo qolish istagini uyg'otadi. O'quvchilarga nisbatan jazo choralarini qo'llashda quyidagi pedagogik talablarga amal qilish kerak:

- a) jazoning haqqoniyligi;
- b) jazo aybdorni tarbiyalashi;
- v) aybdor nima uchun jazo olayotganini bilishi lozim.

Boshlang'ich ta'limda tarbiyaviy ishlarni samarali amalga oshirishda innovatsion texnologiyalarni qo'llash juda muhim. Bu texnologiyalar tarbiya jarayonini yanada interaktiv, qiziqarli va samarali qilishga yordam beradi. Quyida boshlang'ich ta'limda tarbiya jarayonida qo'llaniladigan innovatsion texnologiyalar haqida ba'zi ma'lumotlar keltirilgan:

1. Multimedia texnologiyalari. Multimedia texnologiyalari, ya'ni video, audio, animatsiya, slayd-shoular va boshqa ko'rgazmali materiallar yordamida o'quvchilarga tarbiyaviy ma'lumotlarni etkazish osonlashadi. Bu texnologiyalar:

- O'quvchilarning e'tiborini jalb qilishga yordam beradi.

- Tarbiyaviy mavzularni vizual va auditorial tarzda taqdim etish orqali o'quvchilarning idrokini kuchaytiradi.

- O'quvchilarning ma'lumotlarni yaxshiroq o'zlashtirishlariga yordam beradi, chunki ular ko'rsatilgan ma'lumotlarni bir necha sezgirlikkan foydalanib o'zlashtiradilar.

2. Interaktiv ta'lim texnologiyalari. Interaktiv ta'lim texnologiyalari, masalan, aqlli doskalar, ta'lim platformalari va mobil ilovalar orqali o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlash mumkin. Bu texnologiyalar yordamida:

- O'quvchilarga ta'lim jarayonida faol ishtirok etish imkoniyati yaratiladi.

- Tarbiyaviy mavzularni o'zaro muhokama qilish, guruhlar bilan ishlash orqali o'quvchilarda ijtimoiy ko'nikmalar rivojlanadi.

- O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi aloqani yanada kuchaytiradi.

3. Gamifikatsiya (Ta'lim o'yinlari). Gamifikatsiya – ta'lim jarayonida o'yin elementlaridan foydalanish metodidir. O'quvchilarga o'yin shaklida berilgan topshiriqlar va sinovlar:

- O'quvchilarning o'qishga bo'lgan qiziqishini oshiradi.

- Ularning o'ziga bo'lgan ishonchini va o'zaro raqobatbardoshlikni rivojlantiradi.

- Tarbiyaviy maqsadlarni amalga oshirishda o'yinlar yordamida o'quvchilarga axloqiy, ma'naviy qadriyatlarni o'rgatish mumkin.

4. Virtual va kengaytirilgan haqiqat (VR/AR). Virtual va kengaytirilgan haqiqat texnologiyalari yordamida o'quvchilarga virtual muhitda o'qish va tajriba qilish imkoniyatlari yaratish mumkin. Misol uchun:

- VR yordamida o'quvchilar tarixiy joylarni yoki tabiatni virtual tarzda ko'rishlari mumkin, bu esa ularning dunyoqarashini kengaytiradi.

- AR yordamida esa o'quvchilar haqiqiy dunyo bilan raqamli elementlarni birlashtirib, yaxshiroq o'rganishlari mumkin.

5. Elektron darsliklar va onlayn resurslar. Elektron darsliklar va onlayn resurslar tarbiya jarayonini qo'llab-quvvatlashda muhim rol o'ynaydi. Onlayn darsliklar, video-ma'ruzalar, elektron kitoblar:

- O'quvchilarga tarbiyaviy mavzularni har qanday joyda va vaqtda o'rganish imkoniyatini beradi.

- Resurslar orqali o'quvchilarni mustaqil ishlashga rag'batlantiradi va ularga o'z bilimlarini kengaytirish imkonini yaratadi.

6. Robototexnika va kodlash. Boshlang'ich ta'limda robototexnika va kodlash texnologiyalari yordamida:

- O'quvchilarda mantiqiy fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatlari rivojlanadi.

- Tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishda yangi yondashuvlarni sinovdan o'tkazish mumkin. Masalan, robotlar yordamida o'quvchilarga jamoaviy ish, mas'uliyat, hamkorlik va boshqalar kabi tarbiyaviy qadriyatlar o'rgatiladi.

7. Masofaviy ta'lim texnologiyalari. Masofaviy ta'lim texnologiyalari tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishda quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

- O'quvchilarni masofaviy tarzda o'qitish va ularni tarbiyaviy jihatdan rivojlantirish.

- Onlayn sinflar, video-darslar, va interaktiv mashqlar orqali o'quvchilarga turli tarbiyaviy mavzularni o'rganish imkoniyatlarini taqdim etish.

8. Mobil ilovalar va ta'lim platformalari. Mobil ilovalar va ta'lim platformalari yordamida:

- O'quvchilarga turli tarbiyaviy o'yinlar, viktorinalar va testlar orqali o'z bilimlarini oshirish mumkin.

- O'qituvchilar bilan uzluksiz aloqada bo'lib, tarbiya jarayonini kuzatish va o'quvchilarning natijalarini baholash mumkin.

Savol va topshiriqlar:

1. Tarbiya nima?
2. Boshlang'ich ta'limda interaktiv ta'lim texnologiyalarini qo'llashning afzalliklari qanday?
3. Multimedia vositalari yordamida boshlang'ich ta'limda tarbiya jarayonini qanday yaxshilash mumkin?
4. Elektron darsliklar va onlayn resurslar boshlang'ich ta'limda tarbiya jarayonini qanday samarali qilishga yordam beradi?

5. Innovatsion texnologiyalarni qo'llash orqali o'quvchilarning mantiqiy fikrlash va ijtimoiy kompetentsiyalarini qanday rivojlantirish mumkin?
6. Tarbiya jarayonida robototexnika va kodlash texnologiyalaridan foydalanish boshlang'ich ta'limda qanday o'zgarishlarga olib kelishi mumkin?
7. Innovatsion texnologiyalarni qo'llashda boshlang'ich ta'limdagi o'qituvchilarning tayyorgarlik darajasi qanday muhim ahamiyatga ega?
8. Innovatsion texnologiyalarni ta'lim jarayonida qo'llashda boshlang'ich sinf o'qituvchilari qanday pedagogik yondashuvlarni qo'llashlari kerak?
9. Innovatsion texnologiyalar yordamida individual ta'limni qanday amalga oshirish mumkin?
10. Boshlang'ich ta'limda tarbiya jarayonida ma'naviy-axloqiy qiymatlarni innovatsion texnologiyalar yordamida qanday rivojlantirish mumkin?

Test

1. Texnologiyalarning boshlang'ich ta'limda tarbiya jarayoniga ta'siri qanday?
 - a) Ta'lim sifatini oshiradi
 - b) Ta'limni qiyinlashtiradi
 - c) Ta'limni o'rganishni yanada murakkablashtiradi
 - d) Ta'limni qisqartiradi
2. Boshlang'ich ta'limda qanday innovatsion texnologiyalar qo'llaniladi?
 - a) Kompyuter va internet, multimedia vositalari
 - b) Faoliyatsiz ta'lim metodlari
 - c) Elektron pochta
 - d) Televizor va radio
3. Innovatsion texnologiyalarni boshlang'ich ta'limda qo'llashda asosiy maqsad nima?
 - a) O'qituvchilarning ishini qiyinlashtirish
 - b) O'quvchilarning o'rganish jarayonini samarali qilish
 - c) O'quvchilarga texnologik bilimlarni taqdim etish
 - d) Faqatgina zamonaviy texnologiyalarni o'rganish

4. Multimedia vositalaridan foydalanishning boshlang'ich ta'limdagi afzalliklari qanday?

- a) O'quvchilarning diqqatini jamlashni qiyinlashtiradi
- b) O'quvchilarga mavzuni tushunishda yordam beradi
- c) O'qituvchilarni hech qanday yordam ko'rsatmaydi
- d) Tez o'qishni ta'minlaydi

5. Boshlang'ich ta'limda elektron ta'lim platformalaridan foydalanishning eng muhim afzalligi nima?

- a) Ta'limda faqat mashqlarni bajarish mumkin
- b) O'quvchilarga interaktiv va shaxsiylashtirilgan o'rganish imkoniyatini beradi
- c) Faqat o'qituvchilarga yordam beradi
- d) Platformalar doimiy ravishda uzilib turadi

7. Boshlang'ich ta'limda tarbiya jarayonini innovatsion texnologiyalar orqali amalga oshirishda qaysi metod eng samarali hisoblanadi?

- a) Interaktiv o'qitish metodlari
- b) O'quvchilarga faqat nazariy bilimlar berish
- c) O'qituvchilarga faqat axborot taqdim etish
- d) O'quvchilarni jismoniy mashqlarga jalb qilish

8. Innovatsion texnologiyalar yordamida o'qitish jarayonida o'quvchilarning qanday qobiliyatlari rivojlanadi?

- a) Faqatgina jismoniy qobiliyatlar
- b) Yaratilish va kreativ fikrlash qobiliyatlari
- c) O'quvchilarning internetdan foydalanish darajasi
- d) Faoliyat bilan bog'liq qobiliyatlar

10. Boshlang'ich ta'limda o'qituvchilarga innovatsion texnologiyalarni qo'llashda qanday yordamlar ko'rsatilishi kerak?

- a) Faqat nazariy ma'lumotlar berish
- b) Amaliy ko'nikmalarni o'rgatish va texnologiyalardan foydalanishga yo'naltirish
- c) Faoliyatga doir hech qanday yordam ko'rsatmaslik
- d) Texnologiyalarni o'rganish bo'yicha faqat o'quvchilarga yo'riqnomalar taqdim etish

“Ven diagrammasi” metodi

tarqatma-7

“Sinkveyn” ni tuzish tartibi:

1. Birinchi qatorda mavzudagi bosh g‘oya bitta ot so‘z turkumiga xos so‘z bilan qayd etiladi.

2. Ikkinchi qatorda fikr ikkita sifat so‘z turkumiga xos so‘z bilan ifodalanadi.

3. Uchunchi qatorda mavzuga oid tushunchalar uchta fe‘l so‘z turkumiga xos so‘z bilan bayon qilinadi.

4. To‘rtinchi qatorda mavzu va g‘oyani aks ettirgan yaxlit bitta gap yoziladi.

5. So‘nggi qatorda mavzu mohiyatini ochib beruvchi so‘zning sinonimi (ma‘nodoshi) yoziladi.



8-mavzu. Boshlang‘ich ta‘limda sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarning maqsadi va vazifalari.

Reja:

1. Tarbiyaviy ishlarning asosiy yo‘nalishlari, maqsadi va vazifalari.
2. Tarbiyaviy ishlar jarayonida sinf rahbarining vazifalari.
3. Tarbiyaning asosiy tizimi.
4. Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar mazmuni, shakl va uslublari.
5. Sinf rahbarining o‘quv faoliyati samaradorligini oshirishga qo‘ygan talablari.
6. Tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda sinf rahbarining o‘rni.

Foydalanilgan adabiyotlar:

24. Mavlonova R., Raxmonqulova N., Normurodova B. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. -T.: Tib-kitob, 2010 y.
25. Ishmuhammedov R., Abduqodir A., Pardayev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar. -T.: Fan va texnologiya, 2010 y.
26. Олесникова.И.А., Н.М.Борытко и др. Воспитательная деятельность педагога. Учебное пособия. М.:Академия, 2006-333 с.
27. Подласый И.П. Педагогика 2-я част -М.: ВЛАДОС, 2003 г.
28. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdaqi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta‘lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6108-son farmoni.
29. www.pedagog.uz
30. www.prometeus.nsc.ru/contents/books/slasten

Tayanch tushunchalar. Tarbiyaviy ish, sinfdan tashqari ish, maktabdan tashqari ish, sinf rahbari, tizim, o‘quv faoliyati,

1. Tarbiyaviy ishlarning asosiy yo‘nalishlari, maqsadi va vazifalari.

Abdulla Avloninyning “Dars ila tarbiya orasida bir oz farq bo‘lsa ham bir biridan ayrilmaydigan, birining biriga bog‘langan kabitur” deb ta‘kidlashi bejiz emas. Ma‘lum bo‘ladiki, ta‘lim va tarbiyani bir-biridan ajratish mumkin emas. Shu bois, hozirgi kun pedagogikasining

asosiy vazifasi bilim berib, tarbiyalash tamoyiliga ko'ra tarbiyalab, bilim berish bo'lmog'i lozim.

Tarbiya deganda shakllanayotgan shaxsda shaxsiy, axloqiy sifatlarni shakllantirishni tushunamiz. Tarbiya, ta'lim berish bilan mustahkam aloqada bo'lgani holda o'ziga xos qonuniyatlarga ham egadir. Ta'lim – tarbiya yagona jarayondir. Lekin ular bir-biriga aynan o'xshash emas. Ta'lim va tarbiyaning birligi avvalo, ularning maqsadining umumiyligidadir.

Dunyoda birinchi bor insonning diqqat-e'tibori uning o'zligini anglashga qaratildi. O'zligini anglash birinchidan, uning ozod, erkin, nodir, ulug' siymoligini anglash va o'zida unga amal qilish sifatlarini shakllantirib borish bo'lsa, ikkinchidan, uning o'ziga xos milliyinsoniy asoslarini anglash va ularga amal qilishidan iboratdir. Yuqorida sanab o'tilgan ikki sifat komil inson sifatining asosini tashkil etadi. Komil inson sifatlarini tarbiya sohasidagi ilmlarini xulosalab, mujassamlashtirsa, ular asosan:

- a) ezgu niyat, fikr;
- b) ezgu so'z, xushmuomila;
- d) ezgu ish, ezgu faoliyatdan iboratdir.

Shu yuqoridagi uch sifat o'qitishning, ta'lim-tarbiyaning bosh maqsadiga kiradi. Bu bosh maqsad insonlarda, yoshlarda, mutaxassislarda komillik sifatlarini takomillashtirish, yoshlarni zamonaviy axloqiy-amaliy o'quv, malaka, ko'nikmalar bilan qurollantira borish, mutaxassislarda har bir sohaga mos ilm, bilim hosil qilishdan iborat bo'lgan pedagogika fanining zamonaviy fan asoslarining kengayganligini ko'rsatadi. Pedagogika fani o'qitishning, ta'lim-tarbiyaning zamonaviy qonuniyatlari, mazmuni, usullari, vositalari bilan kishilarni, yoshlarni, mutaxassislarni qurollantiruvchi fan bo'lganligi uchun, uning metodologik asoslari, maqsad va vazifalari dunyoning moddiy-ma'naviy rivojida shaxs kamoloti uyg'unligi qonuniyatlari va davlatning zamonaviy siyosatidan kelib chiqadi.

Tarbiya ma'naviy manbalar va hozirgi zamon talablari va ehtiyojlarini nazarda tutgan holda, o'qituvchining o'quvchi bilan aniq bir maqsadga qaratilgan o'zaro amaliy va nazariy muloqotidir. Biror bir maqsadga qaratilgan tarbiya jarayonining mohiyati va vazifalari tarbiyachi tomonidan rejalashtiriladi va tartibga solinadi:

- a) talabaning biron xislatini shakllantirish yoki yo'qotish maqsadida rejalashtiriladi;

b) shu xislatlarni tarbiyalash yoki yo'qotish uchun xizmat qiluvchi manbalar izlab topiladi;

d) belgilangan maqsad uchun xizmat qiladigan nazariy va amaliy manbalarni qaysisini va qayerdan izlashi rejalashtiriladi.

Tarbiya jarayonining jamiyat taraqqiyotidagi roli nihoyatda beqiyosdir. Insonni tarbiyalash, uni bilim olishga, mehnat qilishga undash va bu xatti-harakatini asta-sekin ko'nikmaga aylantirib borish lozim. Bu insonning mushohada qilish qobiliyatini tarbiyalaydi, mushohada qilish esa aqini peshlaydi. Aql ongni saqlaydi. Ong esa moddiy va ma'naviy manbaga aylanadi. Shu tarzda inson asta-sekin takomillashib, komillikka erishib boradi. Ammo buning uchun tarbiyachi va tarbiyalanuvchidan uzoq davom etadigan ma'suliyat, sharaflilik mehnat va qunt, iroda talab etiladi. Buning uchun bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olish zarur. Ma'naviy, insoniy sifatlarining shakllanishida oiladagi, atrofdagi, jamiyatdagi muhit va bolalarga bo'lgan munosabat muhim rol o'ynaydi. Ota-onalari va atrofdagilarning bir-birlariga bo'lgan munosabatlarini ko'rgan bola shunga qarab shakllana boradi. Ular avval kattalarga taqlid qiladilar. So'ng astasekin qilayotgan ishlarning mohiyatini anglaydilar. Bolalarni to'g'ri tarbiyalashda ota-onaning ongi, ma'naviyati, bilimi tarbiyalanganligi ham muhim ahamiyatga ega.

Aniq bir maqsadga qaratilgan tarbiyaning samaradorligi tarbiyachining qanday usuldan foydalanishiga bog'liq. Usul - yunoncha atama bo'lib, aynan qandaydir yo'l, usul orqali maqsadga, nimagadir erishish yo'lini bildiradi.

Usul axborotni uzatish va qabul qilish xarakteriga qarab:

- 1) so'z orqali ifodalash usuli;
- 2) ko'rgazmalilik usuli;
- 3) amaliy namuna usuli;
- 4) rag'batlantirish va jazo usuli bo'lishi mumkin

Tarbiya har bir insonning hayotda yashashi jarayonida orttirgan saboqlari va intellektual salohiyatlarining ijobiy ko'nikmasini o'zgalarga berish jarayoni.

Tarbiyaviy ishlarning asosiy yo'nalishlari, maqsadi va vazifalari boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarning ma'naviy, axloqiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanishini ta'minlash uchun muhimdir. Tarbiyaviy ishlar o'quvchilarni jamiyatda faol, mas'uliyatli va axloqiy jihatdan yetuk shaxslar sifatida tarbiyalashga qaratilgan.

Tarbiyaviy ishlarning asosiy maqsadi – o‘quvchilarni jamiyatda to‘g‘ri yo‘l tutishga, axloqiy qadriyatlarni hurmat qilishga, o‘z bilim va ko‘nikmalarini amaliyotda qo‘llashga, va shaxsiy javobgarlikni tushunishga yo‘naltirishdir. Bu jarayon quyidagi maqsadlarni o‘z ichiga oladi:

- O‘quvchilarda ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni rivojlantirish.
- O‘quvchilarga ijtimoiy va madaniy mas’uliyatni oshirish.
- O‘quvchilarning o‘z-o‘zini anglash va o‘ziga bo‘lgan ishonchini rivojlantirish.
- O‘quvchilarda ijtimoiy-ko‘nikmalarni, masalan, jamoada ishlash, boshqalarni hurmat qilish va etika qoidalariga rioya qilishni shakllantirish.
- O‘quvchilarda sog‘lom turmush tarzini qo‘llab-quvvatlash.

Tarbiyaviy ishlarning asosiy yo‘nalishlari

Tarbiyaviy ishlar turli yo‘nalishlar bo‘yicha amalga oshiriladi. Har bir yo‘nalish o‘quvchilarda muayyan ko‘nikma va sifatlarni rivojlantirishga qaratilgan. Ular quyidagilardan iborat:

Ma’naviy-axloqiy tarbiya

- Maqsadi: O‘quvchilarga axloqiy qadriyatlarni o‘rgatish, yaxshilik va yomonlikni ajratish, mas’uliyatli va mehnatkash shaxsni tarbiyalash.
- Vazifalari:
 - O‘quvchilarga do‘stlik, sadoqat, halollik, mehnatsevarlik kabi axloqiy qadriyatlarni o‘rgatish.
 - Ularni to‘g‘ri va adolatli qarorlar qabul qilishga o‘rgatish.
 - Ma’naviy jihatdan boy va to‘liq shaxsni shakllantirish.

Ijtimoiy tarbiya

Maqsadi: O‘quvchilarda ijtimoiy faollikni oshirish, ularni jamiyatda o‘z o‘rnini topishga, o‘zaro munosabatlarni to‘g‘ri tashkil etishga yo‘naltirish.

Vazifalari:

- Jamiyatda o‘zaro hurmat va mehr-oqibatni rivojlantirish.
- O‘quvchilarga ijtimoiy mas’uliyatni, jamiyatga foydali bo‘lishni o‘rgatish.
- O‘quvchilarga turli jamiyatdagi faoliyatlarda ishtirok etishga, o‘z fikrini bildirishga, boshqa odamlar bilan samarali muloqot qilishga yordam berish.

Fizik tarbiya va sog'lom turmush tarzi

Maqsadi: O'quvchilarda sog'lom turmush tarzini shakllantirish, sport va jismoniy faollikni rag'batlantirish.

Vazifalari:

- O'quvchilarga jismoniy faollikni, sportni sevishni o'rgatish.
- Sog'lom turmush tarzini qo'llab-quvvatlash, zararli odatlardan (masalan, chekish, spirtli ichimliklardan foydalanish) saqlanishni targ'ib qilish.
- O'quvchilarda sog'lom ovqatlanish, uyqu, jismoniy mashqlar va dam olishning ahamiyatini tushuntirish.

Madaniy tarbiya

Maqsadi: O'quvchilarda madaniyatni, san'atni, adabiyotni sevishni rivojlantirish.

Vazifalari:

- O'quvchilarga san'at, musiqa, teatr, adabiyot kabi madaniy sohalarni o'rgatish.
- Milliy an'analar va qadriyatlarni hurmat qilishni rivojlantirish.
- Madaniy merosni asrab-avaylash, tarixiy va madaniy obidalarni e'zozlash.

Ekologik tarbiya

Maqsadi: O'quvchilarda tabiatga hurmat va uning resurslaridan oqilona foydalanish bo'yicha ongini shakllantirish.

Vazifalari:

- Tabiatni asrash, ekologik muammolarga e'tibor qaratish.
- O'quvchilarga ekologik ongini rivojlantirish va atrof-muhitni himoya qilishni o'rgatish.
- Suyukli hayvonlar va o'simliklar bilan ehtiyotkorlik bilan muomala qilishni targ'ib qilish.

Texnologik tarbiya

Maqsadi: O'quvchilarni zamonaviy texnologiyalar bilan ishlashga o'rgatish, axborot texnologiyalaridan samarali foydalanishni rivojlantirish.

Vazifalari:

- O'quvchilarga kompyuter va internet texnologiyalarini to'g'ri va foydali tarzda ishlatishni o'rgatish.
- O'quvchilarda axborot xavfsizligi va internet etikasini shakllantirish.

Tarbiyaviy ishlarning vazifalari

Tarbiyaviy ishlar bir nechta vazifalarni bajarishga qaratilgan:

- **Shaxsiy rivojlanish:** O'quvchilarni ma'naviy, axloqiy, ijtimoiy va jismoniy rivojlantirish, ularni baxtli, sog'lom va to'liq shaxslar sifatida tarbiyalash.
- **Qadriyatlarni shakllantirish:** O'quvchilarda milliy, axloqiy, ma'naviy qadriyatlarni, jamiyatga bo'lgan mas'uliyatni rivojlantirish.
- **Faollikni oshirish:** O'quvchilarda o'zini ifodalash, ijtimoiy faoliyatlarda qatnashish, jamoaviy ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish.
- **Jamiyatga moslashish:** O'quvchilarni jamiyatga mos ravishda tarbiyalash, ularni o'z-o'zini anglashga va jamoa bilan ishlashga o'rgatish.

Tarbiyaviy ishlarning asosiy yo'nalishlari, maqsadi va vazifalari o'quvchilarda mustahkam ijtimoiy, axloqiy va ma'naviy qadriyatlarni shakllantirishga qaratilgan. O'quvchilarning individual rivojlanishi va jamiyatga moslashishini ta'minlash uchun turli tarbiyaviy yo'nalishlarni amalga oshirish muhimdir. Tarbiyaviy ishlar nafaqat o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish, balki ularni to'liq shaxs sifatida tarbiyalashga ham yordam beradi.

2. Tarbiyaviy ishlar jarayonida sinf rahbarining vazifalari.

Tarbiya – bu insonni ijtimoiy tajribalar bilan, uning barcha shakllarida bilim, his-hayajon, estetika, odob-axloq qoidalari bilan tanishtirish va individning ichki o'ziga hos jihatlarini, imkoniyatlari va layoqatlarini rivojlantirish bo'yicha faoliyat hisoblanadi. Mana shu tarbiyaning asosiy manbai–shaxslar bo'lib qoladi–bu jamiyat va individning o'zidir.²

Tarbiya, jamiyatdagi hodisa sifatida, o'sib kelayotgan avlodning jamiyat hayotida, turmushi, ijtimoiy ishlab chiqarish faoliyati, ijodi va ma'naviyligida ishtirok etishi murakkab qarama-qarshi ijtimoiy-tarixiy jarayon hisoblanadi. Ularning odam bo'lishlari, rivojlanishlari va individualliklari, jamiyatning ishlab chiqarish kuchlari muhim elementlari, shaxsiy baxtlarini yaratuvchilari bo'lib ishtirok etadi. U ijtimoiy taraqqiyot va avlodlar ketma-ketligini ta'minlaydi. Tarbiya, ijtimoiy hodisa sifatida, uning mohiyatini ifoda etuvchi quyidagi asosiy belgilari bilan ifodalanadi:

² M.Imomova. Oilada bolalarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi. – T., 1999.

Tarbiya o'sib kelayotgan avlodni ijtimoiy hayot va ishlab chiqarish sharoitlariga jalb etish, ular bilan eskirayotgan va hayotdan chiqayotganlarini almashtirishning amaliy ehtiyojidan kelib chiqqan. Natijada, bolalar katta bo'ladilar, o'z hayotlari va mehnat qobiliyatini yo'qotayotgan katta avlod hayotini ta'minlaydilar.

Tarbiya – doimiy, zarur va umumiy kategoriya. U insoniyat jamiyati yuzaga kelishi bilan birga paydo bo'ladi va jamiyatning o'zi yashar ekan, u ham mavjud bo'ladi. U jamiyatning mavjudligi va doimiyligi, uning ishlab chiqarish kuchlarini tayyorlash va insonni rivojlantirishni ta'minlashning muhim vositasi hisoblanganligi uchun ham zarurdir. Unda qonuniy o'zaro bog'liqliklar va bu hodisaning boshqa ijtimoiy hodisalar bilan o'zaro bog'liqliklari aks ettiriladi. Tarbiya, o'qitishning bir qismi sifatida, ta'limni ham o'z ichiga oladi.

Maktabda boshlang'ich sinflarda tarbiyaviy ishlarni olib borish, uni yo'lga qo'yish sinf rahbari yoki tarbiyaviy ishlar tashkilotchilari tomonidan uyushtiriladi.

Mazkur boshqaruv tashkilotchilik ishi ko'nikmalarini tarbiyalaydi, umumiy g'oyalari bilan ahil, jipslashgan o'quvchilar jamoasini tuzadi. O'quvchilar o'z-o'zini idora qilish tizimi maktab o'quvchilari jamoasi tomonidan o'zining faoliyatida demokratik faoliyat tarzlarini chuqur o'zlashtirish uchun qulay sharoitlar yaratadi. Bu to'g'ri taqsimlash, ijro ustidan hisobot va nazoratni yo'lga qo'yish, harakatlar, tashabbuskorlikning uyg'unligini ta'minlash, musobaqalar uyushtirish, o'z zimmasiga mas'uliyat olish kabi ko'nikmalardan iborat. Tarbiyalanuvchilar davrimiz kishisi uchun zarur bo'lgan qator axloqiy sifatlarni, chunonchi, jamoat ishiga va unga qo'shadigan ulushi uchun shaxsiy mas'uliyat, jamoa manfaatlariga sodiqlik, o'zaro munosabatlarda qat'iylik, talabchanlik, jamoat tashabbusini qo'llab-quvvatlash kabi sifatlarni egallaydi.

Hozirgi davr talabi maktabdagi o'quv-tarbiya ishlarini amalga oshirayotgan pedagogik jamoa oldiga juda katta vazifalar qo'ymoqda. Maktab yosh avlodning dunyoqarashini tarkib toptirishi, g'oyaviy, siyosiy jihatdan chiniqtirishi, yuksak axloqiy fazilatlariga ega qilishi, mehnatga va ongli kasb tanlashga tayyorlashi lozim. Bu vazifalarni hal qilishda sinf rahbari muhim rol o'ynaydi.³ Chunki u bir sinf sharoitida

³ Z.Qo'ziev. Sinf rahbari ishini tashkil etish va rejalashtirish. – T., 1997.

tarbiyaviy vazifalarni amalga oshirishga qaratilgan ishlarni tashkil etadi va boshqaradi. Sinf rahbari quyidagi vazifalarni bajaradi:

O'ziga yuklatilgan sinfdagi tarbiyaviy ishlarni amalga oshiradi. Bu vazifani bajarayotganda u yolg'iz o'zi emas, balki shu sinfdagi dars berayotgan turli fan o'qituvchilari bilan hamkorlikda va ularga suyanigan holda o'quvchilarda milliy dunyoqarash asoslarini shakllantiradi, axloqiy tarbiyasini rivojlantiradi. O'quvchilarning darsdan tashqari tadbirlarini tashkil etadi va sinf jamoasini mustahkamlaydi.

O'quvchilarning bilimga bo'lgan qiziqish va qobiliyatini o'stirish, har bir o'quvchining individual-psixik xususiyatlarini hisobga olgan holda kasbga yo'naltirish va hayotiy maqsadlarini shakllantirish sinf rahbarining alohida vazifasidir. Ayni paytda har bir o'quvchining sog'lig'ini mustahkamlashga ham alohida e'tibor beradi.

Sinf rahbarining diqqat markazida o'quvchilarning darsni yuqori o'zlashtirishlarini ta'minlash masalasi turadi. Buning uchun u har bir o'quvchining kundalik o'zlashtirishidan voqif bo'lib turadi. Orqada qolayotganlarga o'z vaqtida, kechiktirmay yordam uyushtiradi.

Sinfdagi o'quvchilarning o'z-o'zini boshqarish ishlarini yo'naltirib turadi. Ular ishtirokida sinf jamoasining ijtimoiy foydali ishlardagi ishtirokini hamda maktab miqiyosida uyushtirilayotgan muhim tadbirlarda o'z sinfining faol qatnashishini ta'minlaydi.

Sinf o'quvchilarining ota-onalari, kuni uzaytirilgan guruhlarining tarbiyachilari, korxonalar va muassasalardagi, turar joylardagi otaliqqa oluvchilar bilan yaqin aloqa o'rnatadi.

Sinf rahbari shu sinfdagi dars berayotgan barcha fan o'qituvchilari o'rtasida o'quvchilarga nisbatan yagona talablar o'rnatilishiga erishadi, ota-onalarga pedagogik bilimlar tarqatib, oila bilan maktab o'rtasidagi aloqani mustahkamlaydi.

Sinf rahbari o'z sinfidagi turli hujjatlarini: sinf jurnali, o'quvchilarning kundaliklari, tabellar, shaxsiy ma'lumotlari, turli xil reja va hisobotlarni yuritadi.

Ko'rinib turibdiki, vazifa keng va murakkab, ularni muvaffaqiyatli hal qilish sinf rahbarining shaxsiy sifatlariga ham bog'liqdir. Sinf rahbarining shaxsiy sifatlariga qo'yiladigan talablar o'qituvchiga qo'yiladigan talablardan farq qilmaydi. Lekin, sinf rahbari asosiy tarbiyachi, bolalar ma'naviy jihatdan andoza oladigan shaxs bo'lganligi uchun ham, bu talablar uning shaxsiy fazilatiga aylanib ketishi bilan

tarbiyada alohida rol o'ynaydi. Tarbiyaviy ishlarning sifat va samaradorligi, avvalo, tarbiyachining g'oyaviy ishonchiga va siyosiyligining darajasiga bog'liq. Buning uchun sinf rahbari fan yangiliklarini muntazam egallab borishi bilan o'zining bilimini, ongini oshiradi.

Sinf rahbari maktabdagi eng yetuk pedagog hisoblanib, u bajaradigan mehnatining o'lchovi, chegarasi yo'q. Uning bilmagan ishi, uddasidan chiqa olmaydigan sohasi bo'lmaydi. Shu bilan bir qatorda, u beg'araz, xolis shaxs bo'lib, jamoatchilik asosida ishlaydi. Sinf rahbari pedagoglar, ota-onalar va o'quvchilarni o'zaro bog'lovchi shaxs sifatida barcha tomonlarning nuqtai nazarini hisobga olishi, harakatlarni bir markazga birlashtirishi, o'zaro aloqalarning to'g'ri bo'lishiga ta'sir o'tkazishi va ayni vaqtda, o'zining o'rnini aniq ta'minlay olishi kerak. Mana shu fazilatlar sinf rahbarining tarbiyaviy ishlari samarasini oshirishga va uning muvaffaqiyatini ta'minlashga garov bo'ladi. Sinf rahbari o'quvchilarga puxta bilim berishga, ularning fikrlash qobiliyatini faollashtirishga hamisha g'amxo'rlik qilib boradi. Hatto o'zlashtirish yuqori bo'lgan sinflarda ham bolalarda ilmga bo'lgan qiziqish va muhabbatni o'stirishga, ta'lim sifatini oshirishga harakat qilishi zarur. Ayrim maktablarda yuqori o'zlashtirishga erishish o'quv, didaktik masala sifatida maktabda ta'lim-tarbiyani to'g'ri yo'lga qo'yishga bog'liq bo'ladi.

9-mavzu. Boshlang'ich ta'limda sinf rahbari ishini rejalashtirish

Reja:

6. Sinfdagi tarbiyaviy ishlar mazmuni, shakllari va usullari.
7. Sinf rahbari ishini rejalashtirish va mustaqillik g'oyalarini singdirish.
8. Rejaning aniqligi.
9. O'quvchilar jamoasi bilan ishlash.
10. Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarni tashkil etish.
11. Ota-onalar bilan ishlash.

Foydalangan adabiyotlar

31. Mavlonova R., Raxmonqulova N., Normurodova B. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. -T.: Tib-kitob, 2010 y.

32. Ishmuhammedov R., Abduqodir A., Pardayev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar. -T.: Fan va texnologiya, 2010 y.

33. И.А.Олесникова, Н.М.Борытко и др. Воспитательная деятельность педагога. Учебное пособия. М.:Академия, 2006-333 с.

34. Подласый И.П. Педагогика 2-я част -М.: ВЛАДОС, 2003 г.

35. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6108-son farmoni.

36. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6108-son farmoni

37. www.pedagog.uz

38. <http://window.edu.ru/window/www.astronet.ru>

Tayanch tushunchalar. Sinf, o‘quvchi, reja, mustaqillik, jamoas, ota-ona, aniqlik, tarbiyaviy ish, sinfdan tashqari ish

1. Sinfdagi tarbiyaviy ishlar mazmuni, shakllari va usullari.

O‘rta umumta’lim maktab o‘quvchilari ta’lim-tarbiya sifatini yaxshilash uchun o‘qituvchi va tarbiyachilar sinfdan va maktabdan tashqari ishlar imkoniyatidan keng ravishda foydalanadilar.

Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarga turli anjumanlar, kechalar, o‘tkir zehnlilar musobaqasi, ekskursiyalar o‘tkazish, kino-teatrlarga borish, zavod va fabrikalarga ekskursiya tashkil etish, devoriy gazetalar chiqarish va boshqalar kiradi.

Sinfdan tashqari ishlar ikki turga bo‘linadi: ta’limiy va tarbiyaviy. Sinfdan tashqari ta’lim ishlariga maktabda ma’lum fan yuzasidan tashkil etiladigan ishlar: to‘garaklar, olimpiadalar kiradi. Biz ushbu kurs ishimizda mavzuimiz muammosi yuzasidan sinfdan tashqari tashkil etiladigan tarbiyaviy ishlarga ko‘proq to‘xtalamiz. Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarning asosiy maqsadi va vazifasi o‘quvchilarning axloqiy, mehnat, estetik tarbiyasini yaxshilashdir. Sinfdan tashqari ishlar o‘uvchilar qobiliyatini rivojlantiradi, o‘qishga bo‘lgan havasini oshiradi va ular shaxsini har tomonlama rivojlantirish uchun imkoniyat tug‘diradi.

Sinfdan tashqari ishlar oldiga bir necha talablar qo‘yiladi:

1. Barcha tarbiyaviy ishlar istiqlol, milliy g'oyaga qaratilishi lozim;

2. Sinf dan tashqari ishlar o'quvchilar bilimini mustahkamlashi, jismoniy jihatdan sog'lomlashtirishga yordam berishi lozim.

3. Sinf dan tashqari tarbiyaviy ishlar ta'limiy ishlar bilan mustahkam aloqada olib borilishi lozim.

Maktablarda o'quvchilarning sinf dan va maktabdan tashqari ishlari o'z xarakteri va mazmuniga ko'ra juda ham xilma-xildir. Ularni bir necha guruhga ajratish mumkin.

1. Ta'lim xarakteridagi mashg'ulotlar. Bu mashg'ulotlarning asosiy maqsadi ayrim fanlarni chuqurroq o'rganish, o'quvchilarda ilm-fanga qiziqish uyg'otishdir. O'quvchilar darsdan tashqari vaqtlarida ilmiy va ommabop kitoblarni mutolaa qiladilar. O'quvchilar o'lkashunoslik ishlarida ham qatnashadilar. Ular jonajon o'lkamiz bo'ylab ekskursiyalarda ishtirok etadilar. Bunday yurishlar ularda vatanparvarlik fazilatlarini tarbiyalaydi. Turli xil mutaxassis va odamlar bilan muomalada bo'lib, axloq-odob qoidalariga qilishni o'rganadilar.

2. Texnikaviy to'garaklarda shug'ullanish. Bularning maqsadi – o'quvchilarni hozirgi zamon texnikasi bilan tanishtirish, mehnat qilish xususiyatlarini rivojlantiradi.

3. Siyosiy-tarbiyaviy xarakterdagi mashg'ulotlar. Bularga siyosiy tadbirlar, shanbaliklar, slyotlar, kechalar, san'at festivali, tarbiyaviy soatlar va boshqa tadbirlarni kiritish mumkin.

4) Maktabda sinf dan tashqari ishlarning asosiy bo'limlaridan biri o'quvchilarning badiiy va ilmiy-ommabop adabiyotlarni o'qish uchun foydalanish yo'lga qo'yishdir. Har bir bo'sh vaqtdan o'qish uchun foydalanish odatga aylanishi kerak. Bu odatni esa tarbiyalash lozim.

Bu ishlar asosan kutubxona mudirasi va sinf rahbarlari, maktab tashkilotchisi va bolalar yetakchisi ishtirokida o'tkaziladi.

Ba'zi o'quvchilar kitob o'qish bilan birga badiiy ijod bilan ham shug'ullanadilar. O'qituvchilar, sinf rahbarlari bunday ijodkorlikni har tomonlama va muntazam rag'batlantirishi kerak. Yosh qalamkashlarning eng yaxshi asarlarini devoriy gazeta e'lon qilish va maktab radiosi orqali eshittirishi maqsadga muvofiqdir.

O'quvchilar bilan olib boriladigan sinf dan va maktabdan tashqari ishlar tarbiyaning umumiy tamoyillari asosida quriladi. Shu

bilan birga turli xil mashg'ulot va tadbirlarni tashkil etishda o'ziga xos tamoyillar mavjud. Bu tamoyillarni ko'rib chiqamiz.

1) O'quvchilar bilan olib boriladigan barcha sinfdan va maktabdan tashqari ishlar milliy istiqlol g'oyasi asosida bo'lishi lozim.

2) O'quvchilarning sinfdan tashqari ishlarining ma'lum bir bo'limini, shakllari va mazmunini qiziqish va qobiliyatlarni hisobga olgan holda ixtiyoriy tanlashi kerak.

3) Sinfdan va maktabdan tashqari ishlar ommaviy xarakterga egadir.

4) To'garaklarni tashkil etishda va sinfdan tashqari tadbirlarni o'tkazishda o'quvchilarning mustaqilligi va tashabbuskorligiga tayanish lozim.

5) Sinfdan va maktabdan tashqari ishlar ijtimoiy foydali yo'nalishda va ijodiy xarakterga ega bo'lishi lozim.

6) Sinfdan va maktabdan tashqari barcha tadbirlar maktab ta'lim-tarbiya ishlarining vazifalariga bo'ysunishi shart.

Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarning barcha shakllarini uch guruhga bo'lish mumkin:

4. O'quvchilarning individual ishlari;

5. To'garaklar, ulardan har biri konkret faoliyat turi bilan qiziquvchi nisbatan oz sonli o'quvchilarni qamrab oladi;

6. Ko'pchilik o'quvchilar uchun tashkil etiladigan ommaviy tadbirlar.

Individual (yakkama-yakka) ish to'garaklari tashkil etishda dastlabki bosqich hisoblanadi.

U shundan iboratki, ayrim o'quvchilar o'qituvchi rahbarligida fanni chuqurroq o'rganish bilan shug'ullanadilar.

Maktabda tashkil etiladigan sinfdan va maktabdan tashqari ishlar o'quvchilarning bilim saviyasini oshirish bilan birga, ularni axloq-odob, estetik ruhda tarbiyalaydi, ma'naviyatini shakllantiradi.

2. Sinf rahbari ishini rejalashtirish va mustaqillik g'oyalarini singdirish.

Sinf rahbari ish rejasi bu majburiy pedagogik hujjatdir. Ish reja choraklik, yarim va bir yillik tuzilishi mumkin. Hozirgi sharoitda tajribalarning ko'rsatishiga binoan yarim yillik rejasidan foydalanish ancha samara bermoqda.

Sinf rahbari ish rejasi maktabning yig'ilishida muhokamadan o'tkazib tasdiqlash maqsadga muvofiqdir

Rejani ishlab chiqishga tayyorgarlik. Sinf rahbarining ish rejasi-umumiy strategik yo'nalishlarga bo'lib, tarbiyaviy ishlarining kelajakdagi yo'nalishlarini aniq belgilab beradi.

Tajribalar shuni ko'rsatadiki, sinf rahbari butun o'quv yili uchun istiqbolli ish rejasiga ega bo'lsa va keyinchalik o'quv tadbirlari uchun batafsil rejalar tuzsa yaxshi bo'ladi. Biroq, bu o'qituvchining tajribasi, shuningdek, maktabning an'analari va ta'limni boshqarish organlari tomonidan mumkin bo'lgan ko'rsatmalar bilan belgilanadi.

Sinf rahbari o'tgan o'quv yili yakunida o'quv yuklamasining taqsimlanishi va yangi o'quv yili uchun sinf rahbarligi ma'lum bo'lgandan keyin, reja ustida ishlashni boshlashi kerak. Agar sinf rahbari yangi sinfni qabul qilsa, u o'quvchilarning, ularning oilalarining shaxsiy ishlari bilan tanishishi, sinfda mavjud bo'lgan ta'lim tizimini, urf-odatlarini, jamoaning rasmiy va norasmiy tuzilishini o'rganishi kerak. Bularning barchasi tarbiyaviy ishlarda uzluksizlikni ta'minlashga yordam beradi.

O'quv yili oxirida maktab psixologining yodamida sinfdagi psixologik muhitni, jamoa hayotini jipsligini boshqa muhim parametrlarini aniqlash tavsiya etiladi. O'quvchilarning o'zaro munosabatlarini, shuningdek, o'qish, mehnat, tabiat, san'at va atrofdagi voyeylikning boshqa hodisalari va jarayonlarini aniqlash foydali bo'ladi.

Shunday qilib, sinf rahbari tarbiyaviy ish rejasini tuzish uchun tayyorgarlik bosqichi sinf jamoasi va individual o'quvchilar haqida ma'lumot to'plash bilan bog'liq bo'lib, u asosiy ta'lim vazifalarini belgilaydi.

Tarbiya jarayoni va uning natijasi ishning qay darajada tashkil etilganligi va undan keladigan samaraga bog'liq. Sinf rahbari tarbiya ishini sinf miqyosida hal etishda istiqbolni tasavvur eta olsa, kelajakni ko'ra bilish mahoratiga ega bo'lsagina u muvaffaqiyat bilan ishlay oladi.

Hozirgi kunda mehnatni ilmiy asosda tashkil etish davrning muhim talabi bo'lib qoldi. Shu boisdan ham sinf rahbari ishini ilmiy asosda tashkil etishda quyidagi talablarga rioya qilish kerak: o'z ishida tarbiyaning umumiy maqsadini hisobga olgan xolda shu kun uchun muhim bo'lgan aniq maqsadni belgilash: bolalar jamoasining

xususiyatidan kelib chiqadigan vazifalarni tushuntirish; tarbiyaning umumiy qonuniyatlari va prinsiplarini, o'quvchilarga ta'sir etishning shakli, metodi, vositalarini yaxshi bilish; bolalar sinfini idora qilish qoidalari va jamoani rivojlantirish qonunlarini bilish kabilar.

Tarbiyada ijod qilmay ishlash mumkin emas. Agar sinf rahbari o'z ishidagi xar bir qadamining pedagogik ma'nosini yaxshi bilsa, u o'quvchilar qalbining muhandisiga aylanadi, aks xolda esa oddiy bir hunarmand bo'lib, qoladi xolos.

Sinf rahbari o'z ishini rejalashtirishda, o'quvchilarning rivojlanish darajasini, ehtiyojlarini, jamoa taraqqiyoti bosqichlari, kamolot tashkiloti faolligini va imkoniyatlarini hisobga olishi kerak.

Buning uchun sinf rahbarining rejasi:

Birinchidan, o'z mazmuniga ko'ra g'oyaviy-siyosiy, ijtimoiy foydali yo'nalishga qaratilgan bo'lishi, ya'ni jamiyatning va boshqalarning foydasiga qaratilgan ishlarga alohida e'tibor berish;

Ikkinchidan, tarbiyaning yo'nalishini, o'quvchilarga ta'sir etish vositalarini maqsadga muvofiq tanlash, ya'ni reja mo'ljallanayotgan ishlar nimaga va kimga qaratilganligini aniqlash;

Uchinchidan, rejadagi ishlar aniq - umumiy maqsadga bo'ysundirilgan, bajaruvchilari, vaqti, ish shakli ko'rsatilgan bo'lishi;

To'rtinchidan, rejadagi ishlar o'quvchilar kuchiga va yoshiga mos kelishi;

Beshinchidan, o'quvchilar qiziqishiga asoslanishi va ehtiyojlaridan kelib chiqishi;

Oltinchidan, mo'ljaldagi ishlarni bajarishda butun jamoaning va yakka shaxslarning ishtirokini hisobga olish;

Yettinchidan, bajarilishi lozim bo'lgan barcha ishlar oldindan hammaga ma'lum qilinishi kabi talablarga javob berishi lozim.

Vatanparvarlik – shaxsni, jumladan o'quvchilar shaxsini axloqiy-ma'naviy, mafkurviy madaniyatini shakllantirishning eng muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Shuning uchun maktabda har bir o'quvchida quyidagi xususiyatlarni shakllantirish maqsadga muvofiq.

- o'quvchilarni milliy istiqlol mafkurasiga cheksiz sadoqat, Vatanga mehr-muhabbat, obod va ozod Vatan barpo etishdek ulug' va olijanob maqsadga e'tiqod, jasurlik va fidoiylikka qaratilgan ishlarni tashkil etish;

- mustaqil davlatimiz qo'lga kiritgan yutuqlarni himoya qilish zarurligi hissini uyg'otish;

- o'quvchilarning o'z hayotiy rejalarida vatanparvarlik faoliyatiga ajratgan diqqat-e'tiborini kuchaytirish;
- vatanparvarlik tarbiyasida o'zbek xalqining ulug' mutafakkirlari merosidan foydalanish;
- mustaqillikka mehr-muhabbat his-tuyg'usini shakllantirish.

Vatanparvarlik hissini tarbiyalashda sinfdan va maktabdan tashqari ishlarning o'rni katta.

O'zbekiston O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunida maktabdan tashqari ishlar haqida quyidagilar aytib o'tilgan: «Bolalar va o'smirlarning yakka tartibdagi ehtiyojlarini qondirish, ularning bo'sh vaqti va dam olishlarini tashkil etish uchun davlat organlari, jamoat birlashmalari, shuningdek boshqa yuridik va jismoniy shaxslar, madaniy-estetik, texnikaviy, sport va boshqa yo'nalishlardagi maktabdan tashqari ta'lim muassasalarini tashkil etishlari mumkin.

Maktabdan tashqari ta'lim muassasalarida bolalar, o'smirlar ijodiyot saroylari, uylari, klublari va markazlari, bolalar-o'smirlar sport maktablari, san'at maktablari, musiqa maktablari, stadionlar, kutubxonalar, sog'lomlashtirish muassasalari va boshqalar kiradi.

Maktabdan tashqari ta'lim muassasalarini tashkil etish va ularning faoliyat ko'rsatish tartibi qonun hujjatlarida belgilab qo'yiladi».

Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarning muvaffaqiyati ko'p jihatdan uning rejalashtirilishiga bog'liq. Barcha tarbiyaviy ishlar o'quv yilining boshida maktab direktorining ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha muovini tomonidan hamma sinf rahbarlari bilan maslahatlashgan holda rejalashtiriladi.

Rejada ushbu masalalar ko'zda tutiladi:

1. To'garaklar ro'yxati va ularning rahbarlari
2. To'garaklarni jihozlash, asboblari va qo'lyozmalar bilan ta'minlash
3. To'garaklar faoliyati jadvali
4. Sinfdan va maktabdan tashqari ommaviy tadbirlar grafigi.
5. ommaviy madaniy tadbirlarda ishtirok etuvchilar hay'ati va mas'ul kishilar.

Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarni hayotga tatbiq etish jarayonida pedagoglar bolalarning mustaqilligini ta'minlashlari zarur.

O'quvchilarning mustaqilligi turli darajalarda bo'lishi mumkin. Ayrim o'quvchilar topshiriq va vazifalarni faol va mustaqil holda bajaradilar, ya'ni pedagoglarning ushbu ishga aralashishi shart emas. Bolalar pedagog yordamisiz ishlaydilar. Bu yerda o'qituvchining aralashuvi maqbul emas, chunki bunday munosabat bolalarning mehnatsevarligi, tashabbuskorligini shakllantirishda imkoniyatlarni cheklaydilar.

O'quvchi mustaqil harakat qilib, lekin o'z ishini tarbiyachining fikriga bog'liq qilib qo'ygan paytda tobe' mustaqil holat vujudga keladi. Ish zo'r ishtiyoq bilan bajarilsa ham, mustaqil ishni bajarayotgan bolaning harakatlarida ishonsizlik jihatlari ko'zga ko'rinadi.

Pedagogning to'la rahbarligi va nazorati ostida harakat qiladigan o'quvchilar toifasida majburiy bajarish holati paydo bo'ladi. Bunda o'quvchilar ishga unchalik qiziqmaydilar. Ular ko'pincha o'qituvchidan yordam so'rab murojaat qiladilar.

Mustaqil tayyorgarlikning nazoratsiz ijro holati rasmiy ijrochilik bilan, ishtiyoq va havas bilan mehnat qilishni istamasligini yashirishga intilayotgan o'quvchilar kuzatiladi. Bunday holatni uzoq vaqt saqlash mumkin emas, chunki bunday holat ularda faollik va tashabbuskorlik xususiyatlarini barham toptiradi.

Maktab o'quvchilarining mustaqilligi ikki tomonlama xususiyatga ega. O'quvchilar faoliyatida mustaqillik darajasi, o'qituvchi faoliyatida yordam berish darajasi. Mustaqillik darajasi deganda biz o'quvchilarning pedagog yordamiga bo'lgan ehtiyojini nazarda tutamiz. Yordamga muhtojlik qanchalik yuqori bo'lsa, o'quvchilarning mustaqillik darajasi shuncha past bo'ladi.

Pedagoglarning mustaqillikni tarbiyalash vazifalarini hal qilishga sarflangan kuch-g'ayrati va mehnati o'quvchilarning ruhiy faoliyatiga mutanosibdir. Agar bolalar mustaqil tayyorgarlikni o'z faoliyati darajasining tabiiy holat sifatida qilsalar, ham pedagog, ham o'quvchi tomonidan ko'p zahmat talab etilmaydi. Aksincha, mashg'ulotga yomon tayyorgarlik ko'rish hamma uchun qo'shimcha qiyinchiliklar tug'diradi.

O'qituvchilar va sinf rahbarlari sinfdan va maktabdan tashqari ishlarni rejalashtirish va amalga oshirish jarayonida o'quvchilarning mustaqillik darajasini hisobga olishlari va shu asosda o'z shogirdlarini turli tadbirlarga jalb etishlari lozim.

Shuni ham qayd etish lozimki, maktabning ish rejasiga ota-onalar va jamoatchilik bilan hamkorlikda olib boriladigan ishlar, o'qituvchilarning ota-onalar bilan olib boriladigan ishlarning turli shakllari, ota-onalar majlisi, individual suhbat, konsultasiyalar, mahalla va aholi yashaydigan qishloqlarda, zavod va fabrika, qurilish tashkilotlarida olib boriladigan turli tarbiyaviy mavzulardagi pedagogik tashviqot, targ'ibot ishlari hamda jamoatchilik va ota-onalarning maktabga qanday yordam berishi kabi masalalar ko'rsatiladi.

Pedagogika fanida sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar muammosi muhim o'rin tutadi, zero bunday ishlar o'quvchilarning bilim olishlari bilan birga axloqiy, jismoniy, estetik tarbiyasini yaxshilaydi.

Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarning asosiy belgisi shundan iboratki, ular asosan ijtimoiy foydali maqsadga ega. O'quvchilar ushbu ishlar jarayonida o'z istak va havas ham turli qobiliyatlarini rivojlantirish bilan birga maktabning ijtimoiy hayotida qatnashib, maktabga foyda keltiradilar.

Maktabda turli to'garaklar mavjud. O'quvchilar pedagoglar rahbarligida to'garak faoliyatida ishtirok etib, o'z bilimlarini kengaytirib, ma'ruza qilishni, shuningdek muomala va munosabat odobini o'rganadilar hamda har tomonlama yetuk inson bo'lishga intiladilar. Misol uchun adabiyot to'garagini olaylik. O'quvchilar ushbu to'garakda qatnashib hikoya, she'r o'qishni o'rganadilar va adiblar ijodi bilan yaqindan tanishadilar, shuningdek devoriy gazeta, jurnal chiqaradilar, yozuvchilar bilan uchrashuvlar o'tkazadilar.

Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarning yana bir ijobiy xususiyati shundan iboratki, o'quvchilar bu ishlarda qatnashib, mustaqillikni, mustaqil ravishda ko'pgina topshiriqlarni bajarishni o'rganadilar. Ular olgan bilim, ko'nikma va tajribalarini o'rtoqlari bilan baham ko'radilar va bu holat o'quvchilar do'stligini mustahkamlaydi.

Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarning turlari ko'p. Bulardan bir maktablarda tashkil etiladigan ijtimoiy foydali mehnat hisoblanadi.

Ma'lumki, aqliy va jismoniy mehnat insonlarni tarbiyalaydi va yanada kamol topishida muhim rol o'ynaydi. Shu yo'l orqali o'quvchilar mehnat jarayoni, ishchilar, dehqonlar, fermerlar faoliyati bilan tanishadilar hamda moddiy boyliklar qanday yaratilishi haqida ma'lumotga ega bo'ladilar. Har bir kishi ishda ilg'or bo'lishi uchun

ma'naviy barkamol, g'oyaviy-axloqiy jihatdan yetuk bo'lishi zarur. Respublikamizning mustaqilligini mustahkamlash uchun yoshlarimiz mehnatsevar, yetuk vatanparvar bo'lishlari lozim.

3. Rejaning aniqligi

Sinf rahbari rejasining aniqligi — bu sinf rahbarining o'quvchilarga ta'lim berish va ularning shaxsiy rivojlanishiga ko'maklashish uchun belgilangan aniq maqsadlar, vazifalar va faoliyatlarni rejalashtirish darajasini anglatadi. Sinf rahbari rejasining aniqligi uning muvaffaqiyatli amalga oshirilishini ta'minlashda juda muhimdir. Quyidagi jihatlar rejaning aniqligini ta'minlashda muhim hisoblanadi:

1. **Maqsadlar aniq bo'lishi kerak:** Har bir sinf rahbari rejasining maqsadlari aniq va o'lchovli bo'lishi kerak. Bu maqsadlar o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini oshirish, ijtimoiy moslashuvini yaxshilash, sinfdagi ijobiy muhitni yaratish kabi masalalarni qamrab olishi mumkin.

2. **Vazifalar va chora-tadbirlar:** Reja doirasida amalga oshiriladigan har bir vazifa aniq ko'rsatilgan bo'lishi lozim. Vazifalar o'quvchilar bilan bog'liq bo'lsa, ularga qanday yordam ko'rsatish, qanday mashg'ulotlar o'tkazish, qanday baholash tizimi ishlatilishi kabilar ko'rsatiladi.

3. **Resurslar va vaqtni belgilash:** Rejaning aniq bo'lishi uchun kerakli resurslar (kutubxona materiallari, texnologiyalar, pedagogik yordamchilar) va vaqt muddati aniq belgilanishi kerak.

4. **Natijalar va baholash:** Rejaning natijalari qanday baholanadi, sinf rahbari qanday mezonlar asosida ishning muvaffaqiyatini o'lchaydi, bu ham rejaning aniqligi bilan bog'liq.

Bundan tashqari tajribalarda sinf rahbarining uch xil rejasi o'zini oqladi, bular istiqbolli rejalar (uzoq muddatli mo'ljallab tuziladi va u ayni paytda sinf, undagi xar bir shaxsni tarbiyalashning umumiy dasturi xam bo'lib xizmat qiladi), taqvim reja(odatda bir oy uchun tuzilib, shu oyning xar bir kuni uchun mo'ljallanadigan aniq ishlarni o'zida aks ettiradi), alohida tarbiyaviy tadbir uchun tuziladigan reja - konspekt (ba'zan u tarbiyaviy tadbirning ssenariyasi deb xam yuritiladi).

Reja qanday bo'lishdan qat'iy nazar tarbiyaviy faoliyat mazmunini, sinf o'quvchilari jamoasining rivojlanish istiqbolini aks ettirish kerak.

Eng yaxshi sinf rahbarlarning ilg'or tajribasi asosida o'zida quyidagi bo'limlarni aks ettiruvchi taxminiy reja chizmasini tavsiya qilamiz:

1. Sinf rahbarining sinf bilan olib boradigan ishlarning asosiy yo'nalishlari bo'limi. Bu bo'lim: «Sinfni tashkil etish», «G'oyaviy axloqiy tarbiya», «Mehnat tarbiyasi va kasb tanlashga yo'llash», «Oila va jamoatchilik bilan hamkorlik» kabi mavzularni o'z ichiga oladi.

2. Pedagogik jamoa bilan aloqa bo'limida sinfda dars berayotgan o'qituvchilarni sinf tarbiyaviy ishlariga jalb qilish yo'llari o'quvchilar uchun qo'shimcha mashg'ulotlar, fan va ijodiy to'garaklar, munozaralar, ilmiy anjumanlar, qiziqarli uchrashuvlar, fan haftaliklari bilan bog'liq ishlar yoritiladi.

Reja bir oylik, choraklik, yarim yillik qilib tuzilishi mumkin.

Sinf rahbari uchun esa qaysi bir qulay bo'lsa, u shunisini qo'llashi foydalidir. Sinf rahbari rejasi bir nusxada qilib direktor tasdig'idan o'tgach uning (sinf rahbarining)o'zida saqlanadi.

Reja harakat dasturi bo'lib, amalga oshirilishini ta'minlash uchun taqvim reja tuziladi. Taqvim bir chorakka, ko'pincha bir oyga mo'ljallanadi. Uning aniq bo'lishi va rejalarining amalga oshirilishini ta'minlanishi uchun sinf rahbari shu muddat ichida o'quv yurti miqyosida o'tishi mumkin bo'lgan an'anaviy ishlarni to'la hisobga olish kerak. Masalan, sentyabrda o'quv yilining boshlanishi bilan bog'liq «Bilimlar kuni, so'nggi qo'ng'iroq kuni», «O'quvchi yoshlar kuni», «O'qituvchilar kuni» an'anaviy ishlardir. Shuningdek, o'quv yurtida xar oyning oxirgi juma kuni «Ma'naviyat va ma'rifat kuni» deb e'lon qilingan va u an'anaga aylangan. Shu kuni sinflar o'rtasida suhbatlar, bellashuvlar, qo'shiq-she'riyat kechalari, uchrashuvlar va boshqalar o'tkaziladi. Bunda alohida hafta yoki o'n kunliklar ma'lum bir sohaga bag'ishlanadi, chunonchi san'at haftasi, texnik ijod va fan haftaligi, mehnat haftaligi, sport o'n kunligi va xakozolar. Hafta kunlarini xam psixologik imkoniyatga qarab band qilish yaxshi va foydali bo'ladi, masalan, dushanba ancha qiyin o'tadi, shu kunga yorqin, emosional ta'siri kuchli ishlarni(bayram uchrashuvlari, tanlov natijalarini chiqarish va boshqalar), shanba ancha lanj o'tadi, chunki hafta oxirlab qolganligi tufayli toliqish kuchayadi, shu boisdan xam bunga tetiklik, quvnoqlik baxsh etadigan ishlarni yakshanbaga esa hordiq chiqarib, kuch to'plashga ta'sir etadigan ishlarni mo'ljallash foydali bo'ladi. Taqvim rejaga mavsum xam ta'sir etadi: iliq kuz,

quyoshli bahor kunlari ochiq havoda o'yin, mehnat bilan bog'liq ishlarni tashkil etish; yomg'irli va ayozli kunlarda og'zaki ish shakllaridan ko'proq foydalanish(ular bino ichida o'tadi) maqsadga muvofiqdir.

Sinf rahbarining rejasidagi sinfnings faoliyatiga oid ishlar bir necha parallel sinf qatnashuvida kuchlarning birlashtirib o'tkazilishi vaqtni va kuchni tejaydi. Sinf rahbari tanlaydigan sinf faoliyati ma'lum bir aniq maqsadga bo'ysundirilsa, samarali bo'ladi. Masalan, «Kamolot» tashkilotining tashkil topishi sinf rahbarining yangi a'zolarining yetakchilik, tashkilotchilik imkoniyatini ta'minlashga, umumjamoat tashkilotida yoshlarning biror ishni bajarish va boshqalarga erishishni uyushtirishga xamda ularni sinfnings an'analarini yaratishga g'amxo'rlik qilish mahoratiga bog'liq. Rejada ana shu maqsadga xizmat etadigan aniq ish shakllari aks ettirilishi zarur.

Reja tuzilishi.

Maktab amaliyotida sinf rahbarlarining ish rejalari o'ziga xos tuzilishga ega. Bu maktablar va individual sinf jamoalarining pedagogik tizimlar sifatida ishlashining turli shart-sharoitlari bilan bog'liq. Rejaning tuzilishi va shakllari tanlash sinf rahbarining pedagogik malakasi darajasiga bog'liq. Agar tajribali o'qituvchi qisqa ish rejasi bilan chegaralanib qolsa, yangi sinf rahbarlari uchun batafsil rejalar tuzish tavsiya etiladi.

Sinf rahbari uchun an'anaviy ish rejasi quyidagi shaklga egadir:

1. Tarbiyaviy ishlarining holatini qisqacha tavsiflash va tahlil qilish.
2. Tarbiya vazifalari.
3. Sinf rahbari faoliyatining asosiy yo'nalishlari va shakllari.
4. Sinfda ishlaydigan o'qituvchilarning tarbiyaviy faoliyatini muvofiqlashtirish.
5. Ota-onalar va jamoatchilik bilan ishlash.

Sinf rahbarining barcha rejalari o'tgan yilgi tarbiya ishlarning holatini va sinfnings tavsifini qisqacha tahlil qilish bilan boshlanishi kerak. Tavsifnoma jamoaning umumiy tarbiyalanganlik darajasi, uning o'zlashtirishi va intizomi, shuningdek, mehnatsevarligi, mas'uliyati, tashkilotchiligi, ijtimoiy faoliyati va boshqalar kabi fazilatlarni shakllantirishni aks ettiradi. Shaxslararo munosabatlarning tuzilishi (rahbarlar, begonalar, mikroguruhlar), sinfdagi yuksak kayfiyat, jamoatchilik fikrini belgilaydigan yo'nalishlarining mazmuni tahlil

qilinadi. Ayrim o'quvchilarga, xususan, qabul qilingan xatti-harakatlar me'yorlaridan chetga chiqishgan, o'qishda orqada qolgan va boshqalar, tavsifnomalar berilishi mumkin.

Sinf rahbari rejasining aniqligi sinfdagi o'quvchilarning o'quv faoliyatini yaxshilash, sinfda o'quvchilarning o'zaro munosabatlarini yaxshilash va maqsadlarga erishishni osonlashtiradi. Rejaning aniqligi shuningdek, pedagogning o'z ishini tartibga solish va o'quvchilarga ta'sir ko'rsatish imkoniyatini beradi.

4. O'quvchilar jamoasi bilan ishlash.

O'quvchilar jamoasi ijtimoiy-foydali ahamiyat kasb etuvchi umumiy maqsad va birgalikdagi faoliyatga asosan jipslashgan o'quvchilar birlashmasi, guruhidir. O'quvchilar jamoasi (shuningdek, akademik litsey va kasb-hunar ta'lim muassasalari o'quvchilari jamoasi)ga rasmiy saylangan (tayinlangan) o'quvchi hamda o'qituvchilar yo'lboshchilik qiladi. Ular sirasiga guruh rahbari, guruh faollari (xususan, guruh yetakchisi (starosta), «Kamolot» tashkilotining guruh bo'limi raisi, tozalik komissiyasi raisi, devoriy gazeta muharriri va boshqalar) kiradi. O'quvchilar jamoalarida rasmiy yetakchilar bilan birga norasmiy yo'lboshchilarning mavjudligi ko'zga tashlanadi. Odatda, rasmiy yo'lboshchilar tarkibini a'lo baholarga o'qiydigan, jamoat ishlarida faol ishtirok etuvchi o'quvchilar tashkil etsa, norasmiy liderlar, garchi bu kabi sifatlarni namoyon etmasalarda, ayrim sifatlariga ko'ra tengdoshlarini o'z ortlaridan ergashtira oladilar. Bunday o'quvchilar boshqalardan jismonan kuchliligi, qat'iyatliligi, hech narsadan cho'chimasligi, o'ziga bo'lgan ishonchi bilan ajralib turadilar. Norasmiy liderlarning ma'naviy-axloqiy qiyofasi boshqa o'quvchilarga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, sinf rahbari hamda ta'lim muassasa pedagogik jamoasi bunday liderlarning faoliyatini bevosita va bilvosita nazorat qilib borishlari zarur.

O'quvchilar uyushmasiga pedagogik rahbarlik, yuqorida qayd etilganidek, aksariyat holatlarda sinf rahbari tomonidan amalga oshiriladi. Shu sababli, sinf rahbari guruhning umumiy hamda har bir a'zosining individual xususiyatlarini bilishi, ularni inobatga olgan holda jamoaga yondashishi zarur. Sinf rahbarining norasmiy liderlar va ularning shaxsi haqida to'laqonli ma'lumotlarga ega bo'lishi pedagogik faoliyatni samarali tashkil etishga yordam beradi.

Yuqorida bildirilgan fikrlardan quyidagi xulosalarga kelish mumkin.

1. Jamoa bir necha a'zo (kishi)lardan tashkil topgan muayyan guruh bo'lib, u ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan umumiy maqsad asosida birlashadi hamda mazkur maqsadni amalga oshirish uchun yo'naltirilgan faoliyatni tashkil etadi.

2. Jamoa o'zida bir necha xususiyat (belgi)larni namoyon etadi.

3. Jamoani shakllantirish muayyan qonuniyatlarga bo'ysunadigan uzoq muddatli, murakkab jarayon bo'lib, u ko'pchilik tadqiqotchilarning e'tirof etishlariga ko'ra, to'rt bosqichdan iborat bo'ladi.

4. Jamoani shakllantirish o'ziga xos metodika asosida amalga oshiriladi.

Jamoa nazariyasi qonunlariga muvofiq, uni yaratish metodikasi

Jamoa faolini shakllantirishda o'quvchilarning jamoadagi obro'sini ham inobatga olish lozim. Jamoa faoli tarkibini o'quvchilarning o'zlari, albatta, o'qituvchi ishtirokida va rahbarligida tanlasa, maqsadga muvofiq bo'ladi. O'qituvchi jamoa faoli bilan maslahatlashish asosida tarbiyaviy faoliyatni tashkil etadi. Jamoa faolining har bir a'zosi zimmasiga muayyan vazifani yuklash, ularning ma'lum davrda ana shu vazifalar yuzasidan hisobot berib borishlariga erishish maqsadga muvofiq. O'qituvchi aynan faolga oshirilgan talab qo'yadi. O'quvchilar jamoasida faol rahbarligida o'zini o'zi boshqarish jamoa a'zolaridan ayrimlarining boshqasi ustidan ustun kelishiga olib kelmasligi kerak. Shu bois, o'qituvchi faolni maqsadga muvofiq faoliyat yuritishini nazorat qilib borishi lozim.

O'quvchilarning o'zini-o'zi boshqarishi bu o'qituvchilar tomonidan tashkil qilinadigan jamoa ishini uyushtirish va boshqarishda o'quvchilarning faol ishtirok etishidir. O'zini-o'zi boshqarishning shakllari orasida jamoa a'zolari yig'ilish konferensiyasi hamda turli komissiyalarining (masalan, o'quv tozalik komissiyasi) faoliyati muhim o'rin tutadi.

Sinf rahbarining o'quvchilar jamoasi bilan ishlashi — bu ta'lim jarayonining muhim qismidir. Sinf rahbari o'quvchilarni faqat bilim berish bilan emas, balki ularning shaxsiy rivojlanishiga, ijtimoiy va psixologik jihatdan o'sishiga ham mas'uldir. Sinf rahbarining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

1. **O'quvchilarni boshqarish:** Sinf rahbari, o'quvchilarning darslarni muntazam ravishda qatnashini va o'qish jarayonida faol ishtirok etishini ta'minlaydi. Bu yerda o'qituvchining o'z vaqtida

motivatsiya berish, o'quvchilarni diqqatni jamlashga undash va ijodiy fikrlashni rivojlantirish kabi vazifalari mavjud.

2. **Psixologik yordam:** O'quvchilarning ruhiy holati, ularning individual xususiyatlari, muammolariga e'tibor berish juda muhim. Sinf rahbari, o'quvchilarni yaxshiroq tushunish, ular bilan yaqin aloqada bo'lish va ularning ijtimoiy-psixologik muammolarini hal qilishda yordam berishi kerak.

3. **Samarali kommunikatsiya o'rnatish:** O'quvchilar bilan o'zaro ishonchli va ochiq muloqot o'rnatish sinf rahbarining muhim vazifalaridan biridir. Bu, o'z navbatida, o'quvchilarning o'z fikrlarini erkin ifodalashiga, guruh ichida hurmat va tushunishni mustahkamlashga yordam beradi.

4. **Jamoa tuzish va yetakchilik qilish:** Sinf rahbari o'quvchilarni jamoa sifatida ishlashga undashi, ular orasida hamkorlikni rivojlantirishi, o'zaro yordam va rahbarlikni rivojlantirishga yordam berishi kerak. Jamoada turli masalalarni hal qilishda hamkorlik o'quvchilarning ijtimoiy ko'nikmalarini shakllantiradi.

5. **O'quvchilarni maqsadga yo'naltirish:** Sinf rahbari, o'quvchilarning o'zlariga aniq maqsadlar qo'yishiga yordam beradi va ularni bu maqsadlarga erishishga yo'naltiradi. Bu jarayonda rahbar o'quvchilarga motivatsiya, o'z-o'zini tashkil etish va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini o'rgatadi.

6. **Oila bilan hamkorlik:** Sinf rahbari, o'quvchilarning ota-onalari bilan yaqin hamkorlik o'rnatishi kerak. Bu orqali o'quvchilarning uyda va maktabda yuzaga keladigan muammolarni muhokama qilish, o'quvchilarning holatini yaxshilashga yordam beradi.

Sinf rahbarining o'quvchilar jamoasi bilan ishlashdagi muvaffaqiyati o'quvchilarni to'liq rivojlantirishga, ijtimoiy va psixologik muammolarni hal qilishga, shuningdek, yaxshi o'quv natijalariga erishishga yordam beradi.

5. Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarni tashkil etish.

Shaxs sog'lom va har tomonlama barkamol shakllanishi uchun unda o'qishga intilish hissini takomillashtirish bilan chklanib bulmaydi. Ular ongida kasb - hunar va mehnat kunikmalarini hosil qilish, umummadaniy bilimlarni, milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan yuksak ma'naviy-a hloqiy fazilatlarini tarbiyalash bilan uz vatani va halqiga nisbatan sadoqatni shakllantirish, atrof-muhitga

nisbatan ongli munosabatda bulish tuygʻusini, huquqiy ongini tarbiyalash lozim. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da madaniy - estetik, ilmiy, texnikaviy, sport va boshqa yunalishlarda oʻquv bilim yurtidan tashqari davlat va nodavlat taʼlim muassasalarini tashkil etish taʼkidlangan hamda taʼlim sifatini yahshilash, uning tuzilmasi va mazmun-mundarijasini takomillashtirish vazifalari belgilab berilgan. Ushbu «Darsdan tashqari taʼlimni tashkil qilish davlat talablari» talabalarning boʻsh vaqtini tarbiyaviy taʼlim jihatdan samaradorli tashkil etishga qaratilgan bulib, «Taʼlim toʻgʻrisida»gi Qonun va milliy dastur gʻoyalari asosida ishlab chiqildi.

Sinfdan tashqari ishlar shaxsni har tomonlama kamol toptirish va uni hayotga faoliyatga tayyorlash uchun keng imkoniyatga ega. Bu ishlar bolalarning qiziqishlariga muvofiq tarzda koʻngillilik asosida tashkil qilinadi. Oʻquvchilar sinfdan va maktabdan tashqari ishlarda oʻzlarini qiziqtiradigan mashgʻulotlarni tanlab olishadi ularda mustaqil tashabbuskorona ishtirok etishadi.

Sinfdan tashqari ishlarning tarbiyaviy taʼsiri koʻp darajada oʻquv jarayonini tashkil etish saviyasiga hamda oʻquvchilar jamoachining xilma-xil ishlarni qanday yoʻlga qoʻyishga bogʻliqdir. Sinfdan tashqari faoliyat majburiy dastur bilan chegaralanmaydi, balki yoshlari har xil oʻquvchilarni ixtiyoriy ravishda birlashtiradi. Ularning tashabbusi asosida ishlarni amalga oshiradi, fanga qiziqtiradi, ularni xalqning madaniy hayoti muhitiga olib kiradi.

Sinfdan va maktabdan tashqari mazkur tarbiyaviy ishlar shaxs kamoloti bosqichlarini belgilab olishga qaratilganligi bilan tavsiflanadi. Mazkur muammoni ijobiy hal etish uchun sinfdan va maktabdan tashqari, tarbiyaviy ishlar tizimida quyidagilar boʻlishi lozim:

- pedagoglar va oʻquvchilar oʻrtasida oʻzaro hurmat munosabatlarini shakllanganlikning oʻziga xos anʼana vositalariga tayanish;

- ulgʻaygan inson shaxsini tarbiyada oliy ijtimoiy qadriyat deb tan olish, har bir bola, oʻsmir va yosh yigitning betakror va oʻziga xosligini hurmatlash, ijtimoiy huquqini eʼtiborda tutish zarur.

Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar — bu oʻquvchilarni umumiy rivojlanish, tarbiyalash va ijtimoiy faoliyatga jalb qilish maqsadida oʻquv jarayonidan tashqarida amalga oshiriladigan turli xil tadbirlar va faoliyatlardir. Bu ishlar oʻquvchilarning shaxsiy va jamoaviy

ko'nikmalarini rivojlantirishga, ijtimoiy faollikni oshirishga, ma'naviyat va madaniyatni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarning maqsadi:

1. Shaxsiy rivojlanish: O'quvchilarning ijtimoiy, ma'naviy va axloqiy jihatdan rivojlanishiga ko'maklashish.
2. Jamoa bilan ishlash: O'quvchilarni birgalikda ishlashga, muloqot qilishga va guruhlarda faoliyat yuritishga o'rgatish.
3. Ijodiy faoliyatni rivojlantirish: O'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini ochish va ularni erkin fikrlashga, yangi g'oyalar yaratishga rag'batlantirish.
4. Madaniyat va ma'naviyatni oshirish: Milliy va umuminsoniy qadriyatlar, an'analar va ma'naviyatni o'rgatish.

Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarning turlari:

1. Klass va sinf yig'ilishlari: O'quvchilarga doir masalalarni muhokama qilish, qiziqarli mavzular bo'yicha suhbatlar va tajriba almashish.
2. Badiiy va madaniy tadbirlar: Musiqa, teatr, adabiyot va san'atni o'rgatish orqali o'quvchilarning estetik va madaniy qarashlarini rivojlantirish. Masalan, konsertlar, spektakllar, adabiy kechalar.
3. Spiritual va axloqiy tarbiya: O'quvchilarga axloqiy me'yorlar, samimiylik, o'zaro hurmat kabi qadriyatlarni o'rgatish.
4. Sport va jismoniy faoliyat: Sport musobaqalari, yugurish, futbol, basketbol kabi jismoniy faolliklar orqali o'quvchilarning sog'lig'ini saqlash va jismoniy jihatdan rivojlantirish.
5. Sayohatlar va ekskursiyalar: Madaniy va tarixiy joylarga sayohatlar, muzeylar, teatrlar va ilmiy markazlarga ekskursiyalar tashkillashtirish orqali o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish.
6. Klublar va to'garaklar: Maktabda turli xil klublar yoki to'garaklar tashkil qilish, masalan, ilmiy, adabiy, sport yoki texnologiya bo'yicha. Bu o'quvchilarga o'z qiziqishlari va qobiliyatlarini rivojlantirish imkoniyatini beradi.

Tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishda muhim jihatlar:

1. Rejalashtirish va tayyorgarlik: Har bir tadbirni rejalashtirishda o'quvchilarning yoshiga, qiziqishlariga, ehtiyojlariga qarab maxsus dasturlar ishlab chiqish zarur.
2. Faol ishtirokchilik: O'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlash uchun interaktiv va qiziqarli faoliyatlar tashkil qilish muhimdir.

3. Tarbiyaviy yoʻnalishlar: Sinfdan tashqari ishlar orqali axloqiy, estetik va ijtimoiy tarbiya berish, shuningdek, oʻquvchilarning muloqot qobiliyatini rivojlantirish.

4. Motivatsiya va ragʻbatlantirish: Oʻquvchilarga oʻzlarini namoyon qilish va faol ishtirok etish uchun motivatsiya berish, mukofotlar va ragʻbatlantirish tizimini ishlab chiqish.

5. Kuchli oʻqituvchilar va rahbarlar: Tarbiyaviy ishlarni samarali oʻtkazish uchun malakali rahbarlar va oʻqituvchilar kerak. Ular oʻquvchilarni qiziqarli va foydali faoliyatlarga jalb etish uchun oʻz bilim va tajribalarini qoʻllashlari lozim.

Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar, oʻquvchilarning umumiy rivojlanishiga katta hissa qoʻshadi, ularni nafaqat bilimli, balki axloqan toʻliq va ijtimoiy faol insonlar sifatida tarbiyalaydi.

Sinfdan tashqari mashgʻulot ixtiyoriylik prinsipi asosida quriladi. Darslar 45 minutga rejalashtirilgani holda sinfdan tashqari mashgʻulotlar mazmuniga va oʻtkazilish formalariga qarab 10-12 minutga ham, 1 soatga ham moʻljallangan boʻlishi mumkin.

Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar turli shakllarda boʻlishi mumkin. Ular oʻquvchilarning intellektual, axloqiy, estetik, jismoniy va ijtimoiy rivojlanishiga xizmat qiladi. Quyida sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarning asosiy turlari keltirilgan:

Boshlangʻich sinflarda sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar oʻquvchilarning ijtimoiy, intellektual, maʼnaviy va jismoniy rivojlanishini taʼminlashga xizmat qiladi. Ushbu ishlar oʻquvchilarning qobiliyatlarini rivojlantirish, ularga turli koʻnikmalarni oʻrgatish va umumiy tarbiyasini yaxshilash uchun muhimdir. Boshlangʻich sinflarda oʻquvchilar hali kichik boʻlganligi sababli, sinfdan tashqari faoliyatlar koʻproq oʻyin, ijodiy ishlar, amaliy mashgʻulotlar va ijtimoiy faollikni oʻz ichiga oladi.

Boshlangʻich sinflarda sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarning turlari:

Badiiy va ijodiy faoliyatlar

◦ **Rassomlik toʻgaraklari:** Oʻquvchilarga rang-barang materiallar bilan ishlashni oʻrgatish, tasviriy sanʼat va rassomlik qobiliyatlarini rivojlantirish.

◦ **Qogʻozdan ishlash va hunarmandchilik:** Oʻquvchilarga qogʻozdan, gil va boshqa materiallardan turli buyumlar yasashni

o'rgatish. Bu ishlar ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

- **Teatr va sahna ko'rsatmalari:** O'quvchilarga teatr san'ati asoslarini o'rgatish, kichik spektakllar, sahna ko'rsatmalari tayyorlash.

Sport va jismoniy tarbiya

- **Jismoniy mashg'ulotlar:** O'quvchilarga jismoniy tarbiya mashg'ulotlari orqali sog'lom turmush tarzini o'rgatish. Jumladan, yugurish, o'ynash va oddiy sport musobaqalari (futbol, basketbol, to'p o'yinlari).

- **Jismoniy o'yinlar:** Ko'proq jismoniy faoliyatlarni o'z ichiga olgan, o'yinlar va sport musobaqalarini tashkil etish. Bu bolalar o'rtasida jismoniy rivojlanish va sog'lom raqobatni ta'minlaydi.

- **Raqs va harakatli o'yinlar:** Bolalar uchun raqs mashg'ulotlari yoki qo'l va oyoq mashqlarini o'rgatish.

Intellectual va adabiy faoliyat

- **Viktorinalar va intellectual o'yinlar:** Bolalarni turli bilimlarni o'rganishga undash va ko'nikmalarini rivojlantirish uchun viktorinalar va bilimlash o'yinlarini tashkil etish.

- **Adabiyot va hikoya aytish:** O'quvchilarga hikoyalar o'qish, tushuncha yaratish va o'z fikrlarini ifodalashni o'rgatish.

- **Kitob o'qish to'garaklari:** O'quvchilarga kitoblarni o'qish va ularni tahlil qilishni o'rgatish, bu orqali o'quvchilarni adabiyotga qiziqtirish.

Ijtimoiy faoliyatlar

- **Xayriya tadbirlari:** O'quvchilarga xayriya va yordam berish faoliyatlarini o'rgatish, jamiyatga foyda keltirishga rag'batlantirish. Misol uchun, yolg'iz keksalarga yordam berish yoki tabiatni asrash bo'yicha tadbirlar.

- **Ekologik faoliyatlar:** Tabiatni sevish, atrof-muhitni asrash bo'yicha mashg'ulotlar va o'yinlar tashkil etish.

- **Volontyorlik ishlari:** O'quvchilarni ijtimoiy mas'uliyatga o'rgatish, o'zaro yordam va jamoaviy ishlarni bajarish.

Axloqiy va ma'naviy tarbiya

- **O'zaro hurmat va do'stlikka o'rgatish:** O'quvchilarga o'zaro hurmat, yordam berish, jamoada ishlash kabi axloqiy qadriyatlarni o'rgatish.

- **Adolat va halollikni o'rgatish:** O'quvchilarga haqiqatni aytish, adolatli bo'lish, yolg'on gapirmaslik kabi asosiy axloqiy me'yorlarni o'rgatish.

- **Diniy va ma'naviy tarbiya:** Milliy va diniy qadriyatlarni o'rgatish, bola shaxsining ma'naviy kamolotiga xizmat qiluvchi faoliyatlar.

Sayohatlar va ekskursiyalar

- **Tabiatga ekskursiyalar:** Tabiat bilan tanishish, o'quvchilarga o'simliklar, hayvonlar va tabiatning boshqa elementlari haqida ma'lumot berish.

- **Tarixiy joylarga sayohatlar:** Tarixiy va madaniy obidalar, muzeylarga, teatrlarga sayohatlar tashkil etish, bolalar uchun ta'limiy va ko'ngilochar joylarga tashrif buyurish.

Ko'ngilochar va o'yin faoliyatlari

- **O'yinlar va musobaqalar:** O'quvchilarni birlashtiruvchi qiziqarli o'yinlar (ko'cha o'yinlari, yugurish musobaqalari, poygalar va boshqalar).

- **Kreativ musobaqalar:** Rassomlik, qo'l san'ati, tez yozish yoki o'qish musobaqalarini tashkil etish.

Psixologik va shaxsiy rivojlanish

- **Treninglar va seminarlar:** Bolalarga o'z his-tuyg'ularini ifodalash, o'zini boshqarish va boshqalar bilan muloqot qilishni o'rgatish.

- **O'z-o'zini anglash faoliyatlari:** O'quvchilarga o'z his-tuyg'ularini tushunishga yordam berish, ular bilan muloqot qilish va o'z qobiliyatlarini kashf qilish.

Boshlang'ich sinflarda sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlashga yordam beradi. Ular o'quvchilarning ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirish, ma'naviy qadriyatlar va axloqiy me'yorlarni o'rgatish, shuningdek, ijodiy va jismoniy faoliyat orqali o'quvchilarning umumiy tarbiyasini kuchaytiradi. Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar o'quvchilarning nafaqat bilimini, balki shaxsiy rivojlanishini ham qo'llab-quvvatlaydi. Ular o'quvchilarning keng qamrovli va sog'lom rivojlanishiga yordam beradi.

6. Ota-onalar bilan ishlash.

Farzand tarbiyasini qachondan boshlamoq kerak?, degan savol ko'pchilikni o'ylantiradi. Ko'pchilik olimlar unga turlicha javob berib kelganlar. Xususan, Ibn Sino bola tarbiyasi bilan uning tug'ilishidan avvalroq, ona qornidan boshlaboq shug'ullanish lozim, deb javob bergan. Oila, odob-axloq va ta'lim-tarbiyaga e'tibor qon-qonimizga singib ketgan burchlarimizdandir. "Bir bolaga yetti qo'shni ota-ona" degan ibratli maqol ham aynan xalqimizga xos. Mana shu maqolning o'zi ham farzand tarbiyasi, oilaparvarlik biz uchun nechog'lik muhim ekanini bildiradi. Mahalla ahli, ayniqsa keksalar ko'chada nobop ish qilayotgan bola oldidan hech qachon beparvo o'tib ketmagan, shu zahotiyoq tanbeh berib to'g'ri yo'lga chaqirgan. Zero, har tomonlama chiroyli, odobli, go'zal xulqli bo'lish, nafsni poklashga buyuruvchi muqaddas dinimiz oilaga katta ahamiyat beradi.

Oiladagi muhit ota-ona o'z ma'suliyatlarini his qilishi bilan barqaror bo'ladi. Bolalarning odobli bo'lib ulg'ayishi uchun ota-ona bilan bir qatorda mahalla-kuy ham katta ibrat maktabidir. "Qush uyasida ko'rganini qiladi", deb bejiz aytmagan xalqimiz. Farzand tarbiyalayotgan ota-ona har bir harakati, yurish turishi, muomalasi, boshqalar bilan o'zaro munosabatida olijanob fazilatlarni namoyon eta bilishi kerak. Chunki bola tabiatan nihoyatda taqlidchan va kuzatuvchan bo'ladi. Shuning uchun uning atrofdagilari o'z odatlari bilan ba'zan o'zlari sezmagani holda ularga ta'sir qiladilar.

Maktabning oila va keng jamoatchilik bilan aloqasi sinf rahbari orqali amalga oshiriladi. Sinf rahbari ota-onalar bilan olib boradigan ishlariga quyidagi vazifalarni hal qiladi:

1. Ota-onalar bilan yaqindan aloqa o'rnatadi va aloqani doimo mustahkamlab boradi.

2. O'quvchiga nisbatan maktabning va oilaning yagona talablar qo'yishga erishadi.

3. Sinf ota-onalar jamoasini tashkil etib, ularning sinfdagi tarbiyaviy ishlariga faol qatnashishlarini ta'minlaydi.

4. Ota-onalar o'rtasida pedagogik bilimlarni tarqatadi va ularning pedagogik madaniyatini yuqori darajaga ko'taradi.

5. Sinfga otaliq qilayotgan tashkilotlar, oila va maktabga yordam beruvchi tashkilotlar bilan aloqa o'rnatadi va ularni sinfdagi tarbiyaviy ishlarga jalb qiladi.

Sinf rahbarining o'quvchini yaxshi tarbiyalashdagi oila va jamoatchilik bilan hamkorligining muvaffaqiyati ularning bola bilan qilayotgan ishlari haqida bir-birlariga qanchalik ko'p, aniq va muntazam xabar berib turishlariga bog'liq. Ana shu maqsadda sinf rahbari oilaga bir qator tizimli axborotlar berib turishi kerak:

-o'quvchining o'quv mehnatiga tavsifnoma, o'qishdagi muvaffaqiyati va muvaffaqiyatsizligi, ularning sabablari, olayotgan baholari.

- o'quvchinnig ijtimoiy faolligi haqida axborotlar, o'quvchining jamoa hayotidagi ishtiroki nimalardan iborat ekanligi, jamoat topshiriqlari va vazifalarning bor-yo'qligi, sababi, ularga o'zining munosabati.

- o'quvchining o'z o'rtoqlari, o'qituvchilari bilan munosabatida vujudga kelgan holatlarning xarakteri, maktabdagi munosabatlarnig doirasi.

- o'quvchining ayrim hatti-harakatlarini tahlil qilib, ularga pedagogik izohlar berish.

Oila ham o'z navbatida farzandi haqida o'z mulohazalari, kuzatishlari yuzasidan sinf rahbariga quyidagi mazmunda ma'lum axborotlar berib borishi mumkin:

✓ belgilangan kun tartibining bola tomonidan bajarilishi.

✓ o'quvchining maktab haqidagi hikoyalari, taassurotlari, gaplari, sinf hayotidagi turli voqealarga baholari.

✓ ota-onaning ayrim o'qituvchilardan, sinf rahbaridan, maktab rahbarlaridan iltimoslari va takliflari.

Sinf rahbari bilan oila o'rtasidagi bu xildagi o'zaro xabarlashuvlar o'quvchini to'la o'rganishga, ta'lim va tarbiyada shu o'quvchi uchun eng maqbul tarbiya va ta'sir vositasini topishga yordam beradi. Sinf rahbari o'z kuzatishlari, oiladan olgan axborotlari natijasini kundalikka yozib borsa, undagi to'plangan ma'lumotlarni vaqti-vaqtida o'rganish bilan shularga asoslanib tegishli xulosalar chiqarsa, bola xulqini va fazilatlarini yaxshilash yo'llari, keyingi rejalarni belgilasa, erishilgan darajani hisobga olib yangi pedagogik talablar qo'yib bo'lsa, tarbiya albatta samarali natija beradi.

Sinf rahbarining ota-onalar bilan olib boradigan ishlari tajribasida shaxsiy, sinf-sinfli va ommaviy kabi shakllar keng tarqalgan. Ayniqsa, uning ota-onalar bilan olib boradigan ommaviy ishlari bu

sohadagi faoliyatinnig asosiy yoʻnalishidir. Chunki bu barcha ota-onalarni birlashtiradi hamda ularni maktab talablari bilan tanishtirish, jamiyatning tarbiyadan kuzatadigan maqsadlari, ota-onaning vazifalari, tarbiyani amalga oshirish yoʻllari, uslub va shakllari haqida bilim berish, sinf hayotidagi oʻzgarishlar, rejalar haqida maslahatlashish uchun pedagogik maʼruzalar tashkil etish ilmiy anjumanlar, “ochiq eshik” kunlari, savol-javob kechalari, ota-onalar majlislari oʻtkazish ommaviy ishning turlaridir.

Sinf rahbarining tajribasida ota-onalar majlislari keng tarqalgan va qaror topgan ish shaklidir. Bu majlislar sinf ota-onalar jamoasining yuqori organi sifatida oʻz qarorlari bilan sinfdagi, oiladagi va turar joylardagi amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlarning vazifasini va yoʻnalishini belgilab beradi. Sinf ota-onalar majlislarining bir necha xili mavjud: sinfdagi tashkiliy ishlar bilan bogʻliq majlislar, ota-onalarga pedagogik maʼlumot berishga bagʻishlangan majlislar, munozara shaklidagi majlislar, yarim yillik yoki yil yakuniga bagʻishlangan majlislar.

1. Oʻquvchilarning uylariga borish – bu oila bilan aloqa qilishning eng samarali shakllaridan biridir. Bunda sinf rahbari oʻquvchining ota-onasi, uning yashash sharoiti, moddiy imkoniyatlari bilan tanishishga imkon topadi.

2. Ota-onalarni maktabga chaqirish. Bundan maqsad, faqatgina oʻquvchilarning xulqi, savodliligi va boshqa xususiyatlari bilan ota-onani tanishtirish emas, balki shu bilan birgalikda ota-onalarga pedagogik va ruhiy maslahatlar berib, ularga oʻquvchini oilada tarbiyalashlariga yordam ham qilishdir.

3. Ota-onalar bilan ishlash. Bu esa oʻquvchiga chaqiriqlar yoki maxsus daʼvatnomalar orqali amalga oshiriladi.

4. Ota-onalar sinf majlisini oʻtkazish. Bu shakldagi aloqa maxsus ish rejasi orqali amalga oshiriladi.

5. Ota-onalarni maxsus pedagogik va psixologik bilimlar bilan qurollantirish maqsadida ular bilan suhbat va maʼruzalar oʻtkaziladi.

6. Savol-javoblar kechasi. Ishning bu shakli sinf oʻquvchilarning xususiyati, xarakterini yaxshiroq oʻzlashtirish imkonini beradi.

7. Ota-onalarning tarbiya borasidagi ilgʻor tajribalar bilan fikr almashish, oʻrtoqlashish.

Sinf rahbari ota-onalar bilan ish olib borishda ishlashning xilma-xil shakl va metodlaridan foydalanishi lozim. Ota-onalar bilan

ishlashga shaxsiy ishlar jamoa bilan birgalikda olib borilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Biz quyida ota-onalar bilan ishlashning asosiy shakllari bilan tanishib chiqamiz :

- a) yoshlarni qanday qilib mehnatga tayyorlash mumkin?
- b) o'quvchining kundalik rejimi haqida.
- c) "Ota-onalarning obro'si" haqida, "Oilada yoshlarga axloqiy tarbiya berish" va hokazolar to'g'risida anjumanlar o'tkazish.

8. Maktab qoshida ota-onalar universitetlarini tashkil etish va bu universitetlardan tizimli ish olib borish:

- a) ota-onalarni tarbiya sohasidagi adabiyotlar bilan tanishtirish.
- b) "Ota-onalar, sizlar uchun" degan mavzuda og'zaki jurnal.
- v) faol ota-onalarning tarbiyaviy ish tajribalari bilan boshqa sinf rahbarlarini tanishtirish kabi ishlar olib borilishi lozim.

Sinf rahbarining ota-onalar bilan olib boradigan ishlari g'oyat keng, ko'p qirrali bo'lib, bu ishlar faqat sinf va maktab miqyosi bilan cheklanmaydi, aksincha turar joylardagi va o'quvchining ota-onasi ishlab turgan korxonadagi jamoatchilik bilan ham yaqin aloqada bo'lishni taqozo etadi. Bizning yosh avlod xalqimizni inqilobiy, mehnat, jangovar an'analarini o'zlashtirib, o'ziga katta avlodning eng yaxshi fazilatlarini – g'oyaviy e'tiqod va matonatni, Vatanga muhabbatni, uning iqtisodiy, siyosiy va jangovar qudratini mustahkamlashda ishtirok etishga intilishni singdiribgina o'z bobolari va otalari ishini davom ettira va ko'paytira oladi. Buni barcha sinf rahbarlari nazarda tutishlari muhimdir, Bunda shaxsning huquqiy yetukligi shaxs ijtimoiylashuvining mahsuli ekanligini har bir oilaga tushuntirish g'oyat muhimdir. Oila shaxs uchun uning ijtimoiylashuv jarayoni ro'y beradigan, uning axloqi, dunyoqarashi asoslari va hokazolar tarkib topadigan dastlabki va nihoyatda muhim ahamiyatga ega bo'lgan jamoadir.

Ota-onalarning shaxslarni tarbiyalashdagi quydagi qiyinchiliklari va xatolarini ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Ota-onalarning shaxslar bilan muomalasining yetishmasligi. Ular o'zlari, ishlari haqida kam so'zlab beradilar, o'quv bilim yurti o'quvchilar jamoasining hayoti, o'z shaxssining qiziqishlari, uning jamoat ishlari, bu ishga munosabati va hokazolar bilan kam qiziqadilar. Muomalaning yetishmasligi shaxslarning ota-onadan uzoqlashishiga olib keladi, kattalarni shaxsga yanada faolroq ta'sir ko'rsatish imkoniyatidan mahrum etadi.

2. Shaxslarni mehnat jarayonlariga jalb etish orqali ularning mehnat tarbiyasini tashkil qila bilmaslik ona ishga ko'milib ketgan paytda shaxslar oilaviy ishlardan, turar joylardagi ishlardan va hokazolardan ozod etiladilar. Buning natijasida mehnatga mensimay munosabatda bo'ladilar.

3. Ota-onalar turmushida salbiy misollarning mavjudligi o'quv muassasasining pedagogik kuch-g'ayratini yo'qqa chiqaradi.

4. Ota-onalar tarbiyaviy ta'sirining izchil emasligi – onda-sonda o'qishini tekshirish, biror nojo'ya ish uchun jazolash va hokazolar axloqiy immunitet hosil bo'lishiga yordam bermaydi.

5. Oilaviy tarbiyaning asosi sifatida taqiqlashlar sistemasi – ijobiy namuna asosida tarbiyalay bilmaslik, shaxs hayotini u har doim turli hatti-harakatni mashk kiladigan tarzda tashkil eta olmaslik natijasidir. Bu sistema shaxsning kattalar xohishiga salbiy munosabatini tug'diradi, mustaqillikning rivojlanishini susaytiradi.

6. Harakatlarning o'quv bilim yurti bilan muvofiqlashtirilmaganligi yoki u bilan kelishmovchilikonsepsiya Tarbiyalanuvchida pedagogga, o'quv bilim yurtiga ishonchsizlik paydo bo'ladi va o'sib boradi, bu esa uning kamchiliklarini tuzatishni qiyilanshtiradi, pedagogik jihatdan qarovsizlik holatiga olib keladi.

7. Ayrim ota-onalarning shaxslar ulg'ayib borishi bilan tarbiyaviy faollikni susaytirib yuborishlari, bu esa shaxslarning ota-onalardan uzoqlashuviga, o'quv bilim yurtiga qiziqishi pasayishiga va hokazolarga olib keladi.

8. Qarorlar qabul qilishda kechikish. Shaxs katta bo'lgandan keyin aqli kirib, tuzaladi deb o'ylash odatda o'zini oqlamaydi, ko'pincha qayta tarbiyalashni talab etadigan pedagogik jihatdan qarovsizlik holatiga olib keladi.

Ko'rsatib o'tilgan kamchiliklar qatoriga ota-onalarning tarbiya usullarini bilishlarini, shaxslar ulg'ayishi bilan ularni o'zgartirishni bilmaslik yoki istamaslik ota bilan onaning talablari birligining, pedagogik odob, chidamning yo'qligi, ota-onalarning turmushning ma'naviy tomoniga zid tarzda moddiy tomoniga qiziqib ketishi va boshqalarni qo'shish mumkin.

O'quvchilarni tarbiyalashda oilaning bir qancha vazifalari mavjud bo'lib ular quydagilardir:

➤ oilada sog‘lom muhitni yaratish, milliy ruh va turmush tarzini hisobga olish, farzandlar uchun ota-ona har tomonlama o‘rnak bo‘lishi, farzandlarning ota-onasiga, Vatanga muhabbat tuyg‘usini shakllantirish, o‘zaro g‘amxo‘p bo‘lishni ta‘minlash;

➤ oilada huquqiy tarbiyani yaxshilash, oila a‘zolarining o‘z huquq va burchlarini anglab yetishlarini va ularga rioya qilishlarini ta‘minlash;

➤ farzandlariga chuqur dunyoviy bilim asoslarini berish, ma‘rifatli va ma‘naviyatli kishilar bo‘lib yetishishlarini ta‘minlash;

➤ bozor munosabatlariga mos bo‘lgan kasb-hunar o‘rgatish, iqtisodiy tushunchalarni farzandlar ongiga singdirish;

➤ shaxslarning ma‘naviy barkamol va jismonan sog‘lom bo‘lishlari uchun iqtisodiy va ijtimoiy muhitni yaratish;

➤ shaxslarni mustaqil fikrlashga o‘rgatish, istiqlol g‘oyalari va milliy mafkuraga sadoqat ruhida tarbiyalash;

➤ shaxslarning bo‘sh vaqtlarini pedagogik nuqtai nazardan kelib chiqib unumli tashkil qilish, ularga qo‘shimcha ta‘lim berish;

Savol va topshiriqlar:

1. Sinf rahbari ishining rejalashtirish jarayonida eng muhim vazifalar qaysilar?

2. Sinf rahbari rejalashtirishda o‘quvchilarning psixologik, ijtimoiy va akademik ehtiyojlarini qanday hisobga oladi?

3. Sinf rahbari ishini rejalashtirishda ota-onalar bilan qanday aloqalarni o‘rnatish va mustahkamlash zarur?

4. Sinf rahbari rejalashtirishda o‘quvchilarning shaxsiy xususiyatlarini qanday inobatga olish kerak?

5. Sinf rahbarining yillik va oylik ish rejasini tuzishda qanday asosiy parametrlarni hisobga olish kerak?

6. Sinf rahbari ishini rejalashtirishda o‘quvchilarning intellektual va jismoniy rivojlanishiga qanday e‘tibor berish kerak?

7. Sinf rahbari tomonidan amalga oshiriladigan tadbirlar va faoliyatlarning rejalashtirilishi qanday usullarga asoslanadi?

8. Sinf rahbari rejalashtirishda qanday maqsadlar qo‘yishi lozim va ularni qanday amalga oshirishi kerak?

9. Sinf rahbari ishini rejalashtirishda o'quvchilarni motivatsiya qilishning ahamiyati qanday?

10. Sinf rahbarining ishini rejalashtirishda qanday ijtimoiy tadbirlar va loyihalar qo'llanilishi mumkin?

Test

1. Sinf rahbari ishining asosiy vazifalari nimalardan iborat?
 - a) o'quvchilarga ilmiy yordam berish;
 - b) sog'lom muhit yaratish;
 - d) o'quvchilarning ijtimoiy rivojlanishini nazorat qilish;
 - e) yig'ilishlarni tashkil etish;
2. Sinf rahbari rejalashtirishda qanday tamoyillarni hisobga olish kerak?
 - a) o'quvchilarning intellektual qobiliyatlari;
 - b) o'quvchilar va ota-onalar o'rtasida munosabatlarni mustahkamlash;
 - d) sinfda ijtimoiy va madaniy faoliyatlarni rivojlantirish;
 - e) barchasi to'g'ri;
3. Sinf rahbari rejalashtirish jarayonida qanday hujjatlar tayyorlanishi kerak?
 - a) o'quvchilarning kundalik ishlari haqida hisobot;
 - b) rejalashtirilgan tadbirlar ro'yxati;
 - d) sinf to'garaklari va faoliyatlar rejasi;
 - e) barcha javoblar to'g'ri;
4. Sinf rahbari o'quvchilarning psixologik xususiyatlarini inobatga olishda nimalarni hisobga olishi kerak?
 - a) o'quvchilarning individual ehtiyojlari;
 - b) sinfdagi har bir o'quvchining o'zi haqidagi tasavvurlari;
 - d) o'quvchilarning yosh va psixologik rivojlanish darajasi;
 - e) barchasi to'g'ri;
5. Sinf rahbari ishlari samarali bo'lishi uchun qanday yo'llar bilan ota-onalar bilan aloqalarni o'rnatish kerak?
 - a) yig'ilishlar o'tkazish va ularni muntazam ravishda yangilab boorish;
 - b) telefon orqali doimiy aloqa qilish;
 - d) sinf sayohatlari va madaniy tadbirlar tashkil qilish;
 - e) barchasi to'g'ri;
6. Sinf rahbari rejalashtirishda qanday o'quv faoliyatlari asosida ishlaydi?

- a) sinf darslari va mavzularni o'zlashtirish;
 - b) o'quvchilarning turli xil tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash;
 - d) sinfda ijodiy va madaniy tadbirlar tashkil qilish;
 - e) barchasi to'g'ri;
7. Sinf rahbari ishini rejalashtirishda o'quvchilarning motivatsiyasini qanday oshirish mumkin?
- a) o'quvchilarga muntazam maqtovlar berish;
 - b) o'quvchilarning erishgan muvaffaqiyatlarini baholash;
 - c) motivatsion yig'ilishlar o'tkazish;
 - d) barchasi to'g'ri;
8. Sinf rahbari ishining asosiy maqsadi nima?
- a) o'quvchilarni ilmiy fanlarda o'qitish;
 - b) o'quvchilarning ijtimoiy va ma'naviy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash;
 - d) o'quvchilarga sport va jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini o'tkazish;
 - e) o'quvchilarga badiiy san'atni o'rgatish;
9. Sinf rahbari rejalashtirish jarayonida asosiy omillar qanday?
- a) o'quvchilarni faqat o'qishga jalb qilish;
 - b) o'quvchilarning shaxsiy ehtiyojlari va imkoniyatlarini inobatga olish;
 - d) faqat sinf ichidagi faollikni oshirish;
 - e) o'qituvchilar bilan aloqani mustahkamlash;
10. Rejalashtirishda sinf rahbari qanday usullardan foydalanishi mumkin?
- a) sinf darslarini va shaxsiy uchrashuvlarni cheklash;
 - b) faol tadbirlar va o'quvchilarga oid yondashuvlarni ishlab chiqish;
 - d) sinf darslarini va shaxsiy uchrashuvlarni cheklash;
 - e) sinf jurnallarini to'g'ri yuritish.

“Sirli quti” metodi

Boshlang'ich sinf o'quvchilari ta'lim jarayonida mazkur metodni qo'llashdan maqsad, o'quvchilar tomonidan mavzuni puxta o'zlashtirishga erishish bilan birga ularni faollikka undash, ular bilan hamkorlikda ishlash, fakultativ mashg'ulotlarda ma'lum vaziyatlarni boshqarish hamda mantiqiy tafakkur yuritish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat.

Metoddan foydalanishda quyidagi harakatlar tashkil etiladi:

- o‘quvchilar juftlikka biriktiriladi;
- juftliklarga mavzu mohiyatini yorituvchi asosiy tushunchalar(tayanch so‘zlar, sanalar, raqamlar, belgilar va h.k.)ni kartochkalarga qayd etish vazifasi yuklanadi;
- o‘qituvchi o‘quvchilar bilan hamkorlikda guruhlar tomonidan topshiriqning bajarilishini tekshiradilar;
- topshiriqni to‘g‘ri bajargan guruhning bir a‘zosi o‘qituvchi rolini bajaradi va topshiriqning yechimini yozuv taxtasiga yozadi;
- o‘quvchilar yozuv taxtasida qayd etilgan fikrni sharhlaydilar (tayanch so‘zlar, sanalar, raqamlar, belgilar qanday ma‘noni anglatishini aytadilar);



10-mavzu. Boshlang‘ich ta’limda sinf tarbiyaviy saotlari haqida umumiy tushuncha.

Reja:

1. Sinf tarbiyaviy soatlarining tarkibiy qismlari.
2. Sinf tarbiyaviy soatlarini tashkil etish, uni o‘tkazishning tartib va uslublari.
3. Sinf tarbiyaviy soatlarini tashkil etish.
4. O‘quvchilarni kitob o‘qish va tabiatni asrashga o‘rgatish.
5. Estetik tarbiya.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mavlonova R., Raxmonqulova N., Normurodova B. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. -T.: Tib-kitob, 2010 y.

2. Ishmuhammedov R., Abduqodir A., Pardayev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar. -T.: Fan va texnologiya, 2010 y.

3. Олесникова, И.А, Н.М.Борытко и др. Воспитательная деятельность педагога. Учебное пособия. М.: Академия, 2006-333 с.

4. Подласый И.П. Педагогика 2-я част -М.: ВЛАДОС, 2003 г.

5. Mirziyoyev Shavkat Miromonovich. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga ko'ramiz. Mazkur kitobdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2016-yil 1-noyabrdan 24-noyabrga qadar Qoraqolpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent sharxi saylovchilari vakillari bilan o'tkazilgan saylovoldi uchrashuvlarida so'zlagan nutqlari o'rin olgan. / Sh.M.Mirziyoyev.- Toshkent: "O'zbekiston", 2017.- 488 b.

6. [hppt://www.ziyounet.uz/](http://www.ziyounet.uz/)

7. www.relarn.ru/conf2007

Tayanch tushunchalar. Tarbiyaviy soat, sinf rahbar, estetik tarbiya, kitob o'qish, tabiatni asrash, kompetensiya, baynalminal tarbiya, mutolaa

1. Sinf tarbiyaviy soatlarining tarkibiy qismlari.

Maktablarda haftaning bir kunida har bir sinf jamoasining ishi uchun bir vaqt belgilanadi, bu odatda sinf tarbiyaviy soati deb ataladi. Bu vaqtda jamoa nima qiladi-o'quvchilar va sinf rahbari qaror qabul qiladi.

Muayyan vaziyatdan, vaziyatdan, jamoaning ehtiyojlaridan kelib chiqib bir hafta sinf majlisi, ikkinchisida - sinf rahbari soati (tarbiya soati), uchinchi uchrashuv, ekskursiya shakllarida tashkil etiladi. Sinf soati favqulodda masalalarni hal qilishda, ob'ektiv sabablarga ko'ra turli shakllarda (o'quvchilar yig'ilishi va ota-onalar yig'ilishi, sinf rahbari soati va o'quvchilar yig'ilishi va boshqalar) amalga oshirish mumkin.

Sinf tarbiyaviy soati o'quvchilar bilan o'qituvchilarning darsdan tashqari tarbiyaviy ish shakli hisoblanadi. Sinf o'quvchilari yig'ilishidan farqli o'laroq, tarbiya soati jamoa hayotining muhokama qilinadigan masalalari bo'yicha qaror qabul qilishni nazarda tutmaydi.

Shu bilan birga, sinf soatining shakllari bir-biri bilan chambarchas bog'liqligini yodda tutish kerak. Shunday qilib, ko'pincha tarbiya

soatidagi muammoni muhokama qilish sinf yig'ilishida ushbu masala bo'yicha aniq qaror qabul qilish bilan yakunlanadi.

Sinf tarbiyaviy soati - bu o'qituvchi rahbarligida maktab o'quvchilari bo'lgan tarbiyaviy ish shaklidir

Ma'lumki, sinf rahbari o'z sinfidagi o'quvchilarning bevosita ta'lim-tarbiya jarayoni, ya'ni darslar davomida hamda darsdan keyingi faoliyatini nazorat qilishga mas'ul shaxs hisoblanadi.

Tarbiyaviy soatlarni mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribalari hamda ilm-fan va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan holda tashkil etish, zamon talablariga javob beruvchi, ma'naviy barkamol, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega shaxslarni tarbiyalash muhim ahamiyatga egadir.

Tarbiyaviy soat vazifalari:

➤ milliy, umuminsoniy va ma'naviy qadriyatlar asosida o'quvchilarni tarbiyalashning samarali shakllari va usullarini joriy etish;

➤ tarbiya jarayoniga pedagogik va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;

➤ o'quvchilarni ijtimoiy hayotga tayyorlashda ta'lim, fan va ishlab chiqarishning samarali integratsiyasini ta'minlashdan iborat.

Bugungi kunda axborot oqimining tezligi natijasida hayotimizga ommaviy madaniyatni salbiy ta'sirlari ham sezilmoqda. Bu masalani o'quvchilarning ijtimoiy hayotlari misolida ko'rishimiz mumkin. Ba'zida ota-onalar tomonidan bolalarning beodoblighi, o'z fikrini og'zaki yoki yozma tarzda aniq ifodalay olmasligi, mas'uliyatning yetishmasligi, atrofidaqilar bilan kelisha olmasligi, o'ziga tegishli bo'lgan mablag'larni to'g'ri taqsimlay olmasligi haqidagi fikrlarni eshitib qolamiz. Shuning uchun ham dasturni ishlab chiqishda xaqlaro va milliy tajribaga asoslanilganligini alohida ta'kidlab o'tish joizdir.

Tarbiyaviy soatlar o'tkazilish tartibi quyidagicha:

- ta'lim jarayoni alohida, mustaqil darslardan tashkil topgani kabi tarbiyaviy soatlar ham yaxlit tarbiyaviy usullar, ta'sirchan vositalar yordamida amalga oshiriladi;

- sinf rahbari ushbu tarbiyaviy soatni o'tkazishga doir aniq ish rejasiga ega bo'lishlari lozim;

-yuqori tashkilotlardan tavsiya asosida berilgan "Tarbiyaviy soatlar" mavzularining namunaviy rejasini asos qilib olish;

Bugungi shiddatli davr barchamizdan axloqiy va ma'naviy jihatdan tarbiyaviy ishlarni yanada kuchaytirish lozimligini talab etmoqda. Ma'naviyat yo'q ekan, inson ongli ijtimoiy shaxs bo'la olmaydi. Shuning uchun ham sinf rahbarlari va butun o'qituvchilar jamoasi oldida o'quvchilarga milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida hayot kechirishni o'rgatishdek muhim vazifa turadi. Hozirgi globallashuv jarayonlari kuchaygan, turli g'oyalar o'rtasidagi kurash keskinlashgan, "ommaviy madaniyat" xurujlari butun dunyoga tarqalib borayotgan, internet tarmog'i orqali uzatilayotgan buzg'unchi axborotlar inson qalbi va ongini o'ziga qaram qilishga urinayotgan tahlikali zamonda kelajagimiz bo'lgan yosh avlodni hayotga tayyorlashning samarali shakl va uslublarini izlash davlat siyosati darajasidagi masalaga aylangan.

Tarbiyaviy ishlarni davr talabiga javob beradigan holga keltirish uchun tarbiyaning asosi bo'lgan barcha g'oyalar qaytadan ko'rib chiqilishi, asosiy e'tibor bola shaxsiga qaratilishi, yillar davomida to'plangan ijobiy tajribadan unumli foydalanish zarurligini taqozo etadi. Inson shaxsining kamol topishi esa juda murakkab va uzluksiz jarayon davomida shakllanadi. Uning tarbiyasiga ota-onasi, maktab, mahalla, do'stlari, jamoat tashkilotlari, atrof-muhit, internet, ommaviy axborot vositalari, san'at, adabiyot, tabiat va hokazolar bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ham barcha sinf rahbarlari o'z tarbiyaviy faoliyatlarida ana shu mezonlarni hisobga olishlari shart.

Tarbiyaviy soatlar o'quvchilarda shakllangan qobiliyatlarni amaliyotga tadbiiq etish maydoni hisoblanadi. To'g'ri tashkil etilgan tarbiyaviy soatlar o'quvchilarda fanlar orqali shakllangan tayanch kompetensiyalarni ijtimoiy hayotda tadbiiq eta olishlari uchun imkoniyat yaratib beradi.

Tarbiyaviy soat dasturlari oddiydan murakkablikka tamoyili asosida shakllantirilgan bo'lib, quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi. Vatanparvarlik axloqiy, huquqiy, jismoniy, gigiyenik, ekologik hamda estetik tarbiya shuningdek, o'quvchilarni to'g'ri kasb tanlashga yo'naltiradi. Tarbiyaviy soatlarning mazkur yo'nalishlari O'zbekiston Respublikasida ta'limning uzluksizligi, uzviyligi, o'quvchi shaxsi va qiziqishlari ustuvorligidan kelib chiqib, ularda yosh xususiyatlariga mos ravishda quyidagi tayanch kompetensiyalar shakllantiriladi.

Kommunikativ kompetensiya - ijtimoiy vaziyatlarda ona tilida hamda birorta xorijiy tilda o'zaro muloqotga kirisha olishni, muloqotda

muomala madaniyatiga amal qilishni, ijtimoiy moslashuvchanlikni, hamkorlikda jamoada samarali ishlay olish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi - media manbalardan zarur ma'lumotlarni izlab topa olishni, saralashni, qayta ishlashni, saqlashni, ulardan samarali foydalana olishni, ularning xavfsizligini ta'minlashni, media madaniyatga ega bo'lish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

O'zini-o'zi rivojlantirish kompetensiyasi - doimiy ravishda o'z-o'zini jismoniy, ma'naviy, ruhiy, intellektual va kreativ rivojlantirish, kamolotga intilish, hayoti davomida mustaqil o'qib-o'rganish, kognitivlik ko'nikmalarini va hayotiy tajribani mustaqil ravishda muntazam oshirib borish, o'z xatti-harakatini muqobil baholash va mustaqil qaror qabul qila olish ko'nikmalarini egallashni nazarda tutadi.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi - jamiyatda bo'layotgan voqea, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va ularda faol ishtirok etish, o'zining fuqarolik burch va huquqlarini bilish, unga rioya qilish, mehnat va fuqarolik munosabatlarida muomala va huquqiy madaniyatga ega bo'lish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Milliy va umummadaniy kompetensiya - vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e'tiqodli bo'lish, badiiy va san'at asarlarini tushunish, orasta kiyinish, madaniy qoidalarga va sog'lom turmush tarziga amal qilish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi - aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda shaxsiy, oilaviy, kasbiy va iqtisodiy rejalarni tuza olish, kundalik faoliyatda turli diagramma, chizma va modellarni o'qiy olish, inson mehnatini yengillashtiradigan, mehnat unumdorligini oshiradigan, qulay shart-sharoitga olib keladigan fan va texnika yangiliklaridan foydalana olish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Sinf rahbari tomonidan o'tkaziladigan barcha tarbiyaviy tadbirlar, sinf tarbiyaviy soatlari deb yuritiladi (yil davomida 30-34 soat dars jadvaliga kiritiladi), u soddalashtirilgan, barcha sinflar uchun qulay quyidagi andozaga tushirilishi mumkin. Avvalgi adabiyotlarda berilgan rejalashtirish chizmasiga Bajarilish turi qo'shimcha sifatida

kiritildi. Maqsad, rejalashtirilgan mavzu masalan, “Ota-onam suyangan tog‘im” mavzu yuzasidan suhbat, kecha, konferensiya uchrashuv, ekskursiya va hokazolar o‘tkazish mumkin. Albatta, bu tadbirlarning barchasini bir o‘quv yilida o‘tkazib, sinf rahbarining tarbiyaviy ish rejasida bu mavzu har yili takrorlanib, bajarilish turi o‘zgartirib boriladi. Sinf rahbari mehnatining unumli bo‘lishida bu usul ancha samara beradi.

N	Tarbiyaviy tadbirlar nomi	Bajarish turi	Vaqt	Mas'ul kishi	Ijrosi haqida
1	“Ota-onam suyangan tog‘im”	Uchrashuv	Mart oyining 1-haftasi	Sinf ota-onalar qo‘mitasi raisi	Tadbirda ota-onalar va o‘quvchilar ishtirok etdi.

Sinf tarbiyaviy soatlarining mavzulari yuqoridagi andozaga tartib bilan jamlanadi.

Tarbiyaviy soatlarni quyidagi tartibda tashkil qilish mumkin:

Kun shiori:

I. Kirish;

II. Asosiy qism: hikoya, suhbat, ma‘ruza, guruhlarda ishlash;

III. Yakuniy qism.

Tarbiyaviy soatlarda foydalanish uchun mavzuga doir adabiyotlar ko‘rgazmasi tashkil etiladi. Jarayonni ochiq muloqot, davra suhbat, bahsmunozara, treninglar va boshqa har xil noan‘anaviy tarzda tashkil etish mumkin.

(Izoh: Taqdim etilayotgan tarbiyaviy soatlar dasturiga

Umumta‘lim

maktablarining sinf rahbarlari metod kengashi qaroriga ko‘ra 15 %

gacha

o‘zgartirish kiritilishi mumkin.)

2. Sinf tarbiyaviy soatlarini tashkil etish, uni o‘tkazishning tartib va uslublari.

Har bir pedagog o‘z ish faoliyatidan kelib chiqib, ta‘lim-tarbiya maskanlarida olib boriladigan tarbiyaviy soatlarni shunday tashkil

etsinki, toki uning mazmun va mohiyati uzoq muddat esdan chiqmasin. Ularni quyidagi mavzularga asoslanib olib borilsa maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

I.Ma'naviyat va burch tarbiyasi.

Ma'naviyatimizning qadimiyligi, mazmun va mohiyati, o‘ziga xos xususiyatlari, asosiy tamoyillari, uning jamiyatimiz taraqqiyotidagi roli va ahamiyati, Prezidentimiz asarlari va nutqlarida insonni jonli mavjudotlardan ajratib turadigan ong va til, aql-idrok va tafakkur, odamgarchilik, muruvvat va sahovat, rahm-shavqat, mehr-oqibat, iymon-e'tiqod, mehnatsevarlik, halollik, poklik, tabiatni e'zozlash, ilm va fanni, adabiyot va san'atni, madaniyatni sevib ardoqlash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sadoqat, o‘zi va o‘zga millat kishilarini, ularning tili, tarixi, madaniyati, urf-odatlari va an'analarini hurmat qilish va qadrlash xislatlarini tarbiyalash asosiy maqsad qilib olinadi.

Tarbiyaviy soat mavzulari.

1. Ma'naviyat insonga havodek, suvdek zarur.
2. Insonni hayotini bezaydigan, go‘zallashtiradigan omil ma'naviyatdir.
3. Davlat va millat ma'naviyati bilar ko‘rkamdir.
4. Ma'naviy barkamol kishilar hayoti biz uchun namuna.
5. Halollik va rostgo‘ylik inson fazilati.
6. Bugun niyat ertangi haqiqat.
7. Chin va yolg‘on do‘stlik.
8. Haqiqiy va qalbaki qahramonlik.
9. Yomon odatdan saqlan.
10. Iymonsizda Vatan tuyg‘usi bo‘lmaydi.
12. Qur‘oni Karim va Hadis sharifdan parchalarni o‘qish va muhokama qilish.

Eslatma. Yuqoridagi va quyidagi tavsiya qilinadigan mavzularni sinf o‘quvchilarining qabul qilish darajasiga qarab soddalashtirish, murakkablashtirish mumkin.

II. Vatanni sevmoq iymondandir.

Uning baxt-saodati, yorug‘ istiqboli, farovon kelajagi uchun yashash, kurashish, kerak bo‘lsa jonini fido qilish shu muqaddas zaminda yashayotgan har bin inson uchun baxtdir. Vatandan ortiq mehrigiyo va ulug‘ ne‘mat yo‘qligini isbotlovchi mavzular bu bo‘linga kiritilishi mumkin.

1. Vatan sen suygan odamlar manzili.

2. Vatan bu tug'ilgan joy.
3. Davlat, Hukumat, Xalq tushunchalari nima.
4. Urush va mehnat faxriylarini e'zozlaymiz.
5. G'alaba va mustaqillik kunini sharaflaymiz.
6. Harbiy o'yinlarda ishtirok etish.
7. Vatanimga xizmat qilaman.
8. Chin Vatanparvarlik o'z o'lkasini sevishdan boshlanadi.
9. Hadisdan mavzuga oid parchalarni o'qish va muhokama qilish.
10. Respublikamiz istiqlolini mustahkamlashda faolmiz.
11. Mening vatandoshim zamondoshim.
12. Bizdan ozod, obod vatan qolsin.
13. Mustaqillik uchun kurashgan ajdodlarimiz faxrimiz.
14. O'zbekiston Vatanim manim.

III. Baynalmilal tarbiya.

1. Baynalmilal birlik nima? Bu tushuncha haqida batafsil ma'lumot berish.

2. Sen hamdo'stlik mamlakatlari va ularning bolalari haqida nimlarni bilasan.

Bu mavzuga tayyorgarlik quyidagicha tashkil etilishi mumkin. Hamdo'stlik mamlakatlaridan biri tanlanib, uning tashkil topgan vaqti, geografik jihatdan joylashishi, aholisi, tabiiy boyliklari, iqtisodi, adabiyoti, san'ati, chet mamlakatlar bilan aloqasi kabi savollar o'quvchilarga bo'lib beriladi. Navbatdagi tarbiyaviy soatga geografiya, tarix va adabiyot o'qituvchilari taklif qilinib, o'quvchilar tinglanadi. Fan o'qituvchilarining suhbatini bilan mashg'ulot yakunlanadi.

3. Bizning mahalla, qishloq va tumanda necha xil millat vakillari yashaydi va ular qanday aloqadalar.

4. Tuman va viloyatlardagi qo'shma korxona vakillari bilan uchrashuv uyushtirish, ekskursiya tashkil etish.

5. Chet tillarni o'rganish iqtisodiy mustaqillik poydevori.

6. Chet tili o'qituvchisi bilan xorijiy tilda ma'lum temaga atalgan kecha o'tkazish.

7. Hamdo'stlik mamlakatlari hamda chet ellik o'quvchilar bilan aloqa bog'lash.

8. Chet mamlakatlarda ta'lim olayotgan yurtdoshlarimiz bilan aloqa o'rnatish, ular orqali u mamlakat haqida ma'lumot to'plab, muhokama qilish.

Sinf tarbiyaviy soatlari — bu o'quvchilarni ijtimoiy, axloqiy va ma'naviy jihatdan shakllantirishga, ularning dunyoqarashini rivojlantirishga qaratilgan darslar va uchrashuvlardir. Tarbiyaviy soatlar o'quvchilarga jamiyatda to'g'ri xulq-atvorni, mas'uliyatni, adolatni, o'zaro hurmatni va boshqa insoniy qadriyatlarni o'rgatishga yordam beradi. Ushbu soatlar o'quv yili davomida muntazam ravishda o'tkazilib turiladi va turli mavzularda bo'lishi mumkin.

Tarbiyaviy soatlarni tashkil etishning tartibi:

1. Rejalashtirish:

- o Tarbiyaviy soatlar uchun yillik va oylik rejalar tuziladi. Rejada mavzular va ularga tegishli vazifalar aniq belgilanishi lozim.

- o Soatlarning maqsadi va vazifalari oldindan belgilanishi, shu bilan birga, o'quvchilarning yoshiga mos mavzular tanlanishi kerak.

2. Mavzu tanlash:

- o Mavzular hayotiy va o'quvchilarning qiziqishlariga mos bo'lishi kerak. Misol uchun, «Yaxshi do'st», «Oila va jamiyatdagi mas'uliyat», «Boshqaruvni o'rganish», «Axloqiy qadriyatlar» kabi mavzularni kiritish mumkin.

- o O'quvchilarning ehtiyojlariga ko'ra, mavzularni bir nechta kichik bo'limlarga ajratish mumkin (masalan, hayotiy mahoratlar, ijtimoiy mas'uliyat, ekologik tarbiya va h.k.).

3. Tarbiyaviy soatning strukturasi belgilash:

- o Soatning boshlanishi: Mavzu va maqsadni tushuntirish.

- o Asosiy qism: Mavzuni muhokama qilish, o'quvchilar bilan suhbatlashish, taqdimotlar qilish, video yoki slayd ko'rsatish.

- o Yakuniy qism: Xulosa, savollar va muhokamalar, o'quvchilarning fikrlarini eshitish.

Tarbiyaviy soatlarni o'tkazish usullari:

1. Interfaol metodlar:

- o Gruppalar bilan ishlash: O'quvchilarni kichik guruhlariga ajratib, ularning o'rtasida bahs-munozara tashkil etish. Guruhlarga turli vazifalar berib, mavzuga oid qiziqarli munozaralar o'tkazish mumkin.

- o Rol o'ynash: O'quvchilarga turli ijtimoiy rollarni o'ynashni taklif qilish (masalan, direktor, o'qituvchi, talabalar) va shunga asoslangan vaziyatlarni tahlil qilish.

2. Praktik mashqlar:

- o Vaziyatli vazifalar: O'quvchilarga hayotiy vaziyatlarni taqdim etib, ularga qanday qarorlar qabul qilishlarini so'rash.

- Badiiy mashqlar: O'quvchilarni adabiy asarlarni tahlil qilishga jalb qilish, dramatizatsiyalar orqali ijtimoiy ahamiyatga ega masalalarni muhokama qilish.

3. Ko'rgazmali vositalardan foydalanish:

- Slaydlar va videolar: Mavzu bo'yicha tushuntirishlar berish uchun ko'rgazmali vositalardan foydalanish. Masalan, ijtimoiy adolat yoki axloqiy qadriyatlarni ko'rsatadigan videolar.

- Tablolar va diagrammalar: Kichik guruhlar bilan ishlashda, ma'lum bir mavzu bo'yicha fikrlarni tartibga solish uchun vizual materiallar.

4. Diskussiya va savol-javoblar:

- O'quvchilarning fikrlarini ochiq aytishlariga imkon yaratish va muhokama qilish. Ularni turli nuqtai nazarlarga ochiq bo'lishga o'rgatish.

- Savol-javob usuli yordamida mavzu haqida o'quvchilarning fikrlarini va tushunchalarini tekshirish.

5. Motivatsiya. O'quvchilarga yaxshi ishlari uchun rag'batlantiruvchi so'zlar aytish, ular orasida mas'uliyatli va yuksak axloqiy sifatlarni rivojlantirishga rag'batlantirish.

Tarbiyaviy soatni o'tkazishda e'tibor beriladigan jihatlar:

- O'quvchilarning yoshiga moslik: Mavzular va usullarni o'quvchilarning yoshiga qarab tanlash kerak.

- Interaktivlik: O'quvchilarni faollikka jalb qilish va ular bilan fikr almashish.

- O'quvchilarning qiziqishlari: O'quvchilarning kundalik hayoti va qiziqishlariga mos mavzularni tanlash.

- Xulq-atvor va ahloqiy qadriyatlar: Tarbiyaviy soatlar o'quvchilarni axloqiy va ijtimoiy jihatdan mas'uliyatli qilishga xizmat qilishi kerak.

Tarbiyaviy soatlar nafaqat bilim berishga, balki o'quvchilarda jamiyatga nisbatan to'g'ri munosabatni shakllantirishga, ijtimoiy mas'uliyatni hiss qilishlariga yordam beradi. Bu jarayon o'qituvchi va sinf o'rtasidagi yaqin aloqani rivojlantirishga, o'quvchilarning o'zlarini anglashlariga yordam beradi.

3. Sinf tarbiyaviy soatlarini tashkil etish.

Sinf tarbiyaviy soatlarini tashkil etish — bu o'quvchilarga axloqiy, ijtimoiy va ma'naviy qadriyatlarni o'rgatish, ular o'rtasida to'g'ri munosabatlarni shakllantirishga, shuningdek, ularni jamiyatda faol va

mas'uliyatli fuqarolar sifatida tarbiyalashga qaratilgan jarayon. Ushbu soatlar muntazam ravishda o'tkazilib, har bir o'quvchining shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishiga katta hissa qo'shadi.

Tarbiyaviy soatlarni tashkil etishda e'tibor berilishi kerak bo'lgan asosiy jihatlar:

1. Rejalashtirish va mavzu tanlash. Tarbiyaviy soatlarni tashkil etishda quyidagi qadamlarni hisobga olish kerak:

• **Yillik reja tuzish:** Tarbiyaviy soatlar o'quv yili boshida yil davomida o'tkaziladigan barcha tarbiyaviy soatlar uchun umumiy reja tuzilishi kerak. Rejada har bir soatning maqsadi, vazifalari, mavzulari va usullari aniqlanadi.

• **Oylik reja va mavzu tanlash:** Har bir oylik yoki haftalik mavzu va maqsadlar aniqlanadi. Mavzular o'quvchilarning yoshiga, ularning qiziqishlariga va ehtiyojlariga mos kelishi kerak. Masalan, "Yaxshi do'st" mavzusi kichik yoshdagi o'quvchilar uchun, "Ekologik ong" yoki "O'zaro hurmat" kabi mavzular esa o'rta va yuqori sinf o'quvchilari uchun mos bo'lishi mumkin.

2. Tarbiyaviy soatning tuzilishi. Tarbiyaviy soatning samarali o'tishi uchun uning tuzilishi aniq bo'lishi kerak. U quyidagi qismlardan iborat bo'lishi mumkin:

• **Kirish qismi** (5-10 daqiqa): Mavzu va maqsadni tanishtirish, o'quvchilarga mazmun haqida qisqacha tushuntirish.

• **Asosiy qism** (25-30 daqiqa): Mavzu bo'yicha asosiy materialni taqdim etish, o'quvchilar bilan suhbatlar, video yoki slaydlar orqali mavzuni o'rganish. Bu qismda interfaol usullar va mashqlarni qo'llash tavsiya etiladi.

• **Yakuniy qism** (10-15 daqiqa): Mavzu haqida umumiy xulosa qilish, o'quvchilarning fikrlarini eshitish, savollar berish va muhokama qilish. Bu qismda o'quvchilarning fikrlarini tinglash, ularni o'z so'zlari bilan mavzuga oid mulohazalarini bildirishga rag'batlantirish kerak.

3. Tarbiyaviy soatning usullari. Tarbiyaviy soatlarni o'tkazishda turli usullardan foydalanish, o'quvchilarni faol ishtirok etishga jalb qilish muhimdir. Ba'zi samarali usullar:

• **Tartibli bahs-munozara:** O'quvchilarni mavzuga oid muhokamalarga jalb qilish, ularning fikrlarini tinglash. Bunda turli nuqtai nazarlar muhokama qilinadi.

• **Rol o‘ynash:** O‘quvchilarga ijtimoiy vaziyatni namoyish qilish uchun rollar berish, masalan, o‘zaro muomala qilish, nizolarni hal qilish yoki ijtimoiy mas’uliyatni bajarish.

• **Savol-javob:** O‘quvchilarni mavzu bilan bog‘liq savollar berishga undash, ularning javoblarini eshitish va qiziqarli fikr almashish.

• **Vaziyatli mashqlar:** O‘quvchilarga turli hayotiy vaziyatlarni taqdim etish, masalan, “Agar sizni darsda ko‘plab do‘stlaringiz kuzatsa, qanday qarorlar qabul qilasiz?” kabi savollar orqali ularning qarorlar qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish.

• **Ko‘rgazmali vositalardan foydalanish:** Slaydlar, videolar yoki diagrammalar yordamida mavzuni yanada tushunarli va qiziqarli qilish.

4. Tarbiyaviy soatlarni interfaol o‘tkazish

Tarbiyaviy soatlar o‘quvchilarni faol ishtirok etishga undashi kerak. Interfaol metodlar quyidagilardan iborat bo‘lishi mumkin:

• **Guruhlarga ajratish:** O‘quvchilarni kichik guruhlarga ajratib, har bir guruhga mavzu bilan bog‘liq masalani muhokama qilishni taklif etish. Guruhlar yakuniy natijalarini taqdim etadi.

• **Badiiy va ijodiy ishlash:** O‘quvchilarni hikoya qilish, qo‘shiq yozish yoki badiiy nutq orqali mavzuni ijodiy ravishda yoritish.

• **O‘zaro munosabatlarni o‘rganish:** O‘quvchilar o‘zaro fikr almashishlari, o‘zaro suhbat qilishlari va umumiy xulosalar chiqarmoqchi bo‘lishlari lozim.

5. Motivatsiya va rag‘batlantirish

O‘quvchilarni muntazam ravishda rag‘batlantirish va motivatsiya qilish zarur. Bu ularga sinfda faol bo‘lishga, yaxshiroq o‘qishga va tarbiyaviy soatlarni qadrlashga yordam beradi. Rag‘batlantirishning ayrim usullari:

• **Shaxsiy fikrlar va rag‘batlantiruvchi so‘zlar:** Har bir o‘quvchining faol ishtiroki uchun o‘ziga xos tarzda rag‘batlantirish.

• **Sifatli ishlarga rag‘bat:** O‘quvchilarga tarbiyaviy soatlarda eng yaxshi ishlaganlarini rag‘batlantirish (sertifikatlar, sovg‘alar, maxsus imkoniyatlar).

6. Tarbiyaviy soatlarning samaradorligini baholash

Har bir tarbiyaviy soat oxirida o‘quvchilarni baholash, ularning mavzu bo‘yicha tushunchalarini aniqlash va o‘zaro fikr almashish zarur. Bu o‘quvchilarning qanchalik samarali o‘zlashtirganliklarini va mavzuni tushunish darajasini baholash imkonini beradi.

Tarbiyaviy soatlar o'quvchilarda ijtimoiy mas'uliyatni, axloqiy qadriyatlarni va sog'lom xulqni rivojlantirishga qaratilgan eng muhim tarbiyaviy vositalardan biridir. Ularni samarali tashkil etish uchun rejalashtirish, turli metodlar va usullardan foydalanish, o'quvchilarni faollikka jalb qilish zarur.

4. O'quvchilarni kitob o'qish va tabiatni asrashga o'rgatish.

Jamiyatimizda kitobxonlik masalasiga yondoshuv turli davrlarda turlicha bo'lgan. Har bir davrning o'z ehtiyojidan kelib chiqib, kitobxonlik darajasi belgilangan. Binobarin, har qanday davlatning kuch-qudrati o'z fuqarolarining ongliligi bilan belgilanar ekan, bunda albatta kitobxonlik masalasiga alohida e'tibor berilgan. Bugungi kunda "Mutolaa madaniyati", "Kitobxonlik madaniyati", "O'qish madaniyati" kabi atamalar bilan qo'llanilib kelayotgan ijtimoiy hodisalar axborot olish madaniyatining tarkibiy qismlaridir.

Yosh avlodni kitob o'qishga bo'lgan qiziqishini oshirish maqsadida "2020-2025-yillarda kitobxonlik madaniyatini qo'llab-quvvatlash milliy dasturini tasdiqlash to'g'risi"da O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 2-martdagi PF-5953-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2017-2021-yillarda O'zbekiston Reapublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yonalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili"da ustuvon maqsadlar belgilab olindi va shu asosida tadbirlar amalga oshirilib belmoqda. Bu ham yoshlarga berilgan imkoniyat.

Yoshlarda kitob o'qish ko'nikmasi shakllansa, kamoloti yo'lida qolgan barcha amallarni kitobning o'zi o'rgatadi

"Mutolaa" so'zi arabcha "o'qish" degan ma'noga ega bo'lsa-da, bugungi kunda u kitob o'qishdan ko'ra kengroq tushunchani anglatmoqda. A. Umarov fikricha: "Mutolaa" madaniyati ijtimoiy guruhlar, uyushmalar va alohida individlarning umumiy ma'lumot olishga yo'naltirilgan jarayon, xulq-atvor va faoliyatlari mazmuni hamda tarkibiy tizimlarida yuz beruvchi o'zgarishlar majmuini ifodalovchi bilimlar, me'yorlar, ijtimoiy hodisalar va boshqa atributlardir.

Safo Matchon: «Kitobxonlik – o'qilgan kitoblar soni bilan belgilanmaydi, balki u tushunib o'qish, ya'ni maqsadli o'qishdir. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, kitobxonning yozuvchi aytmoqchi bo'lgan fikrini nechog'li uqishini, ya'ni asar «tili»ga tushinishi kitobxonlik madaniyati, talanti darajasi ko'rsatadi. Shu

tufayli adabiyotimiz talantli yozuvchilar bilan birga talantli kitobxonlarga ham hamisha ehtiyoj sezadi». Uning fikricha kitobxonlik talanti tugʻma emas, balki tarbiya vositasida kamol topadi. Kitobxonlik haqida gap ketganda, olmon mutafakkiri Gyotening quyidagi fikrini keltirish joizdir: «Kitobxonlikka oʻrganish uchun qanchalik koʻp vaqt sarf qilinishini odamlar tasavvur qilmaydilar, buning uchun men hayotimning 80 yilini bagʻishladim, lekin hali ham oʻrgandim, deb ayta olmayman». Professor V.F.Asmus oʻzining «Kitobxonlik – mehnat va ijod» nomli maqolasida esa kitobxonlikka shunday taʼrif beradi: «Mutolaa vaqtida asar bir koʻzadan ikkinchi koʻzaga kuyilgan suv kabi kitobxon miyasiga quyilib qolmay, balki ijodkor kitobxon tomonidan qayta idrok etiladi». «Taraqqiy etgan xorijiy mamlakatlarda, deb yozadi H.Toʻxtaboyev,- kitobxonlik fan darajasiga koʻtarilgan. Kitobxonlik kitobni targʻib qilishgina emas, balki kitob oʻqishni, oʻqiladigan kitobni tanlay olishni, magʻzini chaqishni, yaʼni kitob yordamida oʻzini anglashni oʻrgatish hamdir

Oʻquvchilarning kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda maktab hamda kutubxona hamkorligini taʼminlash boʻyicha alohida ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish zarurligi quyidagi sabablarga koʻra yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda:

- mazkur mavzuda bugungi kunga qadar maxsus pedagogik izlanishning amalga oshirilmaganligi;

- oʻquvchilarning kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda maktab hamda kutubxona hamkorligining ijtimoiy-pedagogik xususiyatlari, metodologik asoslari etarli darajada ishlab chiqilmaganligi;

- maktab kutubxonalari faoliyatini takomillashtirish, uni umumtaʼlim va umumtarbiyaviy faoliyatning uzviy boʻgʻini sifatida baholab yondoshish talab darajasida emasligi, mazkur ijtimoiy-pedagogik institutlar orasida hamkorlikning taʼminlanmaganligi;

- maktab kutubxonalari ishini Oʻzbekiston maktablari oldiga qoʻyilgan shu kungi talablardan kelib chiqqan holda maqsadli faollashtirish yoʻllari va usullarini belgilab beruvchi meʼyoriy hujjatlar va uslubiy tavsiyalarning ishlab chiqilmaganligi;

- maktab kutubxonalari faoliyatini oʻquvchilar ongida milliy istiqlol gʻoyasini shakllantirish talablari doirasida yoshlarni tarbiyalashning muhim markazi sifatida tizimli takomillashtirish yoʻllarining nazariy asoslab berilmaganligi.

Kitob insoniyat aql-zakovati yaratgan eng buyuk mo'jizalardan biridir. Kitoblar va kutubxonalar o'quvchi shaxsi kamoloti va uning taraqqiyotiga xizmat qilganligi uchun ham hamisha e'zozlanadi.

Zamonaviy bolalar hamda maktab kutubxonalari oldiga quyidagi vazifalarni yechish mas'uliyati qo'yilgan:

- o'quvchilarning kitob bilan o'zaro aloqasini mustahkamlash ularni kitob o'qishga qiziqtirish, ta'lim-tarbiya jarayonida kitob va boshqa axborot manbalaridan foydalanishga keng imkoniyat yaratish;

- o'quvchini badiiy adabiyotga qiziqtirish, kitob o'qishga bo'lgan ehtiyojini kuchaytirish, uni mustaqil o'qishga o'rgatish, badiiy adabiyot orqali o'quvchilarda badiiy-estetik didni shakllantirishga alohida e'tibor qaratish;

- o'quvchilarda izchil tarzda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish;

- o'quvchilarning kitobni mustaqil mutolaa qilib, uni ijodiy o'zlashtirishga odatlantirish;

- o'quvchilarda kitob bilan muloqotga kirishish ko'nikmalarini qaror toptirish;

- o'quvchilarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda ilg'or axborot texnologiyalaridan foydalanish.

O'quvchilar bilan ishlaydigan kutubxonachi o'z mutaxassisligi bo'yicha kutubxonalik, metodik, tadqiqot va boshqaruvchilik faoliyatlariga tayyor bo'lishi lozim. Kutubxonachi insoniylik, bolalarga muhabbat, pedagogik fikrlash kabi fazilatlariga ham ega bo'lishi lozim. O'quvchilarning kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda kutubxonachilar o'qituvchilar bilan hamkorlik qilish uchun quyidagilarni yaxshi bilishi kerak:

- bolalar uchun yozilgan kitoblar haqida ma'lumotga ega bo'lishi;

- o'quvchilarni kitob o'qishga odatlantirishda ko'zlanadigan pedagogik maqsad va vazifalarni to'g'ri anglab etishi;

- o'quvchilarning kitobxonlik madaniyatini shakllantirish usul va yo'llarini o'zlashtirgan bo'lishi;

- o'quvchilarga kitob o'qishni o'rgatishning turli usul, shakl, metodlarini tanlash va qo'llashni bilishi, bu jarayonda pedagogik texnologiyalarni qo'llay olishi;

- pedagogik bilimlarga, badiiy asarni pedagogik va badiiy tahlil qilish ko'nikmalarini egallagan, badiiy va o'quv adabiyotlarining

barcha turlaridan ma'lumotga ega bo'lishi, ushbu bilimlarni o'quvchilarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish jarayonida qo'llay olishi;

- o'quvchilar bilan pedagogik muloqot qilish metodlaridan foydalanish, notiqlik ko'nikmalari hamda ifodali o'qish malakasiga ega bo'lishi;

- o'quvchilarning badiiy-ijodiy faoliyat xususiyatlarini bilishi hamda bu bilimlarni ularda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda qo'llashi;

- avtomatlashtirilgan ish jarayonida hamda zamonaviy texnik vositalar bilan ishlashni bilishi.

Kitob va mutolaa.

1. Go'zal kitoblar ajib narsalarni ko'ruvchiku, avloqda sirdosh yolg'izlikda do'st, ojizlik vaqtlarda yordmchi, hasratda shodlik keltiruvchi, fikrlarni nurlantiruvchi, u zamon ahvolidan so'zlovchi ummatlar, voqiotini hikoya etuvchi, aqlli kimsalarning aqlarini ko'rsatuvchi oz haqli ko'p foydali narsalardir. Shuning uchun kitob olmaqda baxillik etmangiz, kitoblardan ayrilmangiz.

2. Lekin kitoblar orasida yo'q, narsalar yozilmish ma'nosiz narsalar ila to'lganlari ham bordir, bo'larni o'qimoq, qiymatli umrni zoyi etmaqdir. Shuning uchun fikrlarni nurlantirajak, xulq poklarga yordam berajak, aqlni ortirajak kitoblarni ixtiyor etib, boshqalardan yiroq bo'lingiz. Foydali kitoblarni o'qimaq ko'ngliga shodlik keltirur, fikrga oziq bo'lur, zehnga quvvat berur ...

3. Ba'zi kimsalar bo'ladiki, kitobi ko'b deb xalq orasida nom chiqarmoq uchungina kitob yig'ib, o'zlari undan hech foyda olmasalar. Boshqalargada foyda oldirmaslar, hatto ichlarida nimalar borliginida bilmaslar. Bular yo'q tashuvchilar misolidadir. Shuning uchun sizlar o'zingiz foyda olajak bo'lgan kitoblarni o'zingiz foyda olmoq uchun ixtiyor etingiz.

4. Mutolaa insonning yuziga nur, ko'ngliga shodlik keltirur. Ushbu sabab uchun zehn xizmati ila mashg'ul bo'luvchilar harnaqadar oriq bo'lsalarda, aqlari semiz va yo muhabbatli bo'lur.

5. Musiqaning ajobiy sahifalari musiqali soat o'tkazish. O'quvchilarga mumtoz ashulalardan birining nomi aytiladi. Topshiriq she'r, muallifi, bastakori haqida ma'lumot to'plab kelish, grampalstinka yoki magnit tasmasiga yozilgan qo'shiqni topish va birgalikda eshitib,

muhokama qilish, bolalar o'zlariga topshirilgan vazifani musiqa o'qituvchisi yordamdi sinf tarbiyaviy soatida muhokama qiladi.

6. Sen mehmonni qanday kutasan, mehmonda o'zingni qanday tutasan (Mehmon bo'lish va kutish adabi haqida)

7. San'atkorlar dunyosida, ulug' rassom mavzularida suhbat, uchrashuv, ekskursiya o'tkazish, albom yoki stend tayyorlash.

Tabiatni asrash, uni muhofaza qilishga o'rgatish, umuman, ekologik tarbiya berish bugungi kunning dolzarb masalasidir. Shu bois boshlang'ich sinf o'quvchilari ongiga barcha predmet darslarida ushbu tarbiya elementlarini singdirish orqali ularda

ekologik madaniyatni shakllantirish mumkin. Bunday o'qitishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish yaxshi samara beradi. O'qituvchi o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etishda ularning xohishiga ko'ra individual tarzda, juftlikda yoki kichik guruhlarda ishlash shakllaridan foydalanish yaxshi samara beradi.

Ekologik tarbiya, avvalambor, bolalarni insonparvarlik, xayrixohlik, hissiy munosabat va ularning atrofidagi dunyoga qiziqishini tarbiyalashga xizmat qiladi.

Zero, atrof-muhitni bolaga ta'siri juda katta. Chunki har kuni bolalar u yoki bu shaklda atrof-muhitdagi turli narsalar yoki hodisalar bilan aloqaga kirishadilar ya'ni ular qushlarni, hasharotlarni, hayvonlarni, qishda, qor parchalarini, kuzda, sarg'aygan barglarni, yomg'irni kuzatishadi, tabiat haqidagi she'rlar va hikoyalarni tinglashadi, tabiat hodisalari, o'simliklarga g'amxo'rlik qilishni o'rganadilar. Tabiat bolalarni birinchi navbatda o'zining go'zalligi, ranglarining yorqinligi, xilma-xilligi bilan o'ziga jalb qiladi. Shu boisdan "Ekologik tarbiya maktabgacha yoshda, maktab davrida, maktabdan keyingi, mahalla, mehnat jamoasi hamda keksalik davrida turlicha mazmun, shakl va metodlar hamda yondashuvlarda amalga oshiriladi". Bolalar birinchi aniq bilim va tajribani ham shu tabiatdan oladi.

Atrof-muhit bilan bunday aloqa, bir tomondan, bolaning hissiy tajribasini boyitadi, boshqa tomondan, uning tasavvurini kengaytiradi va bolaning atrof-muhit to'g'risida turli savollari va qiziqishlarini paydo bo'lishiga katta yordam beradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida atrof-muhitga ijobiy munosabatni shakllantirishda bolalar bilan ishlashda qo'llanilishi mumkin bo'lgan ba'zi usul va metodlarni ko'rib chiqishimiz e'tiborga molik. Atrof-muhitga ijobiy munosabat nuqtai nazaridan metod - bu tarbiyachi va bolalarning birgalikdagi faoliyati usuli bo'lib, uning davomida ekologik bilim, ko'nikmalarni shakllantirish qobiliyatlari va atrof-muhitga munosabatni tarbiyalash jarayoni samarali amalga oshiriladigan usuldir. Atrofmuhitga ijobiy munosabatni shakllantirishdagi texnika esa bu muayyan usulning o'ziga xos elementidir.

Atrof-muhitga ijobiy munosabatni shakllantirish usulini tashkil etadigan texnikalar qanchalik boy va xilma-xil bo'lsa, o'quv va bilim vazifasi shunchali muvaffaqiyatli hal qilinadi. Shu boisdan ham N.J.Isakulova "Uzluksiz ta'lim jarayonida o'quvchilarga fanlararo ekologik tarbiya berishda variativ didaktik funksiyalarni quyidagilardan iborat ekanligini alohida qayd etadi:

- ekologik mazmunda mashq bajarish, masalalar yechish, diktinat va bayonlar yozishda qo'shimcha topshiriqlardan foydalanish;
- ekologik mazmundagi darslarni fanlararo bog'lanishda turli uslublarning bir nechtasidan foydalangan holda tashkil etish;
- darsdan tashqari mashg'ulotlarni o'quvchining turli qiziqishlari asosida turli uslublardan foydalanib olib borish;
- ekologik mazmundagi testlarni o'tkazishda mazmunning bir xilligiga e'tibor bergan holda savol-javoblar xilma-xilligiga erishish;
- fanlararo ekologik tarbiya berish yuzasidan o'quvchi bilimi, ko'nikma va malakalarini baholash xilma-xilligini inobatga olish.

Mazkur variativ didaktik funksiyalarning har biri bajarilishida bir vaqtning o'zida har xillikka erishishga e'tibor beriladi" degan edi.

Atrof-muhit haqida fikrlashning asosiy shakllari va bolalar faoliyati uslublariga muvofiq 4 ta usul mavjud:

1. Atrof-muhit haqidagi vizual usullar (kuzatish, namoyish qilish, tekshirish). Vizual usullar - o'simliklar, hayvonlar, jonsiz va tirik tabiatning tabiiy hodisalari to'g'risida aniq ma'lumot to'plashning eng maqbul usullaridir.

Uning yordami bilan bola nafaqat ob'ektlarning tashqi parametrlarini (rangi, tuzilishi, hidi, shakli va boshqalar), balki ularning atrof-muhit bilan aloqalarini ham o'rganadi.

2. Atrof-muhit haqidagi yetarli darajada tasavvur hosil bo'lishi uchun og'zaki usullar (suhbat, hikoya, badiiy adabiyotni o'qish usullari: tushuntirish, ko'rsatma, pedagogik baho, savol, masalan uy gullari yoki uy hayvonlari haqida hikoya tuzish) ham muhim ahamiyat kasb etadi.

3. Atrof-muhit haqidagi muhim tasavvurlarni shakllanishida amaliy usullar ham qo'l keladi. Amaliy usullar bu turli mashqlar, elementar tajribalar, modellashtirish, bolalar tajribasiga, amaliy vaziyatlarga, qidiruv harakatlariga, so'rovnomalarga asoslanib, modelga muvofiq ish tutishdir.

4. O'yin usullari esa bu atrof-muhit haqidagi didaktik o'yinlar, o'yin holati, o'yinchoqlar bilan harakatlar, harakatlarga taqlid qilish, yashirish va qidirish, ochiq maydonda o'ynash, epizodik o'yin texnikasi, topishmoqlardan iboratdir. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida atrof-muhitga ijobiy munosabatni shakllantirishda ekologik loyihalar ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida atrof-muhitga ijobiy munosabatni shakllantirish jarayonidagi turli shakl va usullar bolalarning yosh xususiyatlariga qarab tanlanishi kerak. Kichik va o'rta maktabgacha yoshdagi bolalar, tabiiyki eng oddiy kuzatish usullaridan foydalanadilar va o'z tadqiqotlari natijalarini asosan rasm va qissa shaklida umumlashtiradilar. Bolalarning yoshi qanchalik katta bo'lsa, o'qituvchining yetakchilik roli shunchalik kam bo'ladi, tadqiqotning hajmi esa shunchalik katta bo'ladi.

Ekologik tarbiya. Inson samarali mehnati, tabiat noz-ne'matlaridan oqilona foydalanishi va uning go'zalliklaridan bahramand bo'lishi tufayli farovon hayot kechiradi. O'quvchilarda bu tushunchani shakllantirishda ekologik tarbiya muhim o'rin tutadi.

Ekologik tarbiya bu o'quvchilarda atrof-muhitga nisbatan beparvo bo'lmaslik, tabiat, inson, hayvonot va o'simliklar dunyosini e'zozlashni shakllantirish demakdir. Bu jarayon dars va sinfdan tashqari mashg'ulotlarda amalga oshiriladi.

1. Yashab turgan tuman, viloyat tabiatini o'rganish.

2. "Suvsiz hayot bo'lmas", "Yer xazina", "Suv oltin" mavzularida til adabiyot o'qituvchisi hamkorligida insho o'tkazish, muhokama qilish, namunali insholar ko'rgazmasini tashkil etish.

3. Tabiat boyliklari deganda nimani tushunasiz, Tabiatni asrash uchun nimalar qilish kerak? Qanday daraxt va gullarni sevasiz? mavzularida munozara tashkil etish.

5. Estetik tarbiya.

Estetik tarbiya – jamiyatda ma'naviy muhitni paydo qilishga ko'mak

beruvchi muhim unsur bo'lib, u inson didini shakllantiruvchi, rivojlantiruvchi hamda ana shu orqali insonni jamiyat munosabatlariga yaqinlashtiruvchi kuchdir.

Hozirda estetik tarbiyaning ko'lami tobora kengaymoqda.

Shunga ko'ra, u o'z oldiga talaygina muhim vazifalarni qo'ygan. Bular:

- kishilarda san'at asarlari, badiiy ijod namunalarini nafaqat faol o'zlashtirish balki, ularning estetik mohiyatini anglash va baholash qobiliyatini takomillashtirish;

- jamiyat a'zolarining ijodiy imkoniyatlarini namoyon qildirish va ulardan foydalana bilishga ishonch tuyg'usini uyg'otish;

- tabiat hamda jamiyat ijtimoiy jarayonlariga sof tuyg'u bilan munosabatda bo'lishga va ularni ravnaq toptirish yo'lida astoydil faoliyat olib borish ko'nikmalarini hosil qilish;

- o'tmish ma'naviy merosimizga hurmat hissini uyg'otish, milliy g'urur, milliy iftixor tuyg'ularini shakllantirish uchun zamin yaratish;

- ijodning barcha turlarini taraqqiy ettirib jahonga yuz tutish va ularni

millat manfaatlari uchun naf keltiradigan tomonlarini targ'ib qilishga

undashdir.

Estetik tarbiyaning asosiy vositalari tarkibiga-san'at, information texnologiyalar, tabiat, mehnat, sport kabi sohalarni kiritish mumkin.

Estetika keng ma'noga ega bo'lib, shaxsni tabiat va jamiyatdagi go'zalliklarni ideal nuqtai nazardan idrok etishga o'rgatadi. Shuningdek estetik faoliyatiga, voqelikni, go'zallik qonun-qoidalari asosida o'zgartirishga qobiliyatli shaxsni tarbiyalaydi. Estetik rivojlantirish-bu shaxsning estetik ongi, munosabatlari va estetik faoliyatining vujudga kelishi hamda takomillashuvidan iborat uzoq davom etadigan jarayondir. Bu jarayon yosh va ijtimoiy omillar bilan belgilanadi turli bosqich xamda darajaga ega. Estetik tarbiya shaxsning jamiyat estetik madaniyatini egallab olishiga bog'liq bo'lib, turli yo'llar va shakllar yordamida amalga oshiriladi. Jamiyat va ayrim shaxsning estetik madaniyati tushunchalari mavjud. Jamiyatning estetik madaniyati deganda insoniyat butun rivojlanishi tarixi jarayonida to'plagan moddiy

va ma'naviy qadriyatlari majmui tushuniladi. Bolalikda aql-farosat, axloqiy ko'nikmalarni tarbiyalash bilan bir qatorda, ularda chiroyli, nafis, go'zal narsalardan zavq ola bilishni, go'zallikni dag'allikdan, qo'pollikdan tez ajrata olish qobilyatini tarbiyalashimiz kerak. Maktab yoshidagi boshlang'ich sinf o'quvchilariga ta'lim bilan birgalikda tarbiya ham teng berib boriladi. Boshlang'ich sinf dasturiga ko'ra o'quvchilarga dastlab turmushdagi go'zallik, ya'ni buyumlar, kiyimlar, o'quv qurollarini toza ozoda, chiroyli asrash, ularni saranjom-sarishta saqlay bilish, ulardan to'g'ri va o'rinli foydalanish o'rgatiladi.

O'quvchilarni estetik ruhda tarbiyalashda ota-ona, mahalla va ta'lim muassasasining o'rni va hamkorligi katta rol o'ynaydi. Oila inson bolasi uchun hayotga tayyor bo'lib chiqadigan qutlug' va mo'tabar dargoh hisoblanadi. Ota-onalarning biri-biriga samimiy munosabatida, go'zal muomalasida, uy tutishlarida, yurish-turishlarida bo'lsa, mahalla tarbiya beruvchi kichik bir ta'lim muassasasi hisoblanadi. O'zidan kattalarni ko'rganda salom berish, kichiklarga izzatda bo'lish, kattalar gapirganda ko'ziga tik qarab turmaslik, minnatdorchilik bildirish olish va kattalar ruxsatisiz biror nojo'ya ish qilmaslik o'rgatiladi. Bu esa bola odobining go'zalligi va estetik tarbiyaning boshlanishi hisoblanadi.

Taniqli mutafakkir Abu Nasr Farobiyning "Inson o'z baxtiga erishishda go'zallikni ko'rishi his qilishining o'zi yetarli emas, buning uchun go'zallikni yarata olishi muhimdir" degan fikrni ilgari surganlar.

Maktab yoshidagi boshlang'ich sinf o'quvchisi maktab ostonasiga ilk qadam qo'ygan paytda tabiatdan bahra ola bilish, uning go'zalligini sevishga o'rgatish lozim. O'quvchi shaxsning estetik madaniyati uning jamiyat madaniy merosini faol, ijodiy o'zlashtirishi natijasida xosil bo'ladi. Shaxsning go'zallik bilan o'zaro munosabati, shuningdek shaxsning ayrim sifatlarini o'zaro ta'siri natijasida estetik madaniyati doimo o'zgarib turadi. Shaxs estetik madaniyatining asosiy tarkibiy qismlari bu estetik ong extiyojlar, munosabatlar va estetik faoliyatlardir.

Estetik madaniyatining bu tarkibiy qismlari o'ziga xos murakkab tuzilishiga egadir. Estetik ong, estetik idrok, bilim, muloxaza, baxs, estetik idealni qamrab oladi. Estetik extiyojlar va munosabatlar esa, eng avvalo shaxsning estetik qiziqishlari, didi, Estetik xissiyotlarida ifodalanadi. Estetik ong ijtimoiy voqelik tabiat, san'at bilan bevosita muloqot jarayonidanazariyalar qarashlar, badiiy ta'lim va tarbiya natijasida shakllanadi. O'quvchilarga o'tiladigan fanlarni tabiat bilan

uyg'unlashgan holda olib borish, ya'ni tabiat qo'yniga sayohatlarga olib chiqish, tabiatda bo'ladigan voqea hodisalarni kuzata bilish, tabiatda uchraydigan oddiy kichik narsalardan ham faqatgina tashqi ko'rinishiga qarab emas, uning tuzilishi, rangi, shakli bolada estetik didni va idrokni shakllantiradi.

Estetik idrok-bu atrof voqelikdagi buyumlar, xodisalarning estetik mohiyatini butun tarkibiy qismlari bilan birgalikda aks ettirishdir, ya'ni idrok etilgan narsalarni shaxsda mavjud bulgan xissiy va aqliy narsalarga qiyoslash jarayonidir. Estetik idrok go'zallik bilan uchrashganda yuzaga keladi va aniq maqsadga qaratilganligi bilan tavsiflanadi. Musiqa yoki tasviriy san'at fanini tabiat bilan birga bog'laydigan bo'lsak, raqs yoki qo'shiq kuylash, tabiat manzaralari aks etgan rasmlar chizish, shular bilan birgalikda qushlar, hayvonlar va tabiat hodisalarini kuzata bilish-nafosat tarbiyasining asoslaridan biri hisoblanadi.

Nafosat tarbiyasi orqali o'zini-o'zi boshqarish ko'nikmasi shakllanadi. Estetik qiziqishning asosiy belgisi o'quvchida estetik faoliyatga intilishi, o'zi yoqtirgan san'at asarlarini yig'ib to'plab borishi, takror o'qib idrok etishi, o'sha asarlar haqida fikr bildirishga intilishi, boshqalarning shu masalaga doir fikrini bilishga qiziqishi, muayyan san'atlar, janr, yo'nalish kabilarni afzal ko'rishida namoyon bo'luvchi tanlash xususiyatining mavjudligi bilan ifodalanadi. Masalan, o'quvchini qiziqtirgan san'at ustasining rasmlarini, asarlarini to'playdilar, qayta-qayta o'qib chiqadilar. Bu esa asta-sekin o'ziga nisbatan talabchanlikni, o'zini mustaqil, ongli, oqilona boshqarish va xulq-atvori, xatti-harakatiga baho bera bilish ko'nikmalarini egallash demakdir. Hamma vaqt nafosat tarbiyasining asosida erkin va mustaqil fikrlay olish, eshitish, ko'rish, harakat qilish qobiliyatini tarbiyalash masalasi turadi.

Savol va topshiriqlar:

1. Boshlang'ich ta'limda sinf tarbiyaviy saotlarining maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
2. Sinf tarbiyaviy saotlari o'quvchilarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishiga qanday ta'sir ko'rsatadi?
3. Tarbiyaviy saotlar davomida o'qituvchi qanday pedagogik usullarni qo'llash kerak?
4. Sinf tarbiyaviy saotlarining o'quvchilarda axloqiy qadriyatlarni shakllantirishdagi roli qanday?

5. Boshlang'ich ta'limda sinf tarbiyaviy saotlarini rejalashtirishda qanday asosiy omillarni hisobga olish zarur?
6. Tarbiyaviy saotlarning mazmunini belgilashda o'quvchilarning yosh xususiyatlarini qanday e'tiborga olish kerak?
7. Sinf tarbiyaviy saotlarida o'quvchilarni jamiyatda faollikka va mas'uliyatga qanday yo'naltirish mumkin?
8. Tarbiyaviy saotlarda o'quvchilarni ekologik va madaniy tarbiyasi qanday olib boriladi?
9. Sinf tarbiyaviy saotlarida o'quvchilarning ijtimoiy muammolariga e'tibor qaratishning ahamiyati qanday?
10. Boshlang'ich ta'limda sinf tarbiyaviy saotlarining samarali tashkil etilishi uchun o'qituvchining professional kompetentsiyasi qanday ahamiyatga ega?

Test:

1. Sinf tarbiyaviy saotlarining asosiy maqsadi nima?
 - a) o'quvchilarga yangi bilimlarni o'rgatish;
 - b) o'quvchilarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishini ta'minlash;
 - d) o'quvchilarni fizika va matematika fanlarida bilim olishga rag'batlantirish;
 - e) o'quvchilarga sport bilan shug'ullanishni o'rgatish;
2. Sinf tarbiyaviy saotlari orqali qanday qadriyatlar shakllantiriladi?
 - a) faoliyatga bo'lgan qiziqish;
 - b) axloqiy va estetik qadriyatlar;
 - d) faqat akademik yutuqlar;
 - e) texnik va ilmiy qobiliyatlar;
3. Tarbiyaviy saotlarda o'quvchilarga qanday yondoshuvlar qo'llaniladi?
 - a) darsliklardan faqat nazariy bilimlarni o'rganish;
 - b) faol va interaktiv usullar, o'yinlar va muhokamalar;
 - d) faqat sinfda suhbatlar o'tkazish;
 - e) yalpi test sinovlari o'tkazish;
4. Sinf tarbiyaviy saotlarining o'quvchilarda qanday rivojlanishni ta'minlaydi?
 - a) faqat matematik tafakkur;
 - b) shaxsiy va ijtimoiy rivojlanish;
 - d) ilmiy izlanishlar;
 - e) akademik yutuqlar;

5. Sinf tarbiyaviy saotlarini tashkil etishda qanday asosiy omil hisoblanadi?
 - a) o'qituvchining bilim darajasi;
 - b) o'quvchilarning yosh xususiyatlari;
 - d) dars jadvali;
 - e) sinfning texnik ta'minoti;
6. Sinf tarbiyaviy saotlarining mazmuni nimalardan iborat?
 - a) faqat axloqiy va estetik tarbiya;
 - b) o'quvchilarning ijtimoiy va ma'naviy tarbiyasi;
 - d) o'qituvchining shaxsiy fikrlari;
 - e) yalpi bilimlar;
7. Sinf tarbiyaviy saotlari o'quvchilarda qanday fazilatlarni rivojlantiradi?
 - a) faqat ilmiy bilimlarni;
 - b) etika, mehnatsevarlik va mas'uliyat;
 - d) sport va jismoniy faollik;
 - e) texnik qobiliyatlar;
8. Sinf tarbiyaviy saotlarida o'qituvchining roli qanday?
 - a) o'quvchilarga faqat bilim berish;
 - b) o'quvchilarning ijtimoiy va ma'naviy tarbiyasini yo'naltirish;
 - d) o'quvchilarning individual faoliyatini nazorat qilish;
 - e) o'quvchilarga faqat testlar o'tkazish;
9. Sinf tarbiyaviy saotlarining samarali bo'lishi uchun nima kerak?
 - a) o'quvchilarning faqat bilimlarini baholash;
 - b) o'quvchilarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishiga e'tibor qaratish;
 - d) sinfdagi o'quvchilarning barcha akademik faoliyatlarini nazorat qilish;
 - e) faqat dars vaqtida o'qituvchining qatnashishi;
10. Tarbiyaviy saotlar orqali qanday muammolarni hal etish mumkin?
 - a) matematika va fanlar bo'yicha bilimlarni oshirish;
 - b) o'quvchilarning o'zaro munosabatlarini yaxshilash;
 - d) o'quvchilarning sportda yutuqlarini oshirish;
 - e) o'quvchilarning o'qish va yozish ko'nikmalarini oshirish.

Boshlang'ich ta'limda sinf tarbiyaviy saotlari haqida umumiy tushuncha mavzusida muammoli vaziyat quyidagicha bo'lishi mumkin:

Muammo: O'quvchilar orasida o'zaro hurmat va mehnatsevarlikni shakllantirishda qiyinchiliklar mavjud. Ba'zi o'quvchilar sinfda o'z vazifalarini bajarmayapti, boshqalar esa bir-biriga nisbatan tajovuzkor yoki e'tiborsiz munosabatda bo'lishadi. O'quvchilar sinfda qoidalarini buzishadi, guruhlarda ishlashda muammolar yuzaga keladi va bu holatlar umumiy sinf muhitiga salbiy ta'sir qiladi.

Savollar:

1. Sinfda o'zaro hurmat va ijobiy munosabatlarni qanday rivojlantirish mumkin?
2. Tarbiyaviy soatlar davomida o'quvchilarda mehnatsevarlik va mas'uliyatni shakllantirish uchun qanday faoliyatlar tashkil etish lozim?
3. O'quvchilarning sinfdagi ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishda qanday metod va usullardan foydalanish mumkin?
4. O'quvchilarning salbiy xulq-atvorini o'zgartirish uchun qanday pedagogik yondashuvlarni qo'llash samarali bo'ladi?

Tavsiyalar:

- Sinfda o'zaro hurmatni rivojlantirish uchun turli guruh ishlari va muhokama mashg'ulotlarini o'tkazish.
- Har bir o'quvchining faoliyatini qadrlash va ularga o'z fikrini bildirish imkonini yaratish.
- Tarbiyaviy soatlar davomida sinfda umumiy qoidalarini muhokama qilish va bu qoidalarga rioya qilishning ahamiyatini tushuntirish.
- O'quvchilarda mehnatsevarlik va mas'uliyatni shakllantirish uchun ularga kichik mas'uliyatlar yuklash va muntazam ravishda natijalarni baholash.

11-mavzu. Boshlang'ich sinf rahbarining na'munaviy, yillik ish rejasini tuzish metodikasi.

Reja:

1. Sinf rahbarining na'munaviy yillik ish rejasini tuzish metodikasi.
2. Sinf rahbarining na'munaviy yillik ish rejasini tuzish metodikasi o'rnatish haqida malumot.
3. Sinf rahbarining na'munaviy yillik ish rejasini tuzish metodikasi o'rgatish haqida malumot berish.

Foydalangan adabiyotlar

39. Mavlonova R., Raxmonqulova N., Normurodova B. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. -T.: Tib-kitob, 2010 y.
40. Ishmuhammedov R., Abduqodir A., Pardayev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar. -T.: Fan va texnologiya, 2010 y.
41. И.А.Олесникова, Н.М.Борытко и др. Воспитательная деятельность педагога. Учебное пособия. М.:Академия, 2006-333 с.
42. Подласый И.П. Педагогика 2-я част -М.: ВЛАДОС, 2003 г.
43. Mirziyoyev Shavkat Miromonovich. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga ko'ramiz. Mazkur kitobdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2016-yil 1-noyabrdan 24-noyabrga qadar Qoraqolpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent sharxi saylovchilari vakillari bilan o'tkazilgan saylovoldi uchrashuvlarida so'zlagan nutqlari o'rin olgan. /Sh.M.Mirziyoyev.- Toshkent: "O'zbekiston", 2017.- 488 b.
44. www.pedagog.uz
45. <http://www.allmath.ru/>

Tayanch tushunchalar. Ish reja, namunaviy reja,

1. Sinf rahbarining na'munaviy yillik ish rejasini tuzish metodikasi.

Sinf rahbarining namunaviy yillik ish rejasini tuzish metodikasi o'quv yili davomida sinfda o'quvchilarning o'zini o'zi boshqarish, tarbiya, ta'lim va salohiyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan reja tuzishni o'z ichiga oladi. Ushbu ish rejasining asosiy maqsadi sinfdagi o'quvchilarni jamiyatga moslashtirish, ularni ilmiy, ma'naviy va ijtimoiy jihatdan rivojlantirish, ularning sog'lom fikr va xulqini shakllantirishdir. Quyida sinf rahbarining yillik ish rejasini tuzish metodikasini ko'rib chiqamiz:

1. Rejaning maqsad va vazifalarini belgilash

Maqsad: Sinf rahbarining asosiy maqsadi sinfdagi o'quvchilarga ma'naviy-axloqiy tarbiya, ijtimoiy faoliyatni rivojlantirish, o'quvchilarni muvaffaqiyatli ta'lim olishlari uchun zarur sharoitlar yaratish.

Vazifalar:

O'quvchilarda mas'uliyat, o'zini o'zi boshqarish, o'qishga va jamiyatga qarashni shakllantirish.

Sinfda yaxshi o'zaro munosabatlar o'rnatish, sinfda ijtimoiy va psixologik muhitni yaxshilash.

O'quvchilarning sog'lom hayot tarzi, axloqiy qadriyatlar va madaniyatini rivojlantirish.

O'quvchilarning intellektual va jismoniy salohiyatini oshirish uchun harakatlar rejasini ishlab chiqish.

2. Reja tarkibi va tuzilmasi

Ijtimoiy va psixologik ishlanmalar:

Sinfning umumiy muhitini yaratish (yilning boshida o'quvchilarni bir-biriga tanishtirish, sinfning ko'p qirrali faoliyatini tashkil etish).

O'quvchilarning psixologik xususiyatlarini inobatga olib, ularning ehtiyojlariga mos psixologik treninglar o'tkazish.

Tarbiya ishlari:

Axloqiy va ma'naviy tarbiya ishlari (kitobxonlikni rag'batlantirish, sinfda xulq-atvorni normallashtirish).

Madaniy va sport tadbirlari (o'quvchilarning jismoniy faolligini oshirish).

O'quv faoliyati:

Sinf rahbari o'quvchilarga yordam ko'rsatadi, o'quv yili davomida darslarda faol ishtirok etishlarini rag'batlantiradi.

O'quvchilarning individual rivojlanishini nazorat qilish, ularning qobiliyatlarini aniqlash.

O'quvchilarning ijtimoiy faolligi:

Sinfda yig'ilishlar, diskussiyalar, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazish.

Sinf hamda maktab hayotida ijtimoiy faoliyatlarga jalb etish (masalan, hayriya ishlarida ishtirok etish).

Oila bilan hamkorlik:

O'quvchilarning oila a'zolari bilan muntazam aloqada bo'lish.

O'quvchilarning ota-onalari bilan maslahatlashish, ularning ta'lim va tarbiyasiga yordam berish.

3. Reja davomiyligini belgilash

Bir yillik reja: Bu reja o'quv yiliga mo'ljallangan bo'lib, unda har oylik va mavsumiy tadbirlar, majlislar, maslahatlar va ishlar belgilanishi kerak.

Oylik, kvartal va yillik reja: Yillik reja asosida har oydagi faoliyat va har chorakda o'quvchilarni nazorat qilish va baholash jadvali tuziladi.

4. Tadbirlarning amalga oshirilishi va baholanishi

Faoliyatning baholanishi: Har o'quvchining yillik faoliyati baholanadi. Bu baholash individual va guruh ishlari bo'yicha amalga oshiriladi.

Yil yakunida sinf rahbari tomonidan o'quvchilarni baholash va tahlil qilish: Yil oxirida o'quvchilarning rivojlanishi, muvaffaqiyatlari va kamchiliklari tahlil qilinadi, ularni kelajakdagi yutuqlari uchun rag'batlantirish usullari ko'rib chiqiladi.

4. Metodologik yondashuvlar

Individual yondashuv: Har bir o'quvchining ehtiyojlari va xususiyatlariga mos keladigan yondashuvni tanlash zarur.

Interfaol metodlar: Sinfdagi faoliyatlar, grupp ishleri, o'yinlar, ishchi guruhlar tashkil etish orqali o'quvchilarni yanada faol qilish.

Boshqaruv metodlari: Sinf rahbari va o'quvchilar o'rtasidagi ijobiy va samarali aloqa yaratish.

6. Rejaning amalga oshirilishini tahlil qilish

O'quvchilar faoliyatini muntazam ravishda tahlil qilish, ular orasida ijtimoiy va ma'naviy rivojlanish bo'yicha izlanishlar olib borish.

Sinf rahbarining yillik ish rejasini tuzish metodikasi o'quvchilarni tarbiyalash, ta'limni yaxshilash va ularni har jihatdan rivojlantirishni ta'minlaydi. Rejaning asosiy maqsadi – o'quvchilarga o'zaro hurmat, hamkorlik, bilim olishga qiziqish, axloqiy to'g'ri yo'lni tanlashni o'rgatishdir.

2. Sinf rahbarining na'munaviy yillik ish rejasini tuzish metodikasi o'rnatish haqida malumot.

Sinf rahbari olib boradigan tarbiyaviy ishlarning muvaffaqiyat qozonishi ko'p jihatdan uning aniq reja bilan ishlashiga va ishlarini

yaxshi hisobga olishga bog'liqdir. Sinf rahbarining umummaktab rejasi asosida tuzgan ish rejasi sinfdagi o'quvchilar jamoasining hayotini ma'lum bir yo'lga solishi va o'quvchilar bilan ota-onalarning o'quvchilarga ko'rsatadigan tarbiyaviy ta'sirida birlik bo'lishini ta'minlashi lozim. Sinf rahbarining ish rejasi tarbiyaning umumiy vazifalariga, sinfnings xususiyati talab qiladigan aniq vazifalarga va maktab oldida turgan navbatdagi vazifalarga muvofiqlashtirib tuzilishi kerak. Sinf rahbari o'quvchilar bilan olib boradigan tarbiyaviy ishlarining choraklik rejasini tuzib, maktab rahbarining tasdig'iga topshiradi. Sinf rahbariga, ayniqsa, birinchi marta ish boshlagan sinf rahbariga yangi sinf topshirilganda maktab ma'muriyati sinfdagi o'quvchilar bilan tanishib chiqishi uchun ma'lum muhlat berishi lozim, busiz tarbiyaviy ishlar rejasini tuzib b o'lmaydi.

Sinf rahbari o'quvchilar o'rtasidagi tarbiyaviy ishlar rejasini tuzib chiqishi oldidan shu sinf haqidagi hamda ayrim o'quvchilar haqidagi tavsifnomani e'tibor bilan o'qib chiqadi. Pedagoglar kengashida reja to'g'risida berilgan ko'rsatmalarni ham nazarda tutish lozim. Mana shularning hammasi sinf bilan olib boriladigan barcha ishlarni yaxshi o'ylab olishga imkon beradi. Sinf rahbari o'quvchilar bilan olib boradigan individual ishlarini turli vaqtda o'tkazadi. Sinf rahbarining rejasida sinfdagi hamma o'quvchilar bilan oyda ikki-uch marta darsdan bo'sh soatda uchrashuv ko'zda tutiladi. Darsdan bo'sh soatlarida o'quvchilar majlisi o'tkazish, ekskursiyaga borish va sayr qilish, badiiy havaskorlik to'g'ra raklarining o'yin-kulgi ko'rsatishiga tayyorgarlik ko'rish ishlari rejalashtirilishi mumkin. Bunda soatlarda sinf rahbarining o'zigina so'zlab, o'quvchilarning ba'zi nasihatinigina eshitib o'tiradigan „suhbatlar“ o'tkazishga yo'l qo'yish yaramaydi. Sinf rahbarining chorak uchun tuzgan rejasida o'quvchilar va ota-onalar bilan o'tkaziladigan majlislarning muhlati ko'rsatilishi ham kerak.

Sinf rahbari sinf hujjatlarining, birinchi navbatda, sinf jurnalining yaxshi yuri tilishini doimo tekshirib boradi. U sinfdagi hamma o'qituvchilarning o'quvchilar bilimiga qo'ygan baholarini sinf jurnaliga o'z vaqtiga yozib borishlarini, darsda nimalar o'tilay otgani va shu dars yuzasidan o'quvchilarga uyda ishlashga beriladigan topshiriqlarning yozib borilishini kuzatib boradi. Sinf rahbari har kuni ayrim o'quvchilarning qancha darsda bo'lmaganini yozib boradi va har bir chorak uchun hisobot tuzib chiqadi. Sinf rahbari o'z sinfidagi

o'quvchilarning shaxsiy papkalarini yuritadi va bu papkalarni maktab idorasida saqlaydi.

Yuqorida aytilganidek, o'quvchining shaxsiy papkasida bolani maktabga qabul qilish to'g'risida ota-onalarning bergan arizasi, bolaning yoshi to'g'risidagi hujjat, shifokor ko'rigidan o'tganligi to'g'risidagi ma'lumotnoma, darslarni o'zlashtirishi to'g'risidagi tabeli va har yili berilgan tavsifnomalar saqlanadi. Sinf rahbari sinf to'g'risida yillik hiso bot yozib, uni maktab ma'muriyatiga topshirishi kerak. Sinf rahbari sinfda tarbiya ishlarining qanday ahvolda ekanligi to'g'risida har bir chorak oxirida og'zaki axborot beradi. Sinf rahbarining ishi murakkab va xilma-xildir. Bu ish uchun ancha ma'lumotli bo'lish talab qilinadi.

Maktabda, rahbarning rahbarligi ostida, sinf rahbarlarining bilimi va pedagoglik malakasini oshirish, amaliy ishlarga doir muhim masalalarni muhokama qilish uchun sinfrahbarlari seminar tashkil qilishi zarur.

Sinf rahbarining yillik ish rejasi quyidagicha tuziladi:

1. O'quv rejadagi soatlar sonini aniqlash bosqichi.
2. O'quv dasturdagi mavzularni o'quv rejadagi soatlar soni bo'yicha taqsimlash.

Tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish «Sinfdan va maktabdan tashkari tarbiyaviy ishlar konsepsiyasi»ning yunalishlari va ularning talablari asosida, maktab ma'muriyati rahbarligi va bolalar tashkilotlari, bolalar va usmirlar uyushmasi, yoshlarning «Ijtimoiy tashkilot»larning rejalari asosida tuziladi.

Sinf rahbarining tarbiyaviy faoliyatini rejalashtirishda kuyiladigan asosiy uslubiy talablar nimalardan iborat?

Sinf rahbari sinfda utkazilayotgan tadbirlarni, ularni o'quvchilarga bulgan tarbiyaviy axamiyatini doimiy ravishda taxlil kilib borishi, undagi yutuq va kamchiliklarni sabablarini aniqlash, sinfda ruy berayotgan uzgarishlarni kayd kilib borishi kerak.

Sinf rahbari o'quv yili oxirida sinf jamoasi ishini taxlil kilib, rejada belgilangan vazifalarni kay darajada bajarilganligini, sinf ijtimoiy xayotda qanday ishtirok etganligini, mamlakatimizdagi va chet ellardagi voqyealarga qanday karaganligini, o'quvchilar urtasida qanday munosabatlar vujudga kelganligini, o'quvchilarni tashabbuskorligi, mustaqilligi va boshka masalalarga atroflicha tuxtalib utib taxlil kilib yakunlashi shart.

Rejaning manba va turlari.

Sinf rahbarlarining rejasi kelajakka muljallangan, ya'ni istiqbolli (yillik bir necha yillik), (oylik, xaftalik, kunlik).

Rejaning asosiy manbai nimalardan iborat bo'lishi kerak?

Bosh manba respublikamizning farmon va karorlari, prezidentning qator risolalari hamda xalq ta'limi tizimining xukukiy me'yoriy xujjatlari hisoblanadi.

Rejaning ya'ni bir muxim manbai o'tgan o'quv yilidan tarbiyaviy tadbirlarning yutuq va kamchiliklarini taxlil qilishdir.

Rejaga qo'yilgan talablar.

Reja kuyidagi bir kator talablarga javob berishi kerak.

1. Rejaga milliy istiklol g'oyalarini singdirish.
2. Reja uzluksiz va izchil bo'lishi.
3. Rejaning aniqligi.

Rejaga bajarib bulmaydigan ishlarni kiritmaslik kerak. Tarbiyaviy ishni rejalashtirishda maxalliy sharoitlardan kelib chikish lozim. Rejada xamma narsa: bajarilish vaqti, joyi, mas'ullar aniq bo'lishi kerak.

**Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'tkaziladigan sinf soatlarining
namunaviy mavzular rejasi
1-SINF**

№	O'tiladigan mavzular	Soat	Sana
1	O'zbekiston – ona Vatanim!	1	
2	Tabiatni muhofaza qilish.	1	
3	Mening kun tartibim.	1	
4	Ustozga ta'zim! (Ustoz va murabbiylar kuni munosabati bilan)	1	
5	Xavfsizlik nima?	1	
6	4-oktabr – Butunjahon hayvonlarni himoya qilish kuni.	1	
7	Tejamkorlik haqida suhbat.	1	
8	Ona tilim – jon-u dilim.	1	
9	Oltin kuz ertaklari.	1	
10	Ta'til taassurotlari.	1	
11	Bayrog'imiz – faxrimiz.	1	
12	Ertaklar yaxshilikka – yetaklar.	1	
13	Qomusimiz–baxtimiz (8-dekabr – Konstitutsiya kuni munosabati bilan).	1	
14	Madhiyani kuylaylik (10-dekabr – Davlat madhiyasi qabul qilingan kun munosabati bilan).	1	
15	Mas'uliyat nima?	1	
16	Yangi yil muborak (Yangi yil bayrami yaqinlashishi munosabati bilan).	1	
17	Vatan posbonlari (14-yanvar – Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan).	1	
18	Mening mahallam.	1	
19	Yaxshi tarbiya - inson ziynati.	1	
20	Bobolarimiz deydilar... (Navoiy va Bobur tavallud kunlari oldidan).	1	
21	Men va mening oilam.	1	
22	Bizni dunyo qanday taniydi.	1	
23	Mehribonim onam (8-mart – Xotin-qizlar kuni munosabati bilan).	1	
24	Navro'z – bahor bayrami (21-mart – Navro'z bayrami munosabati bilan).	1	
25	Suv – hayot manbai. (22-mart – Butunjahon suv resurslari kuni munosabati bilan)	1	
26	Mehnat-mehnatning tagi rohat.	1	
27	Ona tabiat qo'ynida.	1	
28	Men sevgan ertak qahramoni.	1	
29	Mening qahramonim.	1	
30	Bobom xotiralari (Xotira va qadrlash kuni oldidan).	1	
31	Ilm va hunar ko'kka yetkazar.	1	
32	Yoz – o'tadi soz!	1	
33	Men 1-sinfni tugatdim (Maktab haqida taassurotlarim).	1	
	Jami:	33 soat	

2–SINF

№	O‘tiladigan mavzular	Soat	Sana
1	Ona yurtim-oltin beshigim.	1	
2	Odobli bola-elga manzur.	1	
3	Yo‘l harakati qoidalarining vujudga kelish tarixi. (Yo‘l harakati qoidalari)	1	
4	Ustozga hurmat (1-oktabr – O‘qituvchilar va murabbiylar kuni munosabati bilan).	1	
5	Ona maktab bag‘rida.	1	
6	Ona tabiatni asraylik. (4-oktabr – Butunjahon hayvonlarni himoya qilish kuni munosabati bilan)	1	
7	Xavfsizlik qoidalarini bilamizmi?	1	
8	Ona tilim – jon-u dilim.	1	
9	Piyodalar va ularning tashkiliy jamlanmasida harakatlanish. (Yo‘l harakati qoidalari)	1	
10	O‘zbekiston Respublikasining bayrog‘i (18-noyabr – Davlat bayrog‘i qabul qilingan kun munosabati bilan).	1	
11	Tartibga solish vositalari va ahamiyati. (Yo‘l harakati qoidalari)	1	
12	Bizning maktabdagi vazifalarimiz.	1	
13	Baxtimiz qomusi (8-dekabr – Konstitutsiya kuni munosabati bilan).	1	
14	O‘zbekiston Respublikasi madhiyasi (10-dekabr – Davlat madhiyasi qabul qilingan kun munosabati bilan).	1	
15	Yo‘lni kesib o‘tish. To‘xtash joyi. (Yo‘l harakati qoidalari)	1	
16	Biz yangi yilni qanday kutib olamiz? (Yangi yil bayrami yaqinlashishi munosabati bilan)	1	
17	Vatanparvar ajdodlarimiz (14-yanvar – Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan).	1	
18	To‘maris kim?	1	
19	Maxsus transport vositalari va turlari (Yo‘l harakati qoidalari).	1	
20	Buyuk ajdodlarimiz (Navoiy va Bobur tavallud kunlari oldidan).	2	
21	Do‘stlik – bebaho ne‘mat. (2-mart – O‘zbekiston BMTga qabul qilingan kun munosabati bilan)	1	
22	Onalar – uyimiz charog‘boni (8-mart – Xotin-qizlar kuni munosabati bilan).	1	
23	Oilada mening o‘rnim va vazifam.	1	
24	Transportda yurish qoidalari (Yo‘l harakati qoidalari).	1	
25	Milliy an‘analarimiz – g‘ururimiz (21-mart – Navro‘z bayrami munosabati bilan).	1	
26	Milliy o‘yinlar.	1	
27	Qonunlar nima uchun kerak?	1	
28	Ogohlantiruvchi belgilar. (Yo‘l harakati qoidalari)	1	
29	Yurtimiz favvorolari. (1-may – Favvoralar kuni munosabati bilan)	1	
30	Ona Vatan – aziz! (Xotira va qadrlash kuni oldidan)	1	
31	Yo‘l-transport xodisalari va ularning kelib chiqish sabablari. (Yo‘l harakati qoidalari)	1	
32	Kitob bizning do‘stimiz.	1	
33	Yoz – o‘tadi soz.	1	
	Jami:	34 soat	

4-SINF

№	O‘tiladigan mavzular	Soat	Sana
1	Biz istiqloq farzandlarimiz!	1	
2	O‘quvchilarning tashkiliy jamlanmasi va guruhning harakatlanishi (Yo‘l harakati qoidalari).	1	
3	Etiket qoidalari.	1	
4	Sizni sharaflaymiz, aziz ustozlar (1-oktabr – O‘qituvchilar va murabbiylar kuni munosabati bilan).	1	
5	Favqulodda vaziyatlarda to‘g‘ri harakat qilish.	1	
6	Yo‘lning qatnov qismidagi belgilar (Yo‘l harakati qoidalari).	1	
7	Tanishish odobi.	1	
8	Til – dil ko‘zgusi (“Davlat tili haqida”gi Qonun qabul qilingan kun munosabati bilan).	1	
9	Transport vositalaridagi raqam, ogohlantiruvchi belgilar va yozuvlar (Yo‘l harakati qoidalari).	1	
10	Oltin kuz ne‘matlari.	1	
11	Bayrog‘imiz – faxrimiz (18-noyabr – Davlat bayrog‘i qabul qilingan kun munosabati bilan).	1	
12	Konstitutsiya – baxtimiz qomusi (8-dekabr – Konstitutsiya kuni munosabati bilan).	1	
13	Gelmintlardan salomatligimizga yetkaziladigan zararni bilasizmi?	1	
14	Madhiyam, yangrayver! (10-dekabr – Davlat madhiyasi qabul qilingan kun munosabati bilan)	1	
15	Kumush qish.	1	
16	Yangi yilga yangi rejalar (Yangi yil bayrami yaqinlashishi munosabati bilan).	1	
17	Ona yurtni mard o‘g‘lonlar qo‘riqlaydi (14-yanvar – Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan).	1	
18	Yo‘llarda xavfli holatlar. Mening maktabimga boradigan eng xavsiz yo‘l. (Yo‘l harakati qoidalari)	1	
19	Tejamkorlik. Gaz va elektr, ichimlik suvini tejash burchimiz.	1	
20	Donolar bisotidan. (Navoiy va Bobur tavallud kunlari oldidan)	1	
21	Birlashgan Millatlar Tashkiloti haqida.	1	
22	Piyodalarning yakka, guruh bo‘lib va jamlanma harakatlanishi (Yo‘l harakati qoidalari).	1	
23	Oila - muqaddas dargoh.	1	
24	Onalar, sizni qutlaymiz! (8-mart – Xotin-qizlar kuni munosabati bilan)	1	
25	Sog‘ tanda-sog‘lom aql.	1	
26	Milliy an‘analimiz faxrimizdir (21-mart – Navro‘z bayrami munosabati bilan).	1	
27	Ta‘magirlik - yomon illat.	1	
28	Yo‘l transport hodisalarining sabablari (Yo‘l harakati qoidalari).	1	
29	Yurtimizdagi muzeylar.	1	
30	Chorrahalarining turlari va piyodalarning chorrahalarda harakatlanish qoidalari.(Yo‘l harakati qoidalari)	1	
31	Xotira muqaddas (Xotira va qadrlash kuni oldidan).	1	
32	Velosipedda va piyoda harakatlanish qoidalari (Yo‘l harakati qoidalari).	1	
33	Kitob – bilim bulog‘i.	1	
34	Yozgi ta‘til rejalari.	1	
	Jami:	34 soat	

KAM TA'MINLANGAN OILALAR

№	Bolaning ismi, sharifi	Ota-onasining F.I.Sh	Bolalar soni	Ish joyi, telefoni	Uy manzili, telefoni

TO'LIQ BO'LMAGAN OILA

№	Bolaning ismi, sharifi	Ota-onasining F.I.Sh	Bolalar soni	Kim tomonidan tarbiyalanadi	Ish joyi, telefoni	Uy manzili, telefoni

YETIM VA OTA-ONALIK HUQUQIDAN MAHRUM ETILGANLARNING FARZANDLARI

№	Bolaning ismi, sharifi	Vasiyning F.I.Sh., bolaga kim bo'ladi	Ish joyi, telefoni	Uy manzili, telefoni	Vasiylikni rasmiylashtirish sabablari

O'QUVCHILARNING KITOB BILAN TA'MINLANGANLIGI

[illegible]

№	O'quvchilarning ismi, sharifi	Tug'ilgan yili, oyi va sanasi	Shu maktabga qachon qabul qilingan	Uy manzili, telefon raqami
	1	2	3	4
1				
2				
3				
4				
5				
6				
7				
8				
9				
10				
11				
12				
13				
14				
15				
16				
17				
18				
19				
20				
21				
22				
23				
24				
25				
26				
27				
28				
29				
30				
31				
32				
33				
34				
35				

№	Onasi haqida ma'lumot	Otasi haqida ma'lumot	Qo'shimch ma'lumotlar
	5	6	7
1			
2			
3			
4			
5			
6			
7			
8			
9			
10			
11			
12			
13			
14			
15			
16			
17			
18			
19			
20			
21			
22			
23			
24			
25			
26			
27			
28			
29			
30			
31			
32			
33			
34			
35			

SINFNING IJTIMOIIY XARITASI

№	0'quvchilarning ismi, sharifi	Oiladagi bolalar soni	To'liq oila	To'liq bo'lmagan oila	Faqat onasining tarbiyasi ostida	Faqat otasining tarbiyasi ostida	Vasiylikdagi bola	Vasiylik belgilanmagan bola	Yetim va ota-onalik huquqidan mahrum etilganlarning farzandlari
	1	2	3	4	5	6	7	8	9
1									
2									
3									
4									
5									
6									
7									
8									
9									
10									
11									
12									
13									
14									
15									
16									
17									
18									
19									
20									
21									
22									
23									
24									
25									
26									
27									
28									
29									
30									
31									
32									
33									
34									
35									

Savol va topshiriqlar:

1. Boshlang'ich sinf rahbarining yillik ish rejasining asosiy maqsadlari nimalardan iborat?
2. Yillik ish rejasi tuzishda sinf rahbari qanday metodologik yondashuvlarni qo'llashi kerak?
3. Sinf rahbari o'quvchilar bilan o'zaro aloqada qanday psixologik yondashuvlarni amaliyotga tatbiq etadi?
4. Boshlang'ich sinf rahbarining tarbiyaviy ishlari qanday tashkil etilishi lozim?
5. Sinf rahbari o'quvchilarni o'zini o'zi boshqarish va mas'uliyatga qanday rag'batlantirishi mumkin?
6. Yillik reja tuzishda ota-onalar bilan hamkorlik qanday ahamiyatga ega?
7. Sinf rahbarining o'quvchilarning ijtimoiy va ma'naviy rivojlanishini kuzatish uchun qanday tadbirlar o'tkazishi zarur?
8. Yillik ish rejasini tuzishda o'quvchilarni jismoniy tarbiya va sportga qanday jalb qilish mumkin?
9. Boshlang'ich sinfda o'quvchilarni ilmiy va ijodiy faoliyatga qanday yo'naltirish kerak?
10. Sinf rahbari yillik ish rejasining samarali amalga oshirilishini qanday baholaydi va tahlil qiladi?

Test:

1. Yillik ish rejasining asosiy maqsadi nima?
 - a) o'quvchilarning bilimini baholash;
 - b) o'quvchilarga ma'naviy va axloqiy tarbiya berish;
 - d) sinf uchun dars jadvalini tuzish;
 - e) o'qituvchilarni rag'batlantirish;
2. Sinf rahbari yillik ish rejasini tuzishda qanday metodologik yondashuvni qo'llashi kerak?
 - a) sinfdagi barcha o'quvchilarni bir xil tarzda baholash;
 - b) o'quvchilarning individual ehtiyojlarini inobatga olish;
 - d) faoliyatni faqat o'qish bilan cheklash;
 - e) sinfda faqat psixologik ishlarga e'tibor berish;
3. O'quvchilarni o'zini o'zi boshqarishga qanday yo'naltirish mumkin?
 - a) har bir o'quvchini alohida baholash;
 - b) o'quvchilarga mas'uliyatli vazifalar berish;

- d) sinfda jismoniy mashg'ulotlar o'tkazish;
 - e) o'quvchilarga faqat kitob o'qish topshirig'i berish;
4. Boshlang'ich sinf rahbari o'quvchilarning axloqiy tarbiyasini qanday amalga oshiradi?
- a) faqat darsda baholash orqali;
 - b) o'quvchilarga axloqiy qadriyatlar haqida darslar o'tkazish;
 - d) o'quvchilarni faqat sport bilan shug'ullanishga undash;
 - e) o'quvchilarni o'zaro raqobatga jalb qilish;
5. Yillik reja tuzishda ota-onalar bilan qanday hamkorlik o'rnatilishi kerak?
- a) ota-onalar bilan faqat yig'ilishlarda gaplashish;
 - b) ota-onalar bilan muntazam aloqada bo'lish va maslahatlashish;
 - d) ota-onalarga faqat dars jadvalini berish;
 - e) ota-onalarning fikrini so'rashdan voz kechish;
6. Sinf rahbari o'quvchilarning ijtimoiy faoliyatini rivojlantirish uchun qanday tadbirlarni o'tkazishi mumkin?
- a) faqat o'quv darslarini o'tkazish;
 - b) ijtimoiy tadbirlar, sport musobaqalari va madaniy faoliyatlar o'tkazish;
 - d) faqat individual masalalar bo'yicha maslahatlar berish;
 - e) sinfda faqat darslar o'tkazish;
7. Sinf rahbari o'quvchilarga qanday tarzda sport va jismoniy tarbiya faoliyatlariga jalb etishi kerak?
- a) o'quvchilarni faqat mashg'ulotlarga majburlash;
 - b) sport musobaqalari va o'yinlar tashkil etish;
 - d) sportga faqat jismoniy imkoniyati bor o'quvchilarni jalb etish;
 - e) faqat jismoniy mashqlarni o'tkazish;
8. Boshlang'ich sinfda o'quvchilarning ma'naviy rivojlanishi uchun qanday ishlar olib boriladi?
- a) faqat ilmiy ishlarga e'tibor berish;
 - b) axloqiy va madaniy tarbiya tadbirlarini o'tkazish;
 - d) faqat o'quvchilarning jismoniy salohiyatini rivojlantirish;
 - e) o'quvchilarni faqat darslarga qaratish;
9. Sinf rahbari yillik ish rejasida qanday tartibda o'quvchilarni baholashi lozim?
- a) har bir o'quvchini yillik yakunlarda baholash;
 - b) o'quvchilarning ishlash jarayonini muntazam baholab, tahlil qilish;
 - d) o'quvchilarni faqat yozma ishlari asosida baholash;

e) faqat o'quvchilarning darslarda ko'rsatgan faoliyatini baholash;
10. Sinf rahbari qanday metodlarni qo'llash orqali o'quvchilarning individual ehtiyojlarini qondira oladi?

a) faqat sinfdagi barcha o'quvchilar uchun umumiy darslar tashkil qilish;

b) o'quvchilarga individual yordam ko'rsatish va o'quvchilarning xususiyatlarini inobatga olish;

d) o'quvchilarga bir xil topshiriqlar berish;

e) o'quvchilarning shaxsiy hayotiga aralashmaslik.

Talabalarning ijodiy ishlashi uchun topshiriq:

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini kuzatgan holda, tarbiyaviy soat darsining yillik ish rejasini tuzing?

12-mavzu. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini dars jarayonida ma'naviy-axloqiy sifatlarini rivojlantirish.

Reja:

7. "Shaxsni ma'naviy-axloqiy rivojlanishning nazariy jihatlarini".

8. "Kichik yoshdagi o'quvchilar ma'naviy-axloqiy sifatlarini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari".

9. "Sinfdan tashqari ishlarda kichik yoshdagi o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy sifatlarini shakllantirishning pedagogik tizimi".

Foydalanilgan adabiyotlar:

46. Mavlonova R., Raxmonqulova N., Normurodova B. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. -T.: Tib-kitob, 2010 y.

47. Ishmuhammedov R., Abduqodir A., Pardayev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar. -T.: Fan va texnologiya, 2010 y.

48. Олесникова.И.А, Н.М.Борытко и др. Воспитательная деятельность педагога. Учебное пособия. М.:Академия, 2006-333 с.

49. Подласый И.П. Педагогика 2-я част -М.: ВЛАДОС, 2003 г.

50. Mirziyoyev Shavkat Miromonovich. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga ko'ramiz. Mazkur kitobdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2016-yil 1-noyabrdan 24-noyabrga qadar Qoraqolpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent sharxi saylovchilari vakillari bilan o'tkazilgan

saylovoldi uchrashuvlarida soʻzlagan nutqlari oʻrin olgan. / Sh.M.Mirziyoyev.- Toshkent: “Oʻzbekiston”, 2017.- 488 b.

51.<http://www.ziyounet.uz/>

52.www.relarn.ru/conf2007

Tayanch tushunchalar.


1. “Shaxsni ma’naviy-axloqiy rivojlanishning nazariy jihatlarini”.

Shaxs yaxlit tavsifga ega boʻlib, uning rivojiga nafaqat faoliyatidagi oʻziga xosliklar, balki turmush tarzi ham taʼsir koʻrsatadi. Shu bilan birga, ijtimoiy hayot natijalari - motiv, maqsad, qiziqish kabilar ham uning rivojlanishida muhim rol oʻynaydi. Shuningdek, maqolada boshlangʻich sinf oʻquvchilarining shaxs sifatida rivojlanishi va ularning ma’naviy-axloqiy tarbiyasiga alohida eʼtibor qaratilgan. KEY WORDS individ, ijtimoiy, shaxsni shakllantirish, muhit, rivojlanish, tarbiya; Shaxs tushunchasi insonga taalluqli boʻlib, psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi, muayyan xulq-atvor va dunyoqarashga ega boʻlgan jamiyatning aʼzosini ifodalashga xizmat qiladi. Odam shaxs boʻlishi uchun psixik jihatdan rivojlanishi, oʻzini yaxlit inson sifatida his etishi, oʻz xususiyatlari va sifatleri bilan boshqalardan farq qilmogʻi kerak.

«Individ» nima? Bola maʼlum yoshga qadar «individ» sanaladi. Individ (lotincha «individium» soʻzidan olingan boʻlib, «boʻlinmas», «alohida shaxs», «yagona» maʼnolarini anglatadi) xatti-harakatlarini shartli tefleks yordamidagina tashkil eta oluvchi biologik mavjudotdir. Individuallik esa shaxsning oʻziga xos xususiyatlari boʻlib, uning namoyon boʻlishi tarbiya jarayonini amalga oshirishda bola shaxsini puxta oʻrganish, uningiashash sharoitlaridan yetarli darajada xabardor boʻlish va ularning hisobga olinishini taqozo etadi. Individual yondashuv oʻquvchilarning aqliy qobiliyatlari, bilishga boʻlgan qiziqish hamda istedodini namoyon etishda muhim ahamiyatga ega. Kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati insonni intellektual va ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash, uning har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida namoyon boʻlishiga erishishni nazarda tutadi. Mazkur ijtimoiy talabning amalga oshirilishi har bir fuqaroning bilim olish, ijodiy qobiliyatini namoyon etish, intellektual jihatdan rivojlanishi hamda muayyan kasb yoʻnalishi boʻyicha mehnat qilish

huquqini kafolatlaydi. Odamning ijtimoiy mavjudot sifatida shaxsga aylanishi uchun ijtimoiy muhit sharoitlari va tarbiya kerak bo'ladi. Ana shular ta'sirida odam inson sifatida rivojlanib boradi va shaxsga aylanadi. Rivojlanish shaxsning fiziologik va intellektual o'sishida namoyon bo'ladigan miqdor va sifat o'zgarishlar mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayondir. Rivojlanish mohiyatan oddiydan murakkabga, quyidan yuqoriga, eski sifatlardan yangi holatlarga o'tish, yangilanish, yangining paydo bo'lishi, eskining yo'qolib borishi, miqdor o'zgarishining sifat o'zgarishiga o'tishini ifodalaydi. Rivojlanishning manbai qarama-qarshiliklarning o'rtasidagi kurashdan iboratdir. Bola shaxsining rivojlanishi inson ijtimoiy mavjudotidir degan falsafiy ta'limotga asoslanadi. Ayni vaqtda inson tirik, biologik mavjudot hamdir. Demak, uning rivojlanishida tabiat rivojlanishining qonuniyatlari ham muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, shaxs bir butun mavjudot sifatida baholanar ekan, uning rivojlanishiga biologik va ijtimoiy qonuniyatlar birgalikda ta'sir etadi, ularni bir-biridan ajratib bo'lmaydi. Chunki shaxsning faoliyati, hayot tarziga yoshi, bilimi, turmush tajribasi bilan birga boshqa fojiali holatlar, kasalliklar ham ta'sir etadi. Shaxsning fazilatlarini to'g'ri ko'rish va bexato baholash uchun uni turli munosabatlar jarayonida kuzatish lozim. Demak, shaxsni rivojlantirish vazifasini to'g'ri hal etish uchun uning xulqiga ta'sir etuvchi omillar hamda shaxs xususiyatlarini yaxshi bilish zarur. Tarbiya bolaga samarali ta'sir etishi uchun o'sish va rivojlanish qonuniyatlarini bilish va hisobga olish maqsadga muvofiq. Shunday qilib, rivojlanish va tarbiya o'rtasida ikki tomonlama aloqa mavjud. Shaxsni shakllantirish – uning o'sishi, qandaydir yangi xususiyat va fazilatlarga ega bo'lish jarayonida. Shakllantirish tushunchasi tarbiyalash tushunchasiga nisbatan kengroq bo'lib, u shaxs va jamoaning tarkib topishiga ta'sir ko'rsatadigan hamma narsani, shu jumladan, maqsadga muvofiq jarayonlar (o'qitish, tarbiyalash, ta'lim berish) ni ham, maqsadga nomuvofiq jarayonlar (shaxs va jamoaning o'z ichki tabiati, atrofdagi kishilar, narsalar, tabiat hadisalari va hodisalarning ta'siri) ni ham o'z ichiga oladi. Shakllantirish va tarbiyalash tushunchalari jiddiy chegaralansa, insonni tabiat hadisalari tarbiyalaydi, deb bo'lmaydi. Insonni faqat kishilar tarbiyalaydi, tabiat hadisalari shaxsni shakllantirishi mumkin, ammo uni tarbiyalay olmaydi. Fanda biologik yo'nalish, deb nomlangan nuqtayi nazar yetakchi o'rinlardan birini egallab, uning vakillari Aristotel, Platonlar

tabiiy-biologik omillarni yuqori qo'yadi. Ular tug'ma imkoniyatlar. Taqdir, tole' har kimning hayotdagi o'rini belgilab bergan, deydilar.



Muhit deganda, odam yashaydigan sharoitdagi barcha tashqi ta'sir tushuniladi. Shu nuqtayi nazardan tarbiya tufayli bolani o'zi yashaydigan ijtimoiy sharoitga moslashtirish mumkin, degan xulosa kelib chiqadi.

Shaxsga ijtimoiy muhitning ta'siri ham muhim. Bu tarbiya tizimi orqali amalga oshiriladi. Ya'ni, birinchidan, tarbiya ta'sirida muhit bera olmagan bilim, ma'lumot egallanadi, mehnat va texnik faoliyat bilan bog'liq ko'nikma va malakalar hosil bo'ladi. Ikkinchidan, tarbiya tufayli tug'ma kamchiliklar ham o'zgartirilib, shaxs kamolga yetadi. Uchinchidan, tarbiya yordamida muhitning salbiy ta'sirini ham yo'qotish mumkin. To'rtinchidan, tarbiya kelajakka qaratilgan maqsadni belgilaydi. Demak, tarbiya bilan rivojlanish bir-biriga ta'sir etadi, bu tarbiya doimiy va uzluksizdir. Shunday qilib, bola shaxsining rivojlanishida tarbiya ham yetakchi o'ringa ega bo'lib, tarbiya tufayli nasl-nasabi, oila muhiti, ijtimoiy muhit ta'sirida har tomonlama rivojlanishga qodir, degan xulosani chiqarish mumkin.

Rivojlanish va tarbiya. Tarbiya va rivojlanishning o'zaro bog'liqligi to'g'risidagi muammo qator tadqiqotchilar, jumladan A.I.Leontev., L.V.Zankov, CH.S.Kostyuk va boshqalar izlanishlarining asosiy mavzusi hisoblanadi. Biologik jihatdan rivojlanish nerv faoliyati bilan insonni o'rab turgan borliqning o'zaro ta'siri natijasidir. Miya va butun nerv sistemasi bizni o'rab turgan muhitning uzluksiz ta'sirida

rivojlanib boradi. Lekin ularning rivojlanishida tarbiya to‘laligicha hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Psixik rivojlanish nerv sistemasining rivojlanishi bilan mustahkam bog‘liq. Ayniqsa, katta miya yarim sharlari tarbiya jarayonida rivojlanadi va hatto rivoji tezlashadi. I.P.Pavlovning fikricha: “Inson va hayvonning xatti-harakati faqat nerv sistemasining tug‘ma xususiyatlari bilangina chegaralanmaydi, balki organizmning ayrim yashash davrida unga ko‘rsatilgan va doimo ko‘rsatib turiladigan ta’sir bilan ham belgilanadi, ya’ni keng ma’noda aytganda, inson va hayvonning xatti-harakati doimiy tarbiyaga va o‘rgatishga bog‘liq”.

O‘quvchilarda ma’naviy-axloqiy tarbiyani shakllantirish ulaming ma’naviy dunyosini, ongini, axloqiy hislarini, shaxsiy sifatleri va xulqini tarbiyalash hamda rivojlantirishni taqozo etadi. O‘quvchilarni axloqiy tarbiyalashning asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

1) o‘quvchilarda axloqiy his-tuyg‘ular va xatti-harakatlarni tarbiyalash;

2) xulq madaniyati va ijobiy his-tuyg‘ularni tarbiyalash;

3) axloqiy xulq-atvor ko‘mkamlarini shakllantirish. Tarbiya bilan rivojlanish o‘rtasidagi bog‘liqlik, ayniqsa, ta’lim jarayonida yanada yaqqol ko‘zga tashlanadi. Ayniqsa, bu o‘rinda rus tadqiqotchisi L.S.Vigotskiy ta’limoti e’tiborga loyiqdir. Uning konsepsiyasiga ko‘ra, bolaning aqliy rivojlanishida ikkita bosqich katta o‘rinni egallaydi. Birinchidan, bola ma’lum topshiriqlarni mustaqil bajaradi. Buni bola psixik funksiyalarining rivojlanish bosqichi deb yoki muhim rivojlanish bosqichi, deb aytish ham mumkin. Bola taqlid orqali kattalar rahbarligida ko‘proq narsani tushunib bajarishga kirishadi. Bu endi aqliy rivojlanishning ikkinchi bosqichidir. Ikkinchi va birinchi bosqich o‘rtasidagi farq bolaning yaqin rivojlanish zonasini belgilab beradi. Bola bugun kattalar yordamida qilgan narsalarini ertaga o‘zi mustaqil bajaradi. Bu esa bolaning keyingi kunini, uning dinamik rivojlanish holatini aniqlab olish imkonini beradi.

O‘quvchilarni g‘oyaviy qurollantirish. Unga ko‘ra, o‘quvchilar ongiga mustaqillik, ma’naviyat, axloq, xulq-atvor kabi tushunchalarni talab darasida singdirish kerak. Bugungi axborot asrida yoshlarimiz buzg‘unchi va isyonkor g‘oyalar ta’siriga tushib qolmasligi uchun ma’naviy-axloqiy tarbiyaviy ishlar ta’sirchanligini oshirish lozim. Maktab, mahalla hamda oila hamkorligini har qachongidan ham mustahkam bog‘liqlikda olib borilishiga erishish, yosh otaonalarining

pedagogik savodxonligini oshirish lozim. O'quvchilarda sog'lom munosabatni shakllantirish. Unga ko'ra, o'quvchilarning inson, tabiat va jamiyatga nisbatan sog'lom munosabati shakllantirilishi kerak. Sog'lom munosabat o'quvchilarning o'zaro muomalasi, o'zgalarga munosabati va axloq-odobi majmuidan iborat. O'quvchilar tarbiya darajasi turli xil bo'lgan oilalarning vakilidir, tabiiyki, bu hol ularning munosabat immunitetiga ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli o'quvchilarining sog'lom munosabat ko'nikmasini shakllantirish asosiy vazifalardan biridir. Ayniqsa, 2-sinfdan boshlab o'quvchilarning munosabat ko'nikmasida o'zgarishlar boshlanishini hisobga olish lozim. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining sog'lom munosabatini shakllantirishda ularni faollashtirishga e'tibor berish samarali hisoblanadi. O'quvchilar dars mashg'ulotlari va tarbiyaviy tadbirlarda faol bo'lishlari kerak, bunda o'qituvchi yoki murabbiy yo'naltiruvchi vazifasini bajaradi. O'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish. Bugungi o'quvchi axborot oqimi jadallashgan davrda yashamoqda, afsuski, haqqoniy va soxta axborotlarni to'liq farqlab uzatishning imkoni yo'q. Shu sababli o'quvchilarda mustaqil fikrlash ko'nikmasini shakllantirishga alohida e'tibor berish lozim bo'ladi. Unga ko'ra, o'quvchi har bir axborotni to'g'ri qabul qilishi va uni tahlil qila olish ko'nikmasiga ega bo'lishi lozim. Bu bilan o'quvchi fikrlashga o'rganadi va to'g'ri va noto'g'ri axborotni farqlay boshlaydi.

Har bir o'quvchilarda kelajakka ishonch tuyg'ularini shakllantirishi lozim. Bu ishonchni nafaqat o'qituvchi, balki o'quvchining ota-onasi ham shakllantirib borishi zarur. Shuni ta'kidlab o'tish joizki, bugungi kunda yoshlar ma'naviyati har qachongidan ham dolzarb masalalardan biridir. Bu masala tarbiyaviy jarayonning markaziy vazifalaridan biri ekan, yoshlarning axloqi, xulq-atvori, ma'naviyati uchun mas'ul shaxslarning majburiyatlarini yanada teran anglagan holda o'z vazifalariga yondashishi lozimligini ko'rsatib turibdi. Fikrimiz yakunida tarbiyaviy faoliyat bilan shug'ullanuvchi shaxslarga tavsiyalar ishlab chiqqanmiz. Jumladan, o'qituvchilarga:

- O'quvchilarning o'z maqsadlarini teran anglagan holda faoliyat yuritishlarini ta'minlash;

- O'quvchilarni ma'naviyatini yuksaltiruvchi turli xil davra suhbatlari, uchrashuvlar tashkil qilish;

- Buyuk ajdodlarimizning jahon sivilizatsiyasiga ta'sir ko'rsatgan asarlari bilan tanishtirish rejasini ishlab chiqish va amalga oshirish;

- O'quvchilarning sinfdan va maktabdan tashqari bo'sh vaqtlarini unumli tashkil etish maqsadida turli xil ko'rik-tanlovlar, musobaqalar tashkil etish hamda o'quvchilarning faol ishtirok etishlarini ta'minlashlari zarur.

Ota-onalarga:

- O'z farzandlarining tarbiyasiga mas'uliyat bilan yondashishlari;

- Maktab bilan hamkorlikda ishlash zarurligi;

- Farzandlarining xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatuvchi omillar haqida ma'lumotga ega bo'lishlari zarur;

- Farzandlarining bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishga ko'maklashishi;

- Oilaviy ma'naviy tadbirlarda ishtirok etishni yo'lga qo'yish;

- Uydagu kutubxona fondini doimiy ravishda boyitib borishlari zarur.

2. “Kichik yoshdagi o'quvchilar ma'naviy-axloqiy sifatlarini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari”.

Inson ruhiyatining etnik xususiyatlari unda ijtimoiy ta'lim-tarbiya va muloqot ta'siri muammosi qadimdan jamiyatning eng ilg'or kishilari: olimlar, donishmandlar e'tiborini o'ziga tortib kelgan. Jumladan, Sharqning buyuk allomalari Abu Nosir Farobiy, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Yusuf Hos Hojib, Alisher Navoiy, Zahriddin Muhammad Bobur, Muhammad Rizo Ogahiy, Muqumiy, Abdulla Avloniy kabi olim va fozillar bu masalalar yuzasidan o'zlarining durdona fikrlarini tarixda qoldirganlar. Bu fikrning hozirgi zamon fani uchun muhim ijtimoiy mafkuraviy ahamiyatga ega ekanligini inkor etib bo'lmaydi. Sharq mutafakkirlari bola tarbiyasida va kamolotida oilaning, oilaviy tarbiyaning salohiyatini asosiy deb hisoblashgan. Ayniqsa, shaxsning aqliy va ahloqiy shakllanishida oila, ota-ona va yaqin kishilarning ibratli tomonlariga alohida e'tibor berishgan. Ular oiladagi urf-odatlar ta'sirida shakllanishi mumkin bo'lgan sifatlar: halollik, poklik, mardlik, kelishuvchanlik, uyatchanlik, sermulohazalilik, mehribonlik, haqgo'ylik kabi qator fazilatlarni barcha

sifatlardan yuqori qo`yganlar. Insoniy munosabatlarda namoyon bo`ladigan yuksak fazilatlar, eng avvalo, ota-onadan bolaga o`tishi va ularning jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta`siri kabi qimmatli fikrlar va bu boradagi amaliy ko`rsatmalar Sharq mutafakkirlarining falsafiy-etuk, ijtimoiy qarashlarida o`z aksini topgan.

Ma`lumki, Islom dinining muqaddas manbalaridan bo`lmish Qur`oni Karim va Hadislarda ham odob, ahloq, bolalar tarbiyasi masalalariga keng o`rin berilgan.

«Farzandlaringizni izzat-ikrom qilish bilan birga ahloq-odobini ham yaxshilangiz».

«Hech bir ota-ona o`z farzandiga xulqi odobdan buyukroq meros bera olmaydi».

Qomusiy olim Abu Nosir Farobiyning inson kamoloti, baxti, ta`limtarbiyasi, ahloqi, dinga munosabati haqidagi fikrlari umumfalsafiy, psixologik qarashlar va tushunchalardan tuzilgan o`git-nasihat bo`lib, ahloqiy tarbiya nazariyasini boyitadi. Olim har bir ota-onaning o`z farzandlari uchun birlamchi ustoz, yo`l ko`rsatuvchi sub`ekt ekanligi va aynan ular bolada ta`lim-tarbiyaga psixologik tayyorgarlik holatini shakllantirish to`g`risida xulosalar chiqaradi. Farobiy «insonlar tarbiyasi, ularning xohish-istaklari, qarashlari faqat Olloh tomonidan beriladi» degan mutafakkirlar fikrlariga qarshi o`z fikrini «Iso-al-Ulum» kitobining oxirgi bo`limida quyidagicha bayon etadi: «Inson aqli faqat bilish bilan cheklanmaydi, balki odatlar va qarashlarni o`zining maqsadlariga bo`ysundira olishi va yo`naltirishi, o`zgartirishi ham mumkin», deb yozadi). Qomusiy olim Abu Rayxon Beruniyning «Minerologiya», «Geodeziya», «Munajjimlik san`atidan boshlang`ich tushunchalar», «Hindiston», «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar», «Saydana» kabi asarlarida pedagogika va psixologiya masalalariga oid g`oyatda qimmatli fikr-mulohazalar mavjuddir. U inson shaxsi, uning kamoloti fe`l-atvori, aql-idroki, sabr-toqat va kamtarlik, go`zallik va did, poklik va jo`shqinlik kabi tushunchalarga inson ruhiyatining bilimdoni sifatida ta`rif bergan. U shunday yozadi: «Inson jamiyatda o`z qarindosh-urug`lari bilan birlashib olishga majburdir, bundan maqsad bir-birini qo`llab-quvvatlash hamda har bir kishining o`zini, ham boshqalarni ta`minlash uchun ishlarni bajarishdir».

Ibn Sino «Tib qonunlari» asarida bola xarakteri tarbiyasi haqida shunday yozadi: «Bolani qattiq g`azablanishdan, qattiq qo`rquv, g`am

va uyqusizlikdan saqlash orqali erishiladigan yaxshi fe'lli xarakterini shakllantirishga alohida e'tibor berish kerak. Har doim bolaning xohlagan narsasini darhol berishga va yomon ko'rgan narsasini uzoqroq tutishga tayyor turish kerak. Bu bilan ikki tomonlama naf keladi. Birinchisi bolaning ruhi uchun foydali bo'lib, bola yoshligidanoq xushfe'l bo'lib o'sadi va bu sifat keyinchalik uning doimiy odatiga aylanib qoladi. Ikkinchisi badan uchundir, chunki badfe'llik yaramas mijozdan kelib chiqadi, ya'ni badfe'llik odatga aylanib qolsa, shunga mos yaramas mijozni paydo qiladi. Masalan: g'azab badanni qattiq qizdiradi, g'am qattiq quritadi, qarshilik ruhiy quvvatni so'ndiradi va mijozni shilimshqlikka moyil qiladi. Xulqni bosib, vazmin qilish natijasida bir vaqtning o'zida ruh va badan salomatligiga erishiladi».

Buyuk shoir Alisher Navoiy xalq pedagogikasi va ruhiyat taraqqiyotini yaxshi bilgan, o'zbek xalqining madaniyati va adabiy tilini olamga tanitgan. Uning ta'lim-tarbiya, odob-ahloq, maishiy turmush muammolariga bag'ishlangan «Mahbub-ul qulub», «Tarixi mulki ajam» asarlarida bu borada qilgan ishlarining sarasidir. Navoiy bu asarlarida butun hayoti davomida ko'rgan, bilgan voqealar, oddiy xalqning turmush tarzi, fe'l-atvori, ruhiy hayoti, urf-odatlarini, an'ana va bayramlarini yaxshi va yomon hislatlari bo'yicha to'plagan ma'lumotlarini bayon etgan.

Asrimizning etuk o'zbek ma'rifatparvari Abdulla Avloniyning 1913 yilda yozgan «Turkiy guliston, yoxud ahloq» asari xalq pedagogikasiga qo'shilgan katta hissasi bo'lib, bu asarda insonlarda uchraydigan yaxshi va yomon xulqlar: sabr-bardoshlilik, or-nomus, hayo, g'azab va adovat kabilarning kelib chiqish sabablari va oqibatlarini haqida fikr yuritiladi. U xalq pedagogikasidan keng foydalangan holda oilada bola tarbiyasi va umuman, uning ijtimoiy rolini ochib bergan. Alloma tarbiya jarayonida oila va jamoatchilikning o'rnini, ularning hamkorligini alohida ta'kidlaydi. Uning fikricha, bola fe'l-atvorida ahloqiy sifatlarining tarkib topishi ijtimoiy muhit va oilaviy sharoitga bog'liqdir. Avloniy o'zining pedagogik izlanishlari davomida bola fe'l-atvori tarbiyasi oila bilan birga maktab va jamoat tashkilotlarining ham vazifasi ekanligini e'tirof etmagan bo'lsa-da, lekin ahloq masalasini umuminsoniy vazifalar darajasida talqin etgan.

Sharq mutafakkirlari shaxs hulq atvor kamolotida atrof-muhit, tarbiya, xususan, oila va mahalla tarbiyasiga alohida e'tiborni qaratganlar. Barcha asarlarda ijtimoiy ta'sir vositasi sifatida tarbiya,

ya`ni ataylab tashqaridan ta`sir ko`rsatish orqali ibratli xulq-atvorni shakllantirish, oila tarbiyasi masalalariga e`tiborning qaratilganligi, bizga bola hulq atvor dunyoqarashi va fazilatlarining asosi aynan shunday ijtimoiy ta`sir omillari ekanligi haqidagi fikrni yana bir karra e`tirof etishimizga imkon beradi. Sharq xalqlari, jumladan, o`zbek xalqining bu borada yuksak imkoniyatlari azaldan mavjud bo`lib, ushbu milliy qadriyatlar va xalq an`analaridan to`g`ri, unumli va maqsadli foydalanish zarur, degan xulosaga olib keldi.

Kichik maktab yoshi davridagi asosiy va etakchi faoliyat turi o`qishdan iborat. Bundan tashqari, bu yoshda ularda o`zini-o`zi anglashdagi siljish ko`zga yaqqol tashlanadi. Bu davrda o`z ruhiy dunyosini, shaxsiy fazilatlarini, aqlzakovatlarini, qobiliyati hamda imkoniyatlarini anglashga intilish kuchayadi, faollashadi. Xulq-atvorini boshqarish, xis-tuyg`ulari va ichki kechinmalarini tushunish ishtiyoqi vujudga kela boshlaydi. Yutuq va kamchiliklarini, munosib va nomunosib qiliqlarini aniqroq baholash imkoniyatiga ega bo`la boshlaydilar. O`zini-o`zi anglash kegizida o`zini-o`zi tarbiyalash istagi tug`iladi. O`z-o`zini tarbiyalashda ilk o`spirinlik o`zida mavjud bo`lgan nuqsonlarini yo`qotishga harakat qiladi va o`zida ijobiy sifatlarini shakllantirishga intiladi. Bunday faoliyatda o`spirinning eng muhim individual-psixologik xususiyatlari hamda hulq atvor hislatlari shakllanadi.

Kichik maktab yoshi davridagi asosiy va etakchi faoliyat turi o`qishdan iborat. Bundan tashqari, bu yoshda ularda o`zini-o`zi anglashdagi siljish ko`zga yaqqol tashlanadi. Bu davrda o`z ruhiy dunyosini, shaxsiy fazilatlarini, aqlzakovatlarini, qobiliyati hamda imkoniyatlarini anglashga intilish kuchayadi, faollashadi. Xulq-atvorini boshqarish, xis-tuyg`ulari va ichki kechinmalarini tushunish ishtiyoqi vujudga kela boshlaydi. Yutuq va kamchiliklarini, munosib va nomunosib qiliqlarini aniqroq baholash imkoniyatiga ega bo`la boshlaydilar. O`zini-o`zi anglash kegizida o`zini-o`zi tarbiyalash istagi tug`iladi. O`z-o`zini tarbiyalashda ilk o`spirinlik o`zida mavjud bo`lgan nuqsonlarini yo`qotishga harakat qiladi va o`zida ijobiy sifatlarini shakllantirishga intiladi. Bunday faoliyatda o`spirinning eng muhim individual-psixologik xususiyatlari hamda hulq atvor hislatlari shakllanadi.

Kichik yoshdagi o`quvchilar ma`naviy-axloqiy sifatlarini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari" mavzusi ta`lim

tizimining asosiy masalalaridan biridir. Ushbu mavzu bo'yicha fikr yuritar ekanmiz, kichik yoshdagi o'quvchilarni ma'naviy va axloqiy jihatdan tarbiyalash, ularning ijtimoiy qadriyatlar va axloqiy me'yorlarga mos keladigan shakllanishi uchun pedagogik shart-sharoitlar o'rganilishi lozim.

Kichik yoshdagi o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashning pedagogik shart-sharoitlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. **O'quv jarayonida axloqiy-psixologik asoslarning mavjudligi**

2. Kichik yoshdagi bolalar hali to'liq axloqiy xulq-atvorni shakllantirmagan. Shu bois, ular uchun pedagogik jarayonda doimiy ravishda axloqiy va ma'naviy qadriyatlar o'rganilishi kerak. Bu o'quvchilarni o'z faoliyatida doimo yaxshilik, halollik, hurmat kabi tushunchalar bilan tanishtirishni talab qiladi.

3. **O'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida ijobiy munosabatlar**

4. Kichik yoshdagi bolalar o'zlarining ma'naviy-axloqiy xulqini o'qituvchi tomonidan namoyish etilgan ijobiy xulq-atvor va munosabatlar orqali o'rganadilar. Shuning uchun o'qituvchining axloqiy qiymatlari va uning o'z o'quvchilari bilan munosabati muhim omildir.

5. **O'qish dasturining axloqiy mazmuni.** O'quv dasturi bolalarga nafaqat akademik bilimlarni, balki axloqiy qadriyatlarni ham etkazishi kerak. Maxsus axloqiy masalalar, she'rlar, ertaklar va hikoyalar orqali bolalar turli axloqiy tushunchalar bilan tanishtirilishi kerak.

6. **O'quv muhitining ma'naviy-axloqiy jihatdan boy bo'lishi.** Sinf xonasi, darslar, o'quv jarayonidagi faoliyatlar o'quvchilarning axloqiy va ma'naviy jihatdan to'g'ri shakllanishiga hissa qo'shishi kerak. O'quvchilarni yaxshi xulq-atvor va mehnatsevarlikka o'rgatish uchun ta'lim muhitida iliq va ijobiy atmosfera bo'lishi zarur.

7. **Ota-onalar bilan hamkorlik.** Kichik yoshdagi bolalar uchun ota-onalar ham muhim ta'sirchan omil hisoblanadi. O'qituvchilar va ota-onalar o'rtasida hamkorlik tashkil etilib, bolalarning ma'naviy-axloqiy shakllanishi uchun yagona yondashuv ishlab chiqilishi kerak. Bu bilan o'quvchilarga hayotdagi axloqiy qadriyatlar tushuntiriladi va ular ularni amalda qo'llashga o'rgatiladi.

8. O'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish

9. Har bir bola o'ziga xos va individual xususiyatlarga ega. Shuning uchun kichik yoshdagi o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashda ularning psixologik xususiyatlari va o'ziga xosliklari hisobga olinishi kerak. O'quvchilarning ruhiy holati, xarakteri va qiziqishlari axloqiy tarbiyani shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

10. Kichik yoshdagi o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashda pedagogik shart-sharoitlar muhim ahamiyatga ega. O'qituvchining axloqiy qadriyatlari, o'quv dasturining mazmuni, o'quv muhitining ijobiyligi va ota-onalar bilan hamkorlik orqali bolalar ongida ma'naviy va axloqiy qadriyatlar o'rnatiladi. Bu esa o'quvchilarning kelajakdagi ijtimoiy hayotda muvaffaqiyatli bo'lishlariga zamin yaratadi.

3. "Sinf dan tashqari ishlarda kichik yoshdagi o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy sifatlarini shakllantirishning pedagogik tizimi".

Yosh avlod tarbiyasi, avvalo, pedagogning kasbiy mahoratiga bog'liq. Shu o'rinda, yurt kelajagi va istiqboli ko'p jihatdan o'qituvchiga, uning saviyasiga, tayyorgarligiga, fidoyiligiga, o'qitish va tarbiyalash ishiga bo'lgan munosabatiga bog'liqligini qayd etish mumkin. O'qituvchi kasbiy axloq va odob normalarini mukammal egallasagina, o'z kasbining fidoyisi bo'la oladi. Bugungi kunda ana shunday fidoyilik har qachongidan ham muhim ekanligi ushbu sohada olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlarining dolzarbligini yanada oshiradi.

Tahlillar asosida yoshlarning ijtimoiy faolligi va tashabbuskorligi asosida ma'naviy-axloqiy kompetentligini rivojlantirishda ma'naviy-axloqiy bilimlar, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar, ma'naviy-axloqiy fazilatlar, ma'naviy faoliyat kabi komponentlarni o'z ichiga olishi aniqlandi

Jamiyat taraqqiyoti uchun, avvalo, ma'naviy-axloqiy kompetentli, ijtimoiy faol shaxsni tarbiyalash, shuningdek, asosiy e'tiborni yoshlarning tarbiyalanganlik darajasini oshirish masalasiga qaratish zarur. Negaki ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalangan shaxslarsiz jamiyat taraqqiyotini tasavvur etib bo'lmaydi. Yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda, eng avvalo, millatimiz tarixi va ma'naviyati ildizlariga e'tibor qaratish taqozo etiladi.



O'quvchilarda ma'naviy-axloqiy kompetentligini rivojlantirish o'ziga xos bosqichlarda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq. Bunda, avvalo, ma'naviy-axloqiy tarbiyaning maqsad hamda vazifalarini to'g'ri yo'lga qo'ya bilish, ish mazmunini aniqlash, maqsadga erishish uchun tizimli yondashuvni tashkil etish zarur. Ma'naviy-axloqiy tarbiyaning maqsadi quyidagicha belgilandi: ta'lim muassasalarida izchillik asosida olib boriladigan ta'lim-tarbiya natijasida ma'naviy-axloqiy sifatlarga ega bo'lgan kasbiy kompetentli mutaxassis tayyorlash.

O'quvchilarning ma'naviy-axloqiy kompetentligini rivojlantirishda quyidagi vazifalar nazarda tutiladi:

- uzluksiz ta'lim-tarbiyaning har bir bo'g'inida ma'naviy-axloqiy tarbiya maqsadiga erishish yo'llarini izlab topish;
- ta'lim-tarbiya jarayonida turli ta'sir vositalari orqali yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash;
- ma'naviy-axloqiy tarbiyada shaxsga yo'naltirilgan metod va vositalar, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish;
- yoshlarning ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalanganlik darajasini aniqlash maqsadida anketa so'rovlarini o'tkazib, natijalarini qayd etib borish;
- ma'naviy-axloqiy sifatlarga ega bo'lgan, yoshlarni kompetentli ijtimoiy faol mutaxassis sifatida tayyorlashga erishish.

Sinfdan tashqari ishlarda kichik yoshdagi o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy sifatlarini shakllantirishning pedagogik tizimi:

1. Ma'naviy-axloqiy faoliyatlar va mashg'ulotlar. Sinfdan tashqari ishlarda o'quvchilarga axloqiy va ma'naviy qadriyatlar haqida

tushuncha berish, ular uchun qiziqarli mashg'ulotlar tashkil etish muhimdir. Masalan:

Axloqiy hikoyalar va ertaklar: O'quvchilarni yaxshi xulq-atvor, do'stlik, halollik kabi axloqiy qadriyatlar bilan tanishtirish uchun axloqiy hikoyalar va ertaklar o'qish, ular asosida muhokama qilish.

Rollar o'ynash va drama mashg'ulotlari: O'quvchilarni rollar o'ynash orqali axloqiy masalalarni hal qilishga o'rgatish. Masalan, bolalar o'zlarini turli axloqiy holatlarda tasavvur qilib, to'g'ri va noto'g'ri qarorlarni tanlashga o'rgatish.

2. Ijodiy va san'at faoliyatlari. O'quvchilarni ma'naviy-axloqiy jihatdan shakllantirishda ijodiy faoliyatlar, san'at va madaniyatga oid tadbirlar ham muhim o'rin tutadi. Bunga quyidagi faoliyatlar kiradi:

San'at va qo'l mehnati: O'quvchilarni chizmalar, rasm chizish, qo'l mehnati ishlari orqali o'z his-tuyg'ularini ifodalashga o'rgatish.

Musobaqalar va ko'rgazmalar: Ma'naviy-axloqiy mazmundagi mavzular asosida ko'rgazmalar, ijodiy ishlanmalar va musobaqalar tashkil etish.

3. Tabiat bilan tanishtirish va ekologik tarbiya. Tabiatga, uning go'zalligi va muhofazasiga hurmatni shakllantirish o'quvchilarda ekologik ongni rivojlantiradi. Bu esa o'quvchilarning axloqiy jihatdan to'g'ri qarorlar qabul qilishlariga yordam beradi.

Tabiatni kuzatish va o'rganish: O'quvchilarni tabiatga sayohatlar uyushtirish, tabiatni saqlash va muhofaza qilish masalalarida axloqiy me'yorlarga o'rgatish.

Ekologik tadbirlar: Yashil maydonlar yaratish, chiqindilarni to'g'ri ajratish kabi ekologik faoliyatlarda ishtirok etish.

4. Do'stlik va hamkorlikka oid faoliyatlar kichik yoshdagi o'quvchilarni do'stlik, hamkorlik va jamoa bo'lib ishlashga o'rgatish, ularni bir-biriga yordam berish, qiyinchiliklarni birgalikda yengish g'oyalariga asoslangan tadbirlarni tashkil etish kerak.

Jamoaviy o'yinlar va musobaqalar: O'quvchilarni bir-biri bilan hamkorlikda ishlashga undovchi o'yinlar va musobaqalar tashkil etish. Bu jarayon o'quvchilarda rahbarlik, mas'uliyat va o'zaro hurmatni rivojlantiradi.

5. Ijtimoiy va madaniy tadbirlar kichik yoshdagi o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy rivojlanishini ta'minlashda ijtimoiy va madaniy tadbirlar ham muhim rol o'ynaydi.

San'at ko'rgazmalari, teatr tomoshalari va kontsertlar: O'quvchilarni madaniyat, san'at va estetik qadriyatlar bilan tanishtirish.

Yarim ommaviy tadbirlar: Bunda o'quvchilar jamiyatga foydali ishlarga jalb qilinadi, masalan, ixtiyoriy ishlar yoki xayriya tadbirlari.

6. Axloqiy targ'ibot va muhokamalar sinfdan tashqari faoliyatlar orqali bolalar axloqiy qadriyatlar va muammolar haqida fikr yuritishga o'rgatiladi. Bu jarayon, o'quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi.

Muhokama va debatlar: O'quvchilarni axloqiy masalalar bo'yicha muhokamalarga jalb qilish, ularni o'z fikrini ifodalashga o'rgatish.

7. Ota-onalar bilan hamkorlik sinfdan tashqari ishlarda ota-onalar bilan hamkorlik ham muhim ahamiyatga ega. Ota-onalar bolalarning axloqiy rivojlanishiga ta'sir ko'rsatishadi, shuning uchun ota-onalar bilan turli tadbirlar va suhbatlar o'tkazish kerak.

Ota-onalar bilan uchrashuvlar: Ota-onalar bilan birgalikda bolalar tarbiyasi va ma'naviy-axloqiy shakllanishi bo'yicha muloqot qilish, tajriba almashish.

Sinfdan tashqari ishlarda kichik yoshdagi o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy sifatlarini shakllantirish pedagogik tizimi, turli faoliyatlar orqali bolalarning xulq-atvorini, axloqiy qarashlarini va ijtimoiy qadriyatlarni rivojlantirishni maqsad qiladi. Bu tizimda o'qituvchining o'quvchilarga o'zaro hurmat, mehr-oqibat, vijdon, halollik kabi axloqiy me'yorlarni o'rgatishdagi o'rni juda katta. Sinfdan tashqari tadbirlar orqali bolalar faqat akademik bilimlar emas, balki mustahkam axloqiy asoslar ham olishadi.

Savol va topshiriqlar:

1. Sizni qanday qilib yaxshi o'quvchi qilib ko'rsatish mumkin? O'zingizni qanday qilib yanada yaxshi qilib tarbiyalaysiz?

2. Biror kishi sizga yomon narsa aytsa, siz qanday his-tuyg'ularni boshdan kechirasiz va qanday javob berish kerak?

3. Agar sizning do'stingiz xato qilsa, siz qanday yordam bera olasiz? Unga qanday munosabatda bo'lasiz?

4. Yaxshi xulq-atvorni qanday qilib namoyish etish mumkin? Sinfdan qanday xulq-atvorni namoyish qilish kerak?

5. Sizningcha, o'zaro hurmat nima? Sinfdan bir-birimizni hurmat qilish uchun qanday ishlar qilishimiz kerak?

6. Agar kimdir sizni nohaq tanqid qilsa, siz qanday javob berishingiz kerak?

7. O'zingizni mehnatsevar qilib ko'rsating. Mehnatsevarlikni qanday tushunasiz va buning bizga qanday foydasi bor?

8. Agar sinfdagi biron o'quvchi boshqa birini ranjitib qo'ysa, nima qilish kerak?

9. Do'stlikda eng muhim narsa nima? Yaxshi do'st bo'lish uchun qanday sifatlar kerak?

10. Sizningcha, halollik nima? Halol bo'lish bizga nimalarni anglatadi?

Test:

1. Haqiqiy do'stlikning eng asosiy xususiyati nima?

- a) birga o'ynash;
- b) bir-birini hurmat qilish;
- d) hamma narsada yordam berish;
- e) bir-biriga hech qachon ayblov qo'ymaslik;

2. Halollik nima?

- a) o'z fikrini boshqalarga aytmaslik;
- b) doimo to'g'ri gapirish va adolatli bo'lish;
- d) hamma narsa haqida yolg'on gapirish;
- e) boshqalarga zarar yetkazish;

3. Agar biron kishi sizni nohaq tanqid qilsa, nima qilasiz?

- a) javob qaytarasiz;
- b) tinchingizni saqlab, adolatli javob berishga harakat qilasiz;
- d) uni yana tanqid qilasiz;
- e) jim turasiz va yig'laysiz;

4. Sinfdan yaxshi xulq-atvorni namoyish qilishning eng muhim jihati nima?

- a) faqat o'qituvchini tinglash;
- b) boshqalarga yordam berish, hurmatli bo'lish;
- d) o'zgina gapirish;
- e) faqat o'z-o'ziga to'g'ri munosabatda bo'lish;

5. Mehnatsevarlik nima?

- a) hech narsa qilmaslik;
- b) o'z ishini yaxshi bajarishga intilish va har doim mehnat qilish;
- d) faqat o'qish bilan shug'ullanish;
- e) boshqalarni ishga majburlash;

6. Do'stlikda halollik nima uchun muhim?

- a) do'stlarning har doim o'zaro bahs-munozaralar qilishlari kerak;

- b) do'stlar bir-biriga to'g'ri va samimiy bo'lishi kerak;
 - d) yolg'on gapirish do'stlikni mustahkam qiladi;
 - e) bir-biriga hech qachon yomon narsa aytmaslik kerak;
7. Agar sinfda biron kishi xato qilsa, qanday munosabatda bo'lish kerak?
- a) xatoni ko'rsatib, uni masxara qilish;
 - b) xatoni yaxshilab tushuntirish va yordam berish;
 - d) o'zini yomon his qilish;
 - e) xatolarini boshqalarga aytib berish;
8. Boshqalarga yordam berishning qanday ahamiyati bor?
- a) boshqalarga yordam bermaslik kerak;
 - b) boshqalarga yordam berish, jamiyatni yaxshilashga yordam beradi;
 - d) yordam qilish faqat o'zingizga foyda keltiradi;
 - e) yordam faqat ota-onalar yoki o'qituvchilar bilan bo'lishadi;
9. Boshqalar bilan qanday munosabatda bo'lish kerak?
- a) ularni har doim tanqid qilib, o'zingizni yuqori qo'yish;
 - b) ularni hech qachon e'tiborsiz qoldirmaslik va hurmat qilish;
 - d) boshqalarni alday turib, ularga yordam berish;
 - e) o'z fikringizni boshqalarga majburan bildirish;
10. Agar sizni do'stingiz ranjitib qo'ysa, qanday qilasiz?
- a) do'stingizni yomon ko'rishni boshlaysiz;
 - b) uning bilan gaplashib, muammoni hal qilasiz;
 - d) uning orqasidan gapirasiz;
 - e) uni jahl bilan qo'rqitasiz.

“Xulq-atvor kartasi” metodi

Tavsif: O'quvchilarga muayyan xulq-atvorning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini aniqlash uchun "to'g'ri" va "noto'g'ri" deb belgilangan kartalar beriladi. Ular ma'lum bir vaziyatni ko'rib chiqadilar va o'z fikrlarini izohlaydilar.

Ma'naviy-axloqiy maqsad: O'quvchilarga xulq-atvor va axloqiy qarorlar haqida fikr yuritishga yordam beradi, to'g'ri va noto'g'ri xulq-atvorni aniqlashga o'rgatadi.

Misol: "Agar sinfdoshim meni masxara qilsa, men nima qilishim kerak?" savoliga javob berish.

**13-mavzu. Boshlang'ich sinfda jamoa haqida umumiy tushuncha.
Jamoani tashkil etish metodikasi.**

Reja:

1. Jamoa haqida tushuncha.
2. Sinf rahbari ishida o'quvchilar jamoasini shakllantirish va uni tarbiyalash metodikasi.
3. Bolalar jamoasini shakllantirish metodikasi.
4. Shaxsga jamoaviy-tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish.
5. O'quvchi shaxsini komil inson qilib tarbiyalashda jamoa ro'li va ahamiyati.
6. Sinf jamoasini tuzish va jipslantirishda sinf rahbarining oila va jamoatchilik bilan olib boradigan ishlari.

Foydalanilgan adabiyotlar:

53. Mavlonova R., Raxmonqulova N., Normurodova B. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. -T.: Tib-kitob, 2010 y.

54. Ishmuhammedov R., Abduqodir A., Pardayev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar. -T.: Fan va texnologiya, 2010 y.

55. Олесникова.И.А, Н.М.Борытко и др. Воспитательная деятельность педагога. Учебное пособия. М.:Академия, 2006-333 с.

56. Подласый И.П. Педагогика 2-я част -М.: ВЛАДОС, 2003 г.

57. Mirziyoyev Shavkat Miromonovich. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga ko'ramiz. Mazkur kitobdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2016-yil 1-noyabrdan 24-noyabrga qadar Qoraqolpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent sharxi saylovchilari vakillari bilan o'tkazilgan saylovoldi uchrashuvlarida so'zlagan nutqlari o'rin olgan. / Sh.M.Mirziyoyev.- Toshkent: "O'zbekiston", 2017.- 488 b.

58. [hppt://www.ziyounet.uz/](http://www.ziyounet.uz/)


59. www.relarn.ru/conf2007

Tayanch tushunchalar. Jamoa, bolalar jamoasi, sinf jamoasi, komil inson, tarbiya, oila, sinf rahbar,

1. Jamoa haqida tushuncha.

Jamoad va jamoa yordamida tarbiyalash – tarbiya tizimida muhim ahamiyatga ega bo'lgan tamoyillardan biridir. Shaxsni shakllantirishda jamoaning yetakchi rol o'ynashi to'g'risidagi fikrlar pedagogika fanining ilk rivojlanish davrlaridayoq bildirilgan. Jamoad uning a'zolari o'rtasidagi munosabatning alohida shakli yuzaga keladi, bu esa shaxsning jamoa bilan birgalikda rivojlanshini ta'minlaydi.

Lekin har qanday guruhni ham jamoa deb hisoblab bo'lmaydi. Jamoa bir qator belgilarga egadirki, mazkur belgilar jamoani kishilarning etarli darajada uyushgan har qanday guruhdan ajratib turadi.



Umumiy birgalikdagi faoliyat. Kishilar aniq maqsadga birgalikda tez erishish uchun jamoaga birlashadilar. Buning uchun jamoaning har bir a'zosi birgalikdagi faoliyatda faol ishtirok etishi zarur, faoliyat Umumiy tashkil eetilishi kerak. Jamoa a'zolari birgalikdagi faoliyat natijalari uchun yuqori shaxsiy javobgarlikni his qilishlari bilan ajralib turishadi.

Majburiy mas'uliyatli munosabatning yo'lga qo'yilishi. Jamoa a'zolar orasida faqatgina yagona maqsad va faoliyat emas, ularning g'am-qayg'ularining aloqador birligi aks etuvchi maxsus munosabatlar yuzaga keladi.

Saylangan umumiy rahbariy organga egalik. Jamoada demokratik munosabatlar o'rnatiladi. Jamoani boshqarish organlari jamoaning obro'li a'zolarini to'g'ridan-to'g'ri, ochiq saylab olish asosida shakllantiriladi.

Mazkur aytilgan belgilaridan tashqari jamoa boshqa muhim o'ziga xosliklari bilan ham farqlanadi. Bu jamoa ichki muhitida aks etuvchi o'ziga xoslik, psixologik iqlim, jamoa a'zolari orasidagi munosabatlarda ko'rinadi.

Maktab jamoasi tarkibida eng barqaror bo'g'in – bu muayyan sinflar negizida shakllangan jamoalar sanaladi. Sinf jamoasi tarkibida o'quvchilar tomonidan amalga oshiriluvchi asosiy faoliyat o'qish

faoliyati sanaladi. Aynan sinf jamoasida shaxslararo aloqa va munosabatlar tarkib topadi. Shuningdek, sinflar jamoalari negizida maktab jamoasi shakllanadi.

Yuqoridagi jamoaning o'ziga xos belgilaridan kelib chiqib, shunday xulosa chiqarish mumkin. O'quvchilar jamoasi – bu ijtimoiy ahamiyatga ega yagona maqsadni ko'zda tutuvchi, birgalikdagi faoliyatni tashkil etuvchi, umumiy saylab qo'yilgan organiga ega bo'lgan, mustahkamlik, umumiy javobgarlik bilan ajralib turuvchi, barcha a'zolarining huquq va majburiyatlarda tengligi sharoitida majburiy aloqadorlikka ega bo'lgan o'quvchilar guruhidir.

Jamoani shakllantirish bosqichlari. Jamoani shakllantirish muayyan qonuniyatlarga bo'ysunadigan uzoq muddatli murakkab jarayondir.

O'quvchilar jamoasini shakllantirish **to'rt bosqich**da amalga oshiriladi.

Jamoa shakllanishining birinchi bosqichi. Mazkur bosqichda talab faqat o'qituvchilar tomonidan qo'yiladi. Bu jamoa rivojlanishining boshlang'ich nuqtasidir. Ushbu davrdagi jamoa hali tarbiyalovchi jamoa bo'lmay, balki «tashkil etuvchi birlik» (sinf yoki guruh) hisoblanadi. Ushbu bosqichda o'quvchilar o'qituvchi tomonidan talablarning qo'yilishiga e'tiborsiz qaraydilar. Jamoa a'zolarining uzluksiz ijodiy faoliyatini tashkil qilish va ularni muayyan (yagona) maqsad atrofida birlashtirishga erishish orqaligina jamoa qaror topadi. O'quvchilarning jamoa faoliyatida ishtirok etishi tufayli asta sekin boyib boradigan tajriba, faoliyat natijasini birgalikda muhokama qilish, qilinajak ishlarni rejalashtirish jamoa a'zolarida mas'uliyat, javobgarlik, faoliyat biriligi, shuningdek, ishchanlik munosabatining paydo bo'lishi, shuningdek, o'quvchilarda jamoa faoliyatiga nisbatan qiziqishni paydo bo'lishiga olib keladi. Bolalarning jamoa faoliyatini tashkil etish borasidagi tajribaga ega emasliklari bois so'z yuritilayotgan bosqichda o'qituvchining asosiy maqsadi jamoa a'zolarini oddiy tarzda uyushtirishdan iborat bo'ladi.

Jamoa hayotining birinchi bosqichida jamoa faollarining paydo bo'lishi ushbu davr uchun xarakterli hodisadir. Jamoa faoli (aktivi) muayyan guruhning shunday a'zolaridirki, ular jamoa manfaatiga muvofiq tarzda harakat qiladilar, o'qituvchi faoliyati va talabiga

nisbatan xayrixohlik bilan munosabatda bo'ladilar. Faollar o'qituvchining yaqin yordamchilari sifatida ish olib boradilar.

Jamoa rivojlanishining ikkinchi bosqichi. Ushbu bosqich jamoa faolining o'qituvchi talabini qo'llab-quvvatlash hamda o'z navbatida uning o'zi bu talablarni jamoa a'zolari zimmasiga qo'yishi bilan tafsiflanadi. Endilikda o'qituvchi jamoada paydo bo'lgan va u bilan bog'liq muammo, masalalarni yolg'iz o'zi hal qilmaydi. Jamoa faoli bilan maxsus tarbiyaviy ish olib borish orqali bu ishga uni jalb etadi. Ushbu bosqichda jamoa hayotini tashkil qilish usuli murakkablashib boradi, ya'ni, jamoa o'z-o'zini boshqarishga o'tadi.

O'quvchilar amaliy faoliyatining doimiy ravishda murakkablashib borishi mazkur davrining muhim xususiyati sanaladi. Ikkinchi bosqichda jamoaning muhim ishlarini o'quvchilar tomonidan mustaqil rejalashtirilishi, tadbirlarni o'tkazishga tiyyorgarlik, uni o'tkazish hamda faoliyat natijalarini muhokama qilish jamoa faoliyatining ijodiy xususyat kasb etishini ko'rsatuvchi omillar sanaladi.

Jamoaning rivojlanishi bu bosqichda to'xtab qolishi mumkin emas, chunki faoliyat ko'rsatayotgan kuch jamoaning bir qismigina xolos. Bordi-yu, jamoaning rivojlanishi ushbu bosqichda to'xtatib qolinsa, jamoa faolining guruhning boshqa a'zolari bilan qarama-qarshi qo'yish xavfli tug'ilishi mumkin. Bu bosqichda jamoaning barcha a'zolarining alohida faollik ko'rsatishga erishishlari zarur sanaladi.

Jamoa rivojlanishining uchinchi bosqichi. Jamoa faoliyatida bu bosqich anchagina sermahsul hisoblanadi. Bu davrda butun jamoa «ayrim o'zini chetga olib qoluvchi, injiq shaxs»larga talab qo'ya boshlaydi.

Jamoa ishiga ushbu bosqichda faqat faolgina emas, balki uning butun a'zolari qiziqadi. Jamoa hayotidagi uchinchi bosqich, ijtimoiy fikr mavjudligi bilan ifodalanadi. O'qituvchi mazkur yo'nalishda maqsadga muvofiq va izchil ish olib borgan sharoitdagina ijtimoiy fikrni shakllantirishga erishishi mumkin. Shu maqsadda u yoki bu tadbir rejasi, jamoaning birgalikdagi faoliyati va uning a'zolari xatti-harakati jamoa bo'lib muhokama qilinadi, turli mavzularda suhbatlar va ma'ruzalar uyushtiriladi, o'quvchilar o'rtasida samarali axborot vositalari yordamida ijtimoiy-g'oyaviy, axloqiy, estetik, ekologik, huquqiy, iqtisodiy va hokazo bilimlarning targ'iboti tashkil etiladi. O'qituvchi jamoa a'zolarining birgalikdagi faoliyatini tashkil etar ekan,

jamoa a'zolarining ijodiy tajribasiga hissa qo'shish imkonini beradigan o'zaro munosabatlarini shakllantirishga ta'sir ko'rsatadigan shakl va metodlardan foydalanadi.

Jamoa rivojlanishining to'rtinchi bosqichi. Bu bosqich uning barcha a'zolari jamoa oldida turgan vazifalar asosida o'z-o'zlariga talablar qo'ya olishlari bilan tavsiflanadi. Shuni aytish joizki, har bir bosqich jamoa a'zolarining o'ziga nisbatan muayyan talab qo'yishi bilan tavsiflanadi, ammo qo'yilgan har bir talab o'ziga xos yo'nalishi (masalan o'yindan umuminsoniyat baxti yo'lida kurashishiga intilish o'rtasidagi farq) bilan ajralib turadi. To'rtinchi bosqich jamoa a'zolarining o'ziga nisbatan yuksak axloqiy talablar qo'ya olishlari bilan ahamiyatlidir. Jamoaning hayoti va faoliyati mazmuni jamoa a'zolarining har biri uchun shaxsiy ehtiyojga aylanadi. Jamoadagi tarbiya jarayoni o'z-o'zini tarbiyalash jarayoniga aylanadi. Biroq bu holat jamoaning muayyan shaxsni yanada rivojlantirishdagi roli va o'rnini pasaytirmaydi. To'rtinchi bosqichda amalga oshiriladigan vazifalar ancha murakkab va mas'uliyatlidir. Mazkur bosqichda jamoa oldiga istiqbolli, yuksak va murakkab talablarni qo'yish uchun mutlaqo qulay sharoit yaratiladi.

2. Sinf rahbari ishida o'quvchilar jamoasini shakllantirish va uni tarbiyalash metodikasi.

O'quvchilar jamoasini shakllantirishning jarayonida quyidagi shart-sharoitlarni hisobga olish lozim: pedagogik talab, jamoa faolini tarbiyalash, jamoaviy an'analarni qaror toptirish.

O'quvchilar jamoasini shakllantirishning jarayonida quyidagi **shart-sharoitlarni** hisobga olish lozim: pedagogik talab, jamoa faolini tarbiyalash, jamoaviy an'analarni qaror toptirish.

Jamoani shakllantirishda jamoa a'zolari va ularning faoliyatlariga qo'yiladigan yagona talablar muhim ahamiyat kasb etadi. Yagona talab o'quvchilarning dars jarayonidagi, tanaffus, sinfdan tashqari ishlar vaqtidagi, shuningdek, jamoat joylari hamda oiladagi xulq-atvor qoidalarini o'z ichiga oladi.

O'qituvchilar tomonidan qo'yilgan talablar quyidagi sharoitlarda ijobiy natija beradi:

- qo'yilayotgan talablar o'quvchi shaxsini hurmat qilish tuyg'usi bilan uyg'unlashgan bo'lishi kerak;
- talablar muayyan maktab yoki sinfdagi mavjud sharoitni hisobga olgan holda qo'yilishi lozim;
- jamoaga nisbatan qo'yilayotgan talablar aniq bo'lishi lozim;
- o'quvchilarning tashqi qiyofasi, kiyinishi, yurish-turishi hamda muomalasiga nisbatan qo'yilayotgan talablar, ularda ma'naviy madaniyatni shakllantirishga xizmat qilishi shart.

Talablarning qo'yilishi jarayonida ularga o'quvchilarning amal qilishi ustidan nazorat o'rnatish lozim. Nazorat qilib borish turli shakllar yordamida amalga oshiriladi, chunonchi, xulq-atvor jurnalini yuritish, sinfdagi navbatchilik uchun stendda baholarni qayd etib borish va boshqalar. Qo'yilayotgan talablarning bajarilishi yuzasidan olib borilayotgan nazorat muntazam ravishda, izchil olib borilishi va haqqoniy bo'lishi zarur. Olib borilgan nazorat natijalaridan o'quvchilarni ogoh etib borish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Jamoani uyushtirish va jipslashtirish unda sinf faolini tarbiyalash bilan chambarchas bog'liq. Har bir o'qituvchining jamoani shakllantirish borasidagi harakti jamoaning tayanch yadrosini tanlashdan boshlanadi.

Jamoa faolini shakllantirish jamoaning u yoki bu faoliyatiga nisbatan ehtiyoji mazmunidan kelib chiqadi. Ishonchli, ishchan jamoa faolini yaratish uchun o'qituvchi o'quvchilar faoliyatini ularning jamoa ishlaridagi ishtiroki, xulq-atvorini kuzatib borishi har bir o'quvchining ijtimoiy faoliyatni tashkil etish layoqatini aniqlash zarur.

Jamoa faolini shakllantirishda o'quvchilarning jamoadagi obro'sini ham inobatga olish lozim. Jamoa faoli tarkibini bolalarning o'zlari, albatta, o'qituvchi ishtirokida va rahbarligida tanlasa maqsadga muvofiq bo'ladi. O'qituvchi jamoa faoli bilan maslahatlashish asosida tarbiyaviy faoliyatni tashkil etadi.

Jamoa faolining har bir a'zosi zimmasiga muayyan vazifani yuklash, ularning ma'lum davrda ana shu vazifalar yuzasidan hisobot berib borishlariga erishish maqsadga muvofiq. O'qituvchi aynan faolga oshirilgan talab qo'yadi. O'quvchilar jamoasida faol rahbarligida o'z-o'zini boshqarish jamoa a'zolaridan ayrimlarining boshqasi ustidan ustun kelishiga olib kelmasligi kerak.

Shu bois o'qituvchi faolni maqsadga muvofiq faoliyat yuritishini nazorat qilib borishi lozim.

O'quvchilar jamoasini shakllantirishda an'analar muhim o'rin tutadi. Jamoa an'analari jamoa a'zolari tomonidan birdek qo'llab-quvvatlanuvchi barqarorlashgan odatlar bo'lib, ularning mazmunida munosabatlar xususiyati hamda jamoaning ijtimoiy fikri yorqin ifodalanadi.

Jamoa an'analari shartli ravishda ikkiga bo'linadi: kundalik faoliyat an'analari; bayram an'analari.

Kundalik faoliyat an'analari o'quvchilarning o'quv faoliyati (o'zaro yordam turlari), va mehnat faoliyati (ko'chatlar o'tkazish, hasharlar uyushtirish va boshqalar)ni o'z ichiga oladi.

Bayram an'alariga ijtimoiy ahamiyatga ega turli voqea hamda hodisalar bilan bog'liq sanalar (xususan, «Alifbe bayrami», «Mustaqillik bayrami», «Navro'z bayrami», «Xotira va qadrlash kuni» va boshqalar)ni nishonlash maqsadida tashkil etilgan faoliyat kiradi.

Sinf rahbari maktab o'qituvchilar jamoasi va pedagogika kengashining a'zosidir. Sinf rahbarining burchi juda keng va ko'p tomonlamadir. Sinf rahbari ishining asosiy qismi o'quvchilarni o'rganish. O'quvchilar bilim sifatini oshirish hamda ularning tartib intizomini mustahkamlash. Darsdan va sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarni tashkil etish va ularni o'tkazish. O'quvchilarning ota-onalari bilan olib boriladigan ishlar ham sinf rahbarining asosiy vazifalaridan biridir. O'quvchilar jamoasi – sinf rahbarining tayanchi. O'quvchilarni tarbiyalashda sinf jamoasidagi barcha o'quvchilarning bir-birlariga ta'sirlari katta ahamiyatga ega. Ularni bir-biriga ko'rsatadigan o'rnamklari intizomni yaxshilash va mustahkamlashga, ularni xulq madaniyatini, odatini, ko'nikmasini hosil qiladi. Sinf rahbari bolalarni odobli qilib tarbiyalashni, ularga andisha bilan gapirishni, maqbul hrakat qilishni o'rgatishi lozim.

Sinf rahbari o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalar ekan, u o'z faoliyatida quyidagi talablarga rioya qilishi kerak:

- sinf rahbari o'quvchi ota-onasining mansabi, boyligiga qarab bolaga muomala qilmasligi lozim;
- sinf rahbari bolalarga axloqiy normalarni o'rgatishi kerak;

-gerdayishi, manmanlik, ta'magirlik, nodonlik kabi illatlar o'qituvchi axloqiga yod sifatlardir;

- xalq nazarida olim hisoblanadigan o'qituvchilar yomon ishlardan, fisku-fasoddan o'zlarini tiya bilishlari zarur.

3. Bolalar jamoasini shakllantirish metodikasi.

Bolalar jamoasini shakllantirish axloqiy tarbiya bilan chambarchas bog'liqdir. Bolalar o'z xulqlarining jamoa manfaati bilan bog'liqligi haqidagi bahoni eshitadilar. Bola jamoa fikri va bahsi bilan hisoblashsa, o'zining jamoa uchun zaruriyatini sezsa, u bilan g'ururlansa, umumiy hayotning yoqimli va quvonchli bo'lishi uchun intilsa, bu jamoaning yetarli darajada shakllanganligidan dalolat beradi. Bola kelishi bilan bolalar jamoasining a'zosi bo'lib koladi, u boshqa bolalar bilan uynashi mehnat qilishi, kelishishi kerak bo'lsa yon bosishi o'rganib oladi.

O'qituvchi har bir bolaning qobiliyatini alohida baholab borishi kerak. Keyinchalik jamoada hayot tajribasining to'plapishi natijasida «men», «meniki» tushunchasining o'rnini «biz», «bizniki» degan tushunchalar egallaydi. Bu esa bolalarning o'zini jamoa a'zosi deb tushunib olganidan va o'z shaxsi manfaatini umumiy maqsadga buysundira oladigan davridan boshlanadi.

Bolalar jamoasini shakllantirish uchun ma'lum shart - sharoitlar zarur hisoblashadi. Bular:

- bog'cha xodimlarining o'zaro xamjihat bo'lishi;

- bolalar hayotini tashkil etish; o'yinchoqlarning bolalar yoshiga, qiziqishiga mos kelishi hamda mikdor jihatdan ham bolalar soniga to'g'ri kelishi;

- bolalarda o'zaro ahillik, g'amxurlik, jamoatchilik, insoniylikni tarbiyalashga yordam beruvchi mashg'ulotlar;

- bolalar uchun har xil qiziqarli faoliyatlarni tashkil etib borish;

- oila bilan mustahkam aloqa o'rnatish;

- bolalarga xulq - atvor meyorlari va qoidalarini o'rgatib boorish;

- bolalar o'rtasida ijobiy xayrixohlik muhitini yaratish.

Bolalarda tarbiyalanadigan axloqiy xususiyatlar, xulh-atvor qoidalari orasida insonparvarlik muhim o'rin tutadi. Insonparvarlik hissi axloq meyorlari va qoidalarini o'rgatish asosida rivojlanadi.

Buning uchun bolalarni yaxshi ishlarni qilishga o'rgatib borish zarur. Tarbiyachi kichkina bolalarga ayrim xatti-harakatlarni syujetli o'yinchoqlar bilan o'ynash orqali ko'rsatadi. Shuningdek, tarbiyachi bolalarni tengdoshlari bilan salomlashishga, hammalarini yangi kelgan kishining salomiga javob berishiga odatlantiradi, kasal bolaga xat yozishni, unga rasmlar yuborishni yoki telefon qilishni taklif etadi.

Bolalarning kayfiyati ko'p jihatdan bog'cha va uyda ular hayotining tashkil etilishi va mazmuniga bog'liq. Sog'lom bola kattalar singari o'zining jismoniy kuchiga va umumiy rivojlanishi darajasiga qarab to'laqonli yashashga harakat qiladi.

Bolalar jamoasi tarbiyachi pedagog hamda bolalardan iborat jamoaning murakkab birlashmasi o'z-o'zini nazorat. O'z-o'zini boshqaruv jarayonini tashkil etuvchi mustaqil tizim, shuningdek, o'zining psixologik muhitiga va an'alariga ega gurux hisoblanadi. Bugungi kunda pedagog olimlar (L.I Novikov va boshq.) bolalar jamoasi rivojlanish jarayonini tahlil qilar ekan, uni quyidagi uch jihatiga e'tibor boradilar:

1. Jamoani dastlabki shakllantirish.
2. Jamoani shakllantirish, uning har bir a'zosini individual rivojlantirish.
3. Tarbiyalanuvchilar amaliy faoliyatining doimiy ravishda murakkablashib borishi.

O'qituvchi jamoa a'zolarining birgalikdagi faoliyatini tashkil etar ekan, jamoa a'zolarining ijobiy tajribaga qo'shish imkonini beradigan o'zaro munosabatlarini shakllantirishga ta'sir etadigan-shakl va metodlardan foydalanadi.

4. Shaxsga jamoaviy-tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish.

Yuksak g'oyaviy yo'nalishga ega bo'lgan, umumiy maqsad, harakatlarning bir-biriga mosligi va uyushqoqligi bilan bir butun, nihoyatda hamjihat, sog'lom hamda muayyan maqsadni ko'zlovchi jamoani uyushtirish orqali tarbiyalash- yoshlarga tarbiya berishning asosiy tamoyillaridan biridir. Bunday yoshlar jamoasi tarbiyachining tayanch yordamchisi, tarbiyaviy ta'sirning qudratli qurolidir.

Jamoa va yoshlarning bir-biriga bog'liqligi g'oyat darajada cheksizdir. Chunki odam shaxs sifatida tug'ilmaydi, u individ sifatida dunyoga keladi. Odamlar ya'ni ota-onalar, atrofdagi kishilar bilan bo'lgan muloqotda, o'zaro munosabatlarda shaxsga aylanadi. Bu narsa yasli yoshidagi bolalar orasida o'tkazilgan ilmiy tadqiqotlar asosida

isbotlangan. Agar katta yoshdagi odamlar bola bilan munosabatda bo'lmاسalar, bola bilan gaplashماسalar va o'ynamasalar, u aqliy va hissiy taraqqiyot jihatdan keskin suratda orqada qolib ketadi.

Shaxs ong egasi bo'lgan odamdir, ong esa faqat tabiiy hodisalar olaminigina aks ettirib qolmay, balki shaxs insoniyat tajribasi asosida to'plangan narsalar bilan munosabatda bo'ladigan ijtimoiy ong mahsulotlarini ham aks ettiradi. Bola o'yinga adabiy qahramonga taqlid qilishiga intilishi, munozaralarda qatnashishi-bularning hammasi maktab bolasi shaxsini faolligining namoyon bo'lishidir.

Bola shaxsini tarkib topishi jamoada amalga oshadi. Bundan bola avvalo o'zi haqida uchinchi shaxs tilidan gapiradi. Masalan: "Aqidani o'ynagisi kelyapti". Undan keyin bolani o'z-o'zini anglashining sodda shakli sifatida o'z xarakter hislatlarini anglash yuzaga keladi. Lekin faqat yoshlar jamoasining boshqa a'zolari bilan bo'ladigan munosabatdagina bolaning o'z-o'zini anglashi jamoada o'z rolini anglash darajasigacha ko'tariladi. Boshqalar uni "yaxshi" yoki "yomon" deb baho berishlarini tushungandan keyingina bola o'z-o'ziga baho berishni o'rganadi. Mana shunday yo'l bilan taqlid qilish yuzaga keladi. Avval qisqa muddatli, ba'zan tasodifiy jarayon sifatida, undan so'ng esa jamoaning yetarli darajada faol ta'sir ko'rsatishi tufayli shaxsning hislati sifatida o'z-o'zini tanqid qilish xislati yuzaga keladi. Shuning uchun tarbiyaning muvaffaqiyatli shartlaridan biri - shaxsni "jamoada va jamoa orqali tarkib toptirishdir".

Bola faqat jamoada va jamoa ta'siri ostida jamoa o'zaro birdamlik munosabatlar tajribasini, ijtimoiy yo'nalishni taraqqiy ettirish, shaxs va jamiyat o'rtasidagi to'g'ri munosabatlar tajribasini egallaydi. Jamoadan tashqarida bunday sifatlarni umuman tarbiyalab bo'lmaydi. Shuningdek, tengqurlar jamoasi shaxsning barcha ijobiy sifatlarini (kamtarlik, vijdoniylik, qat'iylilik, o'z-o'zini tuta bilish va h.k.) tarkib toptirish va taraqqiy ettirishga ta'sir ko'rsatadi. Jamoa yalqovlik, xudbinlik, ichi qoralik, qo'rqqoqlik, o'z-o'zini tuta bilmaslik, ikki yuzlamachilikni fosh qilib tashlaydi.

Yoshlarning o'ziga xos xususiyatlari turlicha bo'lishi sababli jamoaning ham tashkil topishi va uning faoliyati unga bog'liqdir. Chunki jamoaning yo'nalishi faqat jamoada tarkib topadi. Shuning uchun jamoa o'zaro munosabatlar va jamoa faoliyat tajribasi shunchaki qat'iylilikni emas, balki jamoa qat'iyligini, shunchaki kamtarlikni emas,

balki jamoa kamtarligini tarkib toptiradi. Jamoa tarbiyaviy ta'sirining asosiy tomoni shundaki, u tarbiya subyekti sifatida namoyon bo'ladi.

O'quv ishlari - jipslashgan bolalar jamoasini tashkil qilishda asosiy yo'ldir. Hamma uchun umumiy ish bo'lgan o'qish butun sinf bolalarini do'stona jamoa qilib jipslashtiradi. Guruhda bolalar jamoasi tuzilgandan keyin, bu jamoa-bolalar axloqini tarbiyalashda eng muhim vositalardan bo'lib qoladi. Kattalar, ota-onalar jamoani tarbiyalashda eng muhim vositalardan biridir. Kattalar, ota-onalar jamoasini tarbiyalaydi, uni izga soladi, mustahkamlaydi, shundan keyin bu jamoaning o'zi katta tarbiyaviy kuchga aylanadi.

Bolalarni jamoa uchun, jamoa orqali tarbiyalash shaxs shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Chunki yoshlar faqat jamoada va jamoa ta'siri ostida o'zaro munosabatlar asosida haqiqiy komil inson bo'lib shakllanadi. Jamoa o'z a'zolariga ta'sir ko'rsatadi, ulardan muayyan xulqatvorni talab qiladi. Jamoaning sog'lom va obro'li jamoatchilik fikri kuchi nihoyatda kattadir. Jamoaning ma'qullash yoki qoralashi, jamoaning sog'lom tanqidi, o'z a'zolari oldiga qo'yadigan ta'sirli va jiddiy talablari shaxsni tarkib toptiruvchi, nazorat qiluvchi va tuzatuvchi muhim omildir. Hammaga ma'lumki, axloq qoidalari va normalarini buzuvchi bolaga ko'pgina o'qituvchining tarbiyaviy ta'siri o'tmaydi. Yoki aksincha, aybdor bola uning xatti-harakatlariga xayrixohlik bildiribgina qolmasdan, balki bir ovozdan va chinakam qoralagan, yetarlicha zarba bergan ahil jamoaning siquviga qarshi tura olmaydi. Natijada jamoa talablarining taraqqiy etishi jipslashgan, axloqiy jihatdan o'sgan jamoa bilan birga muayyan evolyutsiyani, dinamikani boshidan kechiradi.

Jamoa orqali bolalar o'zini ko'zguda ko'rgandek his qilishi muhimdir. Chunki ular haqiqiy jamoadagina o'zini-o'zi anglaydi, kamchilik va yutuqlari, salbiy va ijobiy sifatlarini farqlaydi, jamoadagi ideal kishilardan o'rnak oladi, ularga o'xshashlikka harakat qiladi, o'zini-o'zi tarbiyalash imkoniga ega bo'ladi. O'z-o'zini tarbiyalash esa insonning axloqiy sifatidir. Unda bolalar o'zini-o'zi qo'lga oladi, salbiy sifatlaridan holi bo'lishga, yaxshi sifatlarni o'zida shakllantirishga harakat qiladi. Bu esa jamoaning shaxs shakllanishiga ijobiy ta'sir etishidir.

Bolalarni shaxs sifatida shakllanishida bolalar o'rtasida o'tkaziladigan tarbiyaviy tadbirlar katta rol o'ynaydi. Chunki bolalar o'rtasida o'tkaziladigan, ayniqsa bog'chalarda uyushtirilgan tadbirlar-

jipslashgan bolalar jamoasini tashkil etishda muhim vositalardan biridir. Bolalarni jamoa qilib jipslashtirish uchun dastavval umumiy maqsad bo'lishi kerak, hammaning manfaatiga to'g'ri keladigan, butun guruh uchun umumiy ish bo'lishi maqsadga muvofik. Keyin jamoa orasida ishlarni aniq taqsim qilish va uni bajarilishini muntazam ravishda tekshirish lozim. Bunda hamma bir kishi ekanligi sezilib turishi lozim. Bu maktab jamoatchilik topshirig'ini yaxshi bajargan sinf, maktab sharafi (hozirgi kunda bunday tadbirlar mahallalarda ham o'tkazilishi maqsadga muvofiq), bog'cha uchun faxrlanish nimaligini tushunib olish imkonini beradi. Bog'chalarda, mahallalarda, kechalar, ertaliklar, ekskursiyalar, bayramlarni birgalashib o'tkazish bolalar jamoasini tuzishga va uni mustahkamlashga yordam beradi.

5. O'quvchi shaxsini komil inson qilib tarbiyalashda jamoa ro'li va ahamiyati.

Komil inson — bu ma'naviy, axloqiy, intellektual va jismoniy jihatdan to'liq rivojlangan shaxsdir. Komil inson atamasi turli madaniyatlar va falsafalarda o'ziga xos yondashuvlarga ega bo'lishi mumkin, ammo umumiy ma'noda bu, jamiyatda ijobiy va muvozanatli ro'l o'ynaydigan, o'z imkoniyatlarini to'liq ishga solishga intilayotgan shaxsdir. Komil insonning bir necha asosiy sifatlari mavjud:

1. Ma'naviy rivojlanish. Komil inson axloqiy qadriyatlar va prinsiplar asosida yashaydi. U o'z hayotida to'g'ri va adolatli yo'ldan borishga harakat qiladi, boshqalarga hurmat ko'rsatadi, sabr-toqat, halollik, mehr-muhabbat kabi sifatlarni qadrlaydi. Uning maqsadi nafaqat o'zini, balki jamiyatni ham rivojlantirishdir.

2. Intellektual rivojlanish. Komil inson doimo o'z bilimini kengaytirish, yangi ma'lumotlarni o'rganish va o'zini intellektual jihatdan rivojlantirishga intiladi. U nafaqat ilmiy bilimlarga ega, balki fikrlash, tahlil qilish va yaratish kabi aqliy qobiliyatlarni ham rivojlantiradi.

3. Jismoniy salomatlik. Komil inson jismonan sog'lom bo'lishni, o'zini jismoniy jihatdan tarbiyalashni ham muhim deb biladi. Jismoniy faollik va sog'lom turmush tarzini olib borish uning umumiy rivojlanishiga yordam beradi.

4. Ijtimoiy mas'uliyat. Komil inson jamiyatda o'z o'rnini topgan, boshqalarga yordam berishga tayyor, ijtimoiy mas'uliyatni his qiladigan shaxsdir. U jamoaviy ishda, hamkorlikda muvaffaqiyatga

erishishga intiladi va atrofdagilar bilan yaxshi munosabatlar o'rnatishga harakat qiladi.

5. Emotsional intellect. Komil inson o'z hissiyotlarini yaxshi boshqaradi va boshqalar bilan munosabatlarida empatiya ko'rsatishga qodir. U stressga bardosh bera olish, ijobiy fikrlar va his-tuyg'ularni boshqarish kabi emotsional intellektga ega.

6. Liderlik va o'z-o'zini boshqarish. Komil inson boshqalarni yo'naltirish, ularga motivatsiya berish va jamoa a'zolariga o'z salohiyatlarini rivojlantirishda yordam berishga qodir. Shuningdek, u o'z hayotini samarali boshqarish, maqsadga erishish uchun reja tuzish va shu reja asosida harakat qilishni biladi.

7. Kreativlik va innovatsion fikrlash. Komil inson yangi g'oyalar, yechimlar va yondashuvlarni izlashga, o'zini kreativ tarzda ifodalashga intiladi. U o'zining innovatsion qobiliyatlarini jamiyat foydasiga yo'naltiradi.

8. Ijtimoiy adolat va tenglikni qo'llab-quvvatlash. Komil inson, odatda, ijtimoiy adolat va tenglikka e'tibor beradi. U adolatsizlikka qarshi turadi va jamiyatdagi o'zgarishlar uchun harakat qiladi, o'z huquqlarini va boshqalar huquqlarini himoya qiladi.

Komil inson — bu nafaqat ma'lum bilimga ega bo'lgan yoki jismonan sog'lom bo'lgan shaxs, balki o'zining axloqiy, ma'naviy va intellektual rivojlanishiga e'tibor beradigan, boshqalar bilan yaxshi munosabatda bo'ladigan va jamiyatga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan insondir. Uning har bir qadami, faoliyati va qarorlari uning atrofidagi dunyoni yaxshilashga qaratilgan bo'ladi.

O'quvchi shaxsini komil inson qilib tarbiyalashda jamoa ro'li va ahamiyati juda katta. Komil inson tarbiyasi faqat individual o'sish yoki bilim olish bilan cheklanmaydi, balki ijtimoiy, axloqiy va ma'naviy rivojlanishni ham o'z ichiga oladi. Jamoa muhitida o'rganish, muloqot qilish va birgalikda faoliyat yuritish o'quvchilarga quyidagi jihatlarni o'rgatadi:

1. Ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish. Jamoada o'qish va ishlash, o'z fikrini erkin bildirishi, boshqalarning fikrini tinglashi va ularga hurmat ko'rsatishi, shuningdek, jamoada nizolarni hal qilishni o'rganadi. Bu ko'nikmalar komil insonning asosiy sifatlaridan biridir.

2. Hamkorlik va jamoaviy ish. Komil inson bo'lish uchun, o'quvchi nafaqat o'z bilimini, balki jamoa a'zolari bilan hamkorlikda ishlashni ham o'rganishi zarur. Bu o'quvchi jamoaviy ishda faol

ishtirok etishni, mas'uliyatni o'z zimmasiga olishni, boshqa kishilar bilan birgalikda maqsadga erishishni ta'minlaydi.

3. Muammo va qaror qabul qilish ko'nikmalari. Jamoada birga ishlashda o'quvchilar o'zaro muammolarni hal qilish va qarorlar qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Har bir a'zo jamoaning umumiy maqsadiga xizmat qilishga intiladi va bu o'zaro o'rganish, fikr almashish orqali amalga oshadi.

4. Axloqiy qadriyatlar. Jamoa a'zolari o'zaro hurmat, sabr-toqat, adolat va halollik kabi axloqiy qadriyatlarni o'rganishadi. Bu esa o'quvchining komil inson sifatida tarbiyalanishida muhim rol o'ynaydi.

5. Liderlik va mas'uliyatni o'z zimmasiga olish. Jamoada ishlash o'quvchiga liderlik ko'nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi. Jamoaviy ishda har bir a'zo mas'uliyatni his qiladi va boshqalarni boshqarish, yo'naltirish kabi liderlik sifatlarini shakllantiradi.

6. O'zini o'zi tanish va o'z-o'zini rivojlantirish. Jamoada faoliyat yuritgan o'quvchi o'zining kuchli va zaif tomonlarini yaxshiroq anglaydi. U o'z-o'zini tanish va rivojlantirishga harakat qiladi, shu bilan birga jamoa a'zolari bilan birga o'sish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Jamoa muhitida tarbiya olish o'quvchi shaxsini ko'p jihatdan shakllantiradi, uning ijtimoiy, axloqiy, psixologik va ma'naviy o'sishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Jamoada faol ishtirok etish, o'zini rivojlantirish va boshqalar bilan samarali ishlash orqali o'quvchi komil inson bo'lish yo'lida muhim qadamlarga erishadi.

6. Sinf jamoasini tuzish va jipslantirishda sinf rahbarining oila va jamoatchilik bilan olib boradigan ishlari.

Sinf jamoasini tuzish va jipslantirishda sinf rahbarining oila va jamoatchilik bilan olib boradigan ishlari o'quvchilarning ijtimoiy faolligini, ruhiyatini va umumiy rivojlanishini ta'minlash uchun juda muhimdir. Bu jarayonda sinf rahbari oila va jamiyat bilan hamkorlikda bir qancha muhim ishlarga e'tibor berishi kerak. Quyida sinf rahbarining bu boradagi asosiy vazifalari va olib boradigan ishlari keltirilgan:

1. O'quvchilarni ijtimoiy rivojlantirish.

Sinf rahbari o'quvchilarni nafaqat bilim olishda, balki ijtimoiy va axloqiy jihatdan ham tarbiyalashga katta ahamiyat beradi. Buning uchun o'quvchilarning o'zaro munosabatlarini, rahbarlik qobiliyatlarini

rivojlantirishga yordam beradi. O'quvchilarni jamiyatga moslashtirish uchun oila va jamoatchilik bilan birgalikda turli tadbirlar, masalan, ijtimoiy loyihalar, volontyorlik ishlari va boshqa ijtimoiy dasturlarni tashkil qiladi.

2. Sinf rahbarining oila bilan ishlash:

• **Oila bilan muntazam aloqalar:** Sinf rahbari ota-onalar bilan muntazam uchrashuvlar va suhbatlar tashkil qilib, o'quvchilarning o'qishdagi yutuqlari va muammolarini muhokama qiladi. Bu o'quvchilarning uy sharoitlari va ruhiy holati haqida ham batafsil ma'lumot olish imkonini beradi.

• **Ota-onalar uchun seminarlar va treninglar:** Sinf rahbari ota-onalarga bolalarining tarbiyasi va o'qish jarayoni haqida ma'lumot berish uchun seminarlar va treninglar o'tkazadi. Bu orqali ota-onalar o'z farzandlariga yordam berish usullarini o'rganadilar.

• **O'quvchi va ota-onalarning muammolarini hal qilish:** Agar o'quvchi o'qishda yoki jamiyatda muammolarga duch kelsa, sinf rahbari oila bilan hamkorlikda muammolarni hal qilishga harakat qiladi.

3. Sinf jamoasini shakllantirish:

• **Sinfda jamoaviy ishlarga yo'naltirish:** Sinf rahbari sinfni ijtimoiy va ruhiy jihatdan jipslashtirish uchun guruh ishlari, musobaqalar va turli tadbirlar tashkil etadi. Bu orqali o'quvchilar o'zaro hurmat, hamkorlik va jamoaviy ruhni rivojlantiradilar.

• **Sinf rahbariyatini tuzish:** O'quvchilarda rahbarlik sifatlarini rivojlantirish maqsadida, sinf rahbari o'quvchilarni faoliyatga jalb qilib, sinf rahbariyati (boshqaruv guruhi)ni tuzadi. Bu guruh o'quvchilarni sinfdagi ishlarida faollashtirishga yordam beradi.

• **Boshqaruv tizimi va qoidalarini ishlab chiqish:** Sinf jamoasining o'ziga xos qoidalari va maqsadlari bo'lishi zarur. Sinf rahbari jamoa uchun o'ziga xos qoidalar ishlab chiqib, ularni o'quvchilarga tushuntiradi.

4. Jamoatchilik bilan ishlash

• **Jamoat tashkilotlari bilan hamkorlik:** Sinf rahbari o'quvchilarning jamiyatda faol bo'lishi uchun jamoat tashkilotlari, masalan, madaniy va sport markazlari bilan hamkorlik qiladi. Bu o'quvchilarga ijtimoiy mas'uliyatni his qilish va o'zlarini jamiyatning faol a'zosi sifatida ko'rsatish imkoniyatini yaratadi.

• **Sinfning jamiyatdagi oʻrni va roli:** Sinf rahbari oʻquvchilarga jamiyatda oʻzining oʻrni va masʼuliyatini tushuntirib, ularni yaxshi fuqarolar, madaniyatli va adolatli insonlar sifatida tarbiyalaydi. Jamiyatda oʻquvchilarning ijtimoiy faoliyatlari (ekologik tadbirlar, yordam aksiyalari)ni tashkil qilish sinf rahbarining asosiy vazifalaridan biridir.

5. Sinf rahbarining ota-onalar bilan doimiy aloqasi

• **Shaxsiy yondashuv:** Sinf rahbari oʻquvchining ota-onasi bilan individual suhbatlar olib, oʻquvchining rivojlanishidagi muvaffaqiyatlar va muammolarni muhokama qiladi. Bu ota-onalar va sinf rahbari oʻrtasidagi oʻzaro ishonchni mustahkamlashga yordam beradi.

• **Sinf tadbirlariga ota-onalarni jalb qilish:** Sinf rahbari ota-onalarni sinf tadbirlariga, musobaqalarga yoki maktab hayotining boshqa faoliyatlariga jalb qiladi, bu orqali oʻquvchilarni qoʻllab-quvvatlash va motivatsiya qilishda ota-onalarning roli oshadi.

6. Jipslantirish va birlashtirish uchun oila va jamiyat resurslaridan foydalanish

• **Ijtimoiy tadbirlar:** Oila va jamoat bilan hamkorlikda oʻquvchilar uchun dam olish, sport va madaniyat tadbirlarini tashkil etadi. Bu tadbirlar oʻquvchilarni bir-biriga yanada yaqinlashtiradi va ularni birlashtiradi.

• **Ota-onalar bilan oʻzaro ishonchli munosabatlarni rivojlantirish:** Sinf rahbari ota-onalar bilan doimiy aloqada boʻlib, ularning oʻquvchilarni tarbiyalashdagi oʻrni va ahamiyatini tushuntiradi. Bu esa oila va sinf jamoasi oʻrtasidagi aloqani mustahkamlashga yordam beradi.

Sinf rahbarining oila va jamoatchilik bilan olib boradigan ishlari oʻquvchilarning ijtimoiy va axloqiy jihatdan rivojlanishiga, oʻquv jarayonidagi muvaffaqiyatlariga, shuningdek, jamoaviy ruhni mustahkamlashga katta yordam beradi. Sinf rahbari oʻquvchilarga shaxsiy va jamoaviy masʼuliyatni oʻrgatishda ota-onalar, jamoat tashkilotlari va keng jamoatchilik bilan hamkorlik qilish orqali taʼlim jarayonini yanada samarali va mazmunli qilishga erishadi.

Savol va topshiriqlar:

1. Jamoa tushunchasini qanday taʼriflash mumkin?
2. Boshlangʻich sinfda jamoaning ahamiyati qanday?

3. Jamoaviy faoliyatning boshlang'ich sinf o'quvchilarining rivojlanishiga ta'siri qanday bo'ladi?
4. Sinfda jamoa shakllanishi uchun qanday shartlar kerak?
5. Jamoa tuzish jarayonida sinf rahbari qanday rol o'ynaydi?
6. Boshlang'ich sinfda jamoa tuzishning asosiy metodik usullari nimalardan iborat?
7. O'quvchilar o'rtasida hamkorlik va bir-birini hurmat qilishni qanday rivojlantirish mumkin?
8. Sinfda jamoa tuzishning ijtimoiy va emosional foydalari nimalardan iborat?
9. Jamoani tashkil etish uchun qanday o'yinlar va faoliyatlar samarali hisoblanadi?
10. Boshlang'ich sinfda jamoaviy ishlarni rejalashtirishda sinf rahbari qanday usullarni qo'llaydi?

Test:

1. Jamoa tushunchasini to'g'ri ta'riflang:
 - a) bir nechta odamning to'plami;
 - b) o'quvchilar o'rtasida o'zaro yordam va hamkorlikda faoliyat yurituvchi guruh;
 - d) har bir o'quvchining o'zi uchun ishlash;
 - e) sinfda faqat o'qish va darslarni bajarish;
2. Boshlang'ich sinfda jamoa tuzishning asosiy maqsadi nima?
 - a) o'quvchilarni faqat yaxshi baholar olishga undash;
 - b) o'quvchilarda jamoaviy ish ko'nikmalarini rivojlantirish;
 - d) o'quvchilarni faqat o'qituvchiga tayanishga o'rgatish;
 - e) har bir o'quvchiga mustaqil ishni o'rgatish;
3. Jamoaviy faoliyatning boshlang'ich sinf o'quvchilarining rivojlanishiga ta'siri qanday bo'ladi?
 - a) har bir o'quvchining faqat o'ziga xos rivojlanishi;
 - b) ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish;
 - d) o'quvchilarning o'zaro raqobatini kuchaytirish;
 - e) o'quvchilarga faqat individual ishni o'rgatish;
4. Sinfda jamoa shakllanishi uchun qanday shartlar kerak?
 - a) o'quvchilarning faqat individual ishlashi;
 - b) o'quvchilarning o'zaro muloqoti va hamkorligi;
 - d) o'quvchilarning faqat o'qituvchi bilan ishlashi;
 - e) o'quvchilarning o'zlari bilan alohida ishlash;

5. Sinf rahbari jamoa tuzishda qanday rol o'ynaydi?
 - a) o'quvchilarga faqat dars o'qitadi;
 - b) o'quvchilarni birlashtirib, ularni jamoaviy ishga yo'naltiradi;
 - d) o'quvchilarning jamoaviy faoliyatini cheklaydi;
 - e) o'quvchilarga mustaqil ishlashni o'rgatadi;
6. Boshlang'ich sinfda jamoa tuzishning asosiy metodik usullari qaysilar?
 - a) yolg'iz o'quvchining ishlashini ta'minlash;
 - b) guruhlar yaratish, o'yinlar, vazifalar orqali hamkorlikni rivojlantirish;
 - d) faoliyatni faqat o'qituvchi boshqarishi;
 - e) har bir o'quvchiga faqat individul faoliyatni taqdim etish;
7. O'quvchilar o'rtasida hamkorlik va bir-birini hurmat qilishni qanday rivojlantirish mumkin?
 - a) har bir o'quvchini faqat o'z shaxsiy ishlariga yo'naltirish;
 - b) jamoaviy ishlarni rag'batlantirish va o'quvchilarni guruhlarga bo'lish;
 - d) o'quvchilarni faqat individual faoliyatga yo'naltirish;
 - e) o'quvchilarni faqat o'qituvchi tomonidan boshqariladigan ishlar bilan cheklash;
8. Sinfda jamoa tuzishning ijtimoiy va emosional foydalari nimalardan iborat?
 - a) o'quvchilarda ijtimoiy o'zgarishlarni kuzatish;
 - b) o'quvchilarni ijtimoiy faoliyatga jalb qilish va ular o'rtasidagi munosabatlarni mustahkamlash;
 - d) faqat o'quvchilarning bilimlarini oshirish;
 - e) har bir o'quvchining o'ziga xos tarzda rivojlanishi;
9. Jamoani tashkil etish uchun qanday o'yinlar va faoliyatlar samarali hisoblanadi?
 - a) o'quvchilarga faqat darslarni o'qish
 - b) jamoaviy o'yinlar va guruh ishlarini tashkil qilish
 - d) har bir o'quvchini alohida ishlashga yo'naltirish
 - e) o'quvchilarga faqat individual sinovlarni berish
10. Boshlang'ich sinfda jamoaviy ishlarni rejalashtirishda sinf rahbari qanday usullarni qo'llaydi?
 - a) o'quvchilarga faqat o'qituvchi tomonidan belgilangan topshiriqlarni bajarish;

- b) o'quvchilarni guruhlarga bo'lish va ularni umumiy maqsadga yo'naltirish;
- d) o'quvchilarga faqat individual ishni berish;
- e) o'quvchilarga faqat individual ishlashni taqdim etish.

“Baxs-munozara” metodi

Muammoli savol: Boshlang'ich sinfda o'quvchilar o'rtasida jamoaviy ruhni shakllantirish va hamkorlikni rivojlantirish uchun qanday metodik yondashuvlar samarali bo'ladi, agar ba'zi o'quvchilar guruh ishlarida passivlik ko'rsatib, faqat o'zlari uchun ishlashni afzal ko'rsalar?

Bu savol o'quvchilarning jamoaviy faoliyatga bo'lgan munosabatini va passiv o'quvchilar bilan ishlashda sinf rahbarining metodik yondashuvlarini o'rganishga yordam beradi.

14-mavzu. Boshlang'ich sinfda sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishda ma'naviy-ma'naviy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari o'rinbosarining ish metodikasi.

Reja:

1. Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarni tashkil qilishda ma'naviyat ishlari bo'yicha direktor o'rinbosarining ish olib borish metodikasi.
2. Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarni tashkil qilishda ma'naviyat ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari shaxsiga bo'lgan talablar.
3. Ma'naviyat ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari va o'quvchilarning o'z-o'zini boshqarish ish metodikasi.

Foydalangan adabiyotlar

1. Mavlonova R., Raxmonqulova N., Normurodova B. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. -T.: Tib-kitob, 2010 y.
2. Ishmuhammedov R., Abduqodir A., Pardayev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar. -T.: Fan va texnologiya, 2010 y.
3. И.А.Олесникова, Н.М.Борытко и др. Воспитательная деятельность педагога. Учебное пособия. М.:Академия, 2006-333 с.
4. Подласый И.П. Педагогика 2-я част -М.: ВЛАДОС, 2003 г.
5. Mirziyoyev Shavkat Miromonovich. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga ko'ramiz. Mazkur kitobdagi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2016-yil 1-noyabrdan 24-noyabrga qadar Qoraqolpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent sharxi saylovchilari vakillari bilan o‘tkazilgan saylovoldi uchrashuvlarida so‘zlagan nutqlari o‘rin olgan. / Sh.M.Mirziyoyev.- Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017.- 488 b.

6. Mirziyoyev.Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi-Toshkent,2021.-458 b.

7. www.pedagog.uz

8. [http://www.allmath.ru//Tayanch tushunchalar.](http://www.allmath.ru//Tayanch_tushunchalar)

1. Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarni tashkil qilishda ma’naviyat ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosarining ish olib borish metodikasi.

1. O‘quvchilarni har tomonlama yetuk, barkamol qilib tarbiyalash masalalarini muvaffaqiyatli hal etish, ularda faol hayotiy mavqeni shakllantirish, o‘zlashtirish va bilim sifatini oshirish ko‘p jihatdan kuni uzaytirilgan guruhlarining samarali ishlashiga bog‘liqdir. Sinfdan va maktabdan tashqari tashkil qilingan ishlar o‘quvchilar hayotidagi tarbiyaviy faoliyatni to‘ldiradi. Ularning dunyoqarashi to‘g‘ri shakllanishiga, axloqiy kamol topishiga ko‘maklashadi. Nazariy bilimlarning amaliyot ishlab chiqarishi bilan bog‘lanishiga zamin yaratadi.

Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarga rahbarlik qiluvchi tashkilotchilarning vazifalari ham ko‘p qirralidir. Ularga quyidagilar kiradi:

1. Darsdan tashqari tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish va amalga oshirishni nazorat qilish.

2. O‘quvchilarning sinfdan va maktabdan tashqari ko‘p qirrali ishlarini o‘quvchilar tashkilotlari va sinf faollari yordamida yo‘lga qo‘yish.

3. Sinfdan va maktabdan tashqari ishlar yo‘nalishiga bevosita rahbarlik qilgan holda o‘qituvchilar, sinf rahbarlari, ota-onalar, sinf faollariga uslubiy yordam ko‘rsatish.

4. Umummaktab va maktablararo o‘tkaziladigan eng muhim tarbiyaviy tadbirlarda qatnashish.

5. O‘quvchilarning bo‘sh vaqtlarini tashkil qilishda tarbiya va madaniyat muassasalari hamda jamoatchilik kuchidan keng foydalanish. Bu borada direktor o‘rinboosari faolligining uchta asosiy

tornonini ko'rish mumkin: tashkilotchilik, uslubiy va ma'muriy. Bular ko'pincha o'zaro uzviy bog'langan holda namoyon bo'ladi. Ma'naviyat ishlari bo'yicha direktor o'rinbosarinig tashkilotchilik faoliyatiga quyidagi bir qator ishlarni ham kiritish mumkin:

a) tarbiyaviy ishlar sohasida erishgan yutuq vakamchiliklarni tahlil qilish;

b) tarbiyaviy ishlarning maqsad va vazifalarini aniqlash;

c) tarbiyaviy, ommaviy, siyosiy ishlarni rejalashtirish va ularning mazmunini, shaki va usullarini aniqlash;

d) sinfdan, maktabdan tashqari ishlarni rejalashtirish, guruhlashtirish va ularning mazmunini, shakl va usullarini aniqlash, boshqaruvchi shaxslarni aniqlash. O'quvchilarning sinfdan tashqari ishlari o'z mazmuniga ko'ra tafakkur faoliyati va munosabat vositasi hisoblanadi. Chunki sinfdan tashqari ishlarda olingan axborot idrok etiladi, qayta ishlanadi. Shu asosda yangi bilimlar hosil qilinadi. O'quvchilar maktabdan tashqari ishlarda qatnashib turli kishilar bilan muayyan munosabatga kirishadilar. Turli vaziyatga duch keladilar. Shuning uchun ham o'quvchilarning maktabdan tashqari faoliyatlari qanchalik xilma-xil bo'lsa, ularning munosabatlari doirasi shunchalik keng va ma'naviy o'sishi samarali bo'ladi. Maktabdan tashqaridagi tarbiyaviy ishlarda o'quvchilar jamoadagi ishlarni o'rganadilar. Ijtimoiy mehnat quvonchini his qiladilar. Ishlab chiqarish mehnatiga qo'shiladilar. Ijtimoiy mehnat faolligiga bo'ysunishga, jamoa sharafi uchun kurashishga o'tlanadilar. Maktabdan tashqari faoliyatga quyidagilar kiradi:

1. *Og'zaki ish usullari*: majlislar, yig'inlar, ma'ruzalar, kutubxonalar, konferensiyalar, munozaralar, uchrashuvlar, gazetalar, radio va jumallar.

2. *Amaliy ish olib borish usullari*: turli joylarga sayyohatlar, sport musobaqalari, tabiatshunoslar to'garaklari, shanbaliklar, yangi kitoblar ko'rgazmalari. Tarbiyaviy ish pedagogikadan butun qobiliyatlarni ishga solishni taqozo etadi. Sinf rahbarligi kursi bilan maktabdan va sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar metodikasi kursi bir-biriga bog'liq va uning davomiyligidir. Yuqoridagi qayd etilgan topshiriqlarni bajarish jarayonida o'quvchilar turli qo'llanmalar, asboblarni, apparatlar, didaktik materiallardan foydalanishni o'rganadilar, o'z-o'zini tekshirish uchun turli ma'lumot va tayanch materiallarini jalb etish ko'nikmalarini egallaydilar.

II. Sinfdan va maktabdan tashqari ishni rejalashtirish bolalarning yosh xususiyatlarini, maktabning joylashgan shartsharoitlarini, ijodiy birlashmalar, ilmiy markazlar bilan o‘zaro aloqasi kabi ishlarni inobatga oladi. Direktor o‘rinbosarining faoliyati o‘z ifodasini topadigan hujjatlar ro‘yxati Xalq ta’limi vazirligi tomonidan doimiy ravishda berib boriladi.

“Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar” konsepsiyasi Xalq ta’limi vazirligi tomonidan 1993-yilda tasdiqlangan. Tarbiyaviy ishlarni davr talabiga javob beradigan holga keltirish uchun tarbiyaning asosi bo‘lgan barcha g‘oyalar qaytadan ishlab chiqiladi.

Sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishda o‘qituvchining yo‘naltiruvchi ta’siri ostidagi o‘quvchilarning o‘z-o‘zini nazorat qilish asosiga qurilgan va fan kabinetlarida, kutubxonada va uyda yakka tartibdagi reja asosida o‘tkaziladigan mustaqil mashg‘ulotlar yetakchi shaklga aylanishi kerak. Bunda sinfdan tashqari ishda ta’limning moddiy bazasi: qo‘shimcha va ma’lumotnoma adabiyotlari, laboratoriya uskunalari, ko‘rgazmali qo‘llanmalar, didaktik materiallar, texnika vositalaridan oqilona tashqari faoliyatga quyidagilar kiradi:

1. *Og‘zaki ish usullari:* majlislar, yig‘inlar, ma’ruzalar, kutubxonalar, konferensiyalar, munozaralar, uchrashuvlar, gazetalar, radio va jumallar.

2. *Amaliy ish olib borish usullari:* turli joylarga sayyohatlar, sport musobaqalari, tabiatshunoslar to‘garaklari, shanbaliklar, yangi kitoblar ko‘rgazmalari.

Tarbiyaviy ish pedagogikadan butun qobiliyatlarni ishga solishni taqozo etadi. Sinf rahbarligi kursi bilan maktabdan va sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar metodikasi kursi bir-biriga bog‘liq va lining davomiyligidir. Yuqoridagi qayd etilgan topshiriqlarni bajarish jarayonida o‘quvchilar turli qo‘llanmalar, asboblarni, apparatlar, didaktik materiallardan foydalanishni o‘rganadilar, o‘z-o‘zini tekshirish uchun turli ma’lumot va tayanch materiallarini jalb etish ko‘nikmalarini egallaydilar.

II. Sinfdan va maktabdan tashqari ishni rejalashtirish bolalarning yosh xususiyatlarini, maktabning joylashgan shartsharoitlarini, ijodiy birlashmalar, ilmiy markazlar bilan o‘zaro aloqasi kabi ishlarni inobatga oladi. Direktor o‘rinbosarining faoliyati o‘z ifodasini topadigan hujjatlar ro‘yxati Xalq ta’limi vazirligi tomonidan doimiy ravishda berib boriladi. «Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar» konsepsiyasi Xalq ta’limi vazirligi tomonidan 1993-yilda

tasdiqlangan. Tarbiyaviy ishlarni davr talabiga javob beradigan holga keltirish uchun tarbiyaning asosi bo'lgan barcha g'oyalar qaytadan ishlab chiqiladi. Sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishda o'qituvchining yo'naltiruvchi ta'siri ostidagi o'quvchilarning o'z-o'zini nazorat qilish asosiga qurilgan va fan kabinetlarida, kutubxonada va uyda yakka tartibdagi reja asosida o'tkaziladigan mustaqil mashg'ulotlar yetakchi shaklga aylanishi kerak. Bunda sinfdan tashqari ishda ta'limning moddiy bazasi: qo'shimcha va ma'lumotnoma adabiyotlari, laboratoriya uskunalari, ko'rgazmali qo'llanmalar, didaktik materiallar, texnika vositalaridan oqilona foydalanish ko'zda tutiladi. Ular o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- darslik va qo'shimcha adabiyotlar bilan ishlashning xilma-xil shakllarini olgan, nazariy bilimlarni o'zlashtirishni ta'minlovchi;

- tajribalar, ijodiy tushdagi ishlarni bajarishni, asboblarni loyihalashni, maketlar, modellar va hokazolarni tayyorlashni olgan mustaqil ishlash uchun topshiriqlar tizimi maqsadga muvofiqdir.

Sinfdan va maktabdan tashqari ishlar metodikasi fani va bo'limiga sinf rahbarlarining ishlari, maktab ma'muriyatining tarbiyaviy ishlari kiritiladi. Bunda o'qituvchilarning o'quvchilar bilan muomilasi adolatli bo'lishi, kerakli ta'sir ko'rsata olishi kerak. O'quvchi yoshlarni hozirgi zamon ma'naviyati bilan ongini sug'orishi, ya'ni singdirishi kerak. O'quvchilarni qadriyatlarimiz asosida, urf-an'analarimiz asosida tarbiyalash har bir o'qituvchining vazifasidir.

Sinfdan va maktabdan tashqari ishlar metodikasi fani va bo'limiga sinf rahbarlarining ishlari, maktab ma'muriyatining tarbiyaviy ishlari kiritiladi. Bunda o'qituvchilarning o'quvchilar bilan muomilasi adolatli bo'lishi, kerakli ta'sir ko'rsata olishi kerak.

O'quvchi yoshlarni hozirgi zamon ma'naviyati bilan ongini sug'orishi, ya'ni singdirishi kerak. O'quvchilarni qadriyatlarimiz asosida, urf-an'analarimiz asosida tarbiyalash har bir o'qituvchining vazifasidir.

O'quvchi atrofini o'rab turgan vositalar, yaxshi-yomon odatlar, o'qituvchilar, maktabning muhiti. o'quvchilar tarbiyasini to'g'ri, ongli ravishda o'rganishi va qabul qilishi lozim. Sinfdan tashqari ishlarni to'la qamrab olgan to'garaklar bir necha xilda bo'lishi mumkin:

1. Fan to'garaklari.
2. Muhojir qo'llar.
3. Duradgorlik.

4. Sport musobaqalari.

5. Badiiy havaskorlik.

Bunda asosiy e'tibor bola shaxsiga qaratilishi, yillar davornida to'plangan ijobiy tajribadan unumli foydalanish zarur.

Tarbiyaning bosh maqsadi yosh avlodni ma'naviy, axloqiy tarbiyalashda xalqning boy, milliy ma'naviy an'analarga, urf-odatlariga hamda qadriyatlariga asoslangan samarali tashkiliy ishlarni amalga oshirishdir.

Tarbiyaning aso shaxsni aqliy-axloqiy tarbiyalashda erkin fikrlovchi va jismoniy rivojlanishi, uning qobiliyatlarini har tomonlama ochish uchun imkoniyat yaratishdir. Tarbiyaviy ishlarni rejalashtirishda bir qator pedagogik talablar qo'yiladi. Maktabdan tashqari ta'lim muassasalarining to'garak qatnashchilari ongida yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlar mujassamlashgan bo'lishi kerak. To'garak qatnashchilarini doimiy ravishda fan va madaniyatning so'nggi yutuqlaridan xabardor qilib turish, ular ongini ijodiy ishlar va tarbiyaviy tadbirlar bilan band qilish muhim o'rin tutadi. To'garak qatnashchilarida mustaqillik tushunchasi shakllangan bo'lishi, ular davlatimiz ramzlarini, madhiyasini, urf-odatlarimizni yaxshi bilishi kerak. Maktabdan tashqari ta'lim o'qishlariga, xohishlariga asoslangan holda darsdan bo'sh vaqtlarda o'quv-tarbiya jarayonini to'ldiradi va quyidagi yo'nalishlar bo'yicha to'garak qatnashchilariga talablar qo'yilishi kerak:

1. Vatanga muhabbat, komil inson tarbiyasi.

2. Estetik ta'lim.

3. Sayyohlik yo'nalishi bo'yicha to'garaklarga qatnashish.

4. Ekologik ta'lim yo'nalishi bo'yicha to'garaklar.

5. O'quvchilarning ma'naviy-axloqiy yo'nalishi bo'yicha.

6. Huquqiy ta'lim yo'nalishi bo'yicha.

7. Texnik ijodkorlik yo'nalishi bo'yicha.

8. Istiqloq bolalari va iste'dodli yoshlar.

9. Iqtisodiy ta'lim.

Maktabda va sinfdan tashqari ishlar jarayonida o'quvchilarning bir-biriga hurmati, axloqiy sifatleri jamoa orasida shakllanib boradi. Bunda o'quvchilarning bir-biriga bo'lgan muomala madaniyati ham shakllanadi. O'quvchi o'qituvchiga taqlid asosida yoki do'stlari orasida o'rgangan tarbiyasi muomilasiga ta'sir qilishi mumkin. O'qituvchi o'quvchilar orasida muomala madaniyatini shakllantirish uchun

avvalambor o'quvchining o'ziga bo'lgan muomalasini, e'tiborini o'rganishi kerak.

O'quvchi maktab qoidalariga rioya qilish bilan birga, o'qituvchi talabiga hamjavob berishi lozim. O'qituvchi talablariga quyidagilar kiradi:

- a) darslarga to'liq qatnashish;
- b) o'quv qurollari bilan ta'minlanganligi;
- d) o'qituvchini diqqat bilan eshitish;
- e) topshiriqlarni o'z vaqtida bajarish;
- f) tashkiliy ishlarga faol qatnashish;
- g) sinf intizomiga rioya qilish;
- f) tozalikka rioya qilish.

Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarni nazoratsiz ijro etish holati rasmiy ijrochilik, ishtiyoq va havas bilan mehnat qilishni istamasligini yashirishga intilayotgan o'quvchilarda kuzatiladi. Bunday holatning uzoq vaqt mavjud bo'lishiga yo'l qo'yib bo'lmaydi, aks holda o'quvchilarda ishiga nisbatan rasmiy munosabat jihatlari paydo bo'ladi, bu esa ularning mehnatdagi tashqi faolligini yo'qqa chiqaradi.

Sinfdan va maktabdan tashqaridagi ishlarda o'quvchilarning xatti-harakatlari oldindan juda qattiq tartibga solib qo'yilganligi xususida e'tirozlar bildirilmoqda. Mustaqillikni tarbiyalash vazifasi qo'yilmagan, bolaning har bir qadami pedagogning irodasiga bo'ysungan joylarda ana shunday holat mavjud. Xu bo'ladi. Shuning uchun mustaqil tayyorgarlik samaradorligi, o'quvchilarning mustaqilligini rivojlantirish to'g'risida g'arnxo'rlik qiladigan o'qituvchi, sinfrahbari o'quvchilarga ta'sir ko'rsatish vositalarini puxta o'ylab tanlaydilar, ularning ishlashi uchun oqilona shart-sharoit yaratishga intiladilar.

Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarda o'quvchilarni ayrim ko'nikmalarga o'rgatishni nazorat vositasi deb hisoblash kerak. O'z-o'zini tekshirish, o'zaro tekshirish usullariga o'rgatish o'qituvchining o'quvchilar bilan shunday aloqasini talab etadiki, bunda ularning fikrlash jarayoni ravshan bo'ladi. O'quvchilarning o'zlari harakatni taklif etadilar va shu bilan pedagogga muayan ma'lumot beradilar.

Sinfdan va maktabdan tashqari tashkil qilingan ishlar o'quvchilar hayotidagi tarbiyaviy faoliyatni to'ldiradi. Ularning dunyoqarashi to'g'ri shakllanishiga va axloqiy kamol topishiga ko'maklashadi. Nazariy bilimlarni amaliyot ishiab chiqarishi bilan bog'lanishga zamin yaratadi.

Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarni maktabning ma'naviy-ma'rifiy ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari reja asosida olib boradi va uning bajarilishini ham nazorat qilib boradi. Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarning ish rejasida maktabning umumiy rejasi, o'qituvchilar, sinf rahbarlari, yetakchi ota-onalar qo'mitasi ish rejalari ham e'tiborga olinishi kerak.

Ish reja maktab direktori tomonidan tasdiqlanadi. Ish rejasida bolalarning yosh xususiyatlari, maktabning joylashgan shartsharoiti, ijodiy birlashmalar, ilmiy markazlar bilan o'zaro tarqalgan aloqasi kabi ishlar inobatga olinadi. Direktor o'rinbosarining faoliyati o'z ifodasini topgan hujjatlar ro'yxati Xalq ta'limi vazirligi tomonidan doimiy ravishda berib boriladi. A.Jo'raevning "Tarbiyaviy darslarni o'tish" risolasida mustaqillik g'oyasi bilan bog'langan tarbiyaviy tadbirlar, qonunlarga asosiyan qoidalar berilgan. Ijodkor rahbar hamda ilg'or o'qituvchi, tarbiyachilar o'z faoliyatlari jarayonida tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishda quyidagi tamoyillarni asos qilib oladilar:

- tarbiyaviy tadbirlarni o'tkazish;
- ma'naviyatni yosh avlod ongiga singdirish e'tiqodga aylantirishdan iborat ekanligi;
- tarbiya jarayonini milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan bog'lab, bola qalbiga va ongiga ta'sir ko'rsatish;
- tarbiyaviy ishlarni o'qituvchilar jamoasini jipslashtiruvchi omillar bilan boyitib, tarbiyaning ta'lim bilan uzviyligini ta'minlash;
- tarbiyaviy jarayonda bolalarni tarbiyalash darajasini aniqlash va ijobiy tomonlarini o'stirish;
- bola shaxsiga hurmat va talabchanlik;
- bolalarning yosh va ruhiy holatini hisobga olish;
- tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish tomonlari barkamol insonni tarbiyalashda keng imkoniyatlarga ega bo'lib, uni qay darajada olib borish sinf rahbari va tarbiyachining pedagogik mohiyatiga bog'liq.

2. Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarni tashkil qilishda ma'naviyat ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari shaxsiga bo'lgan talablar.

Direktor o'rinbosari o'qituvchilarga nisbatan mehr va muhabbat, pedagogik jamoasiga va ota-onalarga nisbatan talabchan bo'lgan holda ish tutib, muntazam o'z ustida ishlab, sabr-bardoshli bo'lib, o'z fikrlarini puxta bayon qilib, o'zgalarni o'ziga jalb qila oladigan xislatlarni o'ziga mujassamlaydi. Davlat va hukumatimiz tomonidan

qabul qilingan barcha hujjatlar mohiyatini, Prezident asarlarini yaxshi bilishi, uni o'quvchi-yoshlar orasida targ'ib eta olishi, xalq pedagogikasi an'analarini, o'zbek xalqi milliy urf-odatlarini, qadriyatlarini, allomalar o'gitlarini yaxshi bilishlari lozim. Shuninhgdek, u:

- mamlakatimizning ichki va tashqi siyosatini yaxshi bilishi va doimo uni o'z faoliyatida hisobga olishi, tarbiyaviy ishlarni tashkil etishning ilmiy asoslari hamda yangicha usul va metodlarini yaxshi bilishi;

- radio, televidenie va ommaviy axborotning boshqa vositalari orqali berilgan eng so'nggi yangiliklardan boxabar bo'lishi hamda ularning mohiyatini o'quvchilarga etkaza olishi;

- sinfdan tashqari tadbirlarni tayyorlash va o'tkaza bilishi;

- tuman, shahar, viloyat, respublika miqyosida o'tkaziladigan tadbirlarda ishtirok etishi;

- maktabda o'quvchilar bilan tarbiyaviy ishlarni olib borayotganlarga metodik tavsiyalar berib borishi;

- muntazam ravishda o'z malakasini oshirib turishi, o'z sohasi bo'yicha o'tkaziladigan seminarlarda ishtirok etishi lozim.

Direktor o'rinbosarining huquqlari. Nizomda belgilangan vazifalar bilan bog'liq ravishda tegishli pedagogik xodimlarga ko'rsatma beradi. Xizmat vazifasi doirasidan kelib chiqqan holda sinfdan va maktabdan tashqari ishlarni tashkil etish va yangi to'garaklarni ochish masalalarini hal qiladi. Direktor o'rinbosari:

- sinf rahbarining ta'lim-tarbiya ishlari bo'yicha erishgan yutuqlarini hisobga olib, uni taqdirlash uchun direktorga taklif kiritish;

- sinf rahbarlarining o'z vazifasiga nisbatan mas'uliyatsizligi yoki uni suiiste'mol qilganligi uchun direktor bilan kelishilgan holda tanbeh berish;

- bolani yaxshi tarbiyalagan ota-onalarni, maktabga yordam bergan mahalla faollarini taqdirlash uchun direktorga taklif berish huquqiga ega.

Direktor o'rinbosari bilan quyidagi ishlar kelishilishi kerak:

- sinf rahbarlari ish rejasini direktor bilan hamkorlikda tasdiqlash;

- maktabda o'tkaziladigan sport musobaqalari rejasini direktor bilan hamkorlikda tasdiqlash;

- turli xildagi to'garak ishlari rejasini direktor bilan hamkorlikda tasdiqlash;

- maktabning jarnoat tashkilotlari, otaliq qiluvchi korxonalar bilan aloqasini mustahkamlash;
- bolalar nazoratsizligi va qonun buzilishining oldini olish;
- yashash joyi bo'yicha bola laming bo'sh vaqtini tashkil etish;
- o'quvchilaming oilalariga borish va bolalami tarbiyalashda ularga yordam berish;
- yosh avlodning Vatanga, jamiyatga va mehnatga, o'ziga va odamlarga munosabatini anglab olishga qaratilgan axloqiy tuyg'ularini tarbiyalash.

Tarbiyaviy ishlar bolalarning kundalik hayotidan olingan aniq dalillar va voqealarni, badiiy adabiyot, vaqtli matbuot, kinofilmlardan olingan misollarni tahlil etish hamda muhokama qilish asosida o'tkaziladi. Bu ishlarning xususiyati shundaki, bu bolalami o'zining axloqiy xatti-harakatlari haqida mulohaza yuritishga va ularga to'g'ri baho berishga o'rgatadi.

Sinf dan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar o'quvchilaming darsdan bo'sh vaqtlaridagi o'quv-tarbiya jarayonini to'ldiradi va kengaytiradi, o'quvchilaming mustaqil bilim olishlariga, ijobiy qobiliyatlarini, tashabbuskorligini oshirishiga imkoniyat yaratadi.

Shu sababli keyingi davrda o'quvchilaming darsdan tashqari vaqtlarini ko'ngilli uyishtirishga alohida ahamiyat berilmoqda. Sinf jamoasi bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlaming hajmi, asosiy yo'nalishlari, mazmuni har bir yosh bosqichida o'quvchilaming psixik rivojlanishi darajasiga mos kelishi lozim.

Tarbiyaviy ish pedagogdan butun qobiliyatini ishga solishni, tinmay izlanishni taqozo etadi. Chunki kelajak avlod tarbiyalangan, ahil, jonajon Vatanimizning haqiqiy fuqarolari bo'lishi kerak.

Maktabda bashlang'ich sinflarda tarbiyaviy ishlarni olib borish, uni yo'lga qo'yish sinf rahbari yoki tarbiyaviy ishlar tashkilotchilari tomonidan uyushtiriladi. Tarbiyaviy ishning asosiy yo'nalishlari: o'quvchilarda ilmiy dunyoqarash asoslarini shakllantirish;

- ularni milliy istiqlol ruhida tarbiyalash; o'quvchilaming ijtimoiy foydali mehnatini tashkil etish;
- o'quvchilarda axloq madaniyatini, ularning o'z huquq va burchlariga nisbatan ongli munosabatini tarbiyalash;
- o'quvchilarda o'z-o'zini boshqarish malakalarini shakllantirishdan iborat.

Boshlang'ich sinf o'quvchisi va sinf rahbari faoliyatining asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarning ahil tarbiyaliy jamoasini tashkil etishdir.

Boshlang'ich jamoa ishi shunday quriladiki, unda sinfnings boshqa jamoalar bilan aloqasi doimiy ravishda amalga oshiriladi, umummaktab an'analari saqlanadi. Boshlang'ich jamoa o'qituvchi-tarbiyachi va sinf rahbari, o'quvchilar o'z-o'zini boshqarish organlari rahbarligida umummaktab ijtimoiy-foydali ishlari faoliyatida ishtirok etadi. O'qituvchi va sinf rahbari sog'lom, ahil bolalar jamoasini shakllantirish bilan birga doimiy bolalar qiziqishlarini qo'llab quvvatlaydilar, ularning ijtimoiy foydali faoliyatini yo'naltirib boradilar.

Kichik yoshli o'quvchilar juda faol va harakatchan bo'ladilar. Faollikka intilish btl yoshdagi bolaning organik ehtiyoji. Biroq bunda bolalar hali yetarli hayotiy tajribaga ega bo'lmaydi va kundalik pedagogik rahbarlikka ehtiyoj sezadi. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi bolaning ilk maktabdagi qadamidanoq tarbiyaviy ishning chinakam jamoatchilik munosabatlarini yaratishga zo'r imkoniyat beradigan, bolalarda bir-birlariga g'amxo'r munosabatda bo'lishni tarbiyalaydigan, individual qobiliyatlarini rivojlantirish uchun qulay imkoniyatlar yaratadigan usullarni tanlaydi. O'qituvchi boshlang'ich sinflarda bolalarga o'zlarini qiziqtiruvchi faoliyat turini tanlashga yordam beradi. Biroq ko'pincha kichik yoshdagi o'quvchilar, yosh xususiyatlariga ko'ra, o'z xususiyatlarini to'g'ri baholay olmaydilar.

Bolalarning o'sishi, ular jamoatchilik malaka va ko'nikmalarining shakllanib borishi o'qituvchi-tarbiyachining bolalar jamoasiga rahbarlik qilishidagi jarayonini o'zgartirib boradi.

O'qituvchi boshlang'ich sinflardayoq ahil bolalar jamoasini yaratish asosida sog'lom jamoatchilik fikrini yaratadi. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining bolalar tarbiyaviy jamoasini yaratish sohasidagi ishini yuqori sinfiy o'quvchilarning sinf rahbarlari davom ettiradilar. Tarbiyaning tabiiy sharoitida, ularning jamoa faoliyati jarayonida o'rganadilar.

Sinfdan tashqari ish o'quvchilarga biror maqsadga qaratilgan pedagogik ta'sir vaqtini uzaytiradi. U o'qituvchiga o'quvchilarning darslarda egallagan bilimlarini kengaytirish va chuqurlashtirish, bolalarning qobiliyatini rivojlantirish, ularning xilma-xil qiziqishlarini qondirish, madaniy dam olishlarini uyushtirish imkonini beradi. Sinfdan tashqari ish bolalarni jamiyat hayotiga jalb qilishning katta imkoniyatlariga ega.

3. Ma'naviyat ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari va o'quvchilarning o'z-o'zini boshqarish ish metodikasi.

Ma'naviyat ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "Ta'lim to'g'risida"gi qonun, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, Prezident farmonlari, hukumat qarorlari, Xalq ta'limi vazirligi va boshqa yuqori tashkilotlarning qaror, buyruq va me'yoriy hujjatlari talablari asosida ish olib boradi. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ma'naviyat ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari ota-onalar hamda keng jamoatchilik bilan hamkorlikda o'quvchi-yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ulami ona Vataniga, xalqiga va uning bugungi bunyodkorlik ishiga ehtirom bilan qarash ruhida tarbiyalashga rahbarlik qiladi. Ma'naviyat ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari lavozimiga kamida 5 yil pedagogik ish tajriga ega bo'lgan qobiliyatli, mahalla, ota-onalar va keng jamoatchilik o'rtasida hunnate'tiborga loyiq bo'lganlar tuman (shahar) Xalq ta'limi bo'limi tomonidan tayinlanadi va bo'shatiladi. Ijtimoiy yuksak ma'naviy fazilatlarini kamol toptirish, milliy mafkurani shakllantirish, yoshlarni boy tarixiy va madaniy merosimiz, milliy an'analarimizga, umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, Vatanga muhabbat, istiqloq g'oyalarga sadoqat ruhida tarbiyalash, keng fikrli, sog'lom, jismoniy, aqliy va ma'naviy jihatdan barkamol, iqtisodiy islohotlarning mohiyatini tushunadigan hamda ularni yangi ijtimoiy munosabatlar orqali hayotga tatbiq eta oladigan, milliy g'oya va istiqloq mafkurasi mustahkam bo'lgan shaxslarni shakllantirish direktor o'rinbosari faoliyati maqsadining asosini tashkil etadi.

O'quvchi-yoshlar dunyoqarashini shakllantirishda milliy va umuminsoniy qadriyatlar, xalqimizning boy tarixiy, madaniy va ma'naviy merosi asosida, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, insonparvarlik, imon-e'tiqod, mehr-shafqatlilik kabi insoniy fazilatlar misolida har tomonlama barkamol avlodni tarbiyalaydi.

Direktor o'rinbosari tarbiyaviy ishlarini rejalashtirishda sinf rahbarlarining qiziqishlari, topshiriqlarni qay darajada bajara olishlarini hisobga oladi. O'quvchilarning o'z-o'zini idora qilish organlari faoliyatida qatnashuvi ularning ijtimoiy faollik sifatlarini shakllantirishning ta'sirchan vositasidir. Bu bolalar va o'smirlarning fuqarolik, demokratiya borasidagi tushunchalarini kengaytiradi.

O'z-o'zini idora qilish - tashabbuskorlik va mustaqillik maktabidir. O'quvchilarning o'z-o'zini boshqaruvi o'quvchilar tomonidan fan va mashg'ulotlarning to'liq o'zlashtirilishiga, biror kasb

o'rganishiga, Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalanishiga, Vatan himoyachisi bo'lishiga, maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarda, davlat, jamoat mulkini ko'z qorachig'iday asrashga, tabiatni muhofaza etishga ko'maklashadi. O'z-o'zini boshqarish o'quvchilarni mustaqil hayotga, turmush va jamiyatga mos qilib tarbiyalashda, ta'lim muassasasida ma'naviy muhitni saqlashda, ma'muriyatga qo'shimcha ta'lim olish uchtm o'quvchilar talabnomasini shakllantirishda ko'maklashadi. O'quvchilar o'z-o'zini boshqaruvi a'zolari maktab va maktabdan tashqari ta'lim muassasalarida o'tkazilayotgan barcha tadbirlarda, tanlovlarda, xonalarni jihozlashda faot ishtirok etadilar.

Mazkur boshqaruv tashkilotchilik ishi ko'nikmalatini tarbiyalaydi, umumiy g'oyalari bilan ahil, jipslashgan o'quvchilar jamoasini tuzadi. O'quvchilar o'z-o'zini idora qilish tizimi maktab o'quvchilari (jamoasi) tomonidan o'zining faoliyatida demokratik faoliyat tarzlarini chuqur o'zlashtirish uchun qulay sharoitlar yaratadi. Bu to'g'ri taqsimlash, ijro'lstidan hisobot va nazoratni yo'lga qo'yish, harakatlar, tashabbuskorlikning uyg'unligini ta'minlash, musobaqalar uyushtirish, o'z zimmasiga mas'uliyat olish kabi ko'nikmalardan iborat. Tarbiyalanuvchilar davrimiz kishisi uchun zarur bo'lgan qator axloqiy sifatلامي, chunonchi, jamoat ishiga va unga qo'shadigan ulushi uchun shaxsiy mas'uliyat, jamoa manfaatlariga sodiqlik. o'zaro munosabatlarda qat'iylik, talabchanlik, jamoat tashabbusini qo'llab-quvvatlash kabi sifatلامي egallaydi.

Maktabda o'quvchilaming mustaqil faoliyati, barcha pedagogik jamoa bu ishga ma'naviy tayyor bo'lsagina, o'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasida o'zaro chuqur hurmat, xayrixohlik, ishonch bo'lgan sharoitdagina tashkil etilishi mumkin. Hech qanday soxtalik va sun'iylik bo'lmasligi kerak.

Barcha o'z-o'zini idora qilish tashkilotlari o'z faoliyati yuzasidan vaqti-vaqtida hisobot berib turishi, so'z va ish birligi saqlanishi, har kim huquqlari va vazifalarini bajarishda ijtimoiy rag'batlantirilishi e'tiborda bo'lishi kerak. Bunda, albatta, bolalaming Respublika bolalar va o'smirlar uyushmalari bilan hamkorligi katta ahamiyatga egadir.

Savol va topshiriqlar:

1. Direktor o'rinbosarining ma'naviy-ma'naviy ishlar bo'yicha asosiy vazifalari nimalardan iborat?

2. Boshlang'ich sinfda ma'naviy tarbiyaning ahamiyati qanday?
3. Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar qanday shakllarda o'tkazilishi kerak?
4. Ma'naviy tarbiyani rivojlantirishda sinfdan tashqari faoliyatlarning o'rni qanday?
5. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviy-ma'naviy tarbiyasini shakllantirishda qanday metodik yondashuvlar qo'llanilishi lozim?
6. Maktabda tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil etish uchun direktor o'rinbosari qanday tashkilotiy chora-tadbirlar ko'rishi kerak?
7. O'quvchilarning ma'naviy qadriyatlarini shakllantirishda ota-onalar bilan hamkorlik qanday amalga oshirilishi mumkin?
8. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining axloqiy tarbiyasini rivojlantirishda interfaol metodlar qanday qo'llaniladi?
9. Sinfdan tashqari tadbirlarni tashkil etishda ma'naviy maqsadlarni amalga oshirishda qanday usullar samarali hisoblanadi?
10. Direktor o'rinbosarining ma'naviy-ma'naviy ishlar bo'yicha metodik qo'llanmasi qanday tarkibga ega bo'lishi kerak?

Test:


1. Direktor o'rinbosarining ma'naviy-ma'naviy ishlar bo'yicha asosiy vazifasi nima?
2. a) o'quvchilarga fanlarni o'rgatish;
3. b) o'quvchilarning tarbiyasini, axloqiy va ma'naviy o'sishini ta'minlash;
4. d) maktabni ta'mirlash;
5. e) o'quvchilarni sinovlardan o'tkazish;
2. Boshlang'ich sinfda ma'naviy tarbiya qaysi jihatga e'tibor berish zarur?
3. a) o'quvchilarning o'qish muvaffaqiyatiga;
4. b) o'quvchilarning ijtimoiy va axloqiy qadriyatlarini shakllantirishga;
5. d) faqat akademik bilimlarga;
6. e) faqat sport bilan shug'ullanishga;
3. Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar qanday shakllarda o'tkazilishi mumkin?
4. a) faqat dars mashg'ulotlari;
5. b) sport musobaqalari va san'at tadbirlari;
6. d) faqat psixologik mashg'ulotlar;

7. e) o'qish bilan bog'liq barcha tadbirlar;
4. Ma'naviy tarbiya ishlari qanday metodik yondashuvni talab qiladi?
5. a) pasaytirilgan talablar;
6. b) integratsiyalashgan yondashuvlar;
7. d) faqat nazariy ta'lim;
8. e) eng ko'p bilim beruvchi metod;
5. Direktor o'rinbosarining ma'naviy tarbiyani samarali tashkil etishdagi roli qanday?
6. a) o'quvchilarni faqat fanlar bo'yicha baholash;
7. b) sinfdan tashqari faoliyatlar va tadbirlarni muvofiqlashtirish;
8. d) faqat o'qituvchilarni baholash;
9. e) sport tadbirlarini tashkil etish;
6. O'quvchilarning ma'naviy qadriyatlarini shakllantirishda ota-onalar bilan qanday hamkorlik qilinadi?
7. a) faqat ota-onalarni o'qitishga chaqirish;
8. b) ota-onalar bilan muntazam uchrashuvlar va maslahatlardagi hamkorlik;
9. d) ota-onalarga faqat sinf bilan bog'liq maslahatlar berish;
10. e) ota-onalarni sinfdan tashqari ishlar bilan aloqada tutmaslik;
7. Axloqiy tarbiyani rivojlantirishda qanday metodlar samarali hisoblanadi?
8. a) o'quvchilarga faqat nazariy bilim berish;
9. b) o'quvchilarga amaliy mashg'ulotlar va ishlar orqali axloqiy masalalarni muhokama qilish;
10. d) sport bilan shug'ullanishni kuchaytirish;
11. e) faqat darsliklardan foydalanish;
8. Sinfdan tashqari tadbirlarni tashkil etishda ma'naviy maqsadlarni amalga oshirish uchun qaysi usul samarali?
9. a) eng ko'p sport tadbirlarini o'tkazish;
10. b) o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlovchi ijodiy va interfaol faoliyatlarni tashkil etish;
11. d) faqat akademik musobaqalar
12. e) yuzaki ma'naviy darslar;
9. Ma'naviy tarbiyani rivojlantirishda o'qituvchilar va direktor o'rinbosarining o'zaro hamkorligi qanday bo'lishi kerak?
10. a) o'qituvchilar va direktor o'rinbosari bir-biridan mustaqil ishlashi kerak;

11. b) o'qituvchilar va direktor o'rinbosari birgalikda tarbiyaviy tadbirlarni rejalashtirib, amalga oshirishi kerak;
12. d) faqat o'qituvchilar mas'ul bo'lishi kerak;
13. e) faqat direktor o'rinbosari barchani boshqarishi kerak;
10. Direktor o'rinbosarining ma'naviy-ma'naviy ishlar bo'yicha metodik qo'llanmasida qanday maqsadlar ko'rsatiladi?
11. a) faqat o'quvchilarning darsdagi muvaffaqiyatini oshirish;
12. b) o'quvchilarning ma'naviy, axloqiy, ijtimoiy rivojlanishini ta'minlash;
13. d) maktabni qurish va ta'mirlash;
14. e) sinfdan tashqari faqat sport musobaqalarini o'tkazish.

“Venn diagramma” metodi

Sinf rahbari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosarining sinfdan tashqari ishlarni tashkillashtirishdagi vazaifalarni ushbu Ven diagrammasida izohlang.



15-mavzu. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi ota-onalar bilan ishlash metodikasi.

Reja:

10. Ota-onalar majlisini tashkil qilish.
11. Ota-onalarga pedagogik bilim berish.
12. Ota-onalar uchun ma'ruzalar tashkil etishning shakllari.
13. Oilada tarbiya masalalari.
14. Ota-onalarning o'zaro munosabat tarbiyasi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

60. Mavlonova R., Raxmonqulova N., Normurodova B. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. -T.: Tib-kitob, 2010 y.

61. Ishmuhammedov R., Abduqodir A., Pardayev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar. -T.: Fan va texnologiya, 2010 y.

62. Олесникова.И.А, Н.М.Борытко и др. Воспитательная деятельность педагога. Учебное пособия. М.:Академия, 2006-333 с.

63. Подласый И.П. Педагогика 2-я част -М.: ВЛАДОС, 2003 г.

64. Mirziyoyev Shavkat Miromonovich. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga ko‘ramiz. Mazkur kitobdagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2016-yil 1-noyabrdan 24-noyabrga qadar Qoraqolpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent sharxi saylovchilari vakillari bilan o‘tkazilgan saylovoldi uchrashuvlarida so‘zlagan nutqlari o‘rin olgan. / Sh.M.Mirziyoyev.- Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017.- 488 b.

65. hppt://www.ziyonet.uz/

66. www.relarn.ru/conf2007

1. Ota-onalar majlisini tashkil qilish.

Oila – kishilarning nikoh yoki qon-qarindoshlik rishtalari, umumiy turmush tarzi, axloqiy mas‘uliyat hamda o‘zaro yordamga asoslanuvchi kichik guruhi.

Ota-onalar yoki bolaning kamoloti uchun mas‘ul bo‘lgan shaxslar (buva-buvilar) hamda farzandlar o‘rtasida turli yo‘nalishlarda tashkil etiluvchi Munosabatlardir. Oilaviy munosabatlar farzandlarning aqliy, ruhiy kamolotini ta‘minlab, ota-onalarda o‘ziga xos faollikni ham yuzaga keltiradi. Xususan, farzandlar-ning bevosita ta‘siri tufayli ularning qiziqish hamda faoliyatlari doirasi kengayadi, o‘zaro aloqalari mazmunan boyib boradi, real hayot mohiyatini chuqurroq anglash, ya‘ni, farzandlar kamoloti, kelajagi timsolida o‘z umri davomiyligini ko‘rish holati ro‘y beradi. Oilaviy Munosabatlar – Jamiyat taraqqiyotining rivoji esa uning bag‘rida mavjud bo‘lgan oilalarning ijtimoiy-iqtisodiy va ma‘naviy qiyofasining shakllanganlik darajasiga bevosita bog‘liqdir. Chunonchi, ijtimoiy borliqning oilalar zimmasiga qo‘yadigan talablari ularning manfaatlariga zid bo‘lmasa, aksincha, oilalar farovonligi, tinchligini ta‘minlashga yordam bersa, oilalar tomonidan ijtimoiy talablarning qo‘llabquvvatlanishi, ularning amaldagi ijrosini ta‘minlash ko‘rsatkichi shuncha yuqori bo‘ladi.

Sinf rahbari maktabda va keng jamoatchilik orasida sinf o'quvchilarining (ota-onalar bilan birgalikda) tarbiyalanganlik darajasiga javobgar shaxs.

Maqsadi – har tomonlama yetuk , barkamol, ma'naviy, aqliy, jismoniy rivojlangan shaxs tarbiyasini amalga oshirish, sinf o'quvchilari qobiliyatlarini to'liq namoyon etishlari uchun yetuk pedagogik sharoit yaratishdir. Bu borada maktab pedagogik va o'quvchilar jamoasi hamkorligida tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda har bir o'quvchining o'ziga xos xususiyatlariga qarab yondashishni yo'lga qo'yadi.

Sinf rahbari faoliyati. Sinf rahbarlari o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va Qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati va Qonunchilik palatasi qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining hujjatlariga, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirining buyruqlariga, "Sinf rahbarlari faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi nizomga va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq amalga oshiradi.

Ota-onalar yig'ilishi. Ota-onalar yig'ilishi – bu ota-onalar bilan birgalikdagi ishning asosiy shakli bo'lib, u yerda sinf jamoasining hayoti, o'quvchilarni maktabda va uyda tarbiyalashning eng muhim masalalari bo'yicha qarorlar muhokama qilinadi va qabul qilinadi.

Maqsadi – bolaning ma'naviy boy, axloqiy jihatdan sof va jismonan sog'lom shaxs bo'lib voyaga yetishi uchun sharoit yaratishda maktab va oilaning harakatlarini muvofiqlashtirish va birlashtirish.

Ota-onalar yig'ilishi maktab bilan otaonalar hamkorligida olib boriladigan asosiy bosqich. Ota – onalar yig'ilishi o'quv yili davomida 4-5 marta o'tkaziladi Yig'ilishda sinfnig o'quv tarbiya masalalari muhokama qilinadi.

Ota-onalar yig'ilishi quyidagi bosqichda bo'lishi mumkin:

- tashkillashtirilgan;
- oraliq;
- yakuniy;
- maktabning umumiy yig'ilishi.

Ota-onalar yig'ilishiga quyidagicha tayyorgarlik ko'riladi:

- Fan o'qituvchilaridan o'quvchilarning o'zlashtirish darajasi haqida to'plab borgan ma'lumotlari haqida umumiy hisobot tayyorlaydi.
- O'quvchilarning yutuqlari va kamchiliklari, qiziqishlari va takliflarni rejalashtiradi.
- Sinf xona toza va ozoda tayyorlangan bo'lishi kerak.
- Sinfda o'quvchilar ishlaridan namuna sifatida ko'rgazma tashkil qilish kerak.
- Ko'rik-tanlov, sport muqobaqalari va yutuqlarga erishgan o'quvchilarning ota-onalariga tashakkurnoma tayyorlash lozim.
- Ota-onalar yig'ilishini kundalikka yozmay, yoki og'zaki bayon qilmay, taklifnoma yozgan ma'qul.

Taklifnoma

Assalomu alaykum hurmatli ota-ona! Sizdan 28-mart shanba kuni soat 14.00 da maktabimizda o'tkaziladigan ota-onalar yig'ilishiga kelishingizni iltimos qilaman. Siz farzandingizni juda yaxshi ko'rasiz va albatta, kelasiz deb ishonch bildiraman.

Sinf rahbari: M.Sabirova

Ota-onalar yig'ilishini o'tkazish qoidasi

- eng muhimi, ota-onalarda farzandini ishonib topshiradigan eng munosib nomzod ekanligingiz haqida xulosa qoldirishingiz kerak;
- ota-onalarga qo'pol munosabatda bo'lmaslik kerak;
- ota-onalar yig'ilishida foydali maslahatlar berilishi kerak;
- sinf rahbarining ota-onalar bilan o'zaro muloqoti samimiy va mustahkam bo'lishi kerak;
- yig'ilish o'tkazish vaqti aniq bo'lishi kerak;
- yig'ilish ota-onalar vaqtini hisobga olgan holda o'tkazilishi kerak;
- ota-onalar uchun yig'ilish mavzusi dolzarb bo'lishi kerak.

Sinf rahbariga maslahat:

1. Ota-onalar yig'ilishini yaxshi kayfiyat bilan boshlang!
2. Yig'ilish 1-1.5 soatdan oshmasin.
3. Ota-ona ismi, familiyasi yozilgan ro'yxat stol ustida tursin, ismi familiyasi bilan yo'qlama qiling

4. Ko‘riladigan masalalarni yig‘ilish boshlanishidan oldin doskaga yozib qo‘ying
5. Avval yutuqlar, keyin kamchiliklar haqida gapiring
6. Vaqt ajratib kelgan ota-onalarga minnatdorchilik bildiring, kelmaganlarni hammani oldida.

So‘rovnoma (Sizning farzandingiz)

1. Farzandlaringizning o‘ziga xos odatlari va fazilatlarini yozing.
2. Farzandingizning qaysi xislati jamoada o‘zini erkin tutishiga halaqit beradi?
3. Farzandingiz uyda o‘zini qanday tutadi?
4. Oilada farzandingizga qanday mehnat turlari yuklatilgan?
5. Farzandingizning yaxshi o‘qishi va sinfdoshlari orasida o‘z o‘rnini topishi uchun sinf rahbari tomonidan qanday yordam va e‘tibor lozim deb o‘ylaysiz?
6. Farzandingizning qaysi fanlarga qiziqishi yuqori?

OTA-ONALAR UCHUN TAVSIYALAR

1. Bolangiz xuddi sizday bo‘lishini yoki siz xohlaganday odam bo‘lishini kutmang. Siz unga o‘zi bo‘lishiga ko‘maklashing.
2. Bolangizdan men seni dunyoga keltirdim, falon-falon ishlarni sen uchun qildim, menga qaytarishing kerak demang. U ham boshqalarni dunyoga keltiradi, ularga qaytaradi.
3. Bolangizni noxush muhitda o‘stirmang. Ertaga u ham shuni takrorlaydi.
4. Bolaning muammolariga bepisand bo‘lmang. U siz emas. Sizdagi tajriba unda hali yo‘q.
5. Bolangizni kamsitmang, yerga uremang.
6. Bolalar faqat biz ularni tarbiyalashimiz uchun emas, bizlarni tarbiyalash uchun ham tug‘ilishadi. U yaxshi odam bo‘lishi uchun, avvalo, siz yaxshi odam bo‘ling, ya‘ni tarbiyalovchining o‘zi tarbiyalangan bo‘lishi kerak.

2. Ota-onalarga pedagogik bilim berish.

Inson kamoloti shunchalik murakkabki unga hayotiy tajriba yetarli emas uning uchun o‘rganish, bilim, o‘qish nihoyatda zarurdir. K.D.Ushinskiy «Ijtimoiy tarbiyada xalq ruhi» hamda «Pedagogik adabiyot orasida»gi risolalarida Ota-ona uchun pedagogik bilim dastlab pedagogik adabiyotlar o‘rganishdan boshlanadi. Bola tarbiyasidagi

bilim xalq ruhi bilan sugʻorilgan-xalqchilik gʻoyasiga asoslangandagina ota-ona bilimdon tarbiyachilik sanʼatiga ega boʻla oladilar», – deyilgan.

Pedagogik bilim ota-onalar uchun nihoyatda zarur. Bu bilim maktabda, mahallada va kundalik axborot vositalari orqali berib boriladi. Lekin hayotimizdagi yangi-yangi muammolar pedagogik bilimni yanada kuchaytirishni, chuqurlashtirishni talab etadi.

Maktabdagi pedagogik bilim turli shakllarda amalga oshiriladi:

Pedagogik maʼruza, ilmiy, metodik kengash.

«Savollaringizga javob beramiz» (ota-onalar kuni).

3. Ota-onalar uchun maʼruzalar tashkil etishning shakllari.

Ota-onalar uchun maʼruzalar tashkil etishning shakllari.

Maʼruza ota-onalarga pedagogik bilim beradigan turlardan biridir. Ota-onalar uchun moʻljallangan maʼruza taʼlimi-tarbiyaviy ahamiyatga ega boʻlishi kerak.

Ota-onalar uchun pedagogik bilim beradigan maʼruzalar mavzulari:

- milliy istiqlol mafkurasini shakllantirish va barkamol inson tarbiyasida ota-onalar oʻrni.
- oilada iqtisodiy tarbiya.
- maʼnaviy meros va oila.
- siz oʻtmish avlodlaringizni bilasizmi?

Oilada tarbiya masalalari.

- mutafakkirlar ijodiyotida oila tarbiyasi.
- farzand tarbiyasida xalqimiz qoʻllagan usullar.
- oiladagi adolat–toʻgʻri tarbiya asosidir.
- farzandingiz sahiy, muruvvatli boʻlsin desangiz?
- oilada iymon-eʼtiqod tarbiyasi.

Ota-onalar uchun tanlangan mavzular quyidagicha rejalashtiriladi.

Mavzu: «Maʼnaviy meros va oila».

Maqsad: Ota-onalarga oʻtmish merosimizdan bolani oilada tarbiyalash haqidagi mutafakkir va maʼrifaparvarlar asarlaridagi taʼlimotlar haqida bilim berish.

Maʼruzani taʼminlovchi manbalar:

a) Oʻtmish maʼrifatparvar va mutafakkirlarning asarlari (Abu Ali Ibn Sinoning «Tadbir al-manozil», Alisher Navoiyning «Mahbub-ul

qulub», Voiz Koshifiyning «Axloqiy Muxsiniy» asarlaridagi oila tarbiyasidagi g'oyalar.

b) Ko'rgazmalar-allomalarning rasmlari va kitob namunalari.

v) Didaktik materiallar, dono so'zlar yozilgan kartochkalar, faktlar.

Ma'ruzaning kirish qismi. Mustaqillik va milliy istiqlol mafkurasi hamda milliy meros haqida tushuncha. Bu boradagi O'zbekiston rahbariyatining olib borayotgan siyosati.

Ma'ruzaning asosiy qismi. Abu Ali Ibn Sino, Alisher Navoiy va Voiz Koshifiylarning asarlaridagi davomiylik g'oyalarining bir-biri bilan bog'langanligi, asarlarning yaratilishi haqida ma'lumot beriladi. So'ngra asardagi oila, ota-onaning hurmat, vazifa, burchlari haqidagi ma'lumotlar. Oilada ayol va erkak fazilatlari qanday qilib farzand burchini anglatishi muammolari. Axloq-odob tarbiyasidagi dono fikrlar, rivoyat, hikoya, tanbehlar orqali asoslab, tushuntirib maktab hayoti bilan bog'lanadi.

Ma'ruzaning yakuniy qismi. Milliy merosimizdan qanday foydalanishga doir metodik ko'rsatma va tavsiyalar beriladi.

Maktabda «Ota-onalar kunini» tashkil qilish pedagogik bilim berish turlaridan biridir. Ota-onalarni maktabga ma'lum kunda taklif etib turli o'quv-tarbiya ishlaridan xabardor qilish an'anaviy ahamiyatga ega bo'lib, u «Maktabda ota-onalar kuni» yoki «Ochiq eshik»lar kuni deyiladi.

Bu kundagi ish tartibi quyidagicha bo'lishi mumkin:

1. Pedagogik maslahat burchagani tashkil etish.
2. Bolalar ijodiyotidan kurgazmalar uyushtirish.
3. Ochiq darslarga ota-onalarni taklif qilish.
4. Tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etish.
5. Ota-onalar uchun konsert dasturini namoyish etish.

Yuqoridagi ota-ona va maktab hamkorligidagi ishlar metodik jihatdan to'g'ri tashkil etilsa ijobiy natija beradi.

Ota-onalar uchun ma'ruzalar tashkil etishning shakllari turlicha bo'lishi mumkin. Ularning har biri ma'ruza o'tkazishning aniq maqsadiga, auditoriyaning ehtiyojlariga va mavjud resurslarga bog'liq ravishda tanlanadi. Quyida ota-onalar uchun ma'ruzalar tashkil etishning ba'zi asosiy shakllarini ko'rib chiqamiz:

1. Seminarlar va treninglar. Ota-onalarga ta'lim berish va ular bilan muloqot qilishning samarali shakli — seminarlar va treninglar. Bu

shaklda ma'ruzachilar o'z bilim va tajribalarini ota-onalarga taqdim etadilar, savollar va muhokamalar orqali ularning ishtirokini ta'minlaydilar.

Maqsad: Ota-onalar o'z farzandlari tarbiyasi haqida yangi bilimlar olishlari.

Shakli: Ta'lim, trening va amaliy mashg'ulotlar.

Afzalliklar: Ishtirokchilarning faolligini oshirish, muammolarni yechish va qo'llab-quvvatlash.

2. Ma'ruzalar va ma'ruza-diskussiyalar. Bu shaklda ma'ruzachilar, odatda, o'z tajribalarini va bilimlarini bitta mavzu bo'yicha taqdim etadilar. Keyin ota-onalar bilan muloqot qilish va fikr almashish uchun diskussiya tashkil etiladi.

Maqsad: Mavzu bo'yicha chuqur bilim berish, ota-onalar bilan fikr almashish.

Shakli: Nazariy ta'lim, so'ngra savol-javoblar, munozara va maslahatlar.

Afzalliklar: Ma'ruzachining mutaxassisligi va mavzu bo'yicha batafsil tushuncha berish imkoniyati.

3. Vebinarlar va onlayn ma'ruzalar. Texnologiyalarni hisobga olgan holda, ota-onalar uchun onlayn ma'ruzalar va vebinarlar ham samarali bo'lishi mumkin. Bu shakl odatda masofaviy ishtirokni ta'minlaydi.

Maqsad: Ota-onalar uchun qulay, vaqtni tejaydigan ta'lim shakli.

Shakli: Zoom, Google Meet yoki boshqa platformalarda onlayn ma'ruzalar.

Afzalliklar: Keng auditoriya, geografik cheklovlarni yo'qotish.

4. Panel muhokamalari. Bir nechta mutaxassislar yoki ota-onalar uchun amaliy tajriba almashish uchun panel muhokamalari tashkil etilishi mumkin. Bu shaklda har bir ishtirokchi o'z fikrlarini taqdim etadi va so'ngra umumiy savollar bo'yicha munozara o'tkaziladi.

Maqsad: Bir nechta mutaxassislarning fikrlarini bir joyda jamlash.

Shakli: Panelda bir nechta ekspertlar o'z fikrlarini taqdim etadilar va keyin umumiy diskussiya o'tkaziladi.

Afzalliklar: Turli nuqtai nazarlarni ko‘rish va mavzuni har tomonlama o‘rganish.

5. Interaktiv sessiyalar. Bu shaklda ota-onalar faqat tinglovchi sifatida emas, balki faol ishtirokchilar sifatida qatnashadilar. Taqdimot yoki ma’ruza davomida turli interaktiv mashg‘ulotlar, guruh ishlari, brainstorming va boshqa usullar ishlatiladi.

Maqsad: Ota-onalarni faol ishtirokchiga aylantirish va o‘zaro tajriba almashish.

Shakli: Guruh ishlari, interaktiv o‘yinlar va vazifalar.

Afzalliklar: Ota-onalarning o‘zaro aloqalarini mustahkamlash, faol ishtirokni ta’minlash.

6. Bitta mavzudagi maruzalar. Agar ma’ruza biror bir aniq mavzu bo‘yicha bo‘lsa, masalan, farzandlar bilan muloqot qilish, bolalar tarbiyasidagi yangi yondoshuvlar, onalar uchun psixologik maslahatlar va boshqalar, bu holda faqatgina shu mavzuga e’tibor qaratiladi.

Maqsad: Mavzuni chuqur o‘rganish va ma’lumotlarni aniq tarzda taqdim etish.

Shakli: Biror muayyan mavzu bo‘yicha taqdimot va savollar bilan yakunlanadi.

Afzalliklar: Spetsifik mavzularni chuqur tahlil qilish.

7. Konsultatsiya va individual yondashuv. Ba’zan ota-onalar guruhli ma’ruzadan ko‘ra, individual maslahat va konsultatsiyaga muhtoj bo‘lishi mumkin. Bunday holda, maxsus va kichik guruhlar uchun ma’ruzalar tashkil etilishi mumkin.

Maqsad: Ota-onalarga aniq muammolar bo‘yicha yordam berish.

Shakli: Individual yoki kichik guruh bo‘lib konsultatsiyalar o‘tkazish.

Afzalliklar: Ota-onalarning shaxsiy ehtiyojlariga qarab maslahatlar berish.

8. Tadbirlar va ko‘rgazmalar. Ota-onalar uchun maxsus ko‘rgazmalar, interaktiv dasturlar va turli tadbirlar ham tashkil etilishi mumkin. Bu shaklda ota-onalar ma’lum bir mavzuga oid amaliy ko‘nikmalarni o‘rganadilar.

Maqsad: Ota-onalar uchun interaktiv va amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish.

Shakli: Ko‘rgazmalar, amaliy mashg‘ulotlar.

Afzalliklar: Ko‘rish va sinash orqali bilim olish.

Ota-onalar uchun ma‘ruzalar tashkil etishda ularning ehtiyojlari, qiziqishlari va vaqt jihatidan qulayligi hisobga olinishi lozim. Har bir shaklning o‘ziga xos afzalliklari mavjud va ularni mos ravishda tanlash maqsadga muvofiqdir.

4. Oilada tarbiya masalalari.

Farzandlarimiz ongida elu yurtga, Vatanga muhabbat tuyg‘ulari oilada, yashab turgan mahallada shakllanadi. Mamlakatning ertangi kuni, tinch va obod bo‘lishi eng oldin mana shu kichik jamiyatda o‘lib unayotgan bolalarimizga bog‘liq. Qaysi oilada, qaysi mahallada tarbiya yaxshi yo‘lga qo‘yilar ekan, o‘sha oila, o‘sha mahalla gullab-yashnaydi.

Farzand tarbiyasini qachondan boshlamoq kerak?, degan savol ko‘pchilikni o‘ylantiradi. Ko‘pchilik olimlar unga turlicha javob berib kelganlar. Xususan, Ibn Sino bola tarbiyasi bilan uning tug‘ilishidan avvalroq, ona qornidan boshlaboq shug‘ullanish lozim, deb javob bergan. Oila, odob-axloq va ta‘lim-tarbiyaga e‘tibor qon-qonimizga singib ketgan burchlarimizdandir. “Bir bolaga yetti qo‘shni ota-ona” degan ibratli maqol ham aynan xalqimizga xos. Mana shu maqolning o‘zi ham farzand tarbiyasi, oilaparvarlik biz uchun nechog‘lik muhim ekanini bildiradi. Mahalla ahli, ayniqsa keksalar ko‘chada nobop ish qilayotgan bola oldidan hech qachon beparvo o‘tib ketmagan, shu zahotiyoq tanbeh berib to‘g‘ri yo‘lga chaqirgan. Zero, har tomonlama chiroyli, odobli, go‘zal xulqli bo‘lish, nafsni poklashga buyuruvchi muqaddas dinimiz oilaga katta ahamiyat beradi.

Oiladagi muhit ota-ona o‘z ma‘suliyatlarini his qilishi bilan barqaror bo‘ladi. Bolalarning odobli bo‘lib ulg‘ayishi uchun ota-ona bilan bir qatorda mahalla-kuy ham katta ibrat maktabidir. “Qush uyasida ko‘rganini qiladi”, deb bejiz aytmagan xalqimiz. Farzand tarbiyalayotgan ota-ona har bir harakati, yurish turishi, muomalasi, boshqalar bilan o‘zaro munosabatida olijanob fazilatlarini namoyon eta bilishi kerak. Chunki bola tabiatan nihoyatda taqlidchan va kuzatuvchan bo‘ladi. Shuning uchun uning atrofdagilari o‘z odatlari bilan ba‘zan o‘zlari sezmagan holda ularga ta‘sir qiladilar.

Oiladagi qo‘pol munosabatlar, ko‘p yolg‘on gapirish, yoqimsiz xatti-harakat bola tarbiyasiga salbiy ta‘sir qiladigan nosog‘lom muhitni keltirib chiqaradi. Farzand tarbiyasida ota-onaning muomalasi muhim

o‘rin tutadi. Bola ota-ona tomonidan qo‘pol, dag‘al so‘zlar eshitib, kaltak yeb katta bo‘lsa, bu uning tabiatiga salbiy ta‘sir qiladi. Bu esa o‘z navbatida oiladagi nosog‘lom muhitda tarbiyalanayotgan boladan “ma‘naviy kasal” insonlar shakllanadi. Ular esa jamiyat ma‘naviyatiga ham salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Oilada ota-onalar “ommaviy madaniyat” ta‘siriga berilib ketishi oqibatida farzandlarning tarbiyasiga ham salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda.

Istiqlol tufayli xalqimiz chet-el yurtlarini kezib, yangi xalq va urf-odatlarini guvohi bo‘lib qaytmoqdalar. Shu jumladan Yevropa davlatlariga sayr qilib kelayotgan fuqarolarimiz bugungi kunda g‘arb o‘smirlari orasida boshqa mamlakatlar yoshlariga qaraganda uyushgan jinoyatchilik va zo‘ravonlikka berilish holati yuqori. Bunga sabab bolalarga keragidan ortiq erkinlik berilgani ekan. Ularni hozirdan ayshishratga berilib, turli axloqsiz hatti-harakatlarga ruju qo‘yishdan hech kim qaytarmasligini aytib berishmoqda.

Inson hayoti davomida biror shaxsni o‘ziga o‘rnak deb biladi, bundan inson u kabi hayot kechirishni, u erishgan yutuqlar kabi muvaffaqiyatlarga erishishni, yuksak cho‘qqilarga chiqishni ko‘zlaydi. Bugun jamiyatning yosh a‘zolari o‘z hayotlari uchun boshqa madaniyat vakillarining fikrlash va hayot tarzini o‘rnak qilib olishlari ko‘p muammolarni keltirib chiqarmoqda.

XXI asrda turli hayot tarzlari va g‘oyalar raqobatga kirishdi. Bunda muvaffaqiyatga erishish uchun har bir davlat o‘zligini saqlagan holda diniy va milliy qadriyatlarini boshqalarga anglatishni asos qilgan mafkuraga ega bo‘lishi lozim. Aks holda, o‘zlikni yo‘qotish, bebaho qadriyatlardan voz kechish kishini taraqqiyotdan ajratib, uni tobe, mustaqil fikri yo‘q manqurtga aylantirib qo‘yadi. Hozirgi kunda g‘arazli maqsadlarni amalga oshirish uchun zimdan olib borilayotgan fitnalar ba‘zi millatlarning o‘zligini yo‘qotishga qaratilganini sezish mumkin. Bunda e‘tibor xududlarini egallash emas, balki inson ongini egallashga yo‘naltirilgan.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev “Zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega, mamlakatning munosib kelajagi uchun javobgarlikni o‘z zimmasiga ola biladigan barkamol, maqsadga intiluvchan va serg‘ayrat yoshlarni tarbiyalash mamlakatni barqaror va ildam rivojlantirishning eng muhim shartidir”— degan edi. Oilaning muhim vazifalaridan yana biri-tarbiyadir. Oila-tarbiya maskani. Aynan shu maskanda dunyoga kelgan farzand ota-onadan nafaqat irsiy

xususiyatlarni oladi, balki ulardagi xatti harakat, axloq-odob qoidalarini ham egallab boradi. Ota-ona o'rtasidagi o'zaro hurmat, mehr-oqibat, halollik, poklik, mehnatsevarlik, insonparvarlik kabi oliy darajadagi qadriyatlar ona suti, oila a'zolari mehri va namunasi bilan bola xulqi, xatti-harakati mazmuniga singib boradi. «Qush uyasida ko'rganini qiladi», degan purhikmat so'zlar oila tarbiyasining negizini tashkil etadi. Bolaning aqliy, axloqiy, estetik, iqtisodiy, ekologik, jismoniy, ma'naviy, gigiyenik, jinsiy tarbiyasida oila asosiy omil va vosita hisoblanadi. Bu o'rinda ota-ona-san'atkor, bola-san'at asari, tarbiya jarayoni esa san'atning o'zidir. San'at asarining muvaffaqiyati, jozibadorligi, umrboqiyliigi san'atkorning mahorati, saviyasiga bog'liq. Ingliz olimi U.R. Bion kuzatishlarida onaning har bir harakati, mimikalari bolaning tepasida turib ona farzandga qiladigan muomalasi, erkalashlari bora-bora bola o'zlashtiradigan alohida iboralar, so'zlarda namoyon boladi. Video tasmlarda shu narsa namoyon bo'lganki, onaning qiliqlari tobora bolaning nutqli-nutqsiz, mantiqiy-mantiqsiz harakatlariga, ishoralariga aylanib boradi, keyinchalik bola alohida so'zlarni talaffuz qila boshlaganda ham beixtiyor onaning mimikalari, talaffuz uslublarni qaytaradi. Shu tariqa onaning bevosita ishtiroki va yordamida bola dunyoni taniydi, o'rganadi.

Tarbiya bir necha uslubda olib boriladi. Bola aqlan rivojlanishi uchun unga turli kitoblar o'qib beriladi, rivoyat va ibratli hikoyatlar so'zlanadi yoki aql-zakovatini o'stiradigan o'yinlar, mashg'ulotlarga jalb qilinadi. Ruhiy tarbiyasini yaxshilash uchun hayot va o'lim, yaxshilik va yomonlik, axloq va odob kabi boqiy mavzularda sodda, bola ruhiyatiga mos suhbat va tushuntirish olib boriladi. Jismoniy tarbiya berish uchun esa biror foydali mehnatga jalb qilish, suzish, merganlik, chavandozlik, kabi mashg'ulotlarni o'rgatish mumkin. Sharq mutafakkirlari merosida ta'lim-tarbiya, xususan, oilaviy tarbiya masalalariga keng o'rin berilgan. Ular bolalarni tarbiyalashni jamiyat taqdirini, millatning kelajagini belgilaydigan asosiy mezon deb hisoblaganlar.

Buyuk vatandoshimiz Abu Ali ibn Sino yosh avlod tarbiyasining ibtidosi qanday va nimalar bilan bo'lishi haqida quyidagilarni aytgan edi: «Yosh bola boshlang'ich ta'lim va tilga doir qoidalarini yod olganidan keyin u mashg'ul bo'lishi mumkin bo'lgan kasbhunar va san'atga moyilligiga qarab, uni shunga yo'llaymiz. Agar u kotiblikni xohlasa, til, xat yozish, nutq so'zlash va odamlar bilan muomala qilish

kabilarga dalolat qilamiz. Albatta, bu o'rinda, bolaning mayli ahamiyatga ega» A.Fitrat o'zining "Oila" asarida farzand tarbiyasida badan tarbiya, aqliy tarbiya va axloqiy tarbiyaning o'rni muhimligini ta'kidlab ular haqida o'z qarashlarini yoritib o'tgan. A.Fitrat axloqiy tarbiya farzand tarbiyasida alohida o'rin egallashini keltirib o'tgan. U o'z asarida "O'zingiz xohlaganingizcha bolangizning aqliy va badan tarbiyasi bilan mashg'ul bo'lishingiz mumkin va qo'lingizdan kelguncha uni dono va baquvvat qiling. Lekin axloqiy tarbiya talab darajasida bo'lmasa, aqliy va jismoniy kuchini o'zi yoki atrofdagilar zarariga ishlatadi. Binobarin, bolaning aqliy va jismoniy tarbiyasi samarasiz qolmasligi uchun farzandning axloqiy tarbiyasi bilan jiddiy shug'ullanib ko'p harakat qilish lozimligini" ta'kidlaydi.

Sadiy Sheroziyning pedagogik qarashicha bola qobiliyatli va kamqobiliyatli bo'lishi mumkin. Qobiliyat o'z-o'zidan rivojlanmaydi. Uning rivojlanishi uchun bolani tarbiyalash kerak, tarbiya bo'lmasa, boladagi qobiliyat so'nadi, tarbiyani 3 asosiy - aqliy, nafosat va jismoniy mehnat tarbiyasiga bo'ladi. Adib bolani tarbiyalash vazifasini ularning ota-onalariga, ya'ni oilaviy tarbiyaga katta e'tibor beradi. Sadiy Sheroziy otaonalariga xarakterini hisobga olgan holda axloqiy tarbiyani bolaning yoshligidan boshlashni tavsiya etadi, xarakter shakllangach, bolaga nasihat ta'sir etmaydi.

Inson o'zligini anglashini ijtimoiy munosabatlar asosida ko'rishni orzu qilgan hazrat Alisher Navoiy buni aniq qilib shunday ifoda etgan edi: "Odami ersang demagil odami - Onikim yo'q xalq g'amidan g'ami". Ma'lumki, xar bir inson o'zligini anglash orqali o'z millatini anglash tomon rivojlanib boradi, chunki milliy o'z-o'zini anglash - kishilarni harakatga keltiruvchi ichki ma'naviy-ruhiy salohiyat hisoblanadi. Bu salohiyat halqaro darajadagi o'zlikni anglashga, o'z millatini, o'z madaniyatini va qadriyatlarni saqlab qolishga, ularni zamon sivilizatsiyasining ajralmas qismiga aylantirishga intilishini kuchaytiradi. Axloq ijtimoiy ong shakllaridan biri, ijtimoiy tartib-qoida bo'lib, bu tartib-qoidalar xatti-harakatni tartibga solish vazifasini bajaradi. Jumladan, axloq, adolat, saxovat, halovat, halollik, rostgo'ylik kabi tushunchalarni o'z ichiga oladi. U bizning kundalik ishlarimizga va ongimizga faol ta'sir ko'rsatib, jamiyat nomidan yaxshilik bilan yomonlik, zulm, adolat bilan adolatsizlik o'rtasidagi va insoniy munosabatlardagi maqbul va nomaqbul, man etilmaydigan va man etiladigan ishlarni, xatti-

harakatlarni belgilab beradi. Axloqiy tarbiya vazifalari quyidagilardan iborat:

- yosh avlodni jamiyatda qabul qilingan axloqiy me'yorlarga rioya qilishga o'rgatib borish;
- bolalarning hulqida ijobiy axloqiy odatlarni shakllantirish;
- o'quvchilarda vatanga muhabbat unga munosib farzand bo'lish, uning qadriyatlaridan faxrlanish hislarini tarkib toptirish;
- iymon va insof, so'z va ish birligi.

Insonparvarlik -jamiyatning asosiy xususiyatlari bo'lib jamiyat va xalq manfaati uning baxt-saodati uchun kurashish mas'uliyatini har bir fuqaro teran his etishi va unga amal qilishi lozim. Shaxsni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda quyidagi axloqiy me'yorlarga asoslanish kutilgan samarani beradi:

1.Shaxs irodasini shakllantirish. Iroda ichki his-tuyg'u, ammo muhim insoniy fazilatdir. Iroda kishida bilish, his qilish va chiniqish quvvatini hosil qiladi. Iroda vositasida shaxs olam va odamni, voqea va hodisalarni anglab yetadi, haqiqatni teran his qiladi, yaxshilik va yomonlik ta'sirida bardoshlilik ko'nikmasini hosil qiladi. "Shaxsda iroda o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi, balki u muayyan vaqt davomida shakllantiriladi. Faylasuf olim I.Saifnazarov o'z tadqiqotlarida ma'naviy barkamollikka erishish mumamosini tadqiq etar ekan, "...komillik uning ko'nglidagi, irodasidagi tabiiy intilishga asoslanishi kerak" deydi, demak, irodali shaxs jamiyatning ongli individi sifatida faoliyat ko'rsatadi, buning aksi bo'lgan irodasiz kishi esa ongsiz, mute va o'zgalarga qul sifatida shakllanadi. Inson ma'naviy-axloqiy jihatdan yuksalishi natijasida uning irodasi ham kuchayadi.

2.Shaxsni haqiqatgo'y qilib voyaga yetkazish. Haqiqatgo'ylik muhim axloqiy qadriyat sifatida shaxsning ma'naviy – axloqiy qiyofasida alohida o'rin tutadi. Haqiqatga intilish shaxsni jamiyatda o'z o'rnini topishiga yordam beradi. Shu ma'noda, haqiqatgo'ylik shaxs xarakterini shakllantiruvchi omillardan biridir.

3.Shaxsni insonparvar qilib voyaga yetkazish. Insonparvarlik shaxs faoliyatiga ta'sir ko'rsatuvchi va uni baholovchi muhim axloqiy tamoyillardan biri.

Shaxs o'z faoliyatida insonparvarlik fazilatini namoyon qilmas ekan, u jamiyatning ilg'or kishisiga aylana olmaydi. Zero, jamiyatimiz rivojining hozirgi bosqichida ma'naviy-axloqiy tarbiya muhim o'rin tutadi. Chunki jamiyatimiz demokratik qadriyatlarni qabul qilib borgan

sari uning a'zolarini "tarbiyalovchi" da'vogarlar ko'payib bormoqda. Bunday sharoitda ma'naviy-axloqiy tarbiya yo'nalishlarini aniq belgilab olish dolzarb masala hisoblanadi. Shu ma'noda, ma'naviy-axloqiy tarbiya quyidagi tamoyillarga asoslanadi: maqsadlilik, onglik, samaradorlik.

Bola maktabga kelgunga qadar oilada tarbiyalanadi. Ota-onalar bolalarining maktab-o'quv vazifalarini yaxshi bajarilishini ta'minlash uchun quyidagilarga rioya qilsalar maqsadga muvofiqdir:

- bolalarning darsga kech qolishlariga va sababsiz dars qoldirishlariga yo'l qo'ymaslik;

- ularning mashg'uloti uchun uyda qulay sharoit yaratish;

- bolalarning uy vazifalariga halollik bilan qarashga o'rgatish, ularning g'ayrat va chidamliligini oshirish;

- bolalarni vijdonli va rostgo'y bo'lishga, mustaqil ishlarga o'rgatish. Ayrim statistik ma'lumotlarga qaraganda, bugungi intensiv turmush tarzini kechirayotgan oilalarda ideal siymoga yaqin ota haftasiga farzandlari tarbiyasiga atigi 1,5 soat, ona - 4-5 soat, ish bilan mashg'ul deb qaraluvchi ota - 12 minut, ona - 3 soat vaqtini ajratar ekan. Bundan ko'rinib turibdiki, bu ajratilgan vaqt bolalarning barkamol shaxs sifatida qaror topishida yetarli emas. Ota-onalarning o'z farzandlarini tarbiyalash uslublarini farqlash mumkin: Giperproteksiya – ota-ona tomonidan bolaning barcha istak, tilak va ehtiyojlarini ko'r-ko'rona, tanqid va mulohazasiz qondirishga intilish; bolani har qanday qiyinchiliklar va to'siqlardan himoya qilish, ota-onalarning farzandlariga nisbatan haddan ziyod e'tibori bo'lib, bu ularning bola tarbiyasi uchun kuch, vaqt va e'tiborni ayamaliklarida namoyon bo'ladi. G'amxo'rlikdan ustun keladigan giperproteksiya – bunda erkalatishdan ko'ra otaona tomonidan bolasining har bir yurgan qadami va xatti-harakatini nazoratga olish orqali unga e'tibor berish nazarda tutiladi. Shuning uchun bu tarbiya uslubida turli xil ta'qiqalar, chegaralashlar ("u mumkin emas", "bu mumkin emas" qabilida) bisyor bo'ladi. O'ta kuchli axloqiy mas'uliyat – bunda ota-ona tomonidan bolaga nisbatan talablar darajasi yuqori bo'ladi, lekin uning asl xohish-istaklari, ehtiyojlari unchalik e'tiborga olinmaydi. Masalan, "sen to'ng'ichimizsan, ukalaringga sen qarashing kerak", degan ma'noda unga oiladagi kichik a'zolarga yoki kasallikka chalingan oila a'zosini parvarish qilish kabi mas'uliyatli va og'ir ishlar ham yuklanadi. Emotsional raddiya – bunda ota-ona bolasini shunday tarbiyalaydiki,

uning otaona hayotida u o'ziga yarasha tashvish, ortiqcha yuk ekanligi, u bo'lmaganida ota-onaning hayoti boshqachi bo'lishi muntazam ravishda eslatib turiladi. "Sening o'rningda o'g'il bo'lganda edi..." qabilidagi kesatqlar tez-tez aytib turiladi.

Qattiqqo'llik – bir qarashda emotsional rad etishga o'xshaydi, lekin undan ochiqroq va og'irroqdir. Qattiqqo'llik to'g'ridan-to'g'ri bolani yoshligidan kaltaklash, haqorat qilish, kamsitish shaklida yoki bola ehtiyojlariga to'la befarqlik, uning boryo'qligini go'yoki sezmaslik kabi ko'rinishlarda bo'lishi mumkin. A. Freyd nazariyasiga ko'ra, ana shunday jazoga hukm etilgan bola tobora agressiv bo'lib borib, o'zida alamni qaysidir bir ob'ektdan (o'zidan kichiklardan, begonalardan, hayvonlardan) olishga qasd qiladigan, qasoskor bo'lib o'sadi. Ma'lumotlarga ko'ra, Amerikada ko'cha bolalarining kamida 1%i oilada ayni shunday tarbiyaning qurbonidirlar. Komil insoni shaklanishida oilaning roli muhimligini e'tiborga olgan holda ota-onalar va boshqa oila a'zolari birdek harakat qilishlari zarur. Farzand tarbiya qilish davomida yuqorida sanab o'tilgan tarbiya uslublaridan foydalanishlari farzandlarining tarbiyasiga yomon ta'sir qilishini inobatga olishlari kerak. Shaxs tarbiyasini yoshga to'lgandan keyin emas balki ona qornidalik paytidan boshlash maqsadga muvofiqdir.

4. Ota-onalarning o'zaro munosabat tarbiyasi.

Farzandga yaxshi tarbiya berish ota-onaning asosiy mas'uliyatli vazifalaridan biridir. Bu borada ular har qadamda mas'uliyat bilan yondashmog'i lozim. Kelajakdagi yo'li ravon bo'lishini istagan har bir ota-onalar sarflaydigan vaqtini va harakatini ertaning buyuk insonlari bo'lgan farzandlarini ulg'aytirish uchun sarflashlari lozim. Farzand kamoloti uchun sarflangan har bir daqiqa ertangi farovon hayot uchun tamal toshi bo'ladi desak hech mubolag'a bo'lmaydi. Agar ota-ona vaqtida farzandiga e'tibor qaratmasa, uning kelajagi uchun qayg'urmasa, keyinchalik afsus – nadomat bilan yashashi muqarrar. Bu kelajakda muammolarni yuzaga chiqarishi mumkin. O'sha vaqtda esa muammolarni hal qilishga kech bo'lishi mumkin. Shunday ekan, farzandining taqdiri uchun e'tiborli bo'lib, uning xulqi, tarbiyasiga va ilm olishiga befarq bo'lmaslik lozim.

Xalqimizda "Qush uyasida ko'rganini qiladi" degan naql bejizga aytilmagan. Har bir ota-ona o'z farzandi uchun ko'zgudir. Ularning muomala va munosabati, o'zini tutishi farzandiga bo'lgan

e'tibori alohida ahamiyatga ega. Buyuk mutafakkir shoirimiz Alisher Navoiy farzand tarbiyasi xususida shunday deydi: "Yosh bolaga nisbatan eng zarur ish bilki, uni kichkinaligidan parvarish qilishdir. Qatrani sadaf tarbiya qilgani uchun odamlarning boshiga chiqib sharaf topdi. Tarbiyaning yana biri bo'laga ilm-u adab o'rgatish uchun muallim chaqirishdir. O'g'ling bilimsizligicha qolib ketsa, ajab kamchilik bo'ladi. Unga sening shafqat qilishing foydalidir, lekin buning ortiqchasi zarardir". Bu fikrlar orqali qattiqqo'llik va shafqatning me'yorda bo'lishini bilish mumkin.

Mirzo Ulug'bekning oila muhitini yaxshilash, sog'lom tarbiya berish haqida quyidagi qarashlari mavjud. Bolaning bilim olishiga bo'lgan qiziqish, havasini oshirishda u tarbiyalanayotgan muhit, ya'ni oila muhim o'rin egallaydi. Oilada ota-onalar bilimli bo'lishini, tarbiya berishda ota-onaning o'zi o'rnak va hayotiy misol bo'lishiga farzandi guvoh bo'lishi eng ko'p samara berishi ta'kidlangan.

Jadid adabiyotining namoyandasi Abdurauf Fitrat jamiyat rivoji va yurt ravnaqi farovonligida oilaning o'rni xususida fikr yuritib, "Oila" asarida shunday mulohazalar bildiradi: "Har bir millatning saodati va izzati, albatta, shu xalqning ichki intizomi va totuvligiga bog'liq. Tinchlik va totuvlik ana shu millat oilalarining intizomiga tayanadi. Qayerda oila munosabati kuchli intizomga tayansa, mamlakat va millat ham shuncha kuchli va muazzam bo'ladi".

Hozirgi kunda oila davrasida bilim olish va kitob o'qish borasida suhbat qilish, farzandining ilm olishi xususida suhbatlar kamayib bormoqda. Farzandlarning ham o'z vaqtini telefon bilan o'tkazishi keng tus olyapti. Bunda me'yordan oshib ketish holatlari ko'p uchramoqda. Farzandni kitob o'qishga bo'lgan muhabbatini oshirish uchun astoydil harakat qilinsa, bolada kitob o'qishga ko'nikma hosil bo'ladi. Bilim olishga bo'lgan intilish yanada kuchayadi.

Oilada bolaning muntazam kitob o'qishini rivojlantirish uchun ota-ona astoydil harakat qilmog'i lozim.

Sharq mutafakkirlari yetuk insonni yetishtirish uchun tarbiya naqadar zarurligi haqida so'z yuritganlar. Jumladan, Imom Buxoriyning "Al-Adab al-Mufrad", Kaykovusning "Qobusnoma", Shayx Sa'diyning "Guliston", Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarlarini misol qilib keltirish mumkin.

Bola tarbiyasida ota-onaning bir-biriga munosabati muhim sanaladi. Farzandning tarbiyasini faqat onaga tashlab qo'yish to'g'ri emas. Bu borada otaning ham o'rni beqiyosdir. Hayotda og'il ko'proq otaga qarab ergashadi. Otaning samimiyligi, hurmati va yaxshiligi farzandga kuch-quvvat bo'ladi. Oilaning asosiy tirgagi bo'lgan ota hayotning mashaqqatlarini kechib, o'zining bukulmas irodasi, adolatparvarligi, hayot sinovlariga bardoshlilik bilan ajralib turuvchi buyuk shaxs sifatida gavdalanadi. Ota oilada o'z farzandlariga yurish-turishda, nutq odobida, o'zaro muomala madaniyatida to'g'rilik, halollik, samimiylig yuzasidan namuna bo'la oladi. Oilada samimiylig, bir-biriga bo'lgan mehr va hurmat yuqori bo'lsa, farzandning o'sib ulg'ayishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Alisher Navoiy tarbiyaning yana bir ko'rinishi ota-onani hurmat qilish ekanligini farzandlarga uqtiradi: "Otang oldida boshingni fido qilib, onang boshi uchun butun jismingni sadaqa qilsang arziydi. Ikki dunyong obod bo'lishini istasang, shu ikki odam roziligini ol. Tun-u kuningga nur berib turganning birisini oy deb bil, ikkinchisini quyosh".

Oilada ma'naviy-ruhiy muhit, bola tarbiyasida g'oyat muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Oila sog'lom, yetuk farzandni ulg'aytirib kamol toptirishda mas'uldir. Farzandni sog'lom, yetuk, bilimli, shijoatli qilib voyaga yetkazish oilaga, ota-onaga bog'liqdir.

Psixolog olim I.Selivanov oilada shaxsni shakllantirish jarayonini o'rganib bahtli bolalik bu oilaning quvonchini hamjihatligini hamda ota onalarning bolalariga g'amho'rligining samarasidir degan hulosaga keladi. Oiladagi munosabatlarning buzilishi, bolaning psixologik rivojlanishiga oz ta'sirini o'tkazadi. G'arb mamlakatlarida o'tkazilayotga tadqiqotlar ko'pchilik ayollarda onalik ustanovkasini yo'qligi oilaviy munosabatlarning buzilishiga bola tarbiyasining o'qishiga va ajrimlariga sabab sifatida ko'rsatilgan. Ota ona farzandini yaxshi tarbiyalash uchun avvalo o'zlarini tarbiyalashlari lozim. Bolaning sog'lom oila muhitida ulg'ayishi va munosabatlardagi erkinlik uning kelajakda jamiyatimizga tezroq ijtimoiylashuviga va yaxshi moslashishiga yordam beradi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki oilaviy sog'lom muhitini shakllantirish iliq munosabatlarni yaratishda ayol kishining o'rni kata hisoblanad. Ushbu hulosalarga asoslanib quyidagi tavsiyalarni ishlab chiqsak eng avvalo ota ona farzandlari bilan doimo samimiy va ochiq munosabatni shakllantirishi lozim.

Farzandlari bilan doimiy muloqot olib borishi va hamfikir bo'lishi ota ona farzand o'rtasidagi tushunmovchiliklarning yuzaga kelishining oldini oladi. Tabiat qo'yniga tez tez oilaviy sayohatlarning tashkil qilinishi oilaviy salomatlikni saqlash va munosabatlarning yaqinlashishiga olib keladi. Oila a'zolari bilan birga bir dasturhonda yig'ilishi oilaviy birdamlikni va hamjihatlik ruhini shakllantiradi. Oilada bolaning fikri va qiziqishlaridan tinglash va maslahatgo'y bo'lish bolada ota onaga nisbatan norozi kayfiyatning paydo bo'lishini oldini oladi. Bolaning vaqtini to'g'ri taqsimlash va kitobga oshno qilish bolada dunyoqarashini o'stiradi. Inson shaxsini shakllantirish oiladan boshlanadi xususan bolaga iroda, odatlar, fe'l atvor, xulq atrofiga munosabat e'tiqod va qarashlar vujudga keladi. Shu bois turmushda insonni kamol toptirish imkoniyatini ta'sir ko'rsatish imkoniyatini izchil o'rganmay turib shaxsning hususiyatlari va ularni keltirib chiqaruvchi omillar to'g'risida fikr yuritish mumkin emas. Ma'lumki oila ijtimoiy tarixiy belgiga ega bo'lgan muayyan tuzilishi ijtimoiy guruhning ko'rinishi qarindosh urug'chilik, nikoh turmush sharoiti birligi, odob axloq umumiyliги ma'naviy ehtiyoj mosligi kabi aloqalar o'zaro bog'liq bo'ladi .

Oila murakkab ijtimoiy guruh bo'lib biologik ijtimoiy jihatdan axloqiy, mafkuraviy va ruhiy bo'lib munosabatlarning birlashuvi natijasida vujudga keladi. Shu sababdan turmushdagi va oila a'zolarini munosabatlardagi o'zgarishlar uning moddiy maishiy iqtisodiy negizi o'zgarishiga bevosita bog'liqdir. Oila a'zolarining o'zaro munosabatlarini tadqiq qilgan Vengriyalik sotsiolog M.Komlosi 10-14 yoshdagi maktab o'quvchilarini o'qishga va mehnatga bo'lgan munosabatlariga bevosita ta'sir qiluvchi oila muhiti omillarini 4 guruhga ajratgan

1. Ota onalarning jamoatchilik faoliyati.
2. Oila ichidagi munosabatlar.
3. Ota onalarning tarbiyaviy pedagogik faoliyati
4. Oilada o'quvchining faoliyati.

Selivanov oilalarni yo'nalishiga qarab uch toifaga mansub ekanini ko'rsatish usullarini ustuvor bo'lishini ham ta'kidlaydi. Rus psixologi Andrenkova esa ijtimoiylashuv jarayonini 2 katta bosqichga ajratgan. Individdning ijtimoiy mavjudot sifatida shakllanishini ta'minlovchi hayot bo'shlig'idir. U bolalikni o'z ichiga olib u inson hayotining qariyb 3 dan 1 qismini tashkil etadi. Bu

davrda asosan bolaning dastlabki ilk sotsializatsiyasi ya'ni bolalik davri boladi. Normativ xulqning o'zlashtirish davri bu o'smirlik davriga to'g'ri keladi. O'spirinlikdan balog'at yoshiga o'tish davrini o'z ichiga oladigan ijtimoiylashuv oqibati funksiyasi odamning o'zi nasl nasabi ma'naviy madaniy an'analari bo'lishiga intilishdan kelib chiqadi. Reproduktiv funksiya bu oilaning nafaqat avlodlar vorislarning yaratishga aloqador vazifasi shu orqali ota va ona bo'lishdek baxtga muyassar bo'lish davlatning esa tub aholi sonini muayyan miqdorda ushlab turishga ham xizmat qiladi. Ijtimoiy tarbiyaning asl ma'nosi ham vazifasi ham boladagi ijtimoiy faollikni oshirish orqali undagi ijobiy fazilatlarni kamol toptirishdir. Odatda oilada ijtimoiy faollikni oshirish bola irodasini chiniqtirish orqali amalga oshadi. Chunki ko'pincha ota-onalar bolalarining aqlli farosatli bo'lib yetishlariga e'tibor berib uning ruhiyatini hamda jismoniy quvvatini oshirishga irodasini mustahkamlashga e'tibor bo'ladilar. Buning oqibatida bola turmush so'qmoqlarida tez qoqiladigan, turli ijtimoiy vaziyatlarda qiyinchiliklarni yenga olmaydigan, ruhiyati mo'rt bo'lib qoladi. Shuning uchun ham oilaviy ijtimoiylashuvdan bolaning ijtimoiy bilimdonligi, ijtimoiy ko'nikmalari va ularni oshirishga qaratilgan chora tadbirlarga alohida urg'u beriladi. Mutaxassislar oilaviy sotsiolizatsiyaning boqichlari funksiyalarini tafovutlash bilan birgalikda uning har birida o'ziga xos ijtimoiylashuv berishini takidlab o'tishgan. Sibling maqomi tushunchasi bu ota ona va farzand munosabatlaridan tashqari keying o'rinda aka uka va opa singillik munosabatlariga alohida e'tibor qaratish lozim. Oilada farzandlar o'rtasida iliq munosabatlar bo'lishi ularning saqlanib qolishi oiladagi farzandlar mavqeyiga munosabat bildirish kerak. Oila bolada ilk ijtimoiy munosabatlarga kirishadigan maskani bo'lib unda bolaning ota onasi, aka ukasi, opa singlisi bilan bo'ladigan muloqotlari kuchli ta'sir qiluvchi omil hisoblanadi, bunga ko'pgina tadqiqotchilar ham shaxsning sibling maqomi uning shaxsiga, ota onalik maqomlariga, ularning do'stlar bilan munosabatlariga ta'sir etishini o'rganishgan.

Ota-onalarning o'zaro munosabat tarbiyasining asosiy jihatlar:

1. **Hurmat va o'zaro ishonch:** Ota-onalar o'rtasidagi munosabatda hurmat va ishonchni shakllantirish, bolaga sog'lom va barqaror oila muhiti yaratadi. Agar ota-onalar bir-birlarini

hurmat qilsa va ishonchli munosabatlarni o'rnatgan bo'lsa, bolalar ham bu qadriyatlarni o'rganib, o'zaro hurmatli va ishonchli munosabatlarga ega bo'lishadi.

2. **Xulq-atvor va etika:** Ota-onalar bir-birlariga qanday munosabatda bo'lishini ko'rsatganida, bolalar o'zlarining xulq-atvorini shunga ko'ra shakllantiradi. Har qanday ijobiy va salbiy holatlar oila a'zolari tomonidan birgalikda hal etilishi kerak. Bu jarayonda ota-onalarning o'zaro fikr almashishi va muammolarni birgalikda hal qilishga tayyorligi bolalar uchun ham muhim saboq bo'ladi.

3. **Birlikda vaqt o'tkazish va hamkorlik:** Ota-onalar o'rtasida muvofiqlik va hamkorlik bolalar tarbiyasida samarali natijalarga erishish uchun juda zarur. Birgalikda vaqt o'tkazish va muammolarni hamkorlikda hal qilish orqali bolalar ko'proq ijobiy tajribalar oladi. Bu holat ularning shaxsiy rivojlanishiga hamda oila ichidagi ijtimoiy munosabatlarga ta'sir qiladi.

4. **Vazifalarni taqsimlash va tenglik:** Ota-onalar o'rtasidagi vazifalarni teng taqsimlash muhimdir. Ota-onalar o'rtasidagi tenglik va burchlarni to'g'ri taqsimlash bolalar uchun adolat va tenglikni namoyish etadi. Bu, o'z navbatida, bolalarda ijtimoiy adolat, tenglik va mas'uliyat hissini rivojlantiradi.

5. **Pozitiv muloqot:** Ota-onalar bir-birlari bilan ochiq va samimiy muloqot qilishlari kerak. Pozitiv muloqot bolalar uchun yaxshi namuna bo'lib, ularning ham o'zaro munosabatlarini shakllantirishda yordam beradi. O'rnatilgan yaxshi muloqot bolalarda muloqot qilish va muammolarni hal qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

6. **Modellashtirish:** Ota-onalar o'z munosabatlarida bo'lgan holatlarni va qarorlarni bolalariga ko'rsatib, o'rnak bo'lishlari kerak. Ular bolalariga qanday turdagi munosabatlar, qanday muloqot qilish, qanday muammolarni hal qilishni o'rgatadi. Shuning uchun, ota-onalar o'rtasidagi munosabatlar bolalar uchun tarbiyaviy kuchga ega bo'ladi.

Ota-onalarning o'zaro munosabat tarbiyasi va uning bolalar tarbiyasidagi ahamiyati:

Bolalar uchun xavfsiz muhit yaratish: Sog'lom ota-onalar o'rtasidagi munosabatlar bolalarda xavfsizlik hissini yaratadi va ular o'zlarini ruhiy va emosional jihatdan yaxshi his qilishadi.

Oila ichidagi hissiy barqarorlik: Ota-onalar o'rtasidagi yaxshi munosabatlar oila ichida hissiy barqarorlikni saqlaydi va bu bolalarning rivojlanishiga yordam beradi.

Bolalarda hurmat va muomala o'rganish: Ota-onalar birbirlariga nisbatan hurmatli bo'lishsa, bolalar ham o'rganib, o'zaro hurmatli munosabatlarni rivojlantirishadi.

Shu bilan birga, o'zgaras munosabatlar va bir-birini tushunish, oila a'zolari o'rtasida halollik va ochiqlikni ta'minlaydi. Bu esa bolalarda ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishga, hayotda muvaffaqiyatli va baxtli bo'lishga yordam beradi.

Savol va topshiriqlar:

1. Ota-onalar bilan ishlashda eng samarali metodlar nimalardan iborat?
2. Ota-onalar bilan uchrashuvlarni qanday rejalashtirish va tashkil etish samarali?
3. Ota-onalar bilan muloqotda qanday ochiq va samarali usullarni qo'llash mumkin?
4. Ota-onalar bilan o'quvchilarning muvaffaqiyatlarini va muammolarini qanday muhokama qilish kerak?
5. Ota-onalar bilan muammolarni hal qilishda qanday yondashuvlarni qo'llash maqsadga muvofiq?
6. Ota-onalar bilan aloqani mustahkamlash uchun qanday ilg'or texnologiyalarni ishlatish mumkin?
7. Ota-onalar bilan ishlashda qanday psixologik yondashuvlardan foydalanish mumkin?
8. Ota-onalar bilan o'quvchilarni tarbiyalashda qanday hamkorlik aloqalari o'rnatish mumkin?
9. Ota-onalar bilan ishlashda qaysi holatlarda tushunmovchilik yoki qarama-qarshiliklar yuzaga kelishi mumkin va ularni qanday hal qilish mumkin?
10. Ota-onalar bilan o'quvchilarning jismoniy va ruhiy holatini qanday monitoring qilish va ularga qanday yordam ko'rsatish mumkin?

Test:

1. Ota-onalar bilan ishlashda qaysi metod eng samarali hisoblanadi?
 - a) elektron pochta orqali aloqalar;
 - b) shaxsiy uchrashuvlar;

- d) telefon orqali muloqot;
 - e) ijtimoiy tarmoqlar orqali aloqalar;
2. Ota-onalar bilan ishlashda ularning farzandlariga nisbatan qanday munosabatda bo'lish kerak?
- a) qattiq va qat'iy;
 - b) do'stona va tushunadigan;
 - d) yuzaki va rasmiy;
 - e) o'qituvchi tomonidan hukm chiqaruvchi;
3. Ota-onalar bilan muvaffaqiyatli aloqani qanday metodda amalga oshirish mumkin?
- a) yozma xat orqali faqat ma'lumot berish;
 - b) muntazam uchrashuvlar va ta'lim yangiliklarini ulashish;
 - d) o'quvchilarning baholari haqida doimiy xabar berish;
 - e) o'qituvchi bilan faqat telefon orqali bog'lanish;
4. Ota-onalar bilan qanday samarali uchrashuv formatini tanlashingiz kerak?
- a) shaxsiy uchrashuvlar, masalalar bilan tezkor muhokama qilish;
 - b) yig'ilishlar o'tkazish, barcha ota-onalar bir joyda;
 - d) faqat telefon orqali suhbatlashish;
 - e) rasmiy yig'ilishlar va ma'ruzalar;
5. Ota-onalar bilan ishlashda muhim ahamiyatga ega bo'lgan asosiy jihat nima?
- a) mavzularni faqat ta'lim bilan bog'lash;
 - b) ota-onalarga o'quvchilarning muvaffaqiyatlari haqida muntazam xabar berish;
 - d) ota-onalarning so'zlariga e'tibor bermaslik;
 - e) taqdirlash va tanqid qilish;
6. Ota-onalar bilan muloqotda qanday yondashuvni qo'llash zarur?
- a) yaltiroq so'zlar ishlatish;
 - b) ochiq va halol bo'lish;
 - d) ota-onalarni faqat rasmiy holatlarda kutish;
 - e) salbiy fikrlarni yashirish;
7. Ota-onalar bilan qanday psixologik maslahatlar o'tkazish mumkin?
- a) faqat ijobiy fikrlarni ularga etkazish;
 - b) ota-onalar bilan o'quvchilarning ruhiy holatiga oid psixologik maslahatlar o'tkazish;
 - d) farzandlarining o'quv jarayoni bo'yicha qattiq maslahatlar berish;
 - e) ota-onalarga faqat baholar haqida maslahatlar berish;

8. Ota-onalar bilan ishlashda elektron pochta qanday ishlatiladi?
- a) o'qituvchining shaxsiy fikrlarini ulashish;
 - b) ota-onalarga o'quvchilarning yutuqlarini va muvaffaqiyatlarini muntazam xabar qilish;
 - d) ota-onalarga o'quv dasturi bilan bog'liq tafsilotlar bermaslik;
 - e) ota-onalarga faqat o'quvchining baholari haqida ma'lumot yuborish;
9. Ota-onalar bilan ishlashda qaysi usulda ularga farzandlari haqida doimiy ma'lumot berish kerak?
- a) rasmiy yig'ilishlar va ma'ruzalar;
 - b) muntazam ravishda o'quvchilarning rivojlanishi haqida ma'lumotlar taqdim etish;
 - d) telefon orqali qisqa xabarlar yuborish;
 - e) ota-onalarni har doim jismoniy yutuqlar haqida xabardor qilish;
10. Ota-onalar bilan ishlashda muammolar yuzaga kelganda qanday yondashuvni tanlaysiz?
- a) ota-onalar bilan faqat rasmiy qarorlar chiqarish;
 - b) ota-onalar bilan konstruktiv munozara olib borish, muammo yechimini birgalikda topish;
 - d) muammo yuzaga kelganda o'qituvchining o'z fikrini to'g'ridan-to'g'ri va o'qimagan holda aytish;
 - e) Ota-onalar bilan hech qanday muammolarni muhokama qilmaslik.

“Ota-onalar bilan birgalikda bilimlar ko'rgazmasi” metodikasi

Bu metod ota-onalarni o'quvchilarning bilimlarini mustahkamlash jarayoniga to'g'ridan-to'g'ri jalb qilishni maqsad qiladi. Ota-onalar va o'quvchilar birgalikda o'quv materiallari yoki mavzulari asosida ko'rgazmalar yaratadilar, bu esa o'quvchilarga o'rganilgan materiallarni yanada chuqurroq tushunishga va mustahkamlashga yordam beradi.

MUNDARIJA

Soʻzboshi.....	3
I modul. Tarbiyaviy ishlar metodikasi ilmiy asoslari.....	5
1-mavzu. Tarbiyaviy ishlar metodikasi fanining maqsad va vazifalari.....	5
Tarbiyaviy ishlar metodikasi faniqiyidagi fanlar bilan aloqador.....	11
2-mavzu. Milliy tarbiyaning mazmuni va mohiyati.	41
3-mavzu. Tarbiya usullari va shakllari.	63
4-mavzu. Maktabdagi tarbiyaviy ishlar tizimida boshlangʻich sinf rahbarining faoliyati.....	94
5-mavzu. Boshlangʻich sinf rahbarining maktab jamoat tashkilotlari bilan olib boriladigan ishlar.....	122
6-mavzu. Boshlangʻich sinf rahbarining tarbiyalanuvchilar bilan muomala va muloqot.....	137
II modul. Boshlangʻich taʼlimda tarbiyaviy ishlar tizimida sinf rahbarining faoliyati.	159
7-mavzu. Boshlangʻich taʼlimda tarbiya jarayonini amalga oshirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish.....	159
8-mavzu. Boshlangʻich taʼlimda sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarning maqsadi va vazifalari.....	190
9-mavzu. Boshlangʻich taʼlimda sinf rahbari ishini rejalashtirish	198
10-mavzu. Boshlangʻich taʼlimda sinf tarbiyaviy saotlari haqida umumiy tushuncha.	226
11-mavzu. Boshlangʻich sinf rahbarining naʼmunaviy, yillik ish rejasini tuzish metodikasi.....	251
12-mavzu. Boshlangʻich sinf oʻquvchilarini dars jarayonida maʼnaviy-axloqiy sifatlarini rivojlantirish.	268
13-mavzu. Boshlangʻich sinfda jamoa haqida umumiy tushuncha. Jamoani tashkil etish metodikasi.	285
14-mavzu. Boshlangʻich sinfda sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishda maʼnaviy-maʼnaviy ishlar boʻyicha direktor oʻrinbosari oʻrinbosarining ish metodikasi. ..	303
15-mavzu. Boshlangʻich sinf oʻqituvchisi ota-onalar bilan ishlash metodikasi.	318

OTANAZAROVA MOHIRAHON HAMIDBEKOVNA

TARBIYAVIY ISHLAR METODIKASI

(O‘quv qo‘llanma)

<i>Muharrir:</i>	<i>A. Qalandarov</i>
<i>Texnik muharrir:</i>	<i>G. Samiyeva</i>
<i>Musahhih:</i>	<i>Sh. Qahhorov</i>
<i>Sahifalovchi:</i>	<i>M. Bafoyeva</i>

Nashriyot litsenziyasi AI № 178. 08.12.2010. Original-maketdan bosishga ruxsat etildi: 04.07.2025. Bichimi 60x84. Kegli 16 shponli. «Times New Roman» garn. Ofset bosma usulida bosildi. Ofset bosma qog‘ozi. Bosma tobog‘i 21,5. Adadi 100. Buyurtma №418.

“Sadriddin Salim Buxoriy” MCHJ
“Durdona” nashriyoti: Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko‘chasi, 11-uy.
Bahosi kelishilgan narxda.

“Sadriddin Salim Buxoriy” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel.: 0(365) 221-26-45